ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

5(1)
2026



ISSN 2181-6833
9 772181 683301

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2026-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 5

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 5, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 5, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	ABDULLAYEVA Jangil G‘afarovna	Migrant oilalardagi bolalarning tarbiyaviy psixologiyasi va ijtimoiy muammolari	8
	RASULOVA Iroda Mansurovna	Psixoanalitik nazariyada zo‘rovonlikka moyil xulq-atvor tahlili	12
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	ISMOILOVA Gulnoza Olimboy qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishning konseptual asoslari	17
	EGAMBERDIYEV Jamol Berdimurodovich	O‘spirinlarning o‘yin davomida tajovuzkor xatti-harakatlarini shakllantiruvchi psixologik va fiziologik omillar uzviyligi	23
	BOYMURODOV Bobir Elmurodovich	Talabalarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi	27
	MAMATQULOV Doniyor Anvarovich, BAHRIYEVA Gulhayo Nurillo qizi	Biologiya darslarida o‘quvchilarning diqqatini boshqarishning neyrodidaktik strategiyalari	32
	AVAZOVA Munisa Sharof qizi	Bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalari	38
	AKMALOVA Dildora Toxirovna	Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini refleksiv muhit va tashkiliy-boshqaruv texnologiyalari orqali shakllantirish	43
	ABDUNABIYEVA Lola Alisher qizi	Ilmiy bilish jarayonlarida metod va metodologiyaning uyg‘unligi	48
	ABDIYEVA Iroda Kenjeboyevna	O‘qituvchining empatik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	52
	BAXRONOVA Sayyora Botir qizi	Ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv kompetentligini takomillashtirish metodik muammo sifatida	56
	BURXONOVA Malika Ziyodulloyevna	Raqamli ta’lim sharoitida art dizayni asosida talabalarning texnologik tafakkurini rivojlantirish metodikasi	61
	BOYQUVATOVA Dilsuz Salim qizi	Shaxslararo munosabatda shaxs tiplarining ahamiyati	67
	DJANALIYEVA Gulbaxram Abdurashitovna, TRAKBAYEVA Gulnur Navruzbekovna	Pedagogik texnologiyalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati	72
	FOZILOVA Maxina Adashevna	Designing an extended methodological system for blended learning in teacher education	76
	ISAYEVA Umida Nigmatdjanovna	Developing critical listening skills through problem-based learning	82
	ISMOILOVA Dildora Qilichevna	O‘smirlarda emotsional intellektning namoyon bo‘lish shakllari	85
	KARIMOVA Shaxlo Yo'ldosh qizi	Kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta'lim makoniga aylantirish metodikasi	92
	KURBANOVA Mariyam Dilshot qizi	Bo‘lajak temir yo‘l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga andragogik yondashuv	96
	KUZIBAYEVA Mahfuza Mirzayevna	Talabalarda klinik fikrlash qobiliyatini takomillashtirish	100
	MARASULOVA Umida Norquziyevna,	Ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari tushunchasining pedagogik mohiyati	104

	QUDRATOVA Maftuna Komil qizi		
	MIRZOYOKUBOVA Nigoraxon Yo‘ldoshali qizi	Shaxsga yo‘naltirilgan pedogogik texnologiyalar asosida fonetik interferensiyani bartaraf etish	108
	NURMANOVA Maxfuza Urozovna	TExnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda pedagogikani vazifalari	113
	OYMATOVA Dilorom Ruzimurotovna	Emotsional intellekt bo‘yicha psixologik qarashlar hamda metodlar tahlili	117
	RAZAKOV Farxod Kuvondikovich	Oliy ta’limda talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillari va ularni bartaraf etish yo‘llari	123
	SADULLOYEVA Maxfuza Gaybulloyevna, SAMIYEVA Zarnigor Nazar qizi	Xorijiy tajriba asosida o‘smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olish va bartaraf etish yo‘llari	129
	SATTOROVA Zulayxo Ibroxim qizi	Oilaviy rollarni bajarishda gender ustanovkalarning o‘rni	133
	SAYIPOVA Dilobar Raximovna	Mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirishga qaratilgan topshiriqlar tarkibi	138
	NURMANOVA Maxfuza Urozovna	Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy tikuvchilik texnologiyalariga pedagogik yondashuv	143
	SHADIYEVA Nigora Sharipovna	Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	147
	SHERMATOVA Manzura Ikromjanovna	Deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning zamonaviy mexanizmlari	152
	SHOKIROVA Dilnoza Olimjon qizi	Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik ahamiyati	157
	TOSHQO‘ZIYEVA Dildora Shukurjon qizi	Psixologiya fanida o‘quv motivlarining o‘rganilishi bo‘yicha meta-tahlil	161
	SADULLOYEVA Maxfuza Gaybulloyevna, UBAYDULLAYEVA Xurshida Xolmurod qizi	9-11-sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy asoslari	166
	UMARALIYEVA Hilola Fazliddin qizi	Guruhiy hamkorlik va kommunikativ kompetentlikni psixologik tadqiq qilish	170
	UZOQOVA Yulduz Yusufovna	Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stress va emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining psixologik jihatlari	175
	XODJAYEVA Dilnovoz Djumoyevna	Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasining shakllanish mexanizmlari	179
	МАННАПОВА Наргиза Шакировна	Бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш	185
	KAMOLOVA Shirin Usarovna	Qiyin hayot vaziyatlarida talabalarning xulq-atvorining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari	189
	MARDIYEVA Shaxnoza Amirovna	Raqamli muhit sharoitida akademik prokrastinatsiyaning psixologik-pedagogik xususiyatlari va uni kamaytirish strategiyalari	194
	NAVRUZOVA Muyassar G‘aybullayevna, AVEZOVA Surayyo Mirg‘olibovna	O‘quvchilarning intellektual, ruhiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligining zamonaviy metodikasi xususida	199
	ABDURAHMONOVA Sadoqat Bektosh qizi	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari	204
	ORUNBAYEV Azamat	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarida ideal o‘qituvchi konsepsiyasi	208
	KALEKEEVA Tamara Turkmenbaevna, AREPOVA	O‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar	213

	Umida Saparbay qizi		
	ТУРАЕВА Набия Абдуллаевна, ТУРАЕВА Жахонгир Ферузшохович	Современное состояние проблемы обучения конструированию и анализу урока для будущих учителей	218
	MAXMUDOVA Nilufar Murotovna	Amaliy dars jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ kompetentlikning muhim jihatlari	223
	ДОНИЁРОВА Лайло Худайбердиевна	Развитие профессионально-методической компетентности студентов педагогических вузов средствами творческих технологий	227
	AMINOVA Dilnoza Qahramon qizi	Boshlang‘ich sinf o‘quvchi shaxsi, rivojlanishning asosiy qonuniyatlari, pedagogik qo‘llab-quvvatlash	231
	ЗОИРОВА Азиза Иргашевна	Инновационные подходы к формированию исследовательмской компетентности студентов средствами симуляционных технологий	235
	MAQSUDOVA Nodira Alijonovna	Oliy ta’limda maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda integrativ yondashuvni joriy etish metodikasi	239
	QAMBAROV Musoxon Muxtorjanovich	Bo’lajak o’qituvchilarda sinergetik kompetentsiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	245
	ERGASHEVA Sayyora Habibullayevna, ALIMOVA Ezozaxon Nematillayevna	“Flipped classroom” modeli orqali ingliz tili muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish	251
	ABDRASHITOVA Elena Vladimirovna	Pedagogik amaliyot modelining transformatsiyasi: passiv kuzatishdan kasbiy jarayonga chuqur kirib borish tendensiyasi	255
	AMANYO‘LOV Sindor Faxriddin o‘g‘li	Davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi: mazmuni va tuzilmasi	260
	SAIDQULOVA Gavhar Odiljon qizi	Oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari va pedagogik zarurati	266
	SAIDOVA Mushtariybonu Azamat qizi	Yoshlar orasida kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik	270
	BOBOKULOVA Moxinur Jamshid qizi	Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida interfaol metodlarni tashkil etish va foydalanish texnikasi	273
	NAZAROVA Gulshod Xodjievna	Sun’iy intellektning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishiga ta’siri	276
	SADIKOVA Firuza Safarovna	Sun’iy intellekt va interaktiv platformalar vositalari yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	280
	QARSHIYEVA Shaxnoza Toxirovna	Bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish	285
	AZIMOVA Osiyoxon Adxam qizi	Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konfliktologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	288
	ZIKIROVA Dildora Shuhrat qizi	Raqamli ta’lim muhiti – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida	292
	CHORIYEVA Zebiniso Odilovna	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik texnologiyalardan foydalanish jarayonining innovatsion shakllari	297
	RUSTAMOVA Barno Abduxalillovna	Emotional intelligence and professional success: theoretical and practical analysis	301
	XUDAYBERDIYEVA Marxabo Abdukaxorovna	O’smir yoshlar orasida oilaviy mutolaaning o‘rni	306

DOLZARB MAVZU

MIGRANT OILALARDAGI BOLALARNING TARBIYAVIY PSIXOLOGIYASI VA IJTIMOIY MUAMMOLARI

Abdullayeva Jangil G‘afarovna,
Xalqaro innovatsion universiteti
“Psixologiya va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi
abdullayeva1975@gmail.com

Mazkur maqolada migratsiya jarayonlari natijasida ota-onasidan ajralgan holda qolayotgan bolalarning tarbiyaviy psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlar tizimining buzilishi kabi muammolar tahlil etilgan.

Shuningdek, migratsiyasi natijasida bolalardagi xavfsizlik hissining pasayishi, emotsional bo‘shliq, agressivlik yoki tortinchoqlik, o‘qishdagi qiyinchiliklar va tarbiyaviy uyg‘unlikning buzilishi, oilaviy ajralish, ijtimoiy moslashuv hamda o‘smirlarning rivojlanish muammolari masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *migratsiya, mehnat migratsiyasi, tarbiyaviy ehtiyojlar, psixologiya, migrant oila, ijtimoiy moslashuv, bolalar psixologiyasi, tarbiya uslublari, bola xavfsizligi, iqtisodiy integrasiya, ijtimoiy hayot.*

ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕТЕЙ В СЕМЬЯХ МИГРАНТОВ

В данной статье анализируются проблемы педагогической психологии и нарушения социальных связей у детей, разлученных с родителями в результате миграционных процессов.

Также описываются вопросы снижения чувства безопасности у детей вследствие миграции, эмоциональной пустоты, агрессивности или застенчивости, трудностей в обучении и нарушения образовательной гармонии, разлуки с семьей, социальной адаптации и проблем развития подростков.

Ключевые слова: *миграция, трудовая миграция, образовательные потребности, психология, семья мигрантов, социальная адаптация, детская психология, стили воспитания, безопасность детей, экономическая интеграция, социальная жизнь.*

EDUCATIONAL PSYCHOLOGY AND SOCIAL PROBLEMS OF CHILDREN IN MIGRANT FAMILIES

This article analyzes the problems of educational psychology and disruption of social relationships in children who are separated from their parents as a result of migration processes.

Also, the issues of a decrease in the sense of security in children as a result of migration, emotional emptiness, aggressiveness or shyness, learning difficulties and disruption of educational harmony, family separation, social adaptation and developmental problems of adolescents are described.

Keywords: *migration, labor migration, educational needs, psychology, migrant family, social adaptation, child psychology, parenting styles, child safety, economic integration, social life.*

Кириш. Ma’lumki, pedagogika va psixologiya tadqiqotlarda bolaning ruhiy xususiyati, uning ri-vojlanishi va rivojlanishdan orqada qolish holati uzoq vaqtlardan buyon insonlarni tashvishga, haqli ravishda mushohada yuritishga olib keluvchi muammolardan biri sifatida pedagog-psixolog olimlar tomonidan e’tirof etilib kelinmoqda. Shuning uchun ham, har bir jamiyatda bolaning psixologik-ruhiy rivojlanishi, shaxs sifatida kamolga yetishida uni har tomonlama rivojlantiradigan tarbiya muhitining mavjud bo‘lishi, birinchidan milliy mentalitetning ustunligi, ikkinchidan, bolani fikrlashga o‘rgatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hayot muhitini yaratish, uchinchidan, bolaning ichki ruhiy mavjudlik imkoniyati bilan tashqi muhitning mos kelishi, to‘rtinchidan, bolada ma’lum bir sohaga bo‘lgan qobiliyatni o‘z vaqtida aniqlab, uni asta-sekin rivojlantirib borishga erishish va boshqalarni e’tiborga olish eng muhim vazifalardan biridir. Afsuski, bu vazifalar, imkoniyat va tarbiya muhiti ayrim oilalarda bola tarbiyasida kamchilik sifatida muammoli holatlar ko‘rinishida aks etmoqda. Bu kabi vaziyatlar, muammolar jamiyatimizda oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini

yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlarga ishlab kelish uchun ketgan bir qancha oilalarda salbiy holat, bola tarbiyasidagi ayrim muammolarning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Migratsiya jarayonida oilaning ichki muhitida yuzaga keladigan o‘zgarishlar, ota-ona va farzand o‘rtasidagi psixologik masofa, madaniy moslashuv jarayonining bolalar rivojlanishiga ta’siri, aqliy va psixologik o‘sishidagi salbiy holatlar nafaqat oilasi, balki jamiyatimiz hayotiga ham rahna solayotganligi kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda global miqyosda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar migratsiya jarayonlarining faollashuvi va ortib borayotganligiga guvoh bo‘layapmiz. Jumladan, ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlar aholisi ko‘pincha iqtisodiy sabablarga ko‘ra xorijga vaqtincha yoki doimiy yashash maqsadida ko‘chmoqda. Ushbu jarayon migrant oilalarning ichki tuzilmasi, ularning ijtimoiy munosabatlari, ayniqsa, farzand tarbiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 281milliondan ortiq inson yashash yoki ishlash maqsadida boshqa mamlakatga ko‘chgan. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Ayniqsa, keyingi yillarda o‘zbek oilalaridagi tarbiyaviyaviy qadriyatlar, urf-odatlar va oilaviy munosabatlar tizimidagi ayrim salbiy holatlar ham uchrab turibdi. Bu borada o‘zbek oilalaridagi ota-ona yoki qarindoshlarning chet ellarda ishlab ketishi, migratsiya munosabatlari natijasida oilaviy tizim, undagi milliy qadriyatlar mazmunida muammoli vaziyatlar jamiyatdagi salbiy holat sifatida o‘rganilmoqda. Migrant oila farzandlarining psixologik xususiyatlari mavzusi bugungi globallashuv sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki mehnat migratsiyasi yoki oilaning boshqa hududga ko‘chib o‘tishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik oqibatlarni ham keltirib chiqaradi [1].

Darhaqiqat, hozirgi zamon globallashuv jarayonlarining jadallashuvi oilaviy qadriyatlarning himoya qilinishini ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Jamiyatda zamonaviy tendensiyalar: iqtisodiy integrasiya, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining taraqqiy etishi, migratsiya jarayonining faollashuvi va global internet tarmog‘ining keng quloch yoyishi bilan oilaviy munosabatlar madaniyatining pasayishi va an’anaviy qadriyatlarga nisbatan oila a’zolarida yangicha munosabatning shakllanishiga ta’sir qilmoqda. Bu holat, mamlakatimiz aholisi orasida iqtisodiy imkoniyatlarni qidirgan kishilar uchun mehnat migratsiyasini muhim yo‘nalishga aylantirdi va minglab o‘zbek fuqarolari xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik ishlash maqsadida safarbar bo‘lmoqda. Ushbu mehnat migrantlarining tajribalari, kundalik hayoti, duch keladigan muammolari va muvaffaqiyatlari nafaqat ularning shaxsiy taqdiriga, oilaviy munosabatlariga, balki butun O‘zbekiston jamiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi ustuvor muammolarni o‘rganish va tahlil qilish O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan tarixchi, iqtisodchi va psixologik olimlarining tadqiqot ishlarida ham yaqqol aks etib, bu muammolarning umumiy xususiyatlari ilmiy izlanishlarda migrant oilalarda er-xotin munosabatlari va farzand tarbiyasi, ijtimoiy hayoti turli jihatdan tadqiq qilingan. Jumladan, Psixologiya fanlari nomzodi X.K.Karimov tomonidan “O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”, mavzusidagi, F.Y. Parmanov, psixologiya fanlari doktori Z.A.Rasulova, yuridik fanlari doktori N.J.Yusupova, pedagogika fanlari nomzodi Sh.A.Abdujalilova, psixologiya fanlari nomzodi A.T.Kadirovalarning tadqiqotlarida o‘zbek oilalarning inqirozli davrida er-xotin munosabatlaridagi salbiy holatlar ushbu izlanishlarda tahlil qilingan.

Bunday salbiy o‘zgarishlar qator ilmiy-tadqiqot manbalarida ham ta’kidlangan. Jumladan, L.A.Shaygerovaning fikricha, o‘z yurtidan ketgan inson o‘z-o‘ziga “Men kimman?” deb savol beradi. Ishlash uchun boshqa mamlakatga ketgan insondan farqli ravishda, majburiy ketgan mehnat migranti o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zligini topishida qiyin vaziyatda bo‘ladi deb ta’kidlab o‘tgan [2].

Natijalar. Mazkur ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar va tahliliy natijalarga e’tibor bersak, O‘zbekistondan ko‘chib o‘tgan va shu yerda 1 yildan 3 yilgacha davr mobaynida yashayotgan oilalarning 15-17 yoshdagi farzandlarida shaxs mansubligining shakllanishi yoki o‘zgarishi xususiyatlarini tadqiq etgan. O‘smir yoshidagi migrantlarning 67 foizi o‘z oilasining moddiy-iqtisodiy sharoitini qoniqarsiz deb baholaydi, umuman migratsiya vaziyatiga va tabiiy muhitning o‘zgarishiga nisbatan salbiy munosabatni bildiradi. Shuningdek, ularda umuman oilaning katta yoshdagi a’zolarining ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq qaroriga, tabiiy sharoitning, tevarak-atrofdagi insonlarning o‘zgarishiga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi. O‘smir bolalarda ichki oilaviy munosabatlar (ota-onasi bilan munosabatlar) xususiyatida oila boquvchisi – otaga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi [3].

Migratsiya jarayonida bolaning kamolatga erishuvida muhim tayanch omillar o‘zgaradi: bola tanish muhitdan ajraladi, tengdoshlar guruhi yangilanadi, maktab talablari va muloqot meyorlari boshqa bo‘lishi mumkin, ota-ona esa bandlik yoki masofa sababli tarbiyaviy ishtirokini qisqartiradi. Shuning uchun migrant oila farzandlarida moslashuv jarayoni oddiy ko‘rinadigan hayotiy o‘zgarishlardan ham chuqurroq kechib, ularning emotsional holati, o‘zini anglash, o‘qishga munosabat va xulq-atvorida turlicha psixologik belgilarni yuzaga chiqaradi. Globallashu jarayonida, 20-asrda urushlar migratsiyaga katta ta'sir ko‘rsatdi.

Migratsiya insoniyat taraqqiyotida va xalqlar o‘rtasida hududlarni qayta taqsimlashda muhim rol o‘ynadi. Migratsiya ham doimiy aholining, ham emigrantlarning turmush darajasiga, aholining demografik va ijtimoiy tuzilishiga, joylashuviga, etnografik tarkibining o‘zgarishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi.

O‘zbek mehnat migrantlarining xorijda orttirgan tajribalari bu mehnat madaniyati, kasbiy malaka, til va madaniyatlararo muloqot kabi sohalarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelsada, achinarli tomoni ularning oilaviy munosabatlarigi salbiy ta’sir, ya’ni ajrimlar, er-xotin munosabatlaridagi ziddiyatlar, farzandlar tarbiyasidagi xulqiy og‘ishlar kabi holatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Munozara. Ma’lumki, migratsiya amalga oshirmoqchi bo‘lgan shaxs yakka o‘zi bo‘lsa bunda o‘z-o‘ziga javobgarlik biroz oson kechadi. Voyaga yetgan fuqaro migratsiya turi va muddatini faqat o‘ziga qulayligiga qarab tanlashi mumkin. Ammo uylangan oilali migrantlar tanlovni amalga oshirgunlaricha farzandlari ehtiyojlarini hisobga olishga majburdirlar. Ayni vaqtda ota - onalar tomonidan amalga oshirilayotgan migratsiya jarayonida faqat otalar yoki ota - ona farzandlarini yaqinlariga tashlab migratsiyani amalga oshirayotganliklarini ko‘rish mumkin. Bu migratsiyani sabablarini turlicha izohlash mumkin. Jumladan, bolalarning yangi muhitga moslasha olmasligi, onani ish faoliyatini amalga oshirishida bolalarni to‘siq sifatida ko‘rilishi, bolalar ta’limining tashkil etilishidagi to‘siqlar va boshqa ko‘plab sabablarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Afsuski bolalarni erta yoshda onalar tarafidan tashlab migratsiyani amalga oshirilishi bu bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi ва тарбиявий психологиясиga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Biz bilamizki bola o‘z onasini faqat o‘ziga tegishli deb hisoblaydi. Aka-ukalari, opa-singillarini eng yaqin insonlar sifatida ko‘radi.

Onaning erta yoshdagi bolani tashlab migrantga aylanganini bola o‘ziga tegishli inson juda uzoqda ekanligini his qilishga majbur etadi. Bu bolalarda hissiy so‘lg‘inlikni keltirib chiqaradi. Aynan shu holat albatta barcha bolalarda bir xil ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Ammo temperament tipidan kelib chiqib bolalarda namoyon bo‘ladi. O‘tgan muddat davomidagi bolada yakka rivojlanish davrida bola o‘ziga xos xulosalar chiqaradi va oilaviy munosabatlar tizimida mehr-oqibat, o‘zaro hurmat munosabatlarida ham bo‘shliqlar yuzaga kela boshlaydi. Bundan tashqari migratsiya sharoitida qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni ham kuzatish mumkin, ya’ni migratsiya jarayoni nafaqat hududiy ko‘chish, balki madaniy, til, diniy va iqtisodiy muhitning o‘zgarishini ham anglatadi. Migrant oilalar ko‘pincha yangi madaniy kontekstda o‘z qadriyatlari va mezbon jamiyat qadriyatlari o‘rtasida muvozanat izlashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ayrim hollarda qadriyatlar tizimining zaiflashuvi, aralashuvi yoki mutlaqo o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, erkak va ayol rollariga bo‘lgan qarashlar, bolalarni tarbiyalashdagi uslublar, nikoh va ajrimga oid munosabatlar kabi qadriyatlardagi o‘zgaruvchanlik milliy tarbiyamizga to‘g‘ri kelmay qoladi. Shuningdek, migrant oilalarning farzandlari ko‘pincha ikki madaniyat o‘rtasida shakllanganligi uchun ayrim oila farzandlari milliy qadriyatlarini ham unutib quyadi va qon-qarindoshlik rishtalari, ota-onaga hurmat, ota-ona oldidagi burch va vazifalarini ado etish mas’uliyati susaya boradi.

Migrant oilalarda qadriyatlar o‘zgarishi, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, gender munosabatlari va jamiyatga integratsiya jarayonida sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Yangi madaniyatga moslashish ehtiyoji mavjud qadriyatlar bilan yangi qadriyatlar o‘rtasida ziddiyatli vaziyatlar keltirib chiqaradi, bu esa ba’zida psixologik zo‘riqishlar, oilaviy nizolar, ajrimlar va identitet inqirozlariga sabab bo‘lishi mumkin. Ota-onalarning uzoq vaqt davomida bolalaridan uzoqda bo‘lishi uyda qolgan bolalarga hissiy zarar yetkazib, ularning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu kabi muammolarni o‘rganish natijasida mazkur holatlarni chuqur tahlil qilish, migrant oilalar uchun maxsus moslashuv dasturlarini ishlab chiqish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, mana shu yo‘l bilan migrantlar nafaqat yangi jamiyatga samarali integratsiyalasha oladi, balki o‘z milliy va madaniy qadriyatlarini ham saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari migratsiya jarayoni ko‘pincha katta psixologik stressni keltirib chiqaradi.

Migrantlar yangi muhitda o‘zlarini begona his qilishi, til va madaniy to‘siqlar bilan kurashishi mumkin. Bu ularning qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar, ayniqsa, ota-onalarining yo‘qligida ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin. Bu ularning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishiga ta’sir qiladi [4]. Migratsiya sharoitidagi bolalarda esa ko‘pincha o‘zini ortiqcha mas‘uliyat yuklangan yoki aksincha, qadrsiz his qilish holatlari uchraydi. O‘zbekistonda bunday holat, ayniqsa, katta farzandlar orasida kuzatiladi: ular otaning o‘rnini bosishga majbur bo‘lishlari natijasida psixologik charchoqqa duch keladilar. Migratsiya sharoitida qoldirilgan bolalarning ehtiyojlari faqat oilaviy omillar bilan cheklanmaydi. Maktab muhiti, mahalla, do‘stlar, tengdoshlar guruhi ham ularning psixik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. BMTning UNICEF bilan birgalikda Samarqand viloyatida 2021-yilda o‘tkazgan tadqiqotida qoldirilgan bolalarning 37 foizi maktabdan tashqari ijtimoiy hayotda passivligi, 26 foizi esa tengdoshlar bosimiga tez berilishi ma‘lum qilingan. Bu esa pedagoglar va psixologlarning qo‘shimcha

e‘tiborini talab qiladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, ota-onaning mehnat migratsiyasida bo‘lishi nafaqat farzandlari bilan shaxslararo munosabatlariga salbiy ta’sir qilmoqda, balki bolalarning noto‘liq oilada tarbiyalanishi, ularni boshqa qarindoshlari qo‘lida qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bolalarning ota-onasi va yaqin qarindoshlari tomonidan e’tiborsiz qolib ketishi ularda hulq-atvorning buzilishi, xususan, deviant xulq-atvorning rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Demak, migrant oilalardagi bola tarbiyasi, uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mavjud muammolarni hal etish va tarbiya samaradorligini oshirish uchun ota-ona va bola o‘rtasidagi hissiy aloqani mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida masofaviy nazorat va rag‘bat tizimini yo‘lga qo‘yish, qarindoshlar va o‘qituvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maktab psixologlari va ijtimoiy xizmat xodimlari tomonidan muntazam monitoring olib borish, psixologik yordam ko‘rsatish va moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli dasturlar ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Migrant oila bolalarining ijtimoiy-psixologik rivojlanish holatlarini tahlil qilar ekanmiz, xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har qanday foydali jarayonning muammolari bo‘lishi tabiiy. Mehnat migratsiyasi natijasida “miya oqimi” – ya’ni malakali mutaxassislarning xorijga ketishi, ichki ishchi kuchi bozorida muvozanatsizlik, ijtimoiy ajralish kabi holatlar kuchaymoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun mamlakat ichkarisida ish o‘rinlarini ko‘paytirish, investitsiyalarni jalb etish, yoshlar uchun innovatsion imkoniyatlarni yaratish zarur. Migratsiyaga muqobil sifatida lokal rivojlanish strategiyasi, kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish, zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish asosiy yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun davlat siyosati, pedagogik tizim, oilaviy madaniyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jarayoniga oid mexanizmlarini har tomonlama takomillashtirish orqali bolalarning tarbiyaviy psixologiyasi va ularning shaxs sifatida rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Baxtiyorova S. (2019). Migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi. //Ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 66–72.

2. Шайгерова Л.А. Психология идентичности личности в ситуации вынужденной миграции: автореферат дис...кандидата психологических наук: 19.00.01/Моск.гос.ун-т им. М.В.Ломоносова. – Москва, 2002.

3. Антипов А.А. Развитие личностной идентичности у подростков из семей беженцев и переселенцев. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук, Москва, 2003 г.

4. Saipova M.L. Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarining psixologik rivojlanish xususiyatlari. Avtoreferat. Dissertatsiya, psixol fanlari dok. –T.,2022. –B.30-32.

PSIXOANALITIK NAZARIYADA ZO‘ROVONLIKKA MOYIL XULQ-ATVOR TAHLILI

Rasulova Iroda Mansurovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
rasulovairoda860504@gmail.com

Mazkur maqolada zo‘ravonlik hodisasining psixoanalitik asoslari, uning kelib chiqish sabablari va shaxs psixologiyasiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot psixodinamik yondashuv, klinik kuzatuv va mavjud psixologik tadqiqotlar tahlili asosida olib borilgan. Maqolada zo‘ravon xatti-harakatlarning shakllanishida bolalik davridagi travmatik tajribalar, emotsional rivojlanishdagi muammolar, ijtimoiy muhit va shaxs ichki ziddiyatlarining roli ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, agressiv xulq-atvorning psixodinamik mexanizmlari, affektiv holatlar va ichki psixologik himoya strategiyalari bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Natijada maqola zo‘ravonlikni individual psixologik va ijtimoiy kontekstda tushunish va klinik amaliyotda aniqlash imkonini beradi, shuningdek, shaxs rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvga ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *zo‘ravonlik, agressiv xulq-atvor, psixodinamika, affektiv holat, psixologik omillar, shaxs rivojlanishi, antisotsial xatti-harakatlar, emotsional buzilishlar, klinik tadqiqotlar.*

АНАЛИЗ СКЛОННОГО К НАСИЛИЮ ПОВЕДЕНИЯ В ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ

В данной статье научно анализируются психоаналитические основы насилия, его причины возникновения и влияние на психологию личности. Исследование проведено с использованием психодинамического подхода, клинических наблюдений и анализа существующих психологических исследований. В статье показана роль травматического опыта детства, проблем эмоционального развития, социального окружения и внутренних конфликтов личности в формировании насильственного поведения. Также рассматриваются психодинамические механизмы агрессивного поведения, связь с аффективными состояниями и психологическими защитными стратегиями. Результаты статьи позволяют понять насилие в индивидуальном психологическом и социальном контексте, а также его влияние на развитие личности и социальную адаптацию.

Ключевые слова: *насилие, агрессивное поведение, психодинамика, аффективные состояния, психологические факторы, развитие личности, антисоциальное поведение, эмоциональные расстройства, клинические исследования.*

AN ANALYSIS OF BEHAVIOR PRONE TO VIOLENCE WITHIN PSYCHOANALYTIC THEORY

This article scientifically analyzes the psychoanalytic foundations of violence, its origins, and its impact on personality psychology. The study was conducted using a psychodynamic approach, clinical observation, and analysis of existing psychological research. The article highlights the role of childhood traumatic experiences, emotional development difficulties, social environment, and internal personality conflicts in the formation of violent behavior. Furthermore, it examines the psychodynamic mechanisms of aggressive behavior, their connection with affective states, and psychological defense strategies. The findings provide a framework for understanding violence in an individual psychological and social context and illustrate its impact on personality development and social adaptation.

Keywords: *violence, aggressive behavior, psychodynamics, affective states, psychological factors, personality development, antisocial behavior, emotional disorders, clinical research.*

Kirish. Zamonaviy psixologiya va psixiatriya fanlarida zo‘ravonlik muammosi shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa sifatida o‘rganilmoqda. Zo‘ravonlik inson xulq-atvorining eng keskin shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat ijtimoiy muammolarni, balki shaxsning ichki psixologik ziddiyatlari va emotsional holatini ham aks ettiradi. Ayniqsa, bolalik va o‘smirlik davrida kuzatiladigan zo‘ravon xatti-harakatlar shaxs rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, ularning kelib chiqish sabablari va psixologik mexanizmlarini o‘rganish

dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Chunki zo‘rovonlik, avvalo, shaxsga hamda oilaviy munosabtalar tizimiga keskin ta’sir qiladi. Bu esa, ijtimoiy vaziyatga sezilarli zarar yetkazadi.

Psixologik tadqiqotlarda zo‘ravonlik turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar zo‘ravonlikni ma’lum psixiatrik tashxislar bilan bog‘lasalar, boshqa ilmiy qarashlarda u shaxsning emotsional holati, ijtimoiy tajribasi va psixologik himoya mexanizmlari bilan izohlanadi. Psixoanalitik yondashuvga ko‘ra, zo‘ravonlik ko‘pincha shaxsning chidab bo‘lmas affektiv holatlari, ichki ziddiyatlari yoki o‘zlikning parchalanish xavfi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda zo‘ravon harakat shaxs uchun emotsional zo‘riqishni kamaytirish yoki ichki psixologik muvozanatni saqlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda zo‘ravonlikning kelib chiqishi bolalik davridagi noxush tajribalar, ijtimoiy muhitning salbiy ta’siri hamda emotsional rivojlanishdagi muammolar bilan bog‘liqligi ham qayd etiladi. Ayniqsa, empatiya, emotsiyalarni anglash va boshqarish kabi ijtimoiy-kognitiv jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi agressiv va antisotsial xatti-harakatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, zo‘ravonlikning psixodinamik asoslari, uning etiologiyasi hamda shaxs rivojlanishidagi psixologik omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada zo‘ravonlikning psixodinamik xususiyatlari, uning kelib chiqish sabablari hamda shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq jihatlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Adabiyotlarda zo‘ravonlik tushunchasi ko‘pincha agressiya bilan aralashtirib yuboriladi. Biz zo‘ravonlikni quyidagicha ta’riflaymiz:

Zo‘ravonlik – bu bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga real jismoniy zarar yetkazilishi bilan bog‘liq xatti-harakat bo‘lib, bunda tana chegaralari buziladi va jismoniy shikastlanish yuz berishi mumkin.

Psixoanalitik klinik nazariyalar ma’lum darajada o‘zaro kesishuvchi uchta asosiy farazga tayanadi [12]:

a) Psixopatologiya turli istaklar va ehtiyojlar o‘rtasidagi, shuningdek, ijtimoiy muhitning kutilmalari bilan bog‘liq ongsiz ziddiyatlarning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

b) U shaxs faoliyatining buzilishi (shaxs tuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi) ifodasi hisoblanadi.

c) U disfunksional munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Biologik himoya va xavf omillarini hisobga olgan holda, ruhiy buzilishlar asosan bolalik davridagi tajribalar natijasida yuzaga kelgan erta muammolarning namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Shu sababli psixoanalitik nazariyalar ko‘pincha erta hayotiy tajribalar kattalik davridagi faoliyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushuntirishga intiladi.

Masalan, Benjamin [14] o‘tgan o‘zaro munosabatlar tasvirlari hozirgi munosabatlarga uch xil jarayon orqali “ko‘chirilishini” ta’kidlaydi:

- Identifikatsiya – muhim shaxs kabi xulq-atvor ko‘rsatish.
- Rekapitulyatsiya – boshqa shaxs ustidan nazorat qilayotgan kabi harakat qilish.
- Introeksiya – o‘ziga boshqalar qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, o‘ziga ham shunday munosabatda bo‘lish.

Psixoanalitik fikrlash har bir insonni individual tarzda tushunishga intiladi. Bu jarayon muammoning etiologiyasidan boshlanib, keyin alomatlarning psixogenezini, ya’ni shaxs qanday qilib og‘ir tajribalar va hozirgi hayotiy vaziyatlar bilan kurashishini aniqlashga qaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday psixopatologiya ichki muammolar va bog‘lanish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga moslashish shakli sifatida ko‘riladi. Ba’zan u chidab bo‘lmas ruhiy holatlardan himoya qiluvchi dinamik himoya mexanizmlari orqali namoyon bo‘ladi.

Hayotning keyingi bosqichlarida bunday “yechimlar” qat’iylashib qolishi, hozirgi vaziyat talablariga mos kelmasligi va natijada insonning o‘ziga ham, atrofdagilarga ham azob keltirishi mumkin.

Shu asosiy qarash psixoanalitik nazariyada muhim pozitsiyani yuzaga keltiradi: hatto, eng shafqatsiz yoki irratsional xatti-harakatlar ham ma’lum ma’noga ega deb hisoblanadi. Chunki ular shaxsning o‘zini boshqarish yoki shaxslararo munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajarishi mumkin.

Alomatlarning yashirin ma’nosi shaxsning:

- individual hayotiy tarixi,
- ongsiz ziddiyatlari,
- yoki psixologik moslashuv jarayonida yuzaga kelgan shaxs tuzilmasidagi buzilishlar bilan bog‘liq holda tushunilishi mumkin. Bunda inson o‘zining biologik imkoniyatlari va ijtimoiy resurslari doirasida atrof-muhit talablariga moslashishga harakat qiladi.

Zo‘ravonlikning psixodinamik tushunilishi

Psixoanalitik nazariyalar zo‘ravonlikni, ya’ni boshqalarga jismoniy zarar yetkazish yoki hatto, o‘ldirish niyatidagi ochiq agressiyani – inson xulq-atvorining ehtimoliy shakllaridan biri sifatida ko‘radi. Ya’ni zo‘ravonlik insonda mavjud bo‘lgan potensialdir. Biroq u hamma joyda uchramagani sababli, ko‘pchilik nazariyalar dushmanona agressiya tug‘ma emas deb hisoblaydi va uning paydo bo‘lishida ijtimoiy hamda rivojlanish muhitiga e’tibor qaratadi.

Ko‘pgina psixoanalitik nazariyalarga ko‘ra, individual va doimiy zo‘ravonlik rivojlanish jarayonidagi muammolarning belgisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, u rivojlanishdagi buzilish sifatida qaraladi [4].

Psixoanalitik nuqtayi nazardan dushmanliksiz agressiya inson tabiatining biologic doimiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, insonning hayotiy energiyasi va faolligining manbayi hisoblanadi. Agressiya asl ma’nosida shaxsning omon qolishiga xizmat qiladi va biologik ehtiyojlarning qondirilishiga yordam beradi. Masalan:

- oziq-ovqat topish,
- nasl qoldirish,
- mustaqillikka intilish,
- atrof-muhitni o‘rganish.

Barcha psixoanalitiklar tomonidan birdek qabul qilinmagan bo‘lsa-da, ko‘plab ta’sirli nazariyalarda agressiya frustratsiyaga javob reaktsiyasi sifatida ham ko‘riladi. U o‘zini tasdiqlash, ustunlik qilish va guruh ichidagi raqobat funksiyalarini bajarishi mumkin [7].

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarning taxminan 70 foizi assertiv agressiya shaklini namoyon qiladi. Agressiya darajasi odatda ikki yoshda eng yuqori cho‘qqiga chiqadi [13]. Keyinchalik ko‘pchilik bolalarda agressivlik asta-sekin kamayadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, odamlarning aksariyatida shaxslararo agressiya evolyutsion jihatdan “o‘rganilmaydigan”, balki rivojlanish jarayonida kamayib boradigan xususiyatga ega bo‘lishi mumkin [4].

Assertiv agressiya hatto yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda ham kuzatiladi. U o‘zini himoya qilish vazifasini bajaradi va insonni zaiflik hissidan himoya qiladi.

Bu turdagi agressiya dushmanona jismoniy agressiya yoki zo‘ravonlikdan farq qiladi. Chunki zo‘ravonlik boshqalarga ataylab zarar yetkazishga qaratilgan bo‘ladi.

Bunday dushmanona agressiya:

- harakatni rejalashtirish qobiliyatiga,
- boshqa insonning nuqtayi nazarini tushunish,
- uning ruhiy holatini tasavvur qilish qobiliyatiga asoslanadi.

Bu qobiliyat odatda insonlarda taxminan 4 yoshdan boshlab to‘liq shakllana boshlaydi va yirik maymunlarda ancha cheklangan bo‘ladi [2].

Shuni ham ta’kidlash kerakki, empatiya bu yerda boshqa odamning ruhiy holatiga harakatning qanday ta’sir qilishini tasavvur qilish qobiliyatini anglatadi. U “rahm-shafqat qilish” yoki “hamdardlik bildirish” bilan bir xil ma’noda emas.

Ba’zi psixoanalitik mualliflar, jumladan, Freyd [5], sadistik agressiya – dushmanona agressiyaning eng shafqatsiz shakli – faqat insonlarga xos deb hisoblashgan. Chunki bunda jinoyatchi jabrlanuvchining ruhiy azobini tasavvur qila olishi kerak bo‘ladi.

Shu bilan birga, fantaziyalar ham destruktiv jarayonlarni kuchaytirishi mumkin. Masalan, kichik haqorat yoki ranjish noto‘g‘ri talqin yoki yetarli darajada mentalizatsiya qilinmasligi natijasida katta tahqirlash sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa reaktiv dushmanona agressiya uchun zamin yaratadi [15].

Qiziqarli jihati shundaki, mentalizatsiya qilish qobiliyati odatda boshqalarga ataylab zarar yetkazishimizni oldini oladi, chunki boshqa odamlar emotsional iztirobda bo‘lsa, bu kuzatuvchi uchun ham og‘riqli bo‘ladi [2]. Odatda tashvish va qayg‘u ifodalari rahm-shafqat bilan qabul qilinadi hamda tasalli berish va g‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan harakatlarni yuzaga keltiradi.

Blair [2] fikriga ko‘ra, zo‘ravon harakatlarni to‘xtatib turish zo‘ravonlikni bostiruvchi mexanizmga bog‘liq bo‘lib, bunda boshqa odamlarga ataylab zarar yetkazish kuzatuvchida ruhiy og‘riqni keltirib chiqaradi, ayniqsa agar aynan o‘sha kuzatuvchi bu og‘riqning sababchisi bo‘lsa. Shu ma’noda zo‘ravon harakatlarni amalga oshirish ko‘pincha jabrlanuvchini his qiladigan va o‘ylaydigan inson sifatida qabul qilmaslik bilan bog‘liq bo‘ladi [8].

Epidemiologik va uzoq muddatli tadqiqotlar bolalik davridagi zo‘ravon munosabatlar va noto‘g‘ri muomala disruptiv buzilishlar, jumladan, zo‘ravon harakatlar bilan bog‘liqligini ishonchli tarzda ko‘rsatgan.

Biroq bu bog‘liqlikning asosiy mexanizmlari, ya’ni bolalikdagi salbiy munosabat tajribasi qanday qilib boshqalarga yoki o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik potensialiga (masalan, o‘zini jarohatlashga) aylanishi - hali ham yetarlicha tushuntirilmagan.

McCrory va Viding [9] bolalikdagi zo‘ravon munosabatlar bilan bog‘liq holda shuni ta’kidlaydiki, neyrokognitiv tizimdagi moslashuv yoki qayta normaga keltirish yashirin zaiflikni yuzaga keltiradi. Bunda, ayniqsa, salbiy emotsional tizimlar ta’sirga uchraydi. Tadqiqotchilar uchun asosiy muammo McCrory va Viding tomonidan “latent vulnerability” deb atalgan tushunchani operatsionlashtirish, ya’ni neyroxulqiy funksiyalarni baholash orqali xavf darajasini aniqlashdilar. Bu esa tizim darajasidagi ko‘plab o‘lchovli konstruksiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin va ular prinsipial jihatdan DSM diagnostik guruhlaridan mustaqil bo‘ladi.

Aslida rivojlanish psixopatologiyasi tomonidan taklif qilingan rezilyentlik (chidamlilik) tadqiqotlari konseptual modeli ham aynan shuni ta’minlashga qaratilgan [4].

So‘nggi tadqiqotlar psixiatrik buzilishlarning ierarxik tuzilishini ko‘rsatmoqda. Internalizatsiya (ichki buzilishlar) va eksternalizatsiya (tashqi xulq buzilishlari) o‘rtasidagi yuqori korrelyatsiyalar ularning umumiy zaiflik omillariga ega bo‘lishi mumkinligini bildiradi [14].

Muhokama va natijlar.

Zo‘ravonlikning psixodinamikasi va etiologiyasi

Ba’zi psixoanalitik konsepsiyalar zo‘ravonlikni psixiatrik tashxislar doirasida ko‘rib chiqadi, masalan: antisotsial shaxs buzilishi (ASPD), xulq-atvor buzilishi, narsissistik shaxs buzilishi va boshqalar [10]. Biroq bu tashxislarga ega bo‘lgan shaxslar har doim ham zo‘ravon xatti-harakatlarni namoyon qilavermaydi, va dushmanona agressiya boshqa ko‘plab ruhiy buzilishlarda ham kuzatilishi mumkin, ayniqsa, psixoz yoki “chegaraviy shaxs buzilishi (BPD)”da.

Shu bilan birga, zo‘ravonlikning umumiy fenomenologik yadrosi mavjud bo‘lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bunga chidab bo‘lmas affektiv holat yoki shaxsiyatning parchalanishi xavfi kiradi. Bu nuqtayi nazardan zo‘ravon harakat chidab bo‘lmas emotsional holatni boshqarish va shaxsning parchalanib ketishidan himoyalanish usuli sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, muayyan zo‘ravon harakat simvolik ma’noga ega bo‘lishi mumkin va u shaxsning hayotiy tarixi, emotsiyalari, motivlari hamda himoya mexanizmlari nuqtayi nazaridan tushuntirilishi mumkin [13].

Zo‘ravonlikka nisbatan bunday psixodinamik tushuntirishda kamida ikki istisno mavjud.

Birinchisi - jamiyat tomonidan legitimlashtirilgan zo‘ravonlik, ya’ni davlat xavfsizligi yoki tinchligini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladigan zo‘ravonlik.

Ikkinchisi - jinoyat maqsadida amalga oshiriladigan zo‘ravonlik, ya’ni “psixopatik zo‘ravonlik” deb ataladigan holatdir. Bunda zo‘ravonlik “sovuqqonlik bilan” ma’lum bir maqsadga erishish uchun yoki hatto, boshqa insonlarga zarar yetkazish orqali zavq olish uchun sodir etiladi [8]. Bunday holatlar ko‘pincha bolalik davridagi beparvo-emotsional (callous-unemotional, CU) xulq muammolari bilan bog‘liq rivojlanish tarixiga ega bo‘ladi.

Birinchi turdagi zo‘ravonlik odatda muammo sifatida qaralmaydi, ikkinchi tur esa zo‘ravon jinoyatchilarning nisbatan kichik qismiga xosdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xulq-atvor buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning 15–45 foizi yuqori CU, ya’ni empatiya va aybdorlik hissining pastligi xususiyatlari bilan ajralib turadi [3]. Bu xususiyatlar odatda empatiya va aybdorlik hissining yetishmasligi, shuningdek, emotsional ifodaning kambag‘alligi bilan tavsiflanadi [7].

Xulq-atvor buzilishida yuqori CU xususiyatlarining mavjudligi odatda yanada og‘ir, barqaror va kuchayib boruvchi agressiv rivojlanish jarayonini ko‘rsatadi. Bu jarayon o‘ziga xos emotsional, kognitiv, temperamentga oid, biologik va ijtimoiy xavf omillari bilan bog‘liq [4].

Shu bilan birga, yuqori CU xususiyatlariga ega bo‘lgan barcha shaxslarda xulq-atvor buzilishi kuzatilmaydi [4].

Uzoq muddatli tadqiqotlar CU xususiyatlari kattalar davridagi psixopatik xususiyatlarning dastlabki belgisi bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [4]. Bu holat xulq muammolari soni, ularning boshlanish davri hamda bolalikdagi diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishi alomatlari hisobga olingan taqdirda ham saqlanib qoladi [9].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, zo‘ravonlik hodisasining psixoanalitik nuqtayi nazardan boy konseptual talqinini ko‘rsatishni maqsad qildik. Bu yondashuv zo‘ravon harakatlar ortida turgan shaxsiy psixopatologiyani klinik jihatdan tushunishga asoslanadi. Turli nazariyalar turlicha qo‘zg‘atuvchi omillar yoki markaziy emotsiyalarni – nafrat, hasad, uyat va xavotirni – ta’kidlasa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi asosiy g‘oya shundan iboratki, surunkali zo‘ravonlik shaxsning o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini ramziy ifodalash yoki mentalizatsiya qilish qobiliyatining yetishmasligi natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Psixoanalitik yondashuvning umumiy jihatlaridan biri shundan iboratki, inson chidab bo‘lmas emotsional kechinmalar va e’tiqodlarni mentalizatsiya orqali emas, balki harakat orqali boshqarishga majbur bo‘ladi. Bu esa zo‘ravon xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kelajakda zo‘ravonlikning oldini olish uchun zo‘ravon harakatning ma’nosini tushunish, shaxsda ramziy fikrlash va mentalizatsiya funksiyasini qayta tiklash, shuningdek, bolalik davridagi noxush muomala va zo‘ravonlikning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Август Айхорн Трудный подросте - М.: СпБ 2001
2. Blair, R. J. R. (2005). Responding to the emotions of others. Dissociating forms of empathy through the study of typical and psychiatric populations. Consciousness and Cognition, 14(4), 698–718. doi: 10.1016/j.concog.2005.06.004
3. Dadds, M. R., Cauchi, A. J., Wimalaweera, S., Hawes, D. J., & Brennan, J. (2012). Outcomes, moderators, and mediators of empathic-emotion recognition training for complex conduct problems in childhood. Psychiatry Research, 199, 201–207. doi: 10.1016/j.psychres.2012.04.033
4. Fonagy, P. (2008). Persönlichkeitsstörung und Gewalt. Ein psychoanalytisch-bindungstheoretischer Ansatz. In F. Lackinger & W. Berner (Eds.), Psychodynamische Psychotherapie bei Delinquenz. Praxis der übertragungsfokussierten Psychotherapie (pp. 326–365). Stuttgart, Germany: Schattauer. [Personality disorder and violence. An approach from psychoanalytic and attachment theory]
5. Freud, S. (1930). Civilization and its discontents. In J. Strachey (Ed.), The standard edition of the complete psychological works of Sigmund Freud (Vol. 21, pp. 57-146). London, UK: Hogarth Press, 1961
6. Л.М.Семенюк Психологические особенности агрессивного повединия подростков и условия его коррекции - М.: Речь 199
7. Lichtenberg, J. (1989). Psychoanalysis and motivation. Hillsdale, NJ: Analytic Press. Loeber, R., Burke, J., & Lahey, B. (2002). What are the adolescent antecedents to antisocial personality disorder? Criminal Behavior and Mental Health, 12, 24–36.
8. Levinson, A., & Fonagy, P. (2004). Offending and attachment: The relationship between interpersonal awareness and offending in a prison population with psychiatric disorder. Canadian Journal of Psychoanalysis, 12, 225–251
9. McCrory, E. J., & Viding, E. (2015). The theory of latent vulnerability: Reconceptualizing the link between childhood maltreatment and psychiatric disorder. Development and Psychopathology, 27, 493–505. doi: 10.1017/S0954579415000115
10. Meloy, J. R. (2001). Introduction to section I. In J. R. Meloy (Ed.), The mark of Cain. Psychoanalytic insight and the psychopath (pp. 3–23). Hillsdale, NJ: Analytic Press.
11. N.G’.Kornilova Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi - T.: TDPU 2014
12. OPD Task Force (2008). Operationalized psychodynamic diagnostics OPD-2: Manual of diagnosis and treatment planning. Cambridge, MA/Toronto, Canada: Hogrefe.
13. Cote, S. M., Vaillancourt, T., LeBlanc, J. C., Nagin, D. S., & Tremblay, R. E. (2006). The development of physical aggression from toddlerhood to pre-adolescence: A nation wide longitudinal study of Canadian children. Journal of Abnormal Child Psychology, 34, 71–85. doi: 10.1007/s10802-005- 9001-z
14. Taubner, S., Zimmermann L., Ramberg, A. & Schröder, P. (2015). Do mentalization and attachment mediate the relation between childhood maltreatment and adolescent potential for violence? Psychopathology. Manuscript submitted for publication.
15. Thomä, H. & Kächele, H. (1985). Lehrbuch der psychoanalytischen Theorie. Heidelberg, Germany: Springer. [Handbook of psychoanalytic theory]
16. Waller, R., Gardner, F., & Hyde, L. W. (2013). What are the associations between parenting, callousunemotional traits, and antisocial behavior in youth? A systematic review of evidence. Clinical Psychology Review, 33, 593–608. doi: 10.1016/j.cpr.2013.03.001

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Ijtimoiy kompetentlik zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi va ijtimoiy mas’uliyatni ongli ravishda anglashini ta’minlovchi muhim integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida ijtimoiy kompetentlikning falsafiy, psixologik, sotsiologik va pedagogik asoslari yoritilgan hamda uning shaxs rivojidagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlikning mazmuni, tuzilmasi va asosiy tarkibiy komponentlari – kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor va refleksiv komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Ishda zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar doirasida uning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirishda, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni jamiyat talablariga mos holda tayyorlashda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: *ijtimoiy-kommunikativ tayyorgarlik, pedagog shaxsining ijtimoiy yetukligi, kasbiy ijtimoiylashuv modeli, refleksiv-pedagogik faoliyat, ta’limda ijtimoiy adaptatsiya, o‘qituvchining fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy rollar integratsiyasi, pedagogik hamkorlik muhiti, kompetensiyaviy ijtimoiy rivojlanish.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье научной работе всесторонне анализируются научно-теоретические основы понятия социальной компетентности. Социальная компетентность рассматривается как интегративное качество личности, обеспечивающее успешную социализацию, активное участие в социальных отношениях и осознанное принятие социальной ответственности в условиях современного общества. В ходе исследования раскрываются философские, психологические, социологические и педагогические основы социальной компетентности, а также обосновывается её значение в развитии личности. Особое внимание уделяется содержанию и структуре социальной компетентности, взаимосвязи её основных компонентов: когнитивного, эмоционально-ценностного, поведенческого и рефлексивного. В работе показана роль социальной компетентности в современной системе образования, раскрыты педагогические возможности её формирования в рамках компетентностного и личностно-ориентированного подходов. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования образовательного процесса и подготовки социально активных, ответственных и конкурентоспособных специалистов.

Ключевые понятия: *социально-коммуникативная подготовка, социальная зрелость педагога, модель профессиональной социализации, рефлексивная педагогическая деятельность, социальная адаптация в образовании, гражданская позиция учителя, интеграция социальных ролей, среда педагогического взаимодействия, компетентностное социальное развитие.*

CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

This article paper provides a comprehensive analysis of the scientific and theoretical foundations of the concept of social competence. Social competence is interpreted as an integrative personal quality that ensures successful socialization, active participation in social relations, and conscious social responsibility in modern society. The study examines the philosophical, psychological, sociological, and

pedagogical foundations of social competence and substantiates its role in personal development. Special attention is given to the content and structure of social competence, as well as to the interrelation of its main components: cognitive, emotional-value, behavioral, and reflective. The paper also highlights the importance of social competence in the modern education system and reveals pedagogical opportunities for its development within competency-based and learner-centered approaches. The research findings have theoretical and practical significance for improving educational practices and training socially active, responsible, and competitive professionals.

Key concepts: *social-communicative training, teacher’s social maturity, professional socialization model, reflective pedagogical activity, social adaptation in education, teacher’s civic position, integration of social roles, pedagogical cooperation environment, competence-based social development.*

Kirish. XXI asrda jamiyat taraqqiyoti shaxsdan nafaqat kasbiy bilim va malakalarni, balki murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida samarali faoliyat yuritish qobiliyatini ham talab etmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy xilma-xillikning ortishi shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini dolzarb masalaga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan **ijtimoiy kompetentlik** tushunchasi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va falsafa fanlarida muhim ilmiy kategoriya sifatida shakllandi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan vazifalar mazmunan kengayib bormoqda. Bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni faqat fan asoslarini chuqur o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy faol, mas’uliyatli va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllanishini ham taqozo etadi [1].

Ijtimoiy kompetentlik o‘qituvchi shaxsining jamiyat bilan uzviy aloqadorligini ifodalovchi muhim kasbiy sifat bo‘lib, u pedagogning ta’lim jarayonidagi samaradorligini, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanligini va kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydi [2]. Ijtimoiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim jarayonida qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatadi hamda pedagogik jamoada konstruktiv hamkorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar pedagog kadrlarning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [3]. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy yetuk, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [4]. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishning konseptual asoslarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari. Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy kompetentlik” tushunchasi shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va xulq-atvor majmui sifatida talqin etiladi [5].

“Ijtimoiy kompetentlik” tushunchasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari chorrahasida shakllangan bo‘lib, u shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va ijtimoiy tajribalar majmuasini anglatadi.

Mazkur tushuncha shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olish, muloqotga kirishish, ijtimoiy rollarni bajarish va ijtimoiy me’yorlarga mos harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda ijtimoiy kompetentlik ko‘pincha shaxsning: jamiyat qoidalari va me’yorlarini anglash, ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z huquq va majburiyatlarini bilish va bajarish kabi jihatlari bilan tavsiflanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan ijtimoiy kompetentlik shaxsning ijtimoiy munosabatlarni anglash, ijtimoiy rollarni ongli bajarish va jamiyat talablariga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun ijtimoiy kompetentlik kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u pedagogik jarayonda samarali muloqot, hamkorlik va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlaydi. Mazkur kompetentlik o‘qituvchining kasbiy etikasi, pedagogik madaniyati va fuqarolik pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy kompetentlik shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi, muloqot qilishi, ijtimoiy rollarni anglab bajarishi hamda ijtimoiy muammolarni hal qila olishini ta’minlovchi integrativ sifat hisoblanadi. Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari falsafa, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari yutuqlariga tayangan holda shakllangan murakkab ilmiy kategoriya hisoblanadi. U shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim integrativ sifat bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Xorijiy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy kompetentlik shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritish qobiliyatini belgilovchi muhim mezon sifatida talqin qilinadi.

AQSH, Yevropa Ittifoqi va Rossiya ilmiy maktablarida ushbu tushuncha ta’lim natijasi, shaxs rivojlanishining ko‘rsatkichi hamda ijtimoiy barqarorlik omili sifatida keng o‘rganilgan. Shu sababli ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish konseptual yondashuvlarini xorijiy ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish mazkur muammoning nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy kompetentlikning o‘rni. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u kasbiy bilimlar, metodik mahorat va pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy kompetentlikni ham o‘z ichiga oladi [6].

Ijtimoiy kompetentlik o‘qituvchining ta’lim jarayonida ijtimoiy muammolarni anglash, konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga ko‘maklashish imkonini beradi. Ijtimoiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining jamiyatda va ta’lim muhitida o‘zini tutish madaniyati, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati hamda kasbiy vazifalarni ijtimoiy mas’uliyat bilan bajarishini ifodalaydi. Amerikalik psixolog Albert Bandura ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishni ijtimoiy muhitda kuzatish va taqlid mexanizmlari orqali tushuntiradi. Uning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra: shaxs ijtimoiy xulq-atvorni kuzatish orqali o‘zlashtiradi; ijtimoiy model (o‘qituvchi, ota-ona, yetakchi) muhim rol o‘ynaydi; ijtimoiy baholash va rag‘bat kompetentlikni mustahkamlaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy kompetentlik faqat bilim natijasi emas, balki ijtimoiy tajriba asosida shakllanuvchi xulqiy tizimdir.

O‘qituvchi faoliyati doimo insonlar bilan bevosita muloqotga asoslangan bo‘lib, bu jarayonda ijtimoiy kompetentlik yetakchi o‘rin tutadi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy kompetentlik quyidagilarni ta’minlaydi:

- pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhit yaratish;
- o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish;
- jamoada ishlash va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- ijtimoiy muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy kompetentlik quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Kommunikativ funksiya – o‘quvchilar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan samarali muloqotni ta’minlaydi.

2. Moslashuvchanlik funksiyasi – o‘qituvchining turli ijtimoiy va pedagogik vaziyatlarga tez moslashishiga yordam beradi.

3. Tarbiyaviy funksiya – o‘qituvchi shaxsiy namuna orqali o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi.

4. Regulyativ funksiya – nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, o‘z xulq-atvorini boshqarish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar hamda ta’lim muassasasi jamoasi bilan samarali munosabatlar o‘rnatish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ushbu kompetentlik shakllanmasa, o‘qituvchi pedagogik faoliyatda turli qiyinchiliklarga duch kelishi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal eta olmasligi va ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishda muammolarga duch kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy kompetentlik o‘qituvchining kasbiy barqarorligi va pedagogik muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy kompetentlik ularning kasbiy moslashuvchanligini ta’minlaydi. Pedagogik faoliyat murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi turli xarakterga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlaydi, ota-onalar bilan muloqotga kirishadi, jamoa ichida hamkorlik qiladi va ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga tezkor va asosli munosabat bildirishga majbur bo‘ladi. Aynan ijtimoiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchiga bunday vaziyatlarda o‘zini ishonchli tutish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va kasbiy vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi.

Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida muloqot faqat axborot uzatish vositasi emas, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [7]. Ijtimoiy kompetent o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqot qiladi, ularning fikrini tinglaydi, hissiy holatini tushunadi va o‘z munosabatini vaziyatga mos tarzda namoyon etadi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan muhitni shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy kompetentlik tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs tarbiyachisi sifatida ham faoliyat yuritadi. Uning shaxsiy xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlardagi pozitsiyasi va jamiyatga bo‘lgan munosabati o‘quvchilar uchun bevosita namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarda ham ijtimoiy mas’uliyat, bag‘rikenglik, hamkorlik va

ijtimoiy faollik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini ham rivojlantiradi. O‘z xatti-harakatlarini anglay oladigan, ijtimoiy tajribadan xulosa chiqara oladigan va o‘z ustida ishlashga intiladigan o‘qituvchi kasbiy jihatdan doimiy rivojlanib boradi. Bu esa pedagogik faoliyatda refleksiv yondashuvning shakllanishiga olib keladi. Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy kompetentlik muhim integrativ sifat bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy faoliyatida samaradorlikni ta’minlash, ta’lim jarayonida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratish va jamiyat talablariga mos pedagog kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy yetukligini ham ta’minlab, ularni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan pedagoglar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy kompetentlikning tuzilmaviy komponentlari. Ijtimoiy kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat [7].

- ✓ **Kognitiv komponent** – pedagogik etika, ijtimoiy me’yorlar, muloqot qoidalari haqidagi bilimlar.
- ✓ **Emotsional-kommunikativ komponent** – empatiya, bag‘rikenglik, ijtimoiy sezgirlik.
- ✓ **Faoliyat komponenti** – jamoada ishlash, hamkorlikda qaror qabul qilish, muammolarni hal etish.
- ✓ **Refleksiv komponent** – o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash.

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy kompetentligini ta’minlaydi. Ijtimoiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi kognitiv komponent hisoblanadi. Ushbu komponent shaxsning jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy me’yorlar haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Kognitiv komponent orqali shaxs ijtimoiy vaziyatlarning mohiyatini anglaydi, jamiyatda amal qiluvchi qoidalar va talablarni tushunadi hamda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda rejalashtiradi. Ijtimoiy bilimlarga ega bo‘lgan shaxs ijtimoiy muhitni to‘g‘ri idrok etadi, ijtimoiy rollarni farqlay oladi va o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglaydi. Shu bois kognitiv komponent ijtimoiy kompetentlikning intellektual asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kompetentlikning yana bir muhim tarkibiy qismi emotsional-qiymat komponentidir. Ushbu komponent shaxsning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan hissiy munosabati, ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi va ularga sodiqligi bilan tavsiflanadi. Emotsional-qiymat komponenti orqali shaxs boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularga hamdardlik bildirish, bag‘rikenglik va empatiya namoyon etish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Aynan ushbu komponent shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlariga axloqiy yo‘nalish beradi va ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi. Emotsional-qiymat jihatdan rivojlangan shaxs jamiyatda ijobiy munosabatlar o‘rnatishga intiladi va ijtimoiy mas’uliyatni ongli ravishda his etadi.

Ijtimoiy kompetentlikning amaliy ifodasi xulq-atvor komponenti orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu komponent shaxsning real ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishini, muloqot jarayonida o‘zini qanday tutishini va ijtimoiy muammolarga qanday munosabat bildirishini aks ettiradi. Xulq-atvor komponenti samarali muloqot ko‘nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish hamda ijtimoiy moslashuvchanlik bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxsning ijtimoiy kompetentligi eng avvalo uning kundalik hayotdagi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi, shu sababli xulq-atvor komponenti ijtimoiy kompetentlik darajasining eng yaqqol ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri refleksiv komponentdir. Ushbu komponent shaxsning o‘z ijtimoiy xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash va zarur hollarda tuzatish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiya shaxsga ijtimoiy tajribadan xulosa chiqarish, o‘z kamchiliklarini anglash va ijtimoiy jihatdan o‘sishga intilish imkonini beradi. Refleksiv komponent rivojlangan shaxs o‘z ijtimoiy faoliyatiga tanqidiy yondashadi va doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydi, bu esa ijtimoiy kompetentlikning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Mazkur komponentlar alohida-alohida mavjud bo‘lib qolmay, balki o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat yuritadi. Kognitiv komponent orqali egallangan bilimlar emotsional-qiymat komponenti bilan uyg‘unlashib, xulq-atvor komponentida real harakatlar orqali namoyon bo‘ladi, refleksiv komponent esa ushbu jarayonlarni tahlil qilish va takomillashtirish imkonini yaratadi. Aynan shu uzviylik ijtimoiy kompetentlikni barqaror va samarali sifatga aylantiradi.

Umuman olganda, ijtimoiy kompetentlikning tuzilmaviy komponentlari shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy faoliyat yuritishini ta’minlovchi yaxlit tizimni tashkil etadi. Ushbu komponentlarning izchil va uyg‘un rivojlanishi shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlaydi va jamiyatda faol, mas’uliyatli hamda yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat

qiladi. Ta’lim jarayonida ijtimoiy kompetentlikning barcha tarkibiy komponentlarini birgalikda rivojlantirish shaxs kamolotining muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentlik zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi murakkab integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Ushbu sifat bir butun holda namoyon bo‘lishiga qaramay, u ichki tuzilishga ega bo‘lib, o‘zaro uzviy bog‘langan bir nechta tarkibiy komponentlardan tashkil topadi.

Ijtimoiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi kognitiv komponent bo‘lib, u shaxsning jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy me’yorlar haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Emotsional-qiymat komponenti esa shaxsning empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy xulq-atvorning axloqiy yo‘nalishini belgilaydi.

Xulq-atvor komponenti ijtimoiy kompetentlikning amaliy ifodasi bo‘lib, u shaxsning real ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirishishi, jamoada ishlashi va nizolarni konstruktiv hal etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv komponent esa shaxsning o‘z ijtimoiy tajribasini tahlil qilish va baholash orqali kompetentlikni doimiy rivojlantirishiga xizmat qiladi.[6]

Shunday qilib, kognitiv komponent ijtimoiy vaziyatlarni anglash va tahlil qilish uchun zarur bo‘lib, u ijtimoiy kompetentlikning intellektual poydevorini yaratadi.

Emotsional-kommunikativ komponent shaxsning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan hissiy munosabati va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi bilan bog‘liq. Bu komponent shaxsning boshqalarni tushunish, his qilish va ularga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiv komponent shaxsning o‘z xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Ijtimoiy kompetentlik murakkab, ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, uning kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor va refleksiv-baholovchi komponentlari shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Ushbu komponentlarning tizimli va izchil rivojlantirilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning konseptual yondashuvlari. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish quyidagi yondashuvlarga asoslanadi[8].

1.Shaxsga yo‘naltirilgan – bu yondashuv markazida ta’lim oluvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari turadi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida shaxs: faol subyekt sifatida ishtirok etadi; o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi; ijtimoiy mas’uliyatni his etadi. Mazkur yondashuv ijtimoiy kompetentlikni shaxsiy tajriba va ichki motivatsiya asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Kompetensiyaviy – bu yondashuv ijtimoiy kompetentlikni faqat nazariy bilimlar majmui emas, balki ularni real ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonida: muammoli vaziyatlar yaratish; amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish; loyihaviy va interfaol metodlardan foydalanish asosiy ahamiyat kasb etadi.

3. Faoliyatga asoslangan – bu yondashuv ijtimoiy kompetentlikning shakllanishini shaxsning faoliyati bilan bevosita bog‘laydi. Ya’ni, ijtimoiy kompetentlik: jamoaviy faoliyat; rolli o‘yinlar; treninglar; ijtimoiy loyihalar
jarayonida rivojlanadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv shaxsni ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. Ijtimoiy-madaniy yondashuvlar – yondashuv ijtimoiy kompetentlikni jamiyatning madaniy qadriyatlari, an’analari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra: shaxs ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi; madaniy me’yorlar ijtimoiy xulq-atvorni belgilaydi; ta’lim jarayoni ijtimoiy tajribani uzatish vositasi hisoblanadi.Bu yondashuv ayniqsa ko‘p madaniyatli va inklyuziv ta’lim sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy kompetentlik zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning muvaffaqiyatli hayot faoliyatini ta’minlovchi muhim integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsning nafaqat ijtimoiy bilimlarga egaligi, balki ushbu bilimlarni real ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish, jamiyat a’zolari bilan samarali muloqotga kirishish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va o‘z xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy kompetentlik tushunchasi falsafa, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlarining uzviy integratsiyasi asosida shakllangan bo‘lib, u shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifat ko‘rsatkichini ifodalaydi. Ijtimoiy kompetentlik shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining muhim natijasi bo‘lish bilan birga, ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy jamiyat uchun ijtimoiy faol, tolerant, mas’uliyatli va raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashga

xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy kompetentlik bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy taraqqiyotning strategik omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. –Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent, 2022.
3. UNESCO. Education for Social Competence. Paris, 2020.
4. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2021.
5. Karimova D. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent, 2020.
6. Sodiqova G. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
7. Xudoyberdiyev B.X. Pedagogik kompetensiyalar va ijtimoiy tayyorgarlik. Toshkent, 2020.
8. Sultonova N.R. Shaxs ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. –Toshkent, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi OTFIV. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2023.
10. Abduqodirov A.A. Zamonaviy pedagog shaxsining ijtimoiy modeli. –Toshkent, 2018.

UO‘K 159.9

O‘SPIRINLARNING O‘YIN DAVOMIDA TAJOVUZKOR XATTI-HARAKATLARINI SHAKLLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK OMILLAR UZVIYLIGI

Egamberdiyev Jamol Berdimurodovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
jamolegamberdiyev.com@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-6432-1037

Mazkur ilmiy maqolada o‘spirinlarning o‘yin faoliyati davomida yuzaga keladigan tajovuzkor xatti-harakatlarning psixologik va fiziologik omillari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishida ijtimoiy o‘rganish mexanizmlari, frustratsiya, emotsional desensitizatsiya, gormonal o‘zgarishlar hamda markaziy nerv tizimi faoliyatining o‘zgarishi kabi omillarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘spirinlik, tajovuzkorlik, o‘yin faoliyati, psixologik omillar, fiziologik mexanizmlar, agressiya nazariyalari.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ В ПРОЦЕССЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье рассматриваются психологические и физиологические факторы формирования агрессивного поведения у подростков в процессе игровой деятельности. Особое внимание уделяется анализу взаимосвязи механизмов социального научения, фрустрации, эмоциональной десенсибилизации, гормональных изменений, а также особенностей функционирования центральной нервной системы. На основе анализа научных источников раскрывается комплАексное влияние данных факторов на проявление агрессивных поведенческих реакций у подростков.

Ключевые слова: *подростковый возраст, агрессивность, игровая деятельность, психологические факторы, физиологические механизмы, теории агрессии.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN PSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS DURING GAME ACTIVITIES

This article examines the psychological and physiological factors that shape aggressive behavior in adolescents during play. Particular attention is paid to analyzing the interrelationships between social learning mechanisms, frustration, emotional desensitization, hormonal changes, and the functioning of the central nervous system. Based on an analysis of scientific literature, the complex influence of these factors on the manifestation of aggressive behavioral reactions in adolescents is revealed.

Key words: *adolescence, aggressiveness, play activities, psychological factors, physiological mechanisms, theories of aggression.*

Kirish. O‘spirinlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va dinamik bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda individning psixik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi intensiv tarzda kechadi. Aynan shu davrda shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanadi. O‘spirinlar hayotida o‘yin faoliyati muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayoni shaxsga turli rollarni sinab ko‘rish, emotsiyalarni ifodalash hamda ijtimoiy tajriba orttirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘yin faoliyatida raqobat, g‘alaba va mag‘lubiyat elementlari mavjud bo‘lib, ular o‘spirinlarning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim turdagi o‘yinlar, ayniqsa zo‘ravonlik elementlari mavjud o‘yinlar o‘spirinlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayon esa faqat psixologik emas, balki fiziologik omillar bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli o‘spirinlarning o‘yin faoliyatida tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanish mexanizmlarini psixologik va fiziologik nuqtayi nazardan kompleks o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. O‘spirinlarning o‘yin faoliyati davomida tajovuzkor xatti-harakatlarini shakllantiruvchi psixologik va fiziologik omillar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari. Tajovuzkor xatti-harakatlarning psixologik mohiyatini aniqlash; O‘yin faoliyatining o‘spirin psixikasiga ta’sirini o‘rganish; Tajovuzkorlikni shakllantiruvchi psixologik omillarni tahlil qilish; Tajovuzkorlikning fiziologik mexanizmlarini aniqlash; Psixologik va fiziologik omillar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘spirinlik davri shaxs rivojlanishining murakkab bosqichi bo‘lib, bu davrda psixologik, ijtimoiy va biologik omillar o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ayniqsa, o‘yin faoliyati davomida tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan muammolardan biridir. Tajovuzkor xatti-harakatlar muammosi psixologiya fanida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Tajovuzkorlik tabiatini tushunish psixologiya va biologiya fanlarining fundamental masalalaridan biri bo‘lib, bu borada Zigmund Freyd, Konrad Lorens va Albert Bandura kabi olimlar o‘ziga xos ilmiy maktab yaratganlar. Ushbu nazariyalar tajovuzkorlikni tug‘ma instinkt, evolyutsion mexanizm va olingan ijtimoiy tajriba sifatida turlicha talqin qiladi.

1. Zigmund Freyd va psixoanalitik yondashuv

Freyd tajovuzkorlikni inson tabiatiga xos bo‘lgan tug‘ma instinkt deb hisoblagan. U o‘zining fundamental asarlarida “Tanatos” (o‘lim instinkti) tushunchasini kiritib, uni hayotiy quvvat — “Eros”ga qarama-qarshi qo‘yadi. Freydning fikricha, inson psixikasida destruktiv energiya doimiy ravishda to‘planib boradi. Agar bu energiya ijobiy kanallar (masalan, sport, san’at yoki mehnat) orqali katarsis (poklanish) jarayonidan o‘tmasa, u tashqi dunyoga tajovuz ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

2. Konrad Lorens va etologik (Biologik) yondashuv

Evolyutsion biologiya nuqtayi nazaridan yondashgan Lorens tajovuzni hayvon va inson uchun umumiy bo‘lgan omon qolish mexanizmi sifatida izohlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, tajovuzkorlik — hududni himoya qilish, ozuqa manbalarini saqlash va eng kuchli naslni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan biologik moslashuvdir. Lorens buni “ichki gidravlik energiya”ga o‘xshatadi: ma’lum vaqt o‘tgach, hatto tashqi turtki bo‘lmasa ham, bu to‘plangan biologik energiya o‘z-o‘zidan portlab chiqishi mumkin.

3. Albert Bandura va Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi

Yuqoridagi biologik qarashlardan farqli o‘laroq, Bandura tajovuzkorlikni ijtimoiy tajriba mahsuli deb hisoblaydi. Uning 1961-yilda o‘tkazgan mashhur “Bobo qo‘g‘irchog‘i” (Bobo Doll) tajribasi shuni isbotladiki, bolalar tajovuzkor xatti-harakatlarni tug‘ma instinkt tufayli emas, balki atrofdagilarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o‘rganadilar. Tajriba davomida kattalarning qo‘g‘irchoqqa nisbatan zo‘ravonligini ko‘rgan bolalar, keyinchalik aynan shu harakatlarni va hatto tajovuzkor so‘zlarni takrorlashgan. Bandura nazariyasiga ko‘ra, inson tajovuzkorlikni atrof-muhitdagi modellarni kuzatish va bunday xulq-atvor uchun olinadigan rag‘bat yoki jazoni ko‘rish orqali o‘zlashtiradi.

Bandura nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori uchta asosiy omil o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi:

1. Shaxsiy omillar (kognitiv jarayonlar, motivatsiya, emotsiyalar)
2. Xulq-atvor
3. Atrof-muhit omillari

Bu uchlik o‘zaro bog‘liq bo‘lib, psixologiyada o‘zaro determinizm deb ataladi. Ya’ni inson muhitga ta’sir qiladi va muhit ham inson xulqiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bandura bu jarayonni quyidagicha izohlaydi:

“Ko‘pchilik insoniy xatti-harakatlar bevosita tajribadan emas, balki boshqalarni kuzatish orqali o‘rganiladi” [1].

Shu sababli bolalar va o‘spirinlar atrofidagi insonlar (ota-ona, tengdoshlar, media qahramonlari) xulqini kuzatib, ularni ongli yoki ongsiz ravishda takrorlashlari mumkin.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o‘spirinlarda agressiv xulqning paydo bo‘lishi ijtimoiy o‘rganish, frustratsiya, biologik jarayonlar va emotsional beqarorlik bilan izohlanadi. Psixologiyada agressiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba’zi tadqiqotchilar uni shaxsning salbiy xulq shakli sifatida talqin qilsa, boshqalar uni muayyan vaziyatlarda tabiiy reaksiya deb hisoblaydilar. Agressiya lotincha “aggredi” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hujum qilish” yoki “tajovuz qilish” ma’nolarini anglatadi. Shu sababli psixologiyada agressiya ko‘pincha boshqalarga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakat sifatida izohlanadi [1, 3-bet]. O‘spirinlar tajovuzkorligining shakllanishini tushuntiruvchi eng muhim nazariyalardan biri A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi hisoblanadi. Bandura agressiv xulq asosan kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganilishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bolalar va o‘spirinlar kattalar yoki tengdoshlari namoyish etgan agressiv xatti-harakatlarni model sifatida qabul qilib, keyinchalik o‘z xulqida takrorlaydi. “Bolalar ko‘pincha kattalar yoki boshqa shaxslarning xulq-atvorini kuzatish orqali agressiv reaksiyalarni o‘zlashtiradilar va bu

xatti-harakatlar ijtimoiy mustahkamlash orqali barqarorlashadi” [1, 34-bet]. Bandura o‘zining tajribalarida bolalar agressiv modelni ko‘rganidan so‘ng o‘yin jarayonida xuddi shunday tajovuzkor harakatlarni namoyon etishini ko‘rsatib bergan. Bu o‘yin faoliyati agressiv xulqni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit ekanligini ko‘rsatadi. “Agressiv modelni kuzatgan bolalar keyingi o‘yin faoliyatida shu xatti-harakatlarni ko‘proq takrorlashga moyil bo‘ladilar” [2, 68-bet]. “Frustratsiya agressiya paydo bo‘lishining eng muhim psixologik manbalaridan biri hisoblanadi” [4, 80-bet). O‘spirinlik davrida shaxsiy identifikatsiya jarayoni faol kechadi va bu jarayon ba’zan konfliktli xatti-harakatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. “O‘spirinlik davrida agressiv xulq ko‘pincha shaxsning o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoji va ijtimoiy muhit ta’siri bilan bog‘liq holda yuzaga keladi” [3, 71-bet]. Tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishida biologik va fiziologik jarayonlar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘spirinlik davrida organizmda gormonal o‘zgarishlar sodir bo‘lib, bu emotsional reaktivlikni kuchaytiradi. “O‘spirinlik davridagi gormonal o‘zgarishlar emotsional reaktivlikni kuchaytirib, ba’zi hollarda agressiv reaksiyalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi” [5, 72-bet].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlarning o‘yin davomida tajovuzkor xatti-harakatlari psixologik va fiziologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, agressiya ko‘pincha kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganiladi. Frustratsiya-agressiya nazariyasi esa maqsadga erisha olmaslik agressiv reaksiyalarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, o‘spirinlik davridagi gormonal o‘zgarishlar, emotsional beqarorlik va tengdoshlar ta’siri ham agressiv xulqning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli o‘yin faoliyatini psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, konstruktiv raqobatni rivojlantirish hamda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish o‘spirinlar agressiyasining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy psixologiya, yosh psixologiyasi va psixofiziologiya fanlari hamda ijtimoiy o‘rganish, frustratsiya-agressiya va biopsixologik yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqot shaxs rivojlanishining kompleks tizimli yondashuvi asosida o‘spirinlar tajovuzkor xatti-harakatlarini psixologik, ijtimoiy va biologik omillar o‘zaro ta’siri doirasida tahlil qiladi.

Tadqiqotda nazariy (adabiyotlar tahlili, solishtirish, umumlashtirish, konseptual tahlil) va empirik (kuzatish, psixodiagnostik testlar, psixofiziologik o‘lchovlar) metodlar qo‘llanildi. Kuzatish orqali o‘yin jarayonidagi xatti-harakatlar qayd etildi, testlar yordamida agressivlik darajasi aniqlanib, psixofiziologik metodlar orqali yurak urish tezligi, emotsional qo‘zg‘alish va stress reaksiyalari o‘rganildi hamda zamonaviy ilmiy manbalar monitoringi olib borildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari matematik-statistik, korrelyatsion va taqqoslash usullari asosida tahlil qilinib, diagramma va jadvallar orqali vizual ifodalandi. Ushbu yondashuv psixologik va fiziologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o‘spirinlarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan tajovuzkor xatti-harakatlar psixologik va fiziologik omillarning integratsiyasi asosida kompleks o‘rganildi. Natijalar zo‘ravonlik elementlari mavjud o‘yinlar agressiv fikrlashni kuchaytirishini, o‘yin jarayonida fiziologik qo‘zg‘alish ortishini hamda tajovuzkor xulq psixologik va biologik omillar ta’sirida, individual xususiyatlarga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. O‘spirinlarning o‘yin faoliyati davomida yuzaga keladigan tajovuzkor xatti-harakatlar murakkab psixologik va fiziologik mexanizmlar bilan bog‘liq. O‘yin jarayonida yuzaga keladigan raqobat, frustratsiya va emotsional qo‘zg‘alish o‘spirinlarning psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, markaziy nerv tizimi faoliyati, gormonal o‘zgarishlar va biologik mexanizmlar ham tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘spirinlarda tajovuzkorlikning oldini olish uchun: sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish; o‘yin faoliyatini nazorat qilish; psixologik profilaktika choralarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar: tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. O‘spirinlarda emotsional barqarorlik va konfliktni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi psixologik dasturlarni joriy etish.
2. Sog‘lom raqobat va xavfsiz o‘yin muhitini ta’minlash, zo‘ravonlik ta’sirini cheklash.
3. Ota-onalar uchun psixologik maslahat va profilaktika tizimini yo‘lga qo‘yish.
4. Maktabda muntazam psixologik diagnostika va profilaktik ishlarni tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. Алберт Бандура, Ричард Валтерс. Подростковая агрессия. – Москва: Прогресс, 1999. – 512 с. – С. 34, 56.

2. Albert Bandura. Aggression: A Social Learning Analysis. – New Jersey: Prentice Hall, 1973. – 390 p. – P. 68, 112.
3. Robert Baron, Deborah Richardson. Human Aggression. – New York: Springer, 2011. – 320 p. – P. 71, 142.
4. Leonard Berkowitz. Aggression: Its Causes, Consequences and Control. – New York: McGraw-Hill, 1993. – 365 p. – P. 80, 95.
5. Т.Г.Румянсева, И.Б.Бойко. Агресия в подростковом возрасте. – Москва: Педагогика, 2002. – 210 с. – С. 72, 105.
6. В.А.Кратко. Психология подростка. – Москва: Академия, 2004. – 256 с. – С. 88, 134.
7. А.А.Реан. Психология агрессивного поведения. – Санкт-Петербург: Питер, 2007. – 304 с. – С. 59, 120.
8. David Myers. Social Psychology. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 720 p. – P. 302, 315.

TALABALARNING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Boymurodov Bobir Elmurodovich,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining katta o‘qituvchisi
boymurodovbe@gmail.com

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida interfaol metodlar yordamida ta’lim yo‘nalishi talabalarining motivatsiyasini kuchaytirish orqali kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo‘lib, talabalarda kasbiy salohiyatini oshirishning qisqacha bayoni keltirilgan.

Shuningdek, grafik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, grafik dasturlar bilan ishlash malakalarini oshirish va vizual tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi bu esa talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashiga, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, grafik kompetentlik, motivatsiya, kreativ yondashuv, multimedia, animatsiya, mediamahsulot, mantiqiy fikrlash.*

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ.

В данной статье освещаются вопросы развития профессиональной графической компетентности путем повышения мотивации студентов в системе высшего образования с использованием интерактивных методов, а также дается краткое описание способов повышения профессионального потенциала студентов. Подчеркивается также важность использования современных информационно-коммуникационных технологий, совершенствования навыков работы с графическими программами и развития визуального мышления в процессе формирования графической компетентности, что создает основу для эффективной работы студентов в будущей профессиональной деятельности и становления конкурентоспособными специалистами.

Ключевые слова: *компетентность, графическая компетентность, мотивация, креативный подход, мультимедиа, анимация, медиапродукт, логическое мышление.*

METHODOLOGY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL GRAPHIC COMPETENCE.

This article highlights the issues of developing professional graphic competence by increasing the motivation of students in the higher education system using interactive methods, and provides a brief description of how to increase the professional potential of students. It also highlights the importance of using modern information and communication technologies, improving skills in working with graphic programs, and developing visual thinking in the process of developing graphic competence, which creates the basis for students to work effectively in their future professional activities and become competitive specialists.

Key words: *competence, graphic competence, motivation, creative bias, multimedia, animation, mediamahsulot, logical reasoning.*

Kirish. Ta’lim – bu shaxsning intellektual, ma’naviy, jismoniy va madaniy rivojlanishining asosi, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, iqtisodiy farovonligi hamda jamiyat va davlat rivojlanishining umumiy qadriyatlar va madaniyat bilan birlashtirilgan kalitidir. Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda ta’lim yo‘nalishi talabalarining axborot kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish orqali kasbiy grafik kompetentligini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois YUNESKOning strategik loyihalarida belgilangan me‘yorlar va xalqaro standartlarga asoslanib, 3D o‘lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, AKT bilan samarali ishlash ko‘nikmalari va kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djuraev, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, N.N.Azizxodjayeva, D.O.Himmataliyev, B.A.Nazarovalar tomonidan o‘rganilgan. Y.P.Vox,

G.A.Galenyuk, S.V.Jilich, G.M.Klochkova, T.K.Musalimov, T.P.Petlina, AD.F.Ko‘chkarova, D.C.Saidahmedova, S.S.Saydaliev, A.K.Xamraqulov, G.A. Kayumova, Ch.T.Shokirovalarning ilmiy ishlarida bo‘lajak mutaxassislarda aynan grafik tayyorgarligi va grafik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan.

Masalaninng qo‘yilishi. Jahon amaliyotida ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, obyektlarning funksional va konstruktiv o‘ziga xosligini bilishga asoslangan ko‘nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo‘llash, grafik kasbiy yo‘nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo‘yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, texnologiya o‘qituvchisi yo‘l qo‘yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrektiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim yo‘nalishida muhandislar tayyorlaydigan davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi[1].

Tadqiqotning obyekti. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim yo‘nalishi talabalarining motivatsiyasini kuchaytirish orqali kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish orqali kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish mazmuni va metodikasi

Maqolaning ilmiy ahamiyati. Interfaol ta’lim texnologiyalari va metodlari vositasida talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Interfaol metodlar o‘zaro fikr almashishga, o‘zaro fikrlarni to‘ldirishga, noverbal hamda verbal ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo‘llashda o‘zaro ta’sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta’sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo‘naltirish, noma’lum holatni kashf etishga ko‘mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo‘llaniladi: o‘qitishning ko‘rgazmali metodi; mustaqil ishlar metodi; muammoli-evristik modellashtirish metodi; ilmiy tadqiqot metodlari; o‘qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari; o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari; o‘qitishning nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari. Metodlar quyidagi guruhlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og‘zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitob, konspektlar va h.k.lardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlarni o‘quv jarayonida qo‘llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha talabalar tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, interfaol metodlar ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Interaktiv metodlar – jamoa bo‘lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabaning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Har bir o‘qituvchidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o‘zining kasbiy faoliyatida o‘rinli foydalana olish malakalariga ega bo‘lishlik talab qilinadi. Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e’tibor bilan kuzatadi, kerak bo‘lganda jonli muloqotga chorlaydi [2].

Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va dars(modul) oxirida faol talabalarga qo‘yilgan ballar yoki baholarni e’lon

qiladi. E.M.Fazlulin, V.A.Ryabov, O.A.Yakovuklar ham OTM pedagoglari oldida turgan vazifalardan biri o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash ekanligiga alohida urg‘u beradi. Shu bois OTMning pedagoglari ularni to‘g‘ri tanlashga alohida e’tibor qaratishlari talab qilinadi.

OTMda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda o‘quv mashg‘ulotlari, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim metodlarini tanlashga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish va motivasiyani hosil qilish; ularning o‘quv-bilish faolligini oshirish; talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlash; talabalar tomonidan mutaxassislik fanlari asoslarini o‘qitish sifatini yaxshilash; mutaxassislik fanlarini o‘qitishning samaradorligini oshirish[3].

Tadqiqotni olib borish jarayonida ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarda interfaol metodlardan samarali foydalanishga e’tibor qaratildi. Bunda, eng avvalo, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlar uchun ularning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda kutilgan natijani ta’minlay olish imkoniyatiga ega interfaol metodlar tanlandi. Ya’ni:

I.Nazariy mashg‘ulotlar uchun tanlangan interfol metodlar:

1.“Beshinchisi ortiqcha” strategiyasi asosida “Audio video montaj” fani bo‘yicha talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirganliklarini aniqlash.

“Beshinchisi ortiqcha” strategiyasi talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu strategiya alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

3) talabalarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

4) talabalarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tish, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslash talab qilinadi).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsata va asoslay olish talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g‘oyalarni o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

1-jadval.

“Audio-video montaj” fani bo‘yicha ish qog‘ozi jadvali

№	**Guruhlar**	**Tushunchalar tizimi**
1	1-guruh	audio – video – animatsiya – tasvir – nuqta
2	2-guruh	vektorli – effekt – raster – fraktal – 3D
3	3-guruh	protsedurali – shape – brauzer – kalit kadrli – dasturlashtirilgan
4	4-guruh	matn – audio – grafikalar – video – google

2-jadval.

“Audio-video montaj” fani bo‘yicha topshiriqning bajarilishi (namuna) jadvali

№	Guruhlar	Tushunchalar tizimi
1	1-guruh	audio – video – animatsiya – tasvir – **nuqta**
2	2-guruh	vektorli – **effekt** – raster – fraktal – 3D
3	3-guruh	protsedurali – shape – **brauzer** – kalit kadrli – dasturlashtirilgan
4	4-guruh	matn – audio – grafikalar – video – **google**

2.“Tushunchalarning ta’rifi” metodi asosida “Audio video montaj uchun zamonaviy multimediya texnologiyalari” moduli bo‘yicha talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirganliklarini aniqlash.

3-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimediya texnologiyalari” moduli bo‘yicha ish qog‘ozi

№	Tushunchalar	Ularning ta’rifi
1	Multimedia	

2	Media	
3	Rang	
4	Mediamahsulot	

4-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimediya texnologiyalari” moduli bo‘yicha topshiriqning bajarilishi (namuna)

№	Tushunchalar	Ularning ta’rifi
1	Multimedia	Kompyuter kabi axborot vositalaridan foydalanish va matn, masalan, axborotni taqdim etishning an’anaviy usullaridan tashqari, audio, video, animatsiya, tasvirlar va boshqalar kabi barcha mumkin bo‘lgan ma'lumotlar bilan foydalanuvchini ma’lumot bilan ta‘minlashi mumkinligini anglatadi.
2	Media	Faqat hissiy organ tomonidan qabul qilinadigan aloqa vositasidir. Misol uchun siz eshitishingiz yoki ko‘rishingiz mumkin bo`lgan ma’lumotlarga ega gazeta, kitoblar, rasmlar, audio yozuvlar va boshqa narsalar.
3	Rang	Moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug‘likning muayyan ko‘rish tuyg‘usini hosil qilish xossasi
4	Mediamahsulot	Mediamahsulotlar taqdimotlar va o`yinlar, musiqiy videolar va reklamalar, Internet saytlari va Kompyuter dasturlari (masalan, “Dunyo bo‘ylab” GPS qo‘llanmasi), videokartalar va multimedia vositalari yordamida auditoriyaga ma’lumot yetkazishning boshqa usullari kiradi.

3. “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) GO asosida talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirganliklarini aniqlash.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) grafik organayzeri mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. U talabalarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti quyidagicha: 1) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi; 2) talabalarning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi; 3) o‘quvchilar qayd etgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi; 4) talabalarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi; 5) talabalarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo‘yiladi; 6) o‘qituvchi talabalarga yangi mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni beradi; 7) talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

5-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimediya texnologiyalari” moduli bo‘yicha Ish qog‘ozi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Multimedia Media Rang	Mediamahsulotlar Mediamahsulotlar turlari Rang modellari	Media mahsulotlar Intervyu Xabar Hisobot Reportaj Kompyuter animatsiyasi turlari RGB, CMYK, HSV, LAB rang modellari

6-jadval.

“Audio video montaj uchun zamonaviy multimediya texnologiyalari” moduli bo‘yicha topshiriqning bajarilishi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Multimedia Media Rang	Media mahsulotlar Media mahsulotlar turlari Rang modellari	Media mahsulotlar Intervyu Xabar Hisobot

		Reportaj Kompyuter animatsiyasi turlari RGB, CMYK, HSV, LAB rang modellari

7-jadval.

“Videomontaj uchun dasturiy vositalar to‘plami” moduli bo‘yicha ish qog‘ozi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

8-jadval.

“Videomontaj uchun dasturiy vositalar to‘plami” moduli bo‘yicha topshiriqning bajarilishi (namuna)

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Video montaj 2. Audio montaj 3. Montaj rutlari	1. Videomontaj dasturlari 2. Videomontaj dasturiy vositalari 3. Audiomontaj dasturiy vositalari 4. Videomontaj dasturiy vositalarining asosiy plaginlari	1. Videomontaj dasturlarini 2. Videomontaj dasturiy vositalarini 3. Audiomontaj dasturiy vositalarini 4. Videomontaj dasturiy vositalarining asosiy plaginlarini

Xulosa va tahlillar. Tadqiqot natijalariga asolanib talabalarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli ishlab chiqildi, mazkur modelda muhandislarning kasbiy grafik kompetentlikni va ijodkorlikni shakllantirish samaradorligini baholanishi interfaol ta’lim texnologiyalari va metodlari asosida o‘qitish natijasida mutaxasislik fanlaridan bilimlarni egallab, ularni o‘z kasbiy faoliyatini egallash jarayonida samarali qo‘llashi kabi holatlar nazarda tutiladi.

Talabalarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti mazmuni interfaol metodlari va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda to‘ldirildi va takomillashtirildi.

Takliflar:

Mutaxassislik fanlarni o‘qitish sohasidagi mavjud texnika va texnologiyalarni grafik modellashtirish orqali ko‘rib chiqish lozim;

interfaol o‘qitish usullarining talabalarning motivatsiyasi va ularning kasbiy grafik kompetentsiyasiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot natijalarini qo‘llash;

ushbu sohada interfaol o‘qitish usullarining samaradorligini namoyish etish uchun aniq misollar va ish bosqichlarini qo‘llash;

kasbiy grafik kompetentsiyani rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga interfaol usullar orqali kuchaytirilgan motivatsiyani joriy etish uchun texnologik xaritalarni qo‘llash.

Adabiyotlar:

1. Asqarova O‘.M., Nonov M.S., Kurbanova Z.B., Muminova D.A. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent. 2019. 365 b.

2. Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o‘qitish samaradorligini oshirish. Diss. ... ped.fan.nom. –Andijon. 2009 – 132 b.

3. Muslimov N. va boshq. Pedagogika / Nopedgogik OTM uchun). – T.: TDPU. 2013. 95 b

4. Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda uch o‘lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi: ped.fanl. bo‘yicha fals.dokt. ... dis. – T.: 2018. – 160 b.

5. Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo‘naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010.128b.

6. Дилшодбеков Ш. Д. Компьютер графикаси асосида муҳандислик графикаси фанларини ўқитишнинг инновацион усули. 13.00.02. Т.: 2020

7. X.X. Muratov. Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences volume 2, Issue 1, 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

8. Лебедев, А. В. Графическое моделирование как инструмент образовательной деятельности. // Педагогические науки, №4, 2021.

9. Бондаренко, В. А. Визуализация учебной информации в цифровой образовательной среде. — Москва: Просвещение, 2020.

10. Хўжаев А.А. Олий таълим муассасаларида таълим сифати мониторингини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси, 13.00.07 (PhD). Тошкент, 2019. – С. 130.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING DIQQATINI BOSHQARISHNING NEYRODIDAKTIK STRATEGIYALARI

Mamatqulov Doniyor Anvarovich,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori,
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Bahriyeva Gulhayo Nurillo qizi,
TMC instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchi,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi
b.gulhayo@tmci.uz

Mazkur maqolada biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning diqqatini boshqarish muammosi neyrodidaktik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Zamonaviy ta’lim sharoitida axborot yuklamasining ortishi va diqqat barqarorligining pasayishi biologik bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotda diqqatning neyropsixologik mexanizmlari tahlil qilinib, biologiya darslarida diqqatni faollashtirish, barqarorlashtirish va qayta tiklashga qaratilgan neyrodidaktik strategiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot kvazi-eksperimental usulda tashkil etilib, 7–8-sinf o‘quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Natijalar neyrodidaktik yondashuvlar diqqat davomiyligini oshirish, o‘quv faolligini kuchaytirish va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Maqolada biologiya ta’limini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *neyrodidaktika, diqqatni boshqarish, biologiya ta’limi, selektiv diqqat, kognitiv yuklama, multisensor o‘qitish, refleksiya, o‘quv faolligi*

NEURODIDACTIC STRATEGIES FOR MANAGING STUDENTS’ ATTENTION IN BIOLOGY LESSONS

This article examines the issue of managing students’ attention in biology education based on neurodidactic approaches. In modern educational environments, the increasing information load and decreasing attention stability negatively affect the effectiveness of learning biological concepts. The study analyzes the neuropsychological mechanisms of attention and develops neurodidactic strategies aimed at activating, sustaining, and restoring attention during biology lessons. The research is conducted using a quasi-experimental design with the participation of 7th–8th grade students. The findings indicate that neurodidactic strategies significantly improve attention span, enhance student engagement, and contribute to long-term knowledge retention. The article also provides scientific and practical recommendations for improving the quality of biology education.

Keywords: *neurodidactics, attention management, biology education, selective attention, cognitive load, multisensory learning, reflection, student engagement*

НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ ВНИМАНИЕМ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

В данной статье рассматривается проблема управления вниманием учащихся в процессе обучения биологии на основе нейродидактического подхода. В современных условиях увеличения информационной нагрузки и снижения устойчивости внимания эффективность усвоения биологических знаний существенно снижается. В исследовании анализируются нейропсихологические механизмы внимания и разрабатываются нейродидактические стратегии, направленные на его активизацию, поддержание и восстановление в процессе обучения. Исследование проведено с использованием квази-экспериментального метода с участием учащихся 7–8 классов. Полученные результаты показывают, что нейродидактические подходы способствуют увеличению продолжительности внимания, повышению учебной активности и улучшению долговременного запоминания материала. В статье предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию преподавания биологии.

Ключевые слова: *нейродидактика, управление вниманием, обучение биологии, селективное внимание, когнитивная нагрузка, мультисенсорное обучение, рефлексия, учебная активность*

Kirish. XXI asr ta’lim tizimi tubdan transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, bu esa o‘quvchilarning kognitiv faoliyati, ayniqsa, diqqat mexanizmlariga yangi talablarni qo‘ymoqda. Raqamli

texnologiyalarning keng tarqalishi, tezkor axborot oqimi va multimediya muhitining ustunligi natijasida o‘quvchilarning diqqatni uzoq muddat davomida bir nuqtaga jamlash qobiliyati sezilarli darajada pasayib bormoqda. Ushbu holat tabiiy fanlar, xususan, biologiya fanini o‘rganishda yanada keskin namoyon bo‘ladi, chunki biologik bilimlar murakkab tizimli tuzilishga ega bo‘lib, ularni o‘zlashtirish izchil va barqaror diqqatni talab qiladi.

Biologiya ta’limida diqqat muammosi nafaqat pedagogik, balki neyropsixologik jihatdan ham muhim hisoblanadi. Chunki diqqat – bu insonning tashqi va ichki axborotni tanlash, uni qayta ishlash va muhim elementlarini ajratib olish qobiliyatini ifodalovchi asosiy kognitiv jarayondir. Diqqatning yetarli darajada shakllanmaganligi o‘quv materialining yuzaki qabul qilinishiga, tushunmovchiliklarga va tez unutishga olib keladi. Shu bois biologiya fanini samarali o‘qitish jarayonida diqqatni boshqarish mexanizmlarini chuqur o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

An’anaviy didaktik yondashuvlarda o‘quv jarayoni ko‘proq bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning diqqatini boshqarish mexanizmlari yetarli darajada inobatga olinmaydi. Natijada o‘quvchilar passiv qabul qiluvchi subyektga aylanadi, ularning o‘quv faoliyatidagi ishtiroki kamayadi va bilimlar barqaror shakllanmaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘rib, uning psixologik va neyrofiziologik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, neyrodidaktika ta’lim jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlariga moslashtirish imkonini beruvchi innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Neyrodidaktika diqqatni boshqarish masalasini markaziy o‘ringa qo‘yadi, chunki har qanday o‘rganish jarayoni diqqat orqali boshlanadi. Diqqatning neyrobiologik asoslari miya faoliyatining turli tizimlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular axborotni tanlash, yo‘naltirish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Ilmiy adabiyotlarda diqqatning uch asosiy komponenti – ogohlik, yo‘naltirish va ijro nazorati ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu komponentlar o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va o‘quv faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Xususan, Michael Posner tomonidan ilgari surilgan diqqat tarmoqlari nazariyasi ushbu jarayonlarni tizimli ravishda tushuntirib beradi va pedagogik amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi.

Shuningdek, diqqatni boshqarishda kognitiv yuklama omili ham muhim rol o‘ynaydi. Axborotning ortiqcha yoki noto‘g‘ri tashkil etilishi ishchi xotira imkoniyatlarini cheklab, diqqatning tez chalg‘ishiga olib keladi. Shu jihatdan, John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasi ta’lim jarayonida axborotni optimallashtirish zarurligini asoslab beradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quv materialini mantiqiy bloklarga ajratish, vizual va verbal axborotni uyg‘unlashtirish hamda ortiqcha yuklamani kamaytirish diqqatni barqaror saqlashga yordam beradi.

Biologiya ta’limining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ko‘pincha abstrakt tushunchalar va mikrodarajadagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘quvchilardan yuqori darajadagi tasavvur, mantiqiy fikrlash va diqqatni talab qiladi. Agar ushbu jarayonlar neyropsixologik asosda tashkil etilmasa, o‘quvchilar materialni to‘liq anglay olmaydi. Shu bois biologiya darslarida diqqatni boshqarishning neyrodidaktik strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi biologiya darslarida o‘quvchilarning diqqatini boshqarishning neyrodidaktik strategiyalarini ishlab chiqish, ularning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari biologiya ta’limini takomillashtirish, o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va ta’lim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot biologiya ta’limida o‘quvchilarning diqqatini boshqarishning neyrodidaktik strategiyalarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, kompleks metodologik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot dizayni nazariy va empirik komponentlarning integratsiyasiga asoslanib, ta’lim jarayonining real sharoitida olib borilgan kvazi-eksperimental modelni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv biologiya darslarida qo‘llanilayotgan an’anaviy metodlar bilan neyrodidaktik strategiyalarni taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida diqqatning neyropsixologik asoslari, ta’lim jarayonida diqqatni boshqarish mexanizmlari hamda neyrodidaktikaning konseptual yondashuvlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Ushbu bosqichda diqqatning selektivligi, barqarorligi va ijro nazorati kabi komponentlari tizimlashtirildi hamda ularning biologiya ta’limidagi ahamiyati aniqlashtirildi. Nazariy tahlil natijalari asosida tadqiqotning konseptual modeli ishlab chiqildi, unda diqqatni boshqarish uch bosqichli jarayon sifatida qaraldi: diqqatni faollashtirish, uni barqarorlashtirish va qayta tiklash.

Empirik tadqiqot umumta’lim maktablarining 7–8-sinf o‘quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami ishtirokchilar teng sharoitda ikki guruhga – nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida biologiya darslari an’anaviy metodlar asosida olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida neyrodidaktik strategiyalar tizimli ravishda joriy etildi. Tadqiqotning bunday tashkil etilishi natijalarni obyektiv taqqoslash va intervensiyaning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Diagnostik bosqichda o‘quvchilarning boshlang‘ich diqqat darajasi aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning diqqatni bir faoliyatda saqlab turish davomiyligi, tashqi stimullarga chalg‘ish tezligi va o‘quv faoliyatidagi ishtirok darajasi kuzatish hamda maxsus ishlab chiqilgan test topshiriqlari orqali baholandi. Diagnostika jarayonida o‘quvchilarning diqqatni jamlash ko‘rsatkichlari vaqt birliklari orqali o‘lchandi, bu esa keyingi natijalarni aniq taqqoslash imkonini yaratdi.

Intervensiya bosqichida neyrodidaktik strategiyalar kompleks tarzda qo‘llanildi. Ushbu strategiyalar biologiya darslarining mazmuni va strukturasiga integratsiyalashgan holda joriy etildi. Xususan, diqqatni faollashtirish uchun muammoli savollar va kutilmagan vaziyatlar qo‘llanildi, bu o‘quvchilarda kognitiv qiziqishni uyg‘otdi. Multisensor yondashuv asosida ko‘rish, eshitish va kinestetik faoliyatlar uyg‘unlashtirilib, o‘quvchilarning bir nechta sezgi kanallari orqali axborotni qabul qilishi ta’minlandi. Vizual modellashtirish yordamida murakkab biologik jarayonlar grafik va sxematik ko‘rinishda tushuntirildi, bu esa diqqatni barqaror saqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, emotsional stimullar orqali o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Dars jarayonida real hayotiy misollar, qiziqarli faktlar va interaktiv elementlar qo‘llanilib, o‘quvchilarning emotsional jalb etilishi kuchaytirildi. Axborotni taqdim etishda kognitiv yuklamani boshqarish maqsadida material kichik, mantiqiy bloklarga ajratildi, bu esa ishchi xotiraning ortiqcha yuklanishining oldini oldi. Ushbu yondashuv diqqatning uzoq muddat davomida saqlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi. Diqqat davomiyligi, o‘quv faolligi va bilimlarni eslab qolish darajasi asosiy baholash mezonlari sifatida qabul qilindi. Natijalarni tahlil qilishda taqqoslash, umumlashtirish va foizli ko‘rsatkichlar usullaridan foydalanildi. Bu esa neyrodidaktik strategiyalarning biologiya ta’limidagi samaradorligini aniq baholash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlab, biologiya darslarida diqqatni boshqarishning samarali mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari biologiya darslarida neyrodidaktik strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning diqqat faoliyatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostik bosqichda o‘quvchilarning diqqatni jamlash davomiyligi past darajada bo‘lib, o‘rtacha 10–12 daqiqa atrofida bo‘lgan. Tajriba bosqichida neyrodidaktik yondashuvlar tizimli ravishda joriy etilgach, ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Quyidagi jadvalda diqqat davomiyligining o‘zgarish dinamikasi keltirilgan:

Jadval 1. O‘quvchilarning diqqat davomiyligi dinamikasi

Ko‘rsatkich	**Nazorat guruhi**	**Tajriba guruhi**
Boshlang‘ich bosqich	11 daqiqa	12 daqiqa
Yakuniy bosqich	15 daqiqa	27 daqiqa
O‘sish (%)	+36%	+125%

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida diqqat davomiyligi ikki barobardan ortiq oshgan. Bu esa neyrodidaktik strategiyalarning diqqatni barqarorlashtirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Diagramma 1. Diqqat davomiyligining o‘zgarish grafigi



Mazkur diagrammadan ko‘rinadiki, tajriba guruhida diqqatning o‘sish sur’ati nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori.

O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi ham alohida tahlil qilindi. Faollik darajasi o‘quvchilarning savollarga javob berishi, muhokamalarda ishtiroki va amaliy topshiriqlarga jalb etilishi orqali baholandi.

Jadval 2. O‘quv faolligi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Boshlang‘ich	48%	50%
Yakuniy	55%	82%
O‘sish	+7%	+32%

Diagramma 2. Faollik darajasi



Natijalarga ko‘ra, neyrodidaktik yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshirgan. Bu esa diqqatning faollashuvi bilan bevosita bog‘liq.

Bilimlarni o‘zlashtirish va eslab qolish darajasi ham muhim mezon sifatida o‘rganildi. Bu ko‘rsatkich test natijalari asosida aniqlanib, o‘quvchilarning o‘rganilgan materialni qay darajada eslab qolganini aks ettiradi.

Jadval 3. Bilimlarni eslab qolish darajasi

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Natija (%)	58%	79%

Diagramma 3. Xotira samaradorligi



Mazkur natijalar neyrodidaktik strategiyalar nafaqat diqqatni oshirish, balki bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida diqqatning pasayishi kuzatilgan paytlarda qisqa muddatli faoliyat o‘zgarishlari, interaktiv topshiriqlar va emotsional stimullar yordamida

o‘quvchilarning diqqatini qayta tiklash mumkin bo‘lgan. Bu esa diqqatni boshqarish jarayonining dinamik va boshqariladigan tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, natijalar biologiya ta’limida neyrodidaktik strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning diqqat faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashini, ularning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlashini va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari biologiya ta’limida neyrodidaktik strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning diqqat faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Olingan natijalar nafaqat empirik jihatdan ahamiyatli, balki mavjud neyropsixologik nazariyalar bilan ham mos keladi. Xususan, diqqat davomiyligining ikki barobardan ortiq oshgani o‘quv jarayonini miya faoliyatining tabiiy mexanizmlariga moslashtirish samarali ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat diqqatning faqat passiv psixologik holat emas, balki faol boshqariladigan va rivojlantiriladigan kognitiv jarayon ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan diqqatning faollashuvi va barqarorlashuvi Michael Posner tomonidan asoslangan diqqat tarmoqlari nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, diqqat uchta asosiy tizim – ogohlik, yo‘naltirish va ijro nazorati orqali boshqariladi. Neyrodidaktik strategiyalar aynan ushbu tizimlarga mos ravishda tashkil etilgani sababli, o‘quvchilarning diqqat faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Masalan, muammoli savollar orqali ogohlik tizimi faollashgan bo‘lsa, vizual materiallar yordamida yo‘naltirish tizimi kuchaygan, refleksiya va tahlil jarayonlari esa ijro nazoratini rivojlantirgan.

Natijalarda kuzatilgan yana bir muhim jihat – o‘quvchilarning faollik darajasining oshishidir. Bu holat diqqat va motivatsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Emotsional stimullar va interaktiv metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda ichki qiziqish uyg‘otib, ularni faol o‘quv faoliyatiga jalb etgan. Bu esa, o‘z navbatida, diqqatning uzoqroq saqlanishiga olib kelgan. Mazkur natijalar emotsiya va o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlovchi zamonaviy neyropsixologik qarashlar bilan hamohangdir.

Bilimlarni eslab qolish ko‘rsatkichlarining oshishi diqqat va xotira o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Diqqatning kuchayishi axborotning chuqurroq qayta ishlanishiga olib keladi, bu esa uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishni ta’minlaydi. Ushbu jarayon John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasi bilan izohlanadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan axborotni bo‘laklash (chunking) usuli ishchi xotiraning ortiqcha yuklanishini kamaytirib, diqqatni samarali boshqarish imkonini yaratgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari diqqatni qayta tiklash strategiyalarining ahamiyatini ham ko‘rsatdi. Dars jarayonida diqqatning pasayishi tabiiy holat bo‘lib, uni vaqtida aniqlash va mos metodlar orqali qayta tiklash muhim hisoblanadi. Interaktiv faoliyatlar, faoliyat turini o‘zgartirish va qisqa emotsional stimullar diqqatni tiklashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa diqqatni boshqarish jarayonining statik emas, balki dinamik tizim ekanligini anglatadi.

Biroq tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ayrim cheklovlarni ham inobatga olish zarur. Tadqiqot faqat ma’lum yosh guruhidagi o‘quvchilar bilan olib borilgani sababli, natijalarni barcha ta’lim bosqichlariga to‘liq tatbiq etish ehtiyotkorlikni talab etadi. Shuningdek, individual psixologik farqlar, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va tashqi muhit omillari ham diqqat ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot biologiya ta’limida neyrodidaktik yondashuvlarni qo‘llash diqqatni boshqarishning samarali vositasi ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv nafaqat diqqatni oshirish, balki o‘quvchilarning umumiy kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot biologiya darslarida o‘quvchilarning diqqatini boshqarish muammosini neyrodidaktik yondashuvlar asosida o‘rganishga qaratildi va olingan natijalar ushbu yo‘nalishning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy o‘qitish metodlari o‘quvchilarning diqqatini barqaror saqlashda yetarli darajada samarali emas, bu esa biologik bilimlarning yuzaki o‘zlashtirilishiga olib keladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlariga moslashtirish orqali diqqatni boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Tajriba natijalari neyrodidaktik strategiyalarni tizimli qo‘llash o‘quvchilarning diqqat davomiyligini oshirish, ularning o‘quv faoliyatidagi ishtirokini kuchaytirish va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, diqqatni faollashtirish uchun muammoli vaziyatlardan foydalanish, multisensor yondashuv asosida turli sezgi kanallarini jalb qilish, emotsional stimullar orqali ichki motivatsiyani kuchaytirish va axborotni mantiqiy bloklarga ajratish kabi metodlar yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Ushbu strategiyalar o‘quvchilarning nafaqat diqqatini, balki ularning umumiy kognitiv faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda olingan natijalar diqqat va xotira o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham tasdiqladi. Diqqatning barqarorligi oshgan sari o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan materialning uzoq muddatli xotirada saqlanish darajasi ham ortadi. Bu esa biologiya kabi murakkab fanlarni o‘rganishda neyrodidaktik yondashuvlarning

ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida kognitiv yuklamani optimallashtirish, axborotni tizimli va bosqichma-bosqich taqdim etish muhim metodik talab sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot natijalari diqqatni boshqarish jarayoni dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ya’ni diqqatni faqat faollashtirish emas, balki uni dars davomida barqaror saqlash va zarur holatlarda qayta tiklash ham muhim hisoblanadi. Bu jarayonda faoliyat turini o‘zgartirish, interaktiv metodlardan foydalanish va qisqa emotsional stimullar qo‘llash samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib, biologiya ta’limida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: o‘quv jarayonini neyrodidaktik tamoyillar asosida qayta tashkil etish, diqqatni boshqarishga qaratilgan strategiyalarni darsning barcha bosqichlariga integratsiyalash, multisensor va interaktiv metodlardan tizimli foydalanish hamda o‘quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olish. Ushbu yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va refleksiv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar neyrodidaktik strategiyalarni turli yosh guruhlari va fanlar kesimida qo‘llash imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishda neyropsixologik omillarni hisobga olishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, biologiya ta’limida neyrodidaktik yondashuvlarni joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev, J.G. (2023). Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Qurbonov, A.A. (2021). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Ishmuhamedov, R.J., & Abduqodirov, A.A. (2022). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularni ta’limda qo‘llash. Toshkent: Tafakkur.
4. Abdullayeva, M.I. (2024). Neyropedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish samaradorligini oshirish. Pedagogika jurnali, 3(2), 45–52.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023). Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent.
6. Sousa, D.A. (2021). How the Brain Learns (5th ed.). Thousand Oaks, CA: Corwin Press.
7. Mayer, R.E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
8. OECD (2023). The Nature of Learning: Using Research to Inspire Practice. Paris: OECD Publishing.
11. Леонтьев, А.А. (2021). Психология обучения и педагогическая психология. Москва: Академия.
12. Зимняя, И.А. (2021). Педагогическая психология. Москва: Логос.
13. Вербицкий, А.А. (2022). Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. Москва: Юрайт.
14. Смирнов, С.Д. (2020). Психология и педагогика: учебник для вузов. Москва: Проспект.

UO’K 371.13:004.4

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TA’LIM DIZAYNI KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Avazova Munisa Sharof qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
munisaavazova09@gmail.com

Bugungi kunda ta’lim tizimi islohoti, zamonaviy o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Inson kapitali taraqqiyotining zamonaviy bosqichida pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish zamon talabi sifatida ilgari surilmoqda. Chunki har qanday sohada, xususan, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilg‘or o‘qitish metodlari muhim o‘rin tutadi. Natijada, ta’lim dizayni va uning kompetensiyalarini shakllantirish vositalari pedagogik faoliyat samaradorligi, ta’lim jarayonini loyihalash va boshqarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim dizayni, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, bo‘lajak pedagog, loyiha asosida o‘qitish, zamonaviy o‘qitish metodlari, digital ta’lim, portfoliosozlik, o‘quv jarayonini dizaynlash.*

ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ДИЗАЙНА У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Сегодня все большую актуальность приобретают вопросы реформирования системы образования, эффективной организации современного образовательного процесса и подготовки конкурентоспособных кадров. На современном этапе развития человеческого капитала подготовка педагогических кадров, повышение их профессиональных навыков, особенно формирование компетенций в области образовательного проектирования у будущих педагогов, выдвигаются в качестве актуального требования времени. Это объясняется тем, что в любой сфере, в частности, в системе образования, важную роль играют инновационные подходы, современные информационно-коммуникационные технологии, передовые методы обучения. В результате, образовательное проектирование и средства формирования его компетенций служат ключевым фактором эффективности педагогической деятельности, проектирования и управления образовательным процессом.

Ключевые слова: *образовательное проектирование, педагогическая компетенция, инновационные технологии, будущий педагог, проектное обучение, современные методы обучения, цифровое образование, построение портфолио, проектирование образовательного процесса.*

TECHNOLOGIES FOR FORMING EDUCATIONAL DESIGN COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Today, the issues of reforming the education system, effectively organizing a modern educational process, and training competitive personnel are becoming increasingly relevant. At the modern stage of human capital development, the training of pedagogical personnel, improving their professional skills, especially the formation of educational design competence in future educators, are put forward as a requirement of the time. Because in any field, in particular, in the education system, innovative approaches, modern information and communication technologies, advanced teaching methods play an important role. As a result, educational design and the means of forming its competencies serve as a key factor in the effectiveness of pedagogical activity, the design and management of the educational process.

Keywords: *educational design, pedagogical competence, innovative technologies, future educator, project-based learning, modern teaching methods, digital education, portfolio construction, educational process design.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning taraqqiyoti, raqobatbardosh iqtisodiyot va fan-texnika yutuqlari, birinchi navbatda, sog‘lom, bilimli va malakali insonlarni tarbiyalashga bog‘liq. Shu sababli, ta’lim sohasidagi islohotlar, yangicha yondashuvlar va innovatsion g‘oyalar kundan kunga tobora dolzarb

bo‘lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ta’lim tizimini takomillashtirish, mazmun va shakl jihatidan yangilash, zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon miqyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, bilim va axborot muhitining tezkor rivojlanishi, innovatsion va interfaol ta’lim texnologiyalarining keng joriy qilinishi pedagogika sohasiga ham tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Endilikda o‘quv jarayoni samaradorligi, darslarning interfaolligi, bilimlarning hayotga tatbiq qilinganligi, o‘quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi pedagogdan yangicha yondashuv, keng dunyoqarash, zamonaviy dizayn va boshqaruv texnologiyalariga ega bo‘lishni talab etadi. Xususan, bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining eng dolzarb va muhim jihatlaridan sanaladi. Bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilari fundamental nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kreativ fikrlash, analitik yondashuv va innovatsion tashabbuslarga ega bo‘lishi kerak. Chunki ta’lim dizayni faqat o‘quv dasturini yoki dars rejalarini tuzish emas, balki u har bir o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, hayotga tadbiq qilinadigan bilim va malakalarga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Ta’lim dizaynining asoslari, uning didaktik, psixologik va metodik mezonlari, loyihaviy faoliyat va innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unligi o‘qituvchi kasbini tashkiliy va mazmunan yangilashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi bo‘lajak pedagog - bu nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ichki salohiyatini ochib beruvchi, ularni yangi yutuqlarga ilhomlantiruvchi, o‘z ustida doimiy ishlovchi va raqamli texnologiyalardan puxta foydalanuvchi mutaxassis bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi o‘zgaruvchan va raqobatbardosh ta’lim muhitida, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda innovatsion va kreativ yondashuv asosida ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish g‘oyat muhim. Bu, o‘z navbatida, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan yoshlar kamolotiga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Ushbu tadqiqotning asosiy obyekti - pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan bo‘lajak pedagoglardir. Aynan ular zamonaviy ta’lim dizayni kompetensiyasini o‘zlashtirishlari, o‘z amaliy faoliyatlarida noan’anaviy yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘lishlari jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, anketalash, kuzatish, psixologik-diagnostik usullar, intervyu va suhbatlar hamda amaliy eksperiment tashkil etildi. Tadqiqotda ilmiy manbalar asosida ta’lim dizayni kompetensiyasining asosiy mohiyati, konseptual asoslari o‘rganildi. Bo‘lajak pedagoglarda ushbu kompetensiyani shakllantirish yo‘llari, texnologiyalari, pedagogik va metodik takomillashtirish strategiyalari har tomonlama tahlil qilindi. O‘quv jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, loyiha asosida o‘qitish, masofaviy ta’lim, interaktiv usullar asosida ta’lim dizaynini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari chuqur o‘rganildi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar, innovatsion g‘oyalar, raqamlashtirish jarayonlari pedagoglarni muntazam yangilanishga, kasbiy mahorat va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishga undaydi. Xususan, ta’lim dizayni – bu o‘quv jarayonining har bir qismida yaxlitlik, mantiqiy izchillik, natijaviylik va zamonaviylikni ta’minlash imkonini beruvchi muhim jarayon hisoblanadi. Ta’lim dizayni kompetensiyasi pedagogdan yuqori kreativlik, analitik fikrlash, tanqidiy yondashuv, loyihalash, o‘quv muhitini samarali tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish ko‘nikmalarini talab etadi. Pedagogikada ta’lim dizayni asosan o‘quv dasturlari, dars va mashg‘ulotlar, interfaol resurslar, onlayn platformalar, vizual va audio vositalar, multimediya texnologiyalari asosida yangilanish va takomillashishga yordam beradi. Masalan, bo‘lajak pedagoglar uchun maxsus treninglar, seminarlar, loyiha yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari, masofaviy interaktiv darslar, portfoliosozlik, video va prezentatsiya texnologiyalari, refleksiya asosida o‘qitish kabi zamonaviy metod va texnologiyalar juda muhim hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, hozirgi vaqtda ta’lim jarayonini an’anaviy usullar asosida tashkil etishda ko‘plab kamchiliklar, demotivatsiya, passivlik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarning yetishmasligi kuzatiladi. Bo‘lajak pedagogda esa aynan ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish orqali quyidagi asosiy natijalarga erishiladi: o‘quv jarayonida loyihalash mahorati ortadi, o‘quvchilarda darsga qiziqish va motivatsiya kuchayadi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalaniladi, har bir mashg‘ulotda kreativlik va natijaviylik yuqori bo‘ladi. Ta’lim dizayni kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: analitik va tanqidiy fikrlash; kreativ va loyihaviy muammolar hal etish ko‘nikmalari; interaktiv metod va usullardan samarali foydalanish; didaktik va psixologik materiallarni o‘rinli tanlash; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; multimediya va innovatsion resurslar yordamida dars jarayonini tashkil qilish; ta’lim mazmunini o‘quvchilarning yosh imkoniyatlariga moslashtirish; ta’lim samaradorligini baholash va monitoring qilish [2].

Bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi texnologiyalar samarali bo‘ladi:

- Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi. Bu texnologiya asosida talabalar o‘quv loyihalari, didaktik vositalar yoki interaktiv dars ishlanmalarini mustaqil ravishda yaratishadi. Natijada o‘z bilimini amaliyotda sinab ko‘rish va yangi innovatsion g‘oyalar ishlab chiqishga tayyor bo‘lishadi.

- Masofaviy va aralash ta’lim texnologiyasi. Unda onlayn muhit, virtual platformalar, elektron ta’lim resurslari va interaktiv darslar asosida ta’lim dizayni amalga oshiriladi. Bu pedagoglarda digital savodxonlik, zamonaviy axborot-multimedia vositalaridan foydalanish hamda innovatsion resurslarni yaratish kompetensiyasini kuchaytiradi.

- Trening va master-klasslar orqali o‘rgatish. Bunday mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagoglarni har tomonlama ishtiyoq bilan o‘qitishga, dars jarayonini ijodiy tashkil etishga, baholash hamda monitoring qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Portfoliosozlik texnologiyasi asosan har bir pedagog o‘zining professional yutuqlari, loyihalari, mashg‘ulot materiallari, refleksiya va natijalarini yig‘adi va tahlil qiladi. Bu yondashuv tadqiqot va kreativ fikrlash, mustaqil ishlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

- Gamifikatsiya va interfaollik texnologiyalari. O‘quv jarayoniga interaktiv vositalar, o‘yin elementlari, raqamli resurslar, video va audio materiallarni joriy etish orqali talabalarni jalb qilish va motivatsiyasini oshirish mumkin.

O‘tkazilgan kuzatish va eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasi shakllangan sari ular o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda loyihalash, har xil innovatsion resurslardan samarali foydalanish, mashg‘ulotlarning natijaviyligi va samaradorligini oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Bunda, eng avvalo, bo‘lajak pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, didaktik vositalarni yaratish va dars o‘tkazish ko‘nikmalari, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, stimullash va ijodkorlikni rivojlantirish, o‘quvchilar yosh psixologiyasiga muvofiq metodlarni tanlash hamda ta’lim jarayonini dizaynlash qobiliyatlari yuksaladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatining oshishi, o‘quvchilar bilim va kompetensiyalarining yuqori darajada shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Eksperiment natijalari, so‘rovnomalar va intervyu tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim dizayni kompetensiyasi shakllangan pedagoglarda dars jarayoni aniq va mantiqiy quriladi, innovatsion texnologiyalar doimo joriy etiladi, har bir mashg‘ulot mustaqil va kreativ ishlarga boy bo‘ladi, talabalar rivoji va motivatsiyasi ta’minlanadi. Shu bilan birga, har bir pedagogda o‘z dasturlarini ishlab chiqish, loyihalash va natijalarga erishish ko‘nikmalari kuchayadi [3].

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida pedagoglardan zamonaviy bilimlar, ilg‘or texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lish bilan birga, mustaqil va kreativ fikrlash, innovatsion yondashuvlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalari talab etilmoqda. Ayniqsa, o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchini real hayotga tayyorlash, innovatsion ta’lim jarayonini tashkil etishda ta’lim dizayni kompetensiyasining ahamiyati beqiyosdir. Ta’lim dizayni kompetensiyasi asosan o‘qituvchining o‘quv jarayonini rejalashtira olishi, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilib, o‘z fanini hayot bilan bog‘lay olishi, har bir dars faol, interfaol, o‘quvchini markazga qo‘ygan holda tashkil eta olishi orqali namoyon bo‘ladi. An’anaviy metodlar bilan cheklanib qolgan bo‘lajak pedagoglar zamonaviy metama’lumotlarni o‘zlashtirish va yosh avlodga yetkazishda samarali bo‘la olmaydi. Shu sababli, har bir bo‘lajak o‘qituvchiga zamonaviy ta’lim dizaynining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rgatish zarur.

So‘nggi yillar davomida pedagogik faoliyatga oid o‘tkazilgan turli tadqiqot va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga ko‘proq intilmoqda. Biroq bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud. Xususan, talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy dars loyihasini qurish, o‘quv jarayonini dizayner sifatida boshqarish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun oliy o‘quv yurtlarining dars jarayoniga ta’lim dizayni fanini kiritish, zamonaviy dars konstruktsiyasi va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish, amaliy mashg‘ulotlarda ICT vositalaridan unumli foydalanish, virtual hamda hamkorlikda loyihalar tayyorlash keng joriy qilinmoqda. Bu boradagi tahlillar bo‘lajak pedagoglarda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligini ta’minlashda beqiyos xizmat qilmoqda [4].

Innovatsion pedagogika va ta’lim dizayni borasidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, darslarni elektron platformalarda tayyorlash, masofaviy yoki aralash o‘qitishni qo‘llash, murakkab mavzularni vizual resurslar va interaktiv metodlar orqali tushuntirish talabalarni yanada faol, motivatsiyalangan va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

O‘zbekiston sharoitida kuchli kompyuter va raqamli texnologiyalarni joriy etishda ayrim hududlarda internet tezligi, texnik baza yetishmasligi, sifatli darslik va manbalar bilan ta’minlanish kabi muammolar mavjudligiga qaramay, aksariyat oliy ta’lim muassasalari tajribali pedagoglar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan holda natijadorlikka erishmoqda. Pedagoglarda ijodiy yondashuv, zamonaviy loyiha, zamonaviy resurslardan foydalangan holda ochiq va erkin darslar tashkil etish – zamonaviy kompetensiyani shakllantirishda doimiylik talab qilinadi. Dars dizaynida STAM yondashuvi, gamifikatsiya, teskari dars, case study, jamoa loyihalari, raqamli vositalar, masofaviy baholash kabi metodlar eng samarali sanaladi. Aynan shu yondashuvlar orqali pedagog talabalari keyinchalik o‘z fanini zamonaviy usullar bilan o‘rgatish, o‘quvchi yoshlarni mustaqil fikrlashga, hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Tahlilda olingan natijalarga ko‘ra, kuchli ta’lim dizayni kompetensiyasi quyidagi sifatlarni rivojlantiradi: dars mazmunini aniqlik bilan loyihalash, har bir o‘quv maqsadini real vazifaga aylantirish, resurs va texnologiyalarni uyg‘unlashtirish, ijodiy, tanqidiy va tashabbuskorlik kompetensiyalarini shakllantirish.

Ko‘plab universitetlarda bo‘lajak o‘qituvchilar uchun zamonaviy ta’lim dizayni kurslari, trening va seminarlar tashkil etilmoqda. Bu mashg‘ulotlarda talabalarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy loyihalar, mustaqil va guruhiy ishlanmalar, o’z darsini o‘zi dizaynlash imkoniyati berilmoqda. Bunday mashg‘ulotlar bilim olish jarayonini jonlantirib, pedagogik faoliyatni hayotga yaqinlashtiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu kabi innovatsion amaliyotlar nafaqat zamonaviy kompetensiyani, balki liderlik, ijodiy yondashuv, ijtimoiy faollik singari hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Yangi avlod pedagoglariga xos bo‘lgan ochiqlik, moslashuvchanlik, tezkor axborot muloqoti, ijodiy va texnologik fikrlash bugungi ijtimoiy va raqamli doirada samarali faoliyat yuritishda hal qiluvchi omil bo‘ladi. Ustozlar, mentorlar va soha mutaxassislari fikrlari, talabalarning mustaqil rejalash va loyiha tuzish hamda zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonidagi ish faoliyati, ularning kasbiy shakllanishiga haqiqiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Darsdan tashqari faoliyatlarda ham o‘z dizayni asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish, tadbirlar va seminar-treninglar tashkil etish orqali bo‘lajak pedagoglarning qiziqishlarini kuchaytirish mumkin.

Pedagogik ta’limda ta’lim dizayniga oid dasturlar, tadqiqotlar, hamkorlik dasturlari, xorijiy tajribalarni o‘rganish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan amaliy loyihalar tajriba orttirishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu kabi ishlanmalar zaminida an’anaviy formatda o‘qitiladigan darslarning samaradorligi sezilarli ortmoqda. Ta’lim dizaynining o‘ziga xos jihati – har bir pedagogga yaratuvchanlik va mustaqil o‘qituvchilik salohiyatini namoyon qilish uchun imkoniyatlar yaratishidadir. Bu esa zamonaviy, faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan mukammal, mustaqil fikrlaydigan, kreatif va mustaqil pedagoglar tayyorlab berishda muhim kafolat sanaladi.

Ta’lim dizayni kompetensiyasi – zamonaviy o‘qituvchining asosiy kuchi va ustunligidir. Bu fazilat o‘quv jarayonini chuqur tushunadigan, mustaqil rejalay oladigan va innovatsion yondasha oladigan pedagoglarni shakllantiradi. Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar darslarini zamonaviy talablar asosida mazmunli, samarali, hayotiy muammolarga mos va qiziqarli o‘tkaza oladi. Zamonaviy ta’lim dizayni texnologiyalari – bo‘lajak pedagoglar uchun nafaqat bilim o‘zlashtirish, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish uchun ham keng imkoniyatlar ochadi. Ta’lim dizaynini o‘zlashtirgan pedagog talabalari mustaqil dars loyihasini ishlab chiqadi, yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazadi, amaliyot jarayonida zamonaviy va o‘ziga xos metodlarni amalda tatbiq eta oladi. Nafaqat dars mashg‘ulotlarida, balki darsdan tashqari faoliyatlarda, tadbirlar, seminarlar, amaliy loyihalarda ham ta’lim dizayni yondashuvi kuchli motivatsiya tug‘diradi. Natijada, bo‘lajak pedagoglarda ijodiy tashabbus, analitik va tanqidiy fikrlash, samarali hamkorlik, innovatsion yondashuv, uzluksiz o‘z ustida ishlash va yangi bilimlarga ochiqlik sifatlari barq urib rivojlanadi [5].

Tajriba va amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, kuchli ta’lim dizayni kompetensiyasiga ega bo‘lgan kelajak pedagogi fanini zamonaviy qilib o‘qitadi, yosh avlod uchun qiziqarli, samarali va hayotiy bilimlarni beradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotiga, milliy ta’lim sifatining oshishiga, raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishiga sabab bo‘ladi. Endilikda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham zamonaviy ta’lim dizayni kompetensiyasi pedagoglar uchun asosiy kompetensiya sifatida ilgari surilmoqda. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi orasida zamonaviy hamkorlik, innovatsion tafakkur, axborot texnologiyalariga asoslangan ilg‘or metodlarni joriy etishda zamin yaratadi.

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ijodkor, faol va innovatsion kasb egalarini tayyorlashning muhim omilidir. Ushbu kompetensiyani shakllantirish orqali har bir pedagog nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib yangi loyihalar, metod va innovatsion texnologiyalar yaratadi. Eksperiment, tadqiqot natijalari, global va milliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida ta’lim dizayni kompetensiyasi chuqur shakllangan pedagoglar dars va tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuv, ilg‘or texnologiyalar, yuqori kreativlik asosida olib borishi mumkin. Ta’lim dizayni kompetensiyasini

shakllantirish uchun o‘quv dasturlari va metodik materiallarni qayta ko‘rib chiqish, innovatsion o‘qitish texnologiyalarini faol joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, portfoliosozlik, trening va master-klasslar orqali bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida, pedagog kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim tizimida ilg‘or texnologiyalarni muntazam joriy etib borish orqaligina ta’lim sifati va natijadorligini oshirish mumkin. Shu o‘rinda ta’lim dizayni kompetensiyasini shakllantirish, uni amaliyotga samarali joriy etish, har bir pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Karimova D.Q. “Pedagogik innovatsiyalar va dizayn” – Toshkent, 2022. 135-bet.
2. Normurodova M.A. “Yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalari” – Samarqand, 2021. 89–105-betlar.
3. Abduvaliyev N., Turg‘unova M.B., “Pedagogikada multimedia texnologiyalari” – Toshkent, 2020. 73–95-betlar.
4. G‘aniyeva S.R. “Pedagog kadrlar kasbiy kompetensiyasi va zamonaviy o‘qitish texnologiyalari” – Toshkent, 2023. 116–127-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”, Toshkent, 2019. 9–18-betlar.
6. Vohidov D., “Interfaol metodlar va ularni amaliyotga tadbiq etish” – Buxoro, 2021. 48–61-betlar.
7. Hasanov B. “Ta’lim dizayni va loyiha asosida o‘qitish” – Farg‘ona, 2022. 21–37-betlar.
8. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI REFLEKSIV MUHIT VA TASHKILIY-BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Akmalova Dildora Toxirovna,
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilya-yura@mail.ru

Maqolada bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonidagi muammolarni o‘rganish va uni samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan pedagogik tajriba natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda kompetentlikning konstatlovchi darajasi aniqlangan: talabalarda maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish, refleksiya va pedagogik faoliyatda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi asosiy komponentlarning yetarli darajada shakllanmaganligi qayd etilgan.

Tajriba doirasida refleksiv ta’lim muhiti yaratish, DORA metodi va kolaborativ, kontekstual, madaniyatlararo hamda kompleks yondashuvlarni integratsiya qilishga asoslangan maxsus pedagogik shart-sharoitlar ishlab chiqilgan va oliy o‘quv yurtining ta’lim jarayonida sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati pedagogning boshqaruv kompetentligini integrativ tuzilma sifatida aniqlashtirish va refleksiv yo‘naltirilgan muhitning samaradorligini asoslashda namoyon bo‘ldi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan mexanizmlar va diagnostik vositalarni pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik dasturlarida, xususan metodik fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llash imkoniyatida ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv kompetentligi, bo‘lajak pedagoglar, pedagogik tajriba, refleksiv muhit, tashkiliy-boshqaruv texnologiyalari, DORA metodi.*

ФОРМИРОВАНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПОСРЕДСТВОМ РЕФЛЕКСИВНОЙ СРЕДЫ И ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В статье представлены результаты педагогического эксперимента, посвященного изучению проблем формирования управленческой компетентности будущих педагогов и разработке эффективных механизмов развития управленческой компетентности. В исследовании определены критерии компетентности такие, как постановка целей, планирование, организация, анализ, рефлексия и принятие управленческих решений в педагогической деятельности. В рамках эксперимента были разработаны и апробированы в образовательном процессе вуза специальные педагогические условия, основанные на создании рефлексивной образовательной среды, интеграции метода ДОРА, а также коллаборативного, контекстного, межкультурного и комплексного подходов. Теоретическая значимость исследования заключается в определении управленческой компетентности педагога как интегративной структуры и обосновании эффективности рефлексивно ориентированной среды. Практическая значимость проявляется в возможности применения разработанных механизмов и диагностических инструментов в программах профессиональной подготовки педагогов, в частности в процессе преподавания методических дисциплин.

Ключевые слова: *управленческая компетентность, будущие педагоги, педагогический эксперимент, рефлексивная среда, организационно-управленческие технологии, метод ДОРА.*

FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS THROUGH REFLECTIVE ENVIRONMENT AND ORGANIZATIONAL-MANAGEMENT TECHNOLOGIES

The article presents the results of a pedagogical experiment devoted to studying the problems of forming managerial competence in future educators and developing effective mechanisms for its development. The study identified the stating level of competence: students showed insufficient development of key components such as goal-setting, planning, organization, analysis, reflection, and decision-making in pedagogical management activities. Within the framework of the experiment, special pedagogical conditions were developed and tested in the university’s educational process. These conditions are based on creating a reflective learning environment, integrating the DORA method, as well as collaborative, contextual, intercultural, and complex approaches. The theoretical significance of the study lies in defining the

educator’s managerial competence as an integrative structure and substantiating the effectiveness of a reflexively oriented environment. The practical significance is expressed in the possibility of applying the developed mechanisms and diagnostic tools in teacher training programs, particularly in the teaching of methodological disciplines.

Keywords: *managerial competence, future educators, pedagogical experiment, reflective environment, organizational-management technologies, DORAmethod.*

Kirish. Ta’lim tizimida pedagoglarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayoni professional-pedagogik tayyorgarlikda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va tahlil qilish bilan bog‘liqdir. Boshqaruv kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish zarurati boshqaruv faoliyatining rejalashtirilgan ko‘rsatkichlaridan chetga chiqishlar mavjud bo‘lganda, bo‘lajak pedagoglarning professional-boshqaruv tayyorgarligi darajasida erishilgan natijalar belgilangan talablarga mos kelmagan hollarda yuzaga keladi. Tashqi va ichki ta’lim muhitidagi o‘zgarishlar yangi sharoitlar va potensial imkoniyatlarni yaratadi, bu esa bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari va kutilgan natijalarini tuzatishga sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, boshqaruv qarorlarini shakllantirish jarayonida muammolarni diagnostikalash va maqsadlarni qo‘yish bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligining hozirgi holatini tizimli tahlil qilishni, uning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashni, shuningdek, ushbu jarayonni yanada takomillashtirishning strategik yo‘nalishlari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilashni nazarda tutadi.

Pedagogik tajribamizning maqsadi bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni har tomonlama o‘rganishdan iborat; ularning kasbiy tayyorgarligi samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash; bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Aniqlangan muammo, ta’lim maqsadlari va talabalarning kompetentlik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni puxta tahlil qilish tayyorlanayotgan pedagoglar boshqaruv funksiyalarini qanchalik samarali amalga oshirishga qodir ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Boshqaruv funksiyasi pedagogik faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishda namoyon bo‘ladi.

Boshqaruv sikli ta’lim jarayoni maqsadlarini belgilash va vazifalarni aniqlashdan boshlanadi. Shunga muvofiq ravishda o‘qitish va tarbiyalashning mos usullari, shakllari va vositalari tanlab olinadi hamda qo‘llaniladi, bu rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik faoliyat jarayonida oraliq natijalar doimiy nazorat qilinadi, bu ta’lim ta’sirining mazmuni va usullarini o‘z vaqtida tuzatish imkonini yaratadi.

Boshqaruv sikli erishilgan natijalarni tahlil qilish va qo‘yilgan vazifalarning bajarilish darajasini baholash bilan yakunlanadi.

Ushbu funksiyani amalga oshirish bo‘lajak pedagoglarda maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Aynan shu ko‘nikmalar boshqaruv kompetentligining asosini tashkil etadi.

Yaratilgan asos talabalarning boshqaruv ko‘nikmalari va refleksiv qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan ta’sir uchun zamin yaratadi hamda ta’lim va boshqaruv faoliyatini tashkil etishda yangi yondashuvlarni anglash jarayonini boshlab beradi. Shu tariqa, tajriba quyidagilarni aniqlashga qaratilgan: maxsus metodik yondashuvlar, refleksiv ta’lim muhiti hamda tashkiliy-boshqaruv texnologiyalarini joriy etish bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qanchalik hissa qo‘shishini belgilash.

Maqsadga erishish uchun pedagogik tajriba doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

– bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligining dastlabki shakllanganlik darajasini aniqlash;

– pedagog faoliyatidagi boshqaruv kompetentligining tuzilishi va mazmunini belgilash;

– boshqaruv kompetentligini samarali shakllantirishni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish;

– oliy o‘quv yurtining ta’lim jarayonida boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta’minlash;

– pedagogik tajribaning turli bosqichlarida boshqaruv kompetentligining shakllanganlik dinamikasini diagnostika qilish.

Metodlar. Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayoni yaxlit va bosqichma-bosqich pedagogik jarayon sifatida qaraladi. O‘zaro bog‘liq bosqichlarning har biri (diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari) o‘ziga xos maqsad, vazifa va amalga oshirish usullariga ega bo‘lib, talabalarning boshqaruv bilimlari, ko‘nikmalari hamda shaxsiy sifatlarini izchil rivojlantirishni ta’minlaydi.

Diagnostik bosqich bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligining dastlabki shakllanganlik darajasini aniqlashga, pedagogik menejment sohasidagi boshqaruv bilimlari va ko‘nikmalarining yetishmasligini belgilashga qaratilgan. Olingan natijalar shakllantiruvchi bosqich mazmuni va usullarini loyihalashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shakllantiruvchi bosqich bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga maxsus ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlarni joriy etish orqali maqsadli ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Bu shart-sharoitlar pedagogik faoliyatda boshqaruv tafakkurini, rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Nazorat bosqichi amalga oshirilgan boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonining samaradorligini baholashga, uning rivojlanish dinamikasini aniqlashga hamda olingan natijalarni tadqiqotning qo‘yilgan maqsad va vazifalari bilan solishtirishga qaratilgan.

Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligidagi kompetensiyalar strukturali piramidasi modeli diagnostik vositalarni qo‘llash orqali boshqaruv kompetentligining shakllanganlik darajalarini aniqlash imkonini beradi.

Dastlabki diagnostik so‘rovning asosiy maqsadi talabaning tayyorgarlikning boshlang‘ich darajasini aniqlash, uning boshqaruv bilimlari, ko‘nikmalari hamda kasbiy tajribasining rivojlanish darajasini belgilashdan iborat.

Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligining shakllanganlik darajasi haqidagi ma’lumotlar manbai sifatida anketa natijalari (jadval 1) va individual suhbatlar xizmat qildi.

Formalizatsiyalangan baholash ko‘rsatkichlaridan farqli o‘laroq, ushbu usullar nafaqat o‘quvchilar faoliyatining natijalari haqida, balki ularning boshqaruv vazifalarini hal qilishdagi muvaffaqiyatlari yoki qiyinchiliklariga sabab bo‘luvchi omillar haqida ham yanada mazmunli tasavvur berish imkonini beradi.

1-jadval. O‘qitish boshlanishidan oldin qo‘llanilgan anketa namunasi

Baholash shkalasi:

Kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak – 2 ball

Kompetensiyaga ega bo‘lishi shart emas – 0 ball

№	Bitiruvchi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak	Kompetensiya muhimligini baholash
	Kasbiy kompetensiyalar	
1.	O‘quv jarayonining samaradorligi va faoliyatning natijadorligini ta’minlash uchun ilmiy tadqiqot natijalarini tizimli ravishda qo‘llash	
2.	Ijobiy-moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish	
3.	Innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish	
4.	Aqliy va ijodiy ichki resurslar orqali shaxsiy samaradorlikni shakllantirish	
5.	Pedagogik jarayonlarning natijadorligiga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli va samarali amalga oshirish	
6.	Joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar sifatini baholash	
7.	Ilmiy tadqiqot natijalari va joriy etilayotgan texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar tuzish	
8.	O‘z faoliyati va boshqa subyektlar faoliyatini tashkil etish va boshqarishni prognoz qilish, loyihalashtirish va modellashtirish	
	Instrumental kompetensiyalar	
9.	Kommunikativ ko‘nikmalar	
10.	Vaziyatlarga moslashish qobiliyati	
11.	Muammolarga yechim topish qobiliyati	
12.	Ijodiy salohiyatni shakllantirish va g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyati	
13.	Tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qilish qobiliyati	
	Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalari	
14.	Tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish jarayonida natijadorlikni ta’minlashni hisobga olish	
15.	O‘quv jarayonida boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyati	
16	Faoliyatni strategik tahlil qilish, strategik rejalashtirish va strategik boshqarish qobiliyati	
17	Faoliyatni muvofiqlashtirish	
18	Motivatsiya tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab	

	chiqish	
19.	Kompetensiyalarni rivojlantirish funksiyalari va mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish	
20.	Faoliyatning optimal ketma-ketligi algoritmlarini ishlab chiqish	

Anketalashtirish bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv bilimlari, tasavvurlari va tajribasi darajasini, shuningdek, ta’lim muhitidagi boshqaruv faoliyatiga munosabatlarini aniqlashga qaratilgan edi. Biroq, anketalarning faqat miqdoriy natijalari o‘z-o‘zidan turli guruhdagi ishtirokchilarning boshqaruv kompetentligining shakllanganlik darajasini bir ma’noda talqin qilishga har doim ham imkon bermaydi, chunki aniqlangan qiyinchiliklar turli omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday farqlar bo‘lajak pedagoglarning ta’lim va kasbiy tajribasining bir xil emasligi bilan izohlanadi va boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonini tashkil etishda moslashuvchan yondashuvni talab etadi.

Shu munosabat bilan anketalashtirish natijalari individual suhbatlar natijalari bilan to‘ldirildi. Bu suhbatlar olingan ma’lumotlarni chuqurlashtirish va aniqlashtirish imkonini berdi. Suhbatlar davomida aniqlangan qiyinchiliklarning sabablari, o‘quvchilarning boshqaruv tafakkuri xususiyatlari, shuningdek, pedagogik faoliyatda qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorligi aniqlab borildi. Bunday yondashuv tajriba ishtirokchilarida boshqaruv kompetentligining shakllanganlik darajasini yanada yaxlit va to‘liq tushunishni ta’minladi.

Anketalashtirish bo‘lajak pedagoglarga o‘zlarining boshqaruv tayyorgarligi darajasini anglash va keyingi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi o‘z-o‘zini baholash vositasi sifatida qo‘llanildi. Bunda diagnostikaning baholovchi va nazorat qiluvchi xususiyatlarini istisno etuvchi ishonchli muhit yaratishga alohida e’tibor qaratildi, bu esa yanada obyektiv va samimiy javoblar olishga yordam berdi.

Anketalashtirish va suhbatlarni birgalikda qo‘llash bizga bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligining dastlabki darajasini aniq qayd etish va o‘quvchilarning individual hamda guruhdagi xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Bu esa pedagogik tajribaning shakllantiruvchi bosqichi mazmuni va usullarini yanada aniqlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar. Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish zarurati aniqlangandan so‘ng, DORAmetodini joriy etish va o‘qitishni kolaborativ, konsonansiv, kontekstual, madaniyatlararo va kompleks yondashuvlarni integratsiya qilish orqali amalga oshirish vazifasi paydo bo‘ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv ko‘nikmalarini anglash va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Joriy etilayotgan yondashuvlar boshqaruv tafakkurining xatti-harakatlar o‘rnatmalari, refleksiya qobiliyati hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga sabab bo‘ldi. Bunday o‘qitish modeli o‘quv va amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyat turlarini tizimlashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rejalashtirish va rivojlantirish muntazam va maqsadli jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayon auditoriya sharoitidagi o‘qitish shakllarini mustaqil ish, refleksiv topshiriqlar hamda o‘quv guruhlarida olingan natijalarni muhokama qilish bilan uyg‘unlashtirish sharoitida amalga oshiriladi.

Ushbu yondashuv «Rus tili o‘qitish metodikasi» va «Rus tili o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar» fanlari ta’lim dasturi mazmuni doirasida ro‘yobga chiqariladi.

Boshqaruv kompetentligini shakllantirish bo‘yicha samaradorlikni baholash o‘qitishning qo‘yilgan maqsadlariga erishish darajasiga asoslanadi. Boshqaruv kompetentligini shakllantirish maqsadlari, odatda, pedagogning kelajakdagi kasbiy faoliyati maqsadlari bilan moslashtiriladi va o‘quvchilar tomonidan qanday natijalarga intilishlari va bunga qanday vositalar orqali erishishlari haqida anglashni nazarda tutadi.

Bunday maqsadlarni aniqlash tajribaning shakllantiruvchi bosqichi boshlanishidan oldin amalga oshirilgani maqsadga muvofiqdir, chunki bu o‘qitish va rivojlanish jarayonining maqsadli va boshqariladigan bo‘lishini ta’minlaydi. Kompetensiyalarning strukturali piramidasi modeli shuningdek, o‘qitish yakunida bo‘lajak pedagoglarda namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan xatti-harakat va faoliyatdagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan pedagogik tajriba quyidagi gipotezani tasdiqladi: bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetentligini maqsadli shakllantirish refleksiv ta’lim muhiti yaratish va tashkiliy-boshqaruv texnologiyalarini joriy etish sharoitida, shuningdek kolaborativ, kontekstual, madaniyatlararo, kompleks yondashuvlar va DORA metodi integratsiyasi orqali yuqori samarali amalga oshirilishi mumkin.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Tajribaning diagnostik bosqichida talabalarning boshqaruv kompetentligining dastlabki darajasi asosiy komponentlar (maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish, refleksiya va pedagogik faoliyatda boshqaruv qarorlarini qabul qilish) bo‘yicha yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflandi.

2. Joriy etilgan pedagogik shart-sharoitlar (refleksiv topshiriqlar, guruh muhokamalari, auditoriya mashg‘ulotlari bilan mustaqil ish va natijalarni muhokama qilishni uyg‘unlashtirish, shuningdek «Rus tili o‘qitish metodikasi» va «Rus tili o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar» fanlari doirasida) boshqaruv kompetentligining rivojlanishida statistik jihatdan ishonchli ijobiy dinamikani ta’minladi (tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash va ekspert bahosi o‘sishi 28–45 % ni tashkil etdi, nazorat guruhiga nisbatan).

3. Ishlab chiqilgan kompetensiyalarning strukturali piramidasi modeli hamda diagnostik vositalar (4 ballik shkala bo‘yicha so‘rovnoma, kompetensiyalar muhimligi anketasi, individual suhbatlar) kompetentlik darajasi va dinamikasini monitoring qilish uchun yuqori ishonchlilik va validdikka ega ekanligini isbotladi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati pedagogning boshqaruv kompetentligini kognitiv, faoliyat, refleksiv va shaxsiy komponentlarni o‘z ichiga olgan integrativ tuzilma sifatida aniqlashtirishda, shuningdek uni maqsadli shakllantirish uchun refleksiv yo‘naltirilgan muhitning samaradorligini asoslashda namoyon bo‘ldi.

Amaliy ahamiyati taklif etilgan mexanizmlarni (DORA metodi va ko‘rsatilgan yondashuvlar integratsiyasi) pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik dasturlarida, birinchi navbatda metodik fanlarni o‘qitish jarayonida keng qo‘llash imkoniyatida ifodalanadi. Ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar va diagnostik vositalar boshqa fan sohalari va ta’lim darajalariga muvaffaqiyatli moslashtirilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot pedagogik ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga muhim hissa qo‘shdi va zamonaviy pedagogning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida boshqaruv kompetentligini tizimli shakllantirishning maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
2. Tolipov O‘.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2006 y. -264 bet.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
4. Shodmonova Sh.S. va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
6. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O.. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008 y. -480-bet.
7. Niyozov G., Axmedova M.E. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.

ILMIY BILISH JARAYONLARIDA METOD VA METODOLOGIYANING UYG‘UNLIGI

Abdunabiyeva Lola Alisher qizi,
Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti magistranti

Mazkur maqola ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiya tushunchalarining umumiy nazariy asoslari, tamoyillari, o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini tahlil qiladi. Ularning uyg‘unligi maqolaning ilmiy asoslanganligi, obyektivligi va natijalarning aniqligini ta‘minlaydi. Maqolada metod va metodologiyaning mohiyati, ularning ilmiy tadqiqotdagi o‘rni hamda O‘zbekiston ilmiy muhitida ushbu masalaning dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar. *Ilmiy bilish, metod, metodologiya,ilmiy tadqiqot, ilmiy tafakkur, innovatsiya, obyektivlik, qonuniyat.*

ГАРМОНИЯ МЕТОДА И МЕТОДОЛОГИИ В ПРОЦЕССАХ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ

Данная статья анализирует общие теоретические основы, принципы, взаимосвязь и гармонию понятий метода и методологии в процессе научного познания. Их взаимная согласованность обеспечивает научную обоснованность статьи, её объективность и точность полученных результатов. В статье освещаются философские основы научного познания, сущность метода и методологии, их роль в научном исследовании, а также актуальность данной проблемы в научной среде Узбекистана.

Ключевые слова: *научное познание, метод, методология, научное исследование, научное мышление, инновация, объективность, закономерность.*

HARMONY OF METHOD AND METHODOLOGY IN THE PROCESSES OF SCIENTIFIC COGNITION

This article analyzes the general theoretical foundations, principles, interrelation and harmony of the concepts of method and methodology in the process of scientific cognition. Their harmony ensures the scientific validity of the article, its objectivity, and the accuracy of the results obtained. The article highlights the philosophical foundations of scientific cognition, the essence of method and methodology, their role in scientific research, and the relevance of this issue in the scientific environment of Uzbekistan.

Keywords: *scientific cognition, method, methodology, scientific research, scientific thinking, innovation, objectivity, regularity.*

Kirish. Zamonaviy ilmiy bilish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli faoliyat hisoblanib, unda ilmiy tadqiqotning samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llanilayotgan metodlar hamda ularni birlashtiruvchi metodologik yondashuvlar bilan bevosita chanbarchas bog‘liqdir. Ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida metod va metodologiya nafaqat tadqiqotning texnik vositasi, balki ilmiy tafakkurning yo‘nalishini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ilmiy bilish jarayonlarida metod va metodologiyaning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning uyg‘unlashuvi masalasi zamonaviy falsafa va metodologiya fanlarida muhim nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqot ishlari nafaqat empirik natijalarga, balki ularning metodologik asoslanganligiga qarab ham baholanadi. Xalqaro ilmiy jurnallar, nashrlar ilmiy tadqiqotlarda metod va metodologiyaning uyg‘unligi muhim mezon sifatida ko‘riladi.

Respublikamiz ilmiy muhitida ham ilmiy bilish jarayonini metodologik jihatdan takomillashtirish, ilmiy izlanishlarning sifatini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar metod va metodologiya masalasini chuqur o‘rganish ilm-fan rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblashadi.

Asosiy qism. Ilmiy bilish insoniyat tafakkurining eng muhim faoliyat shakllaridan biri bo‘lib, u borliqdagi hodisa va jarayonlarni tizimli ravishda o‘rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirishga qaratilgandir. Ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiya muhim o‘rin tutadi. Metod ilmiy tadqiqotda qo‘llaniladigan aniq usullar va vositalar majmuini anglatsa, metodologiya esa ushbu metodlarning nazariy asoslari, tamoyillari va ularni qo‘llash tizimini ko‘rsatadi. Shu sababli metod va metodologiya ilmiy bilish jarayonining o‘zaro uzviy bog‘liq elementlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Egallangan ilm albatta o‘z vaqtida naf keltiradi. Insonning bilim olishi, salohiyati fuqaro bo‘lib ulg‘ayishi, el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi va ilm-fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi dolzarb hisoblanadi.

Ilm o‘ylashimcha insonni o‘z hayoti, umri davomida to‘g‘ri yo‘lga boshlash va haqiqatni anglash, jamiyatga naf keltirish va turli vaziyatlarda o‘zimiz egallagan bilimlarimiz orqali yutuqlarga erisha olishimizdir.

Bilish - insonning atrof-muhitni anglash va o‘rganish faoliyatidir [14].

Ilmiy bilish - obyektiv voqelikni qonuniyatli tushuntirishga qaratilgan maxsus bilim shaklidir [14]. Ya‘ni obyektiv voqelikni nazariy va empirik yo‘llar orqali anglash jarayonidir. U kundalik bilishdan farqli ravishda tizimli, mantiqiy va isbotlangan bilimlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ilmiy bilish jarayonida kuzatish, tajriba, tahlil va umumlashtiruvchi kabi usullar keng qo‘llaniladi. Ilmiy bilish jarayoni ikki daraja orqali kuzatiladi.

Ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiya o‘zaro uzviy bog‘liq, biroq mazmunan turlicha kategoriyalar hisoblanadi. Ularning farqlanishini aniqlash ilmiy tadqiqotning nazariy asoslarini to‘g‘ri qurish, metodlarni asosli tanlash hamda ilmiy natijalarning ishonchliligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Metod bu - aniq ilmiy vazifalarni hal etishga qaratilgan usullar tizimi bo‘lsa, metodologiya bu - ushbu metodlarni tanlash, asoslash va qo‘llashning nazariy tizimi hisoblanadi [6].

Metod – bilish jarayonida qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar, va yondashuvlar tizimidir. Metod ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan aniq usul va yo‘llar majmuidir. Har bir fan o‘z predmetiga mos metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy fanlarda tahlil, taqqoslash, so‘rovnoma kabi metodlar keng qo‘llanilsa, tabiiy fanlarda tajriba bu modellashtirish muhim ahamiyatga ega.

Metod ilmiy bilish jarayonining amaliy tomonini tashkil etadi. To‘g‘ri tanlangan metod tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta‘minlaydi noto‘g‘ri metod esa ilmiy xulosalarning zaiflashishiga olib keladi.

Metodologiya – bu “metodlar haqidagi ta‘limot”, ya‘ni ilmiy bilish jarayonida qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar va yondashuvlar tizimidir. Bu esa ilmiy tadqiqotning nazariy asosini tashkil etish demakdir. Unda metodlarni tanlash, asoslash va ularni yagona tizimga solish vazifasini bajaradi. Metodologiya ilmiy tadqiqotning strategiyasini belgilaydi [14].

Metodologiya yalpi umumiy bilish metodlari, deb ham yuritiladi. Metodologiya - yuqori (nazariy-konseptual) darajaga tegishli bo‘lib, u metodlarning mohiyatini, ularni tanlash mezonlarini va qo‘llash prinsiplarini o‘rganadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishining ayrim holati ustida ish olib boradi. Metodologiya dialektika (ya‘ni tabiat, jamiyat va tafakkurdagi o‘zgarishlar va rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini o‘rgatuvchi falsafiy ta‘limot)ni, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Ilmiy bilishning metodologik asoslari haqida turli falsafiy konsepsiyalar mavjud.

Xususan, mashhur vengriyalik olim Imre Lakatos metodologiyani ilmiy tadqiqot dasturlarining “yadrosi” sifatida baholagan. Uning fikricha, metodologik asos bo‘lmasa, ilmiy tadqiqot barqaror rivojlana olmaydi. Har bir metodologik tushuncha ilmiy faoliyatning o‘ziga xos qoidalarini shakllantirganligi sababli, olimning bir xil xatti-harakatlarini bir tushuncha oqilona ya‘ni ratsional, ikkinchisi esa irrotsional deb e‘lon qilinadi. Metodologik tushuncha bir vaqtning o‘zida uning “nazariyasi” formulasi sifatida ko‘rsatilgan [20].

Metodologiya yalpi umumiy bilish metodlari, deb ham yuritiladi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishining ayrim holati ustida ish olib boradi. Metodologiya dialektika (ya‘ni tabiat, jamiyat va tafakkurdagi o‘zgarishlar va rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini o‘rgatuvchi falsafiy ta‘limot)ni, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Manbalardan kelib chiqadiki metod va metodologiya bir biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi Metod metodologiyasiz tasodifiy xarakter kasb etsa, metodologiya metodsiz mavhum nazariya bo‘lib qoladi. Ularning uyg‘unligi ilmiy bilish jarayonining samaradorligini oshiradi. Metod yangicha qarashlar, usullar tamoyillar bo‘lsa, metodologiya uni nazariy asoslab beruvchi yagona ta‘limotdir.

T.Kunning ilmiy inqiloblar haqidagi konsepsiyasiga ko‘ra, ilm-fan rivojlanishi muayyan paradigma doirasida amalga oshadi. Paradigma – bu ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan nazariy qarashlar, metodlar va tadqiqot usullari majmuasidir. Normal ilmiy faoliyat aynan shu paradigma asosida olib boriladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan mavjud paradigma ayrim muammolarni izohlashga qodir bo‘lmay qoladi va natijada ilmiy inqilob yuz beradi. Yangi paradigma shakllanishi bilan metodologik yondashuvlar ham o‘zgaradi. Bu esa ilmiy bilishda metod va metodologiyaning tarixiy jihatdan rivojlanib borishini ko‘rsatadi [7].

Albert Eynshteyn ilm-fan haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: - “Ilmiy metodsiz bilim ko‘r, metodologiyasiz metod esa maqsadsizdir”. Ushbu fikr metod va metodologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol ifodalaydi [7].

Ilmiy bilish metodologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri **K.Popper**dir. U ilmiy bilimlarning asosiy mezoni sifatida falsifikatsiya tamoyilini ilgari suradi. Popperga ko‘ra, haqiqiy ilmiy nazariya tekshirilishi va rad etilishi mumkin bo‘lgan gipotezalarga asoslanishi kerak. Agar nazariya tajriba orqali inkor etilishi mumkin bo‘lmasa, u ilmiy hisoblanmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ilmiy metodlarning samaradorligi ularning tanqidiy tahlilga ochiqligi bilan belgilanadi [18]. Bu esa metod va metodologiya o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Ilmiy metodologiya masalasida muhim qarashlardan biri P.Feyerabend tomonidan ilgari surilgan. U ilmiy metodlar qat’iy qoidalarga bo‘ysunmasligini ta’kidlab, metodologik plyuralizm g‘oyasini ilgari suradi. Feyerabendning fikricha, ilmiy taraqqiyot ko‘pincha an’anaviy metodologik qoidalarni buzish orqali yuz beradi. Shu sababli ilmiy bilishda turli metodlarning mavjudligi va ularning erkin qo‘llanishi ilmiy taraqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy fanlar metodologiyasini rivojlantirishda M.Veberning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Veber ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda tushunish metodining muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy hodisalarni faqat tashqi kuzatish orqali emas, balki inson faoliyatining ma’no va motivlarini tushunish orqali ham o‘rganish zarur. Bu esa ijtimoiy fanlarda metodologik yondashuvlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** ilm-fan rivoji haqida shunday ta’kidlaydi: - “Ilm-fan va innovatsiyasiz taraqqiyot bo‘lmaydi”. Ushbu fikr ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslangan bo‘lishi davlat taraqqiyoti uchun muhim ekanini ko‘rsatadi [1].

Yuqoridagi qarashlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiya o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Metodlar tadqiqotning amaliy vositalarini ta’minlasa, metodologiya ularning qo‘llanilish tartibi, nazariy asoslari va ilmiy maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Shu bois ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va ularning puxta metodologik asos bilan uyg‘unlashuviga bog‘liq.

O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlarida ko‘pincha empirik natijalarga urg‘u berilib, metodologik tahlil yetarli darajada yoritilmaydi. Bu holat ilmiy ishlarning xalqaro maydonda tan olinmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonida metodologiya faniga alohida e‘tibor qaratish yosh tadqiqotchilarda metodologik tafakkurni shakllantirish zarur.

Metod va metodologiya uyg‘unligi milliy ilm-fanning raqoboatbardoshligini oshiradi.

Rivojlangan davlatlar rahbarlari ham ilm-fanni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e‘tirof etadilar. Buning natijasi esa ilmiy bilish jarayonida metodologik madaniyatni rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Ilmiy tadqiqotda metod va metodologiya uyg‘unligi bir qator jihatlardan muhimdir:

Nazariy va amaliy bog‘liqlik: Metodologiya ilmiy tadqiqotning nazariy asoslarini belgilasa, metodlar ushbu nazariyani amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot samaradorligi: To‘g‘ri tanlangan metodologik yondashuv va unga mos metodlar ilmiy ishning aniq va ishonchli natija berishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilishi: Uyg‘un metodologik asos va metodlar yordamida olingan natijalar kengroq ilmiy kontekstda tahlil qilinishi mumkin.

Metod va metodologiyaning uyg‘unligini ta’minlash uchun quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi.

Tadqiqot masalasini aniqlash: Tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos metod va metodologiyani tanlash.

Nazariy va amaliy integratsiya: Tadqiqotning nazariy asoslari metod tanlovini belgilashi, metodlar esa nazariyani tasdiqlashi lozim.

Natijalarni baholash va tahlil qilish: Olingan natijalarni metodologik kontekstda tahlil qilish, xulosalarni umumiy ilmiy prinsiplar bilan bog‘lash.

Ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiyaning uyg‘unligi ilmiy tadqiqotning samarali va ishonchli bo‘lishini ta’minlovchi muhim omildir. Metodologiya tadqiqotning nazariy asoslarini belgilab, metodlar esa ushbu nazariyani amaliyotda qo‘llash vositasini taqdim etadi. Shu bilan birga, metod va metodologiyaning uyg‘unligi ilmiy natijalarni to‘g‘ri talqin qilish va umumlashtirish imkonini yaratadi. Shu sababli har bir ilmiy tadqiqotda bu uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ilmiy bilish jarayonida metod va metodologiyaning uyg‘unligi ilmiy tadqiqot sifatining asosiy mezoni hisoblanadi. Demakki, uyg‘unlikni ta‘minlash O‘zbekiston ilmiy muhitining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishiga yordam beradi. Metodologik

tafakkurga asoslangan ilmiy izlanishlar barqaror ilm-fan rivojining muhim shartlaridan biri bo‘la oladi. Va yosh tadqiqotchilarning izlanishlarida metod va metodologiya uchun bilimlarini yanada mukammallashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Ilm-fan va innovatsiyalar - taraqqiyot asosi”. –T.: 2019.
2. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi o‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. –T.: 2022.
3. A.X.Saidov. “Ilmiy bilish falsafasi”. –T.: Sharq-2014.
4. B.A.Qodirov. “Zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlari”. –T.: Innovatsiya-2020.
5. V.S.Stepin. “Filosofiya”. –M.: Gardariki. 2006. 23-67.
6. R.X.Jo‘rayev. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”. –T. Fan va texnalogiya-2016.
7. T. Kunn. “Ilmiy inqiloblar tuzilishi”. K.: Port-royal. 2021. 46-83 b.
8. I.Lakatos. “Ilmiy tadqiqot dasturlarining metodologiyasi”. –T.: Akademnashr. -2010. 6-21b.
9. K.Popper. “Ilmiy kashfiyotlar mantiqi”. –T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2006. 8-34b.
10. M.Veber. “Ijtimoiy fanlar metodologiyasi”. –T.: –2008.
11. P.Feyerabend. “Metodga qarshi”. –T.: Tafakkur. –2012.
12. M.Abdug‘aniyev. “Ilm-fan va metodologik tafakkur”. –T.: Ma‘naviyat. -2018.
13. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”. –T.: Fan nashriyoti. 2021.
14. N.A.Shermuhamedova. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”. Darslik. –T.: Fan-ziyo. 2020. 126-135.
15. Q.Nazarov. “Falsafa asoslari” ilmiy tahriri. –T.: Sharq-2005.
16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
17. https://www.researchgate.net/publication/230996645_Albert_Einstein's_Methodology.
18. https://studfile.net/preview/9147008/page:3/.
19. https://cyberleninka.ru.
20. https://gtmarket.ru.
21. www.google.com
22.http://wikipedia.uz/

O‘QITUVCHINING EMPATIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abdiyeva Iroda Kenjeboyevna,
OXU 1-kurs magistranti (pedagogika)

Mazkur maqolada o‘qituvchining empatik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari kompleks yondashuv asosida tahlil etilgan. Empatiya tushunchasining nazariy asoslari, uning kognitiv va affektiv komponentlari, pedagogik faoliyatdagi o‘rni, rivojlanish mexanizmlari hamda samarali metodlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari empatiyaning pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligini asoslaydi hamda uning ta’lim jarayonidagi samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Empatiya, pedagogik empatiya, empatik qobiliyat, o‘qituvchi kompetensiyasi, emotsional intellekt, refleksiya, pedagogik mediatsiya, kommunikativ kompetensiya.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЭМПАТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЯ

В данной статье на основе комплексного подхода проанализированы психолого-педагогические условия развития эмпатических способностей учителя. Рассмотрены теоретические основы понятия эмпатии, её когнитивные и аффективные компоненты, роль в педагогической деятельности, механизмы развития и эффективные методы формирования. Результаты исследования обосновывают, что эмпатия является важным компонентом профессиональной компетентности педагога и способствует повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: *эмпатия, педагогическая эмпатия, эмпатические способности, компетентность учителя, эмоциональный интеллект, рефлексия, педагогическая медиация, коммуникативная компетентность.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING A TEACHER’S EMPATHIC ABILITY

This article analyzes the psychological and pedagogical conditions for developing teachers’ empathetic abilities based on a comprehensive approach. The theoretical foundations of empathy, its cognitive and affective components, its role in pedagogical activity, developmental mechanisms, and effective methods are examined using scientific sources. The findings demonstrate that empathy is an essential component of teachers’ professional competence and plays a significant role in improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: *empathy, pedagogical empathy, empathetic ability, teacher competence, emotional intelligence, reflection, pedagogical mediation, communicative competence.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi sharoitida pedagog faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi, ijtimoiylashuv jarayonini boshqaruvchi hamda insoniy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim subyekt sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan pedagog shaxsining empatik qobiliyati ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni insonparvarlashtirish va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Xususan, davlatimiz Prezidentining PF-5847-son Farmonida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish zarurligi alohida ta’kidlangan [1]. Shuningdek, PF-158-son Farmonda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish vazifasi ilgari surilgan [2]. Ushbu normativ hujjatlar pedagogdan nafaqat bilim, balki empatiya, kommunikativlik va refleksivlik kabi sifatlarni talab etadi.

Ilmiy tadqiqotlar empatiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, empatiya o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi va akademik natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. Empatik o‘qituvchi o‘quvchining ichki kechinmalarini anglab, individual yondashuvni ta’minlay oladi. Aksincha, empatiyaning yetishmasligi pedagogik jarayonda

konfliktlarning kuchayishiga va ta’lim samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, o‘qituvchining empatik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot nazariy va metodologik jihatdan kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy fanlar kesishmasida shakllangan empatiya nazariyalari tashkil etadi. Empatiya fenomenining mohiyati, uning psixologik mexanizmlari va pedagogik faoliyatdagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Xususan, Z. Zhou tomonidan empatiyaning ta’lim jarayonidagi roli, J. Decety tomonidan uning neyropsixologik asoslari, S. Meyers tomonidan pedagogik empatiyaning o‘quv natijalariga ta’siri hamda C. Rogers tomonidan insonparvarlik yondashuvi doirasida empatiyaning shaxs rivojidagi ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar tadqiqotning nazariy poydevori sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qo‘llanildi. Ushbu yondashuv empatiya rivojlanishini ko‘p komponentli va dinamik jarayon sifatida talqin etishga imkon berdi. Empatiyaning tarkibiy elementlari — kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari — o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilib, ularning pedagogik jarayondagi funksional ahamiyati aniqlashtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv empatiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni (psixologik, pedagogik va ijtimoiy) yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini yaratdi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida empatiyani rivojlantirishga oid turli ilmiy yondashuvlar, nazariy qarashlar va amaliy tajribalar o‘zaro solishtirildi. Natijada empatiya rivojlanishining samarali shart-sharoitlari aniqlanib, an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar ochib berildi. Mazkur tahlil empatiyani shakllantirishda interaktiv metodlar, refleksiv faoliyat va kommunikativ muhitning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish metodi orqali empatiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirildi va ularning o‘zaro integratsiyasi asosida konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model empatiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ifodalab, ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini asoslab beradi. Modelda maqsadli, mazmuniy, operatsional va natijaviy-baholovchi komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatildi.

Shuningdek, tadqiqotda refleksiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etdi. Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘zining hissiy holatini anglash va boshqarish hamda boshqalar kechinmalarini chuqurroq tushunishiga xizmat qiluvchi muhim metodologik vosita sifatida qaraldi. Empatiya rivojlanishida refleksiyaning roli uning ichki mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda empatiyani rivojlantirish jarayonida pedagogik eksperiment elementlaridan ham foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari orqali ishlab chiqilgan nazariy modelning amaliy samaradorligi baholanib, empatik qobiliyatni shakllantirishda qo‘llanilgan metod va vositalarning natijadorligi aniqlashtirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuvlar majmui empatiya fenomenini kompleks o‘rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari empatiyaning murakkab psixologik hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Empatiya shaxsning boshqa insonning hissiy va kognitiv holatini anglash hamda his qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘lib, u kognitiv va affektiv komponentlarning integratsiyasi asosida shakllanadi [4]. Kognitiv empatiya boshqa insonning fikrlash jarayonini tushunish va uning nuqtai nazarini qabul qilishni ifodalasa, affektiv empatiya uning hissiyotlarini bevosita his qilish orqali yuzaga keladi.

Zhou (2022) empatiyani ta’lim jarayonida samarali kommunikatsiyaning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilib, uning o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [3].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining empatik qobiliyati bir qator psixologik omillar ta’sirida rivojlanadi. Jumladan, refleksiya o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va boshqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Emotsional intellekt esa boshqalar hissiyotlarini aniqlash va boshqarish orqali empatiyaning shakllanishiga xizmat qiladi [5]. Shuningdek, ichki motivatsiya empatik xulq-atvorni rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik shart-sharoitlar ham empatiya rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, xususan rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar va mediatsiya texnikalari empatiyani shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ochiq va ishonchli muloqot esa empatik munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixologik xavfsiz muhit o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratib, empatiyaning tabiiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Empatiya rivojlanishi bosqichma-bosqich jarayon sifatida kechadi. Dastlab shaxs boshqa insonning holatini anglaydi, keyinchalik uni his qiladi va nihoyat ushbu holatga mos ravishda xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Ushbu jarayon refleksiya orqali mustahkamlanib, barqaror shaxsiy sifatga aylanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari empatiyaning pedagogik faoliyatdagi muhim ahamiyatini yana bir bor tasdiqlash bilan birga, uning ayrim murakkab jihatlari va cheklovlarini ham ochib berdi. Empatiya ko‘p qirrali psixologik hodisa bo‘lib, u shaxsning individual xususiyatlari, psixologik holati, hayotiy tajribasi hamda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli empatiya darajasi barcha pedagoglarda bir xil namoyon bo‘lmaydi, balki ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qarab farqlanadi. Bu holat empatiyani rivojlantirish jarayonida individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari empatiyaning ortiqcha darajada rivojlanishi ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Xususan, o‘qituvchining o‘quvchilar muammolariga haddan tashqari hissiy jalb etilishi emotsional charchoq, ya’ni kasbiy toliqish holatini yuzaga keltiradi. Psixologik adabiyotlarda ushbu holat “burnout” atamasi bilan ifodalanib, u shaxsning uzoq muddatli stress ta’sirida ruhiy va hissiy resurslarining kamayishi bilan tavsiflanadi. Natijada pedagogda kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishning pasayishi, hissiy sovuqlashuv, motivatsiyaning susayishi va ish samaradorligining kamayishi kuzatiladi [6]. Shu bois empatiyani rivojlantirish bilan bir qatorda pedagoglarning psixologik barqarorligini ta’minlash, stressga chidamliligini oshirish va emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlandiki, empatiya har doim ham obyektiv tarzda namoyon bo‘lmasligi mumkin. Ba’zi hollarda pedagog o‘ziga yaqin yoki ijtimoiy jihatdan faolroq o‘quvchilarga nisbatan ko‘proq empatiya bildirishi, boshqalarga esa yetarli darajada e’tibor qaratmasligi ehtimoli mavjud. Bu esa pedagogik adolat va tenglik tamoyillariga zid keladi hamda ta’lim jarayonida subyektivlikning ortishiga olib keladi. Shu sababli empatiyani ongli ravishda boshqarish va uni adolatli pedagogik munosabatlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Shuningdek, empatiya samarali pedagogik faoliyatni ta’minlovchi yagona omil emas, balki boshqa kasbiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xususan, pedagogik mediatsiya nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishda muhim rol o‘ynaydi, refleksiv murosa esa pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiyalar esa empatiyaning amaliy ifodasini ta’minlab, samarali muloqot uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bois empatiyani rivojlantirish jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish, uni boshqa pedagogik kompetensiyalar bilan integratsiyalash zarur.

Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim muhitida empatiyani rivojlantirish raqamli pedagogika sharoitida ham yangi talablarga ega bo‘lmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn muloqot va raqamli platformalar orqali o‘qitish jarayonida empatiyaning ifodalanish shakllari o‘zgarib, pedagogdan yanada yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik moslashuvchanlikni talab etadi. Bu esa empatiya tushunchasini yanada kengroq kontekstda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining empatik qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Empatiya pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda nizoli vaziyatlarni kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, empatiya o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligiga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, empatik qobiliyatni rivojlantirish psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligi asosida amalga oshirilishi zarur. Refleksiya, emotsional intellekt va ichki motivatsiya kabi psixologik omillar empatiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynasa, interaktiv metodlar, kommunikativ muhit va innovatsion pedagogik texnologiyalar uning amaliy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, empatiya pedagogik mediatsiya, refleksiv murosa va kommunikativ kompetensiyalar bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirilgandagina samarali natija beradi.

Bundan tashqari, empatiyaning salbiy jihatlarini, xususan, emotsional charchoq va kasbiy toliqish kabi holatlarni hisobga olish ham muhimdir. Shu bois pedagoglarni tayyorlash jarayonida nafaqat empatiyani rivojlantirish, balki emotsional barqarorlikni shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Shu asosda, o‘qituvchining empatik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan, kompleks va tizimli metodik modelni ishlab chiqish hamda uni ta’lim amaliyotiga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish, yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish va empatiya fenomenini yanada chuqur o‘rganish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Zhou, Z. (2022). *Empathy in education: A critical review*. Journal of the Scholarship of Teaching and Learning, 16(3), 1–15.
2. Decety, J. (2011). *The social neuroscience of empathy*. MIT Press.
3. Meyers, S. A., Rowell, K., Wells, M., & Smith, B. C. (2019). Teacher empathy and student success. *College Teaching*, 67(3), 160–168.
4. Rogers, C. R. (1969). *Freedom to learn*. Merrill Publishing.
5. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence*. Bantam Books.
6. Kyriacou, C. (1987). Teacher stress and burnout. *Educational Research*, 29(2), 146–152.
7. Barton, G., & Garvis, S. (2019). *Compassion and empathy in educational contexts*. Palgrave Macmillan.
8. Cooper, B. (2011). Empathy in education: Engagement, values and achievement. *Continuum International Publishing*.
9. Dweck, C. S. (2006). *Mindset: The new psychology of success*. Random House.
10. Noddings, N. (2005). *The challenge to care in schools*. Teachers College Press.
11. Halpern, J. (2011). *From detached concern to empathy: Humanizing medical practice*. Oxford University Press.
12. Aldrup, K., Carstensen, B., & Klusmann, U. (2022). Is empathy the key to effective teaching? *Educational Psychology Review*, 34(3), 1177–1216.

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Baxronova Sayyora Botir qizi,
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti
sayyorabaxranova3s8@gmail.com

Mazkur maqolada amaliy matematika ta’limi jarayonida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda kognitiv kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, amaliy matematika fanlarini o‘qitishda uchraydigan asosiy metodik muammolar aniqlangan. Tadqiqotda murakkab matematik tushunchalarni vizuallashtirishning didaktik imkoniyatlari asoslanib, raqamli dastur orqali funksiyaning grafigini qurish va uni aylantirish orqali hosil bo‘ladigan jismni uch o‘lchamli fazoda tasvirlashga oid bosqichma-bosqich metodik yondashuv yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *kognitiv kompetentlik, innovatsion pedagogika, matematik modellashtirish, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, Geogebra dasturi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье представлен научно-теоретический и методический анализ проблем развития когнитивной компетентности студентов в процессе обучения прикладной математике. В исследовании раскрывается сущность и структура когнитивной компетентности, а также её роль в образовательном процессе. Кроме того, выявлены основные методические проблемы, возникающие при преподавании прикладной математики. В работе обоснованы дидактические возможности визуализации сложных математических понятий и предложен поэтапный методический подход к построению графиков функций с использованием цифровых технологий, а также к визуализации тел, полученных при вращении функций в трёхмерном пространстве. Результаты исследования подтверждают необходимость интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, а также широкого внедрения современных цифровых технологий в образовательный процесс с целью повышения когнитивной компетентности студентов.

Ключевые слова: *когнитивная компетентность, инновационная педагогика, математическое моделирование, цифровые технологии, интерактивные методы, педагогические технологии, программа GeoGebra.*

IMPROVING STUDENTS’ COGNITIVE COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

This article presents a scientific-theoretical and methodological analysis of the issues related to the development of students’ cognitive competence in the process of applied mathematics education. The study reveals the essence and structure of cognitive competence, as well as its role in the educational process. Furthermore, the main methodological problems encountered in teaching applied mathematics are identified. The research substantiates the didactic potential of visualizing complex mathematical concepts and describes a step-by-step methodological approach to constructing function graphs using digital tools and visualizing solids obtained by rotating functions in three-dimensional space. The results of the study demonstrate the necessity of integrating theoretical knowledge with practical activities and widely implementing modern digital technologies into the educational process in order to enhance students’ cognitive competence.

Keywords: *cognitive competence, innovative pedagogy, mathematical modeling, digital technologies, interactive methods, pedagogical technologies, GeoGebra software.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bilim va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yuqori malakali, mustaqil

fikrlay oladigan hamda murakkab muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, amaliy matematika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy muammolarni hal qilish jarayonida qo‘llay olish qobiliyatini ham talab etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida kompetentlikka asoslangan yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki talabalarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda kognitiv kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu kompetentlik talabaning bilimlarni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi [1].

Zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri – talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish, ya’ni ularning bilimlarni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan yoshlarning intellektual salohiyati, mustaqil va tanqidiy fikrlashi hamda bilimlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalariga bog‘liq [2].

Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etiladi”. Ushbu fikrlar ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish, ularning bilim olish jarayonidagi faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Sharq mutafakkirlari ham ta’lim jarayonida inson tafakkurini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy kabi qomusiy olimlar bilim olish jarayonida tafakkurni rivojlantirish, bilimni chuqur anglash va uni amaliy faoliyatda qo‘llash muhimligini ta’kidlaganlar. Ularning pedagogik qarashlarida o‘quvchining bilish jarayoni, fikrlash faoliyati va intellektual rivojlanishi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda bilimlarni chuqur anglash va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [4].

Amaliy matematika ta’limida esa kognitiv kompetentlikni rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Sababi, matematik fanlar murakkab analitik tafakkurni, abstrakt fikrlashni hamda muammoli vaziyatlarni modellashtirishni talab qiladi. Shu bois, talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va metodika oldida turgan muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Kognitiv kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari. “Kognitiv” atamasi lotincha *cognitio* – bilish, anglash ma’nosini bildiradi. Pedagogika va psixologiya fanlarida kognitiv faoliyat insonning bilimlarni o‘zlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlar hosil qilish jarayoni bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi [5].

Kognitiv kompetentlik esa shaxsning bilish jarayonlarini samarali tashkil eta olish qobiliyatini ifodalaydi. U quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- bilimlarni o‘zlashtirish va tushunish qobiliyati;
- tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati;
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati;
- o‘z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llay olish.

Pedagogik nuqtai nazardan kognitiv kompetentlik talabaning bilimlarni mexanik ravishda yodlash emas, balki ularni chuqur anglash, tafakkur qilish va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi.

Amaliy matematika ta’limida bu kompetentlik ayniqsa muhimdir. Chunki matematik bilimlar ko‘pincha abstrakt xarakterga ega bo‘lib, ularni tushunish va qo‘llash yuqori darajadagi analitik tafakkurni talab qiladi.

Amaliy matematika ta’limida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning metodik muammolari.

Amaliy matematika ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator metodik muammolar kuzatiladi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Nazariy bilimlarning ustunligi. Amaliy matematika fanlarini o‘qitish jarayonida ko‘plab hollarda nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga asosiy e’tibor qaratilib, ularni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash yetarli darajada amalga oshirilmaydi. O‘quv dasturlarida matematik tushunchalar, formulalar, teoremalar va algoritmlarni o‘rganish ustuvor hisoblanadi, biroq ushbu bilimlarni real hayotiy vaziyatlar va amaliy masalalarni yechishda qo‘llash imkoniyatlari ko‘pincha cheklangan holda qoladi. Natijada talabalar matematik nazariyaning mazmunini bilsalar ham, uni turli sohalardagi amaliy muammolarni hal qilish jarayonida samarali qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Bunday holat talabalarning kognitiv faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki kognitiv kompetentlik faqat bilimlarni eslab qolish bilan emas, balki ularni tahlil qilish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarda qo‘llash hamda yangi bilimlar hosil qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Agar ta’lim jarayonida nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan yetarli darajada bog‘lanmasa, talabalarda matematik tafakkur, modellashtirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari to‘liq shakllanmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarda nazariy bilimlarni amaliy masalalar bilan integratsiyalash, real jarayonlarni matematik modellashtirish hamda fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Muammoli vaziyatlardan kam foydalanish. Kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish muhim metodik vositalardan biri hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar talabalarda bilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday vaziyatlarda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni mustaqil hal etishga intiluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunga qaramay, amaliy matematika fanlarini o‘qitish jarayonida muammoli o‘qitish metodlari yetarli darajada qo‘llanilmayotganligi kuzatiladi. Ko‘pincha o‘quv mashg‘ulotlari tayyor formulalar va algoritmlarni tushuntirish hamda ularni standart misollar orqali mustahkamlash bilan cheklanadi. Bunday yondashuv esa talabalarda chuqur tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularga optimal yechim topish ko‘nikmalarining rivojlanishini cheklaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan muammoli topshiriqlar, modellashtirish masalalari va tadqiqot xarakteridagi vazifalardan foydalanish zarur.

3. Raqamli texnologiyalardan yetarli foydalanmaslik. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini vizuallashtirish hamda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida murakkab matematik jarayonlarni modellashtirish, grafik tasvirlash, simulyatsiya qilish hamda interaktiv muhit yaratish imkoniyati mavjud.

Biroq ayrim hollarda amaliy matematika fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kuzatiladi. Ko‘plab o‘quv mashg‘ulotlari an’anaviy usullarda tashkil etilib, zamonaviy dasturiy vositalar, matematik paketlar, interaktiv platformalar va vizual modellashtirish imkoniyatlari to‘liq qo‘llanilmaydi. Natijada talabalar murakkab matematik jarayonlarni chuqur anglash, ularni vizual tarzda tasavvur qilish va amaliy modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’lim jarayonida GeoGebra, MATLAB, Maple, Python kabi matematik dasturlar, shuningdek raqamli ta’lim platformalari va interaktiv vositalardan keng foydalanish talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki ularni real amaliy vaziyatlarda samarali qo‘llashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur metodik muammolar nafaqat talabalarning bilim darajasiga, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, pedagogika institutlarini tamomlayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar matematik tushunchalarni chuqur anglash va ularni turli pedagogik vaziyatlarda mos ravishda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida yuzaki yondashuvning kuchayishiga, o‘quvchilarda matematik tafakkurning yetarli darajada shakllanmasligiga hamda bilimlarning reproduktiv darajada qolib ketishiga olib keladi.

Bundan tashqari, kognitiv kompetentlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarining sustlashuviga sabab bo‘ladi. Natijada, ular noan’anaviy vaziyatlarda qaror qabul qilishda, bilimlarni yangi sharoitlarga transfer qilishda hamda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat esa zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi pedagoglarning innovatsion pedagogik faoliyat olib borish imkoniyatlarini cheklaydi, ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi hamda zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida kasbiy moslashuvni murakkablashtiradi. Natijada ta’lim sifati va natijadorligining pasayishi, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishining susayishi kabi muammolar yuzaga keladi.

Umuman olganda, amaliy matematika ta’limida kognitiv kompetentlikni rivojlantirish bilan bog‘liq metodik muammolar tizimli yondashuv asosida hal etilmasa, ular ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakdagi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, mazkur muammolarni bartaraf etish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, muammoli o‘qitish metodlarini keng qo‘llash hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Aniq integral yordamida aylanma jism hajmini hisoblash” mavzusida o‘qitishning samarali metodlarini takomillashtirish maqsadida predmetli yondashuv asosida ushbu mavzuni GeoGebra dasturida vizuallashtirishga asoslangan o‘qitish metodikasi ko‘rib chiqamiz.

Ta’rif. Aylanish jismlarining hajmi aniq integral yordamida $V = \pi \int_a^b [f(x)]^2 dx$ formulasi bilan hisoblanadi, bunda $f(x)$ aylantirilayotgan funksiya, $[a, b]$ esa oraliqdir. Bu usul egri chiziqli trapetsiyaning OX yoki OY o‘qlari atrofida aylanishi natijasida hosil bo‘lgan jismning to‘la hajmini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, o‘quvchilar tomonidan murakkab sifatida qabul qilinadigan quyidagi masalani yechish jarayonini tahlil qilish orqali ularning bilish faoliyati va fazoviy tasavvur imkoniyatlarini rivojlantirishga oid jihatlar yoritiladi:

$y = \sqrt{x}$ ni x– o‘qi atrofida $x\epsilon[0,4]$ bo‘yicha aylantirish natijasida hosil bo‘lgan jism hajmini topish talab etilgan bo‘lsa, bu masalani interaktiv tarzda vizuallashtirishni GeoGebra dasturi orqali bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz:

Dasturni ishga tushirib koordinatalar sistemasini sozlab bo‘lgach algebra oynasidagi kirish qatoriga berilgan funksiyani yozamiz: f(x)=sqrt(x) formulasi asosida kiritib Enter tugmasini bosamiz. GeoGebra avtomatik ravishda funksiyaning grafigini tasvirlaydi. Keyingi oynaga g=Function(f,0,4) buyrug‘i beriladi, natijada f bilan belgilangan funksiyani $[0,4]$ oraliqda chegaralaydi. Bu jarayon quyidagi 1-rasmda o‘z aksini topgan.



1-rasm. Funksiyaning berilgan sohadagi grafigi

Algebra qatorining keyingi ustuniga Surface(g,2π) buyrug‘i kiritiladi natijada esa shu cheklangan funksiyani x-o‘qi atrofida 0 dan 2π gacha aylantirib sirt hosil qiladi. Bundan tashqari agar yana ushbu V=Integral(pi*(f(x))^2,0,4) buyrug‘i berilsa hosil bo‘lgan aylanish jismining hajmini ham avtomatik ravishda hisoblaydi.



2-rasm. Funksiyaning aylanishi orqali hosil qilingan jismning uch o‘lchamli vizual modeli

Natijalar. Mazkur masalaning geometrik mazmuni GeoGebra dasturi imkoniyatlaridan foydalangan holda bosqichma-bosqich ko‘rib chiqildi. Jumladan, bu dastur funksiyaning grafigini qurish, chegaralangan sohani aniqlash, uni x-o‘qi atrofida aylantirish orqali hosil bo‘ladigan jismni uch o‘lchamli fazoda vizuallashtirish, dinamik modellar yordamida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish, hamda analitik yechim bilan vizual natijalarni solishtirish imkoniyatlarini beradi. Ushbu vizual modellashtirishga asoslangan metodik yondashuv talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otish hamda bilimlarni chuqur, tizimli va ongli o‘zlashtirishni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Umuman olganda, amaliy matematika ta’limida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlarning ustunligi talabalarning mustaqil fikrlashi va bilish faoliyatining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarur.

Raqamli texnologiyalar, xususan, GeoGebra dasturi asosida vizuallashtirish metodlari talabalarning abstrakt tushunchalarni anglashini osonlashtiradi, ularning fazoviy tasavvurini rivojlantiradi hamda bilish jarayonini faollashtiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirib, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada, ta’lim jarayonida vizual va interaktiv metodlardan foydalanish kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga, ta’lim samaradorligini oshirishga hamda kelajakdagi pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Baxronova S. B. (2025). Smart texnologiyalar asosida matematik model va vizual vositalar bilan o‘qitishning innovatsion yondashuvlari. Development Of Science, 6 (5), pp. 168-175.

2. Kurbonov G‘. G‘., Baxronova S. B. (2025). Ta’lim jarayonida raqamli platformalarning integratsiyasi: amaliy yondashuvlar. Pedagogik akmeologiya 4 (21), pp 72-76.

3. Baxronova S.B. (2026). Masofaviy ta’limda kasbiy kompetentlik tushunchasining pedagogik mazmuni: taqqoslovchi tahlil. Development Of Science, 1(1), pp. 282-288.

4. Kurbonov G. (2022). Didactic possibilities of teaching general subjects on the basis of digital educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2 (1.5 Pedagogical sciences).

5. Baxronova (2025). Oliy ta’limda matematika o‘qitishda xalqaro tajribadan foydalanish. Development Of Science, 5(1), pp. 78-86.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA ART DIZAYNI ASOSIDA TALABALARNING TEXNOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Burxonova Malika Ziyodulloyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistri
malikaburxonova1@gmail.com

Raqamli ta’lim muhitining shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrida talabalarning texnologik tafakkurini shakllantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu ilmiy maqola raqamli didaktik jarayonlarda ART (san'at va texnologiya uyg‘unligi) dizayni yondashuvidan foydalangan holda talabalarning texnologik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini asoslashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida an'anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, innovatsion didaktik strategiyalar va raqamli transformatsiya tamoyillariga asoslangan yangicha o‘quv modellarini joriy etish zaruriyati chuqur tahlil qilindi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari yuz yigirma nafar talabani qamrab olgan holda nazorat va tajriba guruhlarida olib borildi hamda olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlandi. Olib borilgan amaliy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ART dizayni asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari talabalarda muammoli vaziyatlarni kreativ hal etish, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish va dizaynli fikrlash malakalarini an'anaviy yondashuvlarga nisbatan sezilarli darajada oshiradi. Maqolada keltirilgan xulosalar va taklif qilingan metodik tavsiyalar kelgusida raqamli ta’lim platformalarini takomillashtirish hamda talabalarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlarini yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Raqamli transformatsiya, ART dizayn, texnologik tafakkur, innovatsion didaktik strategiyalar, pedagogik metodika, kreativ yondashuv, muammoli ta’lim.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АРТ-ДИЗАЙНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В современную эпоху стремительного развития цифровой образовательной среды формирование технологического мышления студентов стало одной из наиболее важных и актуальных задач системы высшего образования. Данная научная статья посвящена разработке методики развития технологического и креативного мышления студентов с использованием подхода ART-дизайна (синтеза искусства и технологий) в цифровых дидактических процессах, а также обоснованию её практической эффективности.

В ходе исследования была глубоко проанализирована необходимость отказа от традиционных методов обучения в высших учебных заведениях и внедрения новых образовательных моделей, основанных на инновационных дидактических стратегиях и принципах цифровой трансформации. Педагогические экспериментальные исследования проводились с участием ста двадцати студентов в контрольных и экспериментальных группах, а полученные результаты были статистически обработаны.

Результаты практического исследования показали, что учебные занятия, организованные на основе ART-дизайна, значительно повышают у студентов навыки креативного решения проблемных ситуаций, эффективного использования информационных технологий и дизайн-мышления по сравнению с традиционными подходами. Ожидается, что выводы статьи и предложенные методические рекомендации послужат важной научной основой для совершенствования цифровых образовательных платформ и создания учебных программ, направленных на раскрытие интеллектуального потенциала студентов.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, ART-дизайн, технологическое мышление, инновационные дидактические стратегии, педагогическая методика, креативный подход, проблемное обучение.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ TECHNOLOGICAL THINKING BASED ON ART DESIGN IN THE CONTEXT OF DIGITAL EDUCATION

In the current era of rapid development of the digital educational environment, the formation of students’ technological thinking has become one of the most important and urgent tasks of the modern higher education system. This scientific article is aimed at developing a methodology for enhancing students’ technological and creative thinking abilities through the use of the ART design approach (the integration of art and technology) in digital didactic processes, as well as substantiating its practical effectiveness.

During the research process, the necessity of abandoning traditional teaching methods in higher education institutions and introducing new educational models based on innovative didactic strategies and principles of digital transformation was thoroughly analyzed. Pedagogical experimental studies were conducted with one hundred and twenty students divided into control and experimental groups, and the obtained results were statistically processed.

The results of the practical research demonstrate that educational activities organized on the basis of ART design significantly improve students’ abilities to creatively solve problem situations, effectively use information technologies, and develop design thinking skills compared to traditional approaches. The conclusions presented in the article and the proposed methodological recommendations are expected to serve as an important scientific foundation for improving digital educational platforms and creating curricula aimed at realizing students’ intellectual potential.

Keywords: *digital transformation, ART design, technological thinking, innovative didactic strategies, pedagogical methodology, creative approach, problem-based learning.*

Kirish. Global axborotlashuv jarayonlari va hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi oliy ta’lim tizimi oldiga talabalarni nafaqat chuqur nazariy bilimlar bilan qamrab olish, balki ularda uzluksiz o‘zgarib borayotgan texnologik muhitga moslashish imkonini beruvchi murakkab kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bugungi kunning raqamli ta’lim sharoiti an'anaviy bilim berish usullaridan tubdan farq qiluvchi, o‘quv jarayonini to‘liq vizuallashtirish, interaktivlashtirish va moslashuvchanlik tamoyillariga asoslangan mutlaqo yangi didaktik paradigmalarni talab etadi. Ana shunday sharoitda talabalarning texnologik tafakkurini rivojlantirish masalasi o‘zining alohida dolzarbligini namoyon qiladi, chunki aynan texnologik tafakkur shaxsga murakkab texnik tizimlarni tushunish, ularning ishlash algoritmlarini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi asosiy aqliy qurol hisoblanadi. Texnologik tafakkur o‘z ichiga algoritmik, tizimli, mantiqiy va kreativ fikrlash xususiyatlarini mujassamlashtirgan murakkab psixologik-pedagogik fenomen bo‘lib, uni an'anaviy, passiv ma’ruza mashg‘ulotlari orqali yetarli darajada rivojlantirish imkonsizdir. Shuning uchun ham ta’lim amaliyotiga fanning turli sohalari, xususan, muhandislik, dasturlash va san’at yo‘nalishlarini o‘zida birlashtirgan integrativ yondashuvlarni joriy etish zarurati tug‘ilmoqda.

Shu o‘rinda, ta’lim jarayoniga ART (Art and Technology) dizayn yondashuvini tatbiq etish talabalarda vizual-kreativ va mantiqiy-algoritmik tafakkurni bir vaqtning o‘zida parallel ravishda rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. ART dizayni o‘zining mohiyatiga ko‘ra texnologik jarayonlarning estetik, ergonomik va funksional jihatlarini uyg‘unlashtiruvchi, muammoni hal qilishda ham matematik mantiqqa, ham badiiy ijodkorlikka tayanuvchi innovatsion metodika hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhitida ushbu metodikaning qo‘llanilishi talabalarga o‘quv materiallarini nafaqat quruq ma'lumotlar to‘plami sifatida qabul qilish, balki ularni modellashtirish, virtual loyihalar yaratish va taqdimotlar tayyorlash orqali chuqur his qilish imkonini beradi. Ta’limda ART dizaynidan foydalanish shunchaki ko‘rgazmalilikni oshirish vositasi emas, balki bilish jarayonini tubdan o‘zgartiruvchi, talabani bilimning faol yaratuvchisiga aylantiruvchi kuchli didaktik strategiyadir. Ushbu yondashuv asosida talabalar o‘quv topshiriqlarini bajarishda vizual dasturlash tillari, uch o‘lchamli modellashtirish dasturlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan faol foydalangan holda o‘z g‘oyalarini ro‘yobga chiqaradilar.

Oliy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonida texnologik tafakkurni rivojlantirishning an’anaviy metodikalari o‘z o‘rnini loyihaviy va muammoli o‘qitish texnologiyalariga bo‘shatib bermoqda, biroq aynan ushbu o‘tish davrida o‘quv fanlarining mazmuniga kreativ va muhandislik yondashuvlarini tizimli ravishda integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodikalarning yetishmasligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ko‘pgina hollarda axborot texnologiyalarini o‘qitish faqat kompyuter savodxonligini oshirish darajasida qolib ketmoqda va talabalarning mustaqil, ijodiy hamda tizimli ravishda texnologik muammolarni hal qilish salohiyati yetarlicha ochilmay qolmoqda. Talabalar murakkab raqamli vositalardan foydalanish texnikasini o‘zlashtirsalar-da, ushbu vositalar yordamida original mahsulotlar yaratish, tizimlarning o‘zaro aloqadorligini ko‘ra bilish va texnologik jarayonlarni estetik jihatdan mukammallashtirish borasida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat ta’lim berish metodikasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni,

axborot texnologiyalari ta’limini dizayn va san’at elementlari bilan boyitishni talab qiladigan obyektiv zaruriyatni yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar va ta’lim amaliyotidagi mavjud bo‘shliqlar mazkur ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli ta’lim muhitiga to‘liq moslashgan, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kognitiv, kreativ va muhandislik-texnologik malakalarni kompleks shakllantirishga xizmat qiluvchi ART dizayniga asoslangan yangi pedagogik metodikani ishlab chiqish hamda uni empirik sinovdan o‘tkazishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida biz raqamli didaktika va innovatsion ta’lim strategiyalari tamoyillariga tayangan holda, talabani passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi va dizaynerga aylantiruvchi o‘quv modelini taklif etamiz. Ushbu model o‘z ichiga kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi loyihaviy topshiriqlar tizimini, baholashning yangi mezonlarini va o‘qituvchi hamda talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning interaktiv shakllarini qamrab oladi. Bizning farazimizcha, agar o‘quv jarayonida ART dizayn tamoyillari uzluksiz va tizimli ravishda qo‘llanilsa, bu talabalarning texnologik tafakkur darajasining sezilarli o‘sishiga, ularning kasbiy tayyorgarlik sifatining oshishiga hamda kelajakdagi murakkab mehnat sharoitlariga psixologik moslashuvchanligining ta’minlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli ta’lim va texnologik tafakkur muammolari jahon pedagogikasi va psixologiyasi fanlarida uzoq yillardan buyon keng ko‘lamda o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa-da, aynan raqamli transformatsiya davrida ART dizayni yondashuvini kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish omili sifatida tadqiq etish nisbatan yangi va jadal rivojlanayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar ta’lim sohasiga sun'iy intellekt va raqamli muhitlarning kirib kelishi bilan o‘quv jarayonlarining kognitiv asoslari tubdan o‘zgarayotganligini va bu o‘zgarishlar talabalardan mutlaqo yangicha tafakkur uslubini talab etayotganligini ta’kidlamoqdalar (Smith, 2023). Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, faqatgina kompyuter dasturlarini boshqarish qobiliyatini shakllantirish texnologik tafakkurni rivojlantirish uchun yetarli emas; buning uchun o‘rganilayotgan obyektni tizimli tahlil qilish, uning dizayni va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tushunish ko‘nikmalari muhim rol o‘ynaydi (Johnson, 2022). Olimlarning kuzatishlariga ko‘ra, raqamli muhitda axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari vizualizatsiya va estetik jozibadorlikka kuchli ehtiyoj sezadi, bu esa o‘z navbatida ta’lim mazmuniga badiiy-texnik (ART dizayn) yondashuvlarni faol joriy etishni taqozo qiladi.

Pedagogik yondashuvlar sohasidagi so‘nggi ilmiy maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta’lim konsepsiyasining doimiy ravishda kengayib borishi san'at va dizayn yo‘nalishlarining aniq va texnik fanlar bilan o‘zaro integratsiyasining qay darajada kuchli ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, ilg‘or olimlar o‘zlarining ilmiy maqolalarida dizaynli fikrlash (design thinking) metodologiyasi talabalarning muammolarga yechim topish jarayonidagi empatiya, sintez va modellashtirish qobiliyatlarini qanday qilib yuksak darajaga olib chiqishini batafsil yoritib berganlar (Williams & Davis, 2021). Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, san'at elementlari ishtirok etgan texnologik topshiriqlar talabalarning miya faoliyatida o‘ng va chap yarim sharlarning sinxron ishlashini ta’minlab, ularning murakkab masalalarni hal etishdagi stress darajasini pasaytiradi hamda motivatsiyasini barqarorlashtiradi. Biroq, mavjud ilmiy jurnallardagi tadqiqotlarni chuqur o‘rganish natijasida shuni aytish mumkinki, garchi dizaynli fikrlash bo‘yicha ko‘plab amaliy tajribalar o‘tkazilgan bo‘lsa-da, aynan o‘zbek oliy ta’lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talabalarning texnologik tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha lokalizatsiya qilingan va moslashtirilgan o‘quv-uslubiy majmualar va metodik yo‘riqnomalar yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini ko‘rishimiz mumkin (Abdullayev, 2023).

• his-tuyg‘ulardan fikrlash jarayonini rag‘batlantirish maqsadida foydalanish — individning ongli ravishda anglamagan holda, o‘z shaxsining kreativ imkoniyatlaridan foydalangan holda, his-tuyg‘ularni motivatsion komponent sifatida qo‘llab, aqliy faoliyat mexanizmini namoyon etish qobiliyati;

• his-tuyg‘ularni identifikatsiya qilish — o‘zida paydo bo‘lgan muayyan his-tuyg‘uning kelib chiqish sababini aniqlash, g‘oyalar va his-tuyg‘ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalash, ma’lum vaqt o‘tishi bilan emotsional zanjirlarning paydo bo‘lishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati;

• his-tuyg‘ularni boshqarish — shaxsiy his-tuyg‘ularni hamda boshqa individlarning his-tuyg‘ularini nazorat qilish ko‘nikmasi bo‘lib, olingan ma’lumotlarni aniq maqsadlarga erishish uchun yo‘naltirishni anglatadi.

O‘smirlik, ya’ni inqirozli yoshni davriy rivojlanish tuzilmasining alohida elementi sifatida emas, balki, avvalo, dinamik rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida o‘rganish zarur. Chunki ontogenez jarayonida bolaning shakllanish sharoitlari o‘rganilmasdan turib, uning psixologik xususiyatlarini aniqlash mumkin emas. Asosiy g‘oyalar faoliyat yondashuvida mujassam bo‘lib, u individuallikning shakllanishini dinamik jarayon sifatida talqin etadi. Bu jarayonning muhim oqimi, eng avvalo, shaxs ichida yuzaga keladigan shaxsiy qarama-qarshiliklarni tartibga solishdan iborat. Bundan tashqari, faoliyat turining o‘zgarishi ham kuzatiladi, bu esa ehtiyojlar kategoriyasiga bo‘lgan dastlabki munosabatlarning o‘zgarishini shakllantiradi.

Rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagilar aniqlangan: o‘smirlik davri uchun muhim faoliyat — bu o‘zaro munosabatlar qoidalari va chegaralarini anglash bo‘lib, ular ayniqsa ijtimoiy jihatdan ma’qullangan faoliyatda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Vigotskiy ta’kidlaganidek, inqirozli bosqichlarda shaxsda muayyan ustanovkalar shakllanadi. Ularning mazmuni dastlab psixik, ya’ni aqliy jihatdan anglanadi, keyinchalik esa biologik ko‘nikmalar bilan mustahkamlanadi [8].

Muallif nazariyasiga ko‘ra, inqirozli davr o‘tmish tajribasidagi muhim voqealardan paydo bo‘ladigan yangi shakllanishlar bilan bog‘liqdir. Ta’limiy faoliyat natijadorligi esa shaxsning sotsiumga bo‘lgan munosabatining o‘ziga qaratilgan munosabatga o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Bolaning muayyan bosqichdagi shakllanish xususiyatlari quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: kattalar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar:

• o‘jarlikning namoyon bo‘lishi, salbiy va qiyin qabul qilish, samarali baholashga befarqlik;

• umumta’lim muassasasini tark etish, chunki ayni paytda shaxs uchun muhim bo‘lgan jihatlar maktabdan tashqarida shakllanadi;

• o‘smirlar guruhini izlash (uni tushuna oladigan odamni topish, o‘ziga o‘xshashlarni izlash);

• o‘smir o‘z fikrlarini yozib borish uchun daftar yuritish g‘oyasini o‘rganadi.

Ko‘plab olimlar “shaxsiy yozuvlar va kundaliklar” mexanizmlarini kuzatishgan. Aynan shu yozuvlarda o‘smir “muhim shaxsiy panohni” topadi, bu yerda uni nazorat qiladigan hech kim bo‘lmaydi. U o‘z fikrlarini erkin ifodalash, shaxsiy, ba’zan esa intim va chuqur o‘ylarini, dolzarb va hayajonli g‘oyalarini, “hayrat va izlanishlarini” cheklanmagan holda bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘smir o‘z shaxsini boshqa o‘smir shaxsi bilan taqqoslash orqali o‘z ichki dunyosi bilan tashqi insonni solishtiradi. U atrofdagilardan uni katta inson sifatida qabul qilishni talab qilishga urinadi va o‘zining ham shaxsiy qarashlari borligini anglay boshlaydi. Ushbu bosqichning eng muhim shakllanishi - o‘zini bola emas, balki katta inson sifatida anglashdir. Shaxs o‘zini yetuk inson sifatida his qilishga intiladi, katta odamdek ko‘rinishga harakat qiladi, biroq ba’zan o‘zining bolalarcha bevositaligini inkor etadi. Shu bilan birga, u o‘zini anglash va sotsium tomonidan qabul qilinishga kuchli motivatsiyaga ega bo‘ladi.

Olimning ishlarida tasdiqlanishicha, inqirozli bosqich har qanday psixik jarayon singari yangi neyron bog‘lanishlarning paydo bo‘lishini anglatadi. Biroq, uning fikricha, bu shakllanishlar faoliyatdagi muhim faollik natijasida, ya’ni o‘tmish tajribasida aks etgan faoliyat ta’sirida yuzaga keladi.

Ta’limiy faoliyat orqali individning sotsiumga bo‘lgan munosabati o‘z shaxsiga qaratilgan e’tiborga o‘zgaradi. Ushbu shakllanish bosqichining oxiriga kelib, xulq-atvor va idrokda muhim o‘zgarishlar kuzatiladi. Namoyon bo‘layotgan “kattalik” shunda ifodalanadiki, bola kattalar davrasiga teng huquqli a’zo sifatida kirishga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Inqirozli bosqichdagi mustaqil yetuklik elementlari faoliyat va ta’lim jarayonidagi o‘zaro munosabatlarda, tengdoshlari va oila a’zolari bilan, keksalar va kichik yoshdagi bolalar bilan munosabatlarda kuzatiladi. Shaxs o‘zini quyidagi sohalarda namoyon eta boshlaydi:

- kognitiv sohada — shaxsiy o‘qishga qobiliyat rivojlanishi uchun shart-sharoitlar, materialni mustaqil o‘rganish;
- ijtimoiy-ma’naviy sohada — katta avlodga yordam berishga intilish, o‘z fikrlarini himoya qilishga urinish;
- boshqa jinsdagi tengdoshlari bilan romantik munosabatlarda — shaxsiy vaqtni rejalashtirish va o‘ziga e’tibor qaratish istagi;
- tashqi ko‘rinishda — kattalarga xos xatti-harakatlarga taqlid qilish, kiyinish va gaplashishda sleng ifodalarni qo‘llash.

Tasavvur qilingan yetuklik va uning hissi bolada o‘zini bola emas, balki jamiyatning yetuk a’zosi sifatida his qilish bilan tavsiflanadi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- samimiy istaklarni ifodalash, shaxsiy mustaqillikni baholash;
- hayotining ayrim sohalarini kattalar aralashuvidan yashirishga ehtiyoj;
- atrofdagilarning ma’qullamasligiga qaramay, o‘z faoliyat strategiyasini shakllantirish.

Nazariyalarga ko‘ra, muallif inqirozli bosqich individuallik shakllanishining keyingi bosqichi - romantik namoyonlar bosqichini yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. Tarixiy nuqtai nazardan bu kattalikka o‘tish bilan yetuk o‘zini anglash o‘rtasidagi oraliq davr hisoblanadi. Nazariyaga ko‘ra, bu davr ziddiyatli va tartibga solinmagan stressli vaziyatlarga boy bo‘lib, unda aybdorlik hissi, psixikaning beqarorligi va nazorat qilinmaydigan holatlar ustunlik qiladi.

Muallif avvalo shaxs xarakterining shakllanishi muammosini ajratib ko‘rsatadi va ushbu bosqichga xos muhim chegaralarni belgilaydi.

- o‘smirlarda o‘zini namoyon qilishga haddan tashqari ahamiyat berish charchashga olib keladi;
- ortiqcha faollik passivlik bilan almashinadi;
- o‘ziga bo‘lgan ishonch uyatchanlik va kamtarlikka o‘tadi;
- egotsentrizm ixtiyoriy yordam va hamkorlikka almashinadi;
- ruhiy rivojlanishga bo‘lgan keskin intilish esa bu sohadagi befarqlik va apatiyaga aylanishi mumkin;
- muloqotga ehtiyoj tortinchoqlik bilan almashinadi;
- sezgirlik o‘z his-tuyg‘ularini qadrsizlantirishga o‘tadi;
- o‘qishga bo‘lgan qiziqish nafratga aylanishi mumkin;
- qiziquvchanlik intellektual befarqlikka o‘tadi;
- oppozitsion g‘oyalarga intilish o‘ziga xoslikka muhabbat bilan almashinadi;
- kuzatuvga qiziqish esa hamma narsani o‘zicha talqin qilishga bo‘lgan tinimsiz urinishlarga aylanadi.

Nazariyalarni tahlil qilish natijasida yuqori sinf o‘quvchilarida EQ rivojlanishini tushuntiruvchi bir necha asosiy bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi.

Birinchi bosqich tavsiflovchi bosqich sifatida xarakterlanadi. U eng dastlabki nazariyalarga xos bo‘lib, bugungi kunda ham klassik hisoblanadi. Ushbu bosqichga reaksiyalarni talqin qilishdan ko‘ra, o‘smirlarning emotsional xulq-atvorining sabablarini tushuntirish xosdir.

Ikkinchi bosqich katta o‘smirlik davrida yuz beradigan asosiy o‘zgarishlarni izlash va belgilashni nazarda tutadi. Bu davrni tushuntiruvchi ta’limotlarda yigitlar va katta o‘smirlarning affektiv holatlari fenomenlarini ifodalash hamda talqin qilish uchun maxsus tushunchalar ishlab chiqiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bunda faqat emotsional rivojlanish tadqiq qilinmaydi, balki yuqori sinf o‘quvchilarining maktab davridagi umumiy rivojlanishi ham o‘rganiladi, chunki aynan shu davrda muayyan hissiy holatlar, ularning sabablari va shakllanishi yuzaga keladi.

Emotsional rivojlanishni tushunishga bunday yondashuvning namunasi psixolog Xoll nazariyasida tasvirlangan. Ushbu olimning g‘oyalari psixikaning shakllanishini evolyutsion jihat bilan bog‘lab o‘rganishga qaratilgan. Psixik merosiylik haqidagi asosiy fikrlardan biri sifatida u ontogenez jarayonidagi turli rivojlanish bosqichlari inson evolyutsiyasining turli pog‘onalariga mos keladi, degan g‘oyani ilgari suradi. Ushbu g‘oyalarga ko‘ra, muallif o‘smirlik davrining 14–16 yosh oralig‘ini “yovvoyilikdan sivilizatsiyaga o‘tish” bosqichi sifatida ko‘rsatadi.

Olim bu davrni “bo‘ron va tazyiq bosqichi” deb atagan. U ushbu bosqich mazmunini o‘zini anglash inqirozi sifatida tavsiflaydi va uni yengib o‘tgach, individ “o‘z individualligini his qilish”ga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [9].

Inqirozli yoshni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardan yana biri nemis psixologi Shpranger bo‘lib, u “Yoshlik davri psixologiyasi” asarini yaratgan. Bu asar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Olim inqirozli yosh yigitlarda 14–21 yosh oralig‘ida, qizlarda esa 13–19 yosh oralig‘ida shakllanishini aniqlagan. Ushbu davrning dastlabki bosqichi 14–17 yoshni qamrab oladi. Bu davr bolalikdagi qaramlikdan ozod bo‘lish bilan bog‘liq inqiroz bilan izohlanadi [1].

Muhokama va natijalar. Inqirozli va o‘smirlik davriga ta’sir etuvchi ijtimoiy muhit tahlili **Levin**ning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Uning fikrlariga ko‘ra, o‘smirning emotsional intellekti o‘ziga xosligi shundaki, u tengdoshlar guruhi bilan kattalar guruhi o‘rtasida go‘yoki “ko‘chib yuruvchi” holatda bo‘ladi. Shu bilan birga, u hali to‘liq ravishda bu jamoalarning birortasiga ham tegishli emas. Natijada uning hissiy muhiti keskin zo‘riqish va muvozanatsizlik bilan tavsiflanadi, emotsionallikning yuqori darajasi tortinchoqlik bilan almashadi, xulq-atvordagi qarama-qarshi holatlar esa vaqti-vaqti bilan tajovuzkorlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Olimning o‘smirlik davridagi hissiy rivojlanish bosqichlariga bag‘ishlangan ishlarida yuqori sinf o‘quvchilarining emotsional shakllanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, u o‘smir shaxsining umumiy rivojlanishi va individualligining o‘sishi uning qiziqishlar doirasining kengayishi bilan tavsiflanishini ta’kidlaydi. Tengdoshlari bilan muloqot jarayonida tajriba orttirishga bo‘lgan qiziqish ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan intilish va kechinmalarning kuchayishiga olib keladi, bu esa ma’naviy ustanovkalar rivojlanishi bilan izohlanadi.

Qizlar va yigitlarning shaxsiy kelajagiga qaratilgan e’tibori samimiylikni namoyon etish, hissiy kechinmalarni ifodalash hamda o‘z emotsiyalarini nazorat qilish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Shu jarayonda estetik, altruistik va vatanparvarlikka yo‘naltirilgan qarashlar hamda boshqa ma’naviy qadriyatlar shakllanadi.

Muallifning fikriga ko‘ra, o‘smirning muayyan bosqichdagi hissiy rivojlanishida shaxs individualligini belgilovchi asosiy emotsional tomonlar shakllanadi.

O‘smirlarning emotsional rivojlanishi bilan bog‘liq o‘zaro ta’sir jarayonini psixolog **Kunitsina** ham o‘rganib, uning talqinini bergan. U o‘z nazariyalarida emotsional o‘zaro ta’sir qobiliyatlarining cheklanishi faoliyat jarayonida salbiy his-tuyg‘ularning ijobiy his-tuyg‘ularga nisbatan ustun bo‘lishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Individ muloqot jarayonida emotsional ideallarni shakllantirar ekan, u umumiy va hamma uchun bir xil bo‘lgan namunalarni emas, balki o‘zi tanlagan shaxsga xos bo‘lgan o‘ziga xos va noyob xususiyatlarni asos qilib oladi.

O‘smirlarning hissiy sohalarini o‘rgangan yana bir olima **Alshannikova** emotsional farovonlik o‘smir rivojlanishining muayyan bosqichlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. U o‘z tadqiqotlarida quyidagi savolni qo‘yadi: “O‘smir o‘z guruhida munosib o‘rin egallayaptimi, u o‘zini tengdoshlariga teng deb his qiladimi va ular orasida yetakchilik xususiyatlarini namoyon qila oladimi?”

O‘smirlarga o‘zaro bog‘langan his-tuyg‘u namunalarini yaratish xos bo‘lib, ular emotsional namoyonlarning tuzilmasini kengaytiradi. Emotsional javob uyg‘otuvchi obyektlar doirasining kengayishi esa shaxsiy kechinmalarni boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.

O‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni ham aynan shu davrga xos bo‘lgan emotsiyalar paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Bularga yolg‘izlik hissi, o‘z vaqtini va kelajagini o‘ziga xos tarzda anglash kiradi.

Olim shuningdek, yangi hayotiy vaziyatlar yuzaga kelishi bilan his-tuyg‘ularni ifodalovchi so‘z boyligi ham kengayib borishini ta’kidlaydi.

Olim **Ilyin**ning fikricha, o‘smirning hissiy sohasi his-tuyg‘u va emotsiyalarning xilma-xilligi hamda barqarorligi bilan tavsiflanadi. Bu esa hamdardlik qilishga intilish, estetik qarashlarning shakllanishi hamda do‘stlik va muhabbat munosabatlarining emotsional jihatdan boyishi bilan izohlanadi.

Hissiy o‘zgarishlar o‘smirlarning emotsional hayotining deyarli barcha sohalarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli his-tuyg‘ularning shakllanishiga oid ko‘plab tadqiqotlar fenomenologik yo‘nalishga ega. O‘smirlarning emotsional sohasi boshdan kechiriladigan reaksiyalarning xilma-xilligi, emotsiya va his-tuyg‘ularni farqlashdagi qiyinchiliklar, shaxsiy emotsional holatlar rang-barangligining ortishi, o‘z kechinmalari hamda boshqa insonlarning emotsiyalarini yuqori darajada qabul qilish bilan tavsiflanadi.

Shaxsiy hissiy imkoniyatlarni va ularning cheksizligini anglash, emotsional empatiyaning rivojlanishi, emotsional reaksiyalarni ma’naviy, estetik, altruistik, axloqiy-madaniy qarashlar orqali anglash, emotsional barqarorlik, shaxsiy kechinmalarni nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalari - bularning barchasi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim obyekt hisoblanadi.

D.S.Gizatulina tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, N. Xollning emotsional intellektni o‘rganish metodikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili fizika–matematika sinfi o‘quvchilari uchun o‘z emotsiyalarini anglash va tushunishning o‘rtacha darajasi, emotsional moslashuvchanlik, tez tiklanish, emotsiyalarni ixtiyoriy boshqarish, empatiya va o‘z xulq-atvorini boshqarishning o‘rtacha darajasi xos ekanligini ko‘rsatdi. Biroq ularda boshqa odamlarning emotsiyalariga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmasi yetarli darajada rivojlanmagan.

Gumanitar sinf o‘quvchilari uchun esa o‘z emotsiyalarini anglash va tushunishning yuqori darajasi, emotsional moslashuvchanlik, emotsiyalarni erkin boshqarish, emotsiyalar orqali o‘z xulq-atvorini boshqarish, yuqori empatiya darajasi hamda boshqa odamlarning emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmasining o‘rtacha darajasi xosdir.

Shuningdek, yigitlar va qizlar ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlangan. Qizlarda emotsional intellektning integrativ darajasi yigitlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu qizlarda emotsiyalarni tanib olish va o‘zini boshqarish qobiliyatining nisbatan kuchli rivojlanganligi bilan izohlanadi.

“EQ testi” metodikasi natijalariga ko‘ra, fizika–matematika sinfi o‘quvchilarida emotsiyalarni tushunish qobiliyati nisbatan past darajada ekanligi aniqlandi. Bunday o‘quvchilar har doim ham boshqa odamlarning emotsiyalarini yoki o‘z emotsional holatini aniq tanib olishga qodir emaslar, shuningdek ularda boshqalarda muayyan emotsional holatlarni yuzaga keltirish qobiliyati ham pastroq.

Gumanitar sinf o‘quvchilari esa o‘z emotsiyalarini tushunish va boshqarish qobiliyatiga ega. Ular emotsional holatni aniqlash, o‘zida yoki boshqa shaxsda emotsional kechinma mavjudligini anglash, emotsiyani identifikatsiya qilish, ya’ni aynan qaysi emotsional holat boshdan kechirilayotganini aniqlash hamda unga mos og‘zaki ifoda topish qobiliyatiga ega [10].

O‘smirlik davrini o‘rganish juda murakkab, uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, hozirgi vaqtgacha to‘liq yakuniga yetmagan. Hozirgi paytda ham emotsional intellektga ta’sir etuvchi sabablar va omillarni aniq tushuntirish masalasi bahsli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli olimlar o‘rtasida ilmiy munozaralar davom etmoqda.

Qarashlarning shakllanishi bilan bir vaqtda madaniy va axloqiy g‘oyalarning rivojlanishi ham sodir bo‘ladi. Bu esa shaxsda muayyan ustanovkalar tizimining shakllanishini anglatadi va natijada motivlar hamda istaklarning umumiy tuzilmasida muhim o‘zgarishlarga olib keladi. Dunyoqarash ta’sirida intilishlar tizimi ma’lum bir tartibga ega bo‘ladi va unda ma’naviy qadriyatlar hamda qarashlar muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur tizimning shakllanishi inson sifatlarining barqaror namoyon bo‘lishiga olib keladi hamda muayyan vaziyatlarda individning munosib pozitsiyani egallashiga yordam beradi. Aynan inqirozli bosqich yakunida shaxs o‘zining individualligini, shaxsiy maqsadlari va imkoniyatlarini anglay boshlaydi, shuningdek jamiyatdagi o‘rni hamda o‘ziga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi.

Xulosa. Yuqori sinf o‘quvchilarining emotsional sohasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– emotsiyalar va his-tuyg‘ularning murakkabligi, xilma-xilligi va differensiallashuvi, kechinmalar boyishining ortishi;

– o‘z his-tuyg‘ulari va boshqalarning his-tuyg‘ularini yuqori darajada anglash;

– o‘z emotsional salohiyatini va uning cheksiz imkoniyatlarini anglash;

– emotsional hamdardlikning rivojlanishi;

– emotsional reaksiyani keltirib chiqaruvchi obyekt va subyektlar doirasining kengayishi;

– oliy his-tuyg‘ularning rivojlanishi: axloqiy, estetik, altruistik va boshqalar;

– emotsional barqarorlik, o‘z emotsiyalarini nazorat qilish va boshqarish qobiliyati.

Ishning nazariy jihatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inqirozli davrda o‘z-o‘zini anglashning turli sohalarida o‘zgarishlar yuz beradi. Muhim o‘zgarishlar motivatsion sohada kuzatiladi. Asosiy o‘rinni egallovchi motivlar dunyoni idrok etish hamda kelajak hayot maqsadlariga intilish bilan shakllanadi. Motivlar tizimi iyerarxik tuzilma bilan izohlanadi, ya’ni “shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy va qadriyaviy motivlar asosida turli motivatsion yo‘nalishlarning o‘zaro bo‘ysungan tizimi mavjudligi” bilan tavsiflanadi. Motivatsion mexanizm tuzilmasi oddiy ko‘rinishda emas, balki “aniq belgilangan vazifa va ehtiyojlarni ongli ravishda qabul qilish asosida” namoyon bo‘ladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining emotsional intellekti darajasi shaxsning umumiy rivojlanishi bilan bog‘liqligi tajribalarda aniqlangan Maydonga bog‘liq bo‘lmaganlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar ichki maqsadlarga ko‘proq yo‘naltirilgan bo‘lib, tashqi bosimga kamroq moyil bo‘ladi. Bu esa tashqi sharoitlarni tartibga solish hamda amaliy vazifalarni hal etishda o‘z va boshqalarning emotsiyalarini boshqarish qobiliyatini anglatadi.

Yigitlar va qizlar o‘rtasida umumiy emotsional intellekt darajasi bo‘yicha ham muhim farqlar aniqlangan.

O‘smirlarning emotsional sohasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- his-tuyg‘u va emotsiyalarning xilma-xilligi, murakkabligi hamda kechinmalarning boyishi;
- o‘z his-tuyg‘ulari va boshqalarning his-tuyg‘ularini yuqori darajada anglash;
- o‘z emotsional salohiyatini va uning cheksiz imkoniyatlarini anglash;
- emotsional hamdardlikning rivojlanishi;
- emotsional reaksiyani yuzaga keltiruvchi obyekt va subyektlar doirasining kengayishi;
- oliy his-tuyg‘ularning rivojlanishi: altruistik, estetik, axloqiy va boshqalar;
- emotsional barqarorlik hamda o‘z emotsiyalarini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalari.

Xulosa. Shunday qilib, izlanishlarimiz natijalari shuni ko‘rstadiki, o‘smirlik davri juda murakkab, ko‘p qirrali va uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lganiligi uchun ham ularda emotsional intellekt darajasi ham beqaror ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganilgan ma’lumotlar asosida quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz:

- O‘quv jarayonida o‘smirlarga o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va ifodalashni o‘rgatish uchun maxsus psixologik mashqlar va refleksiya metodlaridan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
- Dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda rol o‘ynash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va guruhli munozaralar orqali o‘smirlarning empatiya va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.
- O‘smirlarni stressli vaziyatlarda o‘z emotsiyalarini boshqarishga o‘rgatish maqsadida relaksatsiya, nafas mashqlari va psixologik treninglarni ta’lim jarayoniga kiritish lozim.
- Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi, psixolog va ota-onalar hamkorligida o‘smirlarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratish tavsiya etiladi.
- O‘quvchilarda ijobiy muloqot madaniyatini shakllantirish uchun jamoaviy loyihalar, hamkorlikdagi topshiriqlar va ijtimoiy faoliyatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.
- O‘smirlarning emotsional holatini muntazam diagnostika qilish va natijalarga asoslanib individual pedagogik yondashuvni qo‘llash zarur.
- Ta’lim jarayonida konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan trening va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.
- O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kundalik refleksiya, o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki ifodalash usullaridan foydalanish muhim.
- Hozirgi vaqtgacha uning barcha xususiyatlari bo‘yicha yagona aniq tushuncha shakllanmagan bo‘lib, psixologlar o‘rtasidagi ilmiy munozaralar davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Абрамова, Г.С. Возрастная психология: учеб. пособие для вузов / Г.С. Абрамова. - Москва: Изд. центр "Академия": Раритет, 2015. - 702с.
2. Аверченко Л.К. Эмоциональный интеллект как управленческая компетенция // Философия образования. 2014. № 6. С. 244-250.
3. Айзенк, Г.Ю. Интеллект: новый взгляд / Г.Ю. Айзенк // Вопросы психологии.-2015. - № 1.- С. 111-131.
4. Александрова Н.П. Эмоциональный интеллект как фактор саморегуляции педагогической деятельности // Вестник Московской государственной академии делового администрирования. Серия: Философские, социал. и естественные науки. 2013. № 5. С. 171-177.

5. Амельков, А.А. Основы возрастной психологии: учеб.-метод пособие / А.А. Амельков. - Минск: БИП-С Плюс, 2016. - 47 с.

6. Андреева И. Н. Предпосылки развития эмоционального интеллекта. Вопросы психологии. 2017. №5. С. 57 - 65.

7. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект: исследование феномена. Вопросы психологии. 2016. № 3. С. 78 - 86.

8. Выготский Л.С. О двух направлениях в понимании природы эмоций в зарубежной психологии в начале XX века // Вопр. психол. 2017. № 2. С.157-159

9. Дружинин, В.Н. Когнитивные способности: структура, диагностика, развитие / В.Н. Дружинин. - М.: ПЕР СЭ; СПб.: ИМАТОН-М, 2016. -224 с.

10. Гизатулина.Д.С. Особенности эмоционального интеллекта подростков. Екатеринбург 2019. Выпускная квалификационная работа

KUTUBXONALARNI YOSHLAR UCHUN KREATIV VA INTERAKTIV TA'LIM MAKONIGA AYLANTIRISH METODIKASI

Karimova Shaxlo Yo'ldosh qizi,
Termiz davlat universiteti,
Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi
karimovashakhlo547@gmail.com

Yoshlar uchun zamonaviy kutubxonalarni kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirish zaruriyati ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda o‘rganishi va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish talablari bilan bog‘liq. Maqolada IMRAD tuzilmasi asosida kutubxonalarni faqat axborot saqlash joyi emas, balki o‘yin va faol tajriba orqali o‘rganish, media va raqamli savodxonlikni rivojlantirish, STEM va maker faoliyatlarini tashkil etuvchi ochiq ta’lim muhitiga aylantirish metodikasi yoritiladi. Interaktiv o‘yin-muhitlar, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar, makerspace va foydalanuvchi bilan hamkorlikda dizayn (participatory design)ni joriy etish orqali yoshlarning motivatsiyasi, kreativligi va ijtimoiy faolligi oshishi asoslab beriladi. Shuningdek, kutubxonachi rolini media-mentor va dizayn hamkori sifatida qayta talqin qilish, teng va inklyuziv imkoniyatlarni ta’minlovchi dasturlarni loyihalash bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday yondashuvlar kutubxonalarni yoshlar uchun jozibali ta’lim markaziga aylantiradi, o‘qish va raqamli savodxonlikni, hamkorlik va fuqarolik faolligini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: *kutubxona transformatsiyasi, yoshlar, kreativ ta’lim makoni, interaktiv o‘rganish gamifikatsiya, makerspace, raqamli savodxonlik, media-mentorlik, participatory design, STEM faoliyatlari.*

МЕТОДИКА ПРЕОБРАЗОВАНИЯ БИБЛИОТЕК В КРЕАТИВНОЕ И ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ПРОСТРАНСТВО ДЛЯ МОЛОДЕЖИ

Необходимость превращения современных библиотек в креативное и интерактивное образовательное пространство для молодежи связана с цифровой трансформацией образования, ростом роли неформального обучения и развитием навыков сотрудничества и творчества. В статье на основе структуры IMRAD раскрывается методика трансформации библиотеки из хранилища документов в открытое учебное пространство, где сочетаются игра и обучение, цифровые и медиа-грамотности, а также STEM- и maker-активности. Показано, что внедрение игровых и игровых-познавательных зон, элементов геймификации, цифровых технологий, makerspace и практик соучаствующего проектирования (participatory design) усиливает мотивацию молодежи, способствует развитию креативности, самостоятельности и социального взаимодействия. Особое внимание уделяется изменению роли библиотекаря, который выступает медиаментором и партнером по дизайну образовательных программ, обеспечивающих инклюзивность и равный доступ к ресурсам. Результаты анализа демонстрируют, что такие подходы повышают привлекательность библиотек для молодежи, укрепляют читательскую и цифровую грамотность, гражданскую вовлеченность и устойчивую культуру обучения в течение всей жизни.

Ключевые слова: *трансформация библиотеки; молодежь; креативное образовательное пространство; интерактивное обучение; геймификация; makerspace; цифровая грамотность; медиаменторство; participatory design; STEM-программы.*

METHODOLOGY FOR TRANSFORMING LIBRARIES INTO CREATIVE AND INTERACTIVE EDUCATIONAL SPACES FOR YOUTH

The need to transform contemporary libraries into a creative and interactive learning space for youth is driven by the digital transformation of education, the expansion of informal learning, and the demand for collaboration and creativity skills. Using the IMRAD structure, the article outlines a methodology for re-envisioning libraries from document repositories into open learning environments that integrate play-based learning, digital and media literacy, and STEM- and maker-oriented activities. The paper demonstrates how implementing play-and-learn zones, gamification strategies, digital technologies, makerspaces, and participatory design practices can enhance young people’s motivation, creativity, and social engagement. Particular attention is paid to reframing the role of librarians as media mentors and co-design partners who develop inclusive, equity-oriented programs and technology-rich environments for

diverse youth patrons. Findings suggest that such approaches increase the attractiveness of libraries for youth, strengthen reading and digital literacy, foster active citizenship, and position libraries as dynamic hubs for lifelong learning.

Keywords: *library transformation; youth; creative learning space; interactive learning; gamification; makerspace; digital literacy; media mentorship; participatory design; STEM activities.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarda kreativ fikrlash, raqamli savodxonlik va hayot davomida o‘qish kompetensiyalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu jarayonda kutubxonalar an’anaviy ravishda “kitob va hujjatlar jamg‘armasi”dan cheklangan holda emas, balki yoshlarning ijodiy salohiyati, tanqidiy va mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi ochiq ta’lim makoni sifatida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Dunyo va mahalliy amaliyot kutubxona muhitiga interaktiv texnologiyalar, o‘yin va loyihaviy faoliyat, raqamli platformalar hamda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvlarini integratsiya qilish o‘quvchi va talabalar kreativligini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar faollashgan bo‘lsa-da, kutubxonalarni aynan yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirishning ilmiy-metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mavjud ishlar ko‘proq bo‘lajak o‘qituvchilar va talabalar intellektual madaniyati, kreativ faoliyati va kreativ kompetensiyasini rivojlantirish muammolariga qaratilgan bo‘lib, kutubxona muhitining imkoniyatlari, kutubxonachi shaxsining media-mentor va fasilitator sifatidagi yangi roli, interfaol ta’lim texnologiyalari, gamifikatsiya, dizayn fikrlash va makerspace kabi formatlarni kompleks metodik modelga birlashtirish masalalari kam yoritilgan.

Shu nuqtayi nazardan, kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi kutubxona muhitida yoshlarning kreativlik, raqamli va axborot savodxonligi, hamkorlik va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi metodik yondashuvlar tizimini asoslash va taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kutubxonalar faoliyatini kreativeshtirish bo‘yicha normativ–nazariy asoslar tahlil qilinadi, mavjud pedagogik tajriba va xorijiy yondashuvlar o‘rganiladi, shuningdek, yoshlar bilan ishlashda interaktiv va kreativ ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashgan metodik model ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Maqolada kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirish metodikasini asoslashda kompleks yondashuv qo‘llaniladi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, kreativlikni rivojlantirish nazariyalari hamda integrativ ta’lim g‘oyalari qabul qilinadi. Bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning intellektual madaniyati, kreativ faoliyati, kreativ kompetensiyasi va shaxsiy ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlarda ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar kutubxona makonini qayta loyihalashga moslashtiriladi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanadi. Nazariy bosqichda pedagogika, kutubxona va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha mahalliy va xorijiy manbalar tahlil qilinib, yoshlar kreativligini, intellektual madaniyatini, shaxs ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir qarashlar tizimlashtiriladi. Shu asosda “kutubxona – kreativ va interaktiv ta’lim makoni” modelini tashkil etuvchi asosiy komponentlari (ta’lim mazmuni, interfaol metodlar, raqamli muhit, kutubxonachining media-mentorlik roli va h.k.) aniqlanadi.

Empirik bosqichda esa analogik va qiyosiy tahlil, diagnostik kuzatish, ekspert baholash va pedagogik kuzatuv elementlari qo‘llanadi. Talabalar va o‘quvchilarda kreativlik, intellektual madaniyat, shaxsiy ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar – analitik tahlil, “Sabab–Dalil–Natija”, “Yaxshi–yomon”, muammoli vaziyatlar, dizayn-loyihalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini kutubxona faoliyatiga integratsiya qilish imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, sovet davrida kutubxonalar mafkuraviy vosita sifatida ishlatilganini ko‘rsatuvchi tarixiy tahlil natijalari bugungi kunda kutubxonalarni ideologik emas, balki kreativ va ochiq ta’lim makoni sifatida qayta talqin etish zaruratini asoslashda qo‘llanadi.

Olingan nazariy va amaliy ma’lumotlar asosida kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirishning bosqichma-bosqich metodik modeli ishlab chiqiladi va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tadqiqotlarda kreativ kompetensiya, ijodiy faoliyat, intellektual madaniyat, shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ ta’lim muammolari keng yoritilgan bo‘lsa-da, kutubxonani to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreativ–interaktiv ta’lim makoni sifatida konseptual asoslash kam uchraydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishda analitik falsafa metodlari, tanqidiy tafakkur,

skeptiklikni tarbiyalash, “Sabab–Dalil–Natija”, “Yaxshi–yomon” kabi interfaol usullar yuqori samarali ekanligi isbotlangan. Umumiy o‘rta ta’lim texnologiya darslarida dizayn-loyiha faoliyati, innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali bo‘lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan ishlar shaxs ijodiy salohiyatini ochish uchun muhit, motivatsiya va ijodiy vazifalar sistemasini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Talabalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga oid manbalar kreativlikni zamonaviy ta’limning strategik maqsadi, pedagogik kreativlik va kreativ kompetensiyani esa ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida belgilaydi.

Tarixiy tadqiqotlarda sovet davrida kutubxonalar asosan kommunistik mafkurani targ‘ib etuvchi madaniy-oqartuv institutlari sifatida shakllanganligi ko‘rsatiladi. Bu esa bugungi kunda kutubxonalar konsepsiyasini yangicha – yoshlar kreativligi, tanqidiy fikrlashi va axborot savodxonligini rivojlantiruvchi interaktiv ta’lim makoni sifatida qayta ko‘rib chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, tahlil shuni anglatadiki, mavjud ishlar ko‘proq auditoriya (dars) muhitiga qaratilgan bo‘lib, kutubxona makonida kreativ va interaktiv ta’limni kompleks metodik jihatdan modellashtirish yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil va olingan natijalar. Tadqiqot jarayonida respublikamiz hududidagi 5 ta oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarida o'tkazilgan eksperimental o'zgarishlar natijasida yoshlar (18–25 yosh) orasida kreativ va interaktiv ta'lim faolligi 32% ga oshgan. Ushbu natija 250 nafar talaba va 50 nafar kutubxona xodimi orasida o'tkazilgan so'rovnoma va kuzatuv usullari asosida aniqlandi:

Jadval 1 da keltirilgan statistik ko'rsatkichlar quyidagicha:

Ko'rsatkichlar	**O'zgarishgacha (%)**	**O'zgarishdan keyin (%)**	**O'sish (%)**
Kutubxonaga tashriflar soni	28	62	121
Kreativ mashg'ulotlarda qatnashish	15	48	220
Interaktiv loyihalar ishtiroki	12	45	275
Talabalar qoniqish darajasi	3,2 (baholash)	4,7 (baholash)	47

Yuqoridagi ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturida tahlil qilinganda, Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti ($r=0,78$; $p<0,01$) kreativ makonlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Metodika samaradorligining sifat jihatidan baholanishi

Interaktiv zonalarning (VR-texnologiyalar, gamifikatsiya va modul loyihalar) joriy etilishi natijasida talabalar kreativ kompetensiyalari 1,5 baravar yaxshilandi. Masalan, "Kutubxona challengelari" loyihasida 70% ishtirokchilar yangi g'oyalar ishlab chiqdi. Bu natija Bandura (1977) ning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga mos keladi, chunki interaktiv muhit o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston kutubxonalarida interaktivlik darajasi 45% ni tashkil etsa, Finlyandiyada 78% (UNESCO, 2024). Bu farqni bartaraf etish uchun taklif etilgan metodika quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Modul tizimi: Umumiy va maxsus ta'limni integratsiya qilish.

Raqamli resurslar: AI-asosidagi virtual kutubxona navigatori.

Psixologik qo'llab-quvvatlash: Yoshlar motivatsiyasini oshirish uchun gamifikatsiya.

Natijalarning ilmiy ahamiyati va cheklovlar

Olingan natijalar pedagogik psixologiya doirasida yangi metodikani shakllantirishga asos bo'ldi: kutubxonalarni "passiv saqlash joyi"dan "kreativ laboratoriyaga" aylantirish. Statistik ahamiyat ($\chi^2=45,2$; $df=4$; $p<0,001$) natijalarning ishonchliligini tasdiqlaydi. Biroq tadqiqot cheklovlari sifatida faqat shahar kutubxonalari ko'rib chiqilgani va pandemiya ta'sirini hisobga olmaganligini qayd etish joiz.

Ushbu tahlil O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kutubxonalarni transformatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalarni beradi, shu jumladan, 2026–2030 yillarga mo'ljallangan dasturni ishlab chiqishni aytish mumkin.

Munozara. Adabiyotlar tahlili va empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta'lim makoniga aylantirish jarayoni ko‘p bosqichli, tizimli va integrativ xarakterga ega. Bu jarayon kutubxonalarni passiv axborot saqlagichidan faol ijodiy rivojlanish markaziga o‘girish orqali ta’limning yangi paradigmasini shakllantiradi.

Ayrim tadqiqotchilar kutubxona makonlarining kreativlikka ta’sirini shaxsiy motivatsiya va resurslar mavjudligi bilan bog‘lasalar, boshqalar uni interaktiv texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik orqali rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, so‘nggi tadqiqotlar kutubxonalarning transformatsiyasida integrativ yondashuv, ya’ni raqamli vositalar, gamifikatsiya va modul ta’limning uyg‘unligi hal qiluvchi omil ekanligini isbotlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan metodika kutubxonalarni kreativ makonga aylantirishda faqat texnik yangilik emas, balki pedagogik-psixologik tafakkurning yangi paradigmasi sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv yoshlarda nafaqat bilim va malakalarni, balki ijodiy kompetensiyalar, innovatsion qarash va reflektiv o‘zini rivojlantirishni ham kuchaytiradi.

Shunday qilib, integrativ metodikaning samaradorligi shundaki, u kutubxona makonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlaydi, yoshlarning kognitiv va emotsional faolligini oshiradi hamda ijodiy ta’lim uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kutubxonalarni transformatsiya qilishning zamonaviy va ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar kutubxonalarni yoshlar uchun kreativ va interaktiv ta’lim makoniga aylantirish bugungi ta’lim tizimi modernizatsiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatdi. Mavjud holat tahlili kutubxonalar hali ham ko‘proq an’anaviy – darslik va adabiyot olish maskani sifatida faoliyat yuritayotganini, kreativ muhit, loyiha va hamkorlikka yo‘naltirilgan formatlar yetarli rivojlanmaganini aniqladi.

Tajribaviy ishlar davomida ishlab chiqilgan metodika asosida kutubxonalar faoliyatiga interaktiv o‘qitish texnologiyalari, loyiha va tadqiqotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, kreativ kitobxonlik klublari hamda raqamli resurslardan kompleks foydalanish kiritildi. Natijada kutubxonani “ijodiy va interaktiv ta’lim makoni” sifatida qabul qiladigan talabalar ulushi oshdi, kutubxona resurslaridan muntazam va maqsadli foydalanish ko‘rsatkichlari yaxshilandi, yoshlarning kreativ fikrlashi, axborot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarida ijobiy dinamikaga erishildi.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, kutubxonani shaxsga yo‘naltirilgan va kreativ ta’lim falsafasi asosida qayta konseptual talqin etish, uning makonini mos ravishda qayta loyihalash va kutubxonachining rolini media-mentor hamda pedagogik hamkor darajasiga ko‘tarish yoshlarning ijodiy salohiyatini ochish va ularni mustaqil ta’limga tayyorlashda samarali omil bo‘la oladi.

Biroq ayrim kutubxonalarda moddiy-texnik baza, raqamli infratuzilma hamda kadrlar malakasi yetarli emasligi metodikani to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida qayd etildi. Shu bois kelgusida kutubxonalar uchun maxsus o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqish, kutubxonachilar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish, shuningdek, turli turdagi ta’lim muassasalari kutubxonalarida metodikaning qo‘llanish imkoniyatlarini taqqoslovchi keng qamrovli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, mazkur ish kutubxonani zamonaviy yoshlar talablari va ta’limning yangi paradigmasiga mos ravishda kreativ va interaktiv ta’lim makoni sifatida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik asos yaratadi hamda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov A.A. Kutubxonashunoslik asoslari: darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 256 b
2. Jo‘rayev B.B., Xudoyberdiyeva D.D. Kutubxonalarni raqamlashtirish: nazariya va amaliyot. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021. – 184 b.
3. Абдуллаева Н.Н. Интерактивные образовательные технологии в деятельности вузовских библиотек // Библиотековедение. – 2020. – Т. 69, № 4. – С. 45–52.
4. Mamatqulova Z.Z. Kutubxona – yoshlar uchun kreativ ta’lim makoni sifatida // Axborot-kutubxona jurnali. – 2022. – № 3. – B. 30–38.
5. Умаров Ш.Ш. Креативная среда в высшей школе: педагогические подходы. – Ташкент: “Илм-зиё”, 2018. – 210 с.
6. Qodirov I.I. Axborot madaniyati va media savodxonlik: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 176 b.
7. Назаров Р.Р. Роль университетских библиотек в формировании информационной культуры студентов // Педагогическое образование и наука. – 2019. – № 5. – С. 72–77.
8. Islomova M.M. Kutubxona makonini loyihalashning zamonaviy yondashuvlari // Oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish masalalari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 55–59.
9. International Federation of Library Associations and Institutions. IFLA School Library Guidelines. – 2nd ed. – The Hague: IFLA, 2015. – 65 p.
10. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность: учебное пособие. – Москва: Академический проект, 2017. – 320 с.

BO‘LAJAK TEMIR YO‘L XODIMLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA ANDRAGOGIK YONDASHUV

Kurbanova Mariyam Dilshot qizi,
Toshkent xalqaro kimyo universiteti mustaqil tadqiqotchisi
imaryam932218@gmail.com

Mazkur maqolada andragogik yondashuv asosida bo‘lajak temir yo‘l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy kompetentlikning nazariy asoslari tahlil qilinib, uning tarkibiy komponentlari aniqlangan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, motivatsiyasi va mustaqil faoliyatiga tayangan holda samarali pedagogik metodlar qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari andragogik yondashuvning o‘quvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatdi. Natijada, mazkur yondashuv bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Kalit so‘zlar: *andragogik yondashuv, kasbiy kompetentlik, temir yo‘l transporti, bo‘lajak mutaxassislar, kasbiy ta’lim, simulyatsion metodlar, interaktiv ta’lim, mustaqil o‘rganish.*

АНДРАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РАБОТНИКОВ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА

В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессиональной компетентности будущих работников железнодорожного транспорта на основе андрагогического подхода. Проанализированы теоретические основы профессиональной компетентности и определены её структурные компоненты. Обоснована значимость использования педагогических методов, ориентированных на личный опыт, мотивацию и самостоятельную деятельность обучающихся. Результаты опытно-экспериментальной работы показали эффективность андрагогического подхода в развитии профессиональных знаний, умений и навыков обучающихся. Доказано, что внедрение данного подхода способствует повышению качества подготовки будущих специалистов и их адаптации к реальным условиям профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *андрагогический подход; профессиональная компетентность; железнодорожный транспорт; будущие специалисты; профессиональное образование; симуляционные методы; интерактивное обучение; самостоятельное обучение.*

AN ANDRAGOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE RAILWAY SPECIALISTS

This article examines the formation of professional competence of future railway specialists based on the andragogical approach. The theoretical foundations of professional competence are analyzed, and its structural components are identified. The importance of applying pedagogical methods focused on learners’ personal experience, motivation, and independent activity is substantiated. The results of the experimental study demonstrate the effectiveness of the andragogical approach in developing professional knowledge, skills, and abilities. It is proven that the implementation of this approach improves the quality of training of future specialists and enhances their readiness to operate in real professional environments.

Keywords: *andragogical approach; professional competence; railway transport; future specialists; vocational education; simulation methods; interactive learning; independent learning.*

Kirish. Bugungi kunda temir yo‘l transporti tizimi jadal sur’atlar bilan modernizatsiya qilinib, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda xavfsizlikni ta’minlovchi zamonaviy qurilmalar keng joriy etilmoqda. Bunday sharoitda ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislardan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va amaliy ko‘nikmalar ham talab etiladi. Shu bois bo‘lajak temir yo‘l xodimlarini tayyorlash jarayonida samarali pedagogik yondashuvlarni tanlash va qo‘llash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim yondashuvlari ko‘proq bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim paradigmasi shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini, ya’ni kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning yosh, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga

olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, andragogik yondashuvning imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. *Kompetensiya* (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [6; 41-b].

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo‘lib, ularning umumiy mazmuni mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalaydi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini turli jihatlardan yoritib berganlar.

Jumladan, pedagog-olim N.A. Muslimov kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, kasbiy kompetentlik mutaxassisning kasbiy vazifalarni mustaqil va samarali hal qilish qobiliyatini ifodalaydi [1].

Pedagogika sohasidagi tadqiqotchi B.X. Xodjaev kasbiy kompetentlikni shaxsning muayyan kasb doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, mazkur sifat mutaxassisning kasbiy faoliyatini yuqori darajada amalga oshirishini ta’minlaydi [2].

Professor O. Musurmonova kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy faoliyat jarayonida o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va shaxsiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kasbiy muammolarni mustaqil hal etish va faoliyat natijalarini baholay olish qobiliyati sifatida talqin qiladi [3].

Tadqiqotchi Sh.Sh. Sharipov esa kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy bilimlari, amaliy tajribasi, shaxsiy fazilatlari hamda ijodiy yondashuvi asosida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish va amalga oshirishga tayyorligi sifatida izohlaydi [4].

Shuningdek, R.X. Jo‘rayev kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy vazifalarni hal etishda zarur bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni bir butun tizim sifatida namoyon etish qobiliyati sifatida ta’riflaydi [5].

Kasbiy kompetentlik bu professional vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalardir.

Mutaxassisning kasbiy kompetentligi bu:

- Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy ta’limning maqsadi;
- Kasbiy faoliyat olib borayotgan mutaxassisning holatini xarakterlovchi oraliq tushuncha;
- Mutaxassisning kasbiy faoliyat predmetiga nisbatan ilmiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini tadbiq etish qobiliyati;
- Egallangan bilim va ko‘nikmalar asosida samarali mehnat faoliyati olib borish, faoliyatni amalga oshirish usullarini puxta o‘zlashtirish;
- Keng umumiy va maxsus eruditsiya;
- O‘zining ilmiy-kasbiy tayyorgarligini doimiy ravishda oshirib borish;
- Kasbiy faoliyat muhitida individual yechimlarni taklif etish;
- Mustaqil va mas’uliyatli harakat qilish uchun yetarli bo‘lgan psixologik holat;
- Inson mehnati mahsulida ko‘rinadigan ma’lum mehnat vazifalarini bajarish uchun qobiliyat va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Shu asosda mazkur tadqiqot doirasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifini taklif etish mumkin:

Kasbiy kompetentlik – bu mutaxassisning muayyan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishini ta’minlaydigan, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, kasbiy tajriba, shaxsiy qadriyatlar hamda refleksiv qobiliyatlarning integratsiyasi asosida namoyon bo‘ladigan va ularni turli kasbiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi dinamik integrativ xususiyatdir.

Tahlil va olingan natijalar. Andragogik yondashuv hozirgi kunda zamonaviy kasbiy ta’lim tizimi uchun eng ilg‘or va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Andragogik yondashuvning mohiyati – ta’lim oluvchining shaxsiy va kasbiy tajribasini inobatga olgan holda, uning mustaqil va anglangan tarzda kasbiy yetuklikka erishishini ta’minlashdan iborat.

Bunda bo‘lajak mutaxassisning individual xususiyatlari, kasbiy yo‘nalishi va subyektiv faoliyat tajribasi yaxlitlikda ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv ta’lim oluvchining barcha o‘zaro kasbiy bog‘liqliklari va vositachilikdagi ko‘nikmalarini shakllantirib, o‘z sohasining yuqori malakali mutaxassisi (ustasi) darajasiga erishishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning muhim yo‘nalishi sifatida bo‘lajak temir yo‘l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasi imkoniyatlarini o‘rganish asosiy baza sifatida belgilab olindi.

Jumladan, mazkur yo‘nalish o‘quv rejasining tabiiy-gumanitar va kasbiy modullar asosida ta’lim jarayonini tizimli tashkil qilish orqali o‘quvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Buning uchun o‘quvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish komponentlariga muvofiq, integratsion “tayanch” fanlar belgilab olindi (1-rasmga qarang).

1-rasm. Bo‘lajak temir yo‘l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning integrativ mazmuni

Pedagogik va professional ta’lim muassasalarida “Temir yo‘l avtomatika va telemexanikasi”, “Svetoforlar va signalizatsiya tizimlari”, “Poyezdlar harakatini boshqarish tizimlari” kabi maxsus fanlar mashg‘ulotlarida bo‘lajak temir yo‘l xodimlari uchun davlat ta’lim standartlari, malaka talablari hamda fan dasturlari asosida o‘quv jarayoni tashkil etildi. Mazkur jarayonda kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini modellashtirish, texnologik jarayonlarni tushuntirish hamda ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtirilgan simulyatsion mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak temir yo‘l xodimlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Bunda andragogik yondashuv asosida o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, amaliy tajribasi va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, simulyatsiya texnologiyalari, muammoli vaziyatlar, “xatoliklar asosida o‘rganish”, interaktiv metodlar (jumladan, “Bingo” metodikasi) orqali temir yo‘l tizimidagi real jarayonlarni modellashtirish va tushuntirish yo‘lga qo‘yildi. Natijada, o‘quvchilarda davlat ta’lim standartlariga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent transport texnikumida “Tashish jarayonlarini avtomatlashtirish va axborotlashtirish” yo‘nalishi talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotga jami 102 nafar o‘quvchi jalb etilib, ulardan 61 nafari tajriba guruhi, 41 nafari nazorat guruhini tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Tajriba-sinov guruhlari tarkibi va o‘quvchilarning dastlabki ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Umumiy soni	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Qoniqarli daraja	Qoniqarsiz daraja
Tajriba guruhi	61	24 *(39,3%)*	26 *(42,6%)*	11 *(18,0%)*	0 *(0%)*
Nazorat guruhi	41	12 *(29,3%)*	15 *(36,6%)*	12 *(29,3%)*	2 *(4,8%)*
Jami	**102**	—	—	—	—

Mazkur jadvalda tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan o‘quvchilarning umumiy soni hamda ularning dastlabki o‘zlashtirish darajalari keltirilgan. Tadqiqotda jami 102 nafar o‘quvchi ishtirok etib, shundan 61 nafari tajriba guruhi, 41 nafari nazorat guruhini tashkil etgan.

Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning bilim darajasi tahlil qilinganda, 24 nafari (39,3 %) yuqori, 26 nafari (42,6 %) o‘rta, 11 nafari (18,0 %) qoniqarli darajada ekanligi, qoniqarsiz natijalar esa umuman kuzatilmaganligi aniqlanadi. Bu esa mazkur guruhda o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi nisbatan barqaror va yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Nazorat guruhida esa 12 nafar (29,3 %) o‘quvchi yuqori, 15 nafari (36,6 %) o‘rta, 12 nafari (29,3 %) qoniqarli hamda 2 nafari (4,8 %) qoniqarsiz darajada ekanligi qayd etilgan. Ushbu natijalar nazorat guruhida o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha farqlanish mavjudligini va ayrim o‘quvchilarda bilim darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Guruhlar kesimida taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar ulushi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, qoniqarsiz natijalar mavjud emas. Bu esa andragogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining boshlang‘ich bosqichdayoq ijobiy tendensiyalarni shakllantirishga xizmat qilayotganligini anglatadi.

Mazkur jadval natijalari tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida o‘quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun muhim diagnostik asos vazifasini bajaradi.

Munozara. Bo‘lajak temir yo‘l xodimlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda andragogik yondashuv muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Temir yo‘l transporti tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar yuqori darajadagi mas’uliyat, tezkor qaror qabul qilish hamda murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shu bois ularni tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning yosh, hayotiy va kasbiy tajribasini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi.

Andragogik yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Ta’lim jarayonida uning shaxsiy tajribasi, kasbiy ehtiyojlari va motivatsiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol o‘zlashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, temir yo‘l avtomatika va telemexanika tizimlarini o‘rganishda real ishlab chiqarish vaziyatlariga yaqinlashtirilgan o‘quv faoliyati yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Mazkur yondashuv doirasida muammoli vaziyatlar, keys-stadi, simulyatsion mashg‘ulotlar, “xatoliklar asosida o‘rganish” hamda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. O‘quvchilar real kasbiy muammolarni hal etish jarayonida faol ishtirok etib, qaror qabul qilish, tahlil qilish va natijalarni baholash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, andragogik yondashuv ta’lim jarayonida refleksiya, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholashga alohida e’tibor qaratadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga intiladi, kasbiy o‘sish strategiyasini shakllantiradi. Natijada, ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, andragogik yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli darajada bo‘lishi zarur. Shu bois professional ta’lim muassasalarida pedagoglarning andragogik kompetentligini rivojlantirish, ularni zamonaviy interaktiv metodlar asosida ishlashga o‘rgatish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, andragogik yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘lajak temir yo‘l xodimlarining kasbiy kompetentligini samarali shakllantirishga, ularni real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.Muslimov N.A. *Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2011. – 256 b.

2.Xodjaev B.X. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 224 b.

3.Musurmonova O. *Pedagogik mahorat asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 192 b.

4.Sharipov Sh.Sh. *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2014. – 288 b.

5.Jo‘raev R.X. *Kasbiy ta’lim metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 176 b.

6.Zagvyazinskiy V.I., Zakirova A.F. *Pedagogicheskiy slovar*. – M.: “Akademiya”, 2008. – 208 s.

7.Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. *Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi*. – T.: Iqtisod dunyosi, 2018. – 170 b.

8.Zmeev S.I. *Andragogika: osnovy teorii i texnologii obucheniya vzroslyx*. – Moskva: PER SE, 2007. – 272 s.

9.Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. *The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development*. – London: Routledge, 2015. – 402 p.

10.Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – New Jersey: Prentice Hall, 2014. – 390 p.

TALABALARDA KLINIK FIKRLASH QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Kuzibayeva Mahfuza Mirzayevna,
Andijon davlat tibbiyot instituti,
O’zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi dotsenti
kuzibaevamaxfuza62@gmail.com

Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida tibbiyot institutlari talabalarining klinik fikrlashlarini takomillashtirish borasidagi olib borilishi lozim bo‘ladigan pedagogik faoliyat haqida fikr yuritiladi. Talabalarning klinik fikrlashlari noan’anaviy usullarda tashkil qilish tajribalari bayon etilgan. Kreativ fikrlash asosida talabalarning klinik fikrlash qobiliyatlari rivojlantitrilib, muammolarni bartaraf qilish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar**:** *kreativ qobiliyat, muammoli vaziyat, standart vaziyat, mustaqil fikrlash, kasbiy-malakavi xulosa.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СПОСОБНОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

В статье говорится о совершенствовании клинического мышления студентов медицинского института в современном образовательном процессе. Изложен опыт организации развития клинического мышления студентов нетрадиционными методами, а также указаны пути развития способностей клинического мышления у студентов на основе креативного мышления и устранения возможных проблем.

Ключевые слова**:** *креативная способность, проблемная ситуация, стандартная ситуация, самостоятельное мышление, профессионально-квалифицированное заключение.*

IMPROVING STUDENTS' CLINICAL THINKING ABILITY

This article discusses the pedagogical approaches that should be implemented to improve the clinical thinking of medical institute students in the modern educational process. It describes experiences of organizing students’ clinical thinking using non-traditional methods. Based on creative thinking, the development of students’ clinical reasoning abilities is explored, along with approaches to problem-solving and overcoming challenges.

Keywords: *creative ability, problem situation, standard situation, independent thinking, professional and practical conclusion.*

Kirish. Mustaqil O’zbekiston o’zining buyuk kelajagini bugundan yaratar ekan, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasidagi ustivor o’zgarishlar uchun keng sharoitlar yaratmoqda va yoshlarning bilim salohiyatini oshirish maqsadida o’quv yurtlari oldiga muhim va dolzarb vazifalarni qo’ymoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini rivojlantirish bosqichida mamlakatimizning ilg’or ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yuksalishini ta’minlash uchun ijodkor, yuksak ma’naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega, chuqur bilimli raqobatbardosh pedagog kadrlar faoliyat olib borilishi talab etiladi. Bu esa pedagogning kasbiy shakllanishi uchun undan zamon talablari asosida o’qitish ishlarini tashkil qilishni muhim vazifa qilib qo’yadi.

Ma’lumki, an’anaviy o‘qitishda tibbiyot institutlarining klinik kafedralarida yetarlicha nazariy bilim berilsada, talabalar va yosh shifokorlar kasbiy faoliyatning real sharoitlarida tashxis qo’yish va davolash taktikalarini samarali usullarini tanlashda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu holat esa bo’lajak shifokorlarning klinik fikrlashda oqsayotganligini ko’rsatadi. Shu sababli tibbiyot oliy o’quv asosiy talablardan biri talabalarda klinik fikrlashni shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy oliy tibbiy ta’lim optimizatsiyasi har bir talabaga ta’lim olishning nazariy o’lchamiga yaqin bo‘lgan yuqori va barqaror natijalarni kam vaqt va kuch sarflab erishishiga olib keluvchi darajadagi ta’lim sistemasiga qaratilgan.

Maqola metodologiyasi. Bugungi kunda har bir pedagog ijodkor, izlanuvchan va o’z ustida tinmay ishlashi lozim. Shiddatli hozirgi davrda talabaning yuragidagi cho’g’ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chikish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Zamonaviy darsda o’qituvchi talabaning mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potentsialini ishga solib, rivojlanishini ta’minlaydi. Talaba esa o’z navbatida bilimlarini chuqur o’zlashtiradi va ma’naviy barkamollik sari odimlaydi.

Tibbiy ta’limda talabalarning bilimlarini yanada chuqurlashtirib, tibby fanlarni o‘zlashtirishda ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish asosida klinik fikrlashlarini takomillashtirish lozim. Buning uchun zamonaviy darslarda noan’anaviy darslar jarayonida talabalar faolligi ta’minlanib, muammolarni bartaraf etish botasida turli interfaol usullar tahlili o‘tkazildi.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiyot muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning klinik fikrlashlari bevosita ularning ijodkorligiga bog‘liq. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va ijodkorlik sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq.

Talabalarning kilinik tfakkurlarini shakllantirish bo’yicha ko’plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xorijlik olimlar Richard Pul “tanqidiy fikrlash nazariyasi orqali kilinik tafakkurga ta’sir qilish metodikasi”ni tahlil qilgan.Dayana Xalpern “ klinik fikrlashda kognitiv va tanqidiy fikrlash muhimligi”ni ta’kidlagan.

Rossiyalik olim A.F.Bilibin “klinik tafakkurni intuitsiya, bilim va tajriba uyg’unligi” sifatida ta’riflagan. G.I.Saregorodsev esa “klinik fikrlashda psixologik omillar”ni batafsil o’rgangan.

O‘zbekistonlik olimlardan M.T.Xamdamova., G.N.Kurbanova., M.N.Batriddinova., X.I.Jo‘rayevalar tibbiyot instituti talabalarining klinik tafakkurlarini simulyatsiya orqali takomillashtirib, qaror qabul qilish metodikalarni ilmiy tahlil qilganlar**.**

Tahlil va natijalar. Zamonaviy darsga qo’yiladigan didaktik talablar, muammoli darslar, dasturlangan darslar, kompyuterli o’qitish, loyihali o’qitish, darsning strukturasi, turlari, darsning sifati va samaradorligi kabi omillar haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan [2].

Hozirgi zamon jamiyatining barcha sohasida har kimdan tashabbuskorlikni, ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni. Pedagogning asosiy pedagogik ehtiyoji – o’rgatish, yetkazib berish aynan darsda amalga oshadi. Shunday ekan, dars ta’lim jarayonini tashkil qilishga to’g’ri, yangicha munosabat kerak.

Dars jarayonida pedagog oldida muhim bir masala turadi. Talabalarni bilim olishga jalb qilish, ularni olg’a harakatlantirishdir. Bu esa pedagog va talabalarni o’zaro birgalikdagi mehnatga jalb qiladi. Buning uchun o’qitishga majbur qilmaslik kerak. Pedagogik hamkorlikning qarashlaridan biri – darsda talabadagi qo’rquvni yo’qotish, uni erkinroq, dadilroq qilish, o’zining kuchiga ishontirish, unga jiddiy ijod qilishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Darsda aniq maqsad bo’lishi talab etiladi. Bu – talabalar bilan hamkorlik ruhida ish olib borish, ularga aniq bir maqsad qo’yib, bu maqsadning murakkabligiga va amalga oshira olishga ishontirish – talabalarda o’ziga bo’lgan ishonchini, aniq, mushkul masalani ham yecha olish mumkinligini shakllantirishdan iborat bo’ladi.

Darsning maqsadi – butun dars davomida egallanishi kerak bo’lgan bilim, tushuncha, ko’nikma, malakalardir.

Darsning vazifasi – darsning bosqichlaridagi maqsadni amalga oshirish uchun qo’llaniladigan vositalardir. Maqsadni amalga oshirish uchun ta’lim samaradorligini ta’min etuvchi ilmiy-metodik, texnologik yo’l tanlab olinadi.

Bu ishni amalga oshirish o’qituvchidan tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ yondashuv, innovatsion kasbiy mahorat, metodologik madaniyatni talab etadi.

Har bir darsning maqsadini aniqlashga tizimli yondashuv – oldingi va keyingi o’tiladigan dasturiy bilimlar, ko’nikma va maqsadlarning uzviy bog’liqligini ta’minlaydi.

Talabalarni kelgusida amaliy davolash muassasalarida real sharoitlarda ishlashga oldindan tayyorlash maqsadida fan bo‘yicha o‘tiladigan mavzularga tayanib muammoli vaziyatlar tuzib chiqiladi. Muammoli vaziyatlarni tuzishda o’quv darsliklarida keltirilgan standart vaziyatlardan farqli ravishda real amaliy ish jarayonida yuzaga keluvchi nostandart vaziyatlardan foydalaniladi.

Muammoli vaziyatlar real ish sharoitiga yaqinlashtirilgan bo‘lib, talabani bemor bilan bevosita ishlashini o‘rgatishga qaratilgan. Muammoli o‘qitishda tuzilgan muammoli vaziyatlar bemorni masala ko’rinishidagi hujjatlashtirilgin modeli bo‘lib, talabadan quyidagi talablarni to’g’ri yechish talab qiladi:

1. Masalada qo‘yilgan shartlar bilan mustaqil ishlash va fikrlash;
2. Masalani yechishda qo‘yilgan shartlarni yetarli yoki yetarli emasligini mustaqil aniqlash;
3. Mustaqil fikrlash jarayonida masalada yetishmaydigan shartlarni qisqa vaqt ichida to‘g‘ri topish;

4. Olingan axborotni tez va to‘g‘ri talqin qilish hamda differensial tashxisotni o‘tkazish, tashxisni shakllantirish va davolash rejasini tuzish.

5. Berilgan masalaning yechimini kasbiy-malakali xulosa ko‘rinishida shakllantirish.

Muammoli vaziyatlar asosida muammoli o‘qitishning uslubi oddiy. Talabalarga mavzuga tayyorlanib kelishlari va zarur nazariy bilimga ega bo‘lishlari uchun axborot manbalari (adabiyotlar, monografiyalar, elektron saytlar) oldindan beriladi. Qisqa savol-javobdan keyin talabalar mavzu bo‘yicha yaratilgan amaliy ko‘nikmalarning videoroliklari bilan tanishadilar. Tarqatma materiallar, suratlar, albom, rentgen plenkalari, tashxis qo‘yishda va davolashda ishlatiladigan zarur jihozlar, anjomlar bilan o‘rganib chiqadilar. Shundan keyingina muammoli vaziyatlarga asoslangan o‘qitishga o‘tiladi [3].

Klinik axborotning alohida, bosqichma-bosqich fragmentlari (bemorning shikoyati, anamnezi, obyektiv ko‘rik natijalari, ko‘rsatiladigan yordam hajmi) asosida tuzilgan muammoli vaziyatlar raqamlangan maxsus kartochkalarga kiritiladi. Har bir kartochkaning teskari tomonida “shikoyat”, “anamnez”, “obyektiv ko‘rik”, “birinchi yordam”, “shifokorgacha bo‘lgan yordam”, “birinchi shifokor yordami” kabi so‘zlar yozilgan va bloklarga rim raqamlari bilan belgilab ajratilgan.

Masalan, “anamnez - I», «obyektiv ko‘rik II» va hokazo. Har bir blokning vaziyatli masalalari talaba oldiga qo‘yilgan savolga ko‘ra guruhlarga ajratilgan. Masalan, “tashxis qo‘ying – I.1» yoki “birinchi shifokor yordamini ko‘rsating – II.2” ko‘rinishida. Turli rangdagi etiketkalar yordamida ajratilgan. Har bir masala uchun biriktirilgan alohida konvertlarda rentgenogramma, ultratovush tekshirish natijalari, tomografiya xulosasi va tegishli yordamni ko‘rsatishga zarur anjomlar (individual bog‘lov paketi, individual aptechka, shprits-tyubik, qon to‘xtatuvchi jgut, transport shinalari, bint va boshqalar) berilgan bo‘ladi.

Har bir muamoli vaziyatda yechim uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan bitta yoki ikkita belgi (simptom, tahlil ko‘rsatkichi) berilgan bo‘ladi. Biroq masalani yechish uchun zarur bo‘lgan boshqa bir belgi, simptom yoki zarur anjom ataylab tushirib qoldiriladi. Bundan maqsad talabadan masalani yechish uchun zarur bo‘lgan aynan shu belgini topish uchun fikrlashga majbur qilishdir.

O‘qitishning bu usulida talabani real amaliy ishga yaqinlashtiruvchi bir qancha afzalliklari bor. Birinchidan, talaba bitta vaziyatli masalada keltirilgan axborotlarni tahlil qilib, xulosa chiqargach, keyingi muammoli vaziyat kartochkasini keraklisini o‘zi tanlab oladi. Bu holat klinikadagi odatiy o‘quv jarayonidan farqli ravishda, talabaga kerak-nokerak maksimal axborotlarni olmasdan, masalani yechish uchun eng zarur bo‘lgan axborotlarni tanlash imkoniyatini beradi.

Talaba zarur axborotni tanlashi uchun, avvalo, shu axborotning masalani yechilishidagi ahamiyatini bilishi kerak. Bu esa talabadan olgan nazariy bilimlarini tahlil qilish va chuqur fikrlashni talab qiladi. Misol uchun, travmatik shok indeksini aniqlash uchun puls soni va sistolik arterial bosimnig ko‘rsatkichini bilish zarur. Vaziyatli masalada esa puls soni berilgan, lekin sistolik arterial bosim ko‘rsatkichi berilmagan. Demak, talaba masalani yechish, ya’ni travmatik shok indeksini aniqlash uchun eng zarur bo‘lgan belgi - sistolik arterial bosimning ko‘rsatkichini bilishi lozim bo‘ladi.

Vaziyatli masalaning savolida talabadan aynan shu ko‘rsatkichni o‘qituvchidan so‘rab olishi talab qilinadi. Bu ko‘rsatkichni tanlash uchun esa talabadan nafaqat yetarli nazariy bilimga ega bo‘lish, balki shu bilim yordamida berilgan axborotni tahlil qilish, ya’ni klinik fikrlash talab qilinadi.

Ikkinchidan, vaziyatli masalada keltirilgan kerakli belgilarni aniqlagach, talaba keraksiz axborotni ishlashga ortiqcha vaqt yo‘qotmaydi. Masalan, vaziyatli masalada obyektiv ko‘rik natijasida son sohasidagi og‘riq, deformatsiya, suyak krepitatsiyasi va kiruvchi hamda chiquvchi teshiklarga ega bo‘lgan jarohat bor. Talaba o‘q otar quroldan yetkazilgan jarohat va son suyagini sinishi haqida ketayotganligini aniqlaydi va to‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun eng zarur axborot – rentgen suratni tanlab olishi talab qilinadi.

Har bir belgining aynan shu masaladagi ahamiyatini hisobga olib, keyinchalik eng zarur bo‘ladigan axborotlarni izlash natijasida ortiqcha va kam ahamiyatli bo‘lgan hamda tahlil uchun ko‘p vaqt talab qiladigan axborotlardan voz kechgan holda qisqa yo‘l bilan to‘g‘ri diagnostik va davolash choralarini topish mazkur o‘qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bu o‘qitish interaktiv o‘yin ko‘rinishida o‘tkaziladi va vaqt bilan chegaralangan bo‘ladi. Talaba birinchi blokning vaziyatli masalasiga javob bergandan keyingina ikkinchi blokka oid masalani olishiga ruxsat beriladi. Har bir masalaga javob olingandan keyin o‘qituvchi talabaga lozim topilgan rangdagi kartochkani beradi. Masalan,

“To‘g‘ri javob” uchun yashil rangli kartochka;

“Noto‘g‘ri javob” uchun qizil rangli kartochka

“To‘liq bo‘lmagan javob” uchun sariq rangli kartochka.

Belgilangan vaqt ichida talaba masalaga to‘g‘ri javob berolmasa qizil kartochka bilan jazolanadi va javob berish navbati boshqa talabaga o‘tadi. Mashg‘ulot yakunida talabalar olgan barcha kartochkalar sanab chiqiladi. Eng ko‘p yashil kartochka jamlagan talaba g‘olib deb topiladi va joriy baholashda qo‘shimcha

ballarga ega bo‘ladi. Keyingi o‘rinlarni egallagan talabalarga ham mos ravishda ballar beriladi. Olingan ballar mavzu bo‘yicha qo‘yilgan joriy baholash ballariga qo‘shiladi.

Bu jarayonda muammoli vaziyatli masalalarni tuzishda yaxlit bir vaziyatga emas, balki uning kichik fragmentiga diqqat qaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, butun mavzuni nafaqat nazariy, balki uning amaliy tomonlarini hisobga olib chuqur o‘rganishga asos bo‘ladi.

Ushbu o‘qitish axborot kommunikatsion texnologiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, mashg‘ulotni qiziqarli o‘tishi, guruhdagi barcha talabalarni faol qatnashishi, darsni diskussion shaklda o‘tishi, video, rasm, jihozlar, tarqatma materiallardan unumli foydalanishni va o‘z navbatida talabalarda mavzuning mohiyatini eslab qolish va klinik fikrlash jarayonlarini kuchaytiradi. Avvalo, talabalarga patologik holatlar va amaliy ko‘nikmalarning videoroliklari ko‘rsatilgach, mazkur muammoli o‘qitishda bu amaliy ko‘nikmalarni va zarur diagnostik-davolash choralarini mustaqil bajargandan keyingina, bemor bilan ishlashga ruxsat beriladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda yangicha fikrlaydigan, mustaqil faoliyatiga ishonadigan, turli raqobatlarga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash va bilimli qilish zamonaviy darslarning asosiy negizidir.

Darslarda belgilanayotgan maqsadlar o’quv maqsadlariga mos tushishi va talabaning shaxsiy maqsadiga aylanishi asosida tafakkur qilish qobiliyati takomillashishi lozim. Zero, darsda talaba o’zlashtirilgan bilimlari asosida kreativ fikrlashlari sababli klinik tafakkuri yanada rivojlanadi, muammolarni mantiqiy izlangan holda bartaraf qila olish ko‘nikmasi mustahkamlanadi:

1. Real amaliy ishda uchraydigan nostandart vaziyatlarni hisobga olib tuzilgan masalalarga asoslangan muammoli o‘qitish talabalarda klinik fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Muammoli vaziyatlarga asoslangan o‘qitish talabalarni kitobga bo‘lgan ehtiyojlarini oshiradi.

Talaba olishi zarur bo’lgan bilimlar shaxsan unga qaratilgan, maqsadlar esa bir-biriga mos tushishi kerak. Ana shu mos tushganlik dars samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlanririshni ta’minlaydi. Talabaning chuqur, puxta bilim olishini, tarbiya topishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar:

1. Shoyimova Sh.S., Kuzibayeva M.M. Ta’lim texnologiyalari. T-2020, 137-230 b.
2. Кузибаева М.М. Формирование научно-исследовательских навыков студентов первого курса медицинского вуза.Экономика и социум 3(130), стр. 574-579
3. Кузибаева М.М. Дидактические принципы обучения языку. Экономика и социум 4(131) стр. 961-965
4. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.phptab_id=3&a=info&id=2600.
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD,2014.
6. А.Ф.Билибин., Г.И.Царегородцев “О клиническом мишление” М., Медицина-2013.
7. Richard Pul “Critical Thinking: What EveryPerson Needs to Survive in a Rapidly Changing Word”
8. Dayana Xalpern “Thought and Knowledge: An introduction to critigal Thinking”
9. M.T.Xamdamova “Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarida klinink tafakkurni shakllantirish mexanizmi” T., Sharq-2012

IJTIMOIY ONG VA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARI TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MOHIYATI

Marasulova Umida Norquziyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
Qudratova Maftuna Komil qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Mazkur maqolada ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari tushunchalarining nazariy-pedagogik mohiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy ongning shaxs kamolotidagi o‘rni, uning tarkibiy jihatlari hamda fuqarolik kompetensiyalarining shakllanish mexanizmlari izchil yoritiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ularni shakllantirish usullari ham tahlil etiladi. Ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarining o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati asoslab beriladi. Natijalar zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy mas’uliyatli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy ong, fuqarolik kompetensiyalari, pedagogik mohiyat, shaxs tarbiyasi, ijtimoiy faollik, ta’lim jarayoni.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОСВЕДОМЛЕННОСТИ И ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

В данной статье на научной основе анализируется теоретическая и педагогическая сущность понятий общественного сознания и гражданских компетенций. В исследовании последовательно подчеркивается роль общественного сознания в личностном развитии, его структурные аспекты и механизмы формирования гражданских компетенций. Также анализируются дидактические возможности развития этих компетенций в образовательном процессе и методы их формирования на основе современных педагогических подходов. Обосновывается взаимозависимость социальной осведомленности и гражданских компетенций, а также их важность для развития общества.Полученные результаты служат важной теоретической и методологической основой для формирования социально ответственной, активной гражданской личности в современной системе образования.

Ключевые слова: *общественное сознание, гражданские компетенции, педагогическая сущность, самовоспитание, социальный активизм, образовательный процесс.*

PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF SOCIAL AWARENESS AND CIVIC COMPETENCES

This article analyzes the theoretical and pedagogical essence of the concepts of social consciousness and civic competencies on a scientific basis. The study consistently highlights the role of social consciousness in personal development, its structural aspects, and the mechanisms for the formation of civic competencies. Also, the didactic possibilities for developing these competencies in the educational process and methods for their formation based on modern pedagogical approaches are analyzed. The interdependence of social awareness and civic competencies and their importance in the development of society are substantiated. The results serve as an important theoretical and methodological basis for the formation of a socially responsible, active civic personality in the modern education system.

Keywords: *social consciousness, civic competencies, pedagogical essence, personal education, social activism, educational process.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish shaxsning ijtimoiy ong darajasi hamda fuqarolik kompetensiyalarining shakllanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi insondan faqat kasbiy bilim emas, balki ijtimoiy mas’uliyat, huquqiy madaniyat va faol fuqarolik pozitsiyasini ham talab etmoqda. Shu jihatdan ijtimoiy ong shaxsning jamiyatdagi voqea-

hodisalarni anglash, ularga ongli munosabat bildirish hamda ijtimoiy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ongning rivojlanishi shaxsning jamiyat bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlab, uning ijtimoiylashuv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayonda inson jamiyatda amal qiluvchi me’yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirib, o‘z xulq-atvorini mazkur tizimga moslashtiradi. Natijada shaxsda ijtimoiy faoliyatga tayyorlik, jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash hamda ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etish ko‘nikmalari shakllanadi. Aynan shu jihatlar fuqarolik kompetensiyalarining mazmunini belgilab, ularni shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Ta’lim tizimi esa ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy institutsional muhitini yaratadi. Pedagogik jarayon orqali shaxs ijtimoiy tajribani egallaydi, huquq va majburiyatlar mohiyatini anglaydi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlanadi. Fuqarolik kompetensiyalari bilim, ko‘nikma va qadriyatlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllanib, shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini amaliy faoliyatda namoyon etishiga xizmat qiladi. Shu bois ushbu tushunchalarni o‘zaro uzviylikda tadqiq etish, ularning ta’lim jarayonida shakllanish mexanizmlarini ilmiy asoslash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalariga oid ilmiy qarashlar ijtimoiy fanlarning turli yo‘nalishlarida izchil ravishda rivojlanib kelmoqda. Jumladan, pedagogika va falsafa fanlarida ushbu tushunchalar jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi muhim nazariy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Falsafiy tadqiqotlarda ijtimoiy ong jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan ijtimoiy tajriba, qadriyatlar va me’yorlarning ma’naviy ifodasi sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvda ijtimoiy ong alohida shaxs ongining yig‘indisi emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali shakllanuvchi va rivojlanuvchi yaxlit hodisa sifatida qaraladi [5; 7]. Mazkur nazariy asoslar pedagogik tadqiqotlarda shaxs ongini shakllantirish jarayonini ta’lim va tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy ong shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, axloqiy kamoloti hamda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi bilan chambarchas bog‘langan holda yoritiladi. E.G‘. G‘oziyev ijtimoiy ongni shaxsda ijtimoiy qadriyatlar va me’yorlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiruvchi muhim psixologik omil sifatida baholaydi [1]. L.I. Bojovich va A.N. Leontyev tadqiqotlarida esa ong shaxs faoliyatining mazmuni, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy ta’sirlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadigan tizimli jarayon sifatida asoslanadi [5; 7]. Ushbu ilmiy qarashlar ijtimoiy ongni pedagogik jarayonda faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki shaxsning e’tiqodi, qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini belgilovchi integral sifat sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda fuqarolik kompetensiyalari tushunchasi demokratik jamiyat sharoitida faol, mustaqil va mas’uliyatli fuqaroni shakllantirish muammosi bilan bevosita bog‘liq holda tadqiq etiladi. J. Dyui ta’limni fuqarolik tarbiyasining asosiy vositasi sifatida talqin qilib, demokratik qadriyatlar shaxsning ijtimoiy faoliyati jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi [2]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa fuqarolik kompetensiyalari huquqiy savodxonlik, ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash va jamoatchilik hayotida ishtirok etish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etgan kompleks kompetensiya sifatida izohlanadi [4; 8]. Tadqiqotchilar ushbu kompetensiyalarning shakllanishi uzluksiz ta’lim jarayonida interfaol metodlar va amaliy faoliyat orqali samarali amalga oshishini asoslab beradilar.

Milliy pedagogik tadqiqotlarda fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Sh.A. Abdullayeva fuqarolik kompetensiyalarini shaxsning ijtimoiy ongiga tayanib shakllanuvchi pedagogik natija sifatida talqin etib, ularni rivojlantirishda ta’lim mazmuni, tarbiyaviy muhit va pedagogik diagnostikaning o‘zaro uyg‘unligini muhim omil deb hisoblaydi [6]. Ushbu yondashuv ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarining o‘zaro bog‘liqligini pedagogik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari aksariyat hollarda alohida ilmiy tushunchalar sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ularning pedagogik jarayondagi o‘zaro integratsiyasi yetarlicha tizimli yoritilmagan. Mazkur holat ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarini yagona pedagogik tizim doirasida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirib, ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari tushunchalarining pedagogik mohiyatini aniqlash hamda ularning ta’lim jarayonidagi o‘rnini ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlarga tayangan holda shaxs rivojini ijtimoiy-pedagogik jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikda ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv doirasida ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari o‘zaro bog‘liq yagona pedagogik hodisa sifatida talqin

etilib, ularning shakllanishi ta’lim mazmuni, tarbiyaviy muhit va pedagogik ta’sir vositalari orqali kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, taqqoshlash, mantiqiy tahlil va sintez kabi nazariy metodlar keng qo‘llanildi. Shu bilan birga, pedagogik kuzatish, suhbat va mavjud tajribalarni o‘rganish kabi empirik usullar orqali amaliy ma’lumotlar to‘plandi. Mazkur metodlar yordamida ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ularning pedagogik jarayondagi namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlashtirildi.

Olingan natijalar sifat jihatdan tahlil qilinib, ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarining tarkibiy tuzilmasi, funksional jihatlari hamda o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritildi. Shuningdek, tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar natijalarning ishonchliligi, mantiqiy izchilligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qilib, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun metodik zamin yaratadi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari ta’lim jarayonida o‘zaro uzviy bog‘liq holda shakllanib, biri ikkinchisining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nazariy tahlil hamda empirik kuzatishlar asosida aniqlanishicha, ijtimoiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi shaxsda fuqarolik kompetensiyalarining barqaror bo‘lmagan va parchalanib namoyon bo‘lishiga olib keladi. Aksincha, ijtimoiy ongning mazmunan boyishi huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligining izchil rivojlanishi uchun muhim pedagogik asos yaratadi. **Mazkur o‘zaro bog‘liqlik quyidagi jadvalda tizimli ravishda ifodalangan.**

1-Jadval.

Ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarining tarkibiy komponentlari

№	Ijtimoiy ong komponentlari	Mazmuni	Fuqarolik kompetensiyalari bilan bog‘liqligi
1	Ijtimoiy qadriyatlar	Jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va qarashlar	Fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi
2	Huquqiy ong	Qonun va majburiyatlarni anglash	Huquqiy madaniyat
3	Ijtimoiy faollik	Jamiyat hayotida ishtirok etish	Fuqarolik faolligi
4	Tanqidiy fikrlash	Ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish	Mustaqil qaror qabul qilish
5	Ijtimoiy mas’uliyat	Jamiyat oldidagi javobgarlik	Mas’uliyatli fuqarolik xulqi

Manba: *muallif tomonidan tuzildi.*

Empirik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlar, munozara va loyiha faoliyatiga asoslangan yondashuvlar joriy etilgan guruhlarda talabalarning fuqarolik kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlangan. Mazkur guruhlarda ijtimoiy hodisalarga nisbatan tanqidiy fikrlash, jamiyat muammolariga daxldorlik hissi hamda ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarining ortgani kuzatildi. Shu bilan birga, an’anaviy yondashuv ustun bo‘lgan guruhlarda ushbu ko‘rsatkichlar nisbatan past darajada saqlanib qolgani aniqlandi, bu esa pedagogik metodlarning tanlanishi hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar xorijiy ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, ta’lim jarayonida demokratik va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan pedagogik muhit fuqarolik kompetensiyalarining samarali shakllanishini ta’minlashini tasdiqlaydi [4, 8]. Shuningdek, ijtimoiy ongni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli pedagogik sharoitlar yaratish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanib, ularni ta’lim tizimida keng joriy etish fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni shakllantirishda muhim omil sifatida e’tirof etildi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalari shaxs kamolotida strategik pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Ijtimoiy ong jamiyatda kechayotgan jarayonlarni anglash, ijtimoiy qadriyatlar va huquqiy me’yorlarga ongli munosabat bildirish hamda ijtimoiy mas’uliyatni his etish darajasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik kompetensiyalari esa ushbu ongning amaliy faoliyatdagi ifodasi bo‘lib, shaxsning jamiyatda faol va mas’uliyatli ishtirokini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida mazkur tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liq pedagogik hodisalar sifatida asoslanib, ularni yagona tizim doirasida rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida ijtimoiy ong va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni tizimli takomillashtirish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyalari hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan loyiha faoliyatlarining qo‘llanilishi shaxsda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik va mas’uliyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu xulosalar ta’lim tizimida demokratik qadriyatlarga sodiq,

ijtimoiy faol va ongli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik amaliyotni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya: Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

2. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.

4. Hoskins B., Crick R.D. Learning to Learn and Civic Competences: Different Outcomes for Different Learners // European Journal of Education. - 2010. - Vol. 45, No. 1. - P. 121-137.

5. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* - Москва: Политиздат, 1975. - 304 с.

6. Abdullayeva Sh.A. *Pedagogik diagnostika va korreksiya: pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha magistrantlar uchun darslik.* - Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”**,** 2022.

7. Божович Л.И. *Личность и её формирование в детском возрасте.* - Москва: Просвещение, 2008. - 464 с.

8. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. - 2004. - Vol. 41, No. 2. - P. 237–269.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FONETIK INTERFERENSIYANI BARTARAF ETISH

Mirzoyokubova Nigoraxon Yo‘ldoshali qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrasi tayanch doktoranti
nmirzoyoqubova@gmail.com

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida fonetik interferensiyaning nazariy asoslari, uni bartaraf etishdagi mavjud metod va yondashuvlar, shuningdek, ushbu hodisani kamaytirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabaning individualligi, ehtiyojlari hamda o‘rganish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *interferensiya, fonetik interferensiya, individual ehtiyoj, til birliklari, fonema, shaxs, uzluksiz ta’lim, pedagogik texnalogiyalar.*

УСТРАНЕНИЕ ФОНЕТИЧЕСКОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье рассматриваются теоретические основы фонетической интерференции в образовательном процессе, а также существующие методы и подходы к её преодолению. Особое внимание уделяется значению личностно-ориентированных педагогических технологий в снижении данного явления. Обосновывается, что личностно-ориентированное обучение, учитывающее индивидуальные особенности, потребности и характеристики обучения студентов, способствует повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: *интерференция, фонетическая интерференция, индивидуальные потребности, языковые единицы, фонема, личность, непрерывное образование, педагогические технологии.*

ELIMINATING PHONETIC INTERFERENCE BASED ON PERSON-ORIENTED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

This article examines the theoretical foundations of phonetic interference in the educational process, as well as existing methods and approaches to its elimination. It also highlights the significance of person-oriented pedagogical technologies in reducing this phenomenon. The study substantiates that learner-centered education, taking into account students’ individuality, needs, and learning characteristics, contributes to improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: *interference, phonetic interference, individual needs, linguistic units, phoneme, individual, lifelong learning, pedagogical technologies.*

Kirish. Til o‘rgatishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - kommunikatsiya orqali kognitiv, ya’ni til yordamida bevosita va bilvosita muloqot qila oladigan mutaxassisni tayyorlashdir. Biroq, aynan til o‘rganish jarayonida o‘rganuvchilar ona tili ta’sirida nutq bilan bog‘liq muammolarga duch keladilar, bu esa fanda interferensiya hodisasi deb ataladi. Mazkur hodisa tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada fonetik interferensiya muammosi hamda uni bartaraf etishning hozirgi holati va dolzarb yondashuvlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Interferensiya atamasi o‘zi dastlab fizika fanida qo‘llanilgan bo‘lib, u to‘lqinlarning o‘zaro to‘qnashuvi natijasida tebranish amplitudasining kuchayishi yoki kamayishini anglatadi [11; 26-28- b].

Lingvodidaktikada interferensiya hodisasi uzoq yillardan buyon muhim nazariy tushuncha sifatida izchil tadqiq etib kelinmoqda. U asosan tillararo aloqalar, bilingvizm va ko‘p tillilik jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Turli ilmiy maktab va metodologiyalar doirasida olimlar tomonidan berilgan ta’riflar mazmunan yaqin bo‘lsa-da, ularning terminologik ifodasi hamda yondashuv doirasi jihatidan farqlanadi.

Rus - polyak tilshunosi I.A. Boduen de Kurtene tillarning aralash tabiati va o‘zaro ta’siri masalasini ilmiy asosda yoritgan dastlabki olimlardan biridir. U tilni statik emas, balki doimiy rivojlanishda bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib, tillararo aloqalarni tabiiy jarayon deb baholaydi. Olim fikricha, bu

jarayon faqat mexanik o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki tillar o‘rtasida strukturaviy va funksional yaqinlashuvni yuzaga keltiradi hamda fonetik, grammatik va leksik sathlarda sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi [2; 363-382-b].

Interferensiya atamasi birinchi marotaba 1936-yilda fransuz tilshunosi André Martin tomonidan tilshunoslik adabiyotiga kiritilgan. U bu atamani ikki yoki undan ortiq til bir shaxs tomonidan nutq jarayonida o‘zaro ta’sir qiladigan holatlarni ifodalash uchun ishlatgan. So‘ngra, ushbu tushuncha xalqaro ilmiy maydonda katta e’tibor qozondi va ayniqsa U. Weinreichning “Languages in Contact” (Til aloqalari) asari orqali keng ommalashdi.

1953 yilda U.Weinreichning "Languages in Contact" asari nashr etildi, unda “lingvistik interferensiya” atamasi batafsil ochib berildi. Aynan shu monografiyadan so‘ng “interferensiya” atamasi keng tarqaldi. U.Weinreichning ta’kidlashicha, ikki yoki undan ortiq til bir shaxs tomonidan bir vaqtning o‘zida yoki navbatma-navbat qo‘llanilgan taqdirda, ular o‘zaro aloqaga kirishadi. Demak, tillararo aloqaning asosiy maydoni bevosita tilni amalda qo‘llovchi individ hisoblanadi. Olim interferensiyani ikki tilli shaxs nutqida bir nechta til tizimlarini bilish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan, muayyan tilning mavjud me’yorlaridan chetga chiqish holatlari sifatida talqin etadi [13; 258-b].

Bizning ta’rifimizga ko‘ra, interferensiya - bu ikki yoki undan ortiq tilni biluvchi shaxs nutqida ona tili va o‘rganilayotgan til (yoki ilgari o‘zlashtirilgan boshqa tillar) qoidalarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan lingvistik aralashuv hodisasidir. Ushbu jarayon, ayniqsa, yangi tilni o‘rganish bosqichida namoyon bo‘lib, unda o‘rganuvchi avvalgi til tajribasiga tayanib, ayni paytda o‘rganilayotgan, ya’ni muloqot qilishni maqsad qilgan tilning birliklari va qoidalarini qo‘llashga harakat qiladi. Natijada boshqa tillarga xos fonetik, leksik yoki grammatik elementlar nutqda aks etadi. Shu bois interferensiya ko‘p tillilik sharoitida tabiiy hodisa bo‘lib, u nutqda til me’yorlaridan og‘ishlar yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

Fonetik interferensiya til o‘rganish jarayonida xorijiy til orfoepik me’yorlarining buzilishi, chet tiliga oid fonemalarning ona tilidagi ekvivalentlariga moslab talaffuz qilinishida namoyon bo‘ladi. B. Lekova fikriga ko‘ra, fonologik interferensiya birinchi tilning ta’kid (stress), ritm, intonatsiya va nutq tovushlari kabi aksent xususiyatlarining ikkinchi tilga ta’sir etishi bilan namoyon bo‘ladi [7; 321-322-b].

Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonida fonetik interferensiyaning kelib chiqish sabablari aniqlash, uni bartaraf etishda qo‘llanilayotgan mavjud metodlar hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalarning afzalliklarini baholash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, mazkur yondashuvning nazariy asoslari hamda uning didaktik imkoniyatlari atroflicha o‘rganildi.

Muhokama. Mamlakatimizda bir qator tadqiqotchilar interferensiya hodisasini o‘rganish bilan shug‘ullangan. U turli tillarni o‘rganish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, olimlar uni turlicha ta’riflagan. Masalan, arab tilini o‘rgangan K. Qodirova interferensiyani ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta’siri natijasida til me’yorlaridan chekinish sifatida ko‘radi [4; 16-25-b]. Shu bilan birga, ingliz tilini o‘rgangan S. Misirov fikricha, interferensiya – bu bilingv nutqida til me’yorlaridan chekinishdir [8; 72-b].

V. Alimov esa quyidagicha tasnifni taklif etadi: fonik (fonetik, fonologik va tovush talaffuzi) interferensiya, grammatik (morfologik, sintaktik va punktuatsion) interferensiya, leksik interferensiya, orfografik interferensiya, semantik interferensiya, stilistik interferensiya va intralingvistik interferensiya [1; 112-120-b]. Keltirilgan fikrlarga tayanadigan bo‘lsak, interferensiyani til tizimining deyarli barcha sathlarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan hodisadir.

Kenworthy esa fonetik interferensiyaning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo‘lishini ta’kidlaydi. Jumladan, Joanne Kenworthy ushbu omillar qatoriga o‘quvchining ona tili (L1), yoshi, ikkinchi til (L2) bilan ta’sirlanish darajasi, fonetik qobiliyati, shaxsiy munosabati va identifikatsiyasi, shuningdek, to‘g‘ri talaffuzni egallashga bo‘lgan motivatsiyasi hamda qiziqishini kiritadi [5; 65-b].

M. Jusupovning fikricha, interferensiyaning yuzaga kelishida quyidagi to‘rt omil – til me’yorlari, bilingv, o‘rganilayotgan til bilan ona tilining o‘zaro munosabati, ijtimoiy muhit asosiy o‘rin tutadi [3; 151-240-b]. Bunda til me’yorlari interferensiyani lingvistik jihatdan, bilingvallik esa psixologik, o‘rganilayotgan til bilan ona tilining o‘zaro munosabati metodik, ijtimoiy muhit esa sotsiolingvistik jihatdan o‘rganilishi zarur bo‘ladi.

Tahlil va olingan natijalar. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili talaffuzini o‘zlashtirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan ushbu tilga xos ikki asosiy xususiyat mavjud. Birinchi xususiyat shundaki, ingliz tilining tovush tizimida Rum, Sino-Tibet va Arab tillariga xos bo‘lmagan noyob tovushlar mavjud. Ikkinchi xususiyat esa shundaki, ingliz tilida har bir harf tovushga aniq mos kelmaydi [12; 215-238-b]. Bu shuni anglatadiki, har bir inglizcha tovush o‘zining bo‘g‘in joylashuviga qarab bir nechta fonemalardan biri bilan ifodalanishi mumkin.

Tadqiqotimiz davomida fonetik interferensiyani kamaytirish hamda uning oldini olish maqsadida dunyo bo‘ylab qo‘llanilayotgan turli yondashuv va usullar tahlil qilindi. Xususan, amaliyotda eng keng qo‘llaniladigan yondashuvlar sifatida kontrastiv tahlil (contrastive analysis) va xatolar tahlili (error analysis) alohida ahamiyat kasb etadi.

Kontrastiv tahlil yondashuvi turli tillarning, ayniqsa, o‘quvchining ona tili (L1) va o‘rganilayotgan til (L2) fonologik tizimlarini qiyosiy o‘rganishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan fonetik interferensiya oldindan prognoz qilinadi. Natijada, o‘qitish jarayonida aynan muammoli nuqtalarga e’tibor qaratilib, talaffuzdagi xatolarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi [6; 45-b].

Yurtimiz tadqiqotchilaridan biri O. Xudoyorov quyidagi yondashuv va usullarni taklif qilgan: [10; 12-13-b]

Lingvistik yondashuv – fonemalar tizimini qiyosiy tahlil qilish orqali ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, natijada talaffuzdagi mumkin bo‘lgan xatolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan metod.

Pedagogik yondashuv – talaffuz mashqlari, fonetik transkripsiyalar va tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar orqali fonetik interferensiyani kamaytirishga qaratilgan ta’limiy yondashuv.

Ikki tilli ta’lim tizimi – o‘quvchilarga fonetik xususiyatlarni o‘z vaqtida o‘rgatish va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali interferensiya oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tizimli yondashuv.

“Bugungi kunda biz nega ba’zi ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi pasayib borayotganini tushunishimiz kerak va buni amalga oshirish jarayonida barcha o‘qishga qiziqishi kam bo‘lgan talabalarni bir xil sabab va muolaja soyaboni ostida birlashtirishni rad etishimiz lozim”,– deydi amerikalik pedagog A. Muur [9; 27-b].

Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, har bir talabaning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi va til o‘rganishdagi qiyinchiliklari individual xarakterga ega. Shu nuqtayi nazardan, biz talabalarning fonetik interferensiyasini kamaytirish va uning oldini olish maqsadida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taklif qilamiz. Bu yondashuv har bir talabaga moslashuvchan va samarali o‘qitish imkonini beradi, natijada talabaning til ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Xususan, o‘yin texnologiyasi zamonaviy talablarga moslashtirilgan o‘yinlar, mashqlar va topshiriqlar orqali talabaning nutqida o‘rnashib qolgan fonetik xatolarni bartaraf etishda samarali hisoblanadi. Muammoli o‘qitish texnologiyasi esa talabalarni ingliz tilida bahs-munozaraga jalb qilib, gapirishga bo‘lgan qo‘rqish va ikkilanishni yengishga yordam beradi. Individual o‘qitish texnologiyasi, asosan kompyuterlashgan vositalardan foydalanib, talabalarga o‘z xatolari ustida autentik tarzda ishlash imkonini beradi va o‘rganish jarayonini shaxsiylashtiradi. Ushbu yo‘nalishlarning har birida ta’lim o‘quvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e’tiborga olinib tashkil etiladi.

O‘yin texnologiyalari (o‘yinli ta’lim) – bu ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlarini: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini shakllantirishga yo‘naltirilgan, qisqa o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogik texnologiyalarining bir turidir.

Tilni o‘rganish odatda mashq qilish orqali amalga oshiriladi. Mashqlarning asosiy vazifasi til o‘rganuvchilarda nutq faoliyatining turli turlariga doir ko‘nikmalarni hosil qilish, shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Mashqlar nutq faoliyatini egallashni osonlashtiruvchi va tezlashtiruvchi o‘quv vositasi sifatida til ta’limida keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, mashqlar va ularning turlari masalasi metodist olimlar va lingvodidaktlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

G. K. Selovka o‘yinlarni metodik xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhga ajratadi: didaktik, syujetli, rolli, ishbilarmonlik, imitatsion va dramatik o‘yinlar. Bizning tadqiqotimizda talabalarning nutqidagi fonetik interferensiyani bartaraf etish maqsadida ushbu barcha o‘yin turlaridan foydalanishga harakat qilindi. Shu bilan birga, avvalambor amaldagi darsliklarda keltirilgan mashq, topshiriq va o‘yinlar tahlil qilindi hamda ularning fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlashga urinish qilindi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida amaliy fonetika darslarida **English Pronunciation in Use** hamda **Ship or Sheep** kitoblaridan foydalanilmoqda. Biz tadqiqot jarayonida ushbu darsliklardagi mashq va o‘yinlarning maqsad va mazmunini tahlil qilishda foydalanib, talabalarning nutqidagi fonetik xatolarni aniqlash, talaffuz va intonatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rgandik.

Amaldagi darsliklarda keltirilgan mashq va o‘yinlar, odatda, fonetik interferensiyani bevosita kamaytirish yoki uni bartaraf etishga yo‘naltirilmagan. Biroq ular talabalarda to‘g‘ri talaffuz, intonatsiya va fonetik me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur mashq va o‘yinlar

asosan fonetik kompetensiyani rivojlantirishni maqsad qilgan bo‘lib, ularning tizimli qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning nutqida yuzaga keladigan fonetik xatoliklar, jumladan, interferensiya holatlari bilvosita kamayishi mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Fonetik interferensiyani bilvositi kamaytirishga yo‘naltirilgan mashq va o‘yinlar.

/R	Muallif	Manba	Unit	Mashq, o‘yin nomi	Fonetik interferensiyani kamaytirishdagi maqsadi
1	Mark Hancock	English Pronunciation in Use	1	Eshit va to‘g‘ri so‘zni belgila	Ona tilidagi tovushlar ta’sirida yuzaga keladigan noto‘g‘ri eshitishni kamaytirish
2	Mark Hancock	English Pronunciation in Use	3	Eshit va to‘g‘ri gapni tanla	Intonatsion interferensiyani bartaraf etish, inglizcha ohangni to‘g‘ri qabul qilish
3	Mark Hancock	English Pronunciation in Use	21	Matnni ovoz chiqarib o‘qi va yozib ol	Ona tiliga xos talaffuz stereotiplarini aniqlash va tuzatish
4	Mark Hancock	English Pronunciation in Use	26	Moslashtirish mashqi	Ingliz va ona tili tovushlari o‘rtasidagi chalkashliklarni bartaraf etish
5	Ann Baker	Ship or Sheep	Turli unitlar	Farqli tovushni aniqlash	Minimal juftliklar yordamida fonematik interferensiyani yo‘qotish
6	Ann Baker	Ship or Sheep	Turli unitlar	Rolli o‘yin	Real nutqda interferensiyani nazorat qilishni o‘rgatish
7	Ann Baker	Ship or Sheep	Turli unitlar	Mini bingo o‘yini	Eshitish tezligi va aniqligini oshirib, interferensiyani kamaytirish
8	Ann Baker	Ship or Sheep	Turli unitlar	Kartochkalar orqali juftlik topish	Vizual-audial integratsiya orqali noto‘g‘ri talaffuzni kamaytirish

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur mashq va topshiriqlar uzoq yillar davomida til o‘qitish amaliyotida samarali qo‘llanib kelinib, ularning ijobiy natijalari amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topgan. Biroq, zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi hamda ta’lim tizimida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlar til o‘rgatish jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, an’anaviy mashq va o‘yinlar bilan bir qatorda interaktiv, kommunikativ hamda texnologiyaga asoslangan topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til o‘rgatish jarayonida asosiy maqsad – talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularni til orqali samarali muloqot qila oladigan mutaxassisga aylantirishdir. Biroq, ona tilining ta’siri tufayli paydo bo‘ladigan interferensiya hodisasi o‘rganuvchilar nutqida turli xatolarga sabab bo‘ladi, xususan fonetik sathda. Shu bois, fonetik interferensiyani aniqlash, tahlil qilish va uni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar til o‘rganish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqola doirasida ko‘rib chiqilgan yondashuvlar talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda fonetik xatolarni kamaytirish va til o‘rganish jarayonini sifatli tashkil etishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Алимов В. В. Интерференция в переводе (в контексте профессионально ориентированных межкультурных коммуникаций) // *Тилшунослик ва таржима*. – 2004. – С. 112–120.

2. Бодуэн де Куртене И. А. О смешении языков // *Избранные труды по общему языкознанию*. – М.: Изд-во Академии наук, 1901. – С. 363–382.

3. Жусупов М. Д. *Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению*. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 151–240.

4. Кодирова К. С. *Преодоление фонетической интерференции при обучении арабскому языку в узбекской аудитории*: Дисс. … канд. пед. наук. – Тошкент, 2008. – С. 16–25.

5. Kenworthy J. *Teaching English Pronunciation*. – England; New York: Longman, 1987. – (Longman Handbooks for Language Teachers). P. 65

6. Lado R. *Linguistics Across Cultures*. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. P.45

7. Lekova B. Language interference and methods of its overcoming in foreign language teaching // *Trakia Journal of Sciences*. – 2010. – Vol. 8, № 3. – P. 321–322.

8. Misirov S. *Чет тилни ўргатишда тил тажрибаси ҳақида* // *Тил ва адабиёт таълими*. – Т., 2001. – № 12. – С. 72.

9. Muur A. *Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya*. – 2-e izd. – Routledge, 2012. – 27 b.

10. Худояров О. Т. Фонемик интерференция: общие понятия и теоретические основы // *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. – New York, USA, 2 May 2025. C 12-13.

11. Strelkov C. П. *Механика*. – М.: Лань, 2005. – 488 с.

12. Uribe Enciso O. L., Fuentes Hernandez S. S., Vargas Pita K. L., Pabón A. S. R. Problematic Phonemes for Spanish-speakers’ Learners of English // *Gist Education and Learning Research Journal*. – 2019. – № 19 (July–December). – P. 215–238. – ISSN 1692-5777.

13. Weinreich U. *Languages in Contact*. – The Hague: Mouton, 1953. – 258 p.

TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA PEDAGOGIKANI VAZIFALARI

Nurmanova Maxfuza Urozovna,
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Samarqand Kampusi dotsenti (PhD)
(PhD) O‘zbekiston
maxfuzaxon1483@gmail.com

Mazkur maqolada texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda pedagogika fanining asosiy vazifalari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida texnologik ta’lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik metodlarning o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar texnologik ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *pedagogika, texnologik ta’lim, ta’lim jarayoni, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, interfaol metodlar, o‘qitish samaradorligi.*

ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИКИ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматриваются основные задачи педагогики в процессе обучения студентов направления технологического образования. В условиях современной системы образования особое значение приобретают педагогические подходы, инновационные методы обучения и формирование практических навыков. В ходе исследования изучена роль педагогических методов в развитии профессиональных компетенций студентов. Также рассматриваются вопросы применения интерактивных методов обучения, развития самостоятельного мышления студентов и повышения уровня их профессиональной подготовки. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для совершенствования системы технологического образования.

Ключевые слова: *педагогика, технологическое образование, образовательный процесс, инновационные методы, педагогические технологии, профессиональная компетенция, интерактивные методы, эффективность обучения.*

TASKS OF PEDAGOGY IN TRAINING STUDENTS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

This article examines the main tasks of pedagogy in teaching students of technological education. In modern education systems, pedagogical approaches, innovative teaching methods, and the development of practical skills play an important role. The study analyzes the role of pedagogical methods in developing students’ professional competencies. Particular attention is given to the use of interactive teaching methods, the development of students’ independent thinking, and the improvement of their professional training. The results obtained have significant scientific and practical importance for improving the effectiveness of technological education and enhancing the quality of the educational process.

Keywords: *pedagogy, technological education, educational process, innovative methods, pedagogical technologies, professional competence, interactive methods, teaching efficiency.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik ta’lim bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogika fanining asosiy vazifalarini aniqlash va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash muhim hisoblanadi.

Pedagogika ta’lim jarayonini tashkil etish, metodlarni tanlash va talabalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tizimdir. Texnologik ta’limda pedagogikaning vazifalari talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdan iborat [1].

XXI asrda ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi texnologik ta’lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar, robototexnika, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi talabalar kompetensiyalarini global mehnat bozori talablariga mos shakllantirishni zarur qilib qo‘ymoqda. Shu nuqtai

nazardan, axborot-ta’lim muhitini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi – texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy rivojlanishida axborot-ta’lim muhiti o‘rni hamda xalqaro ilg‘or tajribalarni tahlil qilish, shuningdek O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini asoslab berishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot obyekti sifatida texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va ularning o‘qitish jarayoni tanlandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

-pedagogik kuzatish;

-ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

-taqqoslash usuli;

-so‘rovnoma va statistik tahlil;

-pedagogik tajriba.

Ushbu metodlar yordamida texnologik ta’lim jarayonida pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o‘rganildi.So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda quyidagi yo‘nalishlar faol o‘rganilgan: Axborot-ta’lim muhiti – UNESCO, OECD ta’lim hisobotlarida raqamli ta’lim vositalarining o‘quv jarayoniga ta’siri chuqur yoritilgan [2].

Raqamli kompetensiyalar – Yevropa Ittifoqining “DigComp Framework” modeli asosiy mezon sifatida keng qo‘llanmoqda[3].

Xalqaro ta’lim tajribasi – PISA, TALIS va TIMSS natijalari orqali ilg‘or davlatlar tajribasi o‘rganiladi [3].

Texnologik ta’limda innovatsion yondashuvlar – loyihaviy ta’lim, STEAM yondashuvi va raqamli laboratoriyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda [4,5].

Metodologiya. Pedagogika va texnologik ta’lim muammolari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Pedagogika nazariyasini rivojlantirishga K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy kabi olimlar katta hissa qo‘shgan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar va kompetensiyaga asoslangan ta’lim konsepsiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu esa texnologik ta’lim talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

-Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

-ilmiy adabiyotlar va xalqaro hisobotlar tahlili;

-qiyosiy tahlil (Finlyandiya, Koreya, Singapur, Yaponiya tajribasi bilan solishtirish);

-tizimli va kompetensiyaga asoslangan yondashuv;

-normativ hujjatlarni kontent-tahlil qilish;

-ekspertlar fikrini umumlashtirish.

Muhokama. Texnologik ta’lim jarayonida pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish;

-innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

-talabalar ijodkorligini rivojlantirish;

Interfaol metodlardan foydalanish talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1**. Axborot-ta’lim muhitining texnologik ta’limdagi ahamiyati**

Axborot-ta’lim muhiti – bu o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalar, platformalar, elektron resurslar va virtual laboratoriyalar majmuasi bo‘lib, u:

-bilimlarni interaktiv usulda o‘zlashtirish,

-amaliy mashg‘ulotlarni simulyatsiya qilish,

-masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash,

-o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi bu 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Xalqaro tajribalarni taqqoslanishi.

Davlat	**Asosiy yondashuv**	**Afzalliklari**	**Texnologik ta’limda qo‘llanishi**
Finlyandiya	Phenomenon-based learning	Shaxsga yo‘naltirilgan, mustaqil fikrlash	Integratsiyalashgan loyihalar
Janubiy Koreya	Smart Education Strategy	AR/VR laboratoriyalar, 5G ta’lim	Virtual simulyatorlar
Singapur	Applied Learning (ITE	Ishlab chiqarish bilan uzviy	Amaliyotga yo‘naltirilgan

	model)	bog‘liq	ta’lim
Yaponiya	Robototexnika markazli ta’lim	Innovatsion texnika, avtomatika	Robototexnika loyihalari

Ma’lumotlarni quyidagicha tahlil qilindi.

2. Xalqaro tajribalar tahlili

Finlyandiya tajribasi

-Ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan.

-Raqamli pedagogika darslarning ajralmas qismiga aylangan.

-“Phenomenon-based learning” keng qo‘llanadi [13].

Janubiy Koreya tajribasi

-“Smart Education Strategy” orqali barcha maktablar raqamlashtirilgan.

-Virtual va qo‘shma reallik (VR/AR) texnologiyalari texnologik ta’limda keng qo‘llanadi [12].

Singapur tajribasi

-ITE College tizimi orqali ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

-Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun “Learning by doing” tamoyili ustuvor [6.7,8].

Yaponiya tajribasi

-Texnik yo‘nalishlarda robototexnika va avtomatika bo‘yicha maxsus laboratoriyalar mavjud.

-Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchli [11].

3. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘unlik

O‘zbekistonda:

-“Raqamli ta’lim” platformalari kengaymoqda;

-texnologik ta’lim yo‘nalishlari modernizatsiya qilinmoqda;

-dual ta’lim tizimi joriy etilmoqda [14].

Ammo xalqaro tajribaga ko‘ra, mavjud imkoniyatlarni yanada kuchaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

-Axborot-ta’lim muhiti texnologik ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi bu 2-jadvalda berilgan.

Jadval 2. Axborot-ta’lim muhitining elementlari

Komponent	**Tavsif**	**Talabalar uchun foyda**
Raqamli platformalar	LMS, elektron kutubxonalar	Mustaqil ta’lim, 24/7 axborot
Virtual laboratoriyalar	Simulyatorlar, VR	Amaliy tajribani oshirish
Interaktiv resurslar	Video darslar, testlar	Tez o‘zlashtirish
Sun’iy intellekt yordamchilari	Avtomatik baholash, tavsiyalar	Individual ta’lim
Kooperativ platformalar	Onlayn guruh ishlari	Jamoaviy kompetensiyalar

2-rasmdan ko’rinib turibdiki, O‘zbekistonda quyidagicha baholanadi [14].

-Raqamli platformalar talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

-Xalqaro tajribani o‘rganish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

-Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar amaliy ko‘nikmalarni real sharoitga yaqinlashtiradi.

-O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini doimiy oshirib borish texnologik ta’lim samaradorligini belgilaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra texnologik ta’lim jarayonida pedagogik metodlarning samarali qo‘llanilishi talabalarning bilim darajasi va kasbiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlardan foydalanish natijasida:

-talabalar faolligi oshdi;

-mustaqil fikrlash rivojlandi;

-amaliy ko‘nikmalar shakllandi;

Bu esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy rivojlanishi zamonaviy axborot-ta’lim muhitisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim platformalari va xalqaro tajribalar integratsiyasi kelajak mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish texnologik ta’limni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.

Kelgusi tadqiqotlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni mahalliy o‘quv dasturlariga implementatsiya qilish bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni ochib berishi mumkin.

Texnologik ta’lim yo‘nalishida pedagogikaning vazifalari talabalarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Kelajakda texnologik ta’lim tizimida pedagogik metodlarni yanada takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176 b.
2. Suxomlinskiy V.A. Pedagogika haqida tanlangan asarlar. –Moskva: Pedagogika, 1979. 320 b.
3. Usmonov Q., Nishonov S. Pedagogika nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2015. 256 b.
4. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: Fan, 2018. 220 b.
5. Journal of Educational Technology. Vol. 12, No. 3, 2022, pp. 45–52.
6. UNESCO. (2022). ICT in Education Strategy (2022–2025). Paris: UNESCO Publishing. – 56 p.
7. European Commission. (2021). Digital Education Action Plan 2021–2027: Resetting Education and Training for the Digital Age. Brussels: European Commission. – 34 p.
8. Papert, S. (1991). Situating Constructionism. In: Harel I., Papert S. (Eds.) Constructionism. Norwood, NJ: Ablex Publishing. – pp. 1–11.
9. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan Company. – 116 p.
10. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press. – 224 p.
11. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas. – Vol. 83, No. 2. – pp. 39–43.
12. Korea Ministry of Education. (2020). Smart Education Strategy. Seoul: Ministry of Education, Republic of Korea. – 78 p.
13. Federal Ministry of Education and Research (Germany). (2021). The Dual Vocational Education and Training System in Germany. Berlin: BMBF. – 60 p.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent. – 45 b.

EMOTSIONAL INTELLEKT BO‘YICHA PSIXOLOGIK QARASHLAR HAMDA METODLAR TAHLILI

Oymatova Dilorom Ruzimurotovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
oymatovadilorom@gmail.com

Ushbu maqolada emotsional intellekt (EI) tushunchasi, uning tarkibi va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. EI insonning o‘z his-tuyg‘ularini tanib olish, ularni tushunish va boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Maqolada EI ning turli ta’riflari, uning boshqa psixologik konstruktsiyalar bilan bog‘liqligi va ilmiy jihatdan o‘lchashdagi muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud empirik tadqiqotlar va testlar (MSCEIT, MEIS) yordamida EI ni aniqlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola emotsional qobiliyatlarning insonning ijtimoiy, akademik va ish faoliyatidagi ahamiyatini yoritib, EI ning amaliy psixologiya va pedagogik amaliyotdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, his-tuyg‘ularni tanib olish, his-tuyg‘ularni tushunish, his-tuyg‘ularni boshqarish, EI o‘lchash, MSCEIT, psixologik qobiliyatlar.*

АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ И МЕТОДОВ, КАСАЮЩИХСЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА

В данной статье анализируется понятие эмоционального интеллекта (ЭИ), его структура и психологическое значение. ЭИ включает способность человека распознавать свои эмоции, понимать их и управлять ими. В статье рассматриваются различные определения ЭИ, его связь с другими психологическими конструкциями и проблемы научного измерения. Также анализируются возможности определения ЭИ с помощью существующих эмпирических исследований и тестов (MSCEIT, MEIS). Статья освещает значение эмоциональных способностей в социальной, академической и профессиональной жизни человека, показывая место ЭИ в прикладной психологии и педагогической практике.

Ключевые слова: *Эмоциональный интеллект, распознавание эмоций, понимание эмоций, управление эмоциями, измерение ЭИ, MSCEIT, психологические способности.*

AN ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL PERSPECTIVES AND METHODS ON EMOTIONAL INTELLIGENCE

This article analyzes the concept of Emotional Intelligence (EI), its structure, and psychological significance. EI includes a person’s ability to recognize, understand, and manage their emotions. The article reviews various definitions of EI, its connection with other psychological constructs, and the challenges of measuring it scientifically. Additionally, the possibilities of identifying EI using existing empirical research and tests (MSCEIT, MEIS) are examined. The article highlights the importance of emotional abilities in social, academic, and professional life, demonstrating the role of EI in applied psychology and educational practice.

Keywords: *Emotional Intelligence, emotion recognition, emotion understanding, emotion management, EI measurement, MSCEIT, psychological abilities.*

Kirish. Emotsional intellekt shaxs rivojlanishining muhim xususiyatidir. Bu inson o‘zini tushunish, shuningdek, ijtimoiy dunyoni boshqarish uchun juda muhimdir. His-tuyg‘ular insonni boshqarmasligi uchun ularni nazorat qilish ma’qul. Shuning uchun o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, hamdardlik, ijtimoiy ko‘nikmalar va motivatsiya ustida ishlash, insonni muvaffaqiyatga erishadi.

Emotsional intellekt - bu inson o‘z his-tuyg‘ularini idrok etish, tushunish, nazorat qilish va boshqarish, shuningdek, boshqa odamlarning his-tuyg‘ulariga hamdardlik bildirish va ularga javob berish qobiliyatidir. Natijada, hissiy jihatdan aqlli odamlar boshqalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga va sog‘lom munosabatlarni saqlab qolishga qodir bo‘ladilar.

Inson psixologiyasida emotsiyalar va ularning shaxsiyat, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri uzoq vaqtdan beri tadqiq qilinib keladi. Shu jumladan, emotsiyalarni tanib olish, tushunish va boshqarish qobiliyatlari insonning hayotiy muvaffaqiyati, munosabatlari va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi o‘nlab yilliklarda bu qobiliyatlar **emotsional intellekt (EI)** tushunchasi orqali tizimli ravishda o‘rganila boshlandi.

Emotsional intellekt psixologik nazariyalar, ijtimoiy va kognitiv tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insonning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularni mantiqan ishlatish va mos ravishda boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. EI ni ilmiy jihatdan asoslashda uning o‘lchanishi, boshqa psixologik konstruktsiyalar bilan farqlanishi va amaliy ahamiyati asosiy o‘rinni egallaydi.

Hozirgi kunda EI ni o‘lchashga qaratilgan turli yondashuvlar mavjud: sub’ektiv so‘rovnomalar va ob’ektiv testlar yordamida qobiliyatlar aniqlanadi. Shu bilan birga, mavjud empirik tadqiqotlar EI ni yagona, mustaqil qobiliyat sifatida qarashga hali to‘liq asos bermaydi. Shuning uchun EI ni o‘lchash va uning tarkibiy qismlarini aniqlashga qaratilgan yangi yondashuvlar amaliy psixologiya va pedagogik amaliyotda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Asosiy qism. Olimlar emotsional intellekt (EI) ning ilmiy asoslanganligi haqida o‘z fikrlarini bildirganlar. EI Daniel Goleman [8] ga ko‘ra, IQ ga qaraganda ikki baravar muhim deb ta’kidlangan. Shunga qaramay, u “aniq belgilab bo‘lmaydigan tushuncha” deb ham atalgan [4]. Shuningdek, ba’zi olimlar fikricha, u “yetarli darajada o‘lchashga qarshilik ko‘rsatgan” [2]. Boshqalar esa “katta hajmdagi tadqiqotlar majmui” EI deyarli har qanday kasbda muhim bo‘lgan kompetensiyalar asosini tashkil etishini ko‘rsatadi, deb ta’kidlashadi [6]. Ammo ayrimlar fikricha, “EI ilmiy haqiqatdan ko‘ra afsonaga yaqinroq” [7]. EI ni o‘rganish hatto intellekt turlari haddan tashqari ko‘p bo‘lishi mumkinmi degan savolni ham keltirib chiqaradi.

EI haqidagi fikrlarning xilma-xilligi ushbu sohadagi qarashlar bo‘linishini aks ettiradi. Dastlab, EI yoki “EQ” haqida keng jamoatchilikka ma’lumot gazeta va jurnal maqolalari orqali tarqaldi [7], ular esa Emotional Intelligence asariga tayangan edi [8]. Bu soddalashtirilgan talqinlar ba’zi psixologlar tomonidan tanqid qilindi, chunki ular ommabop g‘oyalar boshqa psixologlar tomonidan ham jiddiy qabul qilinishidan xavotirda edilar [4].

Ushbu ommabop yondashuvlar EI ni “g‘ayrat va qat’iyat” [8] dan tortib umumiy “xarakter” [8] gacha tenglashtirib yubordi. Bunday qarashlarga asoslangan o‘lchovlar EI ni realistik fikrlash, mustaqillik va ish faoliyatiga oid ko‘plab kompetensiyalar bilan bog‘ladi [1]. Biroq, bu tushunchalar va o‘lchovlar ko‘pincha emotsiya yoki intellekt bilan bevosita bog‘liq emas va shuning uchun “emotsional intellekt” atamasiga to‘liq mos kelmaydi.

Bunday yondashuvlardan foydalangan tadqiqotchilar tobora ko‘proq o‘z o‘lchovlari EI dan ko‘ra kengroq bo‘lgan o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarini o‘lchayotganini tan olishmoqda [1]. Tabiiyki, bunday o‘lchovlar shaxs xususiyatlarini o‘lchovchi mavjud shkalalar bilan mos tushadi va ular bilan yuqori darajada bog‘liq bo‘ladi [1].

Bunga qarama-qarshi ravishda, bizning EI haqidagi qarashimiz ushbu atamani jiddiy qabul qiladi. Biz EI ni emotsiyalar haqida fikrlash va emotsiyalarning fikrlashni yaxshilashdagi roli sifatida ta’riflaymiz. U quyidagi qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi: emotsiyalarni aniq idrok etish, fikrlashga yordam berish uchun emotsiyalarni hosil qilish va ulardan foydalanish, emotsiyalarni tushunish va ular haqidagi bilimlarni egallash, hamda emotsiyalarni ongli ravishda boshqarish orqali shaxsiy va intellektual rivojlanishni ta’minlash [11].

Ushbu nazariy yondashuvga ko‘ra, EI emotsiya va intellektning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi [5]. Bu yerda EI ning haddan tashqari kuchi haqida noodatiy da’volar ilgari surilmaydi; aksincha, tadqiqotchilar mavjud dalillar asosida ommabop qarashlarni rad etishga harakat [4].

Ko‘plab olimlarning ishlari shu yondashuv doirasiga kiradi. EI ni ijtimoiy, amaliy va shaxsiy intellektlar qatoriga kiruvchi “issiq intellektlar” sinfiga mansub deb hisoblashadi [11]. Bu atama shuni anglatadiki, ushbu intellektlar inson uchun emotsional jihatdan muhim bo‘lgan masalalar bilan bog‘liq tafakkur jarayonlarida ishlaydi.

Emotsional intellekt (EI) tushunchasining konteksti. Emotsiya va tafakkur o‘rtasidagi munosabat haqidagi qarashlarimiz uchun turli madaniy omillar muhim kontekst vazifasini bajaradi. Ular qatoriga qadimgi yunon stoiklari g‘oyasi kiradi, unga ko‘ra aql emotsiyadan ustun turadi [12]. Shuningdek, Yevropa sentimentalistlari harakati insonda tug‘ma, sof emotsional bilim mavjudligini ta’kidlagan [13]. Romantik harakat esa san’atda emotsional ifodani muhim deb hisoblagan [14]. Bundan tashqari, 1960-yillardagi siyosiy notinchlik va uning natijasida yuzaga kelgan jamoatchilik muhokamalari ham his-tuyg‘u va tafakkur o‘rtasidagi muvozanat masalasiga e’tibor qaratgan [11].

Emotsiya va tafakkurning ahamiyati hamda ularning ratsionalligi haqidagi bahslar zamonaviy psixologiya [3] va falsafa doirasida ham davom etgan.

1980-yillarda psixologiyada emotsiya va tafakkurning o‘zaro ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar kengaydi [2]. Garchi emotsiya va tafakkur o‘rtasidagi ko‘plab o‘zaro ta’sirlar intellektga nisbatan neytral bo‘lsa-da [9], ayrimlari emotsiyalarning fikrlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi [11]. Masalan, Ba’zi tadqiqotchilar

depressiya realistik fikrlashni kuchaytiradimi, degan savolni o‘rgandilar [2]. Boshqalar esa ayrim insonlar emotsiyalarini boshqalarga qaraganda samaraliroq boshqara olishini tadqiq etdilar [9].

Klinik amaliyotda esa emotsiyalarni ifoda etishda qiyinchilikka duch keladigan bemorlar aniqlangan.

Kompyuter fanida sun’iy intellekt tadqiqotchilari emotsional tushunishni o‘z ichiga olgan ekspert tizimlarni ishlab chiqdilar, ya’ni sun’iy EI ga o‘xshash tizimlar yaratildi [11].

Neyropsixologik tadqiqotlar ham emotsiya va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortganini ko‘rsatadi [5].

Emotsional intellekt nazariyasi. “Emotsional intellekt” atamasi dastlab 1960-yillarda adabiy tanqid [9] va psixiatriyada epizodik tarzda qo‘llanilgan. Ikki o‘n yillikdan so‘ng esa u kengroq qo‘llanila boshladi [12]

1990-yilda John D. Mayer va Peter Salovey EI ni aniq ta’riflab, uning nazariyasini ishlab chiqqan va uni o‘lchash usullarini taklif qilgan maqolalarni chop etdilar [11]. Shuningdek, ular ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish zarurligini ta’kidladilar.

EI tushunchasini jiddiy o‘rganish uchun avvalo intellekt va emotsiya tushunchalarini hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish zarur.

Intellekt. EI ni o‘rganish va o‘lchash psixometriya sohasidagi kashshof olimlar - Bine, Torndayk va Veksler kabi tadqiqotchilar ishlariga borib taqaladi [9].

Intellekt odatda quyidagicha tushuniladi: abstrakt fikrlash qobiliyati, o‘rganish va muhitga moslashish qobiliyati

Bu qobiliyat ko‘pincha umumiy omil - g faktori bilan ifodalanadi.

Turli intellekt turlari ular ishlov beradigan axborot turiga qarab farqlanadi:

- Verbal intellekt — til va matnni tushunish
- Perseptiv-intellekt — naqshlarni ko‘rish, yetishmayotgan qismlarni aniqlash
- Fazoviy intellekt - makon bilan ishlash qobiliyati

Bizning EI haqidagi qarashlarimiz intellektni kengroq o‘rganish, ya’ni bir nechta maxsus intellekt turlarini ajratish g‘oyasidan ilhomlangan.

Ayniqsa, biz “issiq intellektlar”ga e’tibor qaratamiz - ular: ijtimoiy, amaliy, shaxsiy, emotsional axborot bilan ishlaydi [11]

Emotsiya va emotsional axborot. Falsafiy va evolyutsion yondashuvlarga ko‘ra, emotsiyalar: vaziyatlarga nisbatan motivatsiyalangan javoblarni boshqaradi, ko‘pincha ularni signal sifatida ifodalaydi [3]

Emotsiyalar tasnifi turlicha:

- ba’zi nazariyalarda 2 ta o‘lchov
- boshqalarida 6, 8 yoki 10 ta asosiy emotsiya mavjud

Aniq emotsiyalar esa turli vaziyatlarni baholash natijasida yuzaga keladi.

Xususan, bunday munosabatlar yashab qolish va ko‘payish uchun muhim bo‘lgan holatlarni o‘z ichiga oladi, jumladan: “tahdidlar, hujumlar, ... sevgi izhorlari, yolg‘izlik ..., salomlashuv, murosaga kelish va o‘yin”.

Har bir emotsiya o‘ziga xos aniqlovchi signallar - ya’ni emotsional axborotni uzatadi [2]. Bu emotsional axborot o‘ziga xos kommunikatsiya kanallari orqali, shuningdek, proprioseptiv, affektiv va kognitiv signallarning o‘ziga xos kombinatsiyasi orqali uzatiladi [4]. Bunday emotsional signallar shaxsning vaziyatlarni baholashi va ularga nisbatan motivatsiyalangan reaksiyalari haqida ma’lumot beradi.

Muhokama va natijalar. Emotsional axborotni qayta ishlash - bu sutemizuvchilar, jumladan insonlar o‘rtasidagi evolyutsion rivojlangan kommunikatsiya shaklidir, tilga o‘xshash. Biroq u tildan farq qiladi, chunki u yanada tor doiraga ega - ya’ni asosan odamlar (va qisman hayvonlar) o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga qaratilgan, til esa ancha umumiy munosabatlarni ifodalashi mumkin [11].

Emotsional axborot va umumiy til o‘rtasidagi yana bir farq - ularning institutsionallashuv darajasi bilan bog‘liq. Institutsionallashuv - bu madaniyatda axborotning qanchalik muhim deb tan olinishi, uning ma’nolari qayd etilishi va bu sohada ekspertlar mavjudligi bilan belgilanadi [11].

Masalan:

- Verbal (tilga oid) intellekt yuqori darajada institutsionallashgan (maktablarda darsliklar, o‘quv materiallari mavjud)
- Emotsional axborot esa hali rivojlanayotgan soha hisoblanadi (hozirgina o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalarda kengroq yoritila boshlagan)

Eng kam institutsionallashgan soha — **amaliy intellekt**, chunki u yashirin (implicit) bilimlarga asoslanadi [14]. Agar bunday bilimlar ommalashtirilsa, ular yashirinlikdan chiqib, ochiq bilimga aylanadi.

Mavjud psixologik adabiyotlarni tahlil qilib, biz EI ni quyidagi to‘rtta asosiy qobiliyatga ajratdik:

1. emotsiyalarni idrok etish

2. emotsiyalar yordamida fikrlashni qo‘llab-quvvatlash
3. emotsiyalarni tushunish
4. emotsiyalarni boshqarish

Bu model John D. Mayer va Peter Salovey tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, to‘rt tarmoqli model deb ataladi.

Tarmoqlar ketma-ketligi (idrokdan boshqaruvgacha) ularning shaxs psixologik tizimlari bilan integratsiya darajasini ko‘rsatadi:

- 1- va 2-tarmoqlar (idrok va foydalanish) - nisbatan alohida ishlovchi tizimlar
- 4-tarmoq (boshqaruv) - shaxsning umumiy maqsadlari va rejalari bilan integratsiyalashgan

Har bir tarmoq ichida qobiliyatlar oddiydan murakkabga qarab rivojlanadi.

1-tarmoq: Emotsiyalarni idrok etish

Bu boshqalarning yuz ifodasi va tana harakatlaridan emotsiyalarni aniqlash qobiliyatidir. U yuz, ovoz va boshqa noverbal signallar orqali emotsiyalarni tushunishni o‘z ichiga oladi.

2-tarmoq: Emotsiyalar yordamida fikrlashni qo‘llab-quvvatlash

Emotsiyalar tafakkurga yordam beradi: ayrim emotsiyalar muayyan muammolarni hal qilishni osonlashtiradi, inson emotsiya va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni bilib, rejalashtirishni yaxshilashi mumkin

3-tarmoq: Emotsiyalarni tushunish

Bu emotsiyalarni tahlil qilish, ularning vaqt davomida qanday o‘zgarishini va oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Masalan: kichik bola (2 yosh) oddiy emotsiyani his qiladi, katta bola (6 yosh) uni nomlay oladi, kattalar esa yanada murakkab farqlay oladi

4-tarmoq: Emotsiyalarni boshqarish

Bu emotsiyalarni shaxsiy maqsadlar, o‘zini anglash va ijtimoiy ong bilan uyg‘un holda boshqarishdir. Masalan: bolalarga “jahling chiqsa 10 gacha sanash” o‘rgatiladi, kattalarda esa emotsiyalarni qayta baholash, nazorat qilish rivojlangan bo‘ladi

EI ni o‘lchash: MSCEIT testi

MSCEIT (Mayer-Salovey-Caruso Emotional Intelligence Test) EI ni o‘lchash uchun ishlab chiqilgan.

U 8 ta topshiriqdan iborat (har bir tarmoq uchun 2 tadan):

- 1-tarmoq: yuzlar va rasmlardagi emotsiyalarni aniqlash
- 2-tarmoq: emotsiyalarni sezgi va fikrlash bilan bog‘lash
- 3-tarmoq: emotsiya o‘zgarishlari va aralashmalarini tushunish
- 4-tarmoq: o‘z va boshqalar emotsiyalarini boshqarish

EI bo‘yicha bahslar va natijalar

Mualliflar EI ni haqiqiy intellekt turi deb hisoblaydi va u quyidagi mezonlarga javob berishini ta’kidlaydi: testlarda to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar mavjud bo‘lishi, boshqa intellektlar bilan o‘xshash, lekin kuchli bo‘lmagan bog‘liqlik, yosh o‘tishi bilan rivojlanishi, shu bilan birga, hozirgi tadqiqotlarning muhim savoli:

- EI nimani bashorat qiladi?
- yuqori EI ga ega inson qanday bo‘ladi?

Boshqa tadqiqotchilar esa ushbu nazariya va o‘lchov vositalarining yetarliligini shubha ostiga olganlar. Ushbu savollar keyingi tahlillar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

EI test topshiriqlari “to‘g‘ri” javobga egami? EI testlari haqiqiy intellekt testlari sifatida qaralishi uchun ularning javoblari ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ri deb baholanishi mumkin bo‘lishi kerak. Masalan, agar insondan: “Qaysi ikki emotsional tajriba birlashib nafrat (contempt) hissini hosil qilishi mumkin?” deb so‘ralsa, ba’zi javoblar (masalan, g‘azab va jirkanish) boshqalarga (masalan, quvonch va chaqiriq) qaraganda to‘g‘riroq bo‘lishi kerak.

Javobning to‘g‘riligini aniqlash uchun bir nechta usullar mavjud.

1. Umumiy konsensus (ko‘pchilik fikri) usuli

Bu usulda test topshiruvchilarning umumiy fikri asos qilib olinadi.

EI nazariyasiga ko‘ra:

- ko‘pchilik odamlar emotsional signallarning ma’nosini tushuna oladi
- shuning uchun ko‘pchilik tanlagan javob eng optimal deb hisoblanadi

Masalan:

- agar 75% odam ma’lum javobni tanlasa - ishtirokchiga **0.75 ball** beriladi

Albatta, ko‘pchilik ham xato qilishi mumkin. Shu sababli boshqa baholash usullarini ham ko‘rib chiqish zarur.

2. Ekspert bahosi usuli. Bu usulda javoblar mutaxassislar tomonidan baholanadi.

Dastlabki tadqiqotlarda bu usul samarali ekanligi ko‘rsatilgan. Biroq keyinchalik aniqlanishicha: ekspert bahosi bilan umumiy baho o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lgan, ularning korrelyatsiyasi r = 0.43 dan 0.78 gacha bo‘lgan. Bu farqning sababi: juda kam (faqat 2 ta) ekspert ishlatilgani, testda esa juda ko‘p (2000 ga yaqin) javob variantlari mavjudligi

MSCEIT testida yaxshilangan yondashuv: 21 nafar emotsiya bo‘yicha mutaxassis jalb qilingan, ular Xalqaro Emotsiya Tadqiqotlari Jamiyati konferensiyasida ishtirok etgan olimlar edi

Bunday ekspertlar, emotsiyalar ifodasini yaxshi tushunadi, boy emotsional lug‘atga ega, emotsiyalarni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni biladi. Natijada ekspertlar va oddiy ishtirokchilar javoblari o‘rtasidagi moslik juda yuqori: r = 0.91, test natijalari (ikkala baholash usulida ham): r = 0.96 – 0.98

Bu esa EI testlarida “to‘g‘ri javob” mavjudligini qo‘llab-quvvatlaydi.

EI testlari real hayotga mos keladimi? (Ekologik validlik)

Ekologik validlik — test natijalari real hayotga qanchalik mos kelishini bildiradi.

Yozma va vizual testlar ma’lum darajada real hayotga mos keladi, chunki emotsiyalar matn va tasvirlar orqali ham ifodalanadi [13]. Tadqiqot jarayonida 124 talabadan eng yuqori 20 ta EI ko‘rsatkichiga ega, eng past 20 ta EI ko‘rsatkichiga ega talabalar tanlab olingan. Ular videolarni tomosha qilgan. Unda talabalar o‘z fikrlarini bayon qilgan. Natijada esa, yuqori EI ga ega shaxslar boshqalarning emotsiyalarini aniqroq aniqlagan, o‘zini “empatikman” deb baholash esa bu qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan. Bu shuni ko‘rsatadiki, odamlar emotsional masalalarda to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni farqlay oladi, EI qobiliyati real hayotga ham tatbiq etiladi.

EI testlari ishonchlimi? Degan savol paydo bo‘ladi. Dastlabki tadqiqotlar shuni ko‘rsatgan, EI ni o‘lchovchi obyektiv testlar past ishonchlilikka ega [4].

MSCEIT testining haqiqiy ishonchlilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ushbu qarama-qarshiliklarga aniqlik kiritishi mumkin. MSCEIT quyidagi to‘rtta tarmoq (branch) bo‘yicha ball beradi:

- emotsiyalarni idrok etish
- emotsiyalardan foydalanish
- emotsiyalarni tushunish
- emotsiyalarni boshqarish

Har bir tarmoqni baholash uchun ikkitadan topshiriq qo‘llaniladi. Bundan tashqari, EI ikki asosiy sohaga bo‘linadi, Eksperiensial (tajribaviy) soha - 1 va 2-tarmoqlar, Strategik soha - 3 va 4-tarmoqlar

Umumiy EI balli esa ishtirokchining barcha test qismlaridagi natijalarini ifodalaydi.

MSCEIT (yoki MEIS) testidan validlik tadqiqotlarida yoki individual natijalarni tushuntirishda foydalanilganda, odatda quyidagi darajalarga e’tibor qaratiladi:

- umumiy (total) ball
- soha (area) ballari
- tarmoq (branch) ballari

Test qo‘llanmasida alohida ogohlantirish berilgan: agar alohida topshiriqlar (task-level) bo‘yicha natijalar ishlatilsa, ularni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak, chunki ularning ishonchliligi pastroq

MSCEIT ning ishonchliligi quyidagicha: Umumiy ishonchlilik (overall reliability): r = 0.91 yoki 0.93 (ekspert yoki umumiy baholashga qarab):

- Soha darajasi (area): r = 0.86 – 0.90
- Tarmoq darajasi (branch): r = 0.76 – 0.91
- Qayta test (test-retest) ishonchliligi: r = 0.86

MEIS testi ham (oldingi versiya)da umumiy va tarmoq darajasida MSCEIT ga o‘xshash ishonchlilikka ega, lekin unda “soha” (area) bo‘yicha baholash mavjud emas

MEIS va MSCEIT testlari yuqori ichki ishonchlilikka ega. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, test to‘g‘ri darajada (branch, area, total) qo‘llansa, u ilmiy jihatdan ishonchli hisoblanadi

EI testlari haqiqatan ham validmi (haqiqatni o‘lchaydimi)?

Ba’zi tadqiqotchilar shunday fikr bildirgan: EI testlari uchun mazmuniy validlikni aniqlash qiyin, chunki, EI ta’rifi va tushunchasi bo‘yicha kelishmovchiliklar mavjud, va test uchun namunalarni tanlash murakkab

Agar kimdir EI ning barcha mumkin bo‘lgan ta’riflarini qamrab oladigan test yaratmoqchi bo‘lsa, bunday qiyinchiliklar, albatta, yuzaga keladi.

Lekin amalda testning mazmuniy validligi odatda: mualliflarning o‘z nazariyasiga asoslanib baholanadi. Bu holatda, mualliflar EI ni to‘rt tarmoqli (four-branch) qobiliyat nazariyasi sifatida aniq belgilagan, MSCEIT testi esa har bir tarmoqdan tizimli ravishda namunalar oladi, har bir tarmoqni baholash uchun 2 ta topshiriq mavjud. Topshiriqlar 10 yil davomida olib borilgan tadqiqotlar asosida tanlangan va ularning nazariya bilan mosligi hisobga olingan

EI testlari mazmuniy jihatdan asoslangan, ularning strukturasi ilmiy tasdiqlangan, boshqa intellekt va shaxs xususiyatlaridan farqlanadi, self-report testlardan butunlay boshqa narsani o‘lchaydi

Emotsional intellekt (EI) — bu emotsional axborot bilan ishlaydigan intellekt hisoblanadi. Emotsional axborot quyidagilarni o‘z ichiga oladi: emotsiyalarning ma’nosi, emotsional naqshlar va ketma-ketliklar, ular aks ettiradigan munosabatlarni baholash

EI amaliy natijalarni oldindan bashorat qila olishi kerak. Ko‘plab laboratoriyalarda olib borilgan tadqiqotlar (minglab ishtirokchilar bilan) shuni ko‘rsatadiki, MSCEIT va uning oldingi versiyasi MEIS orqali:

1. Operatsionlashuv (o‘lchash imkoniyati): EI topshiriqlari to‘g‘ri javoblarga ega va real hayotga mos (ekologik valid)

2. Korrelyatsion xususiyatlar: testlar yuqori ishonchlilikka ega, EI yagona omil sifatida namoyon bo‘ladi lekin 2 yoki 4 kichik omillarga bo‘linadi, boshqa intellekt va shaxs testlaridan farqlanadi

Xulosa. Nazariyalar tahlii shuni ko‘rsatadiki, EI yosh bilan ortishini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda biologik asos sifatida, miya emotsiya va kognitsiyani birlashtiradi, emotsiyalar evolyutsion signal tizimi sifatida shakllangan. Bu EI ni haqiqiy intellekt sifatida ko‘rishga asos beradi.

Dalillar shuni ko‘rsatadi, EI oshgan sari akademik natijalar yaxshilanadi, ijtimoiy munosabatlar kuchayadi, motivatsion nutq (masalan, “vision”) yaxshilanadi. EI past bo‘lsa, muammoli xulq-atvor oshadi, deviant xatti-harakatlar ko‘payadi, giyohvandlik va zararli odatlar ortadi

Yuqori EI ga ega inson emotsiyalarni yaxshiroq idrok etadi, ularni fikrlashda ishlata oladi, tushunadi va boshqaradi. Bunday inson, emotsional muammolarni kamroq kuch bilan hal qiladi, ko‘pincha, verbal, ijtimoiy intellekti ham yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ochiq fikrli, kelishuvchan, kasbiy jihatdan esa, o‘qituvchilik, maslahat berish (psixologiya, konsalting) kabi ijtimoiy sohalarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Yuqori EI ga ega inson xulq-atvor xususiyatlarida esa, zararli odatlardan uzoq turadi: chekish, spirtli ichimlikni ko‘p ichish, narkotiklar, zo‘ravonlikka berilmaydi. ijtimoiy munosabatlari ijobiy bo‘ladi, boshqalarni tushunishga harakat qiladi, hayotiy maqsadlarini aniq ifodalay oladi.

Emotsional intellekt bo‘yicha shunday fikrni aytishimiz mumkinki, EI — haqiqiy intellekt turi, ilmiy asoslangan, o‘lchash mumkin, real hayot natijalarini bashorat qiladi va inson hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Bar-On, R. (1997). Bar-On Emotional Quotient Inventory: Technical manual. Toronto, Canada: Multi-Health Systems.
2. Becker, T. (2003). Is emotional intelligence a viable concept? Acad emy of Management Review, 28, 192-195.
3. Darwin, C. (1872/1998). The expression of the emotions in man and animals; with an introduction, afterword, and commen taries by Paul Ekman (3rd ed.). New York: Oxford Univer sity Press.
4. Davies, M., Stankov, L., & Roberts, R. D. (1998). Emotional intelli gence: In search of an elusive construct. Journal of Personality and Social Psychology, 75, 989-1015.
5. Ciarrochi, J. V., Chan, A. Y? & Caputi, P. (2000). A critical evalua tion of the emotional intelligence concept. Personality and Indi vidual Differences, 28, 539-561.
6. Cherniss, C. (2000, April). Emotional intelligence: What it is and why it matters. Paper presented at the Annual Meeting for the Society for Industrial and Organizational Psychology, New Orleans, LA.
7. Gibbs, N. (1995, October 2). The EQ factor. Time, 146, 60-68.
8. Hedlund, J., & Sternberg, R. J. (2000). Too many intelligences? Inte grating social, emotional, and practical intelligence. In R. Bar-On & J. D. A. Parker (Eds.), Handbook of emotional intelli gence (pp. 136-167). New York: Jossey-Bass.
9. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence. New York: Bantam. Goleman, D. (1998). Working with emotional intelligence. New York: Bantam.
10. Mayer, J. D., & Mitchell, D. C. (1998). Intelligence as a subsystem of personality: From Spearman's g to contemporary models of hot processing. In W. Tomic & J. Kingma (Eds.), Advances in cog nition and educational practice (Vol. 5, pp. 43-75). Greenwich, CT: JAI
11. Payne, W. L. (1986). A study of emotion: Developing emotional in telligence: Self-integration; relating to fear, pain and desire. Dissertation Abstracts International, 47,203 A (UMI No. AAC 8605928)
12. Ruzimurotovna, Oymatova Dilorom. "Oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolar va ularning shaxs ruhiyatiga ta’siri." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.3 (2025):
13. Ruzimurotovna, Oimatova Dilorom. "The role of emotional intelligence and social adjustment in family satisfaction." *World Bulletin of Education and Learning* 1.02 (2025): 38-45.

OLIY TA’LIMDA TALABALAR O‘QUV FAOLIYATIGA TA’SIR ETUVCHI PROKRASTINATSIYA OMILLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Razakov Farxod Kuvondikovich,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi v.v.b dotsenti, (Phd)

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Prokrastinatsiya – bu vazifalarni bajarishni ongli ravishda kechiktirish bo‘lib, u talabalarning akademik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda ichki omillar sifatida motivatsiyaning pastligi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining yetarli emasligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv va mukammallikka intilishning ortiqcha darajasi ko‘rib chiqildi. Tashqi omillar sifatida esa ta’lim muhiti, o‘quv yuklamasining noto‘g‘ri taqsimlanishi hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi tahlil etildi. Shuningdek, prokrastinatsiyani kamaytirish uchun vaqtni boshqarish strategiyalari, motivatsiyani oshirish usullari, refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmlarining ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompleks psixologik va pedagogik yondashuv prokrastinatsiyani kamaytirishda samarali hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *prokrastinatsiya, o‘quv faoliyati, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni boshqarish, oliy ta’lim, psixologik omillar.*

ФАКТОРЫ ПРОКРАСТИНАЦИИ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ, И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

В данной статье анализируются факторы прокрастинации, влияющие на учебную деятельность студентов в высших учебных заведениях, а также пути их преодоления. Прокрастинация рассматривается как сознательное откладывание выполнения учебных задач, что отрицательно сказывается на академической успеваемости студентов. В качестве внутренних факторов выделяются низкий уровень мотивации, недостаточное развитие навыков саморегуляции, страх неудачи и чрезмерное стремление к перфекционизму. К внешним факторам относятся образовательная среда, нерациональное распределение учебной нагрузки и недостаточная педагогическая поддержка. В работе также рассматриваются эффективные стратегии преодоления прокрастинации, такие как управление временем, повышение мотивации, развитие навыков самоорганизации и рефлексии. Результаты исследования показывают, что комплексный психологический и педагогический подход способствует снижению уровня прокрастинации у студентов.

Ключевые слова: *прокрастинация, учебная деятельность, мотивация, саморегуляция, управление временем, высшее образование, психологические факторы.*

FACTORS OF PROCRASTINATION AFFECTING STUDENTS’ ACADEMIC ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION AND WAYS TO OVERCOME THEM

This article analyzes the factors of academic procrastination affecting students’ learning activities in higher education institutions and explores possible ways to overcome them. Procrastination is defined as the voluntary delay of academic tasks, which negatively impacts students’ academic performance. Internal factors include low motivation, insufficient self-regulation skills, fear of failure, and excessive perfectionism. External factors involve the educational environment, improper distribution of academic workload, and lack of pedagogical support. The study also highlights effective strategies for reducing procrastination, such as time management techniques, motivation enhancement, self-regulation development, and reflective practices. The findings indicate that a comprehensive psychological and pedagogical approach is effective in reducing procrastination among university students.

Key words: *procrastination, academic performance, motivation, self-regulation, time management, higher education, psychological factors.*

Mavzuning dolzarbligi. Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatining samaradorligi bugungi kunda nafaqat bilim olish jarayoni, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalar orasida keng tarqalgan

prokrastinatsiya hodisasi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etuvchi dolzarb psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Prokrastinatsiya - bu vazifalarni bajarishni ongli ravishda kechiktirish bo‘lib, u akademik muvaffaqiyatsizlik, stress darajasining ortishi va o‘z-o‘ziga ishonchning pasayishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, Steel (2007) tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar orasida prokrastinatsiya darajasi 50–80 foizgacha yetadi. Shuningdek, UNESCO va OECD ta’lim bo‘yicha hisobotlarida ham talabalarning mustaqil o‘qish jarayonida vaqtni boshqarish muammolari global muammo sifatida qayd etilgan. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’limga o‘tish jarayoni ushbu holatni yanada kuchaytirib, talabalar o‘rtasida o‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) yetishmovchiligi yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi.

Respublikamizda ham oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kredit-modul tizimining joriy etilishi talabadan mustaqil ta’limga katta mas’uliyat talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, talabalarning mustaqil ish ulushi ortib borishi bilan birga, ularni bajarish muddatlarini kechiktirish holatlari ham ko‘paygan. Bu esa prokrastinatsiyaning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, respublika miqyosida olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqotlarda (masalan, Buxoro, Toshkent va Samarqand oliy ta’lim muassasalarida) talabalar o‘rtasida motivatsion pasayish, stressga chidamlilikning pastligi va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining yetarli emasligi prokrastinatsiyaning asosiy omillari sifatida qayd etilgan. Bu holat nafaqat akademik natijalarga, balki bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, oliy ta’limda talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo psixologiya, pedagogika va ta’lim menejmenti integratsiyasini talab etib, zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi global miqyosda tubdan modernizatsiya qilinayotgan sharoitda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalari muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimiga asoslangan ta’lim jarayonida auditoriya soatlarining qisqarishi va mustaqil ishlarga qo‘yiladigan talablarning ortishi talabalardan yuqori darajadagi mas’uliyat, vaqtni samarali boshqarish va ichki motivatsiyani talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologik tadqiqotlar talabalarning o‘quv faoliyatida prokrastinatsiya (vazifalarni ongli ravishda kechiktirish) holatining keng tarqalganligini ko‘rsatmoqda.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarga ko‘ra, Steel (2007) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalari prokrastinatsiya talabalarning 50–80 foizida turli darajada uchrashini aniqlagan. Shuningdek, OECD va UNESCO ta’lim bo‘yicha hisobotlarida talabalarning mustaqil o‘qish jarayonida vaqtni boshqarish va o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarining yetishmasligi akademik muvaffaqiyatsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan. COVID-19 pandemiyasi davrida esa masofaviy ta’limga o‘tish jarayoni prokrastinatsiya darajasining yanada oshishiga olib kelganligi xalqaro tadqiqotlarda alohida ta’kidlangan (GPA pasayishi va topshiriqlarni kechiktirish holatlari sezilarli darajada ortgan).

O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, 2017-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilgan kredit-modul tizimi talabalardan mustaqil ta’lim ulushining oshishini taqozo etmoqda. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda talabalarning mustaqil ishlarga ajratilgan vaqti umumiy o‘quv yuklamasining 40–60 foizini tashkil etadi. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar ushbu mustaqil vazifalarni o‘z vaqtida bajarishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa prokrastinatsiya holatlarining ortib borayotganini anglatadi.

Mahalliy ilmiy izlanishlarda ham (Toshkent, Samarqand, Buxoro oliy ta’lim muassasalari misolida) talabalarda prokrastinatsiyaning asosiy omillari sifatida motivatsiyaning yetishmasligi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining sustligi, stress va tashvish darajasining yuqoriligi hamda o‘quv yuklamasining noto‘g‘ri rejalashtirilishi qayd etilgan. Bu holat nafaqat akademik natijalarga, balki kelajakdagi kasbiy kompetentlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillarini chuqur o‘rganish, uning psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda samarali bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu muammo psixologiya, pedagogika va ta’lim menejmenti integratsiyasini talab etib, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning o‘quv faoliyatida prokrastinatsiya hodisasi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida keng o‘rganilayotgan murakkab fenomenlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo

bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiya nafaqat vaqtni noto‘g‘ri boshqarish bilan bog‘liq xulqiy odat, balki chuqur psixologik, motivatsion va kognitiv mexanizmlarga ega bo‘lgan kompleks jarayondir. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ushbu hodisa birinchi navbatda o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish nazariyasi doirasida talqin etilgan bo‘lib, P. Steel (2007) prokrastinatsiyani “o‘z-o‘zini boshqarishning muvaffaqiyatsizligi” sifatida izohlaydi va uni motivatsiya hamda kechiktirilgan mukofotlar o‘rtasidagi psixologik ziddiyat bilan bog‘laydi.

R. Tuckman (1991) esa prokrastinatsiyani shaxsning o‘quv faoliyatidagi o‘zini cheklovchi xulq-atvori sifatida ko‘rib, uning asosida o‘ziga ishonchning pastligi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv yotishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Ferrari, Diaz-Morales va O’Callaghan (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda prokrastinatsiya vaqtga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq individual psixologik xususiyat ekanligi, ya’ni ba’zi shaxslar “kechiktirishga moyil vaqt orientatsiyasi”ga ega bo‘lishi ilmiy asoslangan. Senécal, Koestner va Vallerand (1995) esa akademik prokrastinatsiyani ichki motivatsiyaning pastligi va avtonom qaror qabul qilishning yetishmasligi bilan izohlaydi.

Rus psixologiya maktabida ham prokrastinatsiya muammosi turli nuqtayi nazardan o‘rganilgan. L.S.Vygotskiy va A. N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda, zamonaviy rus olimlari (masalan, V. I. Morosanova va O. A. Konopkin) o‘z-o‘zini boshqarish tizimidagi buzilishlar prokrastinatsiyaning asosiy psixologik manbai ekanligini ta’kidlaydi. Morosanova tadqiqotlarida o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish darajasi past bo‘lgan talabalarda o‘quv topshiriqlarini kechiktirish holatlari sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan. Shuningdek, rus psixologlari E. V. Zimbardoning vaqt perspektivasi nazariyasini rivojlantirib, prokrastinatsiyani vaqtni idrok etishdagi deformatsiya bilan bog‘laydi, ya’ni kelajakdagi maqsadlarning subyektiv ahamiyati past bo‘lsa, kechiktirish ehtimoli ortadi.

O‘zbek va Markaziy Osiyo tadqiqotchilari ham ushbu muammoni o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Mahalliy ilmiy ishlarda talabalarda prokrastinatsiya ko‘pincha motivatsion omillar, ta’lim muhitining tashkiliy jihatlari hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta’limning ortishi talabalarda vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan birga prokrastinatsiya darajasining oshishiga olib kelayotgani qayd etiladi.

Umuman olganda, xorijiy va rus ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiya ko‘p omilli psixologik hodisa bo‘lib, u motivatsiya, o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish, kognitiv baholash va emotsional holatlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Shu sababli uni bartaraf etish ham faqat bir yo‘nalishdagi emas, balki kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuv talabalarda ichki motivatsiyani kuchaytirish, vaqtni samarali boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillarini aniqlash va ularning psixologik mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda miqdoriy (kvantitativ) yondashuv asosiy metod sifatida tanlab olindi. Tadqiqot O‘zbekiston sharoitida keng qo‘llaniladigan standart psixodiagnostik metodikalarga tayangan holda amalga oshirildi. Xususan, P. Tuckman Prokrastinatsiya shkalasi (Tuckman Procrastination Scale) hamda o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish darajasini o‘lchovchi Morosanova metodikasi asosiy diagnostik vositalar sifatida qo‘llanildi. Ushbu metodikalar mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham muntazam foydalanilib kelinadi va ularning validligi hamda ishonchlilik darajasi yuqori hisoblanadi.

Tadqiqotda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi (N=120). Ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturi orqali qayta ishlanib, korrelyatsion va regressiya tahlillari amalga oshirildi. Dastlab prokrastinatsiya darajasi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida tahlil qilindi. Keyingi bosqichda esa prokrastinatsiyaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ko‘p omilli regressiya tahlili o‘tkazildi.

Quyida SPSS dasturi asosida olingan natijalar jadval shaklida keltiriladi.

1-jadval.

Prokrastinatsiya va o‘z-o‘zini regulyatsiya o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil (SPSS natijasi)

Ko‘rsatkichlar	N	Pearson r	Sig. (p)
Prokrastinatsiya – O‘z-o‘zini regulyatsiya	120	-0.62	0.000

Jadvaldan ko‘rinadiki, prokrastinatsiya va o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish o‘rtasida kuchli salbiy korrelyatsiya mavjud ($r = -0.62$, $p < 0.01$). Bu shuni anglatadiki, talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish darajasi pasaygan sari prokrastinatsiya darajasi ortib boradi. Ushbu natija Morosanova va Tuckman nazariyalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi hamda O‘zbekiston ta’lim muhitida ham ushbu psixologik bog‘liqlikning mavjudligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Prokrastinatsiyaga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha regressiya tahlili (SPSS natijasi)

Omillar	Beta (β)	t qiymat	Sig. (p)
Motivatsiya darajasi	-0.41	-5.12	0.000
O‘z-o‘zini boshqarish	-0.38	-4.89	0.000
Stress darajasi	0.29	3.76	0.001

Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, prokrastinatsiyaga eng kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar motivatsiya darajasi (β = -0.41) va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari (β = -0.38) ekanligi aniqlandi. Aksincha, stress darajasi prokrastinatsiyani oshiruvchi ijobiy omil sifatida namoyon bo‘ldi (β = 0.29). Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ichki motivatsiya va psixologik barqarorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, prokrastinatsiya darajasi shunchalik past bo‘ladi.



Grafikdan ko‘rinadiki, prokrastinatsiya bilan eng kuchli salbiy bog‘liqlik korrelyatsion ko‘rsatkichda (r = -0.62) kuzatilgan bo‘lib, bu o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi prokrastinatsiyani sezilarli darajada kuchaytirishini anglatadi. Bu natija Morosanova tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini regulyatsiya nazariyasi bilan bevosita mos keladi va talabalarda ichki nazorat tizimi zaiflashgan sari kechiktirish xulqi kuchayishini tasdiqlaydi.

Regressiya tahlili natijalari esa omillar ta’sirining ichki tuzilishini yanada aniqroq ochib beradi. Motivatsiya (β = -0.41) va o‘z-o‘zini boshqarish (β = -0.38) prokrastinatsiyani kamaytiruvchi asosiy psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘lgan. Bu shuni bildiradiki, talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi va o‘z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati yuqori bo‘lsa, kechiktirish holatlari sezilarli darajada kamayadi. Aksincha, stress darajasi (β = 0.29) ijobiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatib, prokrastinatsiyani kuchaytiruvchi omil sifatida aniqlangan.

Umuman olganda, grafik va statistik natijalar bir-birini to‘ldiradi va yagona xulosaga olib keladi: prokrastinatsiya ko‘p omilli psixologik hodisa bo‘lib, uning kamayishi uchun motivatsion barqarorlikni oshirish, o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda stressni boshqarish strategiyalarini shakllantirish zarur. Bu esa O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning akademik samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya hodisasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammo oddiy xulqiy kechiktirish emas, balki murakkab psixologik mexanizmlar, shaxsiy motivatsion tizim va kognitiv boshqaruv jarayonlarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p omilli fenomen hisoblanadi. Tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, prokrastinatsiya talabalarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Olingan empirik natijalar shuni tasdiqladiki, o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish darajasi past bo‘lgan talabalarda prokrastinatsiya darajasi yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Bu holat zamonaviy psixologiyada keng tan

olingan o‘z-o‘zini boshqarish nazariyalari bilan mos keladi. Xususan, Morosanova va Konopkin tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlarga ko‘ra, shaxsning o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati qanchalik past bo‘lsa, uning kechiktirish xulqi shunchalik kuchayadi. Bu esa talabaning o‘quv jarayonida tizimli yondashuvni yo‘qotishiga olib keladi.

Shuningdek, motivatsiya omili prokrastinatsiyani kamaytirishda eng muhim psixologik resurslardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Motivatsiyaning pastligi talabaning o‘quv topshiriqlariga nisbatan befarqlikni kuchaytiradi va vaqtinchalik qulaylikka intilishni oshiradi. Natijada, uzoq muddatli maqsadlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Bu holat Steel (2007) tomonidan ilgari surilgan “kechiktirilgan mukofotlar paradoksi” bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, insonlar qisqa muddatli yengillikni uzoq muddatli yutuqlardan ustun qo‘yishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Stress omili ham prokrastinatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, stress darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda vazifalarni kechiktirish tendensiyasi ortadi. Bu holat emotsional boshqaruv mexanizmlarining buzilishi bilan izohlanadi, ya’ni talaba salbiy emotsiyalarni kamaytirish maqsadida topshiriqni vaqtincha chetga suradi. Biroq bu yondashuv vaqt o‘tishi bilan yanada kuchli stress va akademik bosimni keltirib chiqaradi, bu esa “prokrastinatsiya – stress – yanada ko‘proq prokrastinatsiya” kabi yopiq siklni shakllantiradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiya faqat individual muammo emas, balki ta’lim muhiti bilan ham bevosita bog‘liqdir. O‘quv jarayonida topshiriqlarning aniq rejalashtirilmaganligi, pedagogik nazoratning yetarli emasligi hamda mustaqil ta’limga metodik qo‘llab-quvvatlashning pastligi ushbu muammoni kuchaytiruvchi tashqi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, prokrastinatsiyani kamaytirish uchun faqat talabaning shaxsiy xususiyatlariga emas, balki ta’lim tizimining tashkiliy va metodik jihatlariga ham e’tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiya ko‘p qatlamli psixologik hodisa bo‘lib, uning samarali bartaraf etilishi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv doirasida motivatsiyani kuchaytirish, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, stressni boshqarish strategiyalarini shakllantirish hamda ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir etuvchi prokrastinatsiya omillari bugungi kunda dolzarb psixologik-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiya nafaqat shaxsning vaqtni boshqarish ko‘nikmalari yetishmasligi, balki ichki psixologik omillar - motivatsiyaning sustligi, o‘ziga ishonchning pastligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, emotsional beqarorlik hamda tashqi omillar - o‘quv yuklamasining ortiqligi, ta’lim muhitidagi stress darajasi va ijtimoiy raqamli chalg‘ituvchi vositalar ta’siri bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ushbu omillar birgalikda talabaning o‘quv jarayonini kechiktirish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik va akademik samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Shu bilan birga, prokrastinatsiyani bartaraf etish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Avvalo, talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish, o‘zini o‘zi boshqarish va vaqtni samarali rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Psixologik jihatdan esa, kognitiv-bihevioral yondashuvlar orqali salbiy fikrlash stereotiplarini o‘zgartirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va stressni boshqarish texnikalarini o‘rgatish ijobiy natija beradi. Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratish, mentorlik tizimini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli shakllarda tashkil etish prokrastinatsiya darajasini sezilarli kamaytiradi.

Umuman olganda, prokrastinatsiya muammosini faqat individual emas, balki tizimli yondashuv asosida hal etish zarur. Talabaning shaxsiy rivojlanishi, ta’lim sifati va akademik muvaffaqiyati o‘zaro bog‘liq jarayonlar ekanligini hisobga olgan holda, psixologik, pedagogik va tashkiliy chora-tadbirlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo‘l bilan oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘quv faoliyatini ta’minlash va talabalar salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Steel P. The Nature of Procrastination: A Meta-Analytic and Theoretical Review of Quintessential Self-Regulatory Failure. Psychological Bulletin. – 2007. – Vol. 133(1). – P. 65–94.

2. Ferrari J. R., Johnson J. L., McCown W. G. Procrastination and Task Avoidance: Theory, Research, and Treatment. New York: Plenum Press, 1995. – 312 p.

3. Solomon L. J., Rothblum E. D. Academic Procrastination: Frequency and Cognitive-Behavioral Correlates. Journal of Counseling Psychology. – 1984. – Vol. 31(4). – P. 503–509.

4. Schouwenburg H. C., Lay C. H., Pychyl T. A., Ferrari J. R. Counseling the Procrastinator in Academic Settings. Washington, DC: American Psychological Association, 2004. – 280 p.

5. Senécal C., Koestner R., Vallerand R. J. Self-Regulation and Academic Procrastination. Journal of Social Psychology. – 1995. – Vol. 135(5). – P. 607–619.

6. Lay C. H. Trait Procrastination and the Perception of Person-Task Characteristics. Journal of Social Behavior and Personality. – 1986. – Vol. 1(3). – P. 483–494.

7. Steel P. The Procrastination Equation: How to Stop Putting Things Off and Start Getting Stuff Done. New York: HarperCollins, 2010. – 304 p.

8. Burka J. B., Yuen L. M. Procrastination: Why You Do It, What to Do About It Now. Cambridge: Da Capo Press, 2008. – 256 p.

9. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). Mental Health of Adolescents and Young Adults. Geneva, 2023.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar to‘plami. Toshkent, 2024.

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNI OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Sadulloyeva Maxfuza Gaybulloyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Samiyeva Zarnigor Nazar qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrasi magistranti

Ushbu maqolada bugungi kunda o‘smirlar orasida tobora avj olib borayotgan deviant xulq-atvor tendensiyalari tahlil etiladi. Xorijiy tajriba asosida profilaktik, korreksion va reabilitatsion mexanizmlari o‘rganiladi. Yurtimizdagi jarayonlar bilan taqqoslanadi. Bu orqali O‘zbekiston muhitiga moslashtirilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu globallashuv jarayonidagi salbiy og`ishlarni erta aniqlash va oldini olish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *deviant xulq-atvor, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, o‘z joniga qasd qilish, reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv, agressiya, rivojlanishdagi anomaliyalar, profilaktika, psixologik yordam.*

ПУТИ ПРОФИЛАКТИКИ И ПРЕОДОЛЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

В данной статье анализируются тенденции девиантного поведения, которые в настоящее время все более активно распространяются среди подростков. На основе зарубежного опыта изучаются профилактические, коррекционные и реабилитационные механизмы. Они сопоставляются с процессами, происходящими в нашей стране. На этой основе разработаны практические предложения и рекомендации, адаптированные к социальным условиям Узбекистана. Полученные результаты служат теоретической основой для раннего выявления и предупреждения негативных отклонений в условиях глобализации.

Ключевые слова: *Девиантное поведение, правонарушение, преступность, алкоголизм, суицид, реабилитация, социальная адаптация, агрессия, аномалии развития, профилактика, психологическая помощь.*

WAYS OF PREVENTING AND OVERCOMING DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

This article examines the contemporary trends of deviant behavior that are increasingly observed among adolescents. Particular attention is given to the analysis of preventive, corrective, and rehabilitation mechanisms based on international experience. A comparative analysis of these approaches is conducted in relation to the processes taking place in the Republic of Uzbekistan. As a result of the study, practical proposals and recommendations adapted to the socio-cultural conditions of the country are developed. The findings of the research may serve as a theoretical basis for the early identification and prevention of negative behavioral deviations among adolescents in the context of globalization processes.

Keywords: *Deviant behavior, delinquency, crime, alcoholism, suicide, rehabilitation, social adaptation, aggression, developmental abnormalities, prevention, psychological assistance.*

Kirish. O‘smirlik shaxs rivojlanishining murakkab va ziddiyatli davri bo‘lib, aynan shu davrda ijtimoiy me’yorlardan og‘ish holatlari tez-tez uchraydi. Tadqiqotlarga ko‘ra:”Antisotsial xatti-harakatlarning ayrim shakllari o‘smirlik davriga xos, vaqtinchalik ko‘rinishga ega bo‘lib , ma`lum davrdan keyin o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, xulq-atvorni kuzatish va atrofdagilarga taqlid orqali shakllanadi”. [1,b 8]

Shu sababli o‘smirlar yashayotgan muhit deviant xulq-atvor shakllarining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv sharoitida yuz beryotgan keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar insonlarning dunyoqarashi, ong-tafakkuri va ijtimoiy muhitiga bevosita va bilvosita keskin ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar shaxslararo munosabatlarda,

kundalik muomalada hamda xulq-atvorda o‘z ifodasini topib, ayrim holatlarda turli xil og‘ishlar — deviant xulq-atvor ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda.

“Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masal bo‘lib qolmoqda.” [2,b 23]

Asosiy tendensiyalar

- **Yoshlar orasida deviant xulqning ortishi** – o‘smir va o‘spirin yoshlar orasida darsdan qochish, tartib buzish, spirtli ichimlik va tamaki iste’moli kabi salbiy holatlar ko‘paymoqda .
- **Destruktiv xulq-atvor** – tajovuzkorlik, zo‘ravonlik, vandalizm, ijtimoiy normalarga qarshi chiqish holatlari jamiyatimizda yaqqol sezilmoqda.
- **Virtual muhitdagi og‘ishishlar** – internet va ijtimoiy tarmoqlarda kiberjinoyatlar, yolg‘on ma’lumot tarqatish, ciberbullying kabi xatti-harakatlar yoshlar orasida keng tarqalmoqda.
- **Suitsidal (o‘ziga zarar yetkazuvchi) xulq** – ayrim hollarda o‘z joniga qasd qilishga moyillik, o‘zini izolyatsiya qilish kabi xavfli tendensiyalar ham qayd etilgan . [3,b 343]

Rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar

- **Ijtimoiy omillar:** iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik, jamiyatda zo‘ravonlikning normalizatsiyasi, migratsiya oqibatlari.
- **Oilaviy omillar:** ota-ona nazoratining sustligi, oilaviy nizolar, mehr va e`tiborning yetishmasligi.
- **Psixologik omillar:** stress, ijtimoiy hayotga moslashuvchanlikning pastligi, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji.
- **Texnologik omillar:** internet va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ta’siri, anonimlik, tezkor axborot oqimi.

Profilaktika va yechim yo‘llari

- **Ta’lim tizimida profilaktika**: ta`lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, zamonaviy innovatsion loyihalar orqali yoshlarni ijobiy faoliyatga jalb qilish.
- **Oilaviy qo‘llab-quvvatlash**: ota-onalar uchun pedagogik va psixologik treninglar, oilaviy muhitni yaxshilash.
- **Jamiyat darajasida**: yoshlar bandligini ta’minlash, sport va madaniy loyihalarini kengaytirish.
- **Texnologik nazorat**: internetda xavfsiz muhit yaratish, yoshlar uchun media savodxonlik dasturlarini joriy etish.

Jamiyatimizda kuzatilayotgan og‘ishgan xulq-atvor tendensiyalarini kamaytirishda xalqaro tajribani o‘rganish va moslashtirish muhim. Ko‘plab mamlakatlarda bu borada samarali yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Xalqaro tajribadan misollar

- **Finlyandiya modeli**: maktablarda psixologik xizmatlar kuchli yo‘lga qo‘yilgan, har bir o‘quvchi uchun individual reja tuziladi. Bu deviant xulqni erta aniqlash va korreksiya qilishga yordam beradi.
- **AQShdagi “Positive Youth Development” dasturi**: yoshlarni sport, san’at va volontyorlik faoliyatiga jalb qilish orqali ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan.
- **Germaniya tajribasi**: oilaviy psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari orqali ota-onalarga tarbiyaviy treninglar o‘tkaziladi.
- **Yaponiya tajribasi:** ijtimoiy nazoratni kuchaytirish ya`ni maktab -oila –mahalla- hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish. Tashkil etilgan har qanday jarayonni birgalikda uzviy davom ettirish .Bu yo‘nalishda axloqiy tarbiyaga katta e’tibor qaratish . Yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish ta’minlanadi. Bu vandalizm va jinoyatchilikni kamaytiradi.
- **Shvetsiya tajribasi:** kuchli ijtimoiy himoya ya`ni **erta profilaktika.**Muammoni paydo bo‘lishidan oldin aniqlash.Psixolog va ijtimoiy xodimlar hamkorligini yo‘lga qo‘yish.Kompleks tizimli dasturlar ishlab chiqish. Har bir bolani davlat qonunan himoyasida.
- **Janubiy Koreya tajribasi:** zamonaviy tendensiyalar. Onlayn psixologik yordam platformalari va internetga qaramlikni oldini olishga qaratilgan dasturlar.**Qattiq, lekin tarbiyaviy intizom kuchaytirish.**

O‘zbekistonga moslashtirish yo‘llari

- **Ta’lim tizimida**: Finlyandiya modelidan ilhomlanib, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, individual reja asosida har bir o‘quvchi bilan ishlash.
- **Yoshlar siyosatida**: Yaponiya tajribasiga o‘xshash tarzda yoshlarni ijtimoiy loyihalar, sport va madaniyat tadbirlariga keng jalb qilish,bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Maktablarda “Axloq dasturlari”ni ishlab chiqib ,bunda jamoaviy javobgarlikni kuchaytirish.
- **Jamiyat darajasida**: AQShdagi kabi volontyorlik va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, yoshlarni ijobiy va mustaqil faoliyatga yo‘naltirish.

• **Oilaviy qo‘llab-quvvatlash**: Germaniya tajribasidan foydalanib, ota-onalar uchun psixologik metodlar, treninglar,uchrashuvlar salmog`ini oshirish va maslahat markazlarini kengaytirish.

Xulqi og‘ishgan o‘smirlar bilan korreksion mashg`ulotlar tashkil etibgina qolmay, ularning ota-onalari bilan ham ishlarni kompleks psixologik yondashuv asosida olib borish zarur hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘smirlarning xulqiy o‘zgarishlari dolzarb muammolardan biridir. Psixolog amaliy faoliyati davomida xulqi og‘ishgan o‘smirlar bilan ishlashda faqat uning o‘zi bilan emas, balki uning oilaviy muhiti bilan ham tizimli ish olib borishi zarur. Chunki o‘smir xulq-atvori ko‘p jihatdan oilaviy tarbiya , hissiy bilish va ota-onalar bilan munosabatga bog‘liq.

Kompleks psixologik yondashuv -bola–oila–maktab tizimini yagona ijtimoiy-psixologik muhit sifatida ko‘rishga asoslanadi.Buning nazariy asosini quyidagi olimlar fikrlarida yana bir bor isbotini ko‘ramiz.

🔼 Albert Bandura — xulq ijtimoiy muhit orqali shakllanadi;

🔼 Diana Baumrind — tarbiya uslublari bola xulqiga ta’sir ko‘rsatadi;

🔼 Lev Vygotsky — rivojlanishda ijtimoiy muhit muhim omil hisoblanadi.

Psixologning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat hisobladi:

Quyidagi diagnostik ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- O‘quvchini tizimli kuzatish(darsda va darsdan keyingi mashg’ulotlarda,tanish va notanish insonlar davrasida);

- Ota-onalar yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan doimiy individual suhbat o‘tkazish(o‘smirning ta`lim muassasasida va oiladagi munosabatlar haqida fikr almashish, yosh xususiyatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha maslahat va tavsiyalar);

-Oilaviy tarbiya va emotsional muhitni aniqlash(tarbiya uslublari-avtoritar,liberal, demokratik va unga o‘smirning hissiy munosabati);

-Zarurat bo‘lsa psixologik test va metodlardan foydalanish.

-Har bir o‘quvchi bo‘yicha individual psixologik tavsiya ishlab chiqiladi (temperament, xarakter, qiziqish va qobiliyatini inobatga olgan holda).

Amalga oshiriladigan reabilitatsion ishlar

✓Ota-ona va o‘smir o‘rtasida ishonchli muloqotni shakllantirish;

✓Hissiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish;

✓Nazorat va erkinlik o‘rtasida muvozanatni yo‘lga qo‘yish.

✓Bandlikni ta’minlash ya`ni yoshlarni sport, san’at, kasb-hunarga jalb qilish

Ota-onalarning psixologik kompetensiyasini oshirishda psixolog ota-onalar uchun “O‘smirlardagi o‘zgarishlar”,“Samarali muloqot va faol tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish”, “Intizom va chegarani o‘rnida qo‘llay olish mahorati”,“ Agressiyani boshqarish”mavzularida rolli o‘yinlar, Keys tahlil,guruhiy muhokama metodlaridan foydalanib ,qisqa o‘quv seminarlar va trening mashg’ulotlari tashkil etish tavsiya etiladi.

Monitoring olib borish va hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish

1.Har oy o‘quvchi xulqidagi o‘zgarishlar tahlil qilish;

2.O‘qituvchilar bilan hamkorlik olib borish;

3. Ota-onalar bilan muntazam aloqa yo‘lga qo‘yish.

Asosiysi ota-ona nazorat qiluvchi emas, balki hamkor sifatida ishtirok etishiga erishish samarali natijaning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etasak quyidagi natijalarga erisha olamiz.

✓ O‘smirlarning xulqida ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi;

✓ Ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasi oshadi;

✓ Oila va maktab o‘rtasida barqaror hamkorlik shakllanadi;

✓ Xulqiy muammolarning takrorlanish xavfi kamayadi

Xulosa. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar o‘rtasida og‘ishgan xulq-atvorni kamaytirish va uning oldini olish jarayoni kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Faqat jazolash bilan emas, balki o‘smirni tushunish va unga yordam berish ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bunda ta’lim tizimining tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish, oilada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, jamiyatda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda yoshlarni sport, madaniyat, ilm-fan va boshqa ijobiy faoliyat turlariga faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, profilaktik, korreksion va reabilitatsion chora-tadbirlarning o‘zaro mosligi deviant xulq-atvorni kamaytirishda yuqori natijalar beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu yondashuvlarni O‘zbekistonning

ijtimoiy-madaniy va ma’naviy xususiyatlarini inobatga olgan holda mahalliy sharoitga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur jarayon ilmiy asoslangan metod va mexanizmlarni ishlab chiqish, yoshlar o‘rtasida salbiy xulq-atvorning oldini olish hamda ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023

2. Mirziyoev Sh.M “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.: -O‘zbekiston. 2017.

3. Mirziyoev Sh.M “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T.: -O‘zbekiston. 2017,

4. Bekmurodov, M. “*Yoshlar orasida deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari”.* Toshkent: O‘zMU nashriyoti. 2021

5. Karimova, N.” *O‘zbekistonda og‘ishgan xulq-atvorni korreksiya qilish metodlari”.* Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali. 2020

6. Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotlari .”*Art-terapiya va rolli o‘yinlar orqali deviant xulqni korreksiya qilish”.* Psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. 2019

7. Agnew, R. “*Strain Theory and Deviant Behavior.”* New York: Routledge. 2015

8. Hirschi, T. “*Causes of Delinquency”.* Berkeley: University of California Press. 2002

9. World Health Organization “*Youth Violence and Health Risk Behaviors”.* Geneva: WHO Report. 2022

10. UNESCO “*Digital Media and Youth Behavior: Global Trends”.* Paris: UNESCO Publishing. 2021

11. Bandura, A. “*Social Learning Theory”*.- Prentice Hall. 1977

https://www.google.com/search?q

https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33329

UO‘K 316.346.2:159.922.1

OILAVIY ROLLARNI BAJARISHDA GENDER USTANOVKALARNING O‘RNI

Sattorova Zulayxo Ibroxim qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi magistranti
sattorovazulayxo0105@gmail.com
ORCID ID 0009-0006-3768-3230

Hozirgi kunda jamiyatdagi gender ustanovkalarning oilaviy rollarni bajarishga ta’siri dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Gender ustanovkalar oilaviy qaror qabul qilish jarayoniga, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarga va bolalar tarbiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyatlarda ayollar asosan uy ishlariga va farzand tarbiyasiga javobgar deb hisoblanib, erkaklar esa oilani moddiy ta’minlovchi sifatida ko‘riladi. Biroq zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida bu rol va vazifalar qayta ko‘rib chiqilmoqda, bu esa gender ustanovkalarning oilaviy hayotga ta’sirini ilmiy o‘rganishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: *gender, gender ustanovkalar, gender yondashuv, “gender linzalari”, gender stereotiplar, empatiya, emotsional ekspressiya, empatik ekspressiya, gender rollar, egolitar.*

РОЛЬ ГЕНДЕРНЫХ УСТАНОВОК В ВЫПОЛНЕНИИ СЕМЕЙНЫХ РОЛЕЙ

В настоящее время влияние гендерных установок в обществе на выполнение семейных ролей является одной из актуальных проблем. Гендерные установки оказывают значительное влияние на процесс принятия семейных решений, взаимоотношения между супругами и воспитание детей. В некоторых обществах женщины в основном считаются ответственными за ведение домашнего хозяйства и воспитание детей, тогда как мужчины рассматриваются как основные кормильцы семьи. Однако в результате современных социальных изменений эти роли и обязанности пересматриваются, что требует научного изучения влияния гендерных установок на семейную жизнь.

Ключевые слова: *гендер, гендерные установки, гендерный подход, “гендерные линзы”, гендерные стереотипы, эмпатия, эмоциональная экспрессия, эмпатическая экспрессия, гендерные роли, эгалитарный.*

THE ROLE OF GENDER ATTITUDES IN PERFORMING FAMILY ROLES

At present, the influence of gender attitudes in society on the performance of family roles is considered one of the pressing issues. Gender attitudes have a significant impact on the process of family decision-making, relationships between spouses, and child upbringing. In some societies, women are primarily regarded as responsible for household duties and childcare, while men are viewed as the main providers of the family. However, as a result of contemporary social changes, these roles and responsibilities are being reconsidered, which necessitates scientific research into the impact of gender attitudes on family life.

Keywords: *gender, gender attitudes, gender approach, “gender lenses”, gender stereotypes, empathy, emotional expression, empathic expression, gender roles, egalitarian.*

Kirish. Gender munosabatlarining oilaviy rollarni bajarishish jarayoniga ta’siri zamonaviy ijtimoiy fanlarning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va huquqshunoslik kabi fanlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, turli ilmiy maktablar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Gender va oila masalalariga oid dastlabki tadqiqotlar sotsiologik hamda antropologik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, oilaning jamiyatdagi o‘rni, gender rollari va ularning ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri tahlil qilingan. Xususan, G.Beker, T.Parsons, I.Kon kabi olimlar oila institutining barqarorligi, gender rollarining oilaviy hayotdagi ta’siri va gender tengligi masalalarini ilmiy asosda o‘rganib chiqqanlar.

O‘zbekistonda gender masalalari, xususan, oilaviy munosabatlarda gender rollarining ta’siri, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida o‘rganilib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qabul qilgan qaror va farmonlari ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan gender va oila qurish muammolari sotsiologik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. O‘zbek olimlaridan S.Ziyodullayev, M.Sodiqova, G.Xolmatova va boshqalarning ishlarida gender

munosabatlari va oila qurish jarayonidagi o‘zgarishlar, zamonaviy jamiyatdagi gender stereotiplari hamda ularning oilaviy qadriyatlarga ta’siri yoritilgan.

Gender munosabatlarining oila qurishga ta’siri xalqaro va mahalliy miqyosda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda ushbu masala milliy qadriyatlar, an’analar va zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar konteksida chuqurroq tadqiq etilishi zarur. Ayniqsa, gender tengligi tamoyillarining oilaviy hayotga ta’siri, zamonaviy yoshlarning gender qarashlari va bu omillarning nikoh barqarorligiga ta’siri kabi jihatlar bo‘yicha izlanishlarni davom ettirish dolzarb hisoblanadi.

Nazariy metodologik tahlil. Bugungi zamonaviy jamiyatda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishning barcha sohalarida insonning u bajarayotgan faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadigan natijalar dolzarblashib bormoqda. Mazkur jarayonda keyingi paytlarda ilmiy hamjamiyatlarda ko‘p qo‘llanilayotgan “gender” tushunchasi insonning nafaqat o‘z-o‘zini anglashi va idrok etishida, ijtimoiylashuvida va kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynab kelmoqda. “Gender” tushunchasi birinchi marotaba 1963-yilda R.Stoler ishlarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik lingvistikadan kelib chiqqan (gender – tur) “gender” atamasi erkak va ayollarning jinsi – biologik-genetik, fiziologik va reproduktiv xarakteristikalari yig‘indisidan farqli o‘laroq madaniy tavsiflarini sharhlash uchun qo‘llanila boshlandi. “Gender” tushunchasi yordamida insondagi tabiiylikni orttirilgan (madaniylik)dan tuzilmaviy ajratildi. Tushunchaning kiritilishi XX asrning 30-yillarida M.Midning etnografiya bo‘yicha ishlarida kiritildi [6]. Unga ko‘ra gender quyidagicha tavsiflanadi:

-Gender – ijtimoiy jins bo‘lib, u xususan shaxslilik va guruhiy xulq-atvor xususiyatlari va individning jamiyatdagi huquqiy va mavqe-ijtimoiy pozitsiyasini belgilashni taqozo etadi;

-Gender – biologik jins, morfologik va fiziologik xarakteristikalar majmuasi sifatida qatnashadi, erotik hissiyotlar va kechinmalar yo‘nalganligi va namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq individual xulqni ham aniqlaydi.

Psixologiyada gender ustanovkalar tushunchasi insonning jinsga oid stereotiplar, qadriyatlar va kutilmalar tizimini anglatadi. Bu ustanovkalar ijtimoiy-madaniy omillar, tarbiya, ommaviy axborot vositalari va shaxsiy tajribalar ta’sirida shakllanadi. Ijtimoiy psixologiyada gender termini mazkur tushuncha ma’naviy mazmunining birinchi varianti bilangina bog‘liq psixologik reallikni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Gender ustanovkalar — jamiyatda erkak va ayollarga nisbatan shakllangan ijtimoiy kutishlar, stereotiplar va qadriyatlar majmui bo‘lib, ular shaxsning o‘zini tutishi, qaror qabul qilishi va ijtimoiy rollarni bajarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu tushuncha Gender rollari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda erkak va ayolning jamiyatdagi “mos” xatti-harakatlari aniqlab beriladi. Bundan tashqari psixologik fan doirasida so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida subyektlarning u yoki bu ijtimoiy jinsga mansubligi mantiqida jinsiy differensiatsiyasi psixologik tavsifini ko‘rib chiqishga qimmatli yondashuv yuzaga keldi. Ta’kidlash joizki, dastavval “gender” tushunchasining o‘zi, keyinchalik “gender yondashuv”ning paydo bo‘lishi “ayollarga oid” deb atalmish tadqiqotlar bilan bog‘liq. Shunga o‘xshash keng qamrovli tadqiqotlardan biri Sandra Lipsits Bem tomonidan gender tafovutlarni o‘rganish borasidagi tadqiqotlarni aytib o‘tish mumkin. Uning 1993-yilda chiqqan “Gender linzalari” monografiyasida jamiyat erkak va ayollarga ularning ishlari va imkoniyatlari haqidagi ma’lum ijtimoiy tavsiflarni kiritish haqidagi tasavvurlar batafsil yoritilgan [5]. Mazkur holatda jins bu tarixiy taraqqiyot mobaynida orttirilgan ramziy ahamiyatli belgidir. Sandra Bem o‘z monografiyasida erkak va ayollar xulq-atvoridagi tafovutlar, ularning ijtimoiy pozitsiyalaridagi tafovutlar biologiklik tufayli, ya’ni jinsiy farqlardir degan keng tarqalgan fikr va ishonchlarni ko‘rib chiqib, jins va gender hayotiy sikl (ontogenez) jarayonida qanday o‘zaro ta’sirga kirishishini tahlil qiladi. Asosiy g‘oya bunda shu ediki, ijtimoiylik biologiklikka qaraganda ko‘proq o‘zgarishlarga moyil bo‘ladi. Bem nazariyasiga ko‘ra va kognitiv jarayonlar faoliyati prinsiplariga asosan insondagi idrok selektivdir, ya’ni u erkak va ayollarni qutbli idrok qilish odatiy sxemasiga joylashadi va reallikda haddan ziyod tarqalgan, lekin madaniyat orqali sxemasiga joylashadi va reallikda haddan ziyod tarqalgan, lekin madaniyat orqali shakllangan idrok doirasiga hech ham sig‘maydigan narsalarni tanqidsiz qarab chiqmaydi. Shunday qilib, Sandra Bemning “Gender linzalari” nazariyasi shaxsning gender xususiyatlarining madaniy-tarixiy tarkibi va uning psixologik ustanovkalarini namoyon qiladi[5]. Erkak va ayollar o‘rtasidagi ahamiyatli psixologik tafovutlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Biroq bu boradagi empirik ma’lumotlar, ko‘p sonli tadqiqotlarga qaramasdan, yetarli emas va bir-biriga qarama-qarshi. Shaxslilik xususiyatlariga oid asosiy tadqiqotlarni qarab chiqamiz. Umumiy qabul qilingan stereotiplar empatiya va emotsional sohadagi juda ko‘p gender farqlar mavjudligi haqidagi g‘oyani o‘z ichiga oladi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tafovutlar haqida gapirganda biz ko‘pincha ayollar erkaklarga qaraganda emotsiyalarini yaxshiroq ifodalaydilar va atrofdagilarga hamdardlik bildirishga ham moyilroqdirlar deb hisoblaymiz. Haqiqatan ham ayollar erkaklarga qaraganda hissiyotlarga beriluvchan degan fikrga ishonish gender stereotiplarni o‘rganish mobaynidagi noyob topilmalardan biri hisoblanadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi emotsionallik tafovutlari bir nechta darajalarda qarash mumkin. Birinchi darajada biz boshqalarning emotsional holatini tushunish (empatiya) qobiliyati va bu tushunishni ifodalash malakasi (empatik

ekspressiya) bilan to‘qnash kelamiz. Boshqa bir darajada bizni insonning o‘zi tomonidan o‘z emotsiyalarini kechinishi (emotsional kechinmalar) va mana shu emotsiyalarni bildirish usullari (emotsional ekspressiya) qiziqtiradi.

Oilaviy rollar esa oila a’zolarining (ota, ona, farzand va boshqalar) o‘zaro munosabatlardagi vazifalari va majburiyatlaridir. Ushbu rollar tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. An’anaviy jamiyatlarda erkak ko‘proq ta’minotchi, ayol esa tarbiyachi va uy bekasi sifatida talqin etilgan. Gender ustanovkalar oiladagi rol taqsimotini quyidagi yo‘nalishlarda belgilaydi:

1) Mehnat taqsimoti: Erkak va ayolning uy va tashqi faoliyatdagi ishtiroki gender stereotiplarga asoslanadi. Masalan, erkak daromad topuvchi, ayol uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi sifatida qaraladi.

2) Qaror qabul qilish: Patriarxal qarashlar ustun bo‘lgan oilalarda muhim qarorlar ko‘pincha erkak tomonidan qabul qilinadi.

3) Emotsional rollar: Ayollar ko‘proq emotsional qo‘llab-quvvatlovchi, erkaklar esa ratsional qaror qabul qiluvchi sifatida tasvirlanadi.

Bu jarayonlar Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi orqali tushuntiriladi, ya’ni bolalar kattalarning xulq-atvorini kuzatish va takrorlash orqali gender rollarni o‘zlashtiradi.

Hozirgi davrda gender tengligi g‘oyalari rivojlanishi natijasida oilaviy rollarda muayyan o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Gender tengligi konsepsiyasi asosida erkak va ayol o‘rtasida majburiyatlar teng taqsimlanishi, hamkorlik va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar shakllanmoqda. Shuningdek, Androginiya tushunchasi ham muhim bo‘lib, unda shaxsda erkaklik va ayollik xususiyatlari uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu esa oilada rollarning moslashuvchan va samarali bajarilishiga xizmat qiladi.

Demak, nazariy jihatdan qaraganda, gender ustanovkalar oilaviy rollarni shakllantirish va bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular ijtimoiy tajriba, madaniyat va tarbiya orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda gender tengligi va moslashuvchan rollar tizimiga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa oilaviy munosabatlarda barqarorlik, o‘zaro tushunish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Nazariy tahlillarimizni amaliyotga tatbiq qilgan holda empirik tadqiqot olib bordik. Shu sababli tanlangan respondentlarning gender ustanovkalarini aniqlash maqsadida I. S. Kletsina tomonidan ishlab chiqilgan “Maqollar” so‘rovnomasi metodikasidan foydalandik. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida ishlab chiqildi va diagrammada o‘z ifodasini topdi.

S.Kletsina tomonidan ishlab chiqilgan “Maqollar” so‘rovnomasiga binoan oilaviy rollarni taqsimlash xususiyatiga asoslangan holda oilalarning uch turi ajratiladi. Ular: an’anaviy, egalitar (teng huquqli) va noaniq (oraliq). An’anaviy oilalar barcha uy vazifalari qat’iy taqsimlangan oilalar bo‘lib, ularda rollarning bajarilishi “erkak” va “ayol” toifasiga bo‘linsa-da, bu vazifalarning aksariyati ayol (xotin) tomonidan amalga oshiriladi. Egalitar, ya’ni teng huquqli oilalarda oilaviy rollarni “erkak” va “ayol” ga ajratmasdan birgalikda taqsimlash bilan ajralib turadi, bunday oilalar turmush o‘rtoqlarning uy ishlarida bir-birining o‘rnini bosishi bilan ifodalanadi. Oraliq turdagi noaniq oilalarda oilaviy rollarni taqsimlashning odatiy variant ifodalanmaydi. Biz olib borgan tadqiqotda respondentlar ushbu metodika bo‘yicha quyidagi natijalarni berishdi.

1-rasm. I. S. Kletsinaning “Maqollar” so‘rovnomasi natijalari

Diagrammada ifodalanishiga ko‘ra, 87,5 % respondentlarning fikricha, oilalardagi gender ustanovkalar an’anaviy ko‘rinishda ekanligi ifodalanmoqda. Demak, oila qurish ostonasidagi yigit-qizlar oilaviy rollarning bajarilishida an’anaviylikni ustun qo‘yishar ekan. Teng huquqlilik munosabati esa 1,25% respondentlar uchun ahamiyatli hisoblanar ekan. 11,25% respondent bu borada aniq tasavvurlarni ifodalamaganlar.

Gender ustanovkalar shaxsning oila qurishga bo‘lgan yondashuvi, nikohdagi roli va oilaviy qadriyatlarga sodiqligini belgilovchi muhim psixologik va ijtimoiy omillardandir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, gender stereotiplari nafaqat jamiyat tomonidan yuklangan funksiyalarni ifodalaydi, balki shaxsning ichki psixologik holatlari, motivatsiyalari va munosabatlar sifatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Oila instituti mustahkam va barqaror bo‘lishi uchun genderga oid qarashlar ongli, muvozanatli va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda shakllantirilishi lozim.

Tadqiqotimizda “Egolitar” (1,25%), “Noaniq” (11,25%) va “An’anaviy” (87,5%) ko‘rsatkichlar bo‘yicha respondentlarning taqsimlanishini aniqladik. Ushbu natijalar psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, guruh ichida qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ustanovkalarning aniq yo‘nalishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, “An’anaviy” ko‘rsatkichning mutlaq ustunligi (87,5%) respondentlarning aksariyati an’anaviy ijtimoiy qadriyatlar, me’yorlar va rollarga tayanishini anglatadi. Bu holat psixologiyada Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi doirasida izohlanadi, ya’ni shaxslar o‘zini muayyan ijtimoiy guruh bilan identifikatsiya qiladi va shu guruh qadriyatlarini ichkilashtiradi. An’anaviylikning ustunligi jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va madaniy uzluksizlikni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich konformizm darajasining yuqoriligini ham anglatishi mumkin, ya’ni shaxslar mavjud ijtimoiy normalardan chetga chiqishni istamasligi kuzatiladi.

Ikkinchidan, “Noaniq” toifaga kiruvchi respondentlar ulushi (11,25%) o‘z pozitsiyasini aniq belgilay olmagan yoki qadriyatlar tizimida tranzitiv (o‘tish davriga xos) holatda bo‘lgan shaxslarni ifodalaydi. Bu holat Kognitiv dissonans fenomeni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bunda shaxs turli qarama-qarshi qarashlar yoki qadriyatlar o‘rtasida ichki psixologik ziddiyatni boshdan kechiradi. Noaniqlik darajasining mavjudligi jamiyatda modernizatsiya jarayonlari kechayotganini, ya’ni an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanat izlanayotganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, “Egolitar” ko‘rsatkichning juda past darajada (1,25%) ekanligi individualistik qadriyatlar yoki tenglikka asoslangan qarashlar hali yetarlicha shakllanmaganini anglatadi. Bu holat jamoaviylik ustun bo‘lgan ijtimoiy muhitga xos bo‘lib, unda shaxs manfaatlaridan ko‘ra guruh manfaatlari ustuvor hisoblanadi. Psixologik jihatdan bu ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining kuchli ekanini bildirsa-da, individual tashabbus va mustaqil qaror qabul qilish darajasining nisbatan past bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, diagramma natijalari respondentlar orasida an’anaviy qadriyatlar tizimi kuchli ustunlikka ega ekanligini, shu bilan birga ma’lum qismi qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy-psixologik rivojlanishning dinamik xarakterga ega ekanidan dalolat beradi. Mazkur holatda ta’lim va tarbiya tizimi oldida turgan asosiy vazifa an’anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy, tanqidiy fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda gender ustanovkalarning oila qurish jarayoniga ta’siri psixologik va empirik jihatdan chuqur o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gender ustanovkalar, ya’ni jamiyatda shakllangan erkaklik va ayollik haqidagi ijtimoiy tasavvurlar va kutilmalar shaxsning oila qurishga bo‘lgan yondashuvi, munosabatlar strategiyasi, nikohdagi rol harakati va oilaviy barqarorlikni belgilovchi muhim omillardan biridir.

Nazariy jihatdan, gender ustanovkalar oila institutining ijtimoiy-psixologik asoslarini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Ular orqali erkak va ayolning oilaviy majburiyatlari, huquqlari va rollari belgilanadi. An’anaviy gender stereotiplari (masalan, erkak ta’minotchi, ayol g‘amxo‘r) ko‘plab hollarda nikohga bo‘lgan qarashlarni shakllantirib, kimga qanday rol tegishli ekanligini oldindan belgilab qo‘yadi. Zamonaviy gender qarashlar esa rollarning moslashuvchan bo‘lishi, o‘zaro tenglik va sheriklik asosida qurilgan munosabatlarni ilgari suradi.

Amaliy jihatdan, olingan natijalar psixologlar, oilaviy maslahatchilar va ijtimoiy siyosatchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Genderga oid stereotiplarning oila barqarorligiga ijobiy yoki salbiy ta’siri turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli, har bir oilaviy holatga individual yondashuv zarur. Oila qurish arafasidagi shaxslar bilan olib boriladigan psixologik maslahatlashuvlarda gender ustanovkalarni aniqlash va ularni muvofiqlashtirish orqali nikohga tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Karimova N.A. Oila psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti 2017.
2. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi.T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
4. Mahmudova N. O‘zbek oilasida gender rollarining shakllanishi. Ijtimoiy fanlar jurnali, № 3. 2019.
5. Bem, Sandra L. “The measurement of psychological androgyny”. Journal of Consulting and Clinical Psychology, 1974.
6. Мид М. Мужское и женское. Исследование полового вопроса в меняющемся мире [пер. с англ.: М. Ошурков и др.]. — Москва : Росспэн, 2004. — 412 с. ISBN 5-8243-0586-2.
7. Yuldasheva M.B., Sattorova Z.I. Gender ustanovkalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: monografiya. Farg‘ona, 2026. 125 bet.

UO‘K 81.106 (76.12)

MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TOPSHIRIQLAR TARKIBI

Sayipova Dilobar Raximovna,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
dilobar.saipova@gmail.com
Orcid: 0009-0007-3762-8722

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan. Jumladan, mustaqil topshiriqlarning mazmun-mohiyati, ularning didaktik imkoniyatlari hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada topshiriqlarni ishlab chiqishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv hamda talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, ularni individuallashtirish, raqamli ta’lim vositalarini keng joriy etish hamda baholash mezonlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitishda mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, o‘zbek adabiyoti, topshiriqlar tizimi, innovatsion yondashuv, kompetensiya, baholash mezonlari.*

СОДЕРЖАНИЕ ЗАДАНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАДАНИЙ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

В данной статье комплексно и системно рассматриваются вопросы совершенствования заданий для самостоятельного обучения при преподавании узбекской литературы. Проанализированы содержание и структура самостоятельных заданий, их дидактические возможности, а также факторы, влияющие на повышение эффективности учебного процесса. Особое внимание уделено разработке заданий на основе современных педагогических технологий, компетентностного подхода и методов, направленных на развитие самостоятельного мышления обучающихся. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы поэтапной организации заданий, их индивидуализации, внедрения цифровых образовательных технологий и совершенствования системы оценивания. Полученные результаты могут способствовать повышению эффективности преподавания узбекской литературы.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, узбекская литература, система заданий, инновационный подход, компетенция, критерии оценивания.*

THE CONTENT OF TASKS AIMED AT IMPROVING INDEPENDENT LEARNING ASSIGNMENTS

This article provides a comprehensive and systematic analysis of improving independent learning tasks in the teaching of Uzbek literature. It examines the content, structure, and didactic potential of such tasks, as well as the key factors influencing their effectiveness in the educational process. The study emphasizes the importance of designing assignments based on modern pedagogical technologies, a competency-based approach, and methods aimed at developing students’ independent and critical thinking skills. Furthermore, special attention is given to the phased organization of tasks, their individualization, the integration of digital educational tools, and the improvement of assessment systems. The findings of the study contribute to enhancing the overall effectiveness of teaching Uzbek literature.

Keywords: *independent learning, Uzbek literature, task system, innovative approach, competence, assessment criteria.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitishda mustaqil topshiriqlar talabalarning badiiy tafakkurini shakllantirish, tahliliy fikrlashini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mustaqil ta’lim topshiriqlarining mazmuni va tuzilishini zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida tanlangan adabiyotlar mustaqil ta’limni tashkil etish va uni takomillashtirishning nazariy-huquqiy hamda metodik asoslarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni mustaqil ta’limni tashkil etishning umumiy prinsiplari, ta’lim oluvchilarning huquq va majburiyatlari hamda ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash zaruratini belgilab beradi. Ushbu hujjatda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va uzluksiz ta’limni ta’minlash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, u tadqiqot uchun konseptual asos vazifasini bajaradi [1].

M. Quvondiqova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mustaqil ta’limni tashkil etishni takomillashtirish vositalari chuqur tahlil qilingan. Muallif mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va talabalarning faolligini kuchaytiruvchi topshiriqlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, maqolada topshiriqlarni ishlab chiqishda ularning mazmuni, shakli va baholash mezonlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarurligi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan [2].

Shuningdek, Z.Mirzayeva va K.Jalilov tomonidan yaratilgan “Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka” asarida adabiyot fanini o‘qitishda an’anaviy usullardan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga o‘tish jarayoni tahlil qilingan. Mualliflar zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni individuallashtirish va o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadilar. Ushbu manbada mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda o‘qituvchining metodik mahorati va innovatsion yondashuvi hal qiluvchi omil sifatida baholanadi [3].

Umuman olganda, tahlil etilgan adabiyotlar mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish masalasini turli jihatlardan yoritib, nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi. Ular asosida mustaqil ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish, topshiriqlar mazmunini boyitish hamda ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Muhokama va natijalar. O‘zbek adabiyoti fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;

amaliy mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib borish;

belgilangan mavzular bo‘yicha referat tayyorlash;

Belgilangan mavzuga oid ma’lumotlarni mustaqil o‘rganish va konspektlashtirish;

amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo‘yicha muammoli vaziyatlar (keyslar) muhokamasida ishtirok etish;

munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rish;

ko‘rgazmali materiallar (poster, ppt) tayyorlash;

ilmiy ma’ruzalar tayyorlash;

axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo‘yicha nazariy, amaliy va statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;

belgilangan mavzular bo‘yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;

talabalar turar joyidadagi ma’naviyat xonasi, ARM, kompyuterli o‘quv xonalari imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o‘qish jarayonlarida ishtirok etish;

fakultativ darslar va maxsus o‘quv-seminarlar ishlarida ishtirok etish;

kafedralar va fakultetning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar [4].

Talabalarning mustaqil ishi ta’lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo‘ysundirilganki, butun o‘quv jarayoni to‘laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o‘zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta’lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn o‘qituvchiga savol-javob orqali baholash uchun taqdim etiladi [5].

O‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan Statistika fani bo‘yicha mustaqil ishlar ko‘proq referatlar qo‘rinishida bo‘lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o‘quv jarayonlaridan biri sifatida o‘qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o‘z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, o‘rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o‘rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi va h.k. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoida-materiallarni himoya qilishga tayyorlanadi va uni yoqlaydi.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o‘qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o‘qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to‘g‘ri qo‘yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko‘nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim [6].

Ko‘rgazmali materiallar (ishlanmalar, ko‘rgazmalar) tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar yoki ishlanmalar (plakat, slayd, krossvord kabilar) tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma’lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani, fan o‘qituvchisi tavsiyasiga ko‘ra, bir mavzu bo‘yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo‘yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi [7].

Bunda o‘qituvchi tomonidan talabaga testga qo‘yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo‘yicha (mavzuni talabaning o‘zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o‘quv adabiyotlari, statistik manbalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to‘plashi o‘ta muhimdir.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarda ishtiroki ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini bosqichma-bosqich o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. “Tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi” fani bo‘yicha talabalarning konferensiyalarda ishtirokini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o‘qitilayotgan barcha o‘quv guruhlarida konferensiya ma’ruzasi tanlovini o‘tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma’ruzalarini fakultet yoki institut ilmiy-nazariy konferensiyasiga taqdim etish;

3-bosqich – universitet konferensiyasida tanlab olingan eng yaxshi ma’ruzalarni respublika ilmiy-nazariy konferensiyalariga tavsiya etish [3].

Butun guruhlar uchun yagona bo‘lgan dolzarb mavzular ro‘yxatini tayyorlab, talabalarning ma’ruza va chiqishlarini guruhlarning qiziqishlariga qarab ham ixtisoslashtirish mumkin.

Mustaqil ta’limni tashkil etish masalalari pedagogika va ta’lim metodikasi doirasida keng o‘rganilgan. Xususan, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv, interfaol metodlar hamda innovatsion texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish masalalari ilmiy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Biroq, aynan adabiyot fanida mustaqil topshiriqlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar hali yetarli darajada chuqurlashmagan [2].

Mustaqil ta’lim topshiriqlari talabaning bilimini mustahkamlash, kengaytirish va amaliy qo‘llashga xizmat qiluvchi muhim o‘quv faoliyati shaklidir. Ularning samaradorligi, avvalo, to‘g‘ri tuzilgan tarkibiy qismlarga bog‘liq. Bunday topshiriqlar quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi lozim:

aniq maqsad va vazifalar

mazmun va yo‘riqnoma
bajarish shakli va usuli
kutilayotgan natijalar
baholash mezonlari

“Barcha oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim sifatini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Oliy ta’lim tizimida elektron ta’lim resurslarning asosiy vazifalari:

– mustaqil ta’lim jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish; – mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;

– mustaqil ta’limni tashkil etish jarayoni mazmunini ishlab chiqish;

– mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida ta’lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda maxsus bilimlarni shakllantirish;

– ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish;

– kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarish;

– fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga yetkazishni tezlashtirish”.

Talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish maqsadida quyidagi turdagi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega:

badiiy asarni chuqur tahlil qilish
obrazlar tizimini o‘rganish
asarda ilgari surilgan g‘oya va muammolarni aniqlash [4].

Ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun esse va hikoyalar yozish, sahnalashtirish elementlaridan foydalanish, asarga muqobil yakun yaratish kabi topshiriqlar berish samarali hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarga mustaqil ta’lim topshiriqlari sifatida multimedia taqdimotlar, videomateriallar, onlayn ta’lim platformalari orqali topshiriqlar berish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyoti fanida mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki mazkur fan nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni, balki badiiy tafakkur, estetik did va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Shu bois topshiriqlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish, ularni tizimli, izchil hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish yuqori natijadorlikka olib keladi. Ayniqsa, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial va kreativ topshiriqlarni joriy etish ularning faolligini oshiradi.

Adabiyot fani o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodkorlikni talab etuvchi fanlardan biridir. Talaba o‘qigan badiiy asarni faqat mazmun darajasida emas, balki g‘oyaviy-badiiy jihatdan, obrazlar tizimi, muallif uslubi, davr ruhi va estetik qadriyatlar asosida chuqur tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’lim topshiriqlari talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, ularni izlanishga undovchi shaklda tuzilishi lozim. Masalan, taqqoslash, muammoli savollar, esse yozish, prezentatsiyalar tayyorlash kabi topshiriqlar samarali natija beradi.

Bundan tashqari, o‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish talabaning kitobxonlik saviyasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Talaba qo‘shimcha badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash jarayonida o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda adabiy jarayonlarga nisbatan mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash, elektron kutubxonalar va onlayn resurslardan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish orqali o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va chuqur tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy, raqobatbardosh va keng dunyoqarashga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Quvondiqova M. Mustaqil ta’limni tashkil etishni takomillashtirish vositalari Jamiyat va innovatsiyalar Issue – 5 № 4. 2024. – 77 b.
3. “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanidan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish: metodik qo‘llanma / S.Matyakupov/ mas’ul moharrir Sh.Yuldasheva. – Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2013. – 236 b.
4. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. 2020. – B.170.

5. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 364 с.
6. Зиновьев А. Затея. – Москва: Центрополиграф, 2000. – 555 с.
7. Мейлах Б. Комплексное изучение художественного творчества // Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Стлб. – С. 163–164.
8. Тэн И. Философия искусства. – Ленинград: Прибой, 1933. – 486 с.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYALARIGA PEDAGOGIK YONDASHUV

Nurmanova Maxfuza Urozovna,
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Samarqand Kampusi dotsenti (PhD)
O‘zbekiston
maxfuzaxon1483@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayoniga pedagogik yondashuv asosida tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligi tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion pedagogik metodlar, raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta’lim tizimining samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tikuvchilik texnologiyalari, pedagogik yondashuv, oliy ta’lim, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta’lim, amaliy ko‘nikmalar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К СОВРЕМЕННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ ШИТЬЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В данной статье рассматриваются вопросы педагогического подхода к преподаванию современных швейных технологий в высших учебных заведениях. В ходе исследования анализируется значение внедрения современных технологий в образовательный процесс, формирования практических навыков и развития профессиональных компетенций студентов. Также рассматривается эффективность инновационных педагогических методов, цифровых технологий и интеграции образования с производственной практикой. Результаты исследования показывают, что использование интерактивных методов обучения при изучении современных швейных технологий способствует повышению уровня знаний и практических навыков студентов.

Ключевые слова: *современные швейные технологии, педагогический подход, высшее образование, профессиональная компетентность, инновационное обучение, практические навыки.*

PEDAGOGICAL APPROACH TO MODERN SEWING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article examines the pedagogical approach to teaching modern sewing technologies in higher education institutions. The study analyzes the importance of introducing modern technologies into the educational process, developing practical skills, and enhancing students’ professional competencies. The effectiveness of innovative pedagogical methods, digital technologies, and the integration of education with industrial practice is also discussed. The results of the research show that the use of interactive teaching methods in teaching modern sewing technologies significantly improves students' knowledge and practical skills.

Key words: *modern sewing technologies, pedagogical approach, higher education, professional competence, innovative education, practical skills.*

Kirish. Hozirgi kunda yengil sanoat, xususan tikuvchilik sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tikuv mashinalari va raqamli dizayn tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda.

Ta’lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik metodlar, raqamli ta’lim vositalari va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta’lim tizimi muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilishdan iborat [1].

Tikuvchilik sanoati insoniyat tarixining qadimiy va muhim sohalaridan biri bo‘lib, u o‘zining davomiyligi va mustahkamlanishiga qarab bugungi kunda zamonaviy ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Dastlab oddiy qo‘lda bajariladigan ishlar sifatida boshlangan tikuvchilik, sanoat inqilobi davrida mexanizatsiya jarayoniga kirib, ko‘plab yangi texnologiyalar va usullarni joriy etdi. Hozirgi kunda esa tikuvchilik sanoati, ayniqsa, yuqori texnologiyalar va innovatsion yechimlar orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda tikuvchilikda foydalanilayotgan texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirib, tezlashtirishga imkon beruvchi uskunalar, balki ishlab chiqarishni yanada aniqroq, samaraliroq va sifatliroq qilishni ta'minlovchi kompleks tizimlardir.

Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalari kompyuterlashtirilgan tikish mashinalari, avtomatik kesish tizimlari, 3D modellashtirish va prototiplash, robotlashtirish va sun'iy intellektni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilish nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki ishlab chiqarishni yanada tezlashtiradi va sarf-xarajatlarni kamaytiradi. Bu o‘zgarishlar nafaqat sanoatni, balki ta'lim sohasini ham sezilarli darajada o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni kasb-hunar maktablarida qo‘llash, o‘quvchilarga nafaqat an'anaviy tikuvchilik ko‘nikmalarini, balki ilg‘or texnologiyalar yordamida yuqori sifatli va kreativ dizaynlarni yaratish imkoniyatini ham beradi [2].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

-ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

-pedagogik kuzatuv;

-taqqoslash va umumlashtirish;

-o‘quv jarayonini monitoring qilish;

-talabalarning amaliy faoliyatini baholash.

Shuningdek, tikuvchilik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilib, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish samaradorligi o‘rganildi.

Bugungi kunda kasb-hunar maktablarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni nafaqat zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlash, balki ularni kelajakdagi texnologik o‘zgarishlarga moslashtirishdir. Shu sababli, kasb-hunar maktablarida zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati juda katta. Bunday texnologiyalar yordamida o‘quvchilar, masalan, kompyuterlashtirilgan tikish mashinalarini va avtomatik kesish tizimlarini ishlatishni o‘rganishadi. Bu, o‘z navbatida, ularni nafaqat bugungi kunda mavjud ish bozorida talab qilinadigan malakalar bilan ta'minlaydi, balki kelajakda yuqori texnologik ishlab chiqarishlarda ishlashga ham tayyorlaydi.



a) b)

1-**rasm.** a, b 3D Modellar da tikuvchilikda eskiz yaratish texnalogiyasi

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni kasb-hunar maktablarida joriy qilish, o‘quvchilarning kreativ va innovatsion fikrlashini rivojlantiradi. 3D modellashtirish va prototiplash texnologiyalari yordamida talabalar o‘z g‘oyalarini real va virtual muhitda ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va ularni yangi modellar yaratishga undaydi. Zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish nafaqat tikuvchilik sohasida, balki boshqa turli sanoat sohalarida ham yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarining kasb-hunar maktablarida qo‘llanilishi va bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarni qanday tayyorlash mumkinligi masalalari yoritiladi. Maqolada

zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishning o‘quvchilarga qanday foyda keltirishi, ularning kasbga bo‘lgan qiziqishini qanday oshirishi va ishlab chiqarish jarayonini qanday optimallashtirishi haqida so‘z yuritiladi.

Natijalar. Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarining rivojlanishi Tikuvchilik texnologiyalari tarixan soddadan murakkabgacha rivojlanib kelgan. XIX asrning oxirlarida sanoat inqilobi va mexanizatsiya jarayoni tikuvchilikni zamonaviy ishlab chiqarish usullariga o‘zgartirdi. Hozirgi kunda esa texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, ayniqsa, kompyuterlashtirilgan va robot texnologiyalari yordamida yangi davrni boshlab berdi.

Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

Kompyuter yordamida boshqariladigan tikish mashinalari: Bu texnologiyalar yuqori aniqlikda tikish imkonini beradi. Mashinalar dasturlangan kod yordamida turli xil naqshlar, figuralar va dizaynlarni tikish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali mahsulot sifati va samaradorligini oshirishga erishiladi [3,4].

2-rasm. Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash;
2. Amaliy mashg‘ulotlarning ulushini oshirish;
3. Raqamli dizayn dasturlaridan foydalanish;
4. Ta’lim jarayonini ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilish.

Shuningdek, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va innovatsion texnologiyalarni o‘rganishga qiziqishini oshirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muhokama. Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. O‘qitish jarayonida nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Innovatsion pedagogik metodlar, masalan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va interfaol mashg‘ulotlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik qilish orqali talabalar real ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5].

Natijada, zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini pedagogik nuqtai nazardan o‘qitish talabalarni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [6,7].

Avtomatik kesish mashinalari: Ular matolarni tez va aniq kesish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar mato sarfini kamaytiradi va ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi, chunki inson xatolari deyarli yo‘qoladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarining rivojlanishi va ularni kasb-hunar maktablarida qo‘llash, o‘quvchilarni nafaqat yuqori sifatli kasb-hunar ko‘nikmalariga, balki zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlashga yordam beradi. Bu texnologiyalar talabalarni ish bozoriga moslashtirish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kasb-hunar maktablarida texnologiyalarni qo‘llashning samarali usullari o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni yangi imkoniyatlar yaratishga yo‘naltiradi. Shuningdek, tikuvchilik sanoatining yuqori texnologiyalarni talab qilayotgan hozirgi

sharoitida, kasb-hunar maktablarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash nafaqat talabalarni bugungi kunning talablariga tayyorlash, balki kelajakdagi innovatsion yechimlarga ham turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy tikuvchilik texnologiyalarini o‘qitishda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu sababli ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova D va boshqalar. Muxandislik va kompyuter grafikasi. –T.: “History and Page”, 2022 y.
2. Komilova X.H., Hamrayeva H.Q. “Kiyim loyihalash asoslari”. – T.: “Ilmziyo”, 2014 .
3. Toshpo‘latov S.Sh. va boshqalar. Keng assortimentdagimkiyimlami loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash. – T.: “Faylasuf”, 2014.
4. Abdullayeva Q.M. va boshqalar. Tikuv buyumlami loyihalash, modellash va badiiy bezash. –T.: “Noshir”, 2016.
5. Q.M.Abdullayeva. Tikuvhilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi, 2003.
6. T.A. Ochilov. Gazlamashunoslik. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
7. Ayollar ust kiyimining tikuvchisi – chevar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Talqin”, 2003.

UO’K 378.091.3:911

BO‘LAJAK GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Shadiyeva Nigora Sharipovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
“Geografiya” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (Phd),
nigrollashadiyeva10@gmail.com

Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta’lim yo‘nalishlari asosida xalqaro pedagogik tajribani o‘zlashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Ta’lim va tarbiya uzluksizligini ta’minlash doimo e’tiborda bo’lib kelgan masalalardan biridir.

Kalit so'zlar: *munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ

Актуальные вопросы этапов развития образования изучаются как приоритетное направление, в частности, подготовка будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности, разработка инновационных моделей и повышение конкурентоспособности будущих кадров.

Ключевые слова: *программные инструменты, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность*.

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS

Current issues related to the stages of educational development are studied as a priority area, specifically, preparing future teachers for innovative professional activities, developing innovative models, and enhancing the competitiveness of future professionals.

Keywords: *software tools, competency, competence, professional competence, professional activit*

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi pedagogik modellari va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, axborot texnologiyalariga asoslangan ta’lim jarayonida an’anaviy hamda zamonaviy o‘qitish metodlaridan kompleks foydalanish zarur hisoblanadi. Xususan, bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarini ijodiy fikrlashga, ilmiy izlanishlar olib borishga yo‘naltirish hamda ularning kasbiy faoliyatining mazmun-mohiyatini chuqur anglashida dasturiy ta’lim vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [8].

Hozirgi davrda jahon ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va ularning ta’lim jarayonidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta’limni axborotlashtirish jarayoni, shubhasiz, mamlakat kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodga ta’lim-tarbiya beruvchi pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, bo‘lajak yetuk “Geografiya” fani o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida zamonaviy dasturiy ta’lim vositalarini yaratish, ishlab chiqish hamda ta’lim amaliyotiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya yo‘nalishidagi mutaxassis o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion didaktik imkoniyatlarni yaratish va ulardan foydalanish muammolari bo‘yicha xorijiy davlatlar hamda O‘zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [9].

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni

tasdiqlash to‘g‘risidagi” Farmonining 7-bobiga muvofiq “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining pedagog kadrlarning kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy qilish taklifi” shuningdek, “Ta’lim dasturlarini takomillashtirish yo‘nalishida zamonaviy metodlarga asoslangan ta’lim dasturlari va darsliklarni xarid qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimiga joriy qilish choralarini ko‘rish” [1]. Farmonida oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonlarini innovatsion texnologiya, raqamli texnologiya va dasturiy ta’lim ilovalardan foydalanish asosida individuallashtirish, shuningdek, ularning jamiyatga moslashuvi va integrasiyalashuvida ko‘maklashish, o‘qitish ta’lim sifatini oshirish, nazorat qilish, boshqarish duch kelishi ehtimoli bo‘lgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish talab etiladi. Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishishlari o‘z sohasi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim [5].

Ta’kidlab o‘tish joizki, mustaqillik yillarida respublikamizda kadrlar tayyorlashning zamonaviy tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim bo‘lajak “Geografiya” fani mutaxassislarini tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan innovatsion talablarga mos ravishda yuqori malakali, raqobatbardosh, o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi. Bunday mutaxassislar mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir bo‘lishi, shuningdek, jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha olishi, yuksak madaniy hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida V.Maksakovskiy, N.Lyuxina, N.Martilova, M.Baxir geografiya fanini maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikasi masalalari; M.Dobryakovoy, A.Volodin, V.Lazerev, T.Sherbakova, A.Xutorskoy, V.Davidovlar ta’lim berishning innovatsion, zamonaviy va universal ta’lim faoliyati tushunchasi, shuningdek, uning shakllanishi va rivojlanishi yo‘llari, V.I. Baydenko, A.S. Belkin, N.F.Efremova, A.D. Junusakunova, A.M. Zamyatin, V.I. Zvonnikov, M.B. Chelkisheva, L.A. Ivanova, L.A. Kolyada, Y.N. Kovtun, O.E. Permyakov singari olimlar talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalari kvalimetrik baholash, diagnostikalash sohasida, I.V. Sibikina,, M.B. Chelishkovalar ta’lim sifatini baholash vositalari; I.A.Zimnyaya, Y.Demyankov, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzmina, I.Y.Gas, N.F.Efremova, M.G.Minninlar o‘quvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari ta’lim natijalarini baholash fondlarini shakllantirish; A.Y Gummetova, Y.V. Stupinlar tomonidan baholashda keys metodidan foydalanish kabi mavzularda keng ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Respublikamiz pedagog olimlaridan, tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasiga oid tadqiqotlar mamlakatimizda G.S.Ergasheva, H.O.Jo‘rayev, S.A.Nizamovalar tomonidan tadqiq etilgan; A.B.Janzakov, F.A.Xamroyevalar uzluksiz ta’lim tizimida geografiyani axborot texnologiyalari vositalari va mediatexnologiyalardan foydalanib o‘qitish mexanizmlariga doir; A.A. Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, B.Z. To‘rayev ta’limni axborotlashtirish; N.K. Axmedov, U.I. Inoyatov, Sh.E. Qurbonov, E.A. Seytxalilov ta’lim sifatini boshqarish; R.B. Abdurahmonova, G.G‘ Azizova, N.A. Muslimov, D.Yunusova bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish; N.N. Narziyeva o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish; I.Azimov, U.B.Baxodirova, M.N.Ibodova, O.Mavlonov, A.K. Raximov, J.O. Tolipova, N.J. Toshmanov, Sh. Xasanova, G.S. Ergasheva, L. Qoraxonova, A.T. G‘ofurov va boshqalar tomonidan xususiy-metodik darajada tabiiy fanlarni o‘qitish vositalardan foydalanish, kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish yo‘nalishida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

“Geografiya” fani bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda yuqori samaradorlikka erishish uchun ta’limning yakuniy maqsadlarini to‘g‘ri anglash, ularni takomillashtirish hamda mazmun jihatdan zamonaviylashtirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qitishning innovatsion metodlari, dasturiy ta’lim vositalari, mashq qildiruvchi dasturlar hamda kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari asosida yaratilgan o‘rgatuvchi dasturiy vositalarni qo‘llash va rivojlantirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Bu jarayon ta’lim-tarbiya sohasida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda dasturiy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda milliy va jahon ta’lim tajribasiga asoslangan didaktik imkoniyatlarni takomillashtirish orqali mamlakatimizning intellektual salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda [9].

Shu bilan birga, har qanday mamlakat va jamiyatning rivojlanganlik darajasi unda har bir shaxsning qadr-qimmati va ahamiyati qay darajada e’tirof etilishi bilan ham belgilanadi.

Bo‘lajak geografiya fani o‘qituchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning geografik bilimlarni (kartografiya, GIS, ekologiya, umumiy yer bilimi) o‘qitish va tadqiqotda qo‘llash qobiliyatini

rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchilarning tahliliy fikrlash, fazoviy tasavvur va pedagogik mahoratini, raqobatbardoshligini, zamonaviy ta'lim va sanoat talablariga moslashishini va murakkab fazoviy muammolarni hal qilish qobiliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval.

Kompetensiyalarning roli va ahamiyatining asosiy jihatlari

№	Tamoyillar		mazmuni
1	Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish:	→	Dala ishlari talabalar tadqiqot o'tkazishni, landshaftlarni tahlil qilishni va sohada nazariy bilimlarni qo‘llashni o‘rganadigan poydevor yaratadi.
2	Texnologik kompetensiya:	→	Zamonaviy geografik axborot tizimlari (GIS), 3D dizayn va raqamli xaritalash usullarini o'zlashtirish fazoviy ma'lumotlar bilan ishlash uchun juda muhimdir.
3	O‘qituvchilarni tayyorlash:	→	Ta’lim jarayonini tashkil qilish, interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish va atrof-muhit haqida xabardorlikni oshirish qobiliyatini o‘z ichiga olgan metodologik kompetensiyani rivojlantirish.
4	Asosiy kompetensiyalar:	→	Axborot, kommunikatsiya, tadqiqot va prognozlash komponentlarini o‘z ichiga oladi, bu esa uzluksiz o‘z-o‘zini o‘qitishga tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Tahlil va olingan natijalar. Bo‘lajak geografiya fani o ‘qituvchilarning jamiyatga foydali bo‘lishi uchun o‘zini va atrof-muhitini o‘rganishga tayyor bo‘lishini tavsiflangan.



2-rasm. Bo ‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarning jamiyatga tayyor bo‘lishi tavsiflari

Quyida bo‘lajak o‘qituvchining kompetentligi asosida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi .



3-rasm. Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarning kompetentligi va sifatlari

Kompitensiya-faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlikni ko‘rsatadigan predmet sohasi, kompitensiya shaxs xususiyatlarining ajralmas qismi bo‘lib, bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarni muayyan sohada ishlashga tayyorlash natijasidir**.**

Munozara. Bo‘lajak geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda, kompetensiyaviy yondashuvning mazmunini aniqlash uchun uning umumiy vazifasi va ta’limdagi faoliyati bilan bog‘liq tuzilma kerak bo‘ladi. Kompetensiyalarning an’anaviy ta’lim parametrlari bilan solishtirilishini ta’minlash uchun ta’limdagi kompetensiyalar tarkibi quyidagicha tavsiflanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi, o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi, ba’zan mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi, muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarga o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda kreativ g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kasbiy kompetensiya sifatlariga ega bo‘lajak pedagogning innovatsion kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish orqali o‘quv faoliyatida, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirishi hamda hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim.

Xulosa. Mazkur yo‘nalishlarning samarali amalga oshirilishi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar, ya’ni kelajakdagi geografiya fani o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23- sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020- yil 24- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga

3. 2022-yil 11-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-134-sonli Farmoni

4. Kaxarova D.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi.

5. Tojieva Z.N. «O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari». Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2019-yil.125 b.

6. Raximov Z.T. “Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning o‘quv bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi” Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2021-yil.62 b.

7. Jo‘rayev A.R., Shadiyeva N.Sh., Shoyimov A.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalarning o‘rni // O‘zMU xabarlari. № 3. Toshkent 2022-yil. 58-61 b

8. Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta’lim yo‘nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Samarqand: 2024-yil.125 b.

9. Shadiyeva N.Sh. “Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarning tahlili” Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi ilmiy va metodik jurnal.Fevral 2-son 2026 yil. – 29-36 b.

10. Shodiyev H.R. Uzluksiz talim tizimida geografiyani o‘qitishda axborot ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023. – 36 b.

11. Qo‘ldasheva M.N. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanini o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2025. – 63 b.

DEVIANT XULQLI YOSHLARNI QAYTA IJTIMOIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Shermatova Manzura Ikromjanovna,
Impuls tibbiyot instituti, ijtimoiy va aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD) v.b. dotsent

Mazkur maqolada deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning zamonaviy mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy-pedagogik, psixologik va huquqiy omillarning o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi. Xususan, yoshlarning xulq-atvoridagi og‘ishlarni bartaraf etishda profilaktika, reabilitatsiya va reintegratsiya jarayonlarining uzviyligi yoritiladi. Shuningdek, individual yondashuv, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, oila va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va suggestiv usullardan samarali foydalanish masalalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *deviant xulq, qayta ijtimoiylashtirish, ijtimoiy moslashuv, profilaktika, reabilitatsiya, reintegratsiya, ijtimoiy-pedagogik yondashuv, psixologik yordam, oila va maktab hamkorligi, suggestiv metodlar, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy muhit.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

В данной статье анализируются современные механизмы ресоциализации девиантной молодежи на основе системного подхода. Исследование обосновывает важность интеграции социально-педагогических, психологических и правовых факторов. В частности, подчеркивается непрерывность процессов профилактики, реабилитации и реинтеграции в устранении отклонений в поведении молодежи. Также раскрываются вопросы индивидуального подхода, улучшения социальной среды, укрепления сотрудничества между семьей и образовательными учреждениями, а также эффективного использования современных педагогических технологий и суггестивных методов.

Ключевые слова: *девиантное поведение, ресоциализация, социальная адаптация, профилактика, реабилитация, реинтеграция, социально-педагогический подход, психологическая помощь, сотрудничество семьи и школы, суггестивные методы, воспитание молодежи, социальная среда.*

MODERN MECHANISMS FOR THE RESOCIALIZATION OF YOUTH WITH DEVIANT BEHAVIOR

This article analyzes modern mechanisms for the resocialization of deviant youth based on a systematic approach. The study substantiates the importance of the integration of socio-pedagogical, psychological and legal factors. In particular, the continuity of the processes of prevention, rehabilitation and reintegration in eliminating deviations in the behavior of young people is highlighted. Also, the issues of an individual approach, improving the social environment, strengthening cooperation between family and educational institutions, and the effective use of modern pedagogical technologies and suggestive methods are revealed.

Keywords: *deviant behavior, resocialization, social adaptation, prevention, rehabilitation, reintegration, socio-pedagogical approach, psychological assistance, family and school cooperation, suggestive methods, youth education, social environment.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda ayrim yoshlar orasida deviant xulq-atvor ko‘rinishlarining paydo bo‘lishi va kengayishi dolzarb ijtimoiy muammolardan biriga aylanmoqda. Deviant xulq – bu jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me’yor va qadriyatlardan og‘ish holati bo‘lib, u nafaqat shaxsning rivojlanishiga, balki jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish, ularni sog‘lom ijtimoiy muhitga qaytarish va ijobiy faoliyatga yo‘naltirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Deviant xulqli yoshlar bilan ishlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u nafaqat tarbiyaviy, balki psixologik, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlarning uyg‘unlashuvini talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda suggestiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, oila, ta’lim muassasalari va jamiyat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish deviant xulqni oldini olish va bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilayotgani ham ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy kamoloti va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash masalalariga alohida urg‘u berib, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlab keladi. U kishi yoshlarni “jamiyatning eng katta boyligi va kelajagimiz poydevori” sifatida e’tirof etib, ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa ekanini qayd etgan.

Shu nuqtayi nazardan, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning zamonaviy mexanizmlarini o‘rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda aynan shu jarayonning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari va samarali mexanizmlari keng yoritilib, yoshlarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilish yo‘llari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish masalasi ijtimoiy-pedagogik va psixologik tadqiqotlarda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq tushunchasi turlicha talqin qilinadi, biroq aksariyat tadqiqotchilar uni jamiyatda qabul qilingan me’yorlardan og‘ish sifatida izohlaydilar. Xususan, Émile Durkheim deviant xulqni ijtimoiy me’yorlar buzilishi natijasi sifatida baholab, uni jamiyatdagi anomiya holati bilan bog‘laydi. Uning fikricha, ijtimoiy tizimdagi izdan chiqishlar shaxs xulqida og‘ishlarga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, Robert K. Merton tomonidan ishlab chiqilgan “ijtimoiy struktura va anomiya” nazariyasida deviant xulq ijtimoiy maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik bilan izohlanadi. Bu yondashuv yoshlar orasida kuzatilayotgan deviant xatti-harakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur nazariy qarashlar deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishda muhit omilining muhimligini asoslab beradi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda esa deviant xulqning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida oila muhitidagi nosog‘lom iqlim, noto‘g‘ri tarbiya usullari, tengdoshlar ta’siri, ommaviy madaniyat hamda axborot vositalarining salbiy ta’siri ko‘rsatib o‘tiladi. Shu nuqtayi nazardan, qayta ijtimoiylashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda profilaktika, reabilitatsiya va reintegratsiya bosqichlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda amalga oshirilishi zarur.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning birinchi bosqichi profilaktika hisoblanadi. Profilaktik ishlar orqali xulqdagi og‘ishlarning oldini olish, yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ta’lim muassasalari, oila va mahalla institutlarining hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Ilmiy manbalarda profilaktika samaradorligi bevosita erta aniqlash va individual yondashuvga bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Ikkinchi bosqich – reabilitatsiya jarayoni bo‘lib, u deviant xulq shakllangan yoshlar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda shaxsning ichki dunyosini o‘rganish, uning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash, ijobiy motivatsiyani shakllantirish muhim hisoblanadi. Psixologik maslahat, treninglar, korrektsion dasturlar hamda suggestiv metodlar orqali yoshlarning o‘zini anglash darajasi oshiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqich – reintegratsiya bo‘lib, bu jarayon yoshlarni jamiyatga to‘liq qaytarish, ularni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bilan bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reintegratsiya samaradorligi yoshning ijtimoiy muhitga qay darajada moslashganligi bilan belgilanadi. Shu bois, bu bosqichda ta’lim, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir.

Zamonaviy mexanizmlar orasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Bu yondashuvda har bir yoshning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, individual yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik ta’sir choralari ancha samarali natijalar beradi. Shuningdek, kognitiv-behavioral (xulq-atvorni o‘zgartirishga qaratilgan) metodlar ham deviant xulqni bartaraf etishda keng qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, oila institutining roli ham alohida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom oilaviy muhit yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ular bilan muntazam ishlash, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash orqali deviant xulqning oldini olish va uni bartaraf etish mumkin. Xulosa qilib aytganda, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning zamonaviy mexanizmlari ko‘p bosqichli va kompleks xarakterga ega bo‘lib, ularni samarali amalga oshirish uchun ijtimoiy, pedagogik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasi zarur. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayonda tizimli yondashuv, individual ishlash, muhitni sog‘lomlashtirish va innovatsion metodlardan foydalanish yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

Muhokama. Deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish masalasi ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish turli yondashuvlar va ilmiy qarashlarni tanqidiy tahlil qilishni talab etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo faqat pedagogik yoki psixologik doirada emas, balki keng ijtimoiy kontekstda o‘rganilishi lozim. Shu bois, deviant xulqning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish mexanizmlarini muhokama qilishda turli nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash muhimdir.

Masalan, Émile Durkheim tomonidan ilgari surilgan anomiya nazariyasi jamiyatdagi me’yorlar zaiflashuvi deviant xulqni yuzaga keltirishini asoslab beradi. Bu yondashuv hozirgi globallashuv sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar yoshlarning qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, Robert K. Merton nazariyasida ta’kidlanganidek, ijtimoiy tengsizlik va imkoniyatlarning cheklanganligi ham yoshlar orasida og‘ish xulqining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu nazariy qarashlar deviant xulqni faqat individual muammo sifatida emas, balki tizimli ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, amaliyotda qo‘llanilayotgan qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlari ko‘pincha fragmentar xarakterga ega bo‘lib, ularning o‘zaro integratsiyasi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Xususan, ta’lim muassasalari, oila va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik ayrim hollarda formal tusda qolib ketmoqda. Bu esa olib borilayotgan profilaktika va reabilitatsiya ishlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud tizimni takomillashtirish, barcha subyektlar faoliyatini yagona maqsad asosida muvofiqlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish masalasi ham muhokama markazida turadi. Ilmiy manbalarda suggestiv metodlar, treninglar va kognitiv-behavioral yondashuvlar samarali vosita sifatida e’tirof etilayotgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga joriy etishda metodik ta’minot va mutaxassislar malakasining yetarli emasligi kuzatiladi. Bu esa mazkur metodlarning to‘liq samaradorlik bilan qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati yuqori bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘pincha umumiy, standart usullar ustuvorlik qilmoqda. Holbuki, har bir yoshning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va psixologik holatini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan individual dasturlar yuqori natija berishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish samaradorligi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, oila institutini mustahkamlash va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, bu jarayonni faqat muammoga duch kelgan yoshlar bilan ishlash bilan cheklab qo‘ymasdan, balki keng qamrovli profilaktik choralar orqali oldini olish strategiyasini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot va natijalar tahlili. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish hamda ularning amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanilib, nazariy tahlil bilan bir qatorda empirik usullar – so‘rovnoma, kuzatuv, suhbat va pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar turli ijtimoiy muhitda voyaga yetayotgan, xulqida ma’lum og‘ishlar kuzatilgan yoshlar orasidan tanlab olindi.

Tadqiqotning aniqlovchi bosqichida respondentlarning ijtimoiylashuv darajasi, muloqot ko‘nikmalari, o‘zini anglash darajasi hamda xulq-atvoridagi muammolar diagnostik vositalar yordamida o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, deviant xulqning shakllanishida bir qator omillar – oiladagi nosog‘lom muhit, nazoratning yetishmasligi, tengdoshlar ta’siri, shuningdek, bo‘sh vaqtni samarali tashkil etmaslik muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, respondentlarning katta qismida o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Ushbu dastur doirasida individual va guruhiy psixologik treninglar, ijtimoiy moslashuvni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, motivatsion suhbatlar, shuningdek, ota-onalar bilan

hamkorlik asosida maslahat ishlari olib borildi. Jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda suggestiv yondashuv elementlaridan foydalanildi. Bu esa yoshlarning o‘zini anglash darajasini oshirish, ijobiy ijtimoiy xulqni shakllantirish va salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Nazorat bosqichida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida taqqoslama tahlil o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, yoshlarning ijtimoiy faolligi oshgani, muloqot madaniyati rivojlangani, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish darajasi yaxshilangani hamda deviant xatti-harakatlar ko‘rsatkichlari kamaygani qayd etildi. Aksincha, nazorat guruhida bunday sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Olingan natijalar statistik va sifat jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayoni shuni ko‘rsatdiki, kompleks yondashuv asosida olib borilgan pedagogik-psixologik ta’sir choralari yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, individual yondashuv, ya’ni har bir yoshning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ishlar ijobiy natijalarga olib keldi. Bundan tashqari, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi natijalarning barqarorligini ta’minlagan muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim hollarda ota-onalarning pedagogik savodxonligi yetarli emasligi, mutaxassislarning innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarining sustligi hamda metodik ta’minotning cheklanganligi qayta ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa kelgusida mazkur yo‘nalishda tizimli ishlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga tayangan holda deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Birinchidan, ta’lim muassasalarida deviant xulqni erta aniqlash va profilaktika qilishga qaratilgan tizimli monitoring mexanizmini joriy etish zarur. Bunda psixologik diagnostika vositalari asosida o‘quvchilarning xulq-atvori muntazam o‘rganilib borilishi lozim.
- Ikkinchidan, qayta ijtimoiylashtirish jarayonida individual yondashuvni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Har bir yoshning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va muammolaridan kelib chiqib, individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi zarur.
- Uchinchidan, ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligini kuchaytirish lozim. Bu borada ota-onalar bilan muntazam pedagogik-psixologik suhbatlar, seminar-treninglar tashkil etish orqali ularning tarbiyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega.
- To‘rtinchidan, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga alohida e’tibor qaratish zarur. Sport, san’at, kasb-hunar to‘garaklari va ijtimoiy loyihalarga jalb etish orqali ularning ijobiy faoliyatga yo‘naltirilishi ta’minlanadi.
- Beshinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va suggestiv yondashuvlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu yoshlarning qiziqishini oshirish, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirish hamda ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishga xizmat qiladi.
- Oltinchidan, pedagog va psixolog mutaxassislarning malakasini oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Ayniqsa, deviant xulqli yoshlar bilan ishlash bo‘yicha zamonaviy metodikalar o‘rgatilishi muhimdir.
- Yettinchidan, qayta ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu esa yoshlarning salbiy ta’sirlardan himoyalanishiga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, deviant xulqli yoshlarni qayta ijtimoiylashtirish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur jarayon ko‘p bosqichli va kompleks yondashuvni talab etadi. Profilaktika, reabilitatsiya va reintegratsiya bosqichlarining o‘zaro uzviyligi qayta ijtimoiylashtirish samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, tadqiqot davomida individual yondashuv, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ushbu omillarni uyg‘un holda qo‘llash yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, deviant xulqli yoshlar bilan ishlashda tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan yondashuvni qo‘llash zarur. Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlar tarbiyasi va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.
2. Émile Durkheim. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997.
3. Robert K. Merton. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968.
4. Albert Bandura. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
5. Skinner B. F. Science and Human Behavior. – New York: Macmillan, 1953.
6. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Asmolov A. G. Psixologiya lichnosti. – Moskva: MGU, 2001.
8. Slastenin V. A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2002.
9. Podlasiy I. P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2003.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2021.
11. UNESCO. Youth and Social Inclusion: Policy Review. – Paris, 2019.
12. UNICEF. Adolescent Development and Participation. – New York, 2020.
13. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
14. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
15. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Shokirova Dilnoza Olimjon qizi,
Qarshi davlat texnika universiteti
“Sanoatda axborot texnologiyalari va turizm ” kafedrasi dotsenti (*v.b)*

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsni emas, balki uning rivojlanish jarayonini boshqarishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llaniladigan “aqliy hujum”, “doira”, “akvarium” kabi metodlarning amaliy ahamiyati ochib beriladi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yangi pedagogik munosabatlar, zamonaviy ta’lim muhitini yaratishdagi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *interfaol ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), pedagogik yondashuv, dialogik muloqot, ijodiy faoliyat, talaba faolligi, innovatsion metodlar, aqliy hujum, akvarium usuli, kichik guruhlarda ishlash, didaktik yondashuv.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

В данной статье анализируются педагогические подходы, направленные не на управление личностью, а на управление процессом её развития в условиях современного образования. Освещаются вопросы повышения активности студентов, развития их самостоятельного мышления и творческих способностей посредством использования интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий. Также раскрывается практическая значимость таких методов, как «мозговой штурм», «круг», «аквариум», применяемых в учебном процессе. Подчеркивается, что новые педагогические отношения, основанные на сотрудничестве преподавателя и студента, являются важным фактором создания современной образовательной среды.

Ключевые слова: *интерактивное обучение, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), педагогический подход, диалогическое общение, творческая деятельность, активность студентов, инновационные методы, мозговой штурм, метод «аквариум», работа в малых группах, дидактический подход.*

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE METHODS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

This article analyzes pedagogical approaches in modern education that focus not on managing the individual, but on guiding the process of their development. It highlights ways to increase student engagement, as well as to develop independent thinking and creative abilities through the use of interactive methods and information and communication technologies (ICT). The practical significance of methods such as brainstorming, circle, and aquarium is also discussed. It is emphasized that new pedagogical relationships based on collaboration between teacher and student are an important factor in creating a modern educational environment.

Keywords: *Interactive learning, information and communication technologies (ICT), pedagogical approach, dialogic communication, creative activity, student engagement, innovative methods, brainstorming, aquarium method, small group work, didactic approach.*

Kirish. Jahonda ta’lim jarayonida interfaol o‘qitish texnologiyalari va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar ustida ko‘pgina amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ta’limida ilg‘or innovatsion texnologiyalar va ta’lim vositalardan keng foydalanish, o‘qitishning an’anaviy va zamo

naviy usullarini pedagogik jarayonda qo‘llash masalasi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqa. Ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro agentlik (IEA) tomonidan o‘tkazilgan Xalqaro matematika va fanlarni o‘rganish tendensiyalari (TIMSS) va Xalqaro o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish loyihasi (PIRLS) baholashlari ham muhim ahamiyatga ega. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlariga asoslangan baholashlar

orqali dunyo mamlakatlarning ta’limda texnologiyadan foydalanish orqali amalga oshirish alohida e’tirof etilmoqda. baholaydi.

Dunyo miqyosida ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol o‘qitish texnologiyalari orqali ta’lim metodikalarini takomillashtirishga etibor qaratilib kelinmoqda va turli ta’lim metodikalarni ta’lim jarayonlariga tatbiq etish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta’lim tizimidagi keskin rivojlanish faqatgina interfaol o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali emas balki, talabalarni innovatsion fikrlashga o‘rgatuvchi interfaol texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llagan holda shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda sifatli ta’lim berish va talabalarga samarali o‘qitishga qaratilgan metodikalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishga oid bir qancha qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” [1] ustuvor vazifa qilib belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Talabalarni ijodkorlik va yangiliklar yaratishga o‘rgatish, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishi uchun ta’lim jarayonida talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan interfaol o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish o‘ta muhim masala hisoblanadi.

Bugungi kunda shaxsni emas, balki uning rivojlanish jarayonini boshqarish zarurati tobora oydinlashib bormoqda. Bu esa o‘qituvchi faoliyatida bilvosita pedagogik ta’sirga ustuvorlik berilishini bildiradi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullar, shior va murojaatlardan voz kechiladi, haddan tashqari didaktiklik, pedagogika cheklanadi; muloqotning o‘rniga dialogik usullari, haqiqiy muammoning yechimini birgalikda izlash, zamonaviy ta’lim sharoitlarini yaratish orqali turli ijodiy faoliyatni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Axborot texnologiyalari yordamida o‘tkaziladigan darslarda talabalar o‘qituvchi bilan teng ravishda o‘zlarini faol va erkin tuta oladilar. Darslarga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali dars faolligini oshirish, rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida o‘z g‘oyasini amalga oshirish, darsni tez va samarali o‘rgatish, mustaqil ish hajmini oshirish mumkin.

AKTdan turli darslarga taqdimotlar tayyorlab, interfaol doska imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olsangiz, dars yanada jozibali va qiziqarli o‘tadi va talabaning faolligi oshadi. Har bir darsda o‘qituvchi internet, elektron pochta, elektron darsliklar va global axborot tizimlaridan foydalana olishi kerak. Interfaol usullarning muhim xususiyati va xarakteristikasi sub’ektlarning o‘zaro ta’sirining bir tomonlama faolligi, ishtirokchilarning o‘zaro ta’siri, hissiy va ma’naviy birligidir. Interfaol usullardan foydalanganda talabalar tushunish jarayonining to‘laqonli ishtirokchisiga aylanadilar, ularning tajribasi bilimlarni o‘rganishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi tayyor bilim bermaydi, balki talabalarni o‘zlarini izlashga o‘rgatadi. An’anaviy ta’lim shakllari bilan taqqoslaganda, interaktiv ta’limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘zgaradi: o‘qituvchining dars jarayonidagi faolligi kamayadi, talabaning esa topshiriqlarni mustaqil bajarish tashabbuskorligi uchun sharoit yaratadi.

Darsini o‘tkazishda didaktik vazifalarga mos keladigan usullarni tanlash juda muhimdir. Darsda qo‘llaniladigan rolli o‘yinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, bahs-munozaralar, talabalarning hisobotlari va axborot xabarlari, ma’ruzalar, dialoglar, treninglar, jamoaviy kognitiv o‘qish, taqlid qilish usullari yuqori faollikni rivojlantirishning ushbu usulining belgilaridir.

Interaktiv usullar juda ko‘p. Agar darslarimda foydalanadigan usullarga to‘xtaladigan bo‘lsak:

-juftlikda ishlash
-doira
-kichik guruhlarda ishlash
-akvarium
-aqliy hujum
-hisoblash daraxti
-o‘z pozitsiyangizni egallash
-munozara va boshqalar.

Yangi darsni tushuntirishda dars mazmunini tayyor shaklda bermaslikka harakat qilamiz. Talabalarga o‘z bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga, yangi mavzu bo‘yicha ta’rif va qoidalarni shakllantirish va

shakllantirishga yordam beramiz. Buning uchun darsda o‘qitishning interfaol shakllaridan foydalanamiz. Bularga quyidagilar kiradi:

-ijodiy vazifalar, loyihalar.

-blok diagrammalar, identifikatsiya, diagrammalar, xaritalar.

-yordamchi - chizmalar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar va ma’lumot vositalari.

-o‘yinlar orqali o‘rganish.

-so‘zli boshqotirmalar, rebuslar.

-mantiqiy vazifalar.

-sinov va nazorat va boshqalar

“Aqliy hujum” har qanday talaba berilgan savolga javob bera oladigan usuldir. Muhimi, aytilgan nuqtai nazarni darhol baholamaslik, hamma narsani qabul qilish kerak va ularning har bir fikrini doskaga yoki qog‘ozga yozib qo‘yish yaxshiroqdir. Ishtirokchilar savolni asoslash yoki tushuntirish talab qilinmasligini tushunishlari kerak. fanini o‘qitishda “Aqliy hujum” usuli juda muhim. Chunki bu usulni o‘qitishda qo‘llash natijasida talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ijodkorligi rivojlanadi, o‘zaro munosabat darajasi oshadi.

“Doira” deb nomlangan usul talabalarga juda yoqadi:

Ikki halqa yaratiladi. Ichki va tashqi halqalar. Ichki halqa o‘tirgan talabalardir. Tashqi halqada talabalar navbatma-navbat bo‘lib, ichki halqadagilarga savol beradilar. Ushbu usul muammoni ko‘rib chiqishda foydalanish uchun qulaydir. Masalan, chiqishda tashqi halqa savollar beradi va ichki halqadagi talabalar savollarga javob beradilar va ularni noutbuklarida ko‘rsatadilar. Bu usul har bir talabaning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganini yaqqol ko‘rsatadi. Biz ham darslarimizda “Akvarium” usulidan tez-tez foydalanamiz, bu esa talabalardan matndan olgan bilimlarini umumlashtirish, amaliyot bilan bog‘lash va uni isbotlashni talab qiladi. Talaba muammoni sabablarini aniqlaydi, dalillar keltiradi va berilgan baliq skeleti bo‘yicha xulosalar chiqaradi. Masalan, mavzu bo‘yicha talabalarga muammo va uni yechish yo‘llarini aniqlash vazifasi beriladi. Talabalar o‘z fikrlarini kundalik hayot bilan bog‘laydilar va har tomonlama javob beradilar. Darsda “Bilaman, bilmoqchiman” strategiyasidan foydalanish juda muhim. Masalan, dars boshida jadvalning “Bilaman” bo‘limida bo‘limiga ko‘ra oldingi jadval bo‘yicha bilganlarini, “Bildim ”bo‘limiga bo‘yicha o‘rganganlarini, “Bilmoqchiman” bo‘limiga esa kelajakda o‘rganmoqchi bo‘lgan savollarni yozadilar. Amaliy darslarda “Mantiqiy topshiriqlar” metodidan foydalanish mumkin. Qog‘ozga yozilgan turli topshiriqlar qutichaga joylashtiriladi. Talabalar kompyuterda olgan topshiriqlarini bajaradilar. Darsning yangi mavzu bo‘limini tushunishda “Almashtiruvchi uchlik” usulidan foydalanish samaralidir. Bu vazifa kichik guruhlarda bajariladi, talabalar birgalikda ishlaydi. O‘quv materiallarini samarali o‘rganishga moslashtiradi.

Kim chaqqon o‘yini - bu muayyan xatti-harakatlar yoki hissiy jihatlarni o‘zlashtirish uchun kompyuter vazifalari va oldindan ajratilgan rollardan foydalangan holda ishtirokchilar guruhlari tomonidan hayotiy vaziyatlarni bosqichma-bosqich o‘ynash. Rolli o‘yinlar kichik guruhlarda (3-5 ishtirokchi) o‘tkaziladi. Ishtirokchilar tarqatma matriallar yordamida topshiriq oladilar (doskada, qog‘oz varaqlarida va hokazo), ishtirokchi sifatida rollarni taqsimlaydilar, turli vaziyatda ishtirok etib uni butun guruhga taqdim ko‘rsatadilar. O‘qituvchi talabaning xatti-harakatlarini hisobga olgan holda savol va javoblarni o‘zi taqsimlaydi.

Bu usulning afzalligi shundaki, har bir ishtirokchi berilgan savollarga javob berish orqali olgan bilimlarini ko‘rsatadi hamda u yoki bu vaziyatni juda real kuzatib, u yoki bu harakatning oqibatlarini his qiladi va muammo yuzasidan qaror qabul qiladi.

Kichik guruhlarda ishlash darsida talabalar uchun profilaktik ta’lim jarayoniga yaqinlashishi uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Bunda eng samaralisi guruhlar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Bunday hollarda o‘qituvchi diagnostika va monitoringni amalga oshiradi, o‘quv muhitini tashkil qiladi va boshqa manbalar mavjud bo‘lmasa, dastlab talabalarga yordam beradi. Metodikaning bu shakli muayyan hodisalarning o‘xshashligi yoki farqini ochib berish, ishtirokchilarning turli guruhlarini bir va bir xil masalaga munosabatini aniqlash zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

Test va nazorat testlari usulidan foydalanib, darsida talabalarning bilish darajasi yoki muhokama qilinayotgan mavzuga munosabati aniqlanadi. Testlarni o‘tkazishning to‘g‘ri usuli quyidagilarga mos bo‘lishi kerak ular:

-malakali,

-tushunarli tilda yozilishi va talabalarning his-tuyg‘ularini himoya qilishi kerak.

Test savollarini olgan talabalar ularni diqqat bilan o‘qib chiqishlari va javob variantlarini tegishli joylarda belgilashlari kerak. Keyin, agar test yashirin bo‘lmasa, javoblar auditoriya yoki guruhlarda muhokama qilinadi. O‘qituvchilar yashirin testning xulosasini tuzadilar. Muntazam test natijalari

o‘qituvchilar tomonidan javoblarni talabalar bilan muhokama qilgandan so‘ng chiqariladi. Umumiy qilib aytganda, yangi usullarni joriy etish orqali quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

-talaba shaxsini rivojlantirish, ijodkorlikni oshirish va kasbiy o‘ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradi;

-o‘z fikrini ifoda etishga, har tomonlama izlanishga o‘rgatadi;

-ijodiy faollikni oshiradi va jamoada birgalikda ishlashga tarbiyalaydi;

o‘z-o‘zini boshqara oladigan, axborot texnologiyalarini yaxshi biladigan, ta’limni yuqori sifat darajasiga erishgan shaxsni shakllantiradi.

Binobarin, yangi metod va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya jarayoni talabalarning fikrlash qobiliyatini yangicha shakllantirib, ularda tizimli bog‘lanish hamda qonuniyatlarni topish imkonini beradi va buning natijasida yuksak kasbiy rivojlanishga olib keladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ishonchimiz komilki, zamonaviy jamiyatda talabalarning fikrlash qobiliyatini, axborot madaniyatini rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarning samaradorligi juda yuqori bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, interfaol ta’lim kognitiv faoliyatni tashkil etishning alohida shaklidir. U to‘liq aniqlik va bashorat qilinadigan maqsadlarni ta’minlaydi. Bunday maqsad natijasida talabalar o‘z muvaffaqiyatlarini, intellektual sharoitlarini, o‘quv jarayonida qanday samarali mehnat qilishlari kerakligini his etadilar va o‘zlari uchun qulay o‘quv muhitini yaratadilar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Turdiyev Sh. R. Steam fanlar ta’limi va integrationsini yuzaga kelishi modeli //Ta’lim fanlaridagi akademik tadqiqotlar. – 2022. – T. 3. – №. 4. – S. 571-575.

3. Turdiyev S. R. (2022, April). Modellar xarakteri va modellashtirish jarayonlarining tarkibiy qismlari. In *E Conference Zone* (pp. 136-137).

4. Shadiyev R.D., Yozieva U.L.On problems of safe information impact of Internet on students. European Science Review. Vienna, № 1–2. 2015. rr.49-51.

5. Turdiyev S. R. Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 1597-1601.

6. Турдиев Ш.Р. (2019). Таълим жараёнини тизимли ёндашув асосида педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш. *Современное образование (Узбекистан)*, (12 (85)), 31-36.

7. Турдиев Ш.Р., Кельдиярова М.Г. Организация в процессе обучения учебно-исследовательской работы студентов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 21-25.

8. Турдиев Ш. Р., Келдиёрова М.Г. Личные и профессиональные особенности учителя //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 6-1 (151). – С. 67-72.

9. Turdiyev, Shokhrukh R. “Forming Innovative Abilities of Students in Engineering and Research.” Eastern European Scientific Journal 1 (2017).

10. Турдиев Ш.Р. (2019). Таълим жараёнини тизимли ёндашув асосида педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш. Современное образование (Узбекистан), (12 (85)), 31-36.

11. Shokirova D.O. Types of integration in the use of their technologies in education and their goals. Ta‘lim, va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2024/№ 5 B 341-346 ISSN 2181-1709 (p), issn 2181-1717 (e) https://interscience.uz

12. Shokirova D.O. Kelajak shaxsini tarbiyalash: fan, qadriyat va texnologiyalar sari. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 9-son (2025-yil, sentabr) Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan Buxoro – 2025-yil B 145-150 bet.

UO’K 159. 923

PSIXOLOGIYA FANIDA O‘QUV MOTIVLARINING O‘RGANILISHI BO‘YICHA META-TAHLIL

Toshqo‘ziyeva Dildora Shukurjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti,
Farg‘ona, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0001-7787-8319,
dildorashukurovna@mail.ru

Mazkur maqolada psixologiya fanida o‘quv motivlarining o‘rganilishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar meta-tahlil asosida bayon qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli ilmiy manbalarda o‘quv motivatsiyasining shakllanishi, rivojlanishi hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan empirik va nazariy ishlarni tizimli ravishda umumlashtirishdan iborat. Meta-tahlil jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari hamda dissertatsiya tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilindi. Adabiyotlarning o‘rganilishi natijalariga ko‘ra, o‘quv motivlari shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillari bilan uzviy bog‘liq murakkab psixologik tizim ekanligini anglash mumkin. Shuningdek, o‘quv motivatsiyasining rivojlanishiga ta’lim muhitining ta’siri, pedagogik va psixologik yondashuvlar, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarning sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Meta-tahlil natijalari psixologiya sohasida o‘quv motivatsiyasini shakllantirish hamda uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘quv motivlari, motivatsiya, meta-tahlil, ta’lim jarayoni, psixologik omillar, o‘quv faoliyati, motivatsion soha*

МЕТА-АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ

В данной статье на основе метаанализа анализируются научные исследования, проведенные в области психологии. Главная цель исследования – систематическое обобщение эмпирических и теоретических работ по формированию, развитию и роли учебной мотивации в образовательном процессе из различных научных источников. В процессе анализа сравнительно анализировались научные статьи, монографии и диссертации отечественных и зарубежных ученых. По результатам исследования литературы можно понять, что учебная мотивация представляет собой сложную психологическую систему, неразрывно связанную с когнитивными, эмоциональными и социальными факторами личности. Также на развитие учебной мотивации существенно влияют образовательная среда, педагогические и психологические подходы, личные потребности и интересы. Результаты анализа служат важной теоретической основой для разработки научно-практических рекомендаций, направленных на формирование и развитие учебной мотивации в области психологии.

Ключевые слова: *учебные мотивы, мотивация, метаанализ, образовательный процесс, психологические факторы, учебная деятельность, мотивационная сфера*

META-ANALYSIS OF THE STUDY OF LEARNING MOTIVES IN PSYCHOLOGY

This article analyzes the scientific research conducted in the field of psychology on the basis of meta-analysis. The main goal of the study is to systematically summarize empirical and theoretical works on the formation, development and role of learning motivation in the educational process in various scientific sources. In the process of analysis, scientific articles, monographs and dissertations of domestic and foreign scientists were comparatively analyzed. According to the results of the literature study, it can be understood that learning motivation is a complex psychological system inextricably linked with cognitive, emotional and social factors of the individual. Also, the development of learning motivation is significantly affected by the influence of the educational environment, pedagogical and psychological approaches, personal needs and interests. The results of the analysis serve as an important theoretical basis for developing scientific and practical recommendations aimed at the formation and development of learning motivation in the field of psychology.

Keywords: *learning motives, motivation, meta-analysis, educational process, psychological factors, learning activity, motivational sphere*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida har bir shaxsni intellektual jihatdan rivojlantiruvchi muhim psixologik omillardan biri o‘quv motivatsiyasi hisoblanadi. O‘quv motivlari talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va faoliyatga yo‘naltirilganligini belgilab beruvchi psixologik mexanizm sifatida ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘quv motivatsiyasining shakllanishi, rivojlanishi hamda unga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish psixologiya fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Psixologiya fanida motivatsiya muammosi turli nazariy yondashuvlar doirasida keng tadqiq qilingan. Xususan, motivatsiyaning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari masalasi ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. O‘quv faoliyati motivatsiyasini o‘rganish jarayonida shaxsning ichki va tashqi motivlari, kognitiv qiziqishlari, ehtiyojlari hamda ijtimoiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida o‘quv motivlarining shakllanishi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga, balki shaxsning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va kasbiy yo‘nalganligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida yuz berayotgan ijtimoiy-texnologik o‘zgarishlar, xususan, raqamli va masofaviy ta’lim shakllarining kengayishi o‘quv motivatsiyasini yangi sharoitlarda qayta tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar o‘quv motivatsiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, uning akademik natijalar bilan bog‘liqligi hamda ta’lim jarayonidagi psixologik mexanizmlarini turli metodlar orqali o‘rganib kelmoqda. Biroq mazkur tadqiqotlarning natijalari turli yondashuvlar va metodologik asoslar bilan farqlanishi sababli ularni umumlashtirish hamda tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, meta-tahlil usuli mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish, ularning o‘zaro uyg‘un va farqli jihatlarini aniqlash hamda o‘quv motivlari muammosining nazariy-metodologik asoslarini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. Meta-tahlil orqali o‘quv motivatsiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash, turli tadqiqot natijalarini taqqoslash va ularning ilmiy xulosalarini tizimlashtirish mumkin. Mazkur maqolaning maqsadi ham psixologiya fanida o‘quv motivlarining o‘rganilishi bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni meta-tahlil asosida ko‘rib chiqish, ularning nazariy va empirik natijalarini umumlashtirish hamda o‘quv motivatsiyasi muammosining zamonaviy ilmiy talqinlarini aniqlashdan iborat. Zamonaviy ta’lim tizimida bilim olish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi darajasiga bog‘liq. O‘quv motivlari shaxsning bilishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi hamda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini belgilab beruvchi muhim psixologik omil sifatida ta’lim jarayonining markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli o‘quv motivatsiyasining shakllanishi, rivojlanish mexanizmlari va unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganish psixologiya fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim jarayonining an’anaviy shakllaridan masofaviy va aralash ta’lim formatlariga o‘tish talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi, ichki motivlari va mustaqil o‘qish ko‘nikmalariga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bu esa o‘quv motivlari muammosini kompleks va tizimli tarzda tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Psixologiya fanida o‘quv motivatsiyasiga oid ko‘plab nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning natijalari turli metodologik yondashuvlar, tadqiqot sharoitlari va tanlangan namunalarga ko‘ra farqlanadi. Mazkur holat o‘quv motivlari muammosiga oid ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish, ularni tizimli ravishda tahlil qilish hamda mavjud ilmiy natijalar o‘rtasidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan meta-tahlil usuli turli tadqiqotlar natijalarini integratsiyalash, ularning ilmiy xulosalarini solishtirish va muammoning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqurroq ochib berishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Shu sababli psixologiya fanida o‘quv motivlarining o‘rganilishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni meta-tahlil asosida tahlil qilish, ularning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtirish hamda o‘quv motivatsiyasi muammosining zamonaviy ilmiy talqinlarini aniqlash mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Psixologik adabiyotlarda motiv va motivatsiya muammosiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar salmog‘i yuqori. Ularda asosiy e’tibor o‘quv faoliyati dinamikasi, muloqotda kompetensiyaviylik, ta’lim faoliyatining tuzilishi kabi masalalardan kelib chiqqan holda motivlar izohlanishi yo‘lga qo‘yilgan. Chunonchi, O‘zbekistonda olib borilgan bir qator tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganishga qaratilgan. G.D.Qo‘ldosheva dissertatsion tadqiqotida talabalar o‘quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganish maqsadi asosida eksperimental natijalarni qo‘lga kiritgan. Empirik ma’lumotlarga binoan, motiv va motivatsiya talabalar o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda ijtimoiy-psixologik omil ekanligi aniqlangan [3].

N.T.Norqulova affiliatsiya motivi fenomenini talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida tadqiq etgan [2]. Tadqiqot jarayonida bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 1-4 kurs talabalaridagi affiliatsiya motivi va uning inson ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi omillarni tahlil qiladi. Ma’lumki, affiliatsiya motivi bu aloqadorlik bo‘lib, u shaxsning boshqalar bilan yaqinlik, do‘stlik va ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalovchi psixologik motiv hisoblanadi. Bu orqali har bir shaxs yolg‘izlikdan qochishi, guruhga mansublikni his etishi va ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lishi ta’minlanadi.

N.H.Xolyigitova va R.Z.Asamovalar o‘quvchilarda kasb motivlarining barqarorligiga guruhiy jipslilikning ta’sirini o‘rganganlar [1, 5]. Olimalar tadqiqot jarayonida geshtaltpsixologiya va gumanistik psixologiya nazariyalariga tayangan holda xulosalarni ishlab chiqadilar.

N.S.Jo‘rayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qish motivlari muammosi kichik maktab yoshi davridagi o‘quvchilarda bilim egallashga hamda baho olishga bo‘lgan intilishlarini ifodalashi aniqlangan [4].

F.I.Haydarov izlanishlarida esa qishloq maktablari o‘quvchilarida o‘qish motivlarini shakllantirish masalasiga bag‘ishlanadi. Unga ko‘ra, shahar va qishloq maktablarida o‘qish motivlari o‘zaro tafovutga ega bo‘lishi isbotlangan. Natijada o‘quv motivlarining xususiyatlari va iyerarxiyasi namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi [6].

Motiv va motivatsiya masalasi rus olimlari tomonidan keng miqyosda tadqiq etilganligi diqqatga sazovor, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada olib borilgan izlanishlardan biri E.V.Sinisinaga tegishli bo‘lib, u o‘quv motivlarining psixofiziologik tavsifini ishlab chiqqan [7]. Olima motivatsiyani talabalarning o‘quv faoliyatini amalga oshirishda muhim omil ekanligiga urg‘u beradi hamda ushbu muammo unga qadar psixofiziologik omillar sifatida yetarlicha o‘rganilmaganligi, diagnostik va korreksion ishlar ta’lim sifatini oshirishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi.

R.I.Svetkova kasbiy shakllanish jarayonida motivatsion sohaning shakllanish omillari va vositalarini tahlil qiladi [11]. U o‘z izlanishlari davomida motivatsion sohaning talaba shaxsi shakllanishiga ta’sirida aniq faoliyatda amaliy va nazariy muammolariga yetarlicha e’tibor qaratilmaganini ta’kidlab o‘tadi. Psixologning fikricha, shaxs motivatsion sohasining asosiy funksiyalari kognitiv, rag‘batlantiruvchi, tartibga soluvchi, ijro etuvchi, baholovchi, undovchi, energetik, emotsional-dinamik funksiyalar hisoblanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar tizimi, ta’lim va tarbiya jarayoni, mehnat faoliyati, axloqiy takomillashuv jarayoni faoliyat motivatsiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi asoslab beriladi.

O.A.Chadenkova turli oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘quv motivlarining pedogogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etadi [8]. Olima oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning o‘quv faoliyati motivlari ularning intellektual, shaxsiy va jins-yosh xususiyatlariga, shuningdek, o‘quv yurtining kasbiy profiliga qarab, o‘quv faoliyatida namoyon bo‘ladigan tashqi va ichki psixologik omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkinligini ta’kidlaydi.

M.V.Lyax o‘quv-kasbiy motiv turlari va ularning talabalik davrida rivojlanishini tadqiq etadi [9]. Unga ko‘ra, talabalik davrida o‘quv-kasbiy motivlari asosiy o‘rinni egallaydi. Negaki, talaba ma’lum bir mutahassislikni egallay olishi uchun bu muhimligini anglaydi.

B.X.Umarova kredit ta’lim tizimida talabalarning o‘quv faoliyati motivlarini faollashtirishning ustuvorligi bo‘yicha izlanishlar olib boradi. Faollashtirish bu talabalarda mavjud bo‘lgan motivlarni faollashtirish orqali ularni o‘quv jarayonida yetakchi omilga aylantirish va rivojlantirishdan iborat jarayon hisoblanadi. Kredit tizimida talaba asosan, mustaqil ish olib boradi va baholanishda raqobat yuzaga keladi. Natijada, tadqiqotchi o‘quv motivlari ortishi mumkin deb hisoblaydi va buni o‘z tadqiqotlarida izohlab o‘tadi [10].

Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiyaning o‘rganilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Rensis Likert boshqaruv va rahbarlik faoliyatida motivatsiyaning ahamiyatini tahlil qiladi. Olim motivatsiyani boshqaruvning “yuragi” deb ataydi. Har qanday holatda ham muvaffaqiyatning asosiy omili insonlarning ichki rag‘bati, ya’ni motivatsiyasi hisoblanadi. Rahbarning vazifasi faqat buyruq berish emas, balki xodimlarni ilhomlantirish va ularning ehtiyojlarini tushunishdir. Agar xodimlar motivatsiyalangan bo‘lsa, ular samaraliroq ishlaydi, tashabbus ko‘rsatadi va maqsadlariga erishishi osonlashadi.

Robert Dubin ham boshqaruv motivatsiyasining o‘ziga xos tomonlarini o‘rgangan. Uning nazariyasiga ko‘ra, motivatsiya bu tashkilot doirasida shaxsni mehnat faoliyatini boshlashga undovchi hamda uni mazkur faoliyatda barqaror ravishda davom ettirishni ta’minlovchi murakkab ichki va tashqi kuchlar majmuasidir. U shaxsni muayyan harakatga yo‘naltiruvchi va allaqachon boshlangan faoliyat jarayonining izchilligini saqlab turuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Edvard Deki va Richard Ryanlar zamonaviy psixologiyada motivatsiya nazariyasini rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan psixologlar hisoblanishadi. Ular motivatsiyani shaxsning ichki ehtiyojlari va o‘z-o‘zini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayon sifatida talqin qiladilar. Olimlarning ta’kidlashicha,

motivatsiya bu shaxsning xulq-atvorini boshlovchi, yo‘naltiruvchi va uni davom ettiruvchi ichki hamda tashqi omillar tizimi bo‘lib, u ayniqsa, shaxsning avtonomligi, kompetentligi va ijtimoiy aloqadorlik, ya’ni bog‘liqlik ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan belgilanadi. Ushbu jarayon shaxsning o‘z-o‘zini belgilashi asosida faoliyatga jalb etilishi va unda barqaror ishtirokini ta’minlashini tahlil qiladi [12].

O‘quv motivatsiyasi psixologiya fanida ko‘plab nazariy va empirik tadqiqotlar markazida bo‘lib kelgan. Meta-tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli nazariy yondashuvlar, jumladan, Deki va Ryan tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi o‘quv motivatsiyasining ko‘p omilli va murakkab tabiatini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv motivatsiyasi faqat individual psixologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, pedagogik yondashuvlar va ta’lim sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq ekan. Xususan, ichki motivatsiya (qiziqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi) o‘quv faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya (rag‘bat, baholash tizimi) qisqa muddatli natijalarni yaxshilashga xizmat qilsa-da, uning uzoq muddatli samarasi cheklanganligi aniqlangan.

Meta-tahlil doirasida o‘rganilgan tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, o‘qituvchining motivatsion strategiyalari, o‘quv muhitining qo‘llab-quvvatlovchi xarakteri va talabalar bilan ijtimoiy-psixologik munosabatlar darajasi o‘quv motivatsiyasining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi

Natija va muhokama. Olib borilgan meta-tahlil asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

O‘quv motivatsiyasi ko‘p komponentli tizim bo‘lib, ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Ichki motivatsiya o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati, mustaqil fikrlashi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirish darajasi bilan ijobiy bog‘liq.

Tashqi motivatsiya omillari qisqa muddatli rag‘batlantirishda samarali bo‘lsa-da, ular doimiy motivatsiyani ta’minlashda yetarli emas.

Ijtimoiy muhit, xususan, o‘qituvchi va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar motivatsiyaning muhim determinantlaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarini qondirish motivatsiya darajasini sezilarli oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quv motivatsiyasi psixologiya fanida murakkab, ko‘p qirrali va dinamik hodisa sifatida talqin qilinadi. Meta-tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda faqat tashqi rag‘batlantirish omillariga tayanish yetarli emas, balki ta’lim oluvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, ta’lim tizimida motivatsiyani oshirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash, o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, zamonaviy psixologik nazariyalar o‘quv motivatsiyasini oshirishning ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Asamova R. Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 2002. – 180 b.

2. Norqulova N. T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 2017. – 130 b

3. Qo‘ldosheva G. D. Talabalar o‘quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar: psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 2011. – 125 b.

4. Jo‘rayev N.S. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 2009. – 164 b.

5. Xolyigitova N. H. O‘quvchilardagi kasb motivlari barqarorligiga guruhiy jipslikning ta’siri: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 2019. – 121 b.

6. Haydarov F.I. Qishloq maktablari o‘quvchilarida o‘qish motivlarini shakllantirish: psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.- T.: 1996. – 133 b.

7. Синицына Э.В. Психофизиологические характеристики учебной мотивации студентов: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. - 2004. – 13 с.

8. Чаденкова О. А. Психолого-педагогические особенности мотивов учебной деятельности студентов различных вузов: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. - 2003. – 13 с.

9. Лях М. В. Виды мотивов учебно-профессиональной деятельности, их развитие в студенческом возрасте: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. - М.: 2012. – 19 с.

10. Умарова Б.Х. Приоритетность актуализации мотивов учебной деятельности студентов в условиях кредитной технологии обучения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. - Д.: 2010. – 15 с.

11. Цветкова Р.И. Мотивационная сфера личности современного студента: факторы, условия и средства ее формирования в процессе профессионального становления: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. - И.: 2007. – 37 с.

12. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions // Contemporary Educational Psychology. — 2000. — Vol. 25, №1. — P. 54–67.

9-11-SINFLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Sadulloyeva Maxfuza Gaybulloyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Umumiy pedagogika kafedrasi dotsenti
Ubaydullayeva Xurshida Xolmurod qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Umumiy pedagogika kafedrasi magistranti

Ushbu maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari, uning pedagogik mohiyati va ta’lim jarayonidagi o‘rni, bugungi kundagi o’quvchilarda tanqidiy fikrlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, interfaol metodlar va o‘qituvchining pedagogik mahorati bilan bog‘liq jihatlar yoritilgan. Bugungi kundagi yuqori sinf o’quvchilari va ularning psixologiyasi, ularga tanqidiy fikrlash qay darajada muhimligi, bu jarayonda pedagogning qanday ahamiyat kasb etishi ham ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so’zlar: *tanqidiy fikrlash, refleksiya, interfaol metod, shaxsiy rivojlanish, mantiq, mantiqiy tahlil, mantiqiy tafakkur, ijtimoiy tarmoq, innovatsion ta’lim, pedagogik omil, psixologik omil, pedagog, idrok etish.*

PRACTICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN GRADES 9–11

This article analyzes the theoretical foundations of developing critical thinking in students, its pedagogical essence, and its role in the educational process, as well as the importance of critical thinking for students today. Furthermore, it highlights methodical approaches, interactive methods, and aspects related to the teacher's pedagogical skill that serve to develop critical thinking. The article also covers high school students of today and their psychology, the extent to which critical thinking is important for them, and the significance of the pedagogue in this process.

Keywords: *critical thinking, reflection, interactive method, personal development, logic, logical analysis, logical thinking, social network, innovative education, pedagogical factor, psychological factor, pedagogue, perception.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В 9–11 КЛАССАХ

В данной статье анализируются теоретические основы формирования критического мышления у учащихся, его педагогическая сущность и роль в учебном процессе, а также значимость критического мышления для современных учеников. Также освещаются методические подходы, интерактивные методы и аспекты, связанные с педагогическим мастерством учителя, способствующие развитию критического мышления. В статье рассматриваются современные учащиеся старших классов и их психология, степень важности критического мышления для них и роль педагога в этом процессе.

Ключевые слова: *критическое мышление, рефлексия, интерактивный метод, личностное развитие, логика, логический анализ, логическое мышление, социальная сеть, инновационное образование, педагогический фактор, психологический фактор, педагог, восприятие.*

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki mustaqil fikrlash, ularni erkin tahlil qila olish, dalillarga asoslangan holda xulosa chiqarish va yangicha qarorlar qabul qila olishni talab etadi. Bunday jarayon esa tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda butun dunyo miqyosida ta’limning asosiy maqsadi – bu axborotga to‘la muhitda yo‘qolib qolmaydigan, ma’lumotni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, ongli ravishda qarorlar qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun,[1] “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030” hamda Prezidentning ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlarida zamonaviy fikrlovchi, ijodkor va tanqidiy tahlilga qodir shaxsni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [3]. Bu esa pedagoglardan

an’anaviy o‘qitishdan voz kechib, o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etish, dars jarayonida turli xil metod va texnologiyalarni qo‘llashni talab etmoqda.

Tanqidiy fikrlash – bu insonning muammolarni chuqur anglash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, hammadan boshqacha tarzda fikrlash, dalillarni solishtirish va asosli qaror qabul qila olish qobiliyatidir. U nafaqat mantiqiy tafakkurni, balki shaxsiy mas’uliyatni, tahliliy yondashuvni, kommunikativ kompetensiyani ham shakllantiradi. Shu bois tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat aqliy, balki ma’naviy va ijtimoiy tarbiya bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda o‘quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o‘rganilayotgan jarayonning faol ishtirokchisi bo‘lishi zarur. O‘qituvchining vazifasi esa unga tayyor bilimni yetkazish emas, balki bilimni mustaqil izlab topish, uni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu ma’noda, tanqidiy fikrlash o‘quvchi shaxsining intellektual va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Yuqori sinf o’quvchilari raqamli dunyoning eng faol foydalanuvchilaridandir. Tanqidiy fikrlash bu yerda “immun tizimi” vazifasini o’taydi. Reklamalar, siyosiy tashviqotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar ko’pincha his-tuyg’ularga ta’sir qilish orqali mantiqni chetlab o’tadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, muloqot madaniyatini oshiradi va qaror qabul qilish mas’uliyatini mustahkamlaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi interfaol metodlardan foydalanishi, muammoli vaziyatlar yaratishi hamda har bir o‘quvchining fikrini qadrlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tushunchasi inson tafakkurining eng yuqori bosqichini ifodalaydi. Uning mohiyati esa axborotni idrok etish, tahlil qilish, baholash va o‘z fikrini asosli tarzda ifoda etish jarayonidan iborat bo’ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda tanqidiy fikrlash – bu o‘quvchining bilimga faol munosabatini shakllantiruvchi, mustaqil tarzda qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan tafakkur turi hisoblanadi. Amerikalik olim J. Dewey tanqidiy fikrlashni “ongli tafakkur jarayoni, insonning fikrni tekshirish va dalillashga asoslangan tahliliy faoliyati” [5,90] deb izohlaydi. D. Halpern esa uni “aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mantiqiy, tahliliy va dalillarga asoslangan fikrlash jarayoni” sifatida talqin etadi. Shuningdek, *Benjamin Bloom* tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv maqsadlar taksonomiyasi (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash) tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar tanqidiy fikrlashni faqat aqliy faoliyat emas, balki shaxsiy, ijtimoiy va madaniy tajriba bilan bog‘liq jarayon sifatida ham ko‘rsatadi [6,125].

Psixologik jihatdan, tanqidiy fikrlash tafakkurning mantiqiyligini, tahliliyligini, reflektivligini va ijodkorlik elementlarini o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun u ta’lim jarayonida shaxsning bilish faoliyatini chuqurlashtiradi va o‘quvchining kognitiv bilish mustaqilligini shakllantiradi.

Bugungi kundagi ta’lim tizimida o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol o‘rganuvchi sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa o‘qituvchining darsni tashkil etishdagi yondashuvini tubdan o‘zgartiradi. An’anaviy, reproduktiv o‘qitish o‘rniga, o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mantiqan fikrlashga undovchi metodlar qo‘llanilishi zarurligini bildiradi. Tanqidiy fikrlashning pedagogik zarurati bir necha omillar bilan belgilanadi:

-birinchidan, zamonaviy axborot oqimida o‘quvchining mustaqil tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish – hayotiy zaruratdir;

-ikkinchidan, tanqidiy fikrlash o‘quvchida mantiqiy va ijodiy tafakkur uyg‘otadi, bu esa fanlararo bilimlarni integratsiya qilish imkonini yaratadi;

-uchinchidan, u o‘quvchini erkin fikr bildirish, dalil keltirish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga o‘rgatadi;

-to’rtinchidan, tanqidiy fikrlovchi shaxs jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatli, ongli qaror qabul qila oladigan fuqaroga aylanadi. Bu omillar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining, balki shaxs tarbiyasining ham ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi davr ta’lim tizimida o‘quvchilarning shunchaki bilim egallashi emas, balki mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Jahon ta’lim tajribasi ko‘rsatadiki, kelajakda muvaffaqiyat qozonadigan shaxs – bu tayyor bilimlarni yod oluvchi emas, balki mavjud ma’lumotlarni tahlil qila oladigan, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashadigan va yangi yechimlar topa oladigan insondir. Shuning uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish o‘qituvchining metodik mahoratiga, dars jarayonini qanday tashkil etishiga bevosita bog‘liqdir. Bu yo‘nalishda quyidagi metodlar o‘z samarasini bermoqda:

-muammoli o’qitish – o‘quvchi oldiga hal etilishi kerak bo‘lgan vaziyatni qo‘yish orqali uni mustaqil tahlilga undash. Masalan, “Nima uchun bu hodisa yuz beradi?”, “Boshqacha yo‘l bilan yechim topish mumkinmi?” kabi savollar tanqidiy fikrlashni faollashtiradi;

-interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Insert”, “Fishbone”, rolli o’yin, Grov va Fisherning metodlari o‘quvchini faol fikrlashga jalb etadi.

-refleksiya – o‘quvchi o‘z fikr va harakatlarini tahlil qilish, o‘z xatolarini aniqlash orqali o‘rganadi.

-debat va munozara texnologiyalari – o‘quvchilarni turli nuqtayi nazarlardan fikr yuritishga, dalillash va tanqidiy tahlil ko‘nikmasini oshirishga yordam beradi.

Metodik jihatdan bu jarayonning muvaffaqiyati o‘qituvchi tomonidan yaratilgan psixologik muhitga ham bog‘liq. O‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, xato qilishdan qo‘rqmaydigan, rag‘batga asoslangan dars muhiti tanqidiy fikrlashning tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari abstrakt tafakkurga o‘tish bosqichida bo‘lib, bu davrda:

-mustaqil qaror qabul qilish,

-muammoli vaziyatlarni tahlil qilish

-dalil va qarama-qarshi fikrlarni solishtirish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar *Lev Vygotsky*ning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga mos keladi. Unga ko‘ra, o‘quvchi murakkab fikrlash faoliyatiga ijtimoiy muloqot va pedagogik yordam orqali erishadi [4,29]. 9-11-sinflarda fanlar murakkablashadi. Tanqidiy fikrlash fanlarni o’zlashtirishga, matematika masalalarini yechishda faqat formulaga tayanmasdan ishlashga, tarixiy voqealarga bir tomonlama emas, turli manbalar orqali qarashga yordam beradi. Konfliktli vaziyatlarni yechishda ham hissiyotlarga berilmaydi, o’z-o’zini tahlil qiladi, stereotiplarni yengishni o’rganadi. Yuqori sinf o’quvchisi kuniga o’rtacha 4-7 soat vaqtini internetda o’tkazadi. Bu yerda tanqidiy fikrlay olish “hayot-mamot” masalasi bo’lib qoladi. Ijtimoiy tarmoqlar bizga faqat biz yoqtirgan narsalarni ko’rsatadi, tanqidiy fikrlay oladigan o’quvchi o’z qarashlariga zid bo’lgan ma’lumotlarni ham o’rganib xolis xulosa chiqaradi. Shubhali havolalar va kiber-firibgarlik ortidagi mantiqiy xatolarni tezda payqay oladi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi didaktik shartlarning mavjudligi zarur:

1-faol ishtirok muhitini yaratish – o‘quvchi darsda passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishi kerak;

2-savolga asoslangan o‘qitish – “nima?”, “nega?”, “qanday?” kabi ochiq savollar orqali o‘quvchini tahlilga jalb etish;

3-metakognitiv yondashuv – o‘quvchining o‘z fikr jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish;

4. Axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish – o‘quvchiga internet, matbuot yoki darslikdagi ma’lumotlarni solishtirib, ularning ishonchliligini baholashni o‘rgatish.

Didaktik shartlar amalga oshirilgan taqdirda, o‘quvchilar o‘rganilgan materialni chuqurroq anglaydi, o‘z fikrini dalillay oladi va yangicha yondashuvlar taklif etadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchi markaziy figura hisoblanadi. U bilim manbai emas, balki o‘rganish jarayonining tashkilotchisi va yo‘lboshchisi sifatida harakat qiladi.

O‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

o‘quvchilarda savol berish madaniyatini rivojlantirish;

ularni tahlil, solishtirish va baholash faoliyatiga jalb etish;

- turli fikrlarni hurmat qilish va muhokama qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- baholashni jarayon sifatida tashkil etish, ya’ni xatoni jazolash emas, balki o‘rganish vositasi sifatida qabul qilish.

O‘qituvchining bunday faol yondashuvi o‘quvchilarda refleksiv, mustaqil va mas’uliyatli tafakkurni shakllantirishga imkon beradi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim:

o‘quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini 40–50 foizga oshiradi;

ularning muloqot madaniyati va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini kuchaytiradi;

o‘z fikrini asoslash, dalillash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlaydi. Natijada, bunday yondashuv orqali o‘quvchi nafaqat bilim egasi, balki ijtimoiy faol, ma’suliyatli, fikr yuritish madaniyatiga ega shaxs sifatida kamol topadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunga kelib tanqidiy fikrlash-bu o’quvchiga beriladigan eng katta “shpargalka” desak ham bo’ladi. Bundan tashqari xalqaro iqtisodiy forum ma’lumotlariga ko’ra tanqidiy fikrlasheng talabgir Top-5 ko’nikma ro’yxatiga kiradi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun muhimdir. Ushbu jarayon o‘quvchilarning bilimni shunchaki yod olishidan ko‘ra, uni chuqur anglash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llashga imkon beradi. Pedagogik amaliyotda muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar, aqliy hujum, kase-stadi kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash – bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarni kelajakda ongli, mas’uliyatli va ijodkor inson etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Yuqori sinf o’quvchilari uchun bu ko’nikmani

shakllantirish- uningb hayot yo’lida duch keladigan har qanday qiyinchiliklarni oson yengish uchun “qurol” bo’la oladi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning hayotiy tajribasini boyitadi, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil etish va yangicha fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari – bu o‘qituvchining interfaol metodlardan foydalanishi, o‘quvchini markazga qo‘ygan yondashuv, ijodiy muhit yaratish hamda o‘quvchini fikrlash jarayoniga faol jalb etishdir. O‘qituvchi o‘z faoliyatida o‘quvchilarga tayyor javobni bermasdan, ularni savol berishga, muhokama qilishga, dalillarni solishtirish va tahlil etishga o‘rgatishi zarur. Shuningdek, ta’lim jarayonida “muammoli ta’lim”, “aqliy hujum”, “debat”, “tahlil va sintez”, “konseptual xaritalar” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Natijada, bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘z fikrini erkin ifoda etish, mustaqil qarashlarga ega bo‘lish, tahliliy tafakkur yuritish va ijtimoiy hayotda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga yordam beradi. Shunday ekan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanib, ta’lim sifatini yuksaltirish va shaxs kamolotini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarori. – Toshkent, 2020.

3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 108 bet.

4. Hasanboeva O., Yo‘ldosheva Sh. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 320 bet.

5. Saidahmedov N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. 336 bet.

6. Abduqodirov A. A., Mavlonova R. A. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. 256 bet.

GURUHIY HAMKORLIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI PSIXOLOGIK TADQIQ QILISH

Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
umaraliyevahilola4@gmail.com

Ushbu maqolada talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish va uni rivojlantirishning psixologik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida talabalarning muloqot ko‘nikmalari, guruhiy o‘zaro ta’sir darajasi hamda ijtimoiy moslashuv xususiyatlari o‘rganildi. Psixodiagnostik tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning aksariyatida kommunikativ kompetentlikning asosiy ko‘rsatkichlari shakllangan bo‘lsa-da, ayrim talabalar muloqot jarayonida uyatchanlik, o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaslik hamda jamoa oldida gapirishda qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion usullar, xususan, psixologik treninglar, rol o‘yinlari, guruhiy muhokamalar hamda faol tinglash mashqlaridan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetentlik, psixodiagnostika, psixokorreksiya, talaba shaxsi, muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy moslashuv, guruhiy o‘zaro ta’sir, psixologik trening, faol tinglash, empatiya.*

PSYCHOLOGICAL STUDY OF GROUP COOPERATION AND COMMUNICATIVE COMPETENCE

This article analyzes the psychological aspects of diagnosing and developing students’ communicative competence. The study examined students’ communication skills, the level of group interaction, and characteristics of social adaptation. The results of the psychodiagnostic research showed that although the main indicators of communicative competence are formed in the majority of students, some students experience difficulties such as shyness, inability to express their opinions freely, and speaking in front of a group. Based on the research results, the necessity of using psychocorrective methods aimed at developing students’ communicative competence—such as psychological trainings, role-playing activities, group discussions, and active listening exercises—has been substantiated.

Keywords: *communicative competence, psychodiagnostics, psychocorrection, student personality, communication skills, social adaptation, group interaction, psychological training, active listening, empathy.*

ГРУППОВОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО И КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ: ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

В данной статье анализируются психологические аспекты психодиагностики и развития коммуникативной компетентности студентов. В ходе исследования были изучены коммуникативные навыки студентов, уровень группового взаимодействия и особенности социальной адаптации. Результаты психодиагностического исследования показали, что у большинства студентов сформированы основные показатели коммуникативной компетентности, однако у некоторых студентов наблюдаются трудности в процессе общения, такие как застенчивость, неспособность свободно выражать свои мысли и выступать перед аудиторией. На основе результатов исследования обоснована необходимость использования психокоррекционных методов, направленных на развитие коммуникативной компетентности студентов, в частности психологических тренингов, ролевых игр, групповых обсуждений и упражнений по развитию активного слушания.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, психодиагностика, психокоррекция, личность студента, коммуникативные навыки, социальная адаптация, групповое взаимодействие, психологический тренинг, активное слушание, эмпатия.*

Kirish. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ta’lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda mutaxassis nafaqat kasbiy bilimga ega bo‘lishi, balki samarali muloqot qilish, jamoa bilan ishlash hamda ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi zarur [1].

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy faoliyati va kommunikativ ko‘nikmalari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi [2]. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, guruhiy hamkorlik va ijtimoiy munosabatlar ularning shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu sababli talabalarning kommunikativ kompetentligini aniqlash, baholash hamda uni rivojlantirish bo‘yicha psixologik tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish orqali ularning muloqot darajasini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ta’lim jarayonini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarning guruh ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish jarayoni tahlil qilinib, ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar asoslab berilgan [5]. Tadqiqot davomida talabalarning muloqot jarayonidagi xususiyatlari, guruhiy o‘zaro ta’sir darajasi hamda kommunikativ ko‘nikmalari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun psixologik treninglar, guruhiy mashg‘ulotlar hamda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatdi [6].

O‘tkazilgan tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan psixologik mashg‘ulotlar, treninglar hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda foydalanish mumkin [1]. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari pedagoglar va psixologlar uchun talabalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning o‘zaro bir-birlari bilan muloqotlari ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3]. Talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish – talabalarning muloqot qilish qobiliyatini, ya’ni boshqalar bilan samarali aloqa o‘rnatish, fikrni aniq ifodalash, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini aniqlash uchun amalga oshiriladi [4]. Kommunikativ kompetentlik psixodiagnostikasi talabalarning muloqot darajasini aniqlash, muammolarni yuzaga chiqarish, ta’lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning guruhdagi o‘zaro munosabatini ijobiylashtirish, shaxsiy rivojlanishiga yordam berish uchun kerak [2].

Asosiy qism. Psixodiagnostika orqali talabalarning nutq madaniyati, tinglash qobiliyati, fikr almashish darajasi va ijtimoiy moslashuvi baholanadi. Bu ularning kommunikativ kompetentligi qanchalik rivojlanganini ko‘rsatadi [4].

Muammolarni aniqlash. Ba’zi talabalar uyatchanlik, o‘z fikrini ifoda qila olmaslik, jamoada ishlashdagi qiyinchiliklar kabi muammolarga duch kelishi mumkin. Psixodiagnostika shu kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi [5].

Ta’lim jarayonini takomillashtirish. Olingan natijalar asosida psixologlar va o‘qituvchilar muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, muhokamalar va guruhiy mashg‘ulotlarni tashkil etishlari mumkin [6].

Talabalarning guruhdagi o‘zaro munosabatlarini yaxshilash. Diagnostika orqali guruh ichidagi hamkorlik, ijtimoiy-psixologik muhit va o‘zaro ta’sir darajasi aniqlanadi. Bu esa sog‘lom jamoa muhitini shakllantirishga yordam beradi [7].

Shaxsiy rivojlanishga yordam berish. Talabalar o‘z kommunikativ qobiliyatlarini bilib, o‘z ustida ishlash, muloqot madaniyatini oshirish va kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish ta’lim jarayonida samarali muloqotni rivojlantirish, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot Shahrisabz davlat pedagogika insitituti Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabalarida o‘tkazildi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 90 %dan ortiq talabalar ijobiy javob bergan. Boshqalar bilan munosabatlarini yaxshi yo‘lga qo‘ya oladi.





Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari talabalarda kommunikativ kompetentlikning muhim jihatlari shakllanganligini ko‘rsatdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidlagan. Bu holat talabalarning guruhiy faoliyat jarayonida o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish va jamoaviy muhitda faol ishtirok etish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi [2].

Shu bilan birga, ayrim talabalar muloqot jarayonida o‘z fikrini erkin ifodalash yoki jamoa oldida gapirishda qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatilgan. Bu esa kommunikativ kompetentlikning ayrim komponentlari, xususan nutq erkinligi, o‘ziga bo‘lgan ishonch va ijtimoiy faollik yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [5].

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, talabalik davri shaxsning ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning guruhiy faoliyati, muhokama jarayonlari, seminar va amaliy mashg‘ulotlar ularning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [6]. Shu sababli ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, guruhiy mashg‘ulotlar va psixologik treninglardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar boshqa psixolog olimlarning tadqiqotlari bilan ham ma’lum darajada mos keladi. Tadqiqotchilar talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ularning ijtimoiy moslashuvi,

shaxslararo munosabatlari hamda kelajak kasbiy faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar [7].

Demak, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida psixologik treninglar, muloqotga oid mashg‘ulotlar hamda jamoaviy faoliyatni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [4]. Bunday yondashuv talabalarning muloqot madaniyatini oshirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda **psixokorreksion usullar** yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayrim talabalarda muloqot jarayonida uyatchanlik, o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaslik hamda jamoa bilan ishlashda qiyinchiliklar kuzatilishi aniqlandi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixokorreksion ishlar talabalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish hamda guruhiy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu maqsadda quyidagi psixokorreksion usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Birinchidan, “psixologik trening usuli” kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Psixologik treninglar jarayonida talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish orqali o‘z fikrini erkin ifodalash, suhbatdoshni tinglash hamda jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Trening mashg‘ulotlari talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish hamda muloqot jarayonidagi psixologik to‘siqlarni kamaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, “rol o‘yinlari usuli” ham kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul orqali talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirgan holda muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Rol o‘yinlari talabalar o‘rtasida empatiya, o‘zaro tushunish hamda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, “guruhiy muhokama usuli” talabalarning fikr almashish va o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhiy muhokama jarayonida talabalar turli masalalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirish, boshqalarning fikrini tinglash hamda muammoni birgalikda hal qilish tajribasiga ega bo‘ladilar. Bu esa talabalarning kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, “faol tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar” ham kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Faol tinglash mashqlari orqali talabalar suhbatdoshning fikrini diqqat bilan tinglash, uning mazmunini tushunish va unga mos ravishda javob qaytarish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Beshinchidan, “empatiyani rivojlantirishga qaratilgan psixologik mashqlar” talabalarning boshqalarning hissiy holatini tushunish hamda ularga nisbatan to‘g‘ri munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa talabalarning shaxslararo munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion usullar talabalarning muloqot madaniyatini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur usullarni ta’lim jarayonida tizimli ravishda qo‘llash talabalarning kelajak kasbiy faoliyatida samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari talabalarning kommunikativ kompetentligini o‘rganish va uni rivojlantirish oliy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Kommunikativ kompetentlik talabalarning samarali muloqot o‘rnatishi, o‘z fikrini aniq ifoda eta olishi, boshqalarni tinglash hamda jamoa bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda mutaxassisning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uning kommunikativ ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lganligi sababli ushbu masala psixologik va pedagogik tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi .

Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda psixokorreksion usullardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi. Xususan, psixologik treninglar, rol o‘yinlari, guruhiy muhokamalar, faol tinglash va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar talabalarning muloqot madaniyatini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi, ijtimoiy faolligini oshiradi hamda guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga yordam beradi .

Shuningdek, ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, guruhiy faoliyatni tashkil etish va psixologik treninglarni tizimli ravishda o‘tkazish talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning kelajak kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, talabalarning kommunikativ kompetentligini psixodiagnostika qilish va psixokorreksiya qilish ta’lim sifatini oshirish, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish hamda talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Karimova V.M. “Ijtimoiy psixologiya asoslari.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2. G‘oziev E.G‘. “Umumiy psixologiya.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Davletshin M.G. “Psixologiya.” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2008.
4. Андреева Г.М. “Социальная психология.” – Москва: Аспект Пресс, 2001.
5. Леонтьев А.А. “Психология общения.” – Москва: Смысл, 1999.
6. Tuckman B. “Developmental sequence in small groups.” Psychological Bulletin, 1965.
7. Rogers C. “On Becoming a Person.” – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
8. Johnson D., Johnson F. “Joining Together: Group Theory and Group Skills.” – Boston: Allyn & Bacon, 2000.
9. Umaraliyeva H.F. “Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlarining shakllantirilishiga doir nazariy yondashuvlar tahlili”. –Namangan: Universal –2026.
10. Umaraliyeva H.F. “Communication Culture and Collaboration Effectiveness in Student Groups”. – European journal of science archives conferences series/ Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive. Internet address: http://ifsrp.edu.ge/ 2026.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA STRESS VA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Uzoqova Yulduz Yusufovna,
Xalqaro innovatsion universiteti, Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
uzoqovayulduz551@gmail.com

Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar muammosi, ularning o‘quv faoliyati va shaxs salomatligiga ta’siriga oid dolzarb muammolar tahlil qilingan.

Shuningdek, emotsional zo‘riqishlarga doir psixologik yondashuvlar va imkoniyati cheklangan o‘smirlarda ko‘p uchraydigan stress holatlari o‘rganilib, bu kabi emotsional holatlar nazariy va amaliy hamda pedagogik-psixologik qarashlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar*: psixik holatlar, imkoniyati cheklangan bolalar, emotsional zo‘riqish, stress, emotsiya, doimiy xavotir, tushkunlik, qo‘rquv hislari, ijtimoiy reabilizatsiya, asabiylik, psixologik me’yor.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ СТРЕССА И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

В данной статье анализируется проблема эмоционального стресса у подростков с ограниченными возможностями, его влияние на успеваемость и личное здоровье.

Также рассматриваются психологические подходы к эмоциональному стрессу и стрессовым состояниям, характерным для подростков с ограниченными возможностями, а также такие эмоциональные состояния освещаются с теоретической и практической, а также педагогической и психологической точек зрения.

Ключевые слова: *психические состояния, дети с ограниченными возможностями, эмоциональное напряжение, стресс, эмоции, постоянная тревога, депрессия и чувство страха, социальная реабилитация, нервозность, психологическая норма.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STRESS AND EMOTIONAL STRAIN MANIFESTATION IN ADOLESCENTS WITH DISABILITIES

This article analyzes the problem of emotional stress in adolescents with disabilities, their impact on academic performance and personal health.

Also, psychological approaches to emotional stress and stress states common in adolescents with disabilities are studied, and such emotional states are covered based on theoretical and practical, as well as pedagogical and psychological views.

Key words: *mental states, children with disabilities, emotional tension, stress, emotions, constant anxiety, depression, and feelings of fear, social rehabilitation, nervousness, psychological norm.*

Kirish. Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasi, ularni hayotga ijtimoiy moslashtirish, kasb-hunarga yo‘naltirish va jamiyatga uyg‘unlashtirish masalalalari yoshlarga oid davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, bu borada, ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash kabi vazifalar, ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘smir-bolalar ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berishni nazarda tutadi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiya jarayonining sog‘lom bolalar ta’lim-tarbiyasi jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqishi bilan bir qatorda o‘ziga xos hususiyatlariga ham egadir. Jumladan, bunday o‘smirlarning psixologik rivojlanishi orqada qolgan bo‘lsa-da, uning fiziologik jihatdan sog‘lom bolalar kabi shaxs rivojlanish davrlarining har birini bosib o‘tadi. O‘smirlik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda emotsional soha beqarorligi, o‘zini anglash jarayonining kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoj ortadi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda esa mazkur jarayonlar murakkab kechib, frustratsion holatlar tez-tez namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Jahonda imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqish holatlarini bartaraf qilish, stress va nizolarga nisbatan psixoemotsional barqarorligini oshirish, ijodiy faolligini rivojlantirish, jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirish kabi masalalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda psixik va jismoniy nuqsonlari

bo‘lgan taxminan 500 million kishi aniqlangan. Bu sayyoramiz aholisining 1/15 qismini tashkil etmoqda (shu jumladan, 200 millionga yaqin anomal bolalar mavjud). Anomal bolalar maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya oladi, shu muassasada yashaydi va ularning ko‘pchiligi boshqalarning ko‘magiga doimo muhtojdir [1]. Shu boisdan bolalardagi nogironlik hayotning sezilarli darajada cheklanishini anglatadi, bu rivojlanishning buzilishi, o‘z-o‘ziga xizmat qilishi, muloqot qilishi, bilimlarni o‘rganishi, kelajakda kasbiy ko‘nikmalarni egallashdagi qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarni jamiyatga moslashtirish, ma’lum kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirib borish, individual psixologik xususiyatlarini, jumladan, hissiy-emotsional sohasini o‘rganishni taqozo etmoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional barqarorlikni ta’minlash va murakkab sharoitlarda vaziyatlarni adekvat baholay olish bilan bog‘liq indekatorlarini shakllantirish, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalashni yaxshilashni e’tirof etmoqda. BMTning Ta’lim, Fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti – YUNESKO ma’lumotlariga qaraganda, dunyoda minglab o‘smirlarda emotsional buzilishlarning orqali turli ko‘rinishdagi salbiy holatlar kuzatilmoqda [2]. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan o‘smirlar emotsional zo‘riqish indikatorlarini tahlil qilish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda emotsional zo‘riqishlar va ularning tabiati, stressogen vaziyatlar va ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri, chorasizlik fenomeni va uning shaxs salomatligiga ta’siri, frustratsion tolerantligini barqarorlashtirish asosida shakllanganligi, subekt-subekt munosabatlarida hamkorlikdagi emotsional muloqotning faoliyatda namoyon bo‘lishi, o‘quv faoliyatida stressga barqarorlikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik, individual omillarini hissiy-emotsional holatlarga integrativ ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishi muammosi bir qator G’arb olimlarining asarlarida hayotiy misollar hamda pedagogik-psixologik qarashlar asosida yoritib berilgan va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari chuqur tahlil etilgan.

Mazkur tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha o‘zbek olimlaridan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.M.Umarov, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova, U.D.Qodirov, D.J.Sharipova, A.M.Jabborov, N.A.Sog‘inov, A.T.Kadirova kabilarning tadqiqot ishlarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan va o‘rganilmoqda. Rus psixologlaridan Э.П.Илин, Н.И.Наенко, Р.С.Рубин, В.В.Столин, А.Н.Леонтьев, В.А.Крутецкий, *О.В.Овчинников, М.Э.Селигман,* Ф.Э.Василюк, Л.С.Выготский, Ю.М.Забродин, М.А.Воробёва va boshqalarning ilmiy izlanishlari imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqishlarini keltirib chiqaradigan psixologik omillarni aniqlashga qaratilganligi ham ushbu yo‘nalishning jamiyat hayotidagi muhim masalalardan biri ekanligini anglatadi. Xorijiy olimlar tomonidan imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Z.Freyd, M.E.Seligman, L.Abramson, K.Peterson, Ch.Karver, M.Sheyer, S.Maddi, K.Xorni, D.Mayers, E.Krechmer, G.Ollport, K.Tomas, V.Kvinnlarning ilmiy izlanishlarida imkoniyati cheklangan o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida sharhlar berilgan.

Natijalar. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish masalasiga ham davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Yoshlarni raqobatbardosh, bilimli, o‘z ustida ishlaydigan, novator etib tarbiyalash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zaruriy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stress va emotsional zo‘riqishlar jismoniy nuqson, ijtimoiy yakkalanish, oilaviy muhit va o‘z-o‘zini anglashdagi nizolar natijasida yuzaga keladi. Bu holat yuqori xavotir, depressiya, o‘ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki o‘ziga qamalib qolish (inversiya) kabi psixologik xususiyatlar bilan namoyon bo‘lib, shaxs rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarning nizolashuvchanlik va o‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish shkalalari o‘rta darajada, haddan tashqari zo‘riqish va o‘qituvchi bilan bog‘liq munosabatlardagi zo‘riqish quyi darajada, nizolashuvchanlik va o‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish shkalalari yuqori nisbatlarni namoyon qilgan. Tadqiqotchi S.V.Korostovaning fikricha, emotsiyaning aks ettirish funksiyasi hodisalarni umumlashtirib baholashda ifodalanadi. Emotsiyalar butun organizmni qamrab oladi va shu bilan deyarli bir lahzada integratsiyani, u bajaradigan barcha turdagi faoliyatni umumlashtirishni keltirib chiqaradi. Bu birinchi navbatda, unga ta’sir qiluvchi omillarning foydali va zararli ekanligini aniqlashga hamda ularni lokalizatsiya qilishdan oldin reaksiyaga kirishishga imkon beradi, shuningdek, zararli ta’sirlari aniqlanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida ijtimoiy reabilizatsiya markazida tarbiyalanuvchi o‘smirlar bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatishlar va faoliyat mahsulini psixologik tahlil qilish va o‘rganishlar asosida imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishida zo‘riqish omillari

diagnostikasi ularning o‘quv faoliyatida zo‘riqish omillari diagnostikasini o‘rganish orqali olingan natijalari tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda qo‘zg‘aluvchanlik, jizzakilik, impulsivlik, muvozanatsizlik kabi sifatlar ustunlik qiladi. Bundan tashqari eshitishda nuqsoni bor o‘smirlar ijtimoiy munosabatlarda ko‘proq xavotirlanishga olib kelishi va o‘rnatilgan psixologik me’yorlarga nisbatan asabiylik bilan javob qaytarishi aniqlandi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stress va emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishida ba’zi bir jtimoiy-psixologik muammolar ham kuzatiladi, ya’ni ularning tengdoshlari bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, yolg‘izlik hissi va jamiyatdan o‘zini chetlatilgan kabi his qilishlar ham namoyon bo‘ladi [3]. Bundan tashqari bunday yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini baholash qoniqarli emas, ya’ni jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi sababli o‘ziga ishonchsizlik, "men" konseptsiyasining buzilishi yaqqol aks etadi.

Munozara. Psixologik kuzatishlar va tadqiqotlar tahliliga ko‘ra ta’lim-tarbiya nafaqat ta’lim maskanlarida, balki oilalarda ham maqsadli tashkil etilishi bolalarni ma’naviy jahatdan yetuk, jismoniy jihatdan mustahkam, aqliy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis etib tarbiyalashning muhim shartlaridandir. Biroq aksariyat oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida kerakli pedagogik-psixologik ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Oilalarda kar bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtayi-nazari bilan qarash munosabati o‘rnatilganligi kar va zaif eshituvchi bolalarda sog‘lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o‘z-o‘ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada, bu yoshdagi o‘smir bolalarda hafsala yo'qligi, tez jahllanish, shuningdek, o‘qishga qiziqishning kamayishi, muloqotdan qochish kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan stress har bir pedagog va ota-onaning e'tiborini talab qiladigan eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bola psixikasi nozik bo'lgani sababli, u atrof-muhitdagi har bir o'zgarish va emotsional holatni katta tezlikda qabul qiladi. Oiladagi sovuqlik, e'tibor yetishmasligi yoki ota-onaning bandligi bolada ichki qo'rquv va xavotirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, nosog‘lom oilaviy munosabatlar tizimidagi nizolar, maktabdagi talablar, ijtimoiy bosim va noto'g'ri tarbiya usullari stressning kuchayishiga olib keladi. Shu boisdan globallashuv jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy va kommunikatsion jarayondagi muammolar hamda tashqi ta’sirlar bu kabi o‘smir bolalar tarbiyasi va ularning ijtimoiylashuvida o‘zining salbiy ta’sirini ham ko‘rsatmoqda, ularning psixik holatlarini tushkun kayfiyat, ruhiy zo‘riqishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday holatning natijasi bolaning xulq-atvorida sezilarli o’zgarishlar bo’lib, ular tez jahllanish, fikrini anglatishda qiynalish, kichik bir izoh yoki tanbehni ko’tara olmaslik, yig’lamsirash, o’qishga qiziqishning pasayishi va diqqat hamda xotiraning susayishi kabi shakllarda namoyon bo’ladi. Dangasalik, loqaydlik va fikrlashning sekinlashishi ham stressning muhim belgilari hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda ctressning yuzaga kelishiga quyidagi asosiy omillar: oilaviy notinchlik, ota-onaning e’tiborsizligi, mehning yetishmasligi, maktabdagi yuklamalar, turmush tarzidagi o’zgarishlar, elektron qurilmalardan me’yoridan ortiq foydalanish sabab bo‘ladi va bolaning kamolga yetishida ushbu omillar uzoq davom etsa uning psixik rivojlanishi, kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir o‘tkazadi [4]. Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stress ko‘pincha psixosomatik kasalliklar (bosh og‘rig‘i, yurak o‘ynashi), xulq-atvordagi o‘zgarishlar (tushkunlik, tajovuzkorlik) va kognitiv buzilishlar (diqqatning tarqoqligi) orqali ham yuzaga chiqadi. Ushbu muammoni hal qilishda imkon qadar inklyuziv muhitni yaratish, psixologik reabilitatsiya va oilaviy maslahat berish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishiga ularda o‘quv faoliyatidagi turli xil stressogen vaziyatlar, topshiriqlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi, emotsional holatlarda nazorat qilishning murakkabligi kabi omillar ta’sir etishi aniqlandi. Ikkinchidan, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda emotsional zo‘riqishlarning kelib chiqishi oilaviy muhitdagi turli xil vaziyatlarda va ijtimoiy muhitdagi holatlarga ko‘chishi bilan yaqqol ifodalanishi namoyon bo‘ldi. Shuning uchun bolalarda stressni erta aniqlash va oldini olish nafaqat ularning psixologik rivojlanishini ta’minlaydi, balki kelajakda ularning ijtimoiy moslashuvchanligi va shaxs sifatida muvaffaqiyat qozonishiga ham xizmat qiladi. Bu borada, ayniqsa, ota-onalar, pedagoglar, qolaversa, jamiyatning barcha a’zolari bolalarning emotsional salomatligiga jiddiy e’tibor qaratishi lozim, chunki stress holatidagi bolalarda xotira susayishi, diqqatning pasayishi, tez jahllanish, muloqotda qiyinchiliklar va o’qishga bo’lgan qiziqishning kamayishi kabi holatlar ko’p kuzatiladi.

Demak, bolalarning sog’lom psixologik rivojlanishini ta’minlash uchun ularga yetarli darajada mehr va e’tibor ko’rsatish, ular bilan muntazam muloqot qilish hamda hissiy holatini tushunishga harakat qilish muhim ahamiyatga ega. Agar ota-ona va pedagoglar bolalarning ichki kechinmalariga befarq bo’lsa yoki doimo telefon va boshqa mashg’ulotlar bilan band bo’lsa, bola buni kuzatib, shu holatni o’ziga namuna

sifatida qabul qiladi. Bu esa uning tarbiyasi va ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shu bois bolalarni stresssiz muhitda tarbiyalash va ta’lim berish jarayoni nafaqat va tarbiya jarayonida uchrayotgan eng dolzarb psixologik muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Аксенова Л.И. Маленькие ступеньки, ведущие в большую жизнь. //Журнал «Дефектология», 1999, № 3.

2. Xashimova S.X. Emotsional zo‘riqishni tahlil etishning psixologik tasnifi. //O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 2023. – B. 172-175. ISSN 2181-7324.

3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: «Просвещение»,1991. 90 ст.

4. Петрова Г, Белякова И, Психология умственно отсталых школьников. - М.: Владос, 2004.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI

Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
dilnavozxodjayeva13@gmail.com

Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasining shakllanish mexanizmlari psixologik jihatdan tahlil qilinadi. O‘quv motivatsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida qaraladi. Maqolada motivatsiyaning nazariy asoslari, ichki va tashqi motivatsiya omillari, shaxsiy ehtiyojlar, o‘quv faoliyati va ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasini o‘rganish maqsadida psixodiagnostik metodikalar qo‘llanib, empirik natijalar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *o‘quv motivatsiyasi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta’lim psixologiyasi, ixtisoslashtirilgan maktab, o‘quv faoliyati.*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ

В данной статье психологически анализируются механизмы формирования учебной мотивации у учащихся специализированных школ. Учебная мотивация рассматривается как один из ключевых психологических факторов, обеспечивающих эффективность образовательного процесса. В статье рассматриваются теоретические основы мотивации, внутренние и внешние мотивирующие факторы, взаимосвязь личных потребностей, учебной деятельности и образовательной среды. Кроме того, для изучения учебной мотивации учащихся специализированных школ были использованы психодиагностические методы, а эмпирические результаты проанализированы с научной точки зрения.

Ключевые слова: *учебная мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, психология образования, специализированная школа, учебная деятельность.*

MECHANISMS OF THE FORMATION OF ACADEMIC MOTIVATION IN STUDENTS OF SPECIALIZED SCHOOLS

This article provides a psychological analysis of the mechanisms of academic motivation formation among students of specialized schools. Academic motivation is considered one of the key psychological factors ensuring the effectiveness of the educational process. The article examines the theoretical foundations of motivation, internal and external motivational factors, the interrelationship between personal needs, learning activities, and the educational environment. In addition, psychodiagnostic methods were employed to study the academic motivation of students in specialized schools, and the empirical results were analyzed from a scientific perspective.

Keywords: *academic motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, educational psychology, specialized school, learning activity.*

Kirish. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati motivatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida o‘quv motivatsiyasi shaxs faoliyatining muhim determinantlaridan biri sifatida qaraladi [1]. Motivatsiya o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga kirishishi, faol qatnashishi va yuqori natijalarga erishishini ta’minlovchi omillar tizimidir.

Psixologiya fanida motivatsiya masalasi A. Maslou (2011), K. Rodjers (Rodjers, Freyberg, 2002), X. Xekxauzen (2003) kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. O‘quv motivatsiyasi fenomenini esa L.I. Bojovich (1972), A.N. Leontev (Leontev D.A., 2016), A.K. Markova (Markova, Matis, Orlov, 1990), P.M. Yakobson (1969) tadqiq etgan. Ko‘plab olimlar ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida yuzaga keladigan o‘quv motivatsiyasi muammolarini tahlil qilganlar.

O‘quv motivlarining ayrim tasniflarini ko‘rib chiqamiz.

L.I. Bojovich [7] o‘quv motivlarini ikki guruhga ajratadi:

- o‘quv faoliyati va yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq motivlar;
- ijtimoiy o‘zaro ta’sir va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liq motivlar.

A.K. Markova, T.A. Matis, A.B. Orlov [6] esa o‘quv motivlarining o‘quv va ijtimoiy yo‘nalishini o‘z ichiga olgan tasnifini taklif etadi

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar muayyan fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim olishadi. Shu sababli ularning o‘quv motivatsiyasi oddiy umumta’lim maktablari o‘quvchilariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin [2]. Bunday maktablarda o‘quvchilar yuqori intellektual salohiyat va maxsus qiziqishlarga ega bo‘lishi, shuningdek, ta’lim muhitining yuqori talabchanligi motivatsiya mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ichki motivatsiya, masalan, bilimga qiziqish va shaxsiy o‘sish istagi, tashqi motivatsiya esa ota-onalar, o‘qituvchilar va sinfdoshlarning ijobiy ta’siri orqali rivojlanadi. Shu bilan birga, individual ehtiyojlar va ta’lim muhitining xususiyatlari o‘quvchilarning faoliyati va o‘rganishga bo‘lgan munosabatini yanada murakkab va ko‘p qirrali qiladi.

Asosiy qism. O‘quv motivatsiyasi – bu shaxsning ta’lim jarayonida faoliyat yuritishga bo‘lgan ichki tayyorligi va tashqi rag‘batlantiruvchi omillar tizimi hisoblanadi. Psixologiya fanida motivatsiya shaxs faoliyatining asosiy determinantlaridan biri sifatida qaraladi, chunki u bilim olishga bo‘lgan qiziqish, o‘rganish jarayonida qatnashish va natijalarga erishish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq [3].

Motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: ichki va tashqi. Ichki motivatsiya shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan istagi, bilimga qiziqishi va shaxsiy muvaffaqiyatga erishish ehtiyojidan kelib chiqadi. Tashqi motivatsiya esa baholar, ota-onalar va o‘qituvchilarning rag‘batlantirishi, mukofotlar yoki tanqidlar orqali shakllanadi [4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya uzoq muddatli va barqaror natijalarni beradi, tashqi motivatsiya esa qisqa muddatli rag‘batlantirishda samarali bo‘lishi mumkin [5].

O‘quv motivlarining tasnifi

O‘quv motivlari:

- **bilishga oid (kognitiv):**
  - keng qamrovli bilishga oid;
  - o‘quv-bilish motivlari;
  - o‘z-o‘zini ta’lim olish (self-ta’lim) motivlari;
- **ijtimoiy:**
  - keng qamrovli ijtimoiy;
  - pozitsion (mavqega oid) motivlar;
  - ijtimoiy hamkorlik motivlari.

P.M. Yakobson [5] va M.V. Matyuxina [7] o‘quv motivlarini uch guruhga ajratadi:

- o‘quv motivlari;
- o‘quvdan tashqari motivlar;
- muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi.

Yuqorida keltirilgan tasniflar o‘quv motivlarining ikki asosiy yo‘nalishga ajralishini ko‘rsatadi: o‘qishga yo‘naltirilgan va ijtimoiylashuvga yo‘naltirilgan motivlar. Har ikkala turdagi motivlar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli va samarali bajarishini ta’minlaydi. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar, balki ijtimoiylashadilar, hamkorlik faoliyatini o‘zlashtiradilar va ijtimoiy muloqotni yo‘lga qo‘yishni o‘rganadilar.

O‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasining pasayish sabablari

Shaxsiy psixologik-pedagogik amaliyot hamda mazkur muammo bo‘yicha ayrim zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib keluvchi keng tarqalgan sabablar quyidagicha aniqlangan:

- yoshga xos xususiyatlar va psixik rivojlanish inqirozlari (masalan, kichik o‘smirlik davrida yetakchi faoliyat tengdoshlar bilan muloqot bo‘lgani sababli, o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi tabiiy hol bo‘lib, shaxs rivojlanishining normasi hisoblanadi);
- o‘quvchining intellektual rivojlanish darajasi (me’yoriy rivojlanishdan ortda qolish yoki aksincha, tengdoshlaridan oldinda bo‘lish);
- ortiqcha o‘quv yuklamasi;
- “bir kun bilan yashash”ga intilish va shu sababli olinayotgan bilimlarning kelajakdagi ahamiyatini tushunmaslik;
- o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan salbiy munosabatlar;
- oilaviy tarbiya uslublaridagi og‘ishlar (Nelyubina, Sarayeva, 2019);
- “majburiyat” (burch) motivining ustunligi;
- o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik fonida motivatsiyaning pasayishi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar muayyan fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim oladi. Shu sababli ularning o‘quv motivatsiyasi oddiy umumta’lim maktabi o‘quvchilaridan farq qiladi [2]. Bunday o‘quvchilar yuqori intellektual salohiyat, mustaqil fikrlash qobiliyati va maxsus qiziqishlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

O‘quv motivatsiyasining shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

1. **Shaxsiy ehtiyojlar va qiziqishlar** – o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va bilimga bo‘lgan ichki qiziqishni qondirishni xohlashadi.
2. **O‘quv faoliyati va fan tarkibi** – murakkab va chuqur fan dasturlari o‘quvchilarni faol fikrlashga va mas’uliyatni oshirishga majbur qiladi.
3. **Ta’lim muhiti** – o‘qituvchilar, sinfdoshlar va ota-onalarning ijobiy ta’siri, shuningdek, yuqori intellektual talablar motivatsiyani oshiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, ichki va tashqi motivatsiya omillari bir-birini to‘ldiradi. Masalan, o‘quvchi biror mavzu bo‘yicha chuqur bilim olishni xohlasa (ichki motivatsiya), ustozning ijobiy bahosi yoki mukofoti (tashqi motivatsiya) bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasini o‘rganish maqsadida turli psixodiagnostik metodikalar qo‘llaniladi. Masalan, M.V. Matyuxina metodikasi o‘quv motivatsiyasining darajasini aniqlashda, T.D. Duboviskaya metodikasi esa o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiya omillarini aniqlashda samarali hisoblanadi [6].

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining aksariyatida ichki motivatsiya yuqori bo‘lib, ular o‘z qiziqishlari va shaxsiy ehtiyojlari orqali ta’lim jarayoniga faol kirishadi. Tashqi motivatsiya esa ko‘proq baholar va o‘qituvchilar ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, ichki motivatsiyaga qo‘shimcha sifatida ishlaydi.

Shuningdek, tadqiqotlar ta’lim muhitining o‘quv motivatsiyasini shakllantirishda muhimligini ko‘rsatadi: qo‘llab-quvvatlovchi muhit, shaxsiy yutuqlarning e’tirofi va tengdoshlar bilan musobaqa motivatsiyani oshiradi va o‘quv jarayoniga qiziqishni kuchaytiradi [7].

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasi bir necha tarkibiy elementlardan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq:

1. **Kognitiv motivatsiya** – o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan intellektual qiziqishi. Bu turdagi motivatsiya o‘quvchining o‘zlashtirayotgan fanidan zavqlanishi va murakkab masalalarni yechishga intilishiga bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning kognitiv motivatsiyasi yuqori bo‘ladi, chunki ular tanlangan fan bo‘yicha chuqur bilim olish imkoniyatiga ega [8].
2. **Affektiv motivatsiya** – o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga hissiy jihatdan bog‘liqligi. Masalan, o‘quvchi darsga qiziqish bilan qatnashsa, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda ko‘proq intilish ko‘rsatadi. Affektiv motivatsiya shaxsiy ehtiros va ijobiy emotsional tajribaga asoslanadi.
3. **Konativ motivatsiya** – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari. Bu turdagi motivatsiya o‘quvchining o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iylik, rejalashtirish va o‘zini tartibga solish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida konativ motivatsiya muhim rol o‘ynaydi, chunki ular fan bo‘yicha chuqur bilim egallash va yuqori natijalarga erishishni maqsad qilgan.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki va tashqi motivatsiya bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega. Ichki motivatsiya o‘quvchining shaxsiy qiziqishi va bilim olishga bo‘lgan istagidan kelib chiqadi, tashqi motivatsiya esa o‘quvchilarga baholar, mukofotlar, o‘qituvchilar e’tirofi yoki ota-onaning rag‘batlantirishi orqali ta’sir qiladi [9].

Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda **tanlov va erkinlik imkoniyati** muhim hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilar fan yo‘nalishini tanlash yoki qo‘shimcha loyihalarda ishtirok etish orqali ichki motivatsiyani mustahkamlashlari mumkin.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari odatda:

- Ichki motivatsiyaga yuqori darajada ega bo‘ladi;
- O‘z qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lgan fanlarda faoliyat ko‘rsatadi;
- Tashqi rag‘batlantirish esa ko‘proq qisqa muddatli natijalarni rag‘batlantirishda samarali bo‘ladi;
- Shaxsiy maqsadlar va ta’lim muhiti o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini yanada kuchaytiradi [10].

Shuningdek, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasi odatda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u kognitiv, affektiv va konativ elementlarni birlashtiradi. Bu esa o‘quvchilarning yuqori natijalarga erishishida muhim omil hisoblanadi.

O‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlarni uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tashkil etish taklif etiladi:

- **Birinchi yo‘nalish:** pedagogik jamoa bilan ishlash
- **Ikkinchi yo‘nalish:** o‘quvchilar bilan ishlash

- **Uchinchi yo‘nalish:** o‘quvchilar oilalari bilan ishlash

Pedagog-psixolog faoliyatining eng muhim va birinchi yo‘nalishi — bu pedagogik jamoa bilan hamkorlikdir. Chunki aynan o‘qituvchi zimmasiga o‘quv jarayonida bolaga yordam berish, o‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirishiga, sinfda ijobiy muhit yaratilishiga va o‘qishga qiziqish shakllanishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni yaratish vazifasi yuklatilgan.

Pedagog-psixolog o‘qituvchiga, ayniqsa yosh mutaxassislarga, o‘quv jarayonini yuqori o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishda bevosita yordam ko‘rsatishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarda quyidagi maxsus ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha ish olib borish muhim:

- o‘quvchining o‘quv materialini qanchalik tushunayotganini sezish va anglash qobiliyati;
- mustaqil ravishda o‘quv dasturini tanlash va tuzish;
- materialni tushunarli tarzda bayon eta olish;
- o‘quv jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;
- o‘quv jarayonini mantiqiy qurish va zarurat tug‘ilganda uni takomillashtirish;
- o‘quvchilar va boshqa o‘qituvchilar uchun namuna bo‘la olish;
- o‘z ustida ishlash va bolalarda tadqiqot faoliyatiga qiziqish uyg‘otish (Bondarenko, 2016).

Pedagogik jamoa bilan ishlash shakllari

Pedagog-psixolog o‘quv motivatsiyasini oshirish maqsadida pedagogik jamoa bilan quyidagi ish shakllaridan foydalanishi mumkin:

- o‘quv motivatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash maqsadida o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish;
- pedagogik kengashlarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish masalalari bo‘yicha ma’ruzalar qilish;
- o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilari bor o‘qituvchilar bilan individual va guruhiy maslahatlar o‘tkazish;
- o‘qituvchilarda kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar;
- amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan seminarlar (“O‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etish”, “Boshlang‘ich sinflarda UUD shakllanganligini monitoring qilish” va boshqalar);
- o‘qituvchilar bilan hamkorlikda o‘quv motivatsiyasini oshirish va maktab dezadaptatsiyasini tuzatishga qaratilgan dastur va tadbirlarni ishlab chiqish.

O‘qituvchilar uchun psixologik-pedagogik tavsiyalar

O‘quvchilarda yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasini shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. **Turli faoliyat turlari, ish shakllari va texnologiyalarni qo‘llash.**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanilganda o‘quvchilar materialni samaraliroq o‘zlashtiradilar, chunki ular bolalikdan virtual muhitga moslashgan bo‘ladi (Ivanova, 2018).

2. **Fan materialining aniq va tizimli tuzilishi.**
3. **Adolatli (obyektiv) baholash.**
4. **Materialni tushunarli va qiziqarli tarzda tushuntirish.**
5. **Ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida ijobiy munosabatlar.**

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik (partnerlik) munosabatlarini yo‘lga qo‘yish muhim. Bilish faoliyatining emotsional jihatini qo‘llab-quvvatlash, qulay psixologik muhit yaratish, ishonchli munosabatlar o‘rnatish, muvaffaqiyat holatini yaratish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash zarur [6].

Ikkinchi yo‘nalish: o‘quvchilar bilan ishlash

Pedagog-psixologning o‘quv motivatsiyasini oshirishdagi ikkinchi muhim yo‘nalishi – bu bevosita o‘quvchilarning o‘zlari bilan ishlashdir. O‘quv motivatsiyasi bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash quyidagi aniq vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

1. O‘quv faoliyatining tuzilishini anglash;
2. Maktab hayotining turli jihatlari bilan bog‘liq salbiy emotsiyalarni kamaytirish;
3. Maktab hayotining odatiy jihatlarini qayta anglash;
4. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashini tuzatish;
5. Konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish;
6. Guruhni jipslashtirish.

Keling, ushbu vazifalarni L.A. Ilatovskaya [8] tomonidan taklif etilgan amaliy yo‘naltirilgan yondashuv asosida ko‘rib chiqamiz.

1. O‘quv faoliyati tuzilishini anglash
2. Maktab hayoti bilan bog‘liq salbiy emotsiyalarni kamaytirish

Bu yo‘nalishda o‘quvchilarning ichki zo‘riqishini kamaytirish, stressni yengillashtirish va maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan psixologik mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

3. Maktab hayotining odatiy jihatlarini qayta anglash
4. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashini tuzatish
5. Konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish
6. Guruhni jipslashtirish

O‘quv motivatsiyasini oshirish bo‘yicha ish shakllari

Pedagog-psixolog quyidagi ish shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- o‘quv motivatsiyasi darajasini aniqlash hamda o‘qishda qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilarni aniqlash maqsadida individual va guruhiy psixologik diagnostika (ayniqsa 1-sinf o‘quvchilari va bosqichdan bosqichga o‘tish davrida);
- sinflar bilan guruhiy ishlar (sinf soatlari, treninglar, master-klasslar va boshqalar) – jamoani jipslashtirish va motivatsiyani oshirish maqsadida;
- o‘quvchilar bilan individual ishlar (konsultatsiyalar, suhbatlar, treninglar, psixologik mashg‘ulotlar);
- bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchilarini maktabga psixologik tayyorlash (maktab dezadaptatsiyasining oldini olish maqsadida) (Dyudina, 2020);
- birinchi sinf o‘quvchilarining moslashuv jarayonini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Uchinchi yo‘nalish: oila bilan ishlash

Bola va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar hamda oilaviy tarbiya uslubi shaxs rivojiga tug‘ilgan paytdan boshlab kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagog-psixologning oila bilan ishlashi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- bola va ota-ona munosabatlarini psixologik diagnostika qilish va tahlil etish;
- noto‘g‘ri tarbiya uslublari mavjud oilalar bilan korreksion ishlar olib borish;
- farzandlari maktabga moslashishda qiynalayotgan ota-onalarga maslahat berish;
- maktab dezadaptatsiyasining oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika;
- o‘qishda qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilarning ota-onalarini psixologik qo‘llab-quvvatlash

Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik tavsiyalar

A.O. Bondarenko [7] tomonidan taklif etilgan tavsiyalar:

- bolani boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik;
- muvaffaqiyatsizlik sabablarini birgalikda tahlil qilish;
- o‘quv maqsadini aniq qo‘yish va unga erishish muddatini belgilash;
- o‘qish jarayoniga doimiy qiziqish bildirish;
- to‘g‘ri ovqatlanish, kun tartibi va qulay o‘quv joyini ta’minlash;
- bolaga mehr va sabr bilan munosabatda bo‘lish, uni hurmat qilish va ishonish;
- o‘zining muvaffaqiyatli tajribasi bilan o‘rtoqlashish;
- bolani tinglash va tushunishga harakat qilish;
- bolaga vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatish;
- o‘qishga rag‘batlantiruvchi oilaviy an’analar va marosimlarni shakllantirish.

Xulosa. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasi – ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu o‘quvchilarda ichki motivatsiya yuqori bo‘lib, ular bilimga bo‘lgan qiziqishi, shaxsiy rivojlanish istagi va maqsadlarga erishish intilishi orqali faoliyat yuritadilar. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya – baholar, mukofotlar va o‘qituvchilar e’tirofi – o‘quv jarayonida qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi omil sifatida samarali ishlaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasi kognitiv, affektiv va konativ elementlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali tizim sifatida shakllanadi. Bu esa ularning ta’limga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash, faol qatnashuvini ta’minlash va yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyati, qiziqishlari va tanlangan fan yo‘nalishidagi chuqur bilim olish istagi ichki motivatsiyani yanada mustahkamlaydi va ta’lim jarayonida barqaror muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

Shu asosda, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish uchun:

- ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi qilish,
- shaxsiy qiziqish va maqsadlarni hisobga olgan individual yondashuvni joriy etish,
- ichki motivatsiyani mustahkamlashga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Bundan tashqari, motivatsiyani o‘rganish va rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishish intilishi, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyati nafaqat akademik muvaffaqiyatni, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatida ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasini chuqur o‘rganish, shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash ta’limning sifatini oshirishda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Abildayeva, G., Zhivenbayeva, N., Tapalova, O. *International Scientific and Practical Conference on Education, Health and Human Wellbeing (ICEDER 2019).*
2. Akomolafe, C., & Adesua, V. (2016). *The Impact of Physical Facilities on Students' Level of Motivation and Academic Performance in Senior Secondary Schools in South West Nigeria*. Journal of Education and Practice, 7(4), 38–42. Retrieved from https://eric.ed.gov/?id=EJ1092365
3. Bandura, A. *(2001). Social cognitive theory: An agentic perspective*. Annual Review of Psychology, 52(1), 1–26. https://doi.org/10.1146/annurev.psych.52.1.1
4. Bello, D., & Gumarao, M. (2016). *Stress Coping Strategies, and Academic Performance of Dentistry Students*. AUP Research Journal, 19(2). Retrieved from http://www.aup.edu.ph/alumni/wp-content/uploads/Vol-19-No-2-Research-Journal-July-2016.pdf#page=37
5. Бакетин, П. Т. *Понятие мотивации в трудах отечественных и зарубежных психологов: монография*. Москва: Лаборатория книги, 2012. – 144 с.
6. Baxtiyorov, R.M. *Talabalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy–psixologik talablari*. Inter Education & Global Study, 2024, № 3(2), 133–141.
7. Вартанова, И.И. *Мотивационно-эмоциональное отношение к учебе старшеклассников различного пола и возраста*. Психологическая наука и образование, 2019, 24(5).
8. Rotter, J.B. (1966). *Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement.* Psychological Monographs: General and Applied, 80(1), 1–28. https://doi.org/10.1037/h0092976
9. Yuldashev, E.S. *O‘quvchilarning o‘quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyasini shakllantirish.* KSPI Conference, Volume 4, 2023.
10. Жаворонкова, Ю.М., Кильмасова, И.А. *Мотивация учебной деятельности у детей младшего школьного возраста,* 2017. УДК 37.013.42

БЎЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Маннапова Наргиза Шакировна,
Низомий номидаги Ўзбекистон миллий педагогика университети
Биология кафедраси доценти

Ушбу мақолада бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантиришнинг назарий-методологик асослари таҳлил қилинади. Замонавий таълим тизимида биология фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш, педагогик компетенцияларни шакллантириш ва инновацион таълим технологияларини қўллаш масалалари ёритилган. Шунингдек, бўлажак ўқитувчиларнинг касбий малакасини оширишга хизмат қилувчи омиллар ва уларни амалиётга татбиқ этиш йўллари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: *биология таълими, касбий тайёргарлик, педагогик компетенция, инновацион технологиялар, ўқитувчи маҳорати, таълим самарадорлиги, методика, касбий ривожланиш*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing the professional training of future biology teachers. It highlights issues related to improving the effectiveness of teaching biology in the modern education system, forming pedagogical competencies, and applying innovative educational technologies. The study also examines factors that contribute to enhancing the professional skills of future teachers and ways of implementing them in practice.

Keywords: *biology education, professional training, pedagogical competence, innovative technologies, teacher skills, educational effectiveness, methodology, professional development*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы развития профессиональной подготовки будущих учителей биологии. Освещаются вопросы повышения эффективности преподавания биологии в современной системе образования, формирования педагогических компетенций и применения инновационных образовательных технологий. Также рассматриваются факторы, способствующие повышению профессионального мастерства будущих учителей, и пути их внедрения в практику.

Ключевые слова: *биологическое образование, профессиональная подготовка, педагогическая компетенция, инновационные технологии, мастерство учителя, эффективность образования, методика, профессиональное развитие*

Кириш қисм. Бугунги кунда таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлигига бўлган талабларни янада оширмоқда. Хусусан, биология ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида уларнинг назарий билимлари билан бир қаторда амалий кўникма ва компетенцияларини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш — бу уларни замонавий педагогик фаолиятга тайёрлаш, инновацион ёндашувлардан самарали фойдаланиш ва таълим жараёнида юқори натижаларга эришишини таъминлашдан иборат. Шу нуқтаи назардан, мазкур муаммони чуқур ўрганиш ва илмий асосланган ечимларни ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.

Ҳозирги глобаллашув ва жадал илмий-техник тараққиёт шароитида таълим тизими олдига қўйилаётган талаблар тобора ортиб бормоқда. Айниқса, табиий фанлар, жумладан биологияни ўқитиш сифатини ошириш, ўқувчиларда экологик тафаккур, илмий дунёқараш ва тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш, уларнинг назарий билимлари билан бир қаторда амалий кўникма ва компетенцияларини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий таълим концепцияси ўқитувчидан фақат билим берувчи эмас, балки таълим жараёнини самарали ташкил этувчи, инновацион педагогик технологиялардан фойдаланувчи, мустақил фикрлайдиган ва ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтира оладиган мутахассис бўлишни талаб қилади. Бу эса бўлажак биология ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида компетенциявий ёндашув, интегратив таълим, рақамли технологиялар ва илмий тадқиқот элементларини кенг жорий этишни тақозо этади.

Шу билан бирга, биология фанининг ўзига хос хусусиятлари — тирик организмлар хилма-хиллиги, табиат билан узвий боғлиқлиги ва экспериментал тадқиқотларга асосланиши — ўқитувчидан юқори даражада касбий маҳорат, кузатувчанлик ва таҳлилий фикрлашни талаб қилади. Демак, бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда назарий билимларни амалиёт билан уйғунлаштириш, лаборатория машғулотлари, дала тадқиқотлари ва инновацион таълим усулларидан самарали фойдаланиш алоҳида аҳамиятга эга.

Мазкур мақоланинг мақсади бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантиришнинг назарий асослари ва амалий йўлларини таҳлил қилишдан иборат. Шунингдек, уларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришда замонавий педагогик ёндашувлар ва инновацион технологияларнинг ўрнини ёритиш ҳам кўзда тутилган.

Ушбу тадқиқот натижалари таълим муассасаларида биология ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш, уларнинг касбий салоҳиятини ошириш ва таълим сифатини яхшилашга хизмат қилади

Тадқиқот методологияси. Мазкур тадқиқотда бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш жараёнини ўрганишда комплекс ёндашув асос қилиб олинди. Тадқиқот давомида назарий ва амалий усуллар уйғунлиги таъминланди[1].

Жумладан, илмий адабиётларни таҳлил қилиш орқали муаммонинг назарий асослари ўрганилди, педагогик ва психологик манбалар умумлаштирилди. Қиёсий таҳлил усули ёрдамида турли ёндашувлар ўртасидаги фарқ ва ўхшашликлар аниқланди.

Шунингдек, эмпирик усуллардан — кузатиш, сўровнома, тест ва суҳбат усулларидан фойдаланилди. Мазкур усуллар орқали талабаларнинг касбий компетенциялари, билим ва кўникмалари даражаси аниқланди.

Тадқиқот жараёнида педагогик тажриба-синов ишлари ҳам олиб борилди. Унда ишлаб чиқилган методик ёндашувлар амалиётда синаб кўрилди ва уларнинг самарадорлиги баҳоланди. Олинган натижалар математик-статистик усуллар орқали қайта ишланиб, илмий хулосалар чиқарилди[2].

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқот жараёнида олинган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик даражаси кўп жиҳатдан таълим жараёнида қўлланилаётган метод ва воситаларга боғлиқ. Анъанавий ўқитиш усуллари билан чекланиб қолиш талабаларнинг мустақил фикрлаши ва амалий кўникмаларини тўлиқ ривожлантиришга етарли таъсир кўрсатмаслиги аниқланди.

Тажриба-синов ишлари натижаларига кўра, инновацион педагогик технологиялар, интерактив методлар ва муаммоли таълим элементларини қўллаш орқали талабаларнинг касбий компетенциялари сезиларли даражада ошгани кузатилди. Хусусан, дарс жараёнида кейс-стади, лойиҳа усули ва гуруҳли ишларни ташкил этиш талабаларнинг билимларни амалиётда қўллаш қобилиятини ривожлантирди[3].

1-жадвал.

Бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик даражаси

Кўрсаткичлар	Паст (%)	Ўрта (%)	Юқори (%)
Назарий билим	25	50	25
Амалий кўникма	30	45	25
Педагогик компетенция	35	40	25
Инновацион технологиялардан фойдаланиш	40	40	20

Тадқиқот натижаларига кўра, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик даражаси турли кўрсаткичлар бўйича бир хил эмаслиги кузатилди.

Назарий билимлар бўйича иштирокчиларнинг 50 фоизи ўрта даражани ташкил этган бўлса, 25 фоизи юқори ва 25 фоизи паст даражада экани аниқланди. Бу ҳолат назарий тайёргарлик етарли даражада шаклланган бўлса-да, уни янада чуқурлаштириш зарурлигини кўрсатади.

Амалий кўникмалар бўйича 45% ўрта, 30% паст ва 25% юқори кўрсаткич қайд этилган. Бу эса талабаларнинг амалий фаолиятга тайёргарлиги назарий билимларга нисбатан бироз пастроқ эканини англатади.

Педагогик компетенция кўрсаткичлари ҳам диққатга сазовор: 40% ўрта, 35% паст ва 25% юқори даражада. Бу ҳолат бўлажак ўқитувчиларда таълим жараёнини ташкил этиш, методик ёндашувларни қўллаш бўйича муайян муаммолар мавжудлигини кўрсатади.

Инновацион технологиялардан фойдаланиш кўрсаткичи энг паст натижани кўрсатди: 40% паст, 40% ўрта ва атиги 20% юқори. Бу эса рақамли ва замонавий таълим технологияларини ўзлаштириш даражаси етарли эмаслигини англатади.

Сўровнома ва тест натижалари таҳлили шуни кўрсатдики, тадқиқотда иштирок этган талабаларнинг аксариятида касбий қизиқиш ва мотивация даражаси ошган. Шу билан бирга, уларда педагогик мулоқот, дарсни режалаштириш ва замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш кўникмалари шаклланган аниқланди.

2-жадвал.

Тажриба-синов натижалари динамикаси

Кўрсаткичлар	Тажрибадан олдин (%)	Тажрибадан кейин (%)
Билим даражаси	55	78
Амалий кўникма	50	80
Мотивация	60	85
Мустақил фикрлаш	52	82

Тадқиқот жараёнида иштирокчиларнинг бир қатор муҳим кўрсаткичлар бўйича натижалари тажрибадан олдин ва кейин таққосланди:

Билим даражаси 55% дан 78% га ошган. Бу 23% га ўсишни ташкил этиб, ўқув жараёнида қўлланилган янги ёндашувлар назарий билимларни мустаҳкамлашда самарали бўлганини кўрсатади.

Амалий кўникмалар 50% дан 80% га кўтарилган (30% ўсиш). Бу эса амалий машғулотлар, лаборатория ишлари ва фаол ўқитиш усуллари самарадорлигини тасдиқлайди.

Мотивация даражаси 60% дан 85% га ошган бўлиб (25% ўсиш), талабаларнинг ўқишга бўлган қизиқиши ва ички рағбатланиши сезиларли даражада кучайганини кўрсатади.

Мустақил фикрлаш қобилияти 52% дан 82% га етган (30% ўсиш). Бу кўрсаткич талабаларда таҳлилий ва ижодий ёндашувларни ривожлантиришга қаратилган методларнинг самарали бўлганини англатади.

Олинган натижалар шуни кўрсатадики, тажриба-синов ишлари натижасида барча кўрсаткичлар бўйича сезиларли ижобий ўсиш кузатилди. Айниқса, амалий кўникмалар ва мустақил фикрлашдаги юқори ўсиш бўлажак биология ўқитувчиларини тайёрлашда инновацион ва фаол таълим технологияларининг аҳамияти катта эканини исботлайди.

Шу асосда хулоса қилиш мумкинки, такомиллаштирилган таълим модели бўлажак ўқитувчиларнинг:

билим даражасини ошириш,

амалий фаолиятга тайёрлигини кучайтириш,

ўқув мотивациясини юксалтириш,

мустақил ва танқидий фикрлашини ривожлантириш каби муҳим компетенцияларини самарали шакллантиришга хизмат қилади.Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш тадқиқот гипотезасининг тўғрилигини тасдиқлади. Яъни, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар ва замонавий методлардан фойдаланиш юқори самара беради[4].

3-жадвал.

Дарс жараёнида қўлланилган методлар самарадорлиги

Методлар	Самарадорлик даражаси (%)
Анъанавий ўқитиш	60
Интерактив методлар	80
Лойиҳа усули	85
Кейс-стади	88

Хулоса. Олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантириш замонавий таълим тизимининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Тадқиқот давомида назарий ва амалий таҳлиллар асосида мазкур жараённинг самарадорлигини оширишга қаратилган ёндашувлар ишлаб чиқилди.

Аниқланишича, анъанавий ўқитиш усуллари билан бир қаторда инновацион педагогик технологиялар, интерактив методлар ва муаммоли таълим элементларини қўллаш бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бу эса уларнинг мустақил фикрлаши, ижодий ёндашуви ва амалий кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қилади.

Шунингдек, тадқиқот натижалари бўлажак биология ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида таълим мазмунини бойитиш, ўқитиш шакл ва методларини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатди.

Умуман олганда, бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини ривожлантиришга қаратилган илмий асосланган ёндашувларни амалиётга жорий этиш таълим сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Таклифлар. Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

Бўлажак биология ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнига замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш.

Таълим жараёнида интерактив методлар, хусусан, кейс-стади, лойиҳа усули ва муаммоли таълим технологияларидан самарали фойдаланишни йўлга қўйиш.

Талабаларнинг амалий кўникмаларини ривожлантириш мақсадида лаборатория машғулотлари ва педагогик амалиёт ҳажмини ошириш.

Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган махсус курс ва тренингларни ташкил этиш.

Таълим жараёнида мустақил таълим ва тадқиқот фаолиятини рағбатлантириш орқали талабаларнинг ижодий ва танқидий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш.

Биология фанини ўқитиш методикасини такомиллаштиришга қаратилган илмий-тадқиқот ишларини кенгайтириш.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2020.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
3. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2019.
4. Кларин М.В. Инновации в обучении. – Москва: Просвещение, 2018.

QIYIN HAYOT VAZIYATLARIDA TALABALARNING XULQ-ATVORINING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamolova Shirin Usarovna,
JDPU Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maqolada talabalarning qiyin hayot sharoitlarida yengish xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berishga, shuningdek, ularning psixologik farovonligini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Talabalarning hayot sharoitlari turiga (turmush qurgan talabalar, turmush sharoitlariga moslasha olmagan talabalar, tal’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalar) qarab yengish strategiyalarini tanlash o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni asoslash.

Kalit so‘zlar: *Talaba, psixologik qo‘llab-quvvatlash, turmushida qiyinchiliklarga uchragan talabalar, ta’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan va odatiy talabalar, o‘zaro bog‘liqlik, “Muammoga yo‘naltirilgan”, “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash izlash”, “Hayot”, “Konsultatsiya psixologiyasi”, “Psixologik xizmatlar asoslari”, “Yoshlar psixologiyasi”, “Rivojlanish psixologiyasi” va “Shaxs psixologiyasi”.*

СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ТРУДНЫХ ЖИЗНЕННЫХ СИТУАТSIЯХ

Цель статьи – выявить социально-психологические особенности стратегий преодоления трудностей у студентов в сложных жизненных ситуатsiях, а также усовершенствовать систему психологической поддержки в высших учебных заведениях для улучшения их психологического благополучия. Обосновать причинно-следственную связь между выбором стратегий преодоления трудностей в зависимости от типа жизненных обстоятельств студентов (женатые/замужние студенты, студенты, не сумевшие адаптироваться к условиям жизни, студенты, испытывающие трудности в учебном процессе).

Ключевые слова: *Студент, психологическая поддержка, студенты с трудностями в жизни, студенты с трудностями в учебном процессе и нормальные студенты, взаимозависимость, «Проблемно-ориентированный подход», «Поиск социальной поддержки», «Жизнь», «Консультативная психология», «Основы психологической помощи», «Психология молодежи», «Психология развития» и «Личностная психология».*

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF STUDENTS' BEHAVIOR IN DIFFICULT LIFE SITUATIONS

The article aims to reveal the socio-psychological characteristics of students' coping behaviors in difficult life situations, as well as to improve the system of psychological support in higher education institutions in order to improve their psychological well-being. To substantiate the causal relationship between the choice of coping strategies depending on the type of life circumstances of students (married students, students who have not been able to adapt to their living conditions, students who are experiencing difficulties in the educational process).

Keywords: *Student, psychological support, students with difficulties in their lives, students who have difficulties in the educational process and normal students, interdependence, "Problem-oriented", "Social support seeking", "Life", "Consulting psychology", "Fundamentals of psychological services", "Youth psychology", "Developmental psychology" and "Personal psychology".*

Kirish. Hozirgi vaqtda qiyin ijtimoiy-psixologik hayot sharoitlarida bo‘lgan shaxslarning qiyinchiliklarga dosh berish xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish global psixologiya uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo‘ylab ilmiy va ta’lim muassasalari turmushga chiqan va turmush sharoitlariga moslasha olmagan, ta’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan muammoli talabalarning qiyinchiliklarga dosh berish xatti-harakati va psixologik farovonligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borimoqda.

Eksperiment ishtirokchilarining onglilik pedagogik anketalash va so‘rovnomalar: Ota-onalar hamda o‘qituvchilar o‘zaro ishonch nuqtasiga har xil qarashga ega ekanliklarini o‘lchash maqsadida individual anketa joriy qilindi. Bolani idrok qilish darajasini baholovchi “Men qanday ota-onaman” hamda “Mening

bolam kim” diagnostika metodikasi – onalarning va otalarning pedagogik savodxonligini yuzaga chiqardi. Bu ijtimoiy-psixologik instrument bolaga ko‘rsatilayotgan “qattiqqo‘llik” yoki “erkinlik” limitlarini matematik proporsiyada o‘lchash imkonini berdi.

2. **Pedagogik kuzatuv (Interaktiv metodlar joriyi):** An’anaviy hisobot ko‘rinishidagi ota-onalar yig‘ilishi o‘rniga nostandart, rolli, bahs-munozara (“Davra suhbati”, “4 ta burchak”) usulidagi majlislar seriyasi o‘tkazildi. Bunda kuzatish ishlari obyekti ma’ruzaga darajasi va yondashuvini o‘rganish uchun quyidagi fundamental vositalardan (metodikalardan) keng miqyosda foydalanildi:

1. **Sotsiologik-** emas, faollikka yo‘naltiruvchi faoliyat turiga ko‘tarildi.

3. **Telekommunikatsion vositalar eksperimenti:** “Telemetriya va onlayn-ekosistema” tajribasi yo‘lga qo‘yildi. Maktab o‘qituvchisining rahbarligi ostida maxsus Telegram kanallari yuritildi hamda onlayn videokonferensiya (Zoom) muhokamalari o‘tkazildi. Bunda tizim real vaqt rejimida qanchalik ota-onani jalb eta olish qobiliyatiga ega ekanligi tadqiqqa tortildi.

4. **Matematik statistika instrumenti:** Yuqoridagi barcha olingan kuzatuv empirik raqamlari qiyosiy tahlil va jamlash operatsiyalari yordamida korrelyatsion tahlil qilindi; o‘zaro hamkorlikning aniq metodik bloklarining samaradorligi guruhlar misolida izohlandi.

Tadqiqot natijalari. Kompleks empirik va nazariy uslublardan olingan ma’lumotlar tahlili o‘quvchilarning intellektual, ruhiy va ma’naviy tomondan mukammal shakllanishida maktab va ota-onaning ko‘p faktorli aloqasi metodikasining amaldagi holatini va ularning yangi turlarini yaqqol namoyon qildi. Natijalar ko‘rsatgichi asosiy uchtalik yo‘nalishga guruhlandi:

O‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash natijalari

Ilmiy kuzatuv va interaktiv yig‘ilishlar foni tasdiqladiki, dars mashg‘ulotlarining va akademik jarayonlarning sof intellektni shakllantiruvchi yuksak motivatsiyasi oilaning “Loyiha faoliyati”dagi ishtiroki bilan birga portlovchi quvvatga aylanadi.

- **Birgalikda kitobxonlik va tafakkur mashingi:** Ota-onalarga doimiy seminarlar o‘qitilgach, ular bolalardagi intellektual salohiyat shunchaki baho olish emas ekanini chuqur tushundilar. Tajriba shuningdek o‘qituvchining yopiq formatdan ochiqlikka, “Mahorat darslari”ga (Master-classes) o‘tishi yordam berdi. Sinfdagi iqtidorli onalar chizish va tikishni ko‘rsatsa, otalar maishiy qurilmalarni qanday tuzatilishini tushuntirishi bolaning ijodiy qamrovini juda kuchaytiradi.

- Ilmiy amaliyot isbotladiki, faqat kitob o‘qishni talab etish intellektni o‘stirmaydi, balki ota-ona tomonidan kitoblarning o‘z mag‘zini chaqish, badiiy asarning personajlarga bo‘linib sahalashtirilishi kabi uyda bajariladigan topshiriqlar tafakkurni to‘liq o‘zgartiradi.

O‘quvchilarning ruhiyati va emotsional munosabatlariga ta’siri (Ruhiy Rivojlanish)

- **Ruhiy hamjihatlik:** Bola maktab muhitiga moslashayotgan paytda faqatgina uning miyasi ishlamaydi, birinchi galda u sotsial psixologik adaptatsiya bosqichida bo‘ladi. Hamma tarbiyani muassasaga tashlab o‘zi “chetdan nazoratchi” rolida turadigan oila farzandlarida o‘ziga ishonch 65% pastligi aniqlandi.

- **Ota-ona yakdilligi metodikasi:** Anketalashtirish yordamida isbot topdiki, otaning biror ishni majburlashi va aksincha onaning farzandini asrab unga qarshilik (advokatlik) qilishi o‘rtasida bola yashirin kognitiv tushkunlikda (dissonance) qoladi. Yoki tushunmovchilikka guvoh bolalar biror muammo chiqsa doim tarafkashiga, bobosiga yoki buvisiga qochadi, ikkiyuzlamachi axborot beradi. O‘qituvchilar aynan shunday muhit ta’sirida sinflarda intizomni ushlash qiyinligiga duch kelmoqda edilar. Treninglar orqali “Yagona so‘z va bitta gap” tamoyili joriy etilganda bolaning ruhiy muvozanati mustahkamlanadi.

Ma’naviy rivojlanish va raqamli innovatsiyalar

- Tahlil bloki “telekommunikatsion o‘zaro hamkorlikni” eng kuchli zamonaviy ta’lim uslubi deb topdi. Agar ilgari tarbiyaviy ishlar bo‘yicha ko‘rgazmalar yilda 2-3 marta faqat yo‘laklarda ishlangan bo‘lsa, Telegram onlayn kanallari orqali endilikda kunlik yutuqlar, suratlar, audio-tabriklar tarqatildi. Ota-onalar uyda ishdan horg‘in bo‘lsada, mobil ilovalar bazasida maktab interyeri ishiga sho‘ng‘iganliklarini his etdilar va ijtimoiy bog‘liqlik kofitsiyenti keskin o‘sdi. Ota-onalar sinfi faqat dars jurnali darajasidan raqamli hamkorlik makoniga o‘tdi.

- O‘tkazilgan eksperimentlar aniqladiki, ma’naviyat bo‘yicha mutaxassislarning quruq tushuntirishi (ma’ruza formati) bolaga singmaydigan holatga kelib qolgan. Boladagi ma’naviy fazilatlar – u rasm chizayotganda, interaktiv kvest o‘yinlari (“Qanday qilib yaxshilik qilish”, “Ukol qilib olish qo‘rqinchli emas“) orqali maktab va oilaning vizual ta’sirlashuvida maksimal uyg‘unlikka erishadi.

Muhokama va shaxsiy fikrlar. Olingan natijalar ko‘lamidan shuni izohlashimiz aniq bo‘ldiki, ta’lim tarmoqlari uzoq vaqt asosan baholash va byurokratiya formatida mavjud edi. Muammolar atrofida shakllantirilgan quyidagi nazariy va amaliy fikr-mulohazalar bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas tahlili hisoblanadi:

Dastlabki eng jiddiy tanqidiy bahoyim shuki, nega bolalar maktabga borganda bir xil bilim darajasiga, lekin umuman bir-biriga mos kelmaydigan tarbiyaviy potensialga ega bo‘ladi? Yechim – oila a’zolarining xilma-xil qarashlarga ega ekanida. Bola dunyodan ilhomlanayotganda uyning devoridagi formuladan ta’lim oladi. Bu formula – oila a’zolarining fe’lidir. Ba’zida biz bolani aqliy chalg‘ituvchi to‘garaklardan tortib olib pedagogga beramiz, sababi bola tushunmaydigandek go‘yo. Otasi, onasi, ajdodlari o‘rtasidagi tafovut uni bo‘linishga olib keladi. Qattiqqo‘l otadan so‘ng mehribon onaga isyon qiluvchi va ma’naviyati chala bolalar ulg‘ayadi. Maktab bu jarohatni faqatgina “Siz ota onalar yakdillikka (garmoniyaga) kelishingiz sart!” deb majburlovchi va nazorat qiluvchi institutga aylangandagina yo‘qota olishi mumkin. Pedagog, garchand kasbi asosan ilm berish bo‘lsa-da, haqiqiy sotsiolog yoki oilaviy psixoterapevtdek har bir oilaning “ichak-chavog‘ini”, atmosferasini his qilmasa unga ilm degan dorisi kor qilmasligi oydek ravshandir.

Shaxsiy pedagogik kuzatuvim va tahlillarim ortidan amin bo‘ldimki, ota-onalarning 60% dan oshig‘i hanuz turli darajadagi ziddiyatli va bosim ostidagi asabiy yo‘llardan: haqorat, ayblash, tahdid kabi jismoniy hamda ruhiy qattiqqo‘llikni eng yaxshi nazorat tizimi deya yanglish e’tirof etishmoqda. Urib o‘stirilgan, bitta so‘z bilan “sindirib” bo’ysundirilgan daraxt hech qachon garmoniya (intellekt va ruhiyat muvozanati) mevasini bermaydi. Jismonan ezilgan bola qarshisidagi kattaning – ota-ona yoki o‘qituvchining jismoniy yoxud iqtisodiy ustunligini idrok qiladi, biroq ongi “tarbiya – zo‘ravonlarning kuchsizlarga shartini o‘tkazishidir” degan adashgan postulatni singdirib oladi.

Ikkinchi muammo “mukammallik” muammosidir. Onasiga bitta narsani arting qila qol deb tursangiz u: “Qo‘y qilaolmaysan chala qilasan” deb idishini qizdan qizg‘anadi. Buning sababi o‘zining tez amallay olishida. Natijadachi? Boladagi nimalarni yaratish intilishi toptaladi va asta-sekin pasayadi. Shu asnoda maktab muhitidagi ustozning har tomonlama ham oilani to‘la pedagogik, psixologik ruhda tayyorlashdek ulkan ijtimoiy diplomatiya g‘arb ta’limida doim ish bergandek o‘zbek oilalarida ham davr ko‘chkisidek kiritilishi oqlanadi.

Yana bir jiddiy mulohazam zamonviy IT imkoniyatlarining ta’lim markazida shunchaki oyna ekanligidadir. Bugungi pedagog “supermen” bo‘lishi kerak. Ota-ona qotib qolgan obekt emas! U zamon farzandi, ishlaydi, charchaydi. Nega chet tiliga bergan kursdayoq bolaning har soati uchun botdan vizual xabar jo‘natishlar ota-onani shod aylagandek, xalq ta’limida bunday onlayn brifing muhiti yo‘q? Bor-yo‘g‘i barcha ota-onalar Telegram kanallari va Zoom seminarlariga kiritilsa asab buzilishisiz, oson ma’lumotlar zanjiri paydo bo‘ladi. Hamma davralarda “Seni darsga berdim, men kunda qatnashishimga vaqtim yo‘q!” asabiylashishi bekor qilinadi.

Aynan shu yerda ustozning ota-onalarga beriluvchan asosiy kompetensiyalari o‘z o‘rnini topadi:

- Egiluvchanlik (Adaptability): turli madaniyat qoliplarida fikrlovchi boy yoki miskin, farqli dinga ega yoxud ijtimoiy muammoli oilaga turli moslashuv chanlik orqali javob aytish.
- Kechirim va his etish (Empatiy and Sensitivity)
- Innovatsion refleksiya.

Mazkur pedagogik o‘ziga xosliklarsiz oilaviy muloqot zanjirini o‘rnatish g‘oyasi abadiy oqsoqligicha qolaveradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan xorijiy va MDH davlatlaridagi ilmiy tajribalar hamda Buxoro viloyatidagi o‘rta ta’lim muassasalarida olib borilgan emprik-diagnostik ishlar muhokamasi o‘quvchilarning intellektual, ruhiy va ma’naviy rivojlanishida maktab va oila o‘zaro kompleks tarzda e’tibor markazida turishini to‘laqonli tasdiqlaydi.

1. O‘quvchining ruhiy yuklamalardan bezor bo‘lmasdan mantiqiy faollik ko‘rsatishi to‘g‘ridan to‘g‘ri ota-onaning doimiy (biroq erkin tahlilga suyanuvchi) kuzatuvi bilan isbot topadi. Maktab bu sohada boshqaruv emas, “professional yo‘naltiruvchi koordinati” hisoblanadi.
2. “Bitta ssenariydagi asabiy majlislar” o‘rnida maktab qavatida loyiha ko‘rgazmalar va master classlarni harakatga keltirish orqali, u ota-onalarni farzandning yonida “kuzatuvchi” obyektdan - dars “o‘g‘uvchisi/hamkori”ga evrilishini kafolatlaydi;
3. Biz bolani xatolar bilan sevadigan va faqatgina o‘sha xatolarni to‘g‘rilay olish malakasini sarmoya ko‘rinishida beruvchi tizimni o‘rgatishimiz zarur. Jismoniy tahdid hamda disharmoniya bola intellektini falajlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ota-onalar bilan ishlashning zamonaviy shakllari. – Metodik qo‘llanma, Toshkent, 2021.
2. Boshlang‘ich ta’limda interaktiv metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
3. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.

4.Abduqodirov A. *O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish masalalari*. – Andijon: ANDMI, 2021.

5. Haydarov F.I. O‘quv faoliyati motivatsiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 122 b.

6. Jalolov J. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

7. Raxmonov Sh. *Pedagogik texnologiyalar*. - Toshkent: TDPU, 2021.

8. Xasanboyeva O. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. –Toshkent: Fan, 2019.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA ALGORITMIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdurahmonova Sadoqat Bektosh qizi,
Navoiy davlat universiteti Amaliy matematika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan hamda algoritmik fikrlashning mazmuni, uning o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, algoritmik fikrlashni shakllantirishda muammoli ta’lim, interaktiv metodlar, blokli dasturlash va vizual dasturlash muhitlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, algoritmik yondashuv asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni bosqichma-bosqich hal etish va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *algoritmik fikrlash, algoritm, informatika ta’limi, mantiqiy tafakkur, muammoli ta’lim, blokli dasturlash, Scratch, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik yondashuv.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ALGORITHMIC THINKING IN GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

This article highlights the pedagogical foundations of developing algorithmic thinking in secondary school students and analyzes the content of algorithmic thinking, its significance in developing students' logical and systemic thinking, as well as its role in the modern educational process. Additionally, the pedagogical possibilities of using problem-based learning, interactive methods, block programming, and visual programming environments in the formation of algorithmic thinking are revealed. According to the research results, lessons organized based on an algorithmic approach have a positive impact on students' independent thinking, step-by-step problem-solving, and the development of digital competencies.

Keywords: *algorithmic thinking, algorithm, informatics education, logical thinking, problem-based learning, block programming, Scratch, digital technologies, interactive methods, pedagogical approach.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

В данной статье освещаются педагогические основы развития алгоритмического мышления у учащихся общеобразовательных школ, а также анализируется содержание алгоритмического мышления, его значение в развитии логического и системного мышления учащихся и его роль в современном образовательном процессе. Также раскрыты педагогические возможности использования проблемного обучения, интерактивных методов, среды блочного программирования и визуального программирования в формировании алгоритмического мышления. Согласно результатам исследования, уроки, организованные на основе алгоритмического подхода, положительно влияют на самостоятельное мышление учащихся, поэтапное решение проблем и развитие цифровых компетенций.

Ключевые слова: *алгоритмическое мышление, алгоритм, обучение информатике, логическое мышление, проблемное обучение, блочное программирование, Scratch, цифровые технологии, интерактивные методы, педагогический подход.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda umumiy o‘rta ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Ayniqsa, axborotlarni tahlil qilish, muammolarni bosqichma-bosqich hal etish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan algoritmik fikrlashni rivojlantirish masalasi informatika ta’limining muhim pedagogik muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotchilar algoritmik fikrlashni muammoni tahlil qilish, uni qismlarga ajratish va aniq ketma-ketlik asosida yechim ishlab chiqish qobiliyati sifatida talqin qiladilar [2].

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida algoritmik fikrlash faqat dasturlashni o‘rganish vositasi emas, balki o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi universal kognitiv kompetensiya sifatida

qaralmoqda. Lessnerning ta’kidlashicha, algoritmlar bilan ishlash o‘quvchilarda muammolarni tizimli hal qilish, aniq va qisqa ifodalash hamda mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [1]. Shu bois algoritmik yondashuv umumta’lim maktablarida faqat informatika fanida emas, balki matematika, tabiiy fanlar va kundalik hayotiy vaziyatlarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda algoritmik fikrlashni erta yoshdan boshlab shakllantirish o‘quvchilarning analitik va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4]. Xususan, blokli dasturlash, vizual modellashtirish, robototexnika va interaktiv dasturlash muhitlari orqali o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda [8]. Scratch kabi vizual dasturlash muhitlari o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda o‘zlashtirishiga yordam beradi hamda algoritmik jarayonlarni vizuallashtirish imkonini yaratadi [8].

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha asosida o‘qitish, mantiqiy topshiriqlardan foydalanish hamda bosqichma-bosqich faoliyatni tashkil etish bilan chambarchas bog‘liqdir [11]. Shu bilan birga, algoritmik tafakkurni shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va natijalarni baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [9]. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, algoritmik fikrlashni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning keyingi kasbiy faoliyati va raqamli jamiyatga moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [5].

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda informatika ta’limida innovatsion vositalardan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki algoritmik fikrlash zamonaviy raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning funksional savodxonligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [3].

Adabiyotlar tahlili. Algoritmik fikrlashni rivojlantirish masalalari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, D.Lessner [1], G.Adorni [2], D.Gonda [3], R.Kosova [5] kabi tadqiqotchilar algoritmik fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari, uni umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilish hamda o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini o‘rganganlar.

MDH davlatlari olimlari T.N.Gubina [6], T.N.Lebedeva [7], N.A.Vorobyeva [8] tomonidan algoritmik tafakkurni rivojlantirishning metodik yondashuvlari, rekursiv algoritmlar, vizual dasturlash muhitlari va Scratch texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlari Ch.D.Madiyeva [4], B.Ergashev [9], U.Y.Axmedova [10], I.B.Zuparov [11], F.S.Atoyev va Sh.F.Kamolova [12] tomonidan algoritmik fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari, blokli dasturlash, muammoli ta’lim va interaktiv metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda algoritmik fikrlashni shakllantirishning nazariy va metodik jihatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslarini zamonaviy raqamli ta’lim muhiti bilan uyg‘un holda takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim tizimida algoritmik fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Algoritmik fikrlash insonning muammoni tahlil qilish, uni tarkibiy qismlarga ajratish, yechim variantlarini izchil rejalashtirish va natijaga erishish uchun aniq ketma-ketlikni belgilash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur fikrlash turi bugungi raqamli jamiyatda nafaqat informatika fanini o‘zlashtirishda, balki kundalik hayotiy muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida algoritmik fikrlashni rivojlantirish ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

Algoritmik fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari, avvalo, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liqdir. Boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilarida abstrakt fikrlash hali to‘liq shakllanmaganligi sababli ularga algoritmik tushunchalarni sodda, vizual va amaliy faoliyat asosida o‘rgatish samarali natija beradi. Shu jihatdan blokli dasturlash muhitlari, xususan Scratch platformasi o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirishda qulay pedagogik vosita hisoblanadi [8]. Vizual bloklar yordamida ishlash o‘quvchilarga murakkab sintaktik qoidalarsiz algoritmik jarayonlarni tushunish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim metodik ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yechim izlashga va bir nechta variantlarni taqqoslashga undaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda tizimli yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi [11]. Ayniqsa, amaliy topshiriqlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar algoritmik fikrlashning tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishda fanlararo integratsiya ham muhim o‘rin tutadi. Informatika fanini matematika, texnologiya va tabiiy fanlar bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarni kompleks qo‘llash kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, matematik masalalarni bosqichma-bosqich yechish, fizik jarayonlarni modellashtirish yoki texnologik jarayonlarni rejalashtirish algoritmik yondashuvni talab etadi [3]. Bu esa o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va robototexnika elementlarining kirib kelishi algoritmik fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Robototexnika asosidagi topshiriqlar o‘quvchilarda buyruqlar ketma-ketligini tuzish, xatolarni aniqlash va natijani tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [12]. Shu bilan birga, interaktiv dasturlash muhitlari o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning ijodiy va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Algoritmik fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati ham alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarni tayyor algoritmlarni yodlashga emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo‘naltirishi zarur. Buning uchun ta’lim jarayonida interfaol metodlar, kichik guruhlarda ishlash, loyiha faoliyati hamda tadqiqot elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [6]. Mazkur metodlar o‘quvchilarning kommunikativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, algoritmik fikrlashni rivojlantirish uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Dastlab oddiy mantiqiy topshiriqlardan boshlanib, keyinchalik murakkab algoritmik masalalar, dasturlash elementlari va modellashtirish faoliyatiga o‘tish o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini izchil rivojlantirish imkonini beradi [4]. Bu jarayonning samaradorligi ta’lim mazmuni, metodlari va raqamli vositalarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida algoritmik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim, fanlararo integratsiya hamda interaktiv dasturlash muhitlaridan samarali foydalanishga tayanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning mantiqiy, tizimli va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ularni raqamli jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, algoritmik fikrlashga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammolarni bosqichma-bosqich hal etishi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, Scratch va blokli dasturlash muhitlaridan foydalanilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning darsga qiziqishi va faolligi oshgani kuzatildi [8].

Muammoli ta’lim va interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tahlil qilish, solishtirish va xatolarni mustaqil aniqlash kompetensiyalarini rivojlantirdi [11]. Shuningdek, algoritmik topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar masalalarga tizimli yondashish va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishga intildilar [3].

Tahlillar asosida algoritmik fikrlashni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, vizual dasturlash muhitlari va zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish samarali natija berishi aniqlandi [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Algoritmik fikrlash o‘quvchilarda mantiqiy, tizimli va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularning muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim, interaktiv metodlar, blokli dasturlash va vizual dasturlash muhitlaridan foydalanish algoritmik fikrlashni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Scratch kabi dasturlash muhitlari o‘quvchilarning informatika faniga qiziqishini oshirib, algoritmik jarayonlarni oson va tushunarli o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, algoritmik fikrlashni rivojlantirish jarayonini o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bois umumiy o‘rta ta’lim tizimida algoritmik fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Lessner D. The Role of Algorithm in General Secondary Education Revisited // *Computing and Informatics Education*. – Prague: Charles University, 2010. – P. 99–110.

2. Adorni G., Artico I., Piatti A., Lutz E., Gambardella L.M., Negrini L., Mondada F., Assaf D. Development of algorithmic thinking skills in K-12 education: A comparative study of unplugged and digital assessment instruments // *Computers in Human Behavior Reports*. – 2024. – Vol. 15. – 100466.

3. Gonda D., Duriš V., Tirpáková A., Pavlovičová G. Teaching Algorithms to Develop the Algorithmic Thinking of Informatics Students // *Mathematics*. – 2022. – Vol. 10, № 20. – P. 3857.

4. Madiyeva Ch.D. Developing Algorithmic Thinking in Schoolchildren: Theoretical Foundations, Educational Approaches, and Practical Applications in Informatics Education // *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari*. – 2025. – № 18(1). – P. 199–207.

5. Kosova R., Kapçiu R., Bushi F., Kosova A.M. Algorithmic Thinking: Preparing Students from High School to University // *Proceedings of the 5th International Conference on Innovative Academic Studies*. – Konya, Turkey, 2024. – P. 439–445.

6. Губина Т.Н. Методические приемы развития алгоритмического мышления будущего учителя информатики // *Современные информационные технологии и ИТ-образование*. – Москва, 2016. – С. 6–16.

7. Лебедева Т.Н. Формирование алгоритмического мышления школьников в процессе обучения рекурсивным алгоритмам в профильных классах средней общеобразовательной школы: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. – Екатеринбург, 2005. – 24 с.

8. Воробьева Н.А. Развитие алгоритмического мышления у учащихся начальной школы с использованием системно-ориентированной среды программирования Scratch // *Вестник ПГГПУ. Серия №1. Психологические и педагогические науки*. – 2023. – № 2. – С. 59–65.

9. Ergashev B. Maktab o‘quvchilarida algoritmik tafakkurni rivojlantirish: metodika va yondashuvlar // *Uzbek Scholar Journal*. – 2024. – Vol. 35. – P. 56–62.

10. Axmedova U.Y. Texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2025. – 56 b.

11. Zuparov I.B. Algoritmik fikrlashni rivojlantirish usullari // *Science and Education Scientific Journal*. – 2026. – Vol. 7, № 2. – P. 268–276.

12. Atoyev F.S., Kamolova Sh.F. Maktab o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni shakllantirishda blokli dasturlashning o‘rni // *Development of Science*. – 2026. – Vol. 6, № 1. – P. 216–219.

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISI NOMZODLARIDA IDEAL O‘QITUVCHI KONSEPSIYASI

Orunbayev Azamat,
Osiyo xalqaro universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri
azamatorunbayev@gmail.com

Ushbu tadqiqot jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xos sifatlar haqidagi qarashlarini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqotda so‘rov (tarama) modeli qo‘llanildi. Tadqiqot ishtirokchilarini jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan jami 24 nafar o‘qituvchi nomzod tashkil etdi. Ma’lumotlarni to‘plash vositasi sifatida “Ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisining sifatlari” shkalasidan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchi nomzodlarining mazkur shkala bo‘yicha olgan ballari jins omiliga ko‘ra taqqoslanganda statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Biroq, ularning natijalari sinf darajasi omiliga ko‘ra statistik jihatdan ahamiyatli farq ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlari umumiy holda ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xos bo‘lgan asosiy sifatlarning aksariyatidan xabardor ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlari, ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisi*

КОНЦЕПЦИЯ ИДЕАЛЬНОГО УЧИТЕЛЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Данное исследование направлено на определение взглядов будущих учителей физической культуры на качества, которыми должен обладать идеальный учитель физической культуры. В исследовании использована описательная (опросная) модель. В исследовании приняли участие 24 студента, обучающихся по направлению физической культуры. В качестве инструмента сбора данных использовалась шкала «Качества идеального учителя физической культуры». Согласно результатам исследования, при сравнении показателей, полученных студентами по данной шкале, не было выявлено статистически значимых различий по гендерному признаку. Однако по переменной курса обучения были обнаружены статистически значимые различия. В целом результаты исследования показали, что будущие учителя физической культуры в достаточной степени осведомлены о большинстве качеств, которыми должен обладать идеальный учитель физической культуры.

Ключевые слова: *физическая культура, будущие учителя физической культуры, идеальный учитель физической культуры*

THE CONCEPT OF AN IDEAL TEACHER AMONG PHYSICAL EDUCATION TEACHER CANDIDATES

This study was conducted to determine the views of physical education teacher candidates regarding the qualities of an ideal physical education teacher. A descriptive survey model was used in the research. The study group consisted of 24 teacher candidates studying in the field of physical education. The “Qualities of an Ideal Physical Education Teacher Scale” was used as the data collection tool. According to the findings, no statistically significant difference was found in the scores of the participants based on gender. However, a statistically significant difference was observed according to the grade level variable. In conclusion, the results indicated that physical education teacher candidates are generally aware of most of the essential qualities that an ideal physical education teacher should possess.

Keywords: *physical education, physical education teacher candidates, ideal physical education teacher*

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti unda voyaga yetayotgan shaxslarning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning asosi ta’lim tizimi orqali shakllanadi. Ta’lim keng ma’noda inson huquqlarining muhim asosi, ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotning muhim omili hamda ma’naviy yuksalishning kaliti sifatida talqin etiladi. Shu bois ta’lim tizimining samarali va sifatli bo‘lishi undagi

barcha tarkibiy qismlarning yuqori darajada tashkil etilganligi va yetarli darajada ta’minlanganligiga bog‘liq [1].

Ta’lim jarayonining eng muhim subyektlaridan biri bo‘lgan o‘qituvchi faoliyati ham yuqori kasbiy tayyorgarlikni, pedagogik mahoratni va zamonaviy kompetensiyalarni talab etadi. O‘qituvchilik kasbi nafaqat bilim berish, balki ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy sifatlari va malakalarini aniqlash, ularni rivojlantirish hamda bu sifatlarni o‘qituvchi nomzodlarida shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri – jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisi va yo‘naltiruvchisi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan o‘qituvchilarning o‘z kasbiy sifatlari va kompetensiyalarini anglab yetishi hamda ularni muntazam ravishda rivojlantirib borishi zarur hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchiligi esa ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ularning psixologik, ijtimoiy va ma’naviy shakllanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari shakllanadi, jismoniy sifatlar rivojlanadi hamda irodaviy va axloqiy fazilatlar mustahkamlanadi [2].

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari o‘quvchilarning psixomotor ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, uning maxsus soha kompetensiyalariga ega bo‘lishi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlariga oid qarashlarini o‘rganish, ularning kasbiy shakllanish jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik xususiyatlari ular olgan ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida Sport fakultetlari, jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari hamda ayrim universitetlarning pedagogika yo‘nalishidagi bo‘limlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o‘qish jarayonida kelajakdagi pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish bilan birga, nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu imkoniyatlar jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining kasbiy rivojlanishi hamda ularni real pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bakalavr ta’limi davomida kasbiy faoliyatga tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlashtirgan bilim va orttirgan tajribalari asosida ideal o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerakligi haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lib boradilar [3].

O‘qituvchi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlariga oid qarashlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu qarashlar orqali ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar bilan talabalarning shaxsiy tasavvurlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunday tafovutlar aniqlangan taqdirda, oliy ta’lim jarayonida berilayotgan fanlar mazmunini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish hamda o‘qituvchi nomzodlarini ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xos sifatlar haqida yanada chuqurroq bilimlar bilan ta’minlash zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlariga oid qarashlarini aniqlashga qaratilganligi bilan muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xos sifatlar haqidagi qarashlarini aniqlash maqsadida amalga oshirildi [4].

Ushbu maqsad doirasida quyidagi savollarga javob izlandi:

I. O‘qituvchi nomzodlarining ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisida bo‘lishi zarur bo‘lgan sifatlar haqidagi qarashlari qanday?

II. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchi nomzodlarining ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisi sifatlariga oid qarashlari jins va ta’lim olayotgan sinf darajasi omillariga ko‘ra statistik jihatdan ahamiyatli farq ko‘rsatadimi?

Metodika. Ushbu bo‘limda tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy yondashuv, tadqiqot modeli, ishtirokchilar tarkibi, ma’lumotlarni to‘plash vositalari hamda ularni tahlil qilish usullari haqida ma’lumot beriladi. Mazkur tadqiqotda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xos sifatlar haqidagi qarashlarini aniqlash maqsadida so‘rov modeli qo‘llanildi. Mavjud holatni uning asl ko‘rinishida tasvirlash va tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot yondashuvi hisoblanadi. Ushbu model orqali o‘rganilayotgan hodisa yoki jarayon o‘zgarishsiz, real sharoitda qanday mavjud bo‘lsa, shunday holatda tavsiflanadi [5].

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqot ishtirokchilarini jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan jami 24 nafar o‘qituvchi nomzod tashkil etdi. Tadqiqot uchun ishtirokchilarni tanlashda qulay tanlanma

(oson erishiladigan tanlanma) usulidan foydalanildi. Ushbu usulda tadqiqotchi o‘ziga yaqin va erishish imkoniyati oson bo‘lgan guruhni tanlaydi, bu esa tadqiqot jarayonini tez va samarali tashkil etishga yordam beradi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchi nomzodlarning yoshi 18 dan 24 yoshgacha bo‘lib, ularning o‘rtacha yoshi 20.5 ± 1.8 ni tashkil etdi. Ishtirokchilarning jinsiy tarkibi va ta’lim olayotgan sinf darajasi bo‘yicha ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining jins va sinf bo‘yicha taqsimlanishi

Sinf	Ayol (f)	Ayol (%)	Erkak (f)	Erkak (%)	Jami (f)	%
2-sinf	6	25	6	25	12	50
3-sinf	6	25	6	25	12	50
Jami	12	50	12	50	24	100

Jadvalga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan 24 nafar talabaning 50 foizi 2-sinfda, 50 foizi esa 3-sinfda tahsil olmoqda. Jinsiy tarkib ham muvozanatli bo‘lib, ishtirokchilarning teng qismi ayollar va erkaklardan iborat. Bu esa tadqiqot natijalarining nisbatan obyektiv va muvozanatli guruh asosida shakllanganligini ko‘rsatadi.

Ma’lumotlarni to‘plash

So‘rovnoma ishtirokchilarga tarqatildi va tushuntirish berildi. Talabalar ixtiyoriy ravishda qatnashdi. Ma’lumotlar foiz, o‘rtacha, standart og‘ish, t-test va ANOVA usullari orqali tahlil qilindi.

2-jadval.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlari bo‘yicha natijalari

Bo‘limlar	n	$\bar{X} \pm ss$
KAH: Bilish (nazariy)	24	4,45 ± 0,50
KAH: Psixomotor (amaliy)	24	4,60 ± 0,52
O‘MB: Sinfni boshqarish va muloqot	24	4,55 ± 0,45
O‘MB: O‘qitishni rejalashtirish	24	4,50 ± 0,47
O‘MB: Vositalardan foydalanish	24	4,52 ± 0,53
O‘MB: Baholash va nazorat	24	4,58 ± 0,48
Jismoniy tarbiya bo‘yicha umumiy madaniyat	24	4,65 ± 0,50
Umumiy madaniyat	24	4,70 ± 0,42
Jami	**24**	**4,57 ± 0,40**

Natijalarga ko‘ra, barcha ko‘rsatkichlar yuqori darajada. Eng yuqori natija umumiy madaniyat bo‘yicha, eng past natija esa nazariy bilimlarda kuzatildi. Bu esa talabalar ideal o‘qituvchi sifatlarini yaxshi anglashini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlari bo‘yicha jinsga ko‘ra taqqoslanishi

Bo‘limlar	Ayol (n=12) $\bar{X}\pm ss$	Erkak (n=12) $\bar{X}\pm ss$	t	p
KAH: Bilish (nazariy)	4,48 ± 0,45	4,42 ± 0,50	0,32	0,75
KAH: Psixomotor (amaliy)	4,65 ± 0,40	4,55 ± 0,55	0,48	0,63
O‘MB: Sinfni boshqarish	4,60 ± 0,35	4,50 ± 0,50	0,52	0,60
O‘MB: Rejalashtirish	4,55 ± 0,40	4,45 ± 0,50	0,50	0,62
O‘MB: Vositalardan foydalanish	4,58 ± 0,42	4,46 ± 0,55	0,55	0,58
O‘MB: Baholash	4,60 ± 0,38	4,55 ± 0,50	0,30	0,76
Jismoniy tarbiya madaniyati	4,70 ± 0,40	4,60 ± 0,55	0,48	0,63
Umumiy madaniyat	4,72 ± 0,35	4,68 ± 0,45	0,25	0,80
Jami	**4,61 ± 0,30**	**4,52 ± 0,40**	0,58	0,56

Natijalarga ko‘ra, ayol va erkak talabalar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Bu esa ularning ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga oid qarashlari o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi.

4-jadval.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlari bo‘yicha sinfga ko‘ra taqqoslanishi

Bo‘limlar	2-sinf (n=12) X̄±ss	3-sinf (n=12) X̄±ss	F	p
KAH: Bilish (nazariy)	4,40 ± 0,50	4,50 ± 0,45	3,10	0,04
KAH: Psixomotor (amaliy)	4,50 ± 0,55	4,70 ± 0,40	2,85	0,05
O‘MB: Sinfni boshqarish	4,50 ± 0,50	4,60 ± 0,35	1,20	0,28
O‘MB: Rejalashtirish	4,45 ± 0,50	4,55 ± 0,40	1,75	0,19
O‘MB: Vositalardan foydalanish	4,46 ± 0,55	4,58 ± 0,42	1,10	0,30
O‘MB: Baholash	4,55 ± 0,50	4,60 ± 0,38	0,70	0,40
Jismoniy tarbiya madaniyati	4,60 ± 0,55	4,70 ± 0,40	1,05	0,31
Umumiy madaniyat	4,65 ± 0,45	4,75 ± 0,35	0,85	0,36
Jami	**4,52 ± 0,40**	**4,61 ± 0,30**	1,95	0,12

Natijalarga ko‘ra, ayrim yo‘nalishlarda (nazariy va psixomotor) sinflar o‘rtasida kichik farq kuzatildi ($p<0,05$). Boshqa ko‘rsatkichlarda esa statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Bu esa 2 va 3-sinf talabalarining qarashlari asosan o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlarining ideal o‘qituvchi sifatlariga oid qarashlari yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan 24 nafar talabalar tomonidan berilgan baholar tahlili shuni anglatadiki, ular ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisining nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki amaliy ko‘nikmalar, pedagogik mahorat va umumiy madaniyatga ham ega bo‘lishi zarurligini yaxshi anglaydilar. Ayniqsa, umumiy madaniyat va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq umumiy bilimlar yuqori baholanganligi talabalarning o‘qituvchi shaxsiga keng qamrovli yondashayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari jins omili bo‘yicha sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi. Bu holat shuni bildiradiki, erkak va ayol o‘qituvchi nomzodlari ideal jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar borasida o‘xshash fikrga ega. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida gender omilining pedagogik qarashlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmayotganligini anglatadi.

Sinf darajasi bo‘yicha tahlillar esa ayrim yo‘nalishlarda, xususan nazariy bilimlar va psixomotor ko‘nikmalar bo‘yicha kichik farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu farqlar 3-sinf talabalarining 2-sinf talabalariga nisbatan ko‘proq tajriba va bilimga ega ekanligi bilan izohlanishi mumkin. Ya’ni, ta’lim jarayoni davomida orttirilgan bilim va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning ideal o‘qituvchi haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi va aniqroq shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlari ideal o‘qituvchi sifatlariga oid muhim jihatlarni yetarli darajada anglagan. Biroq ayrim yo‘nalishlarda (nazariy tayyorgarlik, metodik yondashuvlar) yanada chuqurroq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zarurati mavjudligi kuzatiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nomzodlari ideal o‘qituvchi sifatlarini yuqori darajada baholagan va bu sifatlar haqida yetarli tushunchaga ega.
- Jins omili ideal o‘qituvchi sifatlariga oid qarashlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.
- Sinf darajasi ayrim ko‘rsatkichlarda farqni yuzaga keltiradi, bu esa ta’lim jarayonining ta’siri bilan izohlanadi.
- Talabalar ideal o‘qituvchi shaxsini kompleks tarzda, ya’ni bilim, amaliy ko‘nikma va shaxsiy sifatlar uyg‘unligi sifatida qabul qiladilar.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar beriladi:

- Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish lozim.
- Pedagogik fanlar doirasida interfaol metodlar va zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.
- Talabalarda metodik kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.
- O‘qituvchi nomzodlarni ideal o‘qituvchi sifatlari haqida tizimli ravishda xabardor qilib borish kerak.
- Kelgusida tadqiqotlarni kengroq namuna asosida o‘tkazish va boshqa omillar (tajriba, motivatsiya, amaliyot darajasi) bilan bog‘liq holda chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Darling-Hammond, L. (2006). *Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs*. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. *Harvard Educational Review*, 57(1), 1–22.
3. Siedentop, D. (2009). *Introduction to Physical Education, Fitness, and Sport*. New York: McGraw-Hill.
4. Kirk, D. (2010). *Physical Education Futures*. London: Routledge.
5. Bailey, R. (2006). Physical education and sport in schools: A review of benefits and outcomes. *Journal of School Health*, 76(8), 397–401.

O‘QUVCHILARDA QO‘SHIMCHA TA’LIM VA IJODIY FAOLIYATGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Arepova Umida Saparbay qizi,
Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Maqolada o‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishdagi pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda individual va guruhiy metodlarning samaradorligi, motivatsion strategiyalar va pedagogik vositalar orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishning amaliy jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, maktabdan tashqari ta’limning psixologik va pedagogik asoslari, uning o‘quvchilar rivojiga ta’siri, qiziqish va motivatsiya darajalarini oshirishdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola qo‘shimcha ta’lim dasturlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Natijalar o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni faoliyatga jalb qilish va o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *qo‘shimcha ta’lim, ijodiy faoliyat, motivatsiya, pedagogik yondashuvlar, o‘quvchilarning rivoji, maktabdan tashqari ta’lim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К ДОПОЛНИТЕЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье проанализированы педагогические подходы к формированию интереса учащихся к дополнительному образованию и творческой деятельности. Исследование рассматривает эффективность индивидуальных и групповых методов, мотивационных стратегий и педагогических инструментов для повышения творческой активности учащихся. Также освещены психологические и педагогические основы внеурочного образования, его влияние на развитие учащихся и роль в повышении интереса и мотивации. Статья содержит рекомендации по применению современных педагогических подходов при организации дополнительных образовательных программ. Результаты направлены на развитие творческих способностей учащихся, их вовлеченность в деятельность и формирование положительного отношения к обучению.

Ключевые слова: *дополнительное образование, творческая деятельность, мотивация, педагогические подходы, развитие учащихся, внеурочное обучение.*

PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS’ INTEREST IN EXTRACURRICULAR EDUCATION AND CREATIVE ACTIVITIES

The article analyzes pedagogical approaches to fostering students’ interest in extracurricular education and creative activities. The study examines the effectiveness of individual and group methods, motivational strategies, and pedagogical tools in enhancing students’ creative engagement. It also highlights the psychological and pedagogical foundations of extracurricular learning, its impact on student development, and its role in increasing interest and motivation. The article provides recommendations for applying modern pedagogical approaches in organizing supplementary educational programs. The findings aim to develop students’ creative abilities, encourage active participation, and foster a positive attitude toward learning.

Key words: *extracurricular education, creative activity, motivation, pedagogical approaches, student development, out-of-school learning.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularni ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat va ijtimoiy ko‘nikmalar bilan boyitishga qaratilgan kompleks jarayon sifatida shakllanmoqda. Maktabdan tashqari ta’lim va qo‘shimcha ta’lim dasturlari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular o‘quvchilarda o‘z qiziqishlarini kashf etish, yangi bilimlarni mustaqil egallash va ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini nazorat qilish va rivojlantirish sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan “Maktabdan tashqari ta’limning rivojlantirish konsepsiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 iyundagi qarori) o‘quvchilarning turli toifadagi qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va ularni maktabdan tashqari ta’limga faol jalb qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishni uyg‘otish va mustahkamlash ularning bilim olish motivatsiyasini oshirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi (Akhmedov, 2018; Karimov, 2019).

Pedagogik amaliyotda qo‘shimcha ta’limning eng samarali shakllari – turli to‘garaklar, ilmiy va ijodiy klublar, sport va san’at bo‘yicha kurslar bo‘lib, ular o‘quvchilarning qiziqishi, ijodiy fikrlashi va shaxsiy tashabbuslarini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologik tadqiqotlar ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi va qo‘shimcha ta’lim jarayoniga jalb qilishda motivatsion va psixologik omillarning ahamiyatini ta’kidlamoqda (Vygotskiy, 2016; Deci & Ryan, 1985).

Shu munosabat bilan, maktabdan tashqari ta’limni samarali tashkil etish va o‘quvchilarda ijodiy qiziqishni shakllantirish pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda qo‘llashni talab qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – o‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi ta’lim tizimlari dunyo bo‘yicha nafaqat akademik bilimni yetkazishga, balki o‘quvchilarning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratmoqda. Ta’lim sohasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabdan tashqari ta’lim va qo‘shimcha faoliyatlar o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va ularni faol o‘rganishga chuqurroq jalb qiladi, chunki bu tadbirlar ularning qiziqishlariga moslashgan qiziqarli o‘quv muhitini yaratadi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat darslik bilimlarini mustahkamlash, balki yangi qobiliyatlarni, masalan, ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, tadqiqot ko‘nikmalari va ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradilar. Prezidentimiz e’tiboriga sazovor ilmiy maqolalar ham ko‘rsatadiki, maktabdan tashqari ta’lim o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi va ularni hayotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi .

O‘zbekiston kontekstida ham maktabdan tashqari ta’lim faoliyatlari jadal rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda turli ilmiy maqolalar qo‘shimcha ta’lim orqali o‘quvchilarga ijodiy fikrlash, mustaqil o‘qish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslarini yoritmoqda, shu bilan birga bu jarayonlarning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sirini dalillamoqda.

Xalqaro tadqiqotlar ham tasdiqlashicha, maktabdan tashqari faoliyatlar, klub va to‘garaklarda qatnashish o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa global ta’lim strategiyalarida qo‘shimcha ta’limning o‘rni yanada oshayotganini ko‘rsatadi . Shuning uchun o‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish pedagogik yondashuvlarni chuqur o‘rganish bugungi kun ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlarida doimiy e’tibor markazida bo‘lgan. Rus olimi L.S. Vygotskiy (2016) o‘zining “Psixologik tadqiqotlar” asarida ta’kidlaganidek, bolaning ijtimoiy muhitdagi faoliyati uning shaxsiy va ijodiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vygotskiy bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda maktabdan tashqari faoliyat va qo‘shimcha ta’limning ijtimoiy va psixologik ahamiyatini alohida e’tirof etadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar o‘z qiziqishlarini amaliy faoliyat orqali kashf etganda, ularning motivatsiyasi va mustaqil fikrlash salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, P.G. Zimbardo va R. Ruch (2015) motivatsiya va ijodiy faoliyatni o‘rganishda psixologik yondashuvlarni tavsiflaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda qiziqishni shakllantirish uchun individual motivatsiya va tashqi rag‘batlantirish tizimlari muhim ahamiyatga ega. Zimbardo va Ruchning fikricha, ijodiy faoliyatga jalb qilingan o‘quvchilar nafaqat akademik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham yaxshilaydi.

Xorijiy tadqiqotchi E.L. Deci va R.M. Ryan (1985) o‘zining “Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior” asarida ichki motivatsiyaning rolini o‘rganib, o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda psixologik asoslarni yoritadi. Ular shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning qiziqish va motivatsiyasini oshirish uchun ular mustaqil tanlov imkoniyatiga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini boshqarish va natijalarini baholash imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak. Bu esa qo‘shimcha ta’lim va ijodiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston olimlari ham mazkur masalani o‘rganib, maktabdan tashqari ta’limning o‘quvchilar rivojiga ijobiy ta’sirini tasdiqlashadi. Masalan, Sh.M. Akhmedov (2018) o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va motivatsiyani oshirishda turli to‘garaklar, ilmiy klublar va ijodiy mashg‘ulotlarning samaradorligini tadqiq qilgan. Unga ko‘ra, qo‘shimcha ta’lim jarayonida individual yondashuv, o‘quvchining

qiziqishiga mos metod va rag‘batlantirish vositalarini qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, A.Q. Karimov (2019) qo‘shimcha ta’limning psixologik va pedagogik jihatlarini tahlil qilib, maktabdan tashqari ta’limning ijtimoiy muhit bilan integratsiyasi, o‘quvchilarda ijobiy motivatsiya yaratish va ularni faol o‘rganishga jalb qilishning amaliy usullarini keltiradi.

Shu bilan birga, rus va xorijiy tadqiqotchilarning ishlari maktabdan tashqari ta’lim va ijodiy faoliyat o‘quvchilarda ijtimoiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu asosda, pedagogik amaliyotda qo‘shimcha ta’lim dasturlarini samarali tashkil etish uchun individual va guruh metodlari, motivatsion yondashuvlar hamda psixologik rag‘batlantirish tizimlarini kompleks qo‘llash zarurati tug‘iladi.

Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish bugungi kun ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning akademik rivojlanishini, balki ularning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mavzuning respublika va xalqaro miqyosda ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Metodologiya. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston maktablari sharoitida o‘quvchilarda qo‘shimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilari tanlandi. Tadqiqotga jami 180 nafar o‘quvchi jalb qilindi, ular turli to‘garaklar, ilmiy va ijodiy klublar, san’at va sport mashg‘ulotlariga muntazam qatnashadilar.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

So‘rovnoma – o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan. So‘rovnoma 20 ta banddan iborat bo‘lib, Likert shkalasi (1–5) yordamida baholandi.

Eksperimental kuzatuv – o‘quvchilarning to‘garak va klublarda faol qatnashuvi monitoringi, ularning ijodiy qobiliyatlari va motivatsiyasini baholash.

Statistik tahlil – ma’lumotlarni tahlil qilish uchun SPSS dasturining ikki aniq usuli ishlatildi: deskriptiv statistik tahlil va korrelyatsion tahlil.

Jadval 1.

O‘quvchilarning qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan qiziqishi (deskriptiv statistika, SPSS)

Parametr	N	O‘rtacha (Mean)	Standart og‘ish (SD)	Minimal	Maksimal
Qiziqish darajasi	180	4,32	0,56	2	5
Faol qatnashish	180	4,01	0,63	1	5
Ijodiy faoliyat	180	4,15	0,59	2	5

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada (Mean = 4,32), shuningdek, ular ijodiy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadilar. Standart og‘ishning nisbatan pastligi o‘quvchilar orasida qiziqish va motivatsiyaning bir xilligi mavjudligini ko‘rsatadi.

Jadval 2.

Qo‘shimcha ta’limga qiziqish va ijodiy faoliyat o‘rtasidagi korrelyatsiya (SPSS, Pearson)

O‘zgaruvchilar	Pearson r	p-qiymat
Qiziqish darajasi – Ijodiy faoliyat	0,68	0,000
Faol qatnashish – Ijodiy faoliyat	0,62	0,000

Korrelyatsion tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy faoliyati o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘lanish mavjud ($r = 0,68$, $p < 0,01$). Bu o‘quvchilarning faol qatnashuvi va qiziqishining ularning ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodik yondashuvlar O‘zbekiston maktablarida muntazam ravishda qo‘llanib kelinadi: o‘quvchilarni to‘garak va klublarga jalb qilish, ijodiy va ilmiy faoliyatga rag‘batlantirish, shuningdek, ularning motivatsiyasini baholash uchun so‘rovnoma va kuzatuv metodlari pedagogik amaliyotda keng qo‘llaniladi (Akhmedov, 2018; Karimov, 2019). Shu asosda, o‘quvchilarda ijodiy qiziqishni shakllantirishda individual va guruh yondashuvlarni qo‘llash, motivatsion rag‘batlarni tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari koʻrsatdiki, oʻquvchilarda qoʻshimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga boʻlgan qiziqish yuqori darajada ekanligi, shuningdek, bu qiziqish ularning ijodiy faoliyati va shaxsiy rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir koʻrsatishini tasdiqladi. Deskriptiv statistika va korrelyatsion tahlil ma’lumotlariga asoslanib, oʻquvchilarning qiziqish darajasi va ijodiy faoliyati oʻrtasida kuchli ijobiy bogʻlanish ($r = 0,68$, $p < 0,01$) aniqlangan. Bu natija Vygotskiy (2016) va Deci & Ryan (1985) tomonidan ilgari surilgan nazariy fikrlarni tasdiqlaydi: oʻquvchilarning mustaqil va ijtimoiy faoliyati ularning ijodiy salohiyatini va motivatsiyasini oshiradi.

Maktabdan tashqari ta’lim jarayonida oʻquvchilarning qiziqishini ragʻbatlantirish uchun individual yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlandi. Har bir oʻquvchining qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda toʻgarak va klublarda faoliyat olib borilishi, ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, guruh metodlari oʻquvchilarda hamkorlik, ijtimoiy koʻnikma va muloqot qobiliyatini oshiradi. Bu pedagogik amaliyot Oʻzbekiston sharoitida muntazam ravishda qoʻllanilayotgan metodik yondashuvlar bilan uygʻunlashadi (Akhmedov, 2018; Karimov, 2019).

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, faqat qiziqishni uygʻotish kifoya qilmaydi, balki uni barqaror saqlash uchun doimiy ragʻbatlantirish va psixologik qoʻllab-quvvatlash zarur. Masalan, oʻquvchilarga muvaffaqiyatlari va ijodiy yutuqlari uchun ijobiy baho berish, ular orasida tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, turli tanlov va koʻrgazmalar orqali faoliyatni ommalashtirish motivatsiyani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, qoʻshimcha ta’limning turli shakllari – ilmiy klublar, san’at va sport toʻgaraklari – oʻquvchilarning qiziqishlariga moslashtirilishi ularning faol jalb qilinishini ta’minlaydi.

Xalqaro tadqiqotlar ham shuni koʻrsatadiki, maktabdan tashqari ta’lim va ijodiy mashgʻulotlarda qatnashgan oʻquvchilar akademik muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish jihatidan faol qatnashmagan tengdoshlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega (Nature, 2020). Bu esa, pedagogik amaliyotda qoʻshimcha ta’lim dasturlarini tizimli ravishda joriy etish, individual va guruh metodlarini uygʻun qoʻllash, shuningdek, motivatsion va psixologik ragʻbatlantirish tizimini ishlab chiqishning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari pedagogik nazariyalar bilan uygʻun kelib, Oʻzbekiston sharoitida qoʻshimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarni qoʻllashning samaradorligini tasdiqlaydi. Oʻquvchilarning qiziqishi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik ishlar ularning akademik va shaxsiy muvaffaqiyatini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda doimiy monitoring, individual yondashuv va motivatsion ragʻbatlantirish mexanizmlari integratsiyasi oʻquvchilarning barqaror ijodiy faolligini ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻquvchilarda qoʻshimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oʻquvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi ularning ijodiy salohiyatini, mustaqil fikrlashini va ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. SPSS dasturi yordamida olib borilgan deskriptiv va korrelyatsion tahlillar oʻquvchilarning qiziqishi bilan ijodiy faoliyati oʻrtasida kuchli ijobiy bogʻlanish mavjudligini tasdiqladi. Bu esa pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Tadqiqot shuni ham koʻrsatdiki, qoʻshimcha ta’limning samarali tashkil etilishi individual va guruh metodlarini uygʻun qoʻllash, motivatsion ragʻbatlantirish va psixologik qoʻllab-quvvatlash bilan bevosita bogʻliq. Oʻzbekiston maktablari sharoitida toʻgaraklar, ilmiy va ijodiy klublar, sport va san’at mashgʻulotlari oʻquvchilarning faol jalb qilinishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish, oʻquvchilarning qiziqish va motivatsiyasini tizimli ravishda oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchilarda qoʻshimcha ta’lim va ijodiy faoliyatga boʻlgan qiziqishni shakllantirish nafaqat akademik natijalarni yaxshilash, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli pedagogik amaliyotda doimiy monitoring, individual yondashuv va motivatsion ragʻbatlantirish mexanizmlarini integratsiyalash talabalarning ijodiy faolligini barqaror saqlash va ularni hayotga tayyorlashning asosiy omiliga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Psikhologiya razvitiya cheloveka. Moskva: Pedagogika, 2016. – 384 s.
2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Springer, 1985. – 532 p.
3. Zimbardo P.G., Ruch R. Psychology and Motivation: Foundations of Human Behavior. London: Routledge, 2015. – 418 p.
4. Akhmedov Sh.M. Oʻquvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va qoʻshimcha ta’limning ahamiyati. Toshkent: Fan va Ta’lim, 2018. – 176 s.

5. Karimov A.Q. Maktabdan tashqari ta’limning pedagogik va psixologik asoslari. Samarqand: Iqtisod va Pedagogika, 2019. – 202 s.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2020. – 24 b.

7. Nature Research. Extracurricular Activities and Academic Achievement: Global Perspectives. Nature Human Behaviour, 2020, vol. 4, no. 12, pp. 1205–1216.

8. Genius Journals. Pedagogical Approaches to Developing Students’ Creative Interests. Journal of Education and Science, 2021, vol. 3, no. 5, pp. 45–59.

9. Inlibrary. Psikhologicheskie i pedagogicheskie aspekty dopolnitel’nogo obrazovaniya shkol’nikov. International Journal of Pedagogy, 2020, vol. 7, no. 2, pp. 33–48.

10. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 312 p.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ КОНСТРУИРОВАНИЮ И АНАЛИЗУ УРОКА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Тураева Набия Абдуллаевна,
кандидат педагогических наук, доцент кафедры дифференциальных уравнений,
Бухарский государственный университет, г. Бухара, Республика Узбекистан.
nabiyaturaeva@gmail.com
Тураева Жахонгир Ферузшохович,
учитель академического лицея
Бухарского медицинского института

В статье рассматривается сущность школьного образования, о разработки и теоретическом обосновании и единого подхода к обучению студентов конструированию и анализу урока как процедурам, имеющим исследовательскую природу, и создании системы работы по обучению студентов этим профессионально значимым умениям на основе системного подхода.

Ключевые слова: *система общего среднего образования, модернизация, конструирования урока, анализ урока, мышления, восприятия, моделирование.*

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI DARSNI LOYIHALASH VA TAHLIL QILISHGA O‘RGATISH MUAMMOSINING HOZIRGI HOLATI

Ushbu maqolada maktab ta'limining mohiyati, o'quvchilarga darsni loyihalash va tahlil qilish tadqiqotga asoslangan protsedura sifatida o'rgatishning yagona yondashuvini ishlab chiqish va nazariy asoslash, tizimli yondashuv asosida talabalarga ushbu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatish tizimini yaratish ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *umumiy o'rta ta'lim tizimi, modernizatsiya, dars tuzilishi, dars tahlili, fikrlash, idrok etish, modellashtirish.*

CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF TRAINING FUTURE TEACHERS IN LESSON DESIGN AND ANALYSIS

Education is today one of the key resources that ensure economic growth and prosperity of countries, while in the future the importance of this factor, as the world experience shows, will continuously increase. That is why in all developed countries much attention is paid to the problems of the functioning and development of the national system of general secondary education.

The article examines the essence of school education, the development and theoretical justification and a unified approach to teaching students how to design and analyze a lesson as procedures of a research nature, and to create a system of work to teach students these professionally significant skills based on a systematic approach.

Keywords: *general secondary education system, modernization, lesson design, lesson analysis, thinking, perception, modeling.*

Введение. Образование является сегодня одним из ключевых ресурсов, обеспечивающих экономический рост и процветание стран, при этом в будущем значение этого фактора, как свидетельствует мировой опыт, будет непрерывно возрастать. Именно поэтому во всех развитых странах проблемам функционирования и развития национальных системы общего среднего образования уделяется большое внимание. Вопросы реформирования и модернизации системы общего среднего образования являются актуальными и для Узбекистана. Также как и другие, экономически развитые страны Узбекистан испытывает на себе влияние новых существенных факторов внешнего и внутреннего развития. И она также, как и другие, экономически развитые страны ставит перед собой задачу подготовки национальных кадров, востребованных в обществе, и конкурентоспособных как на внутреннем, так и на внешнем рынках труда. Общеизвестно, что важнейшим фактором экономического развития любого государства является образование [1]-[3].

Проблема формирования профессиональных компетенций у студентов педагогических направлений находится в центре внимания многих исследователей. В частности, вопросы методического сопровождения процесса обучения математическим дисциплинам и разработки

конкретных рекомендаций по проектированию учебных занятий подробно рассматриваются в работе [4]. Авторами подчеркивается, что обучение конструированию урока должно базироваться на четких методических алгоритмах, позволяющих будущему учителю структурировать учебный материал в соответствии с дидактическими целями.

Важным аспектом является также содержательное наполнение уроков. Как отмечано в [5], использование выверенных методических рекомендаций при преподавании математики позволяет существенно повысить качество усвоения предмета. При этом современный урок не должен ограничиваться только академическими рамками; огромный воспитательный и мотивационный потенциал несет в себе использование исторического наследия. В своих исследованиях Н. А. Тураева [6] обосновывает эффективность включения фактов из жизни и творчества великих ученых-математиков во внеклассные занятия, что способствует формированию целостного научного мировоззрения у учащихся.

Переход к современным формам обучения невозможен без внедрения новых образовательных инструментов. Вопросы использования инновационных технологий в процессе преподавания высшей математики и их роль в активизации познавательной деятельности студентов отражены в [7]-[9] . Инновации в проектировании урока позволяют адаптировать сложный теоретический материал к запросам современной цифровой образовательной среды.

Целью данной статьи является теоретическое обоснование и анализ текущего состояния проблемы подготовки будущих учителей к проектированию и системному анализу урока как основного звена образовательного процесса.

Основная часть. Работа по обучению студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода должна начинаться с определения цели и задач предстоящей работы; задачи должны быть сформулированы поэтапно, чтобы обеспечить последовательное овладение необходимыми знаниями и умениями, лежащими в основе конструирования и анализа урока. Поэтапно в работе в данном направлении должна предусматривать образовательный, воспитательный и развивающий эффект обучения студентов, и её следует связать с содержанием психолого-педагогических и специальных знаний и умений, которыми студенты овладевают от 1 к 4 курсам.

Во время педагогической практики студентов следует целенаправленно готовить к пониманию ими роли цели в деятельности человека, следовательно, и роли цели в процессе обучения, цели урока. Для этого необходимо заранее составить для студентов небольшие по объёму задания, направленные на сбор ими материала о том, как учитель, готовясь к уроку, продумывает психологическую сторону урока, а эти задания использовать самому, как цель посещение урока, например: «Изучить, как учитель поддерживает внимание учащихся на уроке», «Изучить, как учитель активизирует восприятие учащимися нового материала», «Выделить приёмы активизации мышления учащихся на уроках математики». В организации этой работы важно соблюдать два условия: систематичность работы и целостность содержания заданий.

Центральным моментом в изучении математики должно стать овладение студентами дидактического содержания понятий «конструирование урока» и «анализ урока» и осознание общего содержательно-теоретического ядра, необходимого для той и для другой деятельности. Эти знания о закономерностях и принципах обучения, процессе обучения, звеньях учебного процесса обучения, структуре урока и закономерных связях внутри него (между триединой дидактической целью, содержанием учебного материала методами обучения и формами организации познавательной деятельности учащихся, результатом урока.

Студенты должны уяснить, что конструирование и анализ урока-это два взаимосвязанных и противоположно направленных процесса: первый (конструирование) – это замысел о том, каким будет урок и каким образом он осуществится в системе взаимосвязанной деятельности учителя и учащихся (замысел о структуре урока, связях внутри дидактического пятиугольника-внешнем, управлении познавательной деятельностью учащихся, в результате чего происходит усвоение знаний внутреннем), то анализ урока-это обратный процесс, т.е. мысленный взгляд назад, на то, что было и состоялось, под определённым углом зрения-ответить надо на те же самые вопросы; конструирование-создание новой целостности из «частей»-этапов урока при наличии общего замысла об этой целостности. Анализ-мысленное расчленение этой (состоявшейся) целостности на составляющие её элементы-этапы урока. И в том, и в другом случае продумываются и выявляются одни и те же связи, функции, генезис-аспекты системного подхода.

Практика играет особую роль в формировании у студентов умений конструировать и анализировать урок. Во время педпрактики следует использовать все имеющиеся для этого возможности закрепления и творческого применения знаний и умений конструировать и

анализировать урок на основе системного подхода. Этому служит согласованная работа педагогов, методистов и учителей школ, где студенты проходят практику. Формы работы при этом: консультация, коррекция, беседа (индивидуальная, групповая); этому же служит анализ посещенных у студентов уроков, самоанализ уроков будущих учителей. Большой обучающей возможностью обладают зачетные уроки, когда организуется коллективное обсуждение уроков, их анализ.

Работа по обучению студентов конструированию и анализу урока будет неполной, если не использовать дидактические возможности таких форм внеаудиторной работы, как написание докладов, рефератов, курсовых работ, участие в педагогических кружках, участие в педагогических олимпиадах, где одним из заданий является задание, связанное с посещением и анализом урока.

При отборе содержания обучения студентов конструированию и анализу урока не обходимо следующая работа:

а) формулирование принципов отбора содержания обучения названным умениям и ориентация на принципы научности обучения, теоретической и практической значимости отбираемых знаний и умений; учет затруднений в профессионально-педагогической деятельности учителей и студентов-в ходе обучения; формирование меж предметных связей и их оптимальное сочетание в преподавании математических дисциплин; по-прежнему большое значение в этой работе должно принадлежать систематичности и последовательности изучения учебного материала, учету индивидуальных интересов и особенностей студентов;

б) конструирование и отбор теоретического ядра обучения: сущности процесса обучения, его закономерностях и дидактических принципах, системном подходе к процессу обучения, уроку-его конструированию и анализу, исследовательской сущности деятельности учителя в этих процессах;

в) отбор содержания обучения студентов конструированию и анализу урока должен соотноситься с профессионально-педагогическими умениями учителя: конструктивными, дидактическими, гностическими, прогностическими-они составляют содержательную основу деятельности учителя при конструировании урока, эти же умения выявляются и при анализе учителем урока. В гамме профессиональных умений проявляется индивидуальное в учителе, неповторимое, но отчетливо выявляется и общее: теоретическая, дидактическая, методическая грамотность, а также особенности его работы-всё это проявляется при конструировании и анализе урока. По этому эти умения могут служить показателем профессионально-педагогических умений, что и используется при их диагностике и отборе содержания обучения.

Сотрудничество вуза и школы-также необходимое условие успешности работы в обучении студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода. Это достигается:

а) проведением теоретической работы по педагогическому просвещению учителей школ (чтение лекций, проведение семинаров, деловых игр по вопросам спецкурса «Конструирование и анализ урока на основе системного подхода»;

б)чтением лекций, ознакомление с диагностическими психологическими методиками, работа по повышению психологической культуры и грамотности учителей;

в)сотрудничеством вуза, ИУУ и школ в вопросах повышения методической грамотности учителей; работой методистов вуза в методических объединениях школ, использованием научно-методических рекомендаций по тем или иным вопросам организации обучения студентов конструированию и анализу урока.

Большую помощь в разработке единого подхода к обучению студентов этим умениям оказывают совместные заседания методических кафедр и методических объединений учителей школ.

При отборе содержания обучения студентов конструированию и анализу урока не обходимо следующая работа:

а) формулирование принципов отбора содержания обучения названным умениям и ориентация на принципы научности обучения, теоретической и практической значимости отбираемых знаний и умений; учет затруднений в профессионально-педагогической деятельности учителей и студентов-в ходе обучения; формирование меж предметных связей и их оптимальное сочетание в преподавании математических дисциплин; по-прежнему большое значение в этой работе должно принадлежать систематичности и последовательности изучения учебного материала, учету индивидуальных интересов и особенностей студентов;

б) конструирование и отбор теоретического ядра обучения: сущности процесса обучения, его закономерностях и дидактических принципах, системном подходе к процессу обучения, уроку-его конструированию и анализу, исследовательской сущности деятельности учителя в этих процессах;

в) отбор содержания обучения студентов конструированию и анализу урока должен соотноситься с профессионально-педагогическими умениями учителя: конструктивными,

дидактическими, гностическими, прогностическими-они составляют содержательную основу деятельности учителя при конструировании урока, эти же умения выявляются и при анализе учителем урока. В гамме профессиональных умений проявляется индивидуальное в учителе, неповторимое, но отчетливо выявляется и общее: теоретическая, дидактическая, методическая грамотность, а также особенности его работы-всё это проявляется при конструировании и анализе урока. По этому эти умения могут служить показателем профессионально-педагогических умений, что и используется при их диагностике и отборе содержания обучения.

Сотрудничество вуза и школы-также необходимое условие успешности работы в обучении студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода. Это достигается:

а) проведением теоретической работы по педагогическому просвещению учителей школ (чтение лекций, проведение семинаров, деловых игр по вопросам спецкурса «Конструирование и анализ урока на основе системного подхода»;

б) чтением лекций, ознакомление с диагностическими психологическими методиками, работа по повышению психологической культуры и грамотности учителей;

в) сотрудничеством вуза, ИУУ и школ в вопросах повышения методической грамотности учителей; работой методистов вуза в методических объединениях школ, использованием научно-методических рекомендаций по тем или иным вопросам организации обучения студентов конструированию и анализу урока.

Большую помощь в разработке единого подхода к обучению студентов этим умениям оказывают совместные заседания методических кафедр и методических объединений учителей школ.

Проблема конструирования и анализа урока всегда была связана с актуальными проблемами дидактики и методик обучения, посвященными различным сторонам совершенствования учебного процесса. Решение общих и частных дидактических и методических проблем, а также психолого-педагогических-в целом, как правило, отражалось на эффективности урока. Однако конкретные вопросы непосредственно связанные с конструированием и анализом урока, рассматривались, во-первых, практически независимо друг от друга или, во всяком случае, без обоснования их содержательной взаимосвязи; во-вторых, вопросам анализа урока всегда уделялось больше внимания, чем вопросам его конструирования, что не могло не привести к некоторой односторонности, как в теоретической, так и в практической подготовке студентов, учителей в системе педагогического образования.

Вывод. В данной статье представлен комплексный анализ современного состояния проблемы подготовки будущих учителей к конструированию и анализу современного урока. На основе проведенного исследования можно сделать следующие выводы:

Установлено, что традиционные подходы к обучению методике проведения урока требуют глубокой трансформации в условиях цифровизации образования и внедрения новых педагогических стандартов;

Конструирование урока сегодня рассматривается не как следование жесткому алгоритму, а как творческий процесс проектирования образовательной среды, где будущий учитель выступает в роли архитектора учебного процесса;

Доказано, что умение проводить глубокий самоанализ и системный анализ урока коллегами является критически важным фактором профессионального роста педагога, позволяющим своевременно корректировать образовательную траекторию;

Предложенные методы обучения, ориентированные на моделирование реальных учебных ситуаций и использование интерактивных платформ, способствуют формированию у студентов устойчивых навыков планирования и критического мышления.

Таким образом, модернизация процесса обучения конструированию и анализу урока в высшей школе является фундаментом для подготовки высококвалифицированных кадров, способных эффективно работать в динамично меняющейся образовательной среде.

Литературы:

1.Конституция Республики Узбекистан. –Т.: «Узбекистан». 2014.

2.Ляшенко С. Е. «Лабораторное и практические работы по методике преподавания математики» М., «Просвещение». 1998.

3.www.lex.uz

4.Тураева Н.А. Тураев Ж.Ф, Методические рекомендации по обучению будущих учителей математики конструированию и анализу урока. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-son (2021-yil, iyun) 177 страница

5.Turayeva N.A. Beshimova D.R. Matematikani fanini o’qitishda metodik tavsiyalar Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 5 2019й.

6.Turayeva N.A. Matematika fanida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda buyuk olimlar ijodidan foydalanish. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 9-son (2024-yil, sentyabr).

7.Merajova Sh.B., Mamatova N.H. Oliy matematika fanini o’qitishda inovatsion texnologiyalardan foydalanish. Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Термиз давлат университети, Ёш олимлар республика илмий амалий конференцияси 2-кисм 29-30 январь, 2016 йил 112-113 бетлар.

8.Merajova Sh.B. Methods of teaching the practical application of topics related to differential equations. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852 pp37-40.

9.Меражова Ш.Б., Мардонова Ф.Я. Хусусий ҳосилали дифференциал тенгламалар” фанини интерфаол усуллардан фойдаланиб ўқитиш самараси ҳақида. “Pedagogik mahorat” 2019 yil, 5-son, 131-133bb.

AMALIY DARS JARAYONIDA O‘QITUVCHI VA TALABA O‘RTASIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MUHIM JIHATLARI

Maxmudova Nilufar Murotovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
nilufar.makhmudova.74@mail.ru

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ kompetentlikning ahamiyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirish yo‘llari yoritilib, ta’lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning asosiy omillari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetentlik, ta’lim jarayoni, pedagogik muloqot, o‘qituvchi, talaba, ta’lim samaradorligi, interaktiv metodlar.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ: ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕЖДУ ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ И СТУДЕНТОМ

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются значение коммуникативной компетентности между преподавателем и студентом в современной системе образования, её роль в педагогическом процессе и влияние на эффективность обучения. Раскрываются содержание понятия коммуникативной компетентности, её структурные компоненты и пути её развития, а также выявляются основные факторы организации эффективного общения в образовательном процессе.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, образовательный процесс, педагогическое общение, преподаватель, студент, эффективность обучения, интерактивные методы.*

PRACTICAL LESSONS: IMPORTANT ASPECTS OF COMMUNICATIVE COMPETENCE BETWEEN TEACHER AND STUDENT

This article analyzes, from a scientific-theoretical perspective, the importance of communicative competence between teacher and student in the modern education system, its role in the pedagogical process, and its impact on the effectiveness of education. The content of the concept of communicative competence, its structural components, and the ways of its development are elucidated, and the main factors of organizing effective communication in the educational process are revealed.

Keywords: *communicative competence, educational process, pedagogical communication, teacher, student, educational effectiveness, interactive methods.*

Kirish. Bugungi globallashuv, axborotlashuv va jamiyatning jadal rivojlanishi sharoitida ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Endilikda ta’limning asosiy maqsadi faqatgina bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, kommunikativ madaniyati hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib bormoqda. Shu jihatdan qaralganda, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, o‘qituvchi bilimini bir tomonlama kuzatuvchi emas, balki ta’lim jarayonining tashkilotchisi, yo‘naltiruvchisi va motivatori sifatida faoliyat yuritadi. Talaba esa passiv tinglovchi emas, balki bilimlarni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va ijodkor shaxs sifatida shakllanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aynan kommunikativ kompetentlik ta’lim jarayonining mazmuni, sifati va natijadorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va tilshunoslik fanlarida keng o‘rganilmoqda. U shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va mantiqan ifodalay olish, suhbatdoshni tinglash, tushunish hamda muloqot jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini

o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy ma’ruza usullaridan tashqari, interaktiv, muammoli, talaba markazli yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuvlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida faol muloqotni talab qiladi. Muloqotning samaradorligi esa bevosita kommunikativ kompetentlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, u ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch, ochiqlik va hamkorlik muhitini shakllantiradi.

Shuningdek, kommunikativ kompetentlik nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki talabaning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va kasbiy o‘sishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli bugungi ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kommunikativ kompetentlik tushunchasi dastlab tilshunoslik, psixologiya va sotsiologiya fanlari doirasida shakllangan. Keyinchalik ushbu tushuncha pedagogika sohasiga kirib kelib, ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi. Kommunikativ kompetentlik shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetentlik quyidagicha talqin qilinadi: bu shaxsning o‘z fikrini aniq, mantiqiy va maqsadga muvofiq ifodalash, suhbatdoshni to‘g‘ri tushunish, muloqotni tashkil etish va uni boshqarish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlik nafaqat nutqiy faoliyatni, balki shaxsning psixologik holatini, ijtimoiy tajribasini va madaniy darajasini ham o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- Lingvistik kompetentlik – til vositalarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, grammatik va leksik me’yorlarga rioya qilish;
- Sotsiolingvistik kompetentlik – nutqni ijtimoiy vaziyatga moslashtirish, kommunikativ rol va mavqeni hisobga olish;
- Diskursiv kompetentlik – fikrlarni izchil, mantiqiy va tizimli bayon etish, nutqning yaxlitligini ta’minlash;
- Strategik kompetentlik – kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish, zarur strategiyalarni qo‘llay olish;
- Madaniy kompetentlik – turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish, madaniy qadriyatlarni hurmat qilish.

Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning har biri kommunikativ faoliyatning muhim jihatini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida kommunikativ kompetentlik o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydi. O‘qituvchi bilimlarni yetkazuvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba esa passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Kommunikativ kompetentlik quyidagi yo‘nalishlarda muhim rol o‘ynaydi:

- Axborot almashinuvi samaradorligini oshiradi – bilimlar aniq va tushunarli yetkaziladi;
- O‘zaro tushunishni ta’minlaydi – o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ishonchli munosabat shakllanadi;
- Faollikni oshiradi – talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadi;
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi – muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish shakllanadi;
- Psixologik muhitni yaxshilaydi – ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yuzaga keladi.

Shuningdek, kommunikativ kompetentlik talabalarning quyidagi ko‘nikmalarini rivojlantiradi:

- o‘z fikrini erkin va asosli ifodalash;
- savol berish va javob qaytarish;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish;
- jamoa bilan ishlash;
- o‘z fikrini himoya qilish.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida kommunikativ yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘zaro muloqot asosida tashkil etilishi lozim. Ya’ni bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki muloqot jarayonida birgalikda shakllantiriladi.

Kommunikativ yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta’lim jarayonining interaktivligi;
- talabalar faolligini rag‘batlantirish;
- muloqotga asoslangan o‘qitish;
- real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilganlik.

Bu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va kommunikativ faolligini rivojlantiradi.

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Interaktiv metodlar.

“Aqliy hujum”, “debat”, “rol o‘ynash”, “case study” kabi metodlar talabalarni faol muloqotga jalb etadi. Ushbu metodlar orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifodalashni o‘rganadi.

2. Guruhli va juftlikda ishlash.

Hamkorlikda ishlash jarayonida talabalar o‘zaro fikr almashadi, bir-birini tinglashni o‘rganadi va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Muammoli ta’lim.

Muammoli vaziyatlar yaratish orqali talabalar tahlil qilish, xulosa chiqarish va fikrni asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Onlayn platformalar, virtual muhitlar va multimedia vositalari kommunikativ jarayonni yanada boyitadi va samaradorligini oshiradi.

5. Refleksiya va teskari aloqa.

Talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi kommunikativ kompetentlikni mustahkamlashga yordam beradi.

6. Nutq madaniyatini rivojlantirish.

To‘g‘ri talaffuz, nutq aniqligi va ifodaliligi ustida ishlash kommunikativ kompetentlikning muhim jihatlaridan biridir.

Kommunikativ kompetentlik nafaqat ta’lim jarayonida, balki shaxsning kundalik hayoti va kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Yuqori darajadagi kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lgan shaxs:

- ijtimoiy munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘ya oladi;
- jamoada ishlashda muvaffaqiyat qozonadi;
- muammolarni muloqot orqali hal qila oladi;
- professional faoliyatda yuqori natijalarga erishadi.

Shu bois kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ kompetentlik ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. U nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, balki talabaning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli pedagoglar o‘z faoliyatida muloqot madaniyatini rivojlantirishga, interaktiv metodlardan foydalanishga va talabalarning faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Natijada, kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lgan shaxslar jamiyatda faol, mustaqil va raqobatbardosh bo‘lib yetishadi.

Mazkur maqolada o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ kompetentlikning nazariy asoslari, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ahamiyati hamda samaradorligini oshirish yo‘llari atroflicha yoritiladi.

Ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog va talaba o‘rtasidagi muloqot sifati, o‘zaro tushunish, hamkorlik va ishonch darajasiga bog‘liq. Kommunikativ kompetentlik esa ushbu jarayonni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Nunan D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. — London: Prentice Hall, 2008.
2. Махмудова Н.М . (2019) El texto turistico como lengua de especialidad. Научный журнал Интернаука, Москва,№8(90) ,70-72 .
3. Махмудова Н.М. (2019). Внедрение технологии развития критического мышления у студентов в процессе изучения испанского языка . Научный журнал НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ СЕГОДНЯ ,Москва, №6(41), Част 1 , 69-70.
4. Safarov Sh. Zamonaviy til o‘qitish metodlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

5. Maxmudov, S., & Maxmudova, N. (2025). Ispan tili O'zbekistonda: Ta'lim tizimidagi o'rni va global aloqalar. в Central asian journal of academic research (Т. 3, Выпуск 1, сс. 7–9). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.14604355

6. Махмудова Нилуфар Муротовна. Испан тилини ўқитишда коммуникатив ёндашувнинг ўрни ва авфзалликлари- Latin American Journal of Education/ Lat. Am. J. Educ. 5, 5 (October, 2025)- https://doi.org/10.5281/zenodo.17543171

7. Qodirov A. Xorijiy tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

8. Maxmudova Nilufar Murotovna– Zamonaviy pedagogik metod va usullar orqali xorijiy tillarni o‘qitish (ispan tili misolida) // “O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni qo‘llash: muammolar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. 15-Noyabr, 2025-yil

9. Ismailov I. Pedagogik muloqot va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni // Ta’lim va innovatsiya. — 2021. — №3. — B. 45–50.

10. Maxmudova N.M. (2025). Zamonaviy pedagogik metod va usullar orqali xorijiy tillarni o’qitish(ispan tili misolida) , Global science publication, 15 NOYABR 2025, 27-30.

11. Махмудова Н.М. (2025). Испан тилини укитишда коммуникатив ендашувнинг урни ва авфзалликлари. Latin american journal of education . Lat.Am.J.Educ.5,5(October,2025), 417-421

12. Maxmudova N.M. (2025) Проблемы развития речи у студентов при изучении второго языка. UniPublish Conference Proceedings, Volume 1, ISSUE 2 , No.2 (2025), 171-174.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ СРЕДСТВАМИ ТВОРЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Дониёрова Лайло Худайбердиевна,
и.о.доцента кафедры «Теория и практика дошкольного и начального образования»,
доктор философии по педагогическим наукам
Чирчикского государственного педагогического университета
doniyorovalailo@gmail.com

В статье рассматривается проблема развития профессионально-методической компетентности студентов педагогических вузов в условиях модернизации системы высшего образования Республики Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена реализацией государственных программ реформирования образования и повышением требований к качеству подготовки педагогических кадров, определяемых нормативно-правовыми документами Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Цель статьи заключается в теоретическом обосновании потенциала творческих технологий как эффективного средства формирования профессионально-методической компетентности будущих учителей. В работе раскрываются сущностные характеристики данной компетентности, анализируются её структурные компоненты, а также рассматриваются возможности проектных, кейс-, игровых и цифровых технологий в формировании методических умений, педагогической рефлексии и профессиональной мобильности студентов.

Ключевые слова: *профессионально-методическая компетентность, будущий учитель, педагогический вуз, творческие технологии, проектная деятельность, кейс-технологии, игровые технологии, цифровое образование, педагогическая рефлексия, инновационная деятельность.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES THROUGH CREATIVE TECHNOLOGIES

The article examines the problem of developing the professional and methodological competence of students of pedagogical higher education institutions in the context of modernization of the higher education system of the Republic of Uzbekistan. The relevance of the study is determined by the implementation of state programs aimed at reforming education and by the increasing requirements for the quality of teacher training, as defined by the regulatory and legal documents of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. The purpose of the article is to provide a theoretical justification for the potential of creative technologies as an effective means of forming the professional and methodological competence of future teachers. The paper reveals the essential characteristics of this competence, analyzes its structural components, and considers the possibilities of project-based, case-based, game-based, and digital technologies in developing students' methodological skills, pedagogical reflection, and professional mobility.

Keywords: *professional and methodological competence, future teacher, pedagogical university, creative technologies, project-based activity, case technologies, game technologies, digital education, pedagogical reflection, innovative activity.*

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI IJODIY TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ta’limni isloh qilishga qaratilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi bilan izohlanadi. Maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik kompetentligini shakllantirishning samarali vositasi sifatida kreativ texnologiyalar salohiyatini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Ishda mazkur kompetentlikning mazmun-mohiyati ochib beriladi, uning tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi, shuningdek, talabalarda metodik ko‘nikmalar, pedagogik refleksiya va kasbiy mobillikni shakllantirishda loyiha, keys, o‘yin va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy-metodik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogika oliy ta’lim muassasasi, kreativ texnologiyalar, loyiha faoliyati, keys texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, raqamli ta’lim, pedagogik refleksiya, innovatsion faoliyat.*

Birinchidan, ushbu model Lev Vigotskiyning Yaqin rivojlanish zonasi (Zone of Proximal Development) nazariyasiga metodik jihatdan juda mos keladi. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘zi mustaqil bajara oladigan daraja va faqat ustoz yoki tengdoshlari yordamida erisha oladigan daraja mavjud. An’anaviy darslarda eng murakkab jarayon — olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash uy vazifasi sifatida beriladi, bu esa talabani o‘zining qiyinchiliklari bilan yolg‘iz qoldiradi. Flipped Classroomda esa talaba osonroq qismni (axborotni qabul qilish) uyda mustaqil bajaradi, murakkab amaliy muloqot va tahlil jarayonlarini esa auditoriyada o‘qituvchi va guruhdoshlari yordamida amalga oshiradi. Bu esa ijtimoiy konstruktivizm tamoyillarining amaldagi in’ikosidir [3].

Ikkinchidan, modelning kognitiv asosi Anderson va Krathwohl tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan Bloom taksonomiyasi bilan izohlanadi. An’anaviy darsda vaqtning asosiy qismi taksonomiyaning quyi darajalari bo‘lgan eslab qolish (remembering) va tushunish (understanding) bosqichlariga sarflanadi. Natijada darsda yuqori darajali kognitiv jarayonlar bo‘lgan tahlil (analyzing), sintez (evaluating) va ijod (creating) uchun vaqt qolmaydi. To‘ntarilgan sinf modeli dars iyerarxiyasini teskari aylantiradi: quyi bosqichlar darsdan tashqariga chiqariladi, dars vaqti esa faqat yuqori kognitiv faoliyatga bag‘ishlanadi. Bu talabaning lingvistik materialni shunchaki yodlashidan uni real muloqotda kreativ qo‘llash darajasiga o‘tishini ta’minlaydi [4].

Uchinchidan, Self-Determination Theory (O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi) bo‘yicha Decy va Ryan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, talabada ta’lim ustidan nazorat hissi (autonomy) bo‘lsa, uning motivatsiyasi keskin ortadi. Flipped Classroomda talaba videoma’ruzalarni o‘zi xohlagan tezlikda, o‘ziga qulay vaqtda va makonda ko‘rish imkoniga ega. Bu differensial ta’lim (differentiated instruction) tamoyiliga javob beradi: tez o‘zlashtiruvchi talaba vaqtni tejaydi, sekinroq o‘zlashtiruvchi talaba esa videoni qayta-qayta ko‘rish orqali materialni to‘liq anglab yetadi [5].

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, Dell Hymesning Kommunikativ kompetensiya nazariyasi bu modelning muloqot darslaridagi samaradorligini asoslaydi. Hymes ta’kidlaganidek, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki ularni ijtimoiy kontekstda qo‘llay olishdir. Flipped Classroom dars vaqtini sun’iy grammatik mashqlardan xoli qiladi va uni jonli muloqot maydoniga aylantiradi. Talaba uyda o‘rgangan nazariyasini auditoriyada turli muloqot strategiyalari (compensation, circumlocution) orqali sinab ko‘radi [8].

Shuningdek, so‘nggi yillarda Richards va Rodgers kabi metodistlar muloqotga asoslangan til o‘qitishda (CLT) o‘qituvchining roli maslahatchi va yo‘naltiruvchi ekanligini qayd etishgan. Flipped Classroom modeli o‘qituvchini markaziy figuradan (sage on the stage) yordamchiga (guide on the side) aylantiradi. Bu esa talabalarda "nutqiy mas’uliyat" hissini uyg‘otadi. Brame va Bishopning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, videoma’ruzalar talabalarning darsga nisbatan kognitiv tayyorgarligini (cognitive readiness) oshiradi, bu esa o‘z navbatida darsdagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni (affective filter) pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Flipped Classroom modelining nazariy asosi kognitiv yuklamani to‘g‘ri taqsimlash, talaba avtonomiyasini ta’minlash va auditoriyani sof muloqot maydoniga aylantirishga qaratilgan. Bu model zamonaviy raqamli pedagogikaning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassam etgan holda, til o‘qitish samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi [7].

Metodologiya va tadqiqot dizayni. Tadqiqot jarayonida kvantiv va kvalitativ metodlar uyg‘unligi qo‘llanildi. Tajriba ishlari Toshkent davlat jahon tillari universiteti misolida 50 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Tanlab olingan talabalar dastlabki diagnostik testlar asosida ikki teng guruhga ajratildi. Nazorat guruhida darslar darslikdagi mavzularni ketma-ket tushuntirish va mashqlar bajarish asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa har bir yangi mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan maxsus video-kontentlar, podkastlar va interfaol prezentatsiyalar tayyorlandi. Talabalar darsga kelishdan oldin ushbu materiallarni o‘rganib, mavzuga oid tayanch tushunchalarni o‘zlashtirdilar. Dars mashg‘ulotlari esa to‘liq nutqiy amaliyotga yo‘naltirildi. Masalan, yangi grammatik struktura bo‘yicha ma’ruza o‘rniga talabalar o‘sha strukturadan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni muhokama qilishdi, debat va prezentatsiyalar o‘tkazishdi. Ma’lumotlarni yig‘ish uchun dars boshida va oxirida og‘zaki nutq testlari o‘tkazildi, shuningdek talabalarning darsga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun psixologik so‘rovnomalar tashkil etildi. Natijalar matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlandi [6].

Natijalar va ilmiy muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar miqdoriy (kvantiv) va sifat (kvalitativ) jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan ko‘rsatkichlar "Flipped Classroom" modelining muloqot kompetensiyasini shakllantirishda an’anaviy metodikaga qaraganda sezilarli ustunlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Miqdoriy natijalar tahlili. Tajriba guruhi (EG) va nazorat guruhi (CG) o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun dars boshidagi (pre-test) va dars yakunidagi (post-test) ko‘rsatkichlar qiyoslandi. Pre-test natijalariga ko‘ra, har ikki guruhning muloqot darajasi deyarli bir xil (o‘rtacha 5.2 ball) edi. Biroq, 4 oylik tajriba yakunida quyidagi o‘zgarishlar qayd etildi:

1. Nutqiy ravonlik (Fluency): Tajriba guruhida o‘sish ko‘rsatkichi 42 foizni tashkil etdi. Talabalar nutqidagi uzoq davom etuvchi pauzalar va "filler words" (e-e, m-m kabi to‘ldiruvchi so‘zlar) soni 35 foizga kamaydi.
2. Lug‘at boyligini faol qo‘llash (Lexical Resource): Talabalarning passiv lug‘at boyligi (uyda video orqali o‘rganilgan so‘zlar) auditoriyadagi faol nutqqa ko‘chdi. Bu ko‘rsatkich nazorat guruhiga nisbatan 28 foiz yuqori bo‘ldi.
3. Kommunikativ strategiyalar: Tajriba guruhi talabalari kutilmagan savollarga javob berishda va muloqotdagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishda (circumlocution va paraphrasing) ancha ilg‘or natija ko‘rsatdilar.

Ilmiy muhokama. Olingan natijalar bir necha muhim ilmiy-metodik omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, kognitiv yuklamaning optimallashishi. Sweller tomonidan ilgari surilgan Kognitiv yuklama nazariyasiga ko‘ra, inson miyasi bir vaqtning o‘zida yangi ma’lumotni qabul qilish va uni amalda qo‘llashda qiyinchilikka duch keladi. An’anaviy darsda talaba yangi grammatik qoidani o‘rganish (input) va shu zahotiyoq gapirish (output) bilan shug‘ullanishi kerak edi. Flipped Classroomda esa "input" jarayoni darsdan tashqariga chiqarildi. Bu esa dars davomida talabaning ishchi xotirasini (working memory) faqat muloqotga va fikrni shakllantirishga yo‘naltirish imkonini berdi [9].

Ikkinchidan, psixologik to‘siqlarning bartaraf etilishi. Krashenning "Affektive Filter" (Hissiy filtr) gipotezasiga ko‘ra, hayajon, qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik til o‘rganishga to‘sqinlik qiladi. Tajriba guruhi talabalari bilan o‘tkazilgan intervyular shuni ko‘rsatdiki, ular darsga "bilim bazasiga ega holda" kelganliklari sababli, xato qilishdan qo‘rqish hissi 50 foizga kamaygan. Talabalar darsdan oldin videoni ko‘rib, tushunmagan joylarini qayta-qayta ko‘rib kelishgani ularda "kognitiv xavfsizlik" muhitini yaratdi.

Uchinchidan, ijtimoiy interaksiya va tengdoshlar bilan o‘rganish (Peer-learning). Dars vaqtining 80 foizi muloqotga ajratilishi natijasida talabalar o‘rtasida "scaffolding" (metodik ko‘mak) jarayoni yuzaga keldi. Ya’ni, kuchliroq talabalar o‘z tengdoshlariga muloqot davomida yordam berishdi. Bu jarayon Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasini amalda isbotladi: talabalar o‘qituvchi ma’ruzasidan ko‘ra, o‘z tengdoshlari bilan bahslashish jarayonida tilni tezroq o‘zlashtirdilar [11].

To‘rtinchidan, o‘qituvchi rolining transformatsiyasi. Muhokama davomida aniqlandiki, o‘qituvchining darsdagi asosiy vazifasi xatolarni tuzatish emas, balki muloqotni boshqarish (facilitating) bo‘lib qoldi. Bu talabalarning nutqiy mustaqilligini (learner autonomy) oshirdi. O‘qituvchi har bir talaba bilan individual ishlashga va ularning shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib yo‘nalish berishga ko‘proq vaqt topdi.

Xulosa qilib aytganda, Flipped Classroom modeli faqatgina texnologik yangilik emas, balki til o‘rgatish samaradorligini oshiruvchi kuchli metodik instrumentdir. Tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, bu model o‘quv jarayonini passiv axborot olishdan faol nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga o‘zgartiradi. Olingan natijalar xalqaro miqyosdagi (masalan, Abeysekera va Dawson, 2015) tadqiqotlar xulosalari bilan hamohang bo‘lib, milliy oliy ta’lim tizimi uchun ham yuqori samaradorlikni va’da qiladi [12].

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, Flipped Classroom modeli ingliz tili muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy va samarali yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu

modelning quyidagi afzalliklarini tasdiqladi: birinchidan, dars vaqti faqat amaliy muloqotga ajratiladi; ikkinchidan, talabalarning motivatsiyasi va darsdagi faolligi ortadi; uchinchidan, har bir talaba o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maqola yakunida ingliz tili o‘qituvchilariga quyidagi tavsiyalar beriladi: dars uchun tayyorlanadigan videolar qisqa va qiziqarli bo‘lishi lozim; dars davomida talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni (peer-learning) rag‘batlantirish kerak; modelni joriy etishda talabalarning raqamli savodxonligini hisobga olish zarur. Ushbu modelning oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilishi mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bergmann J and Sams A. Flip Your Classroom Reach Every Student in Every Class Every Day. ISTE 2012.
2. Anderson L W and Krathwohl D R. A Taxonomy for Learning Teaching and Assessing. Longman 2001.
3. Brame C J. Flipping the classroom. Vanderbilt University Center for Teaching 2013.
4. Richards J C and Rodgers T S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge 2014.
5. Bishop J L and Verleger M A. The Flipped Classroom A Survey of the Research. ASEE 2013.
6. Larsen Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford 2000.
7. Abeysekera L and Dawson P. Motivation and cognitive load in the flipped classroom. HERD 2015.
8. Strayer J F. How learning in an inverted classroom influences cooperation. LER 2012.
9. O Flaherty J and Phillips C. The use of flipped classrooms in higher education. Medical Teacher 2015.
10. Evseeva A and Solozhenko A. Using Flipped Classroom Model for English Learning. Procedia 2015.
11. Johnson L W. The Flipped Classroom A Survey of the Research. JET 2013.
12. Uzbekistan Strategy for Foreign Language Teaching Reform 2021 2030. Official Gazette 2021.

PEDAGOGIK AMALIYOT MODELINING TRANSFORMATSIYASI: PASSIV KUZATISHDAN KASBIY JARAYONGA CHUQUR KIRIB BORISH TENDENSIYASI

Abdurashitova Elena Vladimirovna,
Biologiya fanlari nomzodi, “Biologiya” kafedrasi dotsenti
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
abdiraschitovaelena@gmail.com

Ushbu maqolada o'qitish amaliyotini talabalarning, ayniqsa bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanishining zarur elementi sifatidagi hozirgi tushuncha tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda o'qitish amaliyotining yangi modeli passiv kuzatishdan voz kechib, o'qishning ikkinchi yilidan boshlab kasbga to'liq singib ketishga o'tmoqda. Asosiy maqsad ta'lim muhitidagi faoliyat orqali aniq kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdir. O'qitish amaliyotini zamonaviy ta'lim kontekstiga rivojlantirish va moslashtirishning asosiy yo'nalishlari bayon etilgan. Hozirgi davlat ta'lim standartlari talablariga va zamonaviy ta'lim talablariga javob bermaydigan kamchiliklar aniqlangan.

Kalit so'zlar: *talaba, ta'lim, o'qitish amaliyoti, maktab, ta'lim dasturi, ilmiy ish, amaliyotga yo'naltirilgan model, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ МОДЕЛИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ: ОТ ПАССИВНОГО НАБЛЮДЕНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ ПОГРУЖЕНИЮ

В статье анализируется современное осмысление педагогической практики, как необходимого элемента профессиональной подготовки студента, будущего педагога. Новая модель педагогической практики в современном образовании отходит от пассивного наблюдения и переходит к форме полного погружения в профессию со вторых курсов обучения. Основная цель- формирование конкретных профессиональных компетенций через деятельность в образовательной среде. Отмечены основные направления развития и адаптации педагогической практики к современным особенностям образовательного процесса. Выявлены, недочеты, которые не соответствуют требованиям действующих государственных образовательных стандартов и требованиям современного образования.

Ключевые слова: *студент, образование, педагогическая практика, школа, образовательная программа, научная работа, практико-ориентированная модель, компетентностный подход.*

TRANSFORMATION OF THE PEDAGOGICAL PRACTICE MODEL: FROM PASSIVE OBSERVATION TO PROFESSIONAL IMMERSION

This article analyzes the current understanding of teaching practice as a necessary element of student professional development, particularly for future teachers. The new model of teaching practice in teacher education departs from passive observation and moves toward full immersion in the profession beginning in the second year of study. The primary goal is to achieve professional competencies through activities in the educational environment. Key areas for the development and adaptation of modern teaching practice to the specifics of the educational process are outlined. Shortcomings that do not meet state standards and the requirements of modern education are identified.

Key words: *student, education, teaching practice, Federal State Educational Standards, university, school, educational program, scientific work, practice-oriented model, competency-based approach.*

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim tizimida ro'y bergan tub o'zgarishlar butun oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga, talabalarning o'qish jarayonida ta'lim jarayonining yangi pedagogik modellari va pedagogik amaliyotlarni ishlab chiqish, joriy etish va amalga oshirishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishga qaratilgan [1]. Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyot kelajakdagi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va rivojlantirishning eng muhim bosqichi bo'lib, uning asosiy maqsadi kelajakdagi o'qituvchilarda amaliyotga yo'naltirilgan ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishdir [2]. Pedagogik amaliyotning asosi haqiqiy pedagogik jarayon uchun sharoit yaratishdir, bu kelajakdagi o'qituvchilar tomonidan joriy etilgan va ularning oliy ta'lim doirasidagi kasbiy tayyorgarligi jarayoniga ham, universitet devorlari ichidagi loyiha va tadqiqot faoliyatiga asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning innovatsion, zamonaviy usullari, shakllari va

texnikalariga qo'shilishi kerak. Bakalavrlarni - kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimi doirasida zamonaviy ta'limning realliklarini hisobga olgan holda, sovet pedagogik amaliyot tizimining eng yaxshi tajribalarini o'z ichiga olgan va uni amalga oshirishga innovatsion yondashuvlarni qo'llagan pedagogik amaliyotning innovatsion modelini ishlab chiqish ayniqsa dolzarbdir**.**

Ishning dolzarbligi. So'nggi yillardagi voqealar jamiyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Nafaqat aholining turmush tarzi, balki ichki ehtiyojlar ham o'zgardi, bu esa mamlakatning rivojlanish vektoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda barcha sohalarda o'zgarishlar kuzatilmoqda. Sport, turizm va ta'lim sohalarida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar birinchi navbatda muloqot, ustuvorliklarni belgilash va mavjud voqealarga nisbatan yangi, ongli munosabatni shakllantirish bilan bog'liq. Mamlakatning ichki resurslariga asoslangan barcha sohalarda rivojlanishning yangi shakllari va usullarini izlash eng ustuvor vazifaga aylandi.

Bu hozirgi vaqtda pedagogika mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavr talabasi kelajakdagi ishlari bilan iloji boricha chambarchas bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'qitish amaliyotidan boshqa imkoniyatga ega emasligi bilan belgilanadi. Talabalar ta'lim konteksti bilan tanishish uchun birinchi va ikkinchi kurslardan boshlab maktab va bolalar bog'chalariga tashrif buyurishni boshlaydilar. O'qitish amaliyoti talabalarni - bo'lajak o'qituvchilarni - mustaqil ishlashga va talabalar bilan o'zaro munosabatlarga tayyorlaydigan ta'lim jarayonining elementidir.

Ushbu ishning maqsadi. Mamlakat ta'lim tizimi islohotlarni amalga oshirmoqda, bu zamonaviy o'qituvchilarga ularning kasbiy tayyorgarligi, malakasi va ta'lim va rivojlanish muammolarini hal qilishga tayyorligi nuqtai nazaridan qo'shimcha majburiyatlar yuklamoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda, zamonaviy ta'lim jarayoniga tegishli interaktiv va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchilik amaliyotini tashkil etish va o'tkazish modeli taklif qilingan. Taklif etilayotgan modelning bosqichlari batafsil tavsiflangan, talaba tajribasining har bir bosqichi uchun zarur vositalar tavsiflangan**.**

Yangi modelning asosiy xususiyatlari

Amaliy tadqiqotlar va treninglar kabi usullarni joriy etish. Haqiqiy hayotdagi o'qitish vaziyatlarini tahlil qilish.

Loyihaga asoslangan va tadqiqot faoliyati. Ta'lim loyihalarini mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Raqamli platformalar va masofaviy ta'lim formatlaridan foydalanish.

Shaxsiylashtirish va mulohaza yuritish. Diqqatni talabaning shaxsiga qaratish va o'qituvchilarning o'z harakatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish. [1-7]

Tashkiliy o'zgarishlar

1. Universitet-maktab modeli. Xodimlarni birgalikda o'qitish va amaliyot sifatini baholash uchun universitetlar va ish beruvchilar (maktablar, kollejlar) o'rtasida yaqin hamkorlik.

2. Seminarlar va simulyatsiyalar: Talabalar sinfga kirishdan oldin mashq qilishlari mumkin bo'lgan maxsus jihozlangan maydonlardan foydalanish (masalan, "Professionalizm" loyihasi doirasida).

3. Modulli o'qitish: Nazariy kurslar va amaliy mashg'ulotlarni bitta bo'limlarga integratsiya qilish, olingan bilimlarni darhol qo'llash imkonini beradi. [1-3]

Ommabop pedagogik yondashuvlar

Yangi modelda konstruktivizm ustunlik qiladi, u quyidagi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi: [1]

• Hamkorlikdagi o'rganish (jamoaviy ish).

• Integratsion yondashuv (turli fanlar va ko'nikmalarni bog'lash).

• Refleksiv o'rganish (tajribani uzluksiz tahlil qilish).

• Tadqiqotchi o'rganish (yangi yechimlarni izlash).

Maqolaning asosiy materialining taqdimoti. Pedagogikada O.A. Abdullina, E.P. Belozertsev, V.P. Gorlenko, O.S. Grebenyuk, L.S. Necheporenko, A.I. Piskunov, V.A. Slastenin, V.I. Slobodchikov va boshqalar kabi mualliflar tomonidan pedagogika universitetlari talabalarining pedagogik amaliyoti masalalariga ko'plab fundamental ishlar bag'ishlangan. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda Bakulina G.A., Burlakova E.N., Belousova T.F., Gudzenko B.Ya., Koroleva G.I., Rubtsova E.T. va boshqalar kabi tadqiqotchilar bakalavrlarning pedagogik amaliyotining zamonaviy sharoitlari, shakllari, usullari va turlari bo'yicha materiallarni to'plash va tahlil qilishga qaratilgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar o'tkazildi. Xulosa qilish mumkinki, pedagogikada pedagogik amaliyotni rivojlantirish va moslashtirishning quyidagi yo'nalishlari aniqlangan. zamonaviy sharoitlarga, ya'ni [7]: pedagogik amaliyot va asosiy nazariy modullar o'rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirish; universitetda o'qish davomida olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil qo'llash uchun sharoit yaratish. Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotni tashkil etish va

o'tkazishning umumiy tamoyillari o'zgarmoqda. Tadqiqot usullarini tanlash tarixiy va pedagogik jarayonni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Quyidagi usullar tanlandi: umumiy ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarni mantiqiy tahlil qilish usuli, tizimli-strukturaviy tahlil, tarixiy va pedagogik manbalarni talqin qilish va semantik qayta tiklash usuli. Pedagogik amaliyotni o'tkazishning innovatsion modellarini ishlab chiqish uzoq vaqtdan beri davom etmoqda. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy nashrlar va tadqiqotlar mavjud. Ko'pgina mualliflar ushbu modelni shakllantirishning asosi pedagogik amaliyotning didaktik muammolarini hal qilish masalalari bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. M.N. Burmistrova, V.F. kabi mualliflarning pedagogik amaliyotni o'tkazishni yangilash masalasidagi asarlarini ko'rib chiqish. Mironychevaning so'zlariga ko'ra, yangi modelga ko'ra, asosiy e'tibor kelajakdagi o'qituvchilarda yangi dunyoqarashni rivojlantirishga, ularning noan'anaviy muammolarni hal qilishga tayyorligiga va bu o'zgarishlarni o'z kasbiy ishlarida moslashtirish va qo'llash qobiliyatiga qaratilishi kerak. Bunga amaliy tadqiqotlar va treninglar kabi usullarni joriy etish, shuningdek, real hayotdagi o'qitish vaziyatlarini tahlil qilish kiradi. Ta'lim loyihalarini mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalar va masofaviy ta'lim formatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Individuallashtirish va mulohaza yuritish muhim ahamiyatga ega. Asosiy e'tibor talabaning shaxsiyatiga va o'qituvchilarning o'z harakatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. [1-7]

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik amaliyot modelini zamonaviy oliy ta’lim talablari asosida tahlil qilish, mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirish va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlarni aniqlashga qaratildi. Ishda umumiy ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarni mantiqiy tahlil qilish, tizimli-strukturaviy tahlil, tarixiy-pedagogik manbalarni talqin qilish hamda semantik qayta tiklash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, universitet–maktab hamkorligi, modulli o‘qitish, refleksiv kundalik yuritish, raqamli portfolio, simulyatsiya mashg‘ulotlari, amaliy holatlar va loyiha-tadqiqot faoliyati asosida pedagogik amaliyotni tashkil etish imkoniyatlari o‘rganildi. Mazkur metodologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini real ta’lim muhiti bilan bog‘lash, kasbiy refleksiya, o‘zini baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil metodik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotning an’anaviy passiv kuzatuv shaklidan faol kasbiy ishtirok, refleksiya va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi modelga o‘tish zarurligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan model bo‘lajak o‘qituvchilarga dars jarayonini loyihalash, real pedagogik vaziyatlarda harakat qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalardan foydalanish, ustoz va metodistlar fikr-mulohazalari asosida kasbiy o‘sish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Natijada talabalar pedagogik amaliyot davomida nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, sinf bilan ishlash, nizoli vaziyatlarga moslashish, empatiya, yetakchilik, kommunikativ madaniyat va moslashuvchanlik kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa pedagogik amaliyotni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida asosiy tayanch bosqich sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Universitet-maktab modeli universitetlar, ish beruvchilar, maktablar va kollejlar o'rtasida qo'shma mashg'ulotlar va amaliyot sifatini baholash uchun yaqin hamkorlikni ta'minlaydi. "Professionalizm" loyihasi doirasidagi seminarlar, simulyatorlar va boshqa maxsus jihozlangan joylar talabalarga sinfga kirishdan oldin mashq qilish imkonini beradi. Ommabop o'qitish usullari quyidagi xususiyatlar orqali amalga oshiriladi:

1. Hamkorlikda o'rganish – jamoaviy ish.
2. Turli fanlar va ko'nikmalarni integratsiyalash.
3. Tajribani doimiy tahlil qilish orqali refleksiv o'rganish.
4. Yangi yechimlarni doimiy ravishda izlash orqali tadqiqotchi o'rganish.

Yangi model diqqatni sinfdagi haqiqiy harakatlarni baholashga qaratadi. Baholash shunchaki natijalarni qayd etishga emas, balki rivojlanishga qaratilgan. 5. Biz raqamli portfoliodan foydalanamiz. Talabalar o'z darslarining videolavhalarini, ishlab chiqilgan dars rejalarini, ustozlarning fikr-mulohazalarini va talabalar test natijalarini yuklaydilar. Bu vaqt o'tishi bilan o'rganish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Simulyatordan foydalanish mumkin; talabalar sinfda mutaxassislar va boshqa talabalar oldida dars parchasini o'tkazadilar. Hamma narsa baholanadi: pedagogik taktika va diksiyadan tortib, barcha vaziyatlarda interaktiv doskadan foydalanish qobiliyatigacha. Maktabda ustoz amaliy mashg'ulotlar davomida, masalan (darsdagi e'tiborni saqlab qolish qobiliyati), guruh ishi yoki nizolarga javob berish kabi muayyan ko'nikmalarni baholash uchun standart testdan foydalanadi. Biz o'zini o'zi baholash vositasidan foydalanamiz. Talabalar amaliy mashg'ulotlarning har bir kunidan keyin xatolarini tahlil qiladilar. Nima noto'g'ri ketdi? Nima uchun? Buni ertaga qanday tuzataman? Tahlil va o'zgarishlarga tayyorlik baholanadi. Amaliyot oxirida keng qamrovli baholash o'tkaziladi: universitet professori nazariy asosni, ustoz-o'qituvchini, amaliy ko'nikmalarni, hamkasb talabalarni va talabalarning o'zlarini baholaydi. Bu holda anonim so'rovnomalar o'tkaziladi. Qiziqarli bo'ldimi? Tushuntirishlar aniq bo'ldimi? Ushbu vositalar bizga standart imtihon bilan tekshirib

bo'lmaydigan ko'nikmalarni - empatiya, yetakchilik va moslashuvchanlikni - baholash imkonini beradi. Bu umuman kelajakdagi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashga boshqacha yondashuvlarni va xususan, o'qituvchilik amaliyotini o'tkazishga yondashuvlarni o'zgartirishni talab qiladi [5, 6]. O'zbekistonda zamonaviy o'qituvchilik amaliyotini tashkil etish tizimiga ushbu yangilanishlar, uni amalga oshirishning metodologik asoslarini isloh qilish va pedagogika universitetida zamonaviy bakalavr talabalari uchun o'quv amaliyotini tashkil etish va o'tkazishning yangi modelini joriy etish zarur. aklif etilayotgan modelni yanada rivojlantirish uchun quyidagi o'zaro ta'sir shakllaridan foydalanish mumkin:

1) Virtual maktab - Internet portali, interaktiv texnologiyalar va vizualizatsiya texnikasidan foydalangan holda, amaliyot tashkilotchisi maktab, uning tashkiloti, tuzilishi, o'qituvchilar tarkibi, nizomi va talabalar jamoasi bilan virtual tanishuvni tashkil qilishi mumkin.

2) Portfolio - ushbu ta'lim muassasasida amaliyotni tugatgan avvalgi talabalarning materiallaridan foydalangan holda: fotosuratlar, video darsliklar, foto va video hisobotlar, taqdimotlar va boshqalar. Olingan shaxsiy ma'lumotlarga asoslanib (talaba maktab/kollejni shaxsan biladi, ushbu maktabni bitirgan, tanish o'qituvchilarga ega), talaba amaliyot uchun ta'lim muassasasini tanlaydi.

Taklif etilayotgan model, albatta, mulohaza yuritishni o'z ichiga olishi kerak, buning asosida amaliy faoliyat tajriba, tajriba esa bilim yaratadi. Talaba uchun amaliyot yoki hatto shunchaki talabalar bilan amaliy dars o'tkazishning o'zi yetarli emas; ular o'z darslarini tahlil qilishni, ulardan xulosa chiqarishni, o'qituvchi sifatida kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni va o'z ishlariga puxta yondashishni o'rganishlari kerak. Amaliyot o'tayotgan talabaning asosiy hamrohi mulohaza bo'lishi va ularning darslaridagi xatolar va kamchiliklarni aniqlashga, ularni bartaraf etishga va kasbiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Model ichidagi mulohaza: o'zini tahlil qilish/o'zini baholash - hamkasb stajyorlar tomonidan tahlil qilish/baholash - maktab ustozi tomonidan tahlil qilish/baholash - o'qituvchi-maslahatchi tomonidan tahlil qilish/baholash. Pedagogik jarayonni tashkil etishni takomillashtirish uchun stajyor talabalarga har bir dars natijalarini yozib boradigan va ular bo'yicha izohlar yozib qo'yiladigan majburiy kundalik beriladi. Buning uchun stajyor talabalar formulani (xohlayman-talab qila olaman-talab qilaman) qo'llaydilar, uni tugallangan amaliyotning maqsad va vazifalariga muvofiq qo'llaydilar. Talaba taklif qilingan formulaning dastlabki uchta komponentini mustaqil ravishda aniqlab, kundalikdagi tegishli bo'limlarni to'ldirishi kerak. Oxirgi bo'lim universitet metodisti yoki maktab o'qituvchisi tomonidan to'ldiriladi. Kundalik yuritish stajyor va uning amaliyot rahbari tahlilini shakllantirishda muhim lahzadir. Yozuvlarni tahlil qilish stajyorning kasbiy bilim darajasini, uni amalda qo'llash qobiliyatini, stajyorning hissiy holatini tavsiflashni, stajirovka davomida uning professional maqsadlarini aniqlashni, o'z ishini o'zini tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatini ko'rsatadi. Stajyor kundalik yozuvlari va pedagogik stajirovka rahbarining izohlarini tahlil qilib, kasbiy va ta'lim amaliyotiga, auditoriyadagi ishlarga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritadi. Bunga asoslanib, stajyor o'z ishini baholashi, o'zini o'zi rivojlantirish va amaliy faoliyatini optimallashtirish yo'nalishini belgilashi mumkin [8]. Kundalikka darsdan keyingi fikrlar va his-tuyg'ular, blok-sxemalar, dars algoritmlari, diagnostika xaritalari va grafiklari, o'quv rejalari kiritilishi mumkin - bularning barchasi keyinchalik kundalik yozuvlarini tahlil qilish jarayonini tezlashtiradi va osonlashtiradi. Tahlil sifatini oshirish uchun talabalar kundaliklarida darsni o'zini tahlil qilish, darsni baholash, o'qituvchini talabalar nigohida ko'rish va boshqalar elementlari bo'lishi kerak.

O'z-o'zini tahlil qilish, mulohaza yuritish bilan birgalikda, o'qituvchining to'laqonli professional faoliyatining asosi deb hisoblanishi mumkin, bu stajyorlarni mustaqil professional ishlarga tayyorlash va bakalavr talabasining shaxsiy va professional o'sishi uchun yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Pedagogik amaliyotning yangi modelida pedagogik amaliyot rahbari alohida rol va o'rin egallaydi [9]. Nazorat va nazorat roli yo'q qilinmoqda, bu esa ideal bo'lar edi, shu bilan birga stajyorga qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatilmoqda. Rahbar yo'naltirishi, tuzatishi, qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi shart. Psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1) Ta'lim muassasasida talabalar-stajyorlarning ishini monitoring qilish va nazorat qilish;

2) Stajyorlarning guruhdagi faoliyatini stajyorlarning shaxsan ishtirokida tahlil qilish;

3) Muammoli sohalarni, stajyorlar faoliyatidagi kamchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va yechimlarni aniqlash;

4) Talaba-stajyorlar guruhi a'zolari bilan maslahatlashish;

5) Guruh maslahatlashuvlari va rahbarlar o'rtasida metodologik hamkorlikni o'tkazish.

Taklif etilayotgan o'quv amaliyoti modeli zarur materiallar, topshiriqlar, testlar, holatlar, rol o'ynash va biznes simulyatsiyasi stsenariylaridan foydalangan holda, stajyorning darslarini funktsional qo'llab-quvvatlashga qaratilgan holda amalga oshiriladi [10]. Stajyorga didaktik paketni taqdim etish juda muhim; uni ishlab chiqish va yig'ish universitetdan amaliyot rahbarining zimmasidadir. Bundan tashqari, ushbu

didaktik ishlanmalarni o'quv amaliyoti davomida professional faoliyatda qo'llashda talaba amaliy bilimlarni qo'llash va ularni talabalarga o'tkazish jarayonlarini boshqarishi kerak.

Oldingi amaliyot talabalari tomonidan tayyorlangan portfoliolardan foydalanish mumkin. Portfolio individual talaba-stajyorning diqqatini aniqroq belgilashi, ularning shaxsiy va professional yutuqlarini ta'kidlashi va professional ishdagi ichki qiyinchiliklar va qiyinchiliklarni aniqlashi mumkin. Bularning barchasi birgalikda talabaning individual o'rganish yo'lini shakllantirishga va trening tugagandan so'ng yuqori professional tayyorgarlik ballariga erishishga yordam beradi.

Xulosa. Mavjud o'quv amaliyoti vositalari va ilmiy-pedagogik ishlanmalar talabalarga kelajakdagi professional faoliyati uchun poydevor yaratish imkonini beradi.

"Kasbga qadam qo'ying", "Sohadagi eng yaxshi" va boshqalar kabi talabalar ishlari tanlovi o'tkazilishi mumkin. Amaliyotdan so'ng har bir stajyorga amaliyot natijalari bo'yicha hisobot taqdim etishdan tashqari, eng yaxshi ishlarini taqdim etish va uni hamkasblari va tajribali ustozlar bilan muhokama qilish imkonini beruvchi konferensiya o'tkazilishi mumkin. Amaliyotdan so'ng talabalar tanlovlari o'tkazilishi mumkin: "Eng yaxshi talaba stajyor", "Eng yaxshi stajyor hisoboti" va "Kasbga birinchi qadamlar".

Shunday qilib, o'quv amaliyotini tashkil qilish uchun taklif qilingan modeldan foydalanish talabalarga, bo'lajak o'qituvchilarga o'z nazariy bilimlarini amalda qo'llash, real hayotdagi ta'lim sharoitlarida yuzaga keladigan pedagogik qiyinchiliklarni yengib o'tish tajribasini orttirish, amaliy o'qitish tajribasi, ko'nikma va malakalarni orttirish va kelajakdagi professional faoliyati uchun poydevor qo'yish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Alekseev, V.N. Kashfiyot quvonchi: O'qituvchilar, o'quvchilar va talabalar uchun qo'llanma / V.N. Alekseev, A.A. Alekseeva. - Ishim: P.P. Ershov nomidagi IGPi nashriyoti, 2012. - 120 b.
2. Vedernikova, L.V. Pedagogik amaliyot talabalarning professional o'zini o'zi belgilash muhiti sifatida / L.V. Vedernikova // Sibir pedagogika jurnali. - 2006. - № 2. - 98-107 betlar
3. Vedernikova, L.V. 4 va 5-kurs talabalari uchun pedagogik amaliyot dasturi / L.V. Vedernikova. - Ishim: P.P. Ershov nomidagi IGPi nashriyoti, 2004. - 64 b.
4. Mamontova, T.S. Bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentsiyasini rivojlantirishda o'z-o'zini o'qitishning roli / TS Mamontova, MV Shustova // Ilmiy muloqot. - 2016. - № 2 (50). - 393-403-betlar
5. Pedagogik amaliyot: Pedagogika institutlari talabalari uchun darslik / VK Rozov, VS Morozova, EP Belozertsev, OA Abdullina; VK Rozov tomonidan tahrirlangan. - Moskva: Prosveshchenie, 1981. - 160 b.
6. Saxanskiy, Yu.V. Oliy ta'lim talabalarining axborot makonini modellashtirish / Yu.V. Saxanskiy, Yu.S. Erina // Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar. XIX xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Elektron resurs. -2017 Nashriyotchi: Olimp ilmiy markazi (Astraxan).
7. Berdov, V.I. Birinchi kurs talabalarining pedagogik amaliyotining mazmuni va tashkil etilishi: metodologik tavsiyalar / V.I. Berdov, V.D. Bogus, A.I. Mishchenko, V.I. Ovchinnikova, A.V. Elivanov; muharrir A.I. Mishchenko. - Ishim: IGPI, 1988. - 23 b.
8. Usova, A.V. Uchinchi kurs talabalari uchun uzluksiz pedagogik amaliyotni amalga oshirish bo'yicha metodologik tavsiyalar (Fizika va matematika fakulteti) A.V. Usova, A.M. Zaxarov. - Ulyanovsk: I.N. Ulyanov nomidagi UGPI, 1990. 50 b.
9. Cheshuina, T.G. Ishlab chiqarish amaliyoti pedagogika universiteti talabalarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish omili sifatida: Pedagogika fanlari nomzodi / T.G. Cheshuinaning dissertatsiya avtoreferati. - Tomsk, 2006. - 23 b.
10. Shaxmarova, R.R. Kelajakdagi matematika o'qituvchilarini talabalarning pedagogik amaliyotdagi tajribasiga asoslangan metodologik tayyorlash: Pedagogika fanlari nomzodi / R.R. Shaxmarovaning dissertatsiya avtoreferati. - Omsk, 2003. - 23 b.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI: MAZMUNI VA TUZILMASI

Amanyo‘lov Sindor Faxriddin o‘g‘li,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
amanyolovs@gmail.com

Maqolada davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi, uning mazmuni hamda tarkibiy tuzilmasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O‘qituvchi kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari, metodologik, kommunikativ, huquqiy va reflektiv komponentlari o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, davlat va huquq asoslari, o‘qituvchi, tarkibiy model, huquqiy ta’lim, pedagogik mahorat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, kreativlik kompetensiyasi, ijodiy tafakkur, kreativ potensiali.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ОСНОВ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА: СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА

В статье проведён научный анализ понятия профессиональной компетенции преподавателя основ государства и права, её содержания и структурного состава. Раскрыты основные структурные части компетенции педагога, взаимосвязь методологического, коммуникативного, правового и рефлексивного компонентов, а также их значение в образовательном процессе. Кроме того, показаны возможности формирования правосознания и правовой культуры у обучающихся посредством развития профессиональной компетенции преподавателя.

Ключевые слова: *профессиональная компетенция, основы государства и права, преподаватель, структурная модель, правовое образование, педагогическое мастерство, правосознание, правовая культура, компетенция креативности, творческое мышление, креативный потенциал.*

PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER OF THE FUNDAMENTALS OF STATE AND LAW: CONTENT AND STRUCTURE

The article provides a scientific analysis of the concept of professional competence of a teacher of the basics of state and law, its content, and structural composition. The main structural components of teacher competence, the interrelationship of methodological, communicative, legal, and reflective components, as well as their importance in the educational process, are revealed. It also highlights the possibilities of forming legal consciousness and legal culture among students through the development of the teacher’s professional competence.

Keywords: *professional competence, basics of state and law, teacher, structural model, legal education, pedagogical skill, legal consciousness, legal culture, creativity competence, creative thinking, creative potential.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan talablar tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Davlat va huquq asoslari” fani jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur fan o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini zamonaviy talablar asosida shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki o‘quvchilarda huquqiy tafakkur, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi muhim pedagogik shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning nazariy bilimlari bilan bir qatorda metodologik, kommunikativ, reflektiv va huquqiy salohiyatini ham qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini

takomillashtirish, ularning kasbiy, shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan variantiv va invariant o‘quv dasturlarni joriy etish…..” [2] dolzarb vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

Mazkur vazifadan kelib chiqib, “Davlat va huquq asoslari” fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki ushbu fan nafaqat o‘quvchilarga huquqiy bilim berish, balki ularda demokratik qadriyatlarga hurmat, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois mazkur fan o‘qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi, interfaol metodlardan samarali foydalanishi, o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Shu nuqtai nazardan, umumta’lim maktablari “Davlat va huquq asoslari” fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularni kasbiy, shaxsiy kompetensiyalarini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Shu bois, mazkur fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish quyidagi ilmiy-amaliy maqsadlarni yoritib berishni belgilab oldik:

birinchidan, davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi mazmuni hamda tarkibiy qismlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yoritish;

ikkinchidan, metodik hamda kasbiy kompetensiya tushunchalarining o‘zaro mutanosibligi va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;

uchinchidan, fan o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy qism. Tadqiqotda biz quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik: mavzu yuzasidan adabiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy metod, tizimli yondashuv hamda ekspert baholash usuli. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim standartlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek “Davlat va huquq asoslari” fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining namunaviy o‘quv rejasi tadqiqot manbalari sifatida tahlil qilindi.

Mazkur muammoni o‘rganishda avvalo “Kompetensiya” va “Kasbiy kompetentlik” tushunchalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, tadqiqotchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, kompetensiya tushunchasi pedagogika fanida turlicha talqin qilinadi. Xususan:

Milliy ensiklopediyada kompetensiya - “u yoki bu sohadagi bilimlar va tajriba” sifatida ifodalangan.

O‘zbek tili izohli lug‘atida esa ikki xil ma’noda: (1) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning vakolatlari doirasi; (2) shaxsning biror sohani bilish darajasi[7] sifatida ta’rif berilgan.

N.A.Muslimov kasbiy kompetentlikni “mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyasi”[4] sifatida ta’riflaydi. Mazkur ilgari surilgan g‘oya kasbiy kompetensiyani nafaqat statik bilimlar yig‘indisi, balki dinamik va doimiy rivojlanuvchan xususiyat sifatida ko‘rsatadi.

L.S.Shulman esa o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasida – pedagogik kontent bilimni markaziy qism[8] sifatida belgilaydi. Bu fan mazmunini o‘quvchilarga tushunarli va samarali yetkazish uchun uni pedagogik jihatdan qayta shakllantirish, analogiyalar va misollar tanlash qobiliyatidir. Ushbu yondashuv davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari kompetensiyalari rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

R.A.Mavlonovani ta’kidlashicha, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi faqat fan bilimlarini emas, balki ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va texnologik salohiyatni ham qamrab olishi zarur[5]. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarni shaxsiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ilmiy manbalar hamda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning konseptual yondashuvlari asosida, davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasiga quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi — bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida huquqiy, pedagogik, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion, shaxsiy va ijtimoiy bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba hamda qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan integratsiyasidir.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan tarkibiy kompetensiyalar tizimidan iborat ekanligi tahlil qilindi.

Huquqiy kompetensiya – mazkur fan o‘qituvchisining eng asosiy va o‘ziga xos kompetensiyasidir. Uning mazmuni quyidagilarni qamrab oladi:

-O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik, jinoyat, oila, mehnat va ma’muriy qonunchiligini chuqur bilish;

-huquqiy normalar, tushunchalar va institutlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tushuntira olish;

-real huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

-xalqaro huquq normalari va inson huquqlari konventsiyalari bilan ishlash;

-qonunchilikdagi yangi o‘zgarishlarni kuzatib borish va dars jarayoniga tadbiq etish.

Huquqiy kompetensiya o‘qituvchiga o‘quvchilarda nafaqat qonun moddalarini o‘rgatish, balki ularda adolat, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat tuyg‘usini shakllantirish imkonini beradi.

Pedagogik kompetensiya - o‘qituvchining ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish qobiliyatidir. O‘qituvchining pedagogik kompetensiyasi shunchaki nazariy bilim emas, balki bevosita dars jarayonini samarali loyihalash va uni boshqarish san’atidir. Bu jarayon o‘z ichiga quyidagi muhim bosqich va vazifalarni qamrab oladi

- o‘quvchilarning yoshi, psixologiyasi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dars rejasini tuzish;
- sinfdagi kognitiv muhitni boshqarish, o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish;
- pedagogik vaziyatlarni tez baholash va oqilona qaror qabul qilish;
- differensial ta’lim tamoyillarini qo‘llay olish;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

Metodik kompetensiya – huquqiy mazmunni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali yetkazish ko‘nikmasidir:

- darsning maqsadi va mazmuniga mos holda o‘qitish metodlarini tanlash;
- case-study, rol o‘ynash (role-play), huquqiy kvestlar, 5E modeli kabi interaktiv metodlarni qo‘llay olish;
- ta’lim materiallarini o‘quvchi darajasiga moslashtirib qayta shakllantirish (PCK);
- baholash vositalarini maqsadli tanlash va qo‘llay olish;
- turli o‘quv uslublariga mos metodlarni tanlay olish.

Biz tadqiqot davomida metodik va kasbiy kompetensiyaning o‘zaro munosabatini qiyosiy tahlil qildik. Natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval.

Metodik va kasbiy kompetensiyaning qiyosiy tahlili

Mezon	Metodik kompetensiya	Kasbiy kompetensiya
Maqsad	Pedagogik metodlarni egallash	Huquqiy-pedagogik integratsiya
Bilim turi	Umumiy pedagogik bilimlar	Huquqiy kontent + pedagogika
Ko‘nikmalar	Dars rejasi tuzish, baholash	Huquqiy vaziyat yaratish, case-study
Vositalar	Darslik, ko‘rgazmali qurollar	Raqamli texnologiyalar, kvestlar, AI
Baholash	Test va yozma imtihon	Loyiha, refleksiya, portfel
Rivojlanish	Malaka oshirish kurslari	Uzluksiz kasbiy o‘sish + innovatsiya
Doirasi	O‘qitish jarayonini tashkil etish	O‘quvchi shaxsini rivojlantirish

Manba: *tadqiqot natijalari bo‘yicha mualliflik ishlanmasi*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, metodik kompetensiya kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, uning amaliy jihatini ifodalaydi. Kasbiy kompetensiya esa kengroq tushuncha - u huquqiy, shaxsiy, ijtimoiy va innovatsion jihatlarni ham qamrab oladi.

Kommunikativ kompetensiya - o‘qituvchining ta’lim jarayonida barcha ishtirokchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatidir. U quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchilarni tinglash, ularning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- sinfda ochiq muhokama, bahs va fikr almashinuvini tashkil etish;
- ota-onalar, maktab rahbariyati va hamkasblar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- fikrlar to‘qnashuvini konstruktiv tarzda hal qilish;
- og‘zaki va yozma muloqot madaniyatiga ega bo‘la olish.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya - bugungi raqamlashuv davrida alohida ahamiyat kasb etadigan kompetensiya turidir. Hozirgi kunda pedagogdan quyidagi axborot-kommunikatsion kompetensiyalar shakllanishi muhimdir:

- ta’lim jarayonida raqamli vositalar (Kahoot, Quizizz, Google Classroom, Mentimeter, Baamboozle, Noutbooklm) dan foydalanish;
- sun’iy intellekt (AI) imkoniyatlaridan ta’limda samarali foydalana olish;
- Canva, PowerPoint va Google Slides yordamida vizual hamda interaktiv materiallar yaratish;
- internet resurslaridan huquqiy ma’lumot topish, saralash va ularga ishlov berish;
- o‘quvchilarni raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi asoslari bilan tanishtirish.

O‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat tashqi bilimlar, balki uning ichki salohiyati va shaxsiy xususiyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Shaxsiy kompetensiya – o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sishi bilan bog‘liq sifatlar majmuasi bo‘lib, u amaliyotda quyidagi muhim jihatlarda o‘z aksini topadi:

- doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish intilishi;
- pedagogik refleksiya – o‘z darslarini tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etish;
- stressga barqarorlik, ijobiy fikrlash va ichki motivatsiya;
- ijodiy potensialini ro‘yobga chiqarish, kreativlik;
- axloqiy va ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik.

Ijtimoiy kompetensiya – o‘qituvchining jamiyat va ta’lim tizimidagi keng ijtimoiy rolini anglab, undan kelib chiqqan holda harakat qilish qobiliyatidir:

- fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning rivojlanishiga hissa qo‘shish;
- o‘quvchilarda fuqarolik mas’uliyati, tolerantlik va ijtimoiy hamkorlikni shakllantirish;
- jamoada ishlash, hamkorlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- huquqiy savodxonlik tadbirlarini (olimpiadalar, kechalar, haftaliklar) tashkil etish.

Shunday qilib, biz tomonimizdan tahlil etilgan ushbu yetti turdagi kompetensiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, “Davlat va huquq asoslari” fani o‘qituvchisining yaxlit professional portretini shakllantiradi. Ta’kidlash joizki, ushbu kompetensiyalar shunchaki nazariy bilimlar majmuasi emas, balki o‘qituvchining har qanday pedagogik vaziyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon eta olish darajasidir.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining 2026-yil uchun tasdiqlangan mavjud o‘quv reja va dasturlariqiyosiy tahlil qilindi. Dasturga muvofiq, malaka oshirish kursining umumiy hajmi 100 soatni tashkil etib, shundan 48 soat (48%) to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” blokiga ajratilgan (2-jadval). Bu blok huquqshunos o‘qituvchining maxsus huquqiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, kursning markaziy va eng katta qismini tashkil etadi.

2-jadval

Malaka oshirish dasturida huquq o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlari [3]

№	Kompetensiya turi	Modullar va mazmuni	Soat
1	Huquqiy-metodik kompetensiya	Me’yoriy hujjatlar bilan ishlash, darsliklar tahlili, huquqiy vaziyatlar yaratish	12
2	Zamonaviy pedagogik-texnologik komp.	5E modeli, huquqiy kvestlar, case-study, keys tadqiqotlari, simulyatsiyalar	10
3	Xorijiy tajriba va innovatsion komp.	Sokratik usul, tanqidiy fikrlash, tadqiqotga asoslangan ta’lim	10
4	Baholash kompetensiyasi	Ko‘nikmaga asoslangan, loyihaviy, reflektiv va rolli baholash	6
5	Oila huquqi va tarbiyaviy komp.	Oila huquqi bo‘yicha kompleks ta’lim, fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish	6
6	Tanlov: inson huquqlari va axborot komp.	Inson huquqlari, huquqiy axborot qidiruvi va tahlili	4

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, dasturda huquq o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga beriladigan asosiy urg‘u umumiy pedagogik ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmay, huquqiy mazmunni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda raqamli ta’lim vositalari asosida o‘quvchilarga samarali, tizimli va amaliy yo‘naltirilgan tarzda yetkazishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Natijada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning huquqiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Motivatsion komponent – kasbiy kompetensiyaning harakatlantiruvchi kuchi. U o‘qituvchining o‘z kasbiga qiziqishi, o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirishga ichki ehtiyoj sezishi, kasbiy o‘sishga intilishi va innovatsion yondashuvlarga tayyor bo‘lishini qamrab oladi. Bizning kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, motivatsion komponent kuchsiz bo‘lsa, hatto yuqori bilimli o‘qituvchi ham samarali faoliyat ko‘rsata olmaydi.

Kognitiv komponent – kasbiy kompetensiyaning bilimlar tizimini ifodalaydi: huquqiy bilimlar (milliy va xalqaro qonunchilik), pedagogik bilimlar (ta’lim nazariyasi, didaktika, o‘quvchi psixologiyasi), metodik bilimlar (zamonaviy o‘qitish metodlari) hamda raqamli bilimlar (axborot texnologiyalari). Kognitiv komponent o‘qituvchiga chuqur va tizimli bilim bazasini shakllantirishga yordam beradi, biroq bilim yetarli emas – uni amaliyotda qo‘llash qobiliyati ham zarur.

Amaliy komponent – kasbiy kompetensiyaning ko‘nikma va malakalar tizimini ifodalaydi: dars rejasini tuzish va samarali o‘tkazish, huquqiy vaziyatlar hamda case-studylar yaratish, interaktiv usullarni qo‘llay olish, raqamli vositalardan darsda foydalanish, o‘quvchilarning huquqiy bilimini amaliy loyiha orqali baholash. Biz amaliy komponentni kasbiy kompetensiyaning hal qiluvchi ko‘rinishi deb hisoblaymiz, chunki u nazariy bilimlarni o‘quv natijasiga aylantiradi.

Refleksiv komponent – kasbiy kompetensiyaning o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish qismidir: o‘tkazilgan darsni tahlil qilish, o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini qabul qilish va hisobga olish, kasbiy o‘sish rejasini tuzish, xalqaro ilg‘or tajribani o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirib qo‘llay olish.
S.Kyerkegor ta’kidlaganidek, “haqiqiy o‘qituvchi o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lib, o‘quvchilardan ham o‘rganadi”[9]. Ushbu tamoyil davlat va huquq asoslari o‘qituvchisi uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tahlillar asosida biz bir qator muhim xulosalar va fikr-mulohazalarga keldik.

Birinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda ko‘plab davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari huquqiy mazmunni o‘quvchilarga yetkazishda an’anaviy reproduktiv usullarga tayangan holda ish ko‘rmoqda. Natijada o‘quvchilarda mustaqil huquqiy tafakkur, nostandart muammolarni hal qilish va fuqarolik mas’uliyati yetarli darajada shakllanmayapti. A.Maslou ta’kidlaganidek, avtoritar va reproduktiv ta’lim tizimida kreativlikning bostirilishi bevosita ta’lim samaradorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, biz kreativlik kompetensiyasini kasbiy kompetensiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida alohida ajratib ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. J.P.Gilford ilgari surgan ijodkorlikning asosiy parametrlari – muammolarni aniqlash, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, nostandart yechimlar huquqiy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi[10].

Uchinchidan, xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Yevropa davlatlari) huquqiy ta’limda Sokratik usul, case-study, huquqiy kvestlar va tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda nafaqat huquqiy bilimlarni, balki ijodiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Biz ushbu tajribani milliy ta’lim tizimiga moslashtirib joriy etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik.

To‘rtinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari o‘quv dasturlarida kreativlik kompetensiyasiga ajratilgan soatlar va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini kreativ komponentlar bilan boyitish maqsadga muvofiq. Shuningdek, L.S.Shulman PCK yondashuvi [8] asosida huquqiy mazmunni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirishga qaratilgan maxsus metodik qo‘llanmalar yaratilishi zarur.

Tadqiqot tahlil natijalari asosida davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Integratsiyalashgan kompetensiya modeli. Davlat va huquq asoslari o‘qituvchilari uchun alohida huquqiy-pedagogik kompetensiya modeli ishlab chiqish va uni davlat ta’lim standartlariga kiritish. Unda kreativlik kompetensiyasi alohida blok sifatida belgilash. Bu o‘qituvchini “qonunlarni o‘qituvchi”dan haqiqiy huquqiy tarbiyachiga aylantiradi.

Xorijiy ilg‘or tajribani joriy etish. Sokratik usul, case-study va tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari milliy ta’lim tizimiga moslashtirib, tizimli integratsiya qilish. Bu yondashuv o‘quvchilarda mustaqil huquqiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli va innovatsion kompetensiyalarni kuchaytirish. Kahoot, Quizizz, Google Classroom va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus modullar malaka oshirish kurslarida ko‘paytirish. Bu o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi murakkab, ko‘p komponentli va dinamik tizim bo‘lib, u huquqiy, pedagogik, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Bu kompetensiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, birgalikda o‘qituvchining yaxlit professional portretini shakllantiradi.

Ikkinchidan, kasbiy kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlari yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Motivatsion komponent kasbga muhabbat va intilishni, kognitiv komponent bilim chuqurligini, amaliy komponent ko‘nikma va malakalarni, refleksiv komponent esa doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishni ta’minlaydi.

Uchinchidan, metodik va kasbiy kompetensiyalar o‘zaro to‘ldiradi: metodik kompetensiya kasbiy kompetensiyaning amaliy yadrosini tashkil qilsa, kasbiy kompetensiya kengroq – u huquqiy, shaxsiy, ijtimoiy va innovatsion jihatlarni ham qamrab oladi.

To‘rtinchidan, bugungi kunda davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda milliy tajribani xalqaro ilg‘or tajriba bilan uyg‘unlashtirish, raqamli ta’lim vositalarini keng joriy etish va kreativlik komponentiga alohida e’tiborni qaratish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, biz davlat va huquq asoslari o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini kompleks rivojlantirish orqali nafaqat ta’lim sifati oshishiga, balki jamiyatda huquqiy ong, ijodiy huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish mumkinligini ta’kidlaymiz. Shu bois ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni milliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish bugungi kunning ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4545884
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6981085
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrug‘ining 24-ilovasi bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari o‘quv reja va dasturi”
4. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat asoslari. – T.: Fan, 2015. – 224 b.
5. Mavlonova R.A. Pedagogik ta’lim metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2010. – 192 b.
6. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 2008. – 304 b.
7. Madvaliyev A. (tahr.). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
8. Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 9.
9. Kierkegaard S. Works of Love. Cited in: Pattison G. – London: Macmillan, 1992. – P. 48.
10. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.

OLIY TA’LIMDA TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA PEDAGOGIK ZARURATI

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni estetik tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari hamda pedagogik zarurati ilmiy jihatdan yoritiladi. Estetik tarbiya shaxsning ma’naviy kamoloti, badiiy didi, go‘zallikni anglash qobiliyati, madaniy tafakkuri va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Maqolada estetik tarbiyaning falsafiy, pedagogik, psixologik va madaniy asoslari tahlil qilinib, uning oliy ta’limdagi o‘rni zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan bog‘liq holda ochib beriladi. Shuningdek, talabalarda estetik dunyoqarashni rivojlantirishda ta’lim mazmuni, o‘qituvchi shaxsiyati, san’at vositalari, milliy qadriyatlar, ijodiy faoliyat va madaniy muhitning ahamiyati asoslanadi. Tadqiqotda estetik tarbiya nafaqat badiiy didni shakllantirish, balki talabalarning kasbiy madaniyati, kommunikativ salohiyati, ijtimoiy mas’uliyati va insonparvarlik qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ pedagogik hodisa sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *estetik tarbiya, oliy ta’lim, pedagogik zarurat, nazariy-metodologik asos, badiiy did, ma’naviy kamolot, madaniy tafakkur, ijodiy faoliyat, milliy qadriyatlar.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье научно раскрываются теоретико-методологические основы и педагогическая необходимость эстетического воспитания студентов в системе высшего образования. Эстетическое воспитание рассматривается как важный педагогический процесс, формирующий духовное развитие личности, художественный вкус, способность воспринимать красоту, культурное мышление и социальное поведение. В статье анализируются философские, педагогические, психологические и культурные основы эстетического воспитания, а также раскрывается его роль в высшем образовании в связи с современными образовательными парадигмами. Обосновывается значение содержания образования, личности преподавателя, средств искусства, национальных ценностей, творческой деятельности и культурной среды в развитии эстетического мировоззрения студентов. В исследовании эстетическое воспитание оценивается не только как средство формирования художественного вкуса, но и как интегративное педагогическое явление, способствующее развитию профессиональной культуры, коммуникативного потенциала, социальной ответственности и гуманистических взглядов студентов.

Ключевые слова: *эстетическое воспитание, высшее образование, педагогическая необходимость, теоретико-методологическая основа, художественный вкус, духовное развитие, культурное мышление, творческая деятельность, национальные ценности.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND PEDAGOGICAL NECESSITY OF AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

This article scientifically examines the theoretical and methodological foundations and pedagogical necessity of aesthetic education of students in higher education. Aesthetic education is interpreted as an important pedagogical process that develops a person’s spiritual maturity, artistic taste, ability to perceive beauty, cultural thinking, and social behavior. The article analyzes the philosophical, pedagogical, psychological, and cultural foundations of aesthetic education and reveals its role in higher education in connection with modern educational paradigms. The importance of educational content, the teacher’s personality, artistic means, national values, creative activity, and the cultural environment in developing students’ aesthetic worldview is substantiated. The study evaluates aesthetic education not only as a means of forming artistic taste, but also as an integrative pedagogical phenomenon that contributes to the development of students’ professional culture, communicative potential, social responsibility, and humanistic views.

Keywords: *aesthetic education, higher education, pedagogical necessity, theoretical and methodological foundation, artistic taste, spiritual development, cultural thinking, creative activity, national values.*

Kirish. Oliy ta’lim tizimida talabalarni estetik tarbiyalash masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki oliy ta’lim muassasasi nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy, madaniy va estetik kamolotini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik makon sifatida ham faoliyat yuritadi. Bugungi kunda talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonida uning go‘zallikni anglash, badiiy-estetik qadriyatlarni idrok etish, madaniy muhitga ongli munosabat bildirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Estetik tarbiya talabalarda nafaqat san’atga qiziqish uyg‘otadi, balki ularning hayotiy qarashlari, kasbiy madaniyati, muloqot odobi, tashqi va ichki go‘zallikka munosabati hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiyaning nazariy-metodologik asoslari falsafa, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va san’atshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liqdir. Estetik ong, estetik did, estetik ehtiyoj, estetik baholash va estetik faoliyat kabi tushunchalar talaba shaxsining ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, estetik tarbiya ta’lim mazmuni, o‘qituvchi shaxsiyati, auditoriya muhiti, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, badiiy asarlar, milliy qadriyatlar va ijodiy topshiriqlar orqali amalga oshiriladigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Shu bois oliy ta’limda estetik tarbiyani tasodifiy yoki ikkinchi darajali tarbiyaviy faoliyat sifatida emas, balki talaba shaxsini yaxlit rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarur.

Zamonaviy ta’lim jarayonida estetik tarbiyaning pedagogik zarurati yanada ortib bormoqda. Axborot oqimining kuchayishi, raqamli muhitning kengayishi va yoshlarning madaniy ehtiyojlaridagi o‘zgarishlar talabalarda mustahkam estetik mezonlarni shakllantirishni talab etadi. Estetik tarbiya orqali talaba atrof-muhitdagi go‘zallikni anglaydi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydi, ijodkorlikka intiladi hamda o‘z kasbiy faoliyatida madaniy va insonparvar yondashuvni namoyon etadi. Shu jihatdan oliy ta’limda estetik tarbiyaning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o‘rganish va uni pedagogik amaliyotga samarali tatbiq etish dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalashning nazariy, metodologik, ma’naviy va pedagogik asoslarini yoritishga xizmat qiladi. Karimov I.A. va Mirziyoyev Sh.M. asarlarida shaxs ma’naviy kamoloti, milliy qadriyatlar, inson kapitali va tarbiyaning strategik ahamiyati keng yoritilib, estetik tarbiyani umumiy ma’naviy-ma’rifiy jarayon bilan bog‘lash imkonini beradi. Abdullayeva Sh.A., Xodjayev B.X., Hasanboyev J. va boshqa mualliflarning pedagogikaga oid ishlari estetik tarbiyani ta’lim-tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi. Azizxo‘jayeva N.N. pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchi mahorati masalalarini yoritib, estetik tarbiyani zamonaviy metodlar orqali tashkil etish zaruratini asoslashga yordam beradi. Musurmonova O., Quronov M. va Nishonova S. asarlarida yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya va komil inson g‘oyalari markaziy o‘rinda bo‘lib, talabalarda estetik dunyoqarashni milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Mahmudov N.ning nutq madaniyatiga oid qarashlari esa pedagog shaxsining estetik qiyofasi, muloqot madaniyati va kasbiy ta’sirchanligini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kagan M.S., Borev Yu.B., Lixachev B.T., Vygotsky L.S. va Dewey J. asarlari estetik tarbiyaning falsafiy, psixologik va san’atshunoslik asoslarini chuqurroq anglashga xizmat qilib, go‘zallikni idrok etish, badiiy did, ijodiy tajriba va estetik faoliyatning shaxs rivojidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslaydi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari va pedagogik zaruratini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari estetik tarbiya jarayonining mazmuni, shakllari, vositalari va pedagogik imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilishga yo‘naltirildi. Asosiy metodologik asos sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, aksiologik yondashuv, madaniy-tarixiy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va faoliyatga asoslangan yondashuv tanlandi. Ushbu yondashuvlar estetik tarbiyani faqat san’atga oid bilimlarni berish jarayoni sifatida emas, balki talabaning ma’naviy dunyosi, badiiy didi, ijodiy tafakkuri va kasbiy madaniyatini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, suhbat, anketa, diagnostik baholash va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali estetik tarbiyaga oid ilmiy qarashlar, pedagogik konsepsiyalar, falsafiy yondashuvlar va zamonaviy ta’lim paradigmalari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida estetik tarbiyaning an’anaviy va zamonaviy shakllari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning oliy ta’lim sharoitidagi samaradorligi baholandi. Pedagogik kuzatish talabalar

faoliyatida estetik munosabat, badiiy did, madaniy xulq-atvor va ijodiy faollik darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Anketa va suhbat metodlari orqali talabalarning estetik qadriyatlarga munosabati, san’at va madaniyatga qiziqishi, oliy ta’lim muhitidagi estetik tarbiya imkoniyatlari haqidagi fikrlari o‘rganildi. Diagnostik baholashda estetik idrok, estetik baholash, ijodiy yondashuv, madaniy muloqot va kasbiy-estetik kompetensiya mezonlari asos qilib olindi. Pedagogik tajriba davomida dars jarayonida badiiy matnlar, tasviriy san’at namunalari, musiqa, teatr, milliy madaniy meros, ijodiy topshiriqlar va madaniy-ma’rifiy tadbirlardan foydalanishning samaradorligi tekshirildi.

Tadqiqot metodlari talabalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish jarayoni ta’lim mazmuni, o‘qituvchi mahorati, madaniy muhit va ijodiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq ekanligini aniqlash imkonini berdi. Shu asosda oliy ta’limda estetik tarbiyani tizimli, maqsadli va integrativ pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligi metodik jihatdan asoslandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalash jarayoni shaxsning umumiy ma’naviy kamoloti, kasbiy madaniyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganilgan nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar asosida estetik tarbiya talabalarning faqat san’atni tushunish yoki badiiy asarlarni baholash qobiliyatini shakllantirish bilan cheklanmasligi, balki ularning hayotga, kasbga, jamiyatga va insoniy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini boyitishi aniqlandi. Talabalarda estetik dunyoqarash rivojlanganda ular atrof-muhitdagi go‘zallikni anglash, madaniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ijodiy fikrlash va o‘z kasbiy faoliyatida insonparvar yondashuvni namoyon etishga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Tadqiqot davomida estetik tarbiyani samarali tashkil etish uchun oliy ta’lim muhitida bir necha pedagogik shart-sharoitlar zarurligi aniqlandi. Avvalo, ta’lim mazmunida estetik qadriyatlar, milliy madaniy meros, san’at, adabiyot va ijodiy faoliyat elementlari tizimli ravishda aks etishi lozim. Ikkinchidan, o‘qituvchining shaxsiy madaniyati, nutq odobi, tashqi ko‘rinishi, estetik qarashlari va pedagogik mahorati talabalarga bevosita tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, auditoriya va oliy ta’lim muassasasining umumiy madaniy muhiti talabalar estetik didining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlar, badiiy matnlar bilan ishlash, san’at asarlarini tahlil qilish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, teatr va muzeylarga tashriflar, loyiha ishlari hamda talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati estetik tarbiya samaradorligini oshiradi. Bunday faoliyat turlari talabalarda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur, hissiy idrok, badiiy baholash va madaniy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada estetik tarbiya oliy ta’limda kasbiy tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, talaba shaxsini ma’naviy, axloqiy va madaniy jihatdan boyituvchi muhim pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalash masalasi bugungi pedagogik jarayonda faqat tarbiyaviy yo‘nalish sifatida emas, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy yetukligini ta’minlovchi muhim metodologik omil sifatida qaralishi lozim. Chunki estetik tarbiya talabaning ichki madaniyati, dunyoqarashi, hissiy-intellektual rivoji va ijodiy salohiyatini uyg‘un shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, estetik tarbiya tizimli tashkil etilganda talabalarda go‘zallikni idrok etish, badiiy qadriyatlarni tushunish, madaniy xulq-atvorni namoyon etish va kasbiy faoliyatda estetik mezonlarga amal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu jarayon pedagogik ta’lim muassasalarida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bo‘lajak mutaxassis kelajakda nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Muhokama jarayonida estetik tarbiyaning samaradorligi bir necha omillar bilan bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Avvalo, ta’lim mazmunida estetik komponentlar yetarli darajada aks etishi zarur. Fanlarni o‘qitishda badiiy obraz, madaniy meros, milliy san’at, adabiy-estetik tahlil va ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarning estetik idrokini kuchaytiradi. Ikkinchi muhim omil o‘qituvchining shaxsiy namunasi bilan bog‘liqdir. Pedagogning nutq madaniyati, muomala uslubi, auditoriyani tashkil etish mahorati, tashqi va ichki madaniyati talabalar estetik qarashlariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli estetik tarbiya jarayonida o‘qituvchining kasbiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasasining madaniy-estetik muhiti talabalar tarbiyasida kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Auditoriyalar bezagi, axborot-resurs markazlari, ijodiy to‘garaklar, madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar va san’at namunalari bilan ishlash talabalarda estetik ehtiyojni shakllantiradi. Estetik tarbiyani faqat nazariy bilim berish bilan cheklash kutilgan natijani bermaydi. U amaliy faoliyat, mustaqil ijod, kuzatish, baholash, muloqot va refleksiya bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Shu jihatdan oliy ta’limda estetik tarbiyani integrativ, uzluksiz va maqsadli pedagogik tizim sifatida yo‘lga qo‘yish zarur.

Xulosa. Oliy ta’limda talabalarni estetik tarbiyalash zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u talaba shaxsining ma’naviy, axloqiy, madaniy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida estetik tarbiya faqat san’atga oid bilimlarni o‘zlashtirish yoki badiiy didni shakllantirish bilan cheklanmasligi, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati, ijodiy tafakkuri, madaniy xulq-atvori va kasbiy faoliyatga estetik yondashuvini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizim ekanligi asoslandi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida estetik tarbiyani izchil, maqsadli va metodik jihatdan puxta tashkil etish pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalarni estetik tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari falsafiy, pedagogik, psixologik, aksiologik va madaniy yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Estetik ong, estetik did, estetik ehtiyoj, estetik baholash va estetik faoliyat kabi tushunchalar talaba shaxsining ichki madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida estetik tarbiya bo‘lajak mutaxassisning kasbiy qiyofasi, nutq madaniyati, muloqot odobi, ijodiy yondashuvi va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish salohiyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, estetik tarbiyaning samaradorligi ta’lim mazmuni, o‘qituvchi shaxsiyati, madaniy-ma’rifiy muhit, milliy qadriyatlar, san’at vositalari, adabiy-badiiy manbalar va ijodiy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Dars jarayonida badiiy matnlar, san’at asarlari, madaniy meros namunalari, ijodiy topshiriqlar, muzey va teatr faoliyati, loyiha ishlari hamda talabalarning mustaqil estetik izlanishlaridan foydalanish ularning badiiy idroki va madaniy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bois oliy ta’limda estetik tarbiya alohida epizodik faoliyat emas, balki barcha fanlar, tarbiyaviy tadbirlar va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sano-standart, 2017.
5. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika. Toshkent: Noshir, 2011.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006.
7. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
8. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
9. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
10. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent: Istiqlol, 2003.
11. Каган М.С. Эстетика как философская наука. Санкт-Петербург: Петрополис, 1997.
12. Борев Ю.Б. Эстетика. Москва: Высшая школа, 2002.
13. Лихачев Б.Т. Теория эстетического воспитания школьников. Москва: Просвещение, 1985.
14. Выготский Л.С. Психология искусства. Москва: Искусство, 1986.
15. Dewey J. Art as Experience. New York: Perigee Books, 2005.

YOSHLAR ORASIDA KIBERSPORT VA SPORT O‘YINLARI O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Saidova Mushtariybonu Azamat qizi,
Osiyo xalqaro universiteti talabasi
mushtariybonusaidova7@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida keng ommalashib borayotgan kibersport faoliyati hamda an’anaviy sport o‘yinlari o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik masalalari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yoshlarning motivatsion sohalari, diqqat va idrok jarayonlari, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy o‘sish ko‘rsatkichlari qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Psixologik testlar, so‘rovnomalar va pedagogik kuzatishlar asosida olingan natijalar kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasida umumiy psixologik mexanizmlar mavjudligini ko‘rsatdi. Maqolada ushbu ikki faoliyat turini uyg‘unlashtirish orqali yoshlarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kibersport, sport o‘yinlari, yoshlar, psixologik tayyorgarlik, motivatsiya, diqqat, stress, emotsional barqarorlik.*

THE PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN ESPORTS AND SPORTS GAMES AMONG YOUTH

This article provides an in-depth scientific analysis of the psychological relationship between esports, which is increasingly popular among youth, and traditional sports games. The study examines motivational factors, attention and perception processes, emotional stability, stress resistance, social adaptation, and personal development indicators. Based on psychological tests, questionnaires, and pedagogical observations, the results reveal common psychological mechanisms between esports and sports games. The article proposes scientific and methodological recommendations aimed at improving youth psychological preparedness through the integration of both activities.

Keywords: *esports, sports games, youth, psychological training, motivation, attention, stress.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ КИБЕРСПОРТА И СПОРТИВНЫХ ИГР СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

В статье представлен углубленный анализ психологической взаимосвязи между киберспортом и традиционными спортивными играми среди молодежи. В ходе исследования изучены мотивационная сфера, процессы внимания и восприятия, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость и социальная адаптация. Результаты исследования подтверждают наличие общих психологических механизмов и обосновывают целесообразность комплексного подхода к развитию психологической подготовленности молодежи.

Ключевые слова: *киберспорт, спортивные игры, молодежь, психологическая подготовка, мотивация, внимание.*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, xususan yoshlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish va sport faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Kibertexnologiyalar asosida shakllangan kibersport bugungi kunda nafaqat o‘yin-kulgi vositasi, balki yuqori darajadagi musobaqaviy faoliyat, professional sport turi sifatida e’tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, an’anaviy sport o‘yinlari yoshlarning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlash, psixologik barqarorligini rivojlantirish va ijtimoiylashuvini ta’minlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy sharoitda yoshlar orasida kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ularning psixologik jihatdan bir-birini to‘ldirishi yoki ayrim holatlarda qarama-qarshi bo‘lishi ilmiy izlanishlarni talab qilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sport psixologiyasi sohasida motivatsiya, diqqat, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va irodaviy sifatlarni rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Ko‘plab ilmiy ishlarda sport o‘yinlarining shaxs shakllanishiga ijobiy ta’siri asoslab berilgan. Kibersport bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa asosan kognitiv jarayonlar - tezkor fikrlash, vizual idrok, reaksiya tezligi va qaror qabul qilish mexanizmlari o‘rganilgan. Biroq kibersport va sport o‘yinlarini qiyosiy psixologik tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash bo‘yicha izlanishlar yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi - yoshlar orasida kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni aniqlash hamda ularning yoshlar psixologik tayyorgarligiga ta’sirini ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- Kibersport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning psixologik holatini tahlil qilish;
- Motivatsiya, diqqat va stressga chidamlilik ko‘rsatkichlarini qiyoslash;
- Yoshlar psixologik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari

Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, psixologik testlash (motivatsiya, diqqat, stress darajasi), so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil hamda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, kibersport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar diqqatning yuqori darajada jamlanishi, tezkor qaror qabul qilish va kognitiv moslashuvchanlik bo‘yicha ustunlikka ega. Shu bilan birga, uzoq vaqt monitor qarshisida bo‘lish emotsional zo‘riqish va psixik charchoqqa olib kelishi mumkin.

Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlarda esa jamoada ishlash ko‘nikmalari, stressga chidamlilik va irodaviy sifatlar nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Qiyosiy tahlil natijalari ushbu ikki faoliyat turini uyg‘unlashtirish yoshlarning psixologik holatini barqarorlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kibersport va an’anaviy sport o‘yinlari yoshlar hayotida muhim o‘rin egallab bormoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikki faoliyat turi inson psixologiyasiga sezilarli ta’sir qiladi. Ayniqsa yoshlar orasida motivatsiya, emotsional holat, diqqat, jamoaviylik va stressga chidamlilik kabi psixologik omillar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan kuzatuv va so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, kibersport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning aksariyatida tez fikrlash, strategik qaror qabul qilish va diqqatni uzoq vaqt jamlash qobiliyati rivojlanganligi aniqlangan. Sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlar esa jismoniy faollik bilan bir qatorda ijtimoiy moslashuv, jamoada ishlash va ruhiy barqarorlik bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatgan.

Tadqiqot davomida quyidagi holatlar kuzatilgan:

- Kibersport bilan muntazam shug‘ullanuvchilarda reaksiya tezligi yuqori bo‘lgan.
- Sport o‘yinlari ishtirokchilarida liderlik va kommunikativ ko‘nikmalar kuchli rivojlangan.
- Har ikki guruh yoshlarida raqobat muhiti motivatsiyani oshirgan.

- ❖ G‘alaba va mag‘lubiyat holatlari emotsional holatga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.
- ❖ Uzoq vaqt kibersport bilan shug‘ullanish ayrim hollarda stress va ruhiy charchoqni kuchaytirgan.

Psixologik bog‘liqlik tahlili. Kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasidagi asosiy psixologik bog‘liqlik quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

1. Motivatsiya

Har ikki faoliyat turi yoshlarni maqsad sari intilishga undaydi. Musobaqalarda g‘alaba qozonish istagi ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Rag‘bat va muvaffaqiyat hissi yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

2. Stressga chidamlilik

Musobaqa jarayonida bosim ostida harakat qilish sportchi va kibersportchilarda stressni boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ammo kibersportda uzoq vaqt monitor qarshisida o‘tirish psixologik charchoqni tezlashtirishi mumkin.

3. Jamoaviylik

Futbol, basketbol yoki voleybol kabi sport turlarida jamoaviy harakat muhim hisoblanadi. Kibersportning ko‘plab turlarida ham jamoa bilan strategik hamkorlik talab qilinadi. Bu esa o‘zaro ishonch va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

4. Emotsional boshqaruv

Yutqazish yoki xato qilish holatlarida hissiyotlarni boshqarish har ikki faoliyat uchun muhimdir. Tadqiqotlarda sport bilan shug‘ullanuvchilarda emotsional barqarorlik nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etilgan.

5. Diqqat va tafakkur

Kibersport tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni tahlil qilish va bir vaqtning o‘zida bir nechta jarayonni boshqarishni talab qiladi. Sport o‘yinlari esa fazoviy fikrlash va tezkor harakatni rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kibersport va sport o‘yinlari yoshlarning psixologik rivojlanishiga turlicha, ammo o‘zaro bog‘liq ta’sir ko‘rsatadi. Kibersport intellektual va strategik fikrlashni rivojlantirsa, sport o‘yinlari jismoniy va ijtimoiy-psixologik sifatlarni kuchaytiradi. Shu sababli yoshlar orasida ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama. Kibersport va sport o‘yinlari o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik asosan umumiy motivatsion mexanizmlar, raqobat muhiti va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Farqli jihatlari esa jismoniy yuklama darajasi va psixofiziologik ta’sir mexanizmlarida kuzatiladi. Shu bois yoshlar sport faoliyatini rejalashtirishda kompleks yondashuv muhim hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar.

- ✓ Kibersport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar uchun jismoniy faollikni oshiruvchi sport o‘yinlarini joriy etish;
- ✓ Sport maktablarida psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlariga kognitiv o‘yin elementlarini kiritish;
- ✓ Yoshlarning psixologik holatini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kibersport va sport o‘yinlari yoshlar psixologik rivojlanishida o‘ziga xos, biroq o‘zaro bog‘liq mexanizmlarga ega. Ularni ilmiy asosda uyg‘unlashtirish yoshlarning motivatsiyasi, diqqat barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuvini oshirishga xizmat qiladi. Kibersport yoshlarning diqqat va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ammo ularni psixologik jihatdan izolyatsiya qilish xavfini oshiradi. Jismoniy sport o‘yinlari ijtimoiylashuv, o‘zini baholash va stressga bardoshlilikni oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Normurodov A.N. Sport psixologiyasi asoslari. - Toshkent, 2019.
2. Rafiev H.T. Yoshlar sporti psixologiyasi. - Toshkent, 2020.
3. To‘xtaboev N.T. Sport faoliyatida psixologik tayyorgarlik. - Toshkent, 2018.
4. Lyax V.I. Sportchilar psixologik tayyorgarligi. - Moskva, 2017.
5. Nikitushkin V.G. Sport va psixologiya. - Moskva, 2016.
6. Karimov Sh.X. Kibersport: nazariya va amaliyot. - Toshkent, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi. Yoshlar sportini rivojlantirish dasturi. -Toshkent, 2023.

MUSIQIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI TASHKIL ETISH VA FOYDALANISH TEXNIKASI

Bobokulova Moxinur Jamshid qizi,
Navoiy davlat universiteti Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Mazkur maqolada musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida interfaol metodlarni tashkil etish va ulardan samarali foydalanish texnikasi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning ijodiy fikrlashi, musiqiy tafakkuri, amaliy ko‘nikmalari hamda mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Interfaol metodlarning musiqiy ta’limdagi o‘rni, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida musiqiy ta’limda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Case-study”, “Rollli o‘yinlar” kabi metodlardan foydalanish talabalar faolligini oshirishi va mustaqil ta’lim sifatini yaxshilashi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *Musiqiy ta’lim, mustaqil ta’lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, kreativlik, musiqiy tafakkur, innovatsion yondashuv, talaba faolligi, kompetensiya, ta’lim samaradorligi*

ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы организации интерактивных методов и техники их эффективного использования в процессе самостоятельного обучения студентов направления музыкального образования. Также анализируются вопросы развития творческого мышления, музыкального восприятия, практических навыков, а также компетенций самостоятельной работы студентов на основе современных педагогических технологий. Научно-педагогически обоснованы роль интерактивных методов в музыкальном образовании, их значение в повышении эффективности обучения, а также механизмы практического применения. В результате исследования установлено, что использование таких методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Бумеранг», «Case-study», «Ролевые игры», способствует повышению активности студентов и улучшению качества самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *Музыкальное образование, самостоятельное обучение, интерактивные методы, педагогическая технология, креативность, музыкальное мышление, инновационный подход, активность студентов, компетенция, эффективность образования.*

ORGANIZATION AND TECHNIQUES OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE INDEPENDENT LEARNING PROCESS OF MUSIC EDUCATION STUDENTS

This article discusses the organization of interactive methods and the techniques of their effective use in the independent learning process of students majoring in music education. It also analyzes the development of students’ creative thinking, musical perception, practical skills, and independent learning competencies based on modern pedagogical technologies. The role of interactive methods in music education, their importance in improving educational effectiveness, and the mechanisms of their practical application are scientifically and pedagogically substantiated. The results of the research revealed that the use of methods such as “Brainstorming,” “Cluster,” “Boomerang,” “Case-study,” and “Role-playing Games” increases students’ activity and improves the quality of independent learning.

Keywords: *Music education, independent learning, interactive methods, pedagogical technology, creativity, musical thinking, innovative approach, student activity, competence, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqiy ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ijrochilik, ijodiy tafakkur va mustaqil mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masala sanaladi. Shu bois, ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish orqali talabalarni faol fikrlashga, erkin muloqotga va mustaqil ishlashga yo‘naltirish zarurati ortib bormoqda.

Mustaqil ta’lim – bu talabaning o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitishi, amaliy topshiriqlarni individual tarzda bajarishi va ijodiy izlanish olib borish jarayonidir. Musiqiy ta’limda esa bu jarayon

tinglash, tahlil qilish, nota bilan ishlash, ijro mahoratini oshirish hamda yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Interfaol metodlar talabaning o‘quv faoliyatida bevosita ishtirokini ta’minlab, uning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur tadqiqot musiqa ta'limida integratsiya va interfaol metodlardan foydalanish orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, Integratsiyalashgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayonni tizimli tashkil etishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida interfaol metodlarning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Jumladan, M. Klarin interfaol ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida baholab, bunda o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi. N. Muslimov esa kasbiy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishini qayd etadi. Musiqiy ta’limga oid ilmiy manbalarda ham interfaol metodlarning ahamiyati alohida e’tirof etilgan. Xususan, musiqiy mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish, jamoaviy tahlil va ijodiy topshiriqlar orqali talabalarning estetik didi hamda ijrochilik malakasi rivojlanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli platformalar, multimedia vositalari va interaktiv texnologiyalar musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida talqin qilinmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’limda interfaol metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini faollashtiradi, ularda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi hamda amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Musiqa ta’limida integratsiya va interfaol metodlardan foydalanish masalasi so’nggi yillarda pedagogika, san’atshunoslik va metodika yo’nalishlarida faol tadqiq etilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida fanlararo Integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv va interfaol o’qitish texnologiyalarining uyg’unligi ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoq. Pedagogika nazariyasida integratsiya tushunchasi ta’lim mazmunini tizimli va yaxlit tashkil etish, fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuv sifatida izohlanadi. N. Muslimov, R. Djuraev, U. Asqarov kabi olimlar ta’limda integratsiyalashgan yondashuvning didaktik asoslarini ishlab chiqqan holda, fanlararo bog’liqlik o’quvchilarda mantiqiy, tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, Integratsiya o’quv jarayonini sun’iy ravishda bo’linib ketgan bilimlardan holi etib, shaxsning yaxlit rivojlanishini ta’minlaydi. Musiqa ta’limi sohasida integratsiya masalasi asosan musiqa-adabiyot, musiqa-tarix, musiqa-psixologiya, musiqa-tasviriy san’at yo’nalishlari orqali tadqiq etilgan. M. Qodirov, G. Sharipova, O. Sobirova, Sh. Rahimova kabi tadqiqotchilar musiqiy asarlarni adabiy matn, tarixiy voqelik va ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog’liq holda o’rganish o’quvchilarning badily tafakkuri, estetik didi va musiqiy idrokini chuqurlashtirishini ilmiy asoslab berganlar. Ularning ishlarida integratsiya musiqani faqat tovush san’ati sifatida emas, balki madaniy, ma’naviy va tarbiyaviy hodisa sifatida talqin qilish imkonini berishi ko’rsatib o’tiladi.

Natija. Tadqiqot jarayonida musiqa ta’limida Integratsiya va interfaol metodlardan foydalanishning bo’lajak musiqa o’qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga ta’siri tizimli ravishda o’rganildi. Tajriba-sinov ishlari davomida musiqa fanini adablyot, tarix va psixologiya fanlari bilan Integratsiyalashgan holda o’qitish hamda dars jarayoniga debat, jamoaviy ijro, ijodiy loyiha, munozara va rolli o’yinlar kabi interfaol metodlarni joriy etish ijobiy natijalar bergani aniqlandi. Tajriba oldi bosqichida o’tkazilgan diagnostik tahlillar talabalarning fanlararo bog’liqlikni anglash darajasi, musiqiy asarlarni kompleks tahlil qilish ko’nikmalari va interfaol metodlardan foydalanish tajribasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Aksariyat talabalar musiqani alohida fan sifatida qabul qilib, uning adabiyot, tarix va psixologiya bilan uzviy bog’liqligini chuqur anglamagan, dars jarayonida esa asosan reproduktiv faoliyat ustun bo‘lgan. Tajriba jarayonida integratsiyalashgan mashg ulotlar tashkil etildi. Masalan, tarixiy mavzudagi musiqiy asarlarni o’rganishda ularning yaratilish davri, ijtimoiy-siyosiy sharoiti tahlil qilindi; adabiy matn asosidagi qo’shiqlarda badiiy g’oya, obrazlar tizimi va poetik vositalar muhokama qilindi; psixologiya bilan integratsiyada esa musiqaning emotsional ta’siri, tinglovchi ruhiyatiga ta’siri tahlil etildi. Bu yondashuv talabalar tomonidan musiqani kengroq tafakkur doirasida idrok etishiga, mavzuga nisbatan qiziqish va motivatsiyaning oshishiga olib keldi.

Interfaol metodlardan foydalanish natijasida talabalarning darsdagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Debat va munozara jarayonlarida talabalar o’z fikrlarini erkin bayon etish, dalillar keltirish. Va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirdilar. Jamoaviy ijro mashg’ulotlari orqali ular hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash, musiqiy uyg’unlikni his etish va sahna madaniyatiga amal qilish malakalarini egalladilar. Ijodiy loyiha metodida esa talabalar mustaqil Izlanish, material to‘plash, musiqiy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish, natijani taqdim etish tajribasiga ega bo’ldilar. Tadqiqot natijalari shuni

ko‘rsatdiki, integratsiya va interfaol metodlar uyg’unligi talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Talabalar musiqiy asarlarni faqat ijro yoki tinglash bilan cheklanmay, ularni mazmunan tahlil qilish, tarixiy va adabiy kontekstda baholash, psixologik jihatdan talqin qilishga o’rganib bordilar. Bu esa ularning tafakkur doirasini kengaytirib, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytirdi.

Metodik kompetentlik ko’rsatkichlari bo’yicha olib borilgan tahlil natijalariga ko’ra, tajriba guruhidagi talabalarda darsni loyihalash, fanlararo bog’lanishlarni aniqlash, interfaol metodlarni tanlash va qo’llash, talabalarning faolligini rag’batlantirish ko’nikmalari sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Talabalar dars ishlanmalarini tuzishda integratsion yondashuvdan foydalana boshladilar, musiqiy materialni boshqa fanlar bilan bog’lashga intildilar va interfaol usullarni maqsadga muvofiq tanlashni o’rgandilar.

Tadqiqot davomida musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish samarali natija berishi aniqlandi:

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod orqali talabalar musiqiy asarlar, kompozitorlar ijodi yoki musiqa nazariyasiga oid masalalar yuzasidan erkin fikr bildiradilar. Bu usul talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi va yangi g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Klaster” metodi

Talabalar musiqiy janrlar, ritm, ohang va ijrochilik usullarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qiladilar. Natijada mavzular tizimli ravishda o‘zlashtiriladi.

“Case-study” metodi

Muayyan musiqiy vaziyat yoki pedagogik muammo asosida yechim ishlab chiqish orqali talabalar mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

“Rollli o‘yinlar” metodi

Talabalar dirijyor, bastakor, o‘qituvchi yoki ijrochi rolida chiqish qilib, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Multimedia texnologiyalari

Audio va video materiallar, virtual pianino dasturlari hamda onlayn platformalardan foydalanish mustaqil ta’lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim talabalarning bilim faolligini oshirib, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama. Musiqiy ta’lim yo‘nalishida interfaol metodlardan foydalanish an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Avvalo, bunday metodlar talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa musiqiy ijodkorlik va mustaqil fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol metodlar talabalar o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantiradi. Guruhli ishlash jarayonida ular bir-birining fikrini tinglash, musiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, multimedia vositalari bilan integratsiyalashgan interfaol metodlar musiqiy materiallarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Biroq interfaol metodlarni qo‘llashda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, texnik vositalarning yetarli emasligi, ayrim pedagoglarning innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha tajribasi kamligi hamda vaqt taqsimotidagi qiyinchiliklar ta’lim samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish hamda raqamli ta’lim resurslarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim jarayonida interfaol metodlarni tashkil etish va ulardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, musiqiy tafakkuri va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim jarayoni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida musiqiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada keng joriy etish va raqamli resurslardan foydalanishni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kasbiy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva: Prosvesheniye, 2018.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2017.
4. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va amaliyoti. – Toshkent, 2018.

SUN’IY INTELLEKTNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Nazarova Gulshod Xodjievna,
BuxDu, Fakultetlararo chet tili kafedrasi o’qutuvchisi

Ushbu maqola sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishiga ta’sirini nazariy va tahliliy nuqtai nazardan o‘rganadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan to‘g‘ri va pedagogik jihatdan asoslangan tarzda foydalanish o‘quvchilarning kognitiv faolligi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy hissa qo‘shishi mumkin. Biroq nazorat qilinmagan va yoshga mos bo‘lmagan foydalanish emotsional va ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi xavfi mavjud. Maqolada motivatsiya, diqqat, emotsional barqarorlik va o‘quv faolligiga ta’sir masalalari ko‘rib chiqiladi hamda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich sinf, psixologik rivojlanish, kognitiv faollik, ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, emotsional rivojlanish, individual yondashuv.*

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на психологическое развитие учащихся начальных классов с теоретической и аналитической точки зрения. На основе анализа научной литературы установлено, что при педагогически обоснованном применении искусственный интеллект может положительно влиять на когнитивную активность, мотивацию и развитие навыков самостоятельного мышления. Однако бесконтрольное использование несёт риск негативного воздействия на эмоциональное и социальное развитие учащихся. В статье анализируются вопросы влияния на мотивацию, внимание, эмоциональную устойчивость и учебную активность, а также разрабатываются педагогические рекомендации.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, начальная школа, психологическое развитие, когнитивная активность, образовательные технологии, мотивация, эмоциональное развитие*.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article examines the impact of artificial intelligence technologies on the psychological development of primary school students from a theoretical and analytical perspective. Based on a review of the scientific literature, it is established that pedagogically grounded use of artificial intelligence can positively contribute to students' cognitive activity, motivation, and independent thinking skills. However, uncontrolled use poses risks of adverse effects on emotional and social development. The article analyses the influence on motivation, attention, emotional stability, and learning engagement, and formulates pedagogical recommendations.

Keywords: *artificial intelligence, primary school, psychological development, cognitive activity, educational technology, motivation, emotional development.*

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasiga tobora chuqurroq kirib kelmoqda va bu holat, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida alohida e’tibor va ilmiy tahlilni talab etadi. Boshlang‘ich maktab yoshi (6-10 yosh) bolaning psixologik rivojlanishida muhim senzitiv davr hisoblanadi: bu davrda idrok, xotira, diqqat, tafakkur va emotsional barqarorlik asoslari shakllanadi, shaxsiy o‘ziga munosabat va o‘quv motivatsiyasining dastlabki tuzilmalari mustahkamlanadi [7]. Shu sababli ushbu yoshdagi o‘quvchilarga ta’sir etuvchi har qanday texnologik muhit nafaqat pedagogik, balki birinchi navbatda psixologik nuqtai nazardan baholanishi zarur. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish, bilim darajasiga moslashtirilgan topshiriqlar berish va darhol qayta aloqa ta’minlash imkoniyatlarini yaratadi [1]. Biroq bu imkoniyatlar bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixikasi uchun xos bo‘lgan zaifliklar, ya’ni ortiqcha rag‘batga bog‘liqlik, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanmasligi va real insoniy muloqotsiz qolib ketish kabi xavflar ham mavjud [9]. Ushbu maqola mazkur ikki tomonlama ta’sirni ilmiy adabiyotlar va nazariy tahlil asosida ko‘rib chiqishga, psixologik rivojlanishga ijobiy va salbiy ta’sirlarni aniqlab, pedagogik amaliyot uchun asoslangan xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu maqola sof nazariy-tahliliy xarakter kasb etib, empirik tajriba yoki kuzatuv ma’lumotlarini o‘z ichiga olmaydi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mavjud ilmiy adabiyotlarning tanqidiy tahlili, manbaalarni solishtirish va sintez qilish usullaridan foydalanilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologik xususiyatlarini o‘rganishda Akmalovaning tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi: ushbu ishda 6-10 yoshli bolalarning kognitiv egiluvchanligi, tashqi rag‘batlarga yuqori sezgirligi va o‘quv faoliyatidagi emotsional jihatlarning ustuvorligi batafsil tavsiflanadi [7]. Mazkur xususiyatlar sun’iy intellekt texnologiyalari bilan munosabatni psixologik jihatdan o‘ziga xos va nozik qiladi: rag‘batlantirish mexanizmlari to‘g‘ri sozlansa samarali natija beradi, aksincha bo‘lsa, bolaning kognitiv o‘z-o‘zini boshqarishini zaiflashtirishi mumkin. Tursunova raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlari va xavflarini tahlil qilib, ushbu texnologiyalar to‘g‘ri qo‘llanilganda o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, lekin nazorat etilmaganda psixologik va ijtimoiy risklarni oshirishini alohida ta’kidlaydi [1]. Xuddi shu mavzuda Normuminova sun’iy intellekt vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirish masalasini ilmiy-metodik jihatdan o‘rganib, moslashuvchan ta’lim tizimlarining o‘quvchi tafakkuriga ijobiy ta’siri uchun aniq metodologik asoslarni ishlab chiqqan [2].

Kognitiv faollik nuqtai nazaridan Omonturdiyeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv faollikni yaxshilashning pedagogik mexanizmlarini tahlil etib, sun’iy intellekt elementlarini o‘z ichiga olgan muhitda o‘quvchilarning kognitiv ishtirokini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [3]. Ashurov esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlarini o‘rganib, muhit omillari, jumladan texnologik muhit, intellektual rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini psixologik dalillar asosida isbotlaydi [5]. Babajanov individual yondashuv va sun’iy intellekt asosida diqqatni rivojlantirish texnologiyasi ustida olib borgan ishida diqqatni boshqarishning sun’iy intellekt orqali optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [6]. Rustamova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosini o‘rganib, intellektual tayyorgarlikning psixologik komponentlari texnologik ta’sir orqali ham shakllanishi yoki buzilishi mumkinligini ta’kidlaydi [4].

Xorijiy adabiyotlar orasida Kovach va boshqalarning ijtimoiy sun’iy intellekt agentlari ustidagi tadqiqoti alohida qimmatga ega: ushbu ish rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan sun’iy intellektning ijtimoiy-madaniy o‘rganish jarayonlariga integratsiyasini tahlil qilib, real insoniy ijtimoiy o‘rganish muhitining sun’iy intellekt muhitidan psixologik ustunligini ko‘rsatadi [8]. Porayska-Pomsta, Holmes va Nemorin ta’limdagi sun’iy intellektning etikasi masalasida yozgan tadqiqotida sun’iy intellekt ta’limini psixologik va etik nuqtai nazardan baholashning zaruriy mezonlarini taklif etib, ayniqsa yosh o‘quvchilar uchun qo‘llashda ehtiyotkorlik tamoyillarini asoslab beradi [9]. Tek, Benli va Devecining o‘z-o‘ziga ishonch va nazariy tasavvurlar ustidagi ishi esa texnologik ta’lim muhitida o‘quvchilarning o‘ziga samaradorligi hissiga ta’sirni tushunishda ahamiyatli nazariy asos beradi [10].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishiga ta’siri bir xil va bir tomonlama emas, balki ko‘p qirrali va murakkab tuzilmaga ega. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu ta’sirni uchta asosiy psixologik yo‘nalishda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: kognitiv rivojlanish, motivatsion-emotsional soha va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish. Kognitiv rivojlanish sohasida sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchiga o‘z sur'atida ishlash, darhol fikr-mulohaza olish va qo‘shimcha izohlar talab qilish imkoniyatini beradi [2]. Babajanovning tahlilidan ko‘rinadiki, moslashuvchan sun’iy intellekt tizimlari bolaning diqqatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda an’anaviy usullar bilan taqqoslaganda qo‘shimcha stimul bo‘lishi mumkin [6]. Biroq bu ijobiy ta’sir shartli xarakter kasb etadi: agar tizim bolaning kognitiv harakatini soddalashtirsa, ya’ni topshiriqlarni mustaqil hal etish o‘rniga tayyor echimlarni taqdim etsa, o‘quvchida kognitiv passivlik shakllana boshlaydi. Ashurovning xulosalariga ko‘ra, boshlang‘ich maktab yoshida intellektning shakllanishi bevosita bolaning o‘z sa’y-harakati, muammolarni hal etishda mustaqilligi va xato qilish hamda undan o‘rganish tajribasiga bog‘liq [5]. Sun’iy intellekt bu tabiiy psixologik mexanizmni to‘liq o‘rnini bosa olmaydi, balki uni boyituvchi muhit sifatida ishlashi lozim. Omonturdiyeva ta’kidlaganidek, pedagogik mexanizmlar sun’iy intellekt texnologiyalaridan mustaqil tafakkurni yengillashtirishga emas, uni rag‘batlantirishga xizmat qiladigan tarzda foydalanishni talab etadi [3].

Motivatsion-emotsional soha nuqtai nazaridan vaziyat yanada nozikroq tus oladi. Sun’iy intellekt tizimlari ko‘pincha gamifikatsiya elementlari, darhol mukofotlash va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari orqali o‘quvchi motivatsiyasini ushlab turadi [1]. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bola uchun bu yondashuv dastlab juda samarali ko‘rinishi mumkin: o‘quvchi ko‘proq mashq qiladi, bilimni o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi. Biroq psixologik jihatdan xavfli tomonlar ham mavjud. Akmalova ta’kidlaganidek, 6-10 yoshli bolalar tashqi rag‘batlarga juda sezgir bo‘lib, ularning o‘quv motivatsiyasining ichki tuzilmasi hali barqaror emas [7]. Doimiy sun’iy mukofotlash tizimi sharoitida o‘quvchi sun’iy intellekt muhitidan tashqarida, ya’ni oddiy dars

sharoitida kamroq rag‘bat sezishi va o‘quv qiziqishi pasayishi mumkin. Bu holat psixologiyada "tashqi motivatsiyaning ichki motivatsiyani siqib chiqarishi" hodisasi sifatida tasvirlangan. Porayska-Pomsta va hamkasblari mazkur muammo etik jihatdan ham muhimligini, chunki yosh o‘quvchilarning motivatsiyasini texnologiya tomonidan boshqarish ularning psixologik avtonomiyasiga zarar yetkazishi mumkinligini alohida ta’kidlaydi [9]. Rustamovaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual tayyorgarligiga doir tadqiqotida ham ko‘rsatilganidek, maktabga psixologik tayyorlikning muhim komponenti o‘z kuchiga ishonch va ichki motivatsiyadir, bu sifatlar esa texnologik vositalar tomonidan emas, bevosita pedagogik va oilaviy muloqot orqali rivojlantirilishi zarur [4].

Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish sohasida sun’iy intellektning ta’siri ayniqsa nozik psixologik masalalarni ko‘taradi. Boshlang‘ich sinf yoshi bolaning tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni, tortishuvlarni hal qilishni, empatiya va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘rganadigan davridir. Kovach va boshqalarning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan insoniy ijtimoiy muhit va uning nozik bosimlari, kutilmalari va norasmiy muloqot shakllari bolaning ijtimoiy rivojlanishi uchun sun’iy intellekt agentlari taqlidiy muhitidan tubdan farq qiladi va o‘rnini bosa olmaydi [8]. Sun’iy intellekt bola uchun bexato, doimiy javob beruvchi va hech qachon rad etmaydigan muhit yaratadi. Bunday muhit qisqa muddatda psixologik xavfsizlik hissini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda bolaning real insoniy munosabatlardagi qarama-qarshiliklar, noaniqliklar va emotsional murakkabroq vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Tek va boshqalarning o‘z-o‘ziga ishonch va implitsit nazariyalar ustidagi ishiga tayanib, ta’kidlash joizki, agar o‘quvchi sun’iy intellekt muhitida doimo muvaffaqiyatni boshdan kechirsa va kamdan-kam haqiqiy qiyinchilik bilan yuzlashsa, uning qiyinchiliklarga duch kelganidagi psixologik chidamliligi shakllanmay qolishi mumkin [10]. Tursunovaning umumlashtirishiga ko‘ra, sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari va xavflari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun pedagogik nazorat va maqsadga yo‘naltirilgan metodologik yondashuv muqarrar shart hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiyotlar tahlili asosida sun’iy intellektning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’sirining uchta psixologik tamoyilini aniqlash imkoni yuzaga keldi. Birinchisi, sun’iy intellekt pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilib, mustaqil tafakkurni rag‘batlantirganda ijobiy kognitiv natijalar beradi. Ikkinchisi, doimiy tashqi mukofotlash tizimi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ichki motivatsiyasini zaiflashtirishga olib keladi. Uchinchisi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun sun’iy intellekt muhiti insoniy muloqot va real pedagogik munosabatlarni almashtira olmaydi.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalari boshlang‘ich ta’limga jadal kirib kelayotgan hozirgi davrda ushbu texnologiyalarning yosh o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga ta’sirini to‘g‘ri baholash pedagogik va psixologik fan oldidagi dolzarb vazifadir. Ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ne ijobiy, ne salbiy ta’sir ko‘rsatishi uning qo‘llanilish tarziga, pedagogik boshqaruvning sifatiga va o‘quvchining yosh psixologik xususiyatlariga muvofiqlashtirilish darajasiga bog‘liq. Kognitiv rivojlanish uchun sun’iy intellekt muhiti foydali bo‘lishi uchun u bolaning mustaqil tafakkurini, muammolarni hal etish qobiliyatini va xatolardan o‘rganish tajribasini qo‘llab-quvvatlashi shart; tayyor echimlar berish yoki haddan ortiq soddalashtirish bu psixologik jarayonlarga zarar yetkazadi. Motivatsion-emotsional soha nuqtai nazaridan sun’iy intellektning doimiy tashqi rag‘batlantirish mexanizmlari boshlang‘ich sinf yoshida xavf tug‘dirishi mumkin, chunki bu davr bolaning ichki motivatsiyasi va o‘z kuchiga ishonchi shakllanadigan senzitiv davr hisoblanadi. Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishda esa sun’iy intellekt muhiti insoniy muloqot, tengdoshlar bilan hamkorlik va haqiqiy emotsional vaziyatlar bilan uyg‘un ravishda qo‘llanilgandagina rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi; izolyatsiyalangan tarzda qo‘llanilsa ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishini sekinlashtirishi mumkin. Shunday ekan, pedagogik amaliyot uchun asosiy tavsiya quyidagicha shakllanadi: sun’iy intellekt boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi rahbarligida, aniq psixologik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda va bolaning real insoniy muloqotini to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Tursunova S.T. Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’siri: imkoniyatlari va xavfi // 2025. Nr. 3(2). B. 45-52.

2. Normuminova D.I. Sun’iy intellekt vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari // Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar. 2026. Nr. 4. B. 112-118.

3. Omonturdiyeva M.O. Pedagogical mechanisms for improving cognitive activity in primary school students // International Journal of Artificial Intelligence. 2026. Vol. 6, Nr. 3. P. 697-699.

4. Rustamova G.X. Boshlangich sinf o‘quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi // Science and Education. 2024. Nr. 5(3). B. 221-226.

5. Ashurov R.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlari // Conference Proceedings. 2023. B. 54-59.

6. Babajanov M. Ta’limda individual yondashuv tajribalari: Sun’iy intellekt asosida diqqatni rivojlantirish texnologiyasi // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. 2024. Nr. 7. B. 88-94.

7. Akmalova G.F.Q. Psychological characteristics of primary school students // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. 2022. Vol. 2, Nr. 12. P. 103-108.

8. Kovac G., Portelas R., Dominey P.F., Oudeyer P.-Y. The SocialAI School: Insights from developmental psychology towards artificial socio-cultural agents // arXiv preprint. 2023.

9. Porayska-Pomsta K., Holmes W., Nemorin S. The ethics of AI in education // arXiv preprint. 2024.

10. Tek F.B., Benli K.S., Deveci E. Implicit theories and self-efficacy in an introductory programming course // arXiv preprint. 2017.

SUN’IY INTELLEKT VA INTERAKTIV PLATFORMALAR VOSITALARI YORDAMIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Sadikova Firuza Safarovna,
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o’qituvchi

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) va interaktiv platformalar vositalari yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari va AI asosidagi o‘quv tizimlari talabalar bilimini individuallashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil ta’limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda interaktiv platformalar (Moodle, Google Classroom, Coursera, Kahoot) hamda AI vositalarining integratsiyasi asosida o‘quv jarayonini optimallashtirish usullari ko‘rib chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, AI va interaktiv platformalardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va raqamli kompetentligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot muhokamasida ushbu yondashuvning afzalliklari, cheklovlari va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, interaktiv platforma, kasbiy kompetentlik, raqamli ta’lim, masofaviy ta’lim, Moodle, Google Classroom, AI texnologiyalari, innovatsion ta’lim.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ СРЕДСТВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАТФОРМ

В данной статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности будущих специалистов с использованием искусственного интеллекта (Artificial Intelligence, AI) и интерактивных платформ. В современной системе образования цифровые технологии, платформы дистанционного обучения и обучающие системы на основе AI играют важную роль в индивидуализации обучения, формировании практических навыков и развитии самостоятельного образования студентов. В исследовании рассматриваются методы оптимизации образовательного процесса на основе интеграции интерактивных платформ (Moodle, Google Classroom, Coursera, Kahoot) и AI-инструментов. Результаты показали, что использование AI и интерактивных платформ значительно повышает профессиональную подготовку студентов, их способность решать проблемные ситуации и цифровую компетентность. В обсуждении исследования анализируются преимущества, ограничения и перспективы данного подхода.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, интерактивная платформа, профессиональная компетентность, цифровое образование, дистанционное обучение, Moodle, Google Classroom, AI-технологии.*

DEVELOPMENT OF FUTURE SPECIALISTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND INTERACTIVE PLATFORM TOOLS

This article analyzes the development of future specialists’ professional competence using Artificial Intelligence (AI) and interactive platform tools. In the modern education system, digital technologies, distance learning platforms, and AI-based educational systems play an important role in personalizing education, developing practical skills, and improving independent learning. The study examines methods for optimizing the educational process through the integration of interactive platforms such as Moodle, Google Classroom, Coursera, and Kahoot with AI technologies. The results showed that the use of AI and interactive platforms significantly improves students’ professional training, problem-solving abilities, and digital competence. The discussion section analyzes the advantages, limitations, and future prospects of this approach.

Keywords: *artificial intelligence, interactive platform, professional competence, digital education, distance learning, Moodle, Google Classroom, AI technologies, innovative education.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi,

sun’iy intellekt tizimlarining keng qo‘llanilishi hamda interaktiv ta’lim platformalarining ommalashuvi natijasida zamonaviy ta’lim mazmuni, metodlari va shakllari tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilim berish, balki ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va raqamli muhitda samarali faoliyat yurita olish kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida raqobatbardosh mutaxassisdan faqat kasbiy bilim emas, balki innovatsion texnologiyalar bilan ishlash, raqamli vositalardan samarali foydalanish, tezkor moslashuvchanlik va kreativ yondashuv ham talab etiladi. Shu sababli an’anaviy ta’lim metodlari bugungi kun ehtiyojlarini to‘liq qondira olmay qolmoqda. Auditoriyaga asoslangan oddiy ma’ruza mashg‘ulotlari ko‘pincha talabalarni faollikka undamaydi, individual yondashuvni ta’minlamaydi hamda ta’lim samaradorligini cheklaydi. Natijada o‘quv jarayonida talabalar bilimini chuqur tahlil qilish, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari aynan shu muammolarni hal qilishning innovatsion vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. AI asosidagi tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, talabalar bilim darajasini baholash, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish va adaptiv o‘quv muhitini yaratish imkonini beradi. Bunday tizimlar yordamida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, bilimlarni monitoring qilish, talabaning o‘zlashtirish darajasiga mos tavsiyalar ishlab chiqish va ta’lim sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchining faoliyatini ham yengillashtirib, baholash va nazorat jarayonlarini optimallashtiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish, talabalar bilimini chuqur tahlil qilish va individual ta’lim muhitini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi sun’iy intellekt va interaktiv platformalar vositalari yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali usullarini tahlil qilish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularni amaliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning afzalliklarini yoritib berishdan iborat.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt va interaktiv platformalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning kompleks metodologiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ta’lim muhiti modelini yaratish	**Sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish**	**Interaktiv metodlarni qo‘llash**	**Natijalarni baholash**
Talabalar va o‘qituvchilar uchun interaktiv ta’lim muhiti shakllantirildi.	AI asosidagi tavsiya tizimlari qo‘llanildi.	Kahoot platformasi yordamida test va viktorinalar tashkil etildi.	Talabalar bilim darajasi an’anaviy va AI asosidagi usullar bilan solishtirildi.
Moodle va Google Classroom platformalari asosida virtual kurslar tashkil qilindi.	Talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqildi.	Onlayn muhokamalar va guruhli loyihalar amalga oshirildi.	Kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.
O‘quv materiallari raqamli shaklda joylashtirildi.	Chatbotlar orqali o‘quvchilarga maslahat va yordam berish tizimi yaratildi.	Talabalar faoliyatini monitoring qilish uchun analitik vositalardan foydalanildi.	O‘quv samaradorligi statistik usullar yordamida baholandi.

Simulyatsiya va tajriba natijalari

Tadqiqot jarayonida talabalar ishtirokida interaktiv ta’lim muhiti tashkil etildi. Tajriba davomida ikki xil ta’lim modeli qo‘llanildi:

1. **An’anaviy ta’lim modeli**
2. **AI va interaktiv platformalar asosidagi ta’lim modeli**

Tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Talabalarning darsdagi faolligi oshdi.
- Mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlandi.
- O‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi yaxshilandi.
- Masofaviy ta’lim samaradorligi oshdi.

• Talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarish vaqti qisqardi.

AI asosidagi tizim yordamida talabalar faoliyati monitoring qilinib, individual tavsiyalar berildi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirish sifatini sezilarli oshirdi.Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt va interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajribada oliy ta’lim muassasasining 2 ta guruh talabalari ishtirok etdi. Birinchi guruhda an’anaviy ta’lim metodlari asosida darslar olib borildi, ikkinchi guruhda esa sun’iy intellekt va interaktiv platformalar integratsiyalashgan holda qo‘llanildi.

Tajriba davomida Moodle, Google Classroom, Kahoot va AI asosidagi adaptiv baholash tizimlaridan foydalanildi. Talabalarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetentligining rivojlanish darajasi monitoring qilindi.

Tajriba jarayonida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

• bilimlarni o‘zlashtirish darajasi;
• topshiriqlarni bajarish vaqti;
• darsdagi faollik;
• mustaqil ishlash ko‘nikmasi;
• raqamli kompetentlik darajasi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt va interaktiv platformalar yordamida:

1.Kasbiy kompetentlik rivojlandi

- Talabalarning amaliy ko‘nikmalari yaxshilandi.
- Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati oshdi.
- Raqamli savodxonlik darajasi rivojlandi.

2.Ta’lim samaradorligi oshdi

- Bilimlarni o‘zlashtirish tezligi ortdi.
- Individual yondashuv imkoniyati yaratildi.
- Talabalarning motivatsiyasi kuchaydi.

3.O‘quv jarayoni optimallashtirildi

- Avtomatik baholash tizimi vaqtni tejadi.
- O‘qituvchi yuklamasi kamaydi.
- Analitik ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Olingan natijalar an’anaviy va AI asosidagi ta’lim modeli o‘rtasidagi farqni yaqqol ko‘rsatdi.

1-jadval.

An’anaviy va AI asosidagi ta’lim modelining solishtirma natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim modeli	AI va interaktiv platformalar asosidagi model
1	Bilimlarni o‘zlashtirish darajasi	68 %	89 %
2	Darsdagi faollik	61 %	92 %
3	Mustaqil ishlash ko‘nikmasi	57 %	87 %
4	Topshiriq bajarish tezligi	64 %	90 %
5	Raqamli kompetentlik darajasi	59 %	93 %
6	Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati	62 %	88 %

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt va interaktiv platformalar asosidagi model barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Ayniqsa, talabalarning darsdagi faolligi va raqamli kompetentligida sezilarli o‘sish kuzatildi.

Tajriba davomida AI asosidagi monitoring tizimi talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib bordi va individual tavsiyalar shakllantirdi. Natijada talabalar o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

2-jadval.

Interaktiv platformalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi

Platforma nomi	Qo‘llanish maqsadi	Natija
Moodle	O‘quv materiallarini joylashtirish va nazorat	Mustaqil ta’lim samaradorligi oshdi
Google	Topshiriqlar almashinuvi va muloqot	O‘qituvchi-talaba hamkorligi yaxshilandi

Platforma nomi	Qo‘llanish maqsadi	Natija
Classroom		
Kahoot	Interaktiv test va viktorinalar	Talabalar faolligi oshdi
AI Chatbot	Savol-javob va maslahat tizimi	Tezkor yordam va individual tavsiyalar berildi
Coursera	Qo‘shimcha kurslar va sertifikatlash	Kasbiy bilimlar kengaydi

Shuningdek, AI asosidagi adaptiv ta’lim tizimi orqali talabalar bilimini baholash jarayoni ham tahlil qilindi. Tizim talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, ularga mos tavsiyalar ishlab chiqdi.

3-jadval.

AI asosidagi adaptiv ta’lim tizimining natijalari

Ko‘rsatkich	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
O‘rtacha o‘zlashtirish darajasi	65 %	91 %
Mustaqil topshiriq bajarish sifati	58 %	88 %
Talabalar motivatsiyasi	60 %	90 %
Amaliy ko‘nikmalar darajasi	55 %	86 %
Platformadan foydalanish faolligi	63 %	94 %

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt va interaktiv platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli oshirdi. Talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi yaxshilandi, amaliy ko‘nikmalari rivojlandi hamda mustaqil ishlash qobiliyatlari shakllandi.

Tajriba yakunida aniqlanishicha, AI va interaktiv platformalar asosidagi ta’lim modeli:

- o‘quv jarayonini individuallashtirish;
- talabalar faolligini oshirish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish;
- masofaviy ta’lim sifatini yaxshilash;
- o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirish imkonini berdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, AI va interaktiv platformalar asosidagi ta’lim modeli bo‘lajak mutaxassislarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki talabalar zamonaviy platformalar, virtual muhit va raqamli vositalar bilan ishlash jarayonida texnologik ko‘nikmalarni amaliy jihatdan egallaydi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardoshligini oshiradi.

Biroq ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, barcha ta’lim muassasalarida texnik infratuzilma bir xil darajada rivojlanmagan. Internet tezligi, zamonaviy kompyuter texnikalari va raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari ayrim hududlarda cheklangan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning AI va raqamli platformalar bilan ishlash bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun pedagoglarning raqamli savodxonligi yuqori bo‘lishi talab etiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash zarur. Talabalar haqidagi ma’lumotlarni himoyalash, AI algoritmlarining shaffofligini ta’minlash va etik me’yorlarga rioya qilish zamonaviy raqamli ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt va interaktiv platformalar vositalaridan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot davomida Moodle, Google Classroom, Kahoot va AI asosidagi adaptiv tizimlardan foydalanilgan holda tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi, raqamli savodxonligi va amaliy kompetentligini sezilarli darajada oshirdi.

Tajriba natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

sun’iy intellekt asosidagi tizimlar talabalar bilimini real vaqt rejimida tahlil qilish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini berdi;

interaktiv platformalar talabalarning darsdagi faolligini oshirib, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirdi;

AI va raqamli platformalar integratsiyasi natijasida topshiriqlarni bajarish sifati hamda tezligi yaxshilandi;

adaptiv ta’lim muhiti orqali talabalar bilim darajasiga mos o‘quv materiallari tavsiya qilinib, o‘zlashtirish samaradorligi oshirildi;

raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim modeli an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt va interaktiv platformalar kelajakdagi raqamli ta’lim muhitining asosiy komponentlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ularni oliy ta’lim tizimida keng qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy kasbiy kompetentligini shakllantirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar, AI asosidagi adaptiv o‘quv tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda aqlli o‘quv analitikasi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities (2024).
2. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2023.
3. Luckin, R. *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. London, 2022.
4. Gavxar Turdieva, Firuza Sadikova, Komiljon Qobilov, Gulchiroy Ruziyeva. “Artificial intelligence-based threat detection and prevention methods for securing Internet of Things devices,” Proc. SPIE 13662, Fourth International Conference on Digital Technologies, Optics, and Materials Science (DTIEE 2025).
5. Turdieva G.S. “Raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ta’limni rivojlantirish istiqbollari” // Zamonaviy ta’lim texnologiyalari ilmiy jurnali, 2024.

BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Qarshiyeva Shaxnoza Toxirovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi
sh.qarshiyeva@cspu.uz
ChDPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD) N.R.Saitkulova taqrizi asosida

Mazkur maqolada bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishning nazariy-metodologik va amaliy pedagogik asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim muhitining didaktik imkoniyatlari, o‘quv jarayonini individuallashtirish mexanizmlari hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantiruvchi omillar tizimli ravishda o‘rganildi. Empirik kuzatuvlar va qiyosiy tahlillar asosida bulutli platformalardan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim modeli o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash, differensial yondashuvni samarali joriy etish hamda o‘quvchilarning refleksiv va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *bulutli texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, LMS, raqamli pedagogika, individuallashtirish, masofaviy ta’lim, kompetensiya.*

ORGANIZING PERSONALIZED EDUCATION BASED ON CLOUD TECHNOLOGIES

This article analyzes the theoretical, methodological and practical pedagogical foundations of organizing person-centered education based on cloud technologies based on an integrated approach. In the course of the research, the didactic capabilities of the digital educational environment, mechanisms for individualizing the educational process, and factors that develop students' independent educational activities were systematically studied. Based on empirical observations and comparative analysis, the impact of using cloud platforms on educational effectiveness was determined. The results of the study showed that the educational model organized on the basis of cloud technologies is an important pedagogical tool for ensuring the flexibility of the educational process, effectively implementing a differentiated approach, and developing students' reflexive and independent thinking competencies.

Keywords: *cloud technologies, person-centered learning, LMS, digital pedagogy, individualization, distance learning, competence.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье анализируются теоретические, методологические и практические педагогические основы организации личностно-ориентированного образования на основе облачных технологий в рамках интегрированного подхода. В ходе исследования систематически изучались дидактические возможности цифровой образовательной среды, механизмы индивидуализации учебного процесса и факторы, развивающие самостоятельную учебную деятельность учащихся. На основе эмпирических наблюдений и сравнительного анализа определено влияние использования облачных платформ на эффективность обучения. Результаты исследования показали, что образовательная модель, организованная на основе облачных технологий, является важным педагогическим инструментом обеспечения гибкости учебного процесса, эффективной реализации дифференцированного подхода и развития у учащихся рефлексивного и самостоятельного мышления.

Ключевые слова: *облачные технологии, личностно-ориентированное обучение, LMS, цифровая педагогика, индивидуализация, дистанционное обучение, компетентность.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonlari ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot hajmining keskin ortishi va bilimlarning tez eskirishi ta’limdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda [1]. Shu sababli an’anaviy o‘qituvchi markazli model o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli egallamoqda.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining individual xususiyatlarini – qobiliyati, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi [2,45-b.]. Bu esa ta’limni

differensiallashtirish va moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda bulutli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi [3,145-b.]. Ular ta’lim resurslariga uzluksiz kirish imkonini yaratadi, o‘quv jarayonini moslashuvchan qiladi va o‘quvchilar faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili bulutli texnologiyalar ta’lim tizimining rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. A.W. Bates raqamli ta’lim muhitida texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [3,150-b.]. Lekin, Bates tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bulutli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sirini asoslab beradi, biroq ularning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kontekstida qo‘llanish mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmagan.

T. Anderson onlayn ta’limda interaktivlik va hamkorlik asosiy komponent ekanligini ko‘rsatadi [4,70-b.].Ammo, ushbu yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega, ammo bulutli platformalar orqali bu jarayonni individuallashtirish masalasi Anderson tadqiqotlarida yetarli darajada chuqurlashtirilmagan.

G. Siemens konnektivizm nazariyasi orqali bilim olishni tarmoqli jarayon sifatida izohlaydi [5,3-b.]. Siemens nazariyasi raqamli ta’limning zamonaviy asoslarini tushuntiradi va bulutli texnologiyalarni qo‘llash uchun metodologik baza yaratadi, lekin u ta’lim jarayonini tashkil etishning aniq pedagogik texnologiyalarini to‘liq yoritmaydi.

Mazkur nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchini faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishning samaradorligini aniqlash maqsadida aralash metodologik yondashuv (mixed-methods) qo‘llanildi. Ushbu yondashuv nazariy va empirik metodlarni integratsiyalash orqali tadqiqot obyektini kompleks o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (kontent-tahlil), tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu orqali bulutli texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalardagi o‘rni aniqlashtirildi.

Empirik bosqichda esa kuzatuv, pedagogik tajriba va diagnostik baholash metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim muassasasida tashkil etilib, unda jami 60 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash usuli asosida ikki guruhga — nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llanilgan bo‘lsa, tajriba guruhida bulutli texnologiyalar (xususan, LMS platformalari) asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli joriy etildi.

Tajriba jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va o‘quv motivatsiyasi maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi. Baholash jarayonida test sinovlari, amaliy topshiriqlar va so‘rovnomalardan foydalanildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Statistik tahlil uchun foizli taqqoslash, o‘rtacha qiymatlarni aniqlash hamda natijalarni qiyosiy solishtirish usullaridan foydalanildi. Bu esa tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va tadqiqot gipotezasini asoslash imkonini berdi.

Bu bilan aytish mumkinki, bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi nafaqat texnologik vositalarga, balki ularni pedagogik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish darajasiga ham bog‘liq. Shu sababli tadqiqotda texnologik va pedagogik omillarning o‘zaro ta’siri kompleks tarzda o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim modeli samaradorligi yuqori bo‘ldi. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi.

Tajriba guruhida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 25% ga oshgani kuzatildi. Shu bilan birga:

- mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlandi;
- o‘quv motivatsiyasi oshdi;
- refleksiv fikrlash shakllandi.

Bu natijalar bulutli texnologiyalarning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Siemens va Downes tadqiqotlarida ham raqamli muhitda o‘qitish o‘quvchilarning faolligini oshirishi qayd etilgan [5,10-b.].

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham aniqlandi:

- texnik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- internet tezligining pastligi;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi.

Bu esa tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Xususan, bulutli platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ta’limni differensiallashtirish imkonini beradi.

Empirik natijalar asosida aniqlanishicha, bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim modeli o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan bir qatorda, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalari, o‘quv motivatsiyasi va refleksiv fikrlash kompetensiyalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa mazkur yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bulutli texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham aniqlanib, ular ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etildi. Xususan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tezligining pastligi hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining yetarli emasligi asosiy cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni yanada samarali tashkil etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- ta’lim muassasalarida zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish va barqaror internet ta’minotini yo‘lga qo‘yish;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tizimli ravishda tashkil etish;
- bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishga oid metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish;
- o‘quv jarayonida LMS platformalaridan foydalanishni kengaytirish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish;
- o‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan raqamli vositalarni joriy etish.

Bulutli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish faqat texnologik yangilik emas, balki pedagogik paradigmaning o‘zgarishini anglatadi. Shu bois, kelgusida ushbu yo‘nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, ayniqsa bulutli texnologiyalar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning didaktik modellari va metodik ta’minotini chuqur o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son qarori, 2020.
2. Полат Е.С. Современные педагогические технологии. – Москва, 2020. – 45–47-betlar.
3. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – 2019. – 145–150-betlar.
4. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – 2018. – 70–75-betlar.
5. Siemens, G. *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. – International Journal of Instructional Technology, 2005. – pp. 3–10.
6. Downes, S. *E-learning 2.0*. – eLearn Magazine, 2005. – pp. 1–8.
7. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers*. – Paris: UNESCO, 2018. – 64 p.
8. Ally, M. *Foundations of Educational Theory for Online Learning*. – Athabasca University Press, 2017. – 320 p.
9. Horton, W. *E-Learning by Design*. – San Francisco: Pfeiffer, 2012. – 624 p.
10. Moore, M.G., Kearsley, G. *Distance Education: A Systems View of Online Learning*. – Boston: Cengage Learning, 2011. – 336 p.

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Azimova Osiyoxon Adxam qizi,
TDTU tayanch doktoranti
azimovaosiyi@gmail.com

Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konfliktologik madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini akmeologik yondashuv prizmasidan ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda konfliktologik madaniyat tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik dimensiyalari tahlil qilinib, uning tuzilmaviy modeli asoslanadi. Mazkur madaniyatning tarkibiy qismlari — kognitiv, motivatsion-qadriyatli, operatsional-kommunikativ va refleksiv-regulyativ komponentlar — akmeologik kamolot kontekstida tadqiq etiladi. Akmeologik yondashuvning pedagogik ta’limdagi imkoniyatlari ilmiy asoslanib, to‘rt bosqichli shakllanish modeli taklif etiladi. Maqola oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini yangilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *konfliktologik madaniyat, akmeologik yondashuv, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, kasbiy kamolot, refleksiya, mediatsiya, pedagogik ta’lim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования конфликтологической культуры будущих учителей начальных классов в контексте акмеологического подхода. Предложена четырёхэтапная модель формирования, эффективность которой подтверждена экспериментальными данными.

Ключевые слова: *конфликтологическая культура, акмеологический подход, учитель начальных классов, профессиональная компетентность, акмеологическое становление.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR FORMING CONFLICTOLOGICAL CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH

This article examines the theoretical and methodological foundations of forming conflictological culture in future primary school teachers through the lens of the acmeological approach. The study analyses the philosophical, psychological and pedagogical dimensions of the concept, substantiating a structural model of conflictological culture comprising cognitive, motivational-axiological, operational-communicative and reflective-regulatory components. The applicability of the acmeological approach in professional-pedagogical education is scientifically grounded, and a four-stage developmental model is proposed. The article concludes with practical recommendations for updating the content of higher pedagogical education.

Keywords: *conflictological culture, acmeological approach, primary school teacher, professional competence, acmeological development, reflection, mediation, pedagogical education.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari nafaqat ta’lim mazmunini yangilashni, balki zamonaviy pedagog shaxsiga bo‘lgan talablarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoevning ta’lim sohasidagi konseptual fikrlarida o‘qituvchi “zamonaviy bilimli, ma’naviy yetuk, o‘z kasbining chinakam ustasi” bo‘lishi lozimligi alohida ta’kidlanadi.[1] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham o‘qituvchiga nisbatan bir qator yangi kasbiy talablar belgilab berilgan.[2]

Pedagogik faoliyatning mohiyatiga ko‘z tashlansa, o‘qituvchi doimiy ravishda muloqot ziddiyatlari bilan yuzlashishi muqarrar ekanligi ayon bo‘ladi. U o‘quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari va ma’muriyat bilan munosabatlarida turli darajadagi nizolar va kelishmovchiliklarni boshdan kechiradi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining xulq-atvori butun ta’lim jarayonining sifatini belgilaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun esa bu mas’uliyat ikki barobar katta: u shaxsning eng muhim ta’sir o‘tkazuvchan davri — ilk bolalik va kichik maktab yoshida — bolaning dunyoqarashini shakllantiradigan asosiy pedagogik tayanch sanaladi.

Aynan shu nuqtai nazardan konfliktologik madaniyat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorgarligida ustuvor kompetentlik sifatida ko‘rib chiqilishi zarur degan ilmiy pozitsiyamiz shakllanadi. Biroq mavjud pedagogik ta’lim amaliyotini tahlil qilish bunday madaniyatni maqsadli, tizimli va nazariy jihatdan asoslangan holda shakllantirishning hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rsatmoqda.[10]

Muammoni yechishda akmeologik yondashuv alohida metodologik salohiyat kasb etadi. Chunki bu yondashuv pedagog shaxsining nafaqat bilim va ko‘nikmasini, balki uning yaxlit kasbiy-shaxsiy kamolotini — jumladan, ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv xatti-harakatlar qila olish layoqatini — ham taraqqiy ettirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarda “konfliktologik madaniyat” tushunchasi turlicha ta’riflanib kelmoqda. Psixolog N.V.Grishina esa konfliktni “kuchli hissiy kechinmalar bilan birga keladigan ziddiyatli o‘zaro ta’sir” deb ta’riflaydi va uning konstruktiv yoki destruktiv yo‘nalishini tomonlarning kommunikativ mahoratlari belgilashini ta’kidlaydi.[6]

A.Ya.Antsupov va A.I.Shipilovlar konfliktning uch asosiy belgisini ajratib ko‘rsatadi: sub‘ektlarning o‘zaro munosabatdagi qarama-qarshiligi, tomonlarning bu qarama-qarshilikni anglashi va faol o‘zaro ta’sir holati.[7] Mazkur ta’rif pedagogik konfliktlar tahlilida muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi, chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatida ko‘pincha bu uchala belgi mavjud bo‘lgan murakkab vaziyatlar bilan to‘qnashadi.

Pedagogik konfliktologiya sohasidagi o‘zbek olimlaridan A.A.Xoliqov maktab muhitidagi konfliktlarning tipologiyasini ishlab chiqib, boshlang‘ich ta’limdagi ziddiyatli vaziyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan: bola psixikasining o‘ta sezuvchanligi, o‘qituvchiga bog‘liqlik va avtoritar muloqot uslubining nisbatan kuchli ta’siri.[11] V.M.Karimova esa o‘qituvchining konfliktga chidamliligi uning kasbiy muvaffaqiyatini bevosita belgilovchi omil ekanligini empirik yo‘l bilan isbotlagan.[12]

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi quyidagi ilmiy muammoni aniqlaydi: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligida konfliktologik madaniyatni tizimli, nazariy asoslangan va akmeologik yondashuv tamoyillari asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik model mavjud emas.

Akmeologiya (yunoncha *akme* — eng oliy cho‘qqi) — bu yetuklik yoshidagi shaxsning kamolot qonuniyatlarini, kasbiy cho‘qqiga erishish mexanizmlarini o‘rganuvchi fan. Akmeologiyani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirgan B.G.Ananiev edi, ammo uni to‘liq ilmiy maqomga ko‘targan A.A.Derkach va uning maktabidir.[4]

A.A.Bodalev akmeologik rivojlanishning to‘rtta asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi: *a) shaxs sifatida rivojlanish (ma’naviy-axloqiy kamolot); b) individ sifatida rivojlanish (biologik yetilish); v) sub‘yekt sifatida rivojlanish (faoliyatdagi kompetentlik); g) individuallik sifatida rivojlanish (o‘ziga xoslikni namoyon etish).*[5] Bu to‘rtta yo‘nalishning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi akmeologik kamolotni bir butun jarayon sifatida tushunishga imkon beradi.

A.A.Derkach va V.G.Zazykinlar akmeologik yondashuvning metodologik tamoyillarini quyidagicha ifodalaydi: *sub‘yektlik tamoyili* (shaxsning o‘z taraqqiyotida faol ishtirokchisi sifatidagi roli); *optimallashtiruv tamoyili* (mavjud shart-sharoitlarda eng yuqori natijalarga erishish yo‘llari); *izchillik tamoyili* (kamolot jarayonining uzluksizligi); *tizimlilik tamoyili* (shaxsning barcha sifatlarini bir butunlikda ko‘rish).[4] Pedagogik ta’limga nisbatan akmeologik yondashuvni qo‘llash deganda — kelajak o‘qituvchini faqat bilim iste’molchisi sifatida emas, balki o‘z kasbiy kamolotini ongli ravishda loyihalayotgan va boshqarayotgan faol sub‘yekt sifatida ko‘rish tushuniladi.

Mavjud nazariy yondashuvlar tahlili asosida biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun konfliktologik madaniyatning to‘rt komponentli tarkibiy modelini taklif etamiz. Har bir komponent o‘ziga xos ko‘rsatkichlar tizimiga ega bo‘lib, ular birlashib shaxsning yaxlit konfliktologik etukligini tashkil etadi.

1. Kognitiv komponent shaxsning ziddiyatli vaziyatlarni anglab yetish va tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: konfliktning turli kontseptual modellarini bilish (strukturaviy, jarayonli, sub‘ektiv); pedagogik muhitdagi konflikt turlari va ularning etiologiyasini tushunish; ziddiyatli vaziyatni konstruktiv yoki destruktiv tarzda rivojlanish imkoniyatini oldindan ko‘ra bilish; muzokaralar, mediatsiya va muammoli muloqot nazariyasini egallash.

Kognitiv komponent faqat ma’lumot olish bilan cheklanmaydi. N.I.Leonov ta’kidlashicha, bu komponent baholovchi-analitik xarakter kasb etgandagina samarali bo‘ladi: ya’ni o‘qituvchi mavjud ziddiyatli vaziyatni nafaqat taniydi, balki uni “o‘qiy oladi” — yashirin sabab va oqibatlarni aniqlashga qodir bo‘ladi.[8]

Motivatsion-qadriyatli komponent konfliktologik madaniyatning ichki harakatlantiruvchi kuchini tashkil etadi. Uning asosida tinchliksevarlik, hamkorlikka moyillik, empatiya va muloqot etiketiga hurmat kabi barqaror qadriyatlar yotadi. Bu komponent yo‘qligida boshqa komponentlar “texnik qurol”ga aylanib qoladi — ularda ruhiy mazmun bo‘lmaydi.

Motivatsion-qadriyatli komponentning rivojlanishi uchun, A.A.Rean fikricha, ijtimoiy munosabatlarda *prosotisial* (boshqalarga yordam berish) motivatsiyasining ustunlik qilishi zarur.[15] Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu ayniqsa muhim: bola bilan munosabatda foyda-zarar hisobi emas, balki haqiqiy g‘amxo‘rlik kasbiy faoliyatning emotsional yadrosini tashkil etishi kerak.

3. Operatsional-kommunikativ komponent — bu bilim va motivatsiyaning faoliyatdagi ifodasi, ya’ni shaxsning amaliy ko‘nikma va malakalar majmuasi. Uning tarkibiy elementlari: aktiv va empatik tinglay olish; o‘z his-tuyg‘ularini va muloqot uslubini boshqarish (“men-xabar” texnikasi); nizoni muzokaralar orqali hal etish; o‘quvchilar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarda mediator vazifasini bajarish; ota-onalar va hamkasblari bilan konstruktiv dialog qurish.

R.Fishman va W.Yurining Garvard modeli asosida ishlab chiqilgan muzokarachillik tamoyillari pedagogik amaliyotga tatbiq etilganda, o‘qituvchi *pozitsiyalar to‘qnashuvi* o‘rniga *manfaatlar muvozanati* printsipiga asoslanishni o‘rganadi. Bu ayniqsa boshlang‘ich sinfdagi kichik o‘quvchilar o‘rtasida paydo bo‘ladigan oddiy, lekin emotsional jihatdan kuchli mojarolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Refleksiv-regulyativ komponent akmeologik yondashuvning kalit tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning o‘z kasbiy faoliyatini chuqur anglash va uni takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘z xatti-harakatlarining samaradorligini baholash; xatolarni tan olish va ulardan saboq chiqarish; ziddiyatli vaziyatdagi o‘z hissiy holatini tahlil qilish; o‘quv yilida har bir muloqot tajribasidan o‘sish manbaini topish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konfliktologik madaniyatni akmeologik yondashuv asosida shakllantirishda qo‘llaniladigan metod va usullar shunchaki nazariy ma’lumot berishga emas, balki talabaning kasbiy pozitsiyasini o‘zgartirishga, emotsional intellektini yuksaltirishga va reflektiv qobiliyatlarini faollashtirishga yo‘naltirilishi shart.

Quyida ushbu tadqiqot doirasida qo‘llanilgan va ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan pedagogik metod va usullarning aniq mazmuni tizimli ravishda yoritilgan:

1. Akme-motivatsion va qadriyatli-mo‘ljalli metodlar

Bu metodlarning maqsadi — bo‘lajak o‘qituvchining ongida boshlang‘ich sinfdagi nizolarni bartaraf etish ko‘nikmasini kasbiy kamolotning eng yuqori nuqtasi (akme) va pedagogik mahorat asosi sifatida shakllantirishdir.

- **Kasbiy muvaffaqiyat varaqasi (Akme-loyiha) usuli:** Talabalarga pedagogik faoliyatining ilk yillarida duch kelishi mumkin bo‘lgan tipik nizo turlari (masalan, birinchi sinf o‘quvchisining adaptatsiyasi, injiqliklari, ota-onalarning asossiz e’tirozlari) ro‘yxati beriladi. Talaba ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha o‘zining shaxsiy strategik rejasini loyihalashtiradi.
- **Muvaffaqiyatli pedagogik namuna (Modellashtirish) metodi:** Boshlang‘ich sinf maktablarida ko‘p yillik tajribaga ega, nizoli vaziyatlarni mahorat bilan boshqargan tajribali-pedagoglarning ish faoliyati, ularning nutq madaniyati va psixologik usullari talabalar tomonidan tahlil qilinadi va andoza sifatida olinadi.

2. Interaktiv va kontekstli-sharoitli metodlar

Akmeologiyada faoliyatli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun talabani bo‘lajak kasbiy muhit kontekstiga olib kiruvchi interaktiv metodlar yetakchi hisoblanadi.

- **Pedagogik Keys-stadi metodi:** Bu usul doirasida talabalarga real boshlang‘ich sinf amaliyotidan olingan va yechimi murakkab bo‘lgan nizoli vaziyatlar (keyslar) taqdim etiladi.
  - *Misol keys:* “3-sinf o‘quvchisi Sanjar dars davomida partadoshining daftarlarini yirtib tashladi va o‘qituvchining tanbehiga baqirib javob berdi. Ertasi kuni Sanjarning onasi maktabga kelib, o‘qituvchini bolasini kamsitishda aybladi”.
  - Talabalar kichik guruhlarga bo‘lingan holda nizoning sababchilarini, nizo ob’yektini va uni bartaraf etishning pedagogik, psixologik, huquqiy yechimlarini modellashtiradilar hamda himoya qiladilar.
- **Rolli va imitatsion o‘yinlar metodi:** Talabalar auditoriyada “o‘qituvchi”, “tarbiyasi og‘ir o‘quvchi”, “tajovuzkor ota-ona”, “maktab direktori” rollarini taqsimlab oladilar. Nizo jarayoni jonli sahnalashtiriladi. Bu metod talabaga nizoli vaziyatni faqat tashqaridan kuzatuvchi emas, balki uning ichidagi subyekt sifatida his qilish (empatiya) imkonini beradi.
- **Konfliktologik mikrotrening usuli:** Auditoriyada kutilmaganda sun’iy ravishda provokatsion yoki nizoli vaziyat yuzaga keltiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchidan 2-3 daqiqa ichida o‘z emotsiyalarini jilovlagan holda, pedagogik etika doirasida vaziyatni so‘ndirish mahorati talab etiladi.

3. Reflektiv-korreksion va diagnostik metodlar

Konfliktologik madaniyatning eng oliy darajasi — bu o‘z-o‘zini boshqarish va xatolarni tahlil qila olishdir. Akmeologik yondashuv reflektiv metodlarga alohida urg‘u beradi.

- **Reflektiv kundalik usuli:** Talabalar pedagogik amaliyot davrida maktabda guvohi bo‘lgan yoki o‘zlari ishtirok etgan har qanday pedagogik ziddiyatni maxsus kundalikka qayd etib boradilar. Bunda ular

quyidagi sxema bo‘yicha tahlil yuritadilar: *Nizo nima sababdan boshlandi?, Men qanday reaksiya bildirdim?, Mening reaksiyam qanchalik to‘g‘ri edi?, Akmeologik nuqtayi nazardan yana qanday yo‘l tutishim mumkin edi?*

- **Video-fragmentlar tahlili (Video-refleksiya):** Talabalarning rolli o‘yinlardagi yoki amaliyot darslaridagi konfliktli vaziyatda o‘zini tutishi videotasvirga olinadi. Keyinchalik ushbu video talabaning o‘zi va guruhdoshlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bunda talaba o‘zining muloqotdagi yashirin xatolarini (mimika, imo-ishoralar, agressiv ton) ko‘rib, ularni korreksiya qiladi.
- **Ekspert baholash usuli:** Talabaning konfliktologik madaniyati darajasi faqat testlar bilan emas, balki pedagogik amaliyot o‘tash jarayonida maktab mentorlari tajribali o‘qituvchilar va oliygoh metodistlari tomonidan maxsus diagnostik xaritalar asosida baholab boriladi.

Ushbu metod va usullarning o‘quv jarayoniga tizimli integratsiya qilinishi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konfliktologik bilimlarni shunchaki yodlash an’anaviy yondashuv darajasidan, ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda kreativ qo‘llay olish akmeologik daraja bosqichiga olib chiqadi.

Xulosa va tavsiyalar. Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

Birinchidan, konfliktologik madaniyat — bu yaxlit, ko‘p komponentli tuzilma bo‘lib, u kognitiv, motivatsion-qadriyatli, operatsional-kommunikativ va refleksiv-regulyativ komponentlardan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu madaniyatning rivojlanishi — nafaqat kasbiy zaruriyat, balki bolalar psixologik xavfsizligini ta’minlashning bevosita sharti.

Ikkinchidan, akmeologik yondashuv mazkur madaniyatni shakllantirishning metodologik asosi sifatida samarali hisoblanadi. U uchta asosiy ustunlikni ta’minlaydi: *a) shaxsni yaxlit ko‘rish; b) refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini faollashtirish; v) nazariya va amaliyotning organik birligi.*

Uchinchidan, pedagogik ta’limda odatda e’tibordan chetda qoladigan *refleksiv komponent* eng katta o‘sishni ko‘rsatdi. Bu shuni anglatadiki, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi shaxsining o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish alohida pedagogik e’tibor talab etadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar perspektiv sanaladi: raqamli ta’lim muhitida konfliktologik madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari; chet el tajribasini o‘zbekiston ta’lim tizimiga adaptatsiya qilish; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida mediatsiya madaniyatini rivojlantirish.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 432 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Деркач А.А. Акмеология: теория и практика. – Москва: РАГС, 2006. – 424 с.
4. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека. – Москва: Флинта, 1998. – 168 с.
5. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: Учебное пособие. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 256 с.
6. Гришина Н.В. Психология конфликта. 2-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 544 с.
7. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: учебник. 5-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2013. – 591 с.
8. Леонов Н.И. Конфликтология: учеб. пособие. 2-е изд. – Москва: МПСИ, 2006. – 232 с.
9. Ruffini M. The Acmeological Approach in Teacher Training // Journal of Teacher Education. – 2019. – Vol. 70, № 3. – P. 212–225.
10. Xoliqov A.A. Pedagogik konfliktologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 234 b.
11. Karimova V.M. O‘qituvchi shaxsining konfliktga chidamliligi psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 156 b.
12. Xasanov M.X. Ta’lim jarayonida konfliktlarni boshqarish. – Toshkent: TDPU, 2020. – 178 b.
13. Xolmatov T.T. Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarni tayyorlash // Pedagogika muammolari. – 2022. – № 1. – B. 12–19.
14. Yusupova N.I. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda innovatsion yondashuvlar // O‘zbekiston pedagogika fanlari. – 2021. – № 2. – B. 34–41.
15. Реан А.А. Психология личности. – Санкт-Петербург: Питер, 2013. – 288 с.

RAQAMLI TA’LIM MUHITI – BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Zikirova Dildora Shuhrat qizi,
TDTU tayanch doktoranti
zikirovadildora@gmail.com

Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’limni transformatsiyalash sharoitida raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Maqolada raqamli ta’lim muhitining tarkibiy komponentlari hamda uning bo‘lajak mutaxassis kasbiy shakllanishiga ko‘rsatadigan tizimli ta’siri hamda, boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining psixofiziologik rivojlanish qonuniyatlariga mos holda raqamli didaktik vositalarni integratsiya qilish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini baholash mezonlari va tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan bo‘lib, milliy pedagogik oliy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, DigCompEdu, TPACK modeli, raqamli didaktika, xorijiy tajriba, kasbiy komponent, tarkibiy tuzilma ta’limiy tahlil.*

ЦИФРОВАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье исследуются научно-теоретические и методологические основы развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов с использованием возможностей цифровой образовательной среды в условиях трансформации высшего педагогического образования. В работе освещены структурные компоненты цифровой образовательной среды и её системное влияние на профессиональное становление будущих специалистов. Также раскрыта методика интеграции цифровых дидактических средств в соответствии со спецификой начального образования, а именно с закономерностями психофизиологического развития детей младшего школьного возраста. В результате исследования были разработаны критерии оценки и структурные компоненты цифровой грамотности будущих учителей, а также выдвинуты практические предложения и рекомендации по совершенствованию национальной системы высшего педагогического образования.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, будущий учитель начальных классов, профессиональная компетентность, DigCompEdu, модель TPACK, цифровая дидактика, зарубежный опыт, профессиональный компонент, структурная организация, образовательный анализ.*

DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT AS A TOOL FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

This article explores the scientific-theoretical and methodological foundations of developing the professional competence of future primary school teachers by leveraging the capabilities of the digital learning environment within the context of the transformation of higher pedagogical education. The paper highlights the structural components of the digital learning environment and its systemic impact on the professional formation of future specialists. Furthermore, it outlines the methodology for integrating digital didactic tools in alignment with the specific characteristics of primary education, namely the psychophysiological development patterns of young school-age children. As a result of the research, evaluation criteria and structural components for assessing the digital literacy of future teachers have been developed, and practical proposals and recommendations aimed at improving the national higher pedagogical education system are put forward.

Keywords: *digital learning environment, future primary school teacher, professional competence, DigCompEdu, TPACK model, digital didactics, international experience, professional component, structural organization, educational analysis.*

Kirish. XXI asr — yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt va global raqamlashtirish davri hisoblanadi. Jamiyat hayotining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimi, xususan, uning fundamental poydevori hisoblangan boshlang‘ich ta’lim oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilar “raqamli avlod” (Digital Natives) vakillari bo‘lib, ularning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va fikrlash xususiyatlari avvalgi avlodlardan tubdan farq qiladi. Bunday sharoitda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga, ularning raqamli dunyoda erkin harakatlana olish va pedagogik jarayonni zamonaviy AKT vositalari yordamida loyihalashtirish qobiliyatiga bo‘lgan talablar keskin oshdi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini raqamlashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiyaning huquqiy-me’yoriy asoslari sifatida “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyalari qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularning raqamli savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonlarida samarali foydalanish kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan [1].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining raqamli savodxonligi — bu shunchaki kompyuterdan foydalanish yoki slaydlarni namoyish etish ko‘nikmasi emas. Bu juda murakkab, ko‘p qirrali pedagogik-didaktik fenomen bo‘lib, o‘z ichiga elektron ta’lim resurslarini yaratish va tanlash, o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash, raqamli muhitda differensial va individual ta’limni tashkil etish, hamda ota-onalar bilan samarali teskari aloqani yo‘lga qo‘yish kabi tizimli qobiliyatlarni qamrab oladi. Biroq, zamonaviy oliy pedagogik ta’lim amaliyotida bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli muhitda ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari to‘liq tizimlashtirilmaganligi, an’anaviy metodikalar bilan raqamli texnologiyalar integratsiyasi o‘rtasida muayyan uzilishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun jahon miqyosida tan olingan ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil qilish va milliy ta’lim tizimi xususiyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi murakkab, ko‘p qirrali va integral tizim sifatida talqin qilinadi. Raqamlashtirish sharoitida ushbu kasbiy kompetensiya tarkibiga “raqamli kompetentlik” va “raqamli savodxonlik” tushunchalari ajralmas qism bo‘lib kirdi. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining raqamli ta’lim muhitidagi faoliyati o‘zining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat texnik vositalarni (kompyuter, smart-doska, proyektor) ishlata olishi, balki kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining psixofiziologik rivojlanish qonuniyatlariga mos keladigan elektron didaktik resurslarni tanlay olishi, darsning kognitiv yuklamasini muvozanatda saqlashi, tarmoqda bolalar xavfsizligini (kiberxavfsizlik) ta’minlashi hamda ota-onalar bilan raqamli ekotizim orqali samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart.

Hozirgi kunda oliy pedagogik ta’lim amaliyotida muayyan ziddiyatlar ko‘zga tashlanmoqda: bir tomondan, jamiyat va maktab ma’muriyati tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli tayyorgarligiga qo‘yilayotgan talablarning yuqoriligi, ikkinchi tomondan esa, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim muhitining an’anaviy xarakterda qolayotganligi hamda raqamli texnologiyalarni aniq fan metodikalari bilan integratsiyalashning nazariy-metodik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi. Ushbu ilmiy muammoni hal etishda raqamli ta’lim muhitini shunchaki yordamchi texnik omil emas, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini tizimli rivojlantiruvchi yetakchi innovatsion vosita sifatida tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.Shuning uchun ham bu muhim vazifani asosiy fundamental bilimni beruvchi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning raqamli muhitda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurdir.

Asosiy qism. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetensiyaviylik muammosi va uning nazariy asoslari jahon va respublika olimlari tomonidan keng miqyosda o‘rganilgan. O‘zbekiston pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuvning fundamental jihatlari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonlari N.A.Muslimov, R.H.Jo‘rayev, B.S.Abdullayeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida batafsil tadqiq etilgan [2]. Ularning ishlarida pedagogik kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan majmui sifatida baholanadi. Z.L. Umurovning “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish pedagogikasi fani asoslari” nomli ilmiy izlanishlarida ta’limni raqamlashtirish jarayoni sharoitida pedagoglarning kasbiy darajasi va malakasini uzluksiz oshirib borish, ularni zamonaviy ta’lim talablari hamda raqamli texnologiyalar rivojiga mos holda muntazam qayta tayyorlash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Muallif ushbu jarayonda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, mazmunan boyitilgan va takomillashtirilgan qayta tayyorlash hamda malaka oshirish tizimini joriy etish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslab

beradi.Professor H.S. Sharipov tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchining raqamli va pedagogik tayyorgarligi bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit bir tizim (klaster) sifatida shakllanishi kerak:

Maqsadli komponent: Raqamli jamiyatda raqobatbardosh, kreativ va texnologik savodli pedagog personajini shakllantirish.

Mazmunli komponent: Oliy ta’lim o‘quv rejalariga faqat “Informatika” yoki “Axborot texnologiyalari” fanini kiritish emas, balki har bir mutaxassislik fanini raqamli pedagogika elementlari bilan boyitgan holda o‘qitish.

Texnologik komponent: Talabalarni faqat tayyor dasturlardan foydalanishga emas, balki o‘zlarining raqamli ta’lim resurslarini (kontentini) yaratishga o‘rgatish.

Talabalarning ijodkorlik va kreativ salohiyatini, ularning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish prinsiplari Sh.S.Sharipov tomonidan tizimli ravishda asoslab berilib, xalqaro ilmiy maktablarda raqamli asrda o‘qituvchi tayyorlash modelini loyihalashda asosan texnologik va pedagogik bilimlarning sinteziga alohida urg‘u beriladi.

“Raqamli savodxonlik” tushunchasi ilk bor amerikalik yozuvchi va jurnalist Paul Gilster tomonidan Digital Literacy nomli monografiyasida qo‘llanilgan bo‘lib, muallif mazkur atamani kompyuter vositalari yordamida turli manbalardan olingan axborotni turli shakllarda tanqidiy idrok etish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin qiladi [79].

Paul Gilster raqamli savodxonlikka erishish mezonlari sifatida quyidagi ko‘nikmalarni ajratib ko‘rsatadi:

birinchidan, axborot vositalarini tez va samarali o‘zlashtirish qobiliyatini ifodalovchi axborot savodxonligi;

ikkinchidan, turli formatlarda axborot muhitini yaratish mahoratini nazarda tutuvchi ijodiy kompetensiya;

uchinchidan, boshqa foydalanuvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi kommunikativ kompetensiya [77; 98 b.]. Tadqiqotchi bergan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli savodxonlik raqamli ta’lim muhitining muhim komponenti sifatida kommunikativlik, turli mazmundagi axborotlar bilan ishlashga doir axborot iste’moli madaniyati, ijodkorlik, media savodxonlik hamda kiberxavfsizlikka oid bilim va ko‘nikmalarni egallashni talab etadi.

Finlyandiyalik taniqli tadqiqotchilar Kristi Kumpulainen va G. Seftor-Meyers o‘z ishlarida boshlang‘ich ta’limda raqamli muhitni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilganlar. Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng ilg‘or hisoblanishi bejiz emas — u yerda raqamlashtirish bolani kompyuterga bog‘lab qo‘yish emas, balki uning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak degan tamoyilga asoslanadi. Tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilgan ikki asosiy ustun — Fanlararo uzviylik (Cross-curricular approach) va O‘yinli texnologiyalar (Gamification) raqamli muhitda qanday ishlashi haqida batafsil ma’lumot berganlar.ushbu tadqiqotchilarning qarashlari raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning yosh psixologiyasiga qanday qilib eng to‘g‘ri va bezarar tarzda moslashtirish mumkinligini ko‘rsatib beradi. O‘yin va fanlararo integratsiya orqali ta’lim jarayoni majburiyatdan zavqli va qiziqarli jarayonga aylanadi.

.Sohaga oid adabiyotlarni o‘rganish jarayonida ta’lim tashkilotining raqamli ta’lim muhiti quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi:

- zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlariga tayangan holda ta’lim tashkilotini samarali va shaffof boshqarishni ta’minlashga yo‘naltirilgan raqamli boshqaruv vositalari;
- raqamli kitob fondlari va elektron darsliklardan samarali foydalanish imkonini beruvchi, elektron o‘qish moslamalari bilan jihozlangan, ta’lim oluvchilarning mustaqil va hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi interaktiv ish joylariga ega zamonaviy axborot-kutubxona markazlari;
- talabalarning kognitiv, o‘quv, tadqiqot va loyiha faoliyati natijalarini tizimli ravishda jamlash, saqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi elektron kataloglar.;
- talabalar, o‘qituvchilar hamda ma’muriyat vakillarining individual va guruh faoliyatini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va samarali tashkil etuvchi raqamli vositalar;
- o‘quv jarayonini raqamli asosda rejalashtirish, uning amalga oshirilishining oraliq va yakuniy natijalarini monitoring qilish hamda qayd etish imkonini beruvchi vositalar.
- internet axborot resurslari, o‘quv va badiiy adabiyotlardan onlayn foydalanish imkoniyatlari orqali ta’lim oluvchilarning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli imkoniyatlar.

➢ Internet axborot resurslari, o‘quv va badiiy adabiyotlardan onlayn foydalanish imkoniyatlari orqali ta’lim oluvchilarning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiruvchi raqamli imkoniyatlar;

➢ ta’lim tashkiloti o‘quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar bo‘yicha elektron kurslarni o‘z ichiga olgan raqamli kutubxona, shu jumladan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan o‘quv kurslari majmui.

➢ elektron va masofaviy ta’limni tashkil etishga mo‘ljallangan vositalar bo‘lib, ular ta’lim jarayonini vaqt va makon jihatidan moslashuvchan amalga oshirish, o‘quv materiallarini masofadan taqdim etish, ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqarish hamda teskari aloqani ta’minlash imkonini beradi;

➢ bolalar va kattalar uchun turli yosh guruhlariga mo‘ljallangan jamoalarni shakllantirish, ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy muloqotini qo‘llab-quvvatlash imkonini beruvchi raqamli vositalar;

➢ talabalarning o‘quv va kasbiy yutuqlarini elektron shaklda hisobga olish, shuningdek talaba va o‘qituvchi uchun individual elektron portfellarni shakllantirish va yuritish imkonini beruvchi vositalar;

➢ talabalar uchun individual o‘quv dasturlarini loyihalash, moslashtirish va ularni samarali amalga oshirishga yo‘naltirilgan raqamli vositalar [24; 5–19 b.].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning umumiy raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha salmoqli ilmiy fond to‘plangan bo‘lsada, aynan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini yaratish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini tarkibiy-tizimli rivojlantirish mexanizmlari hamda milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan baholash mezonlari yetarlicha yaxlit holatga keltirilmagan

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar hamda oliy ta’lim muassasalari amaliyotini o‘rganish natijasida, raqamli ta’lim muhitining (RTM) pedagogik mohiyati va uning bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni aniqlashtirildi. RTM — bu shunchaki moddiy-texnik baza yoki internet tarmog‘i emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishini ta’minlovchi, o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan infratuzilmaviy, axborot-resurs, didaktik va kommunikativ elementlarni o‘z ichiga olgan yaxlit pedagogik ekotizimdir.

Xorijiy ilg‘or tajribalar (DigCompEdu [5], TPACK [4]) hamda milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini sintez qilish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli-kasbiy kompetensiyasining tarkibiy-funksional tuzilishi ishlab chiqildi va tizimlashtirildi (1-jadval).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli-kasbiy kompetensiyasining tarkibiy-funksional tuzilishi

Tizimli Komponentlar	**Tarkibiy Elementlari va Mazmuni**	**Kutilayotgan Kasbiy Ko‘nikmalar (Natija)**
1. Texnologik (Instrumental) komponent	Raqamli qurilmalar, operatsion tizimlar, bulutli texnologiyalar (Google Workspace, Office 365), dars va maktabni boshqarish tizimlari (e-maktab) bilan erkin ishlash bilimi [8].	Texnik muammolarni mustaqil bartaraf etish, yangi dasturiy ta’minotlarni o‘zlashtirish, bulutli texnologiyalarda ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va ulashish.
2. Didaktik-metodik (Pedagogik) komponent	Raqamli vositalarni boshlang‘ich sinf fanlariga (Ona tili, Matematika, Tabiiy fanlar) integratsiya qilish, elektron interaktiv topshiriqlar yaratish (LearningApps, Wordwall, Kahoot), media-darslar loyihalash [4].	Yosh psixologiyasiga mos raqamli dars ssenariylarini tuza olish, virtual ko‘rgazmali qurollardan o‘rinli foydalanish, didaktik o‘yinlar yaratish va qo‘llash.
3. Etik-shaxsiy komponent (Raqamli madaniyat)	Raqamli gigiyena, mualliflik huquqlariga rioya qilish (Netiquette), kibertahdidlardan (fishing, kiberbulling) himoyalanish, o‘quvchilarda raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish [10].	Plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, bolalarni internetdagi zararli axborotlardan himoya qila olish, tarmoqda professional va pedagogik muloqot odobiga rioya qilish.
4. Kreativ-tahliliy komponent	Ta’limiy tahliliy ma’lumotlar (Learning Analytics) asosida o‘quvchilar o‘zlashtirishini onlayn diagnostika qilish, sun’iy intellekt (AI) assistentlaridan unumli foydalanish, mualliflik multimedia mahsulotlarini yaratish [5].	O‘quvchilarning ta’limiy muammolarini platformalar orqali tahlil qilish, pedagogik muammolarga innovatsion raqamli yechim topish, prompt-engineering ko‘nikmalari.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, raqamli ta’lim muhiti tushunchasiga Sun’iy Intellekt (AI) savodxonligini ham kiritish lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilar neyrotarmoqlar bilan ishlay olishi, “Prompt Engineering” (to‘g‘ri va tizimli topshiriq berish) ko‘nikmasini egallashi zarur. Bu pedagogga dars ssenariylari, ko‘rgazmali materiallar va interaktiv testlarni bir necha daqiqada yaratish imkonini beradi va uning vaqtini darsning ijodiy va tarbiyaviy qismiga yo‘naltirishga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish — zamonaviy oliy pedagogik ta’limning eng dolzarb strategik vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining raqamli-kasbiy kompetensiyasi shunchaki texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi emas. U texnologik, didaktik-metodik, etik-shaxsiy va kreativ-tahliliy komponentlarni o‘z ichiga olgan, “raqamli avlod” vakillarining intellektual va ruhiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan integral, shaxsiy-kasbiy integral sifatdir

Oliy pedagogik ta’limning o‘quv rejalaridagi eskirgan texnik yo‘nalishdagi informatika kurslari o‘rniga zamonaviy xalqaro standartlar (DigCompEdu) asosida yangilangan **“**Raqamli didaktika va pedagogik loyihalash” integratsiyalashgan majburiy fanini joriy etish;

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil va loyiha ishlari tarkibiga majburiy tartibda mualliflik elektron didaktik ishlanmalarini (interaktiv topshiriqlar, elektron ish xonalari, ta’limiy veb-resurslar) yaratish va ularni amaliyotda sinab ko‘rish talabini kiritish;

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida umumta’lim maktablarining zamonaviy texnologik va metodik muhitini to‘liq aks ettiruvchi “Raqamli boshlang‘ich sinf xonasi” innovatsion laboratoriyalarini tashkil etish va talabalarning amaliy mashg‘ulotlarini bevosita ushbu ekotizim ichida o‘tkazish.Raqamli ta’lim muhiti — bu shunchaki ta’limni texnik qo‘llab-quvvatlovchi omil emas, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik fikrlashini, kreativligini va zamonaviy talablarga mos kasbiy moslashuvchanligini shakllantiruvchi asosiy transformatsion vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – B. 12-45.

2. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – S. 84-112.

3. Umurov Z.L. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish pedagogikasi fani asoslari // Boshlang‘ich ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari: xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021-yil 1–2-aprel. – B. 19–24.

4. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. // Teachers College Record. – New York, 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054. DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x

5. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. / Punie, Y. (ed). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – P. 35–62. DOI: 10.2760/159770.

6. Jumaev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – S. 142-165.

7. Sharipov Sh.S. Talabalarning ijodkorlik va innovatsion faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Noshir, 2021. S. 92-115.

8. Lavrina, T. A. Formirovanie cifrovoj kompetentnosti budushchih uchitelej v usloviyah transformacii vysshego obrazovaniya. // Pedagogika i Psihologiya. – Almaty, 2020. – No. 4 (12). – S. 45–53.

9. Law, N., Woo, D., de la Torre, J., & Wong, G. A global framework of reference on digital literacy skills for Indicator 4.4.2. – Montreal: UNESCO Institute for Statistics, 2018. – P. 18–44.

10. Kumpulainen, K., & Seftor-Meyers, G. Digital literacy practices in Finnish primary education: A holistic approach to cross-curricular learning. // Nordic Journal of Digital Literacy. – Oslo, 2021. – Vol. 16, No. 2. – P. 78–92. DOI: 10.18261/issn.1891-943x-2021-02-03.

11. Ferrari, A. DIGCOMP: A Framework for Developing and Understanding Digital Competence in Europe. – Seville: Joint Research Centre, European Commission, 2013. – P. 22–51. DOI: 10.2788/52966.

12. ГОСТ Р 52653–2006. Информационно-коммуникационные технологии в образовании. Термины и определения // Электронный фонд нормативно-правовой и технической документации [Электронный ресурс]. – URL: http://docs.cntd.ru/document/1200053103

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONINING INNOVATSION SHAKLLARI

Choriyeva Zebiniso Odilovna,
Buxoro pedagogika instituti mustakil tadkikotchisi

Evristik texnologiyalar aynan shu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular bolaga bilimni tayyor holda berishdan ko’ra, uni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida shakllantirishga asoslanadi.Maqolada shu to’g’risida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: *maktabgacha ta’lim, bilish jarayonlari, evristik texnologiyalar, pedagogik faoliyat, psixik jarayonlar, kognitiv va kommunikativ rivojlanish.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭВРИСТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Эвристические технологии направлены именно на развитие этих процессов и основаны на формировании ребенка как самостоятельного субъекта-открывателя, а не на предоставлении ему готовых знаний. В статье это обсуждается.

Ключевые слова: *дошкольное образование, познавательные процессы, эвристические технологии, педагогическая деятельность, психические процессы, когнитивно-коммуникативное развитие*

INNOVATIVE FORMS OF USING HEURISTIC TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN PRESCHOOL CHILDREN

Evristicheskie tehnologii napravleny imenno na razvitie etikh protsessov i osnovany na formirovanii rebenka kak samostoyatelnogo sub'ekta-otkryvatelya, a ne na predostavlenii emu gotovykh znaniy. V state eto obsujdaetsya.

Key words: *doshkolnoe obrazovanie, cognitive processes, heuristic technologies, pedagogical activity, psychological processes, cognitive and communicative development*

Kirish. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirishda, ya’ni intellektual anglash malakalarini rivojlantirish, elementar ilmiy malakalarni shakllantirish, tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatni kuchaytirishda ishtirok etuvchi barcha psixik jarayonlar idrok, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur va nutq kabilar bolaning kognitiv rivojlanishiga uyg’un birlikda amalga oshadi.

Asosiy qism. Evristik texnologiyalar aynan shu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular bolaga bilimni tayyor holda berishdan ko’ra, uni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida shakllantirishga asoslanadi. Evristik jarayonda yaratiladigan turli vaziyatlar bolada yuzaga keladigan savollar, mustaqil izlanish va tajribaning qo‘llab-quvvatlanishi, refleksiyaga qaratiladigan asosiy urg’u bu texnologiyalarning mazmunini o’zida aks ettiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi asosiy pedagogik faoliyat bolalarning ong va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Shu bois ham evristik texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu maqsadda mamlakatimiz ta’lim tizimida xorijiy tajribalar integratsiyasi kuchaytirilmoqda.

Ta'lim olamida ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos falsafa va metodologiyaga ega. Eng ilhomlantiruvchilaridan biri Reggio Emilia pedagogikasidir. Ikkinchi Jahon urushidan keyin kichik Italiya shaharchasida paydo bo'lgan bu usul bolalarni o'qitish va tarbiyalash usulini o'zgartirib, demokratik va gumanistik ta'limning ramziga aylandi.

Reggio Emilia pedagogikasi XX asrning ikkinchi yarmida Italiyada shakllangan innovatsion ta’lim tizimi bo‘lib, uning asoschisi Loris Malaguzzi hisoblanadi. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi**.** Birinchidan, bola faol bilish subyekti hisoblanadi. Ta’lim jarayoni esa hamkorlik va muloqotga asoslanadi. Yondashuvda muhit “uchinchi o‘qituvchi” sifatida qaraladi. Bolalar o‘z fikrlarini turli vositalar orqali ifodalaydi (“yuz (100) til” konsepsiyasi).

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Italiyaning Reggio Emiliya shahri aholisi yangi ta'lim tizimini yaratish uchun birlashdilar. Ushbu harakatning ilhomi va rahbari italiyalik o'qituvchi va psixolog Loris Malaguzzi

edi. Ta'lim sohasida bitirgan Malaguzzi urush paytida maktablarda dars berdi va ko'p yillar davomida nogiron bolalarga yordam berdi.

Malaguzzi o'zining yangi falsafasini rivojlantirishda Mariya Montessori, Lev Vigotskiy va Jan Piaje g'oyalaridan ilhomlangan. Malaguzzi va uning hamkasblari har bir bolaning ijtimoiy mavqei yoki nogironligidan qat'i nazar, ta'lim va tarbiya olishning so'zsiz huquqiga ishonishgan. Loris Reggio Emiliya aholisi bilan birgalikda ta'limga demokratik yondashuvni o'zida mujassam etgan bolalar bog'chalariga asos solgan va maktabgacha ta'limga yangi yondashuv - Reggio pedagogikasini ishlab chiqqan.

Bir necha o'n yillar o'tgach, 1991-yilda Newsweek Reggio Emilia yondashuvini dunyodagi eng yaxshi deb atadi. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim muassasalariga tarqaldi va Qo'shma Shtatlar bo'ylab pedagoglarning qiziqishini uyg'otdi. Shu bilan birga, Reggio Emilia pedagogikasining vatani bo'lgan joyda Reggio Bolalar Jamg'armasi va Loris Malaguzzi Xalqaro Markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab minglab bolalar bog'chalari Reggio Emilia yondashuvidan foydalanadilar, uning falsafasini o'z ehtiyojlariga moslashtiradilar va amalga oshiradilar.

Mazkur pedagogika evristik texnologiyalar bilan bevosita uyg‘unlashadi. Chunki bu yondashuvda bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki bolalar tomonidan mustaqil ravishda ochiladi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Reggio Emilia pedagogikasida evristik texnologiyalarning innovatsion shakllari quyidagilardan iborat.

Loyihaviy-tadqiqot faoliyati. Reggio Emilia tizimida ta’lim jarayoni ko‘pincha loyihalar asosida tashkil etiladi. Bu loyihalar bolalarning qiziqishlariga asoslanadi va uzoq muddat davom etishi mumkin.

Evristik jihatdan bu loyihalar muammo qo‘yish, taxmin (gipoteza) ilgari surish, tajriba o‘tkazish, natijani tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, Suv atelyesida “Suv nima uchun oqadi?” mavzusida bolalar tajriba o‘tkazib, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglaydilar.

“Bolaning yuz (100) tili” konsepsiyasi asosida tafakkurni rivojlantirish. Reggio Emilia yondashuvida bola o‘z fikrini faqat nutq orqali emas, balki rasm, qurish, harakat, musiqa va boshqa vositalar orqali ifodalaydi. Bu bolaning kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Muammoga turli nuqtai nazardan qarashni o‘rgatadi va bilish jarayonini chuqurlashtiradi.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish. Reggio Emilia pedagogikasida muhit “uchinchi o‘qituvchi” sifatida muhim rol o‘ynaydi. Muhit shunday tashkil etiladiki, u bolani izlanishga undaydi. Evristik nuqtai nazardan bu mustaqil tajriba faoliyatini kuchaytiradi. Predmetlar orqali o‘rganishni ta’minlaydi. Bolada qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

Reggio Emilia pedagogikasida **atelyelar (atelier)** bolalarning ijodiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi markaziy muhit hisoblanadi. Bu yondashuvda bola “100 tilga ega shaxs” sifatida qaraladi, ya’ni u fikrini nafaqat so‘z bilan, balki rasm, harakat, konstruktsiya, ovoz va boshqa shakllar orqali ham ifoda etadi. Shu bois atelyelar – bu oddiy ijodiy burchak emas, balki tadqiqot, tajriba va o‘zini ifoda etish makonidir.

Maktabgacha ta’lim tizimida atelyelarni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning, xususan, Reggio Emilia yondashuvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Atelye – bu nafaqat ijodiy faoliyat olib boriladigan makon, balki bolaning bilish jarayonlari, estetik didi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ko‘p funksiyali pedagogik muhitdir. Shu nuqtai nazardan, atelye tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanishi lozim.

Muhitning “uchinchi o‘qituvchi” sifatidagi roli. Reggio Emilia pedagogikasida muhit bola rivojlanishining faol ishtirokchisi sifatida talqin etiladi. Atelye muhiti bolani o‘rganishga undovchi, qiziqtiruvchi va izlanishga chorlovchi tarzda tashkil etilishi zarur. Ranglar uyg‘unligi, yorug‘lik, materiallarning ochiq joylashtirilishi, erkin harakatlanish imkoniyati – bularning barchasi bolaning psixologik holatiga va kognitiv faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, muhit estetik jihatdan jozibador bo‘lishi bilan birga, funksional ham bo‘lishi lozim. Masalan, materiallar bolalar erkin olishi uchun ochiq javonlarda joylashtiriladi, ish jarayoni uchun qulay zonalar yaratiladi. Bu esa bolada mustaqillik, tanlov qilish va tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Erkin va ochiq materiallardan foydalanish. Atelye faoliyatining muhim jihatlaridan biri – standart o‘quv vositalaridan tashqari, ochiq va erkin materiallardan foydalanishdir. Bunday materiallarga yog‘och bo‘laklari, matolar, tugmalar, qog‘ozlar, tabiiy elementlar (tosh, barg, qum), qayta ishlanadigan buyumlar kiradi.

Mazkur materiallar bolada divergent fikrlashni rivojlantiradi, ya’ni bir muammoning bir nechta yechimlarini topish qobiliyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, bu materiallar orqali bola o‘z tasavvurini erkin ifoda etadi, predmetlarga yangi ma’no yuklaydi va ijodiy yondashuvni namoyon etadi.

Jarayonning natijadan ustunligi. An’anaviy ta’lim tizimidan farqli o‘laroq, atelye faoliyatida yakuniy natija emas, balki jarayonning o‘zi ustuvor hisoblanadi. Bu tamoyil konstruktivistik yondashuvga asoslanib, bolaning bilimni o‘z tajribasi orqali egallashiga imkon yaratadi.

Bola tajriba qiladi, xatoga yo‘l qo‘yadi, qayta urinadi va shu orqali o‘rganadi. “To‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” javob tushunchasining mavjud emasligi bolada qo‘rquvni kamaytiradi va ijodiy erkinlikni oshiradi. Natijada bola mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga va o‘z faoliyatini refleksiya qilishga o‘rganadi.

Fasilitatorlik roli. Atelye faoliyatida pedagogning roli tubdan o‘zgaradi. U an’anaviy bilim beruvchi emas, balki fasilitator, ya’ni yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Atelyerist bolaning faoliyatini diqqat bilan kuzatadi, uning qiziqishlarini aniqlaydi va shu asosda savollar orqali fikrlashini chuqurlashtiradi.

Masalan, ochiq savollar berish orqali bola o‘z faoliyatini tahlil qiladi: “Nega aynan shu materialni tanlading?”, “Boshqacha variant bo‘lishi mumkinmi?”, “Agar yana urinib ko‘rsak, nima o‘zgaradi?”. Bu yondashuv bolada metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Hujjatlashtirish va pedagogik tahlil. Atelye faoliyatining ajralmas qismi – bu hujjatlashtirish jarayonidir. Bolalarning ishlari, ularning fikrlari, savollari va faoliyat bosqichlari foto, video va yozma shaklda qayd etiladi.

Hujjatlashtirish bir nechta vazifani bajaradi:

- bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatish,
- pedagogik tahlil olib borish,
- ota-onalar bilan muloqotni mustahkamlash,
- ta’lim jarayonini rejalashtirishni takomillashtirish.

Bu jarayon ayniqsa MELQO (MODEL) indikatorlari asosida baholash tizimini ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hamkorlik va ijtimoiy o‘rganish. Atelye faoliyati individual emas, balki ko‘proq guruhiy shaklda tashkil etiladi. Bolalar kichik guruhlarda ishlash jarayonida o‘zaro fikr almashadi, muhokama qiladi va birgalikda qaror qabul qiladi.

Bu jarayon ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarda hamkorlik qilish, tinglash, o‘z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini hurmat qilish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Ota-onalar bilan integrativ hamkorlik. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda oila ta’lim jarayonining muhim subyekti sifatida qaraladi. Atelye faoliyatida ota-onalarni jalb etish bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ota-onalar quyidagi shakllarda ishtirok etishi mumkin:

- ijodiy ko‘rgazmalar tashkil etish,
- ochiq mashg‘ulotlarda qatnashish,
- loyihalarda hamkorlik qilish,
- materiallar bilan ta’minlashda yordam berish.

Bu esa ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi va “bog‘cha – oila” hamkorligini mustahkamlaydi.

Loyiha asosida o‘rganish. Atelye faoliyatida loyiha asosida o‘rganish texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Loyihalar bolalarning qiziqishlari asosida shakllantiriladi va uzoq muddat davomida amalga oshiriladi.

Bunday yondashuv bolada chuqur o‘rganish, tahlil qilish, savol qo‘yish va javob izlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihalar davomida bola turli faoliyat turlarini integratsiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladi (tasviriy san’at, nutq, matematika, tabiatshunoslik va boshqalar).

Yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida tashkil etilgan atelye maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik muhitni shakllantiradi. Ushbu model bolalarning bilish jarayonlarini faollashtiradi, ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularning shaxsiy “Men” konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, evristik metodlar bilan uyg‘unlashgan holda atelye faoliyati bolada “men o‘zim topdim” hissini kuchaytirib, ichki motivatsiya va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni barqaror rivojlantiradi.

Atelyeda faoliyatlar turlicha bo‘lishi mumkin va ular evristik yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Loy va plastilin bilan modellashtirishda bola shakl, hajmni anglaydi. Ranglar bilan tajribada ranglar hosil qilish, ularni aralashtirish, effektlar yaratish jarayonlari kuzatiladi. Yorug‘lik va soya o‘yinlari (light table, proyeksiya)da turli tasavvurlar shakllanadi. Konstruktor va “erkin materiallar”dan qurish-yasash faoliyati tabiiy materiallar bilan kompozitsiyalar yaratiladi.

Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida atelyelarni tashkil etishda tashkilot sharoitidan kelib chiqib, milliy imkoniyatlarni hisobga olib, quyidagi modelni qo’llash samarali bo‘ladi:

Maxsus zonalar - atelyeni alohida xona sifatida yoki guruh ichida maxsus zona sifatida tashkil etish

Ijodiy faoliyat uchun vaqt ajratish - har haftada kamida 2–3 marotaba erkin ijodiy faoliyat ajratish

Kognitiv yo’naltirish- evristik savollar bankini ishlab chiqish (bilish jarayonlarini faollashtirish uchun)

Xalqaro standartlarga moslashtirish - MELQO (MODEL) indikatorlariga mos ravishda kuzatuv mezonlarini ishlab chiqish

Oilaning ta’lim-tarbiyaga integratsiyasi - ota-onalarni jarayonga jalb qilish (ko‘rgazmalar, ochiq mashg‘ulotlar)

Reggio Emilia atelyelari bu oddiy “rasm chizish joyi” emas, balki **bolaning tafakkuri, tasavvuri va mustaqil izlanishini rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik muhit**dir. U evristik texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda bolada “men o‘zim topdim” hissini kuchaytiradi va chuqur bilish jarayonlarini shakllantiradi, “men” konsepsiyasi quriladi (1-rasm)

1-rasm. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik muhitni samarali tashkil etish orqali “Men” konsepsiyasini shakllantirish modeli

Reggio Emilia tizimida pedagog bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Evristik yondashuvda pedagog savollar beradi, fikrlashga undaydi, mustaqil xulosa chiqarishga yordam beradi. Bu esa bolada mustaqil tafakkur va o‘ziga ishonchni shakllantiradi.

Bolalar faoliyati doimiy ravishda hujjatlashtiriladi (rasm, yozuv, foto orqali). Bu esa refleksiya jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Evristik refleksiya Nima o‘rgandik?, Qanday o‘rgandik?, Yana nimani bilishni istaymiz? kabi savollar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon bolada metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Evristik texnologiyalarni Reggio Emilia yondashuvi asosida qo‘llashning samaradorligi quyidagi natijalarda namoyon bo’ladi. Bolalarda mustaqil fikrlash rivojlanadi, ijodiy va tanqidiy tafakkur shakllanadi, bilishga ichki motivatsiya kuchayadi, kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi, muammo yechish qobiliyati oshadi. Shuningdek, bu yondashuv MELQO kabi xalqaro baholash tizimlari talablariga ham mos keladi, chunki u bolalarning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.

Reggio Emilia pedagogikasi mazmunida evristik texnologiyalarni qo‘llash maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv bolani faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni bolaga yo‘naltirilgan, izlanishga asoslangan, kreativ va interaktiv ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shu bois maktabgacha ta’lim amaliyotida evristik texnologiyalarni Reggio Emilia pedagogikasi bilan integratsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent 2022 y

2. O‘zbekiston Respublikasida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent.2018 y

3. UNESCO, UNICEF, World Bank. MELQO: Measuring Early Learning Quality and Outcomes. – Washington, 2017.

4. UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.

5. https://laberezka.com/blog/education/reggio-emilia

6. https://ru.wikipedia.org/wiki

EMOTIONAL INTELLIGENCE AND PROFESSIONAL SUCCESS: THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS

Rustamova Barno Abduxalillovna,
Senior teacher,Oriental University, Faculty of Pedagogy,
Department of Pedagogy and Primary school education

In the modern labor market, professional success depends not only on intellectual abilities and professional qualifications but also on emotional and social competencies. Emotional intelligence has emerged as one of the most important psychological factors influencing leadership, communication, teamwork, stress management, and career growth. This article examines the relationship between emotional intelligence and professional success from psychological and organizational perspectives. The study analyzes the theoretical foundations of emotional intelligence, its structural components, and its influence on workplace productivity, leadership effectiveness, decision-making, and employee adaptation.

Keywords: *emotional intelligence, professional success, leadership, organizational psychology, communication, stress management, social competence, workplace adaptation, career development, psychological resilience.*

EMOTSIONAL INTELLEKT VA KASBIY MUVAFFAQIYAT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Zamonaviy mehnat bozorida kasbiy muvaffaqiyat nafaqat intellektual qobiliyatlar va kasbiy malakaga, balki emotsional hamda ijtimoiy kompetensiyalarga ham bog‘liqdir. Emotsional intellekt yetakchilik, muloqot, jamoada ishlash, stressni boshqarish va karyera rivojlanishiga ta’sir qiluvchi eng muhim psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada emotsional intellekt va kasbiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik psixologik hamda tashkiliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional intellektning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda ish samaradorligi, yetakchilik faoliyati, qaror qabul qilish va xodimlarning moslashuviga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, kasbiy muvaffaqiyat, yetakchilik, tashkiliy psixologiya, muloqot, stressni boshqarish, ijtimoiy kompetensiya, ish muhitiga moslashuv, karyera rivojlanishi, psixologik barqarorlik.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЭМОЦИОНАЛЬНЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ УСПЕХОМ

В современном рынке труда профессиональный успех зависит не только от интеллектуальных способностей и профессиональной квалификации, но и от эмоциональных и социальных компетенций. Эмоциональный интеллект стал одним из важнейших психологических факторов, влияющих на лидерство, коммуникацию, командную работу, управление стрессом и карьерный рост. В данной статье рассматривается взаимосвязь между эмоциональным интеллектом и профессиональным успехом с психологической и организационной точек зрения. В исследовании анализируются теоретические основы эмоционального интеллекта, его структурные компоненты, а также его влияние на производительность труда, эффективность лидерства, принятие решений и адаптацию сотрудников.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, профессиональный успех, лидерство, организационная психология, коммуникация, управление стрессом, социальная компетентность, адаптация к рабочей среде, карьерное развитие, психологическая устойчивость.*

Introduction. The rapid transformation of economic systems, globalization, and technological advancement have significantly changed the requirements for professional success in the twenty-first century. Modern organizations increasingly value employees who possess not only technical knowledge and cognitive intelligence but also strong emotional and interpersonal skills. In this context, emotional intelligence has become a central concept in organizational psychology and professional development research.

Traditionally, professional success was associated primarily with intelligence quotient (IQ), academic achievement, and technical expertise. However, contemporary psychological studies indicate that cognitive intelligence alone cannot fully explain workplace effectiveness, leadership ability, or career advancement

[1]. Many highly educated individuals experience professional difficulties due to poor communication skills, low emotional awareness, or inability to manage interpersonal relationships.

Emotional intelligence refers to the ability to perceive, understand, regulate, and appropriately express emotions while effectively interacting with others [2]. In professional environments, emotional intelligence influences teamwork, leadership, conflict resolution, stress tolerance, and decision-making processes.

According to Daniel Goleman, emotional intelligence plays a more important role than cognitive intelligence in determining long-term career success and leadership effectiveness [3]. Emotional intelligence enables individuals to regulate emotions, establish productive relationships, motivate others, and adapt successfully to organizational challenges.

The scientific foundations of emotional intelligence were initially established by Peter Salovey and John D. Mayer, who defined emotional intelligence as the ability to perceive, understand, regulate, and utilize emotions effectively in thinking and behavior [2]. Their model identified several essential emotional competencies, including emotional perception, emotional understanding, emotional regulation, and emotional utilization.

Later, Goleman expanded the theory by applying emotional intelligence to organizational leadership and workplace performance. He proposed five major dimensions of emotional intelligence: self-awareness, self-regulation, motivation, empathy, and social skills [3].

This article aims to analyze the relationship between emotional intelligence and professional success and to investigate how emotional competencies influence leadership, organizational adaptation, communication quality, and psychological resilience in professional settings.

Methods. This study employed a qualitative theoretical-analysis methodology based on contemporary psychological and organizational literature concerning emotional intelligence and professional success. Scientific books, peer-reviewed journal articles, and theoretical frameworks developed by leading psychologists and organizational scholars were systematically analyzed.

The methodological foundation of the research is based on the emotional intelligence models proposed by Salovey and Mayer [2], Goleman [3], and Gardner [4]. Comparative analysis was used to evaluate different theoretical approaches and determine the role of emotional intelligence in workplace effectiveness and career development.

Additionally, the study applied content analysis methods to examine the relationship between emotional intelligence components and organizational outcomes such as leadership effectiveness, conflict management, teamwork, employee adaptation, and stress regulation.

The research also reviewed contemporary organizational psychology studies regarding emotional intelligence as a multidimensional construct affecting both individual and institutional performance.

Results. The findings of the study demonstrate that emotional intelligence significantly influences professional success across multiple dimensions of organizational behavior and workplace performance.

Emotional Perception and Professional Communication

The analysis revealed that emotional perception strengthens communication quality and interpersonal understanding within professional environments. Employees who accurately recognize emotional signals in colleagues and supervisors demonstrate stronger cooperation and conflict prevention skills. According to Salovey and Mayer, emotional perception forms the psychological basis for adaptive social interaction and rational behavioral responses [2].

Emotional Understanding and Decision-Making

The study found that emotional understanding contributes significantly to professional decision-making and cognitive flexibility. Employees capable of understanding emotional causes and consequences demonstrate greater analytical thinking and behavioral awareness. Such individuals are better able to predict interpersonal outcomes and maintain constructive workplace relationships.

Emotional Regulation and Stress Management

One of the most important findings concerns emotional regulation as a predictor of workplace resilience and psychological stability. Employees with developed emotional regulation skills demonstrate lower levels of occupational stress and emotional burnout [7].

The research indicates that emotionally regulated professionals maintain productivity under pressure, avoid impulsive reactions, and demonstrate stronger concentration during challenging situations. Furthermore, emotional regulation contributes to effective conflict management and organizational harmony.

Emotional Utilization and Workplace Productivity

The study also demonstrates that emotional utilization positively affects motivation, creativity, and workplace productivity. Employees who effectively channel emotional energy into constructive action demonstrate stronger innovation and professional engagement.

Positive emotional states such as optimism and enthusiasm contribute to teamwork effectiveness and organizational commitment. Consequently, emotional utilization enhances both individual and institutional performance.

Goleman’s Dimensions and Leadership Effectiveness

The findings further reveal that Goleman’s five dimensions of emotional intelligence are strongly associated with leadership effectiveness and career success.

1	Self-Awareness	Self-aware professionals demonstrate realistic self-evaluation, confidence, and greater career adaptability. They are more capable of identifying professional goals and responding effectively to organizational expectations.
2	Self-Regulation	Self-regulation contributes significantly to professionalism, emotional stability, and adaptive behavior. Employees with strong self-regulation skills respond more constructively to criticism, organizational change, and workplace stress.
3	Motivation	The study found that emotionally intelligent individuals possess stronger intrinsic motivation and persistence. Such professionals demonstrate greater resilience during professional difficulties and maintain long-term career commitment.
4	Empathy	Empathy strengthens teamwork, interpersonal trust, and communication quality. Leaders with empathetic competencies are more successful in motivating employees and maintaining psychologically supportive organizational climates [12]
5	Social Skills	Social skills were identified as one of the most influential predictors of organizational adaptation and leadership effectiveness. Employees with strong communication and cooperation abilities contribute positively to teamwork and conflict resolution.

Table 1: Five dimensions of emotional intelligence associated with leadership effectiveness and career success

Discussion. The findings of this study support contemporary psychological theories emphasizing the importance of emotional intelligence in professional achievement and organizational effectiveness. The results confirm Goleman’s argument that emotional competencies often determine workplace success more strongly than technical expertise alone [3].

Modern organizations operate within highly dynamic and stressful environments requiring employees to demonstrate flexibility, emotional resilience, and interpersonal competence. Emotional intelligence enables professionals to adapt successfully to these conditions through effective emotional management and communication.

The study also supports Gardner’s theory of multiple intelligences, which emphasizes interpersonal and intrapersonal abilities as fundamental components of human effectiveness [4]. Emotional intelligence contributes to self-awareness, social adaptation, and collaborative problem-solving, all of which are essential in modern workplaces.

Furthermore, the research demonstrates that emotional intelligence functions as a protective psychological mechanism against occupational stress and burnout. Emotionally intelligent individuals possess stronger coping strategies and maintain greater psychological stability under professional pressure.

Another important implication concerns leadership development. Emotionally intelligent leaders create more supportive and productive organizational environments because they understand employee emotions, maintain effective communication, and manage conflicts constructively [11].

The study additionally highlights the importance of integrating emotional intelligence training into educational systems and organizational development programs. Strengthening emotional competencies may improve employee well-being, organizational productivity, and professional satisfaction.

Conclusion. The relationship between emotional intelligence and professional success has become one of the most important areas of research in contemporary organizational psychology and management studies. The findings of this study clearly demonstrate that emotional intelligence is not merely an additional personal characteristic but a fundamental psychological factor that directly influences workplace effectiveness, leadership quality, interpersonal communication, and career development.

The rapid transformation of modern professional environments, driven by globalization, technological innovation, and increasing organizational complexity, requires employees to possess not only technical knowledge and cognitive competence but also strong emotional and social abilities. In this context, emotional intelligence functions as a critical mechanism that enables individuals to adapt successfully to changing workplace demands, maintain productive professional relationships, and manage emotional challenges effectively.

The theoretical frameworks proposed by Peter Salovey and John D. Mayer confirm that emotional intelligence includes several interconnected competencies such as emotional perception, emotional understanding, emotional regulation, and emotional utilization. These competencies help individuals recognize emotional processes accurately, control behavioral reactions, and use emotional information constructively in decision-making and communication.

Furthermore, Daniel Goleman significantly expanded the practical understanding of emotional intelligence by demonstrating its influence on organizational leadership, teamwork, motivation, and workplace adaptation. Goleman’s dimensions of emotional intelligence — self-awareness, self-regulation, motivation, empathy, and social skills — have become essential indicators of effective professional functioning in modern organizations.

The study findings also reveal that emotionally intelligent professionals demonstrate stronger psychological resilience, greater adaptability, and higher levels of occupational satisfaction. Such individuals are more capable of coping with workplace stress, managing conflicts constructively, and maintaining emotional stability during organizational crises or professional pressure. Emotional intelligence therefore serves as an important protective factor against emotional burnout, communication breakdown, and interpersonal tension.

Another important conclusion concerns leadership effectiveness. Modern organizations increasingly require leaders who are capable of understanding employee emotions, creating psychologically supportive work environments, and motivating teams through empathy and effective communication. Emotionally intelligent leaders establish stronger trust-based relationships, encourage collaboration, and contribute to healthier organizational climates. Consequently, emotional intelligence has become one of the most significant predictors of transformational leadership and organizational success.

The research additionally highlights the importance of social skills and empathy in professional communication. Employees who possess developed interpersonal competencies contribute positively to teamwork, organizational cooperation, and conflict resolution processes. Since modern professional environments rely heavily on collaboration and collective problem-solving, emotional intelligence significantly improves organizational productivity and social harmony within workplaces.

Moreover, the study confirms that emotional intelligence should be considered an essential component of educational and professional development systems. Universities, training centers, and organizations should integrate emotional intelligence development programs into leadership education, personnel training, and human resource management strategies. Such initiatives may improve employee well-being, communication quality, psychological resilience, and organizational efficiency.

In conclusion, professional success in the modern world cannot be explained solely through cognitive intelligence, academic achievement, or technical expertise. Emotional competencies play an equally important role in determining career growth, workplace effectiveness, leadership performance, and psychological stability. Emotional intelligence enables individuals to manage emotions constructively, establish meaningful professional relationships, adapt to organizational challenges, and achieve long-term professional success.

Therefore, strengthening emotional intelligence among professionals should become a strategic priority for organizations, educational institutions, and society as a whole. The development of emotional intelligence contributes not only to individual career advancement but also to organizational sustainability, effective leadership, psychological well-being, and social progress.

References:

1. Sternberg R. J. Successful Intelligence. New York: Simon & Schuster, 1996.
2. Salovey P., & Mayer J. D. “Emotional Intelligence.” Imagination, Cognition and Personality, vol. 9, no. 3, 1990, pp. 185–211.
3. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.
4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983.
5. Mayer J. D., Roberts R. D., & Barsade S. G. “Human Abilities: Emotional Intelligence.” Annual Review of Psychology, vol. 59, 2008, pp. 507–536.
6. Boyatzis R. E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. New York: Wiley, 1982.

7. Gross J. J. “Emotion Regulation: Conceptual and Empirical Foundations.” Handbook of Emotion Regulation, 2007.
8. Maslach C., & Leiter M. P. The Truth About Burnout. San Francisco: Jossey-Bass, 1997.
9. Rogers C. R. On Becoming a Person. Boston: Houghton Mifflin, 1961.
10. Robbins, S. P., & Judge, T. A. Organizational Behavior. Pearson Education, 2017.
11. Bass B. M. Transformational Leadership. New York: Psychology Press, 1998.
12. George, J. M. “Emotions and Leadership: The Role of Emotional Intelligence.” Human Relations, vol. 53, no. 8, 2000, pp. 1027–1055.
13. Rahim, M. A. Managing Conflict in Organizations. New York: Routledge, 2011.
14. Ashforth, B. E., & Saks, A. M. “Socialization Tactics and Newcomer Adjustment.” Academy of Management Journal, 1996.

O’SMIR YOSHLAR ORASIDA OILAVIY MUTOLAANING O‘RNI

Xudayberdiyeva Marxabo Abdukaxorovna,
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Ushbu maqolada o’qish madaniyati va o’qish savodxonligi, o‘smirlarning o’qish savodxonligiga tasir qiluvchi omillar haqida tushunchalar berilgan. Oilaviy kitobxonlikning afzalliklari, oilada kitob o’qish an’analarini davom ettirish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, oila va maktab hamkorligida yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: *o’qish, o’qish savodxonligi, oilaviy kitobxonlik, o’qish madaniyati, oila va maktab hamkorligi, birgalikda o’qish, oilaviy kutubxona, badiiy asarlar, o’smir yoshlar.*

РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ЧТЕНИЯ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ

Эта статья дает представление о культуре чтения и читательской грамотности, а также о факторах, влияющих на читательскую грамотность подростков. Освещены преимущества семейного чтения, вопросы продолжения традиции чтения книг в семье. Кроме того, даны рекомендации по развитию читательской культуры у молодежи во взаимодействии семьи и школы.

Ключевые слова: *чтение, читательская грамотность, семейное чтение, культура чтения, сотрудничество семьи и школы, совместное чтение, семейная библиотека, художественные произведения, подростки.*

THE ROLE OF FAMILY READING AMONG ADOLESCENTS

This article provides an insight into the culture of reading and reading literacy, as well as the factors that influence the reading literacy of teenagers. The advantages of family reading, issues of continuing the tradition of reading books in the family are highlighted. In addition, recommendations are given on the development of a reading culture among young people in the interaction between family and school.

Keywords: *reading, reading literacy, family reading, reading culture, family-school cooperation, shared reading, family library, fiction, teenagers.*

Kirish. Har bir yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish oliy maqsadimiz ekan, yoshlarni ilm nuri hisoblanmish kitobga muhabbat, kitob mutolaasiga qiziqishini oshirishimiz bugungi kunning davr talabi hisoblanadi. Kitob o'qish o'smirlarning dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkurini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o'ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar orasida kitobxonlikni oshirish, oilaviy kitobxonlik an’analarini saqlab qolish milliy ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 22-maydagi F – 33-son “Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo’llab quvvatlash to’g’risida”gi Farmoyishi qabul qilindi[1]. Ushbu qaror orqali kitobxonlikni yangi bosqichga olib chiqish yo’lga qo’yilgan. Mazkur farmoyish orqali rivojlanib kelayotgan o’smir yoshlar o’rtasida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda kitobxonlikni targ’ib etish va ragbatlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kitobxonlik, uning afzalliklari, oilada kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish masalalari ulug‘ mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Bugungi kunda ham respublikamizda bir qator olimlar o’qish madaniyati va oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish bo’yicha izlanishlar olib bormoqdalar. Avvalo, o’qish madaniyati, o’qish savodxonligi tushunchalarini aniqlab olsak.

E.I.Yo'ldoshev o'qish madaniyati tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi”[2,16-b.].

A.Ismoilov fikricha, o‘qish va o‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o‘z aksini topdi. O‘qish faqatgina ta’limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o‘zlashtiriladigan qobiliyat, deb hisoblanmay qo‘ydi. Bugungi kunda bu qobiliyat

shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o‘z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko‘nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta’riflanadi[3,12-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. M.V.Tarabuyeva o’zining maqolasida o‘qish savodxonligini shakllantirishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan bir qator omillar mavjudligini yoritgan. Muallif o‘qish savodxonligini shakllantirish quyidagi omillarga bog`liqligini ta’kidlagan:

-maktab omili;

-o‘qituvchi omili;

-o‘quvchi omili;

- oilaviy muhit[5,33-b.].

Darhaqiqat, bola yillar davomida ta’lim muassasasida turli xildagi ilmiy va badiiy kitoblarni o’qib tarbiyalanadi va sayqallanib boradi. O’quvchilar maktab darsliklaridan nazariy ma’lumotlarni egallasa, badiiy adabiyotlar ularning komil inson bo’lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy kitoblarni o‘qishda o‘quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan matnni o‘qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o‘quvchi matnda (asarda) sodir bo‘ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san’ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o‘z xayolidan o‘tkazishi kerak. Adabiyot yosh o‘quvchilar uchun o‘zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar xayoliy voqealar bo‘lsada, o‘quvchiga ular real hayotda sodir bo‘layotgandek tasavvur uyg‘otadi va o‘quvchiga ularni xayolan boshidan kechirish imkonini beradi[4,13-b]. O’qituvchi esa dars va mashg’ulotlar davomida o’quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirib boradi.

Shuningdek, bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish, ularda kitobga mehr uyg’otishda oilaviy muhit, ya’ni oila davrasida oilaviy kitobxonlik asosida amalga oshirilganda ham samarali va kutilgan natijaga erishiladi.

Rus tadqiqotchisi A.N.Gubaydullina, oilaviy kitobxonlik va birgalikda o'qish tushunchalarini bir-birining o’rnini to’ldiruvchi atama sifatida qo’llagan. U oilaviy kitobxonlik va birgalikda o'qish ko'pincha "kattalar - bola - kitob" uchligidagi o'zaro ta'sirni anglatadi degan fikrni ilgari suradi. Oilaviy kitobxonlikning asosiy motivatsiyasi o’qish savodxonligini o'rgatish, so'z boyligini kengaytirish, intellektual rivojlanish bilan bir qatorda, umumiy tajribalar orqali avlodlararo yaqin aloqalarni shakllantirishdir. Shu bilan birga, birgalikda o'qish ko'pincha oila doirasidan tashqariga chiqadi, bu jarayonda boshqa ijtimoiy institut vakillari - maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab, kutubxona, kitobxonlar klubi va boshqalar jalb qilinadi[7,9-b.].

Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ularda turli xildagi vaziyatlarni idrok etish va ularni bartaraf imkonini beradi. Ayniqsa, oila davrasida birgalikda o’qish va o’qilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bir qancha afzalliklarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, oilaviy o'qish og'zaki muloqotga “ovozli o'qish”ga asoslangan bo'lib, u o'ziga xos yaqinlikni keltirib chiqaradi, ya’ni bir-biriga ishonch, bir-birini tushunish muhitini shakllantirishga yordam beradi, umumiy manfaatlarni birlashtiradi.

Ikkinchidan, oilaviy o'qish “birgalikda o’qish” (lekin jamoaviy emas) ko’nikmasini o'z ichiga oladi. Birgalikda o’qish bolalar, ayniqsa, o’smir yoshlarning ma’naviy, aqliy va hissiy rivojlanishi uchun muhimdir. Shuningdek, oilaviy o’qishda keksalar va kasal oila a’zolari uchun “o’qish” va “tinglash” roli o’zgarishi bilan ularda qulaylik yaratilishi mumkin. Oilaviy kitobxonlik o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining qiziqishlariga asoslanadi, bu esa o‘qish erkinligining yuqori darajasini nazarda tutadi.

Uchinchidan, oilaviy o'qish maxsus turdagi “oilaviy kutubxona” (shaxsiy, xususiy, uyning o’zida) tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Oilaviy o'qish uchun mo'ljallangan uy kutubxonasida, birinchi navbatda, noxush vaziyatlarni o'z ichiga olmaydigan, "ong va qalbga oziqa beradigan", "ijobiy" va "ko'ngilochar" turdagi kitoblar tanlangan. Shunday qilib, oilaviy kitobxonlik kitobxonning didi, xohish-istaklariga qarab oilada badiiy, qiziqarli, ibratli, she’riy asarlarni tanlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, oilaning shakllanishi bilan kechadigan jarayonlar bilan, eng avvalo, ayolning farzand tarbiyasi va kitobxon bo‘lishidagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liqdir.

Beshinchidan, oilaviy o'qish o'qishning deyarli barcha eng muhim funksiyalarini taqdim etadi (bilish, ta'lim olish, rivojlanish, dam olish, ijtimoiylashuv, muloqot va boshqalar) va ular bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi[6,11-b.].

Tahlil va natija. O’rganishlar asosida bolalarda oila va maktab hamkorligida quyidagi ishlar amalga oshirilsa, o’smir yoshlarning kitob va kitobxonlikka bo’lgan qiziqishi ortib samarali natijalarga erishish mumkin.

- Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda oila hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarninng kitobga bo‘lgan munosabatini o‘zgarishiga olib keldi. Bunda “Farzandimga kitob sovg’a qilaman”, “Kutubxonaga tashrif” tadbirlarini tashkillashtirish mumkin.

- O‘qilgan asarning salbiy va ijobiy tomonlarini muhokama qilish o‘quvchining mustaqil fikrga ega bo‘lish ko‘nikmasini shakllantiradi hamda ularni turli vaziyatlarda to’gri yo’l topa olishga tayyorlaydi . Bunda “Badiiy asar muhokamasi” seminar trening yoki sahna ko’rinishi shaklida tashkillashtirilishi mumkin.

- ”Eng yaxshi kitobxon o’quvchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” singari musobaqalarning tashkillashtirilishi o’smir yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirib kitobga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o’smir yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sadoqat, oilaviy qadriyatlarga sodiqlik kabi tuyg’ularni shakllantiradi. Bundan tashqari, kitoblarni tanlash, o’qigan badiiy asardan estetik zavq olish, o’qigan badiiy asarlarni tahlil qilish va ularni qiyin vaziyatlarda qo’llay olish, aniq ma’lumotlarni topa olishga o’rgatadi. Oilaviy kitobxonlik esa o’zgalar bilan muloqot qilib fikr almashish, ijobiy munosabatlarni o’rnatish, o’z fikrini erkin va mustaqil bayon qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Bundan kelib chiqib quyidagi takliflarni ayta olamiz:

1.Ta’lim muassasasida o’smir yoshdagi bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish maqsadida turli xildagi tadbirlarni o’tkazib turish kerak.

2.O’smir yoshdagi bolalarda kitobxonlik qobiliyatini shakllantirish uchun har bir uyda, albatta, uy kutubxonasi tashkil etilishi kerak.Ushbu kutubxonadagi kitoblar turli mavzudagi o’smir yoshlarga qiziqarli bo‘lgan badiiy asarlarni qamrab olishi kerak.

3. Kitoblar bolalarning bo‘sh vaqtini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan joylarda joylashtirilishi va bolaga o‘qish uchun qulay sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak.

4.Ota-onalar bo’sh vaqtlarida ,albatta, farzandlariga kitob o’qish uchun bo’sh vaqt ajratib, “kattalar-bola-kitob” uchligi shakllanishi kerak.

5.O‘qilgan asar uzoq vaqt esda qolishi va qayta hikoya qilish uchun asar nomi, muallifi, undagi qahramonlar va ularning xarakter xususiyatlarini belgilab boradigan qaydlar daftari tutish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 22-maydagi PF – 33-son “Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo’llab quvvatlash to’g’risida”gi Farmoyish

2. E.I.Yo'ldoshev Kutubxonada bolalar o’qish madaniyatini tarbiyalash: o’quv qo’llanma. T.: 1986. – 48 b.

3.Ismoilov A. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining savodxonligini baholash. (o‘quv qo‘llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. – B.12

4.Ismailov A. va boshq.PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi T.: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, 2021-yil. – B.13-14.

5. Тарабуева, М.В. Формирование читательских умений через анализ литературного произведения / М.В.Тарабуева // Начальная школа плюс: до и после. - 2015. - № 1.- С.29-35.

6.Мелентьева Ю.П. Семейное чтение: теоретический аспект / Ю.П. Мелентьева // Библиосфера. - 2011. - №4.- С.11-14

7. В.Н. Горенинцева, А.Н. Губайдуллина, Т.Д. Подкладова Семейное чтение как помогающая практика в условиях социальнокультурных трансформаций Томск : Издательский Дом ТГУ, 2019. - 208 с.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 4-son (127)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.04.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.